

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN
VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

ILM SARCHASHMALARI

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining FILOLOGIYA, FALSAFA, FIZIKA-MATEMATIKA hamda PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrdir.

9.2023

Ilmiy-nazariy, metodik jurnal
2001-yildan nashr qilina boshlagan

Urganch – 2023

“ILM SARCHASHMALARI” ilmiy-nazariy, metodik jurnal

Bosh muharrir, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent **YO'LDOSHEV Ro'zimboy**

TAHRIR HAY'ATI:

ABDULLAYEV Bahrom, fizika-matematika fanlari doktori (UrDU),
ABDULLAYEV Ravshanbek, tibbiyot fanlari doktori, professor (TATU UF),
ABDULLAYEV O'tkir, tarix fanlari doktori (UrDU),
ATADJANOV Ilxam, geografiya fanlari nomzodi, dotsent (UrDU),
ATAYEV Shokir, yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD, UrDU),
BERDIMUROTOVA Alima, falsafa fanlari doktori, professor (QDU),
DAVLETOV Sanjarbek, tarix fanlari doktori, professor (UrDU),
DO'SCHONOV Tangribegan, iqtisod fanlari doktori, professor (UrDU),
ERMETOVA Jamila, filologiya fanlari nomzodi, dotsent (UrDU),
HAJIYEVA Maqsuda, falsafa fanlari doktori, professor (UrDU),
IBRAGIMOV Zafar, fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent (PhD, UrDU),
IMOMQULOV Sevdiyor, fizika-matematika fanlari doktori, professor (NavDPI),
JUMANAZAROV Doniyor, fizika-matematika fanlari doktori (UrDU),
JUMANIYAZOV Maqsud, texnika fanlari doktori, professor (UrDU),
JUMANIYOZOV Otaboy, filologiya fanlari nomzodi, professor (UrDU),
KALANDAROV Aybek, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD, mas'ul kotib, UrDU),
KAVALYAUSKAS Vidas, gumanitar fanlar doktori, professor (Litva universiteti),
NAVRUZOV Qurolboy, fizika-matematika fanlari doktori, professor (UrDU),
OTAMURODOV Sa'dulla, falsafa fanlari doktori, professor (Toshkent, Kimyo-texnologiya instituti),
PRIMOV Azamat, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent (UrDU),
QUTLIYEV Uchqun, fizika-matematika fanlari doktori, professor (UrDU),
RUZMETOV Surojbek, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD, UrDU),
RO'ZIYEV Erkinboy, pedagogika fanlari doktori, professor (UrDU),
SADULLAYEV Azimboy, fizika-matematika fanlari doktori, akademik (O'zMU),
SADULLAYEVA Nilufar Azimovna, filologiya fanlari doktori (O'zMU),
SALAYEV San'atbek, iqtisod fanlari doktori, professor (Xorazm viloyati hokimligi),
SALAYEVA Muxabbat Soburovna, pedagogika fanlari doktori, professor (UrDU),
SATIPOV G'oiptazar, qishloq xo'jalik fanlari doktori, professor (UrDU),
XODJANIYOZOV Sardor, pedagogika fanlari doktori, dotsent (bosh muharrir o'rinbosari, UrDU),
YAKUBOV Jamoliddin, filologiya fanlari doktori, professor (O'zDJTU),
O'ROZBOYEV Abdulla, filologiya fanlari doktori (UrDU),
O'ROZBOYEV G'ayrat, fizika-matematika fanlari doktori (UrDU),
G'AYIPOV Dilshod, filologiya fanlari doktori, dotsent (UrDU).

**JURNAL 2001-YILDAN CHIQA BOSHLAGAN•JURNAL
OYDA BIR MARTA NASHR QILINADI•2023 9 (196)**

MUASSIS: Urganch davlat universiteti•Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2020-yil 11-noyabrda ro'yxatdan o'tgan•**GUVOHNOMA № 1131.**

BUYUK MUTAFAKKIR VA QOMUSIY OLIM ABU RAYHON BERUNIY TAVALLUDINING 1050 YILLIGIGA

Nuraddinova Raviyajan Sultanbayevna (Urganch davlat universiteti
2-bosqich tayanch doktoranti; ravyajon.n@urdu.uz)

ABU RAYHON BERUNIYNING ILM-FAN TARAQQIYOTIGA QO'SHGAN HISSASI

Аннотация. Ushbu maqolada Beruniyning astronomiyaga oid asarlari, qarashlari va ilmiy natijalari, tabiiy-ilmiy merosi, jahon ilm-fani rivojiga qo'shgan hissasining eng muhim yo'nalishlari pedagogik jihatdan tadqiq etiladi.

Аннотация. В данной статье описаны труды Беруни по астрономии, раскрыты его взгляды и научные результаты, его естественно-научное наследие, важнейшие направления его вклада в развитие мировой науки с педагогической точки зрения.

Annotation. This article describes Beruni's works on astronomy, views and scientific results, his natural science heritage, the most important areas of his contribution to the development of world science from a pedagogical point of view.

Kalit so'zlar: ilmiy riyoziy, aloqalik, tarbiya, buloqlarning qaynashi, suvlarning yuqoriga ko'tarilish sababi, sun'iy fontan, tabiiy-ilmiy va falsafiy masalalar, dengizlar va qit'alar, geologiya va geografiya, jahon geografiyasi, dengizlar nazariyasi.

Ключевые слова: математическая наука, связь, воспитание, источник, причина, искусственный фонтан, естественно-научные и философские вопросы, моря и континенты, геология и география, всемирная география, теория морей.

Key words: mathematical science, communication, education, source, reason, artificial fountain, natural science and philosophy, seas and continents, geology and geography, world geography, theory of the seas.

Jahoning eng ulug' va yorqin siymolaridan biri bo'lgan buyuk ajdodimiz Abu Rayhon Beruniy haqida gap ketar ekan, uning jahon ilm-fani, dunyo tamadduni hamda bashariyat oldidagi buyuk xizmatlari, ilm-fanga cheksiz sadoqati, qat'iyati hamda sobitqadamligini ta'kidlamay iloj yo'q. Bu sifatlar har qaysi davrda, ilm yo'lida xizmat qilaman, degan har qanday inson uchun yuksak fidoyilik namunasi bo'lib qolaveradi. Abu Rayhon Beruniy Yerning radiusini, ekvator uzunligini yuqori aniqlik bilan o'lchadi, katta globus yaratdi. Buyuk ajdodimizning g'oyalari fanning, dunyo ilmiy manzarasining va dunyoqarashining fundamental muammolarini tadqiq etishga qaratilgan bo'lib, bu borada zamonaviy fanning buyuk olimlari tomonidan yaratilgan g'oyalar, konsepsiya va nazariyalardan ko'p asrlar avval aytilgan edi. 1035–1036-yillari Beruniy o'zi yozgan asarlari ro'yxatini tuzgan va mazkur ro'yxatda 113 ta asarning nomini keltiradi. Bu asarlardan 70 tasi astronomiyaga, 20 tasi matematikaga, 12 tasi geografiya va geodeziyaga, 3 tasi mineralogiyaga, 4 tasi kartografiyaga, 3 tasi tarixga oid. Agar olimning undan keyin yashagan 13 yil ichida yozgan 50 dan ziyod asarlarini ham qo'shadigan bo'lsak, ularning umumiy soni 160 dan oshadi.

Ayrim manbalarda esa Beruniy 200 ziyod asar yozganligi haqidagi ma'lumotlar ham uchraydi.

Beruniy yozgan har bir asar o'ziga xos ensiklopediya edi. Masalan, uning dastlabki asarlaridan "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" (Al-osor al-boqiya an al-qurun al-xoliya) asari Qadimgi Xorazmda o'tgan xalqlarning, qadimgi yahudiylar, nasroniylar, majusiylar va musulmonlarning urf-odatlari, an'analari, bayramlari, kalendarlari, dinlari, payg'ambarlari, muqaddas kitoblari haqidagi barcha ma'lumotlarni o'zida to'plagan yaxlit ensiklopediya bo'lib, u Yevropada "Xronologiya" nomi bilan mashhurdir.

Beruniyning astronomiyaga oid asarlari, qarashlari va ilmiy natijalari uning tabiiy-ilmiy merosining, jahon ilm-fani rivojiga qo'shgan hissasining eng muhim yo'nalishlaridan birini tashkil etadi. Alomaning o'zi yoshligidan boshlab astronomiyaga qiziqib kelganini ta'kidlaydi: "...Men (avvaldan) ilmiy riyoziyning bir uchiga aloqalik, uni mahkam tutgan va unga mansub bo'lgan edim. O'sha vaqtdan beri himmatim bu ilmdan nariga o'tmagan edi. Mas'udning "Al-hikmat" deb ataluvchi xazinasiga, astronomiya san'atiga xos bir qonun bilan xizmat qilishni ixtiyor etdim".¹ Bu fikrlarga G'arb beruniyshunoslari alohida e'tibor berishadi, chunki ushbu so'zlarda allomaning nafaqat astronomiyaga, balki uning fan sifatidagi xususiyatlariga olamni bilishning o'ziga xos uslub va vositalariga alohida e'tibor bilan yondashgani ham aks etgan. Umuman olganda, Beruniyning astronomiyaga oid tadqiqotlari va ilmiy qarashlari uning bir necha kitob va risolalarida o'z ifodasini topgan. Ularning ba'zilari ko'p qirrali va teran mazmunga ega bo'lib, astronomiya bo'yicha boy materiallarni o'z ichiga oladi. Boshqalari esa ko'proq shu soha bilan

¹ Абу Райхон Беруний. Қонуни Масъудий... 37-bet.

bog'liq bo'lgan alohida muammolarni hal qilishga bag'ishlangan.

Allomaning astronomiyaga oid ishlari batafsil ravishda "Qonuni Mas'udiy" asarida bayon qilingan. Sharq olimlari bu ulkan asarning ahamiyati va kelajagi haqida o'rta asrlardayoq o'z mulohazalarini bildirganlar. Xususan, arab olimi Yoqut al-Hamaviy astronomiya va matematika sohasida bu asarning o'zidan oldingi barcha asarlardan ustunligini ta'kidlagan. Keyingi davrlarning mashhur olimlari Ibn al-Qiftiy, Abul-Fido ham shunga yaqin baho berishgani haqida I.Y.Krachkovskiy o'z tadqiqotlarida ma'lumot berib o'tadi.¹ Beruniyning yulduzlar zijini tuzishi uning astronomiya sohasidagi yirik yutuqlaridan biri hisoblanadi. Uning shu sohadagi xizmatlarini birinchilardan bo'lib rus tadqiqotchilari S.A.Krasnova va M.M.Rojanskayalar tahlil etganlar. Ular mazkur zijni ungacha tuzilgan zijlar bilan qiyoslab chiqqan. Mualliflar ushbu zij o'ziga eng ko'p yulduzlarni qamrab olgani hamda yulduzlar kattaligi va koordinatalarining aniqligi bo'yicha eng ishonchli zij ekanini ta'kidlaganlar.

G'arb olimlari XX asr boshlarida Beruniy tadqiq etgan va katta natijalarga erishgan, jahon astronomiyasida muhim o'rin egallagan alohida muammolar bo'yicha qator maxsus tadqiqotlar olib borishgan. Astronomik geografiya muammolarining Sharq olimlari, jumladan, Beruniy asarlarida tadqiq etilishi, bu borada ular qo'llagan uslublarni yoritishda nemis olimi K.Shoyning tadqiqoti muhim ahamiyatga ega.

Bunda muallif Beruniyning "Qonuni Mas'udiy"da geografik uzunliklarning geodezik usullar vositasida aniqlanishi muammosini tahlil etadi. Alloma tomonidan astronomik asboblarning tavsif etilishi, uning ushbu sohaga qo'shgan hissasini yoritishga bag'ishlangan maqolani nemis olimi E.Videmann nashrdan chiqargan. Ilk G'arb beruniyshunoslari allomaning jahon faniga qo'shgan buyuk hissasi, avvalo, matematika sohasi bilan bog'liqligini ta'kidlaydi. Shu bois beruniyshunoslikdagi tadqiqotlarning salmoqli qismi Beruniyning matematikaga bo'lgan kuchli qiziqishi va iqtidorini ochib berish, fanlarning ko'p sohalarini matematika nuqtayi nazardan talqin etishga harakat qilganini, umuman, bu soha allomaning ilmiy faoliyatida hal qiluvchi rol o'ynaganini ko'rsatishga qaratilgan. Mualliflar uning² matematika sohasida qo'llagan tadqiqot usullari va erishgan yirik natijalarini hozirgi zamon fani nuqtayi nazaridan tahlil etadi. Beruniyning matematikadagi ulkan yutuqlari, o'z navbatida, uning boshqa qator fanlardagi tadqiqotlari uchun muhim omillardan biri bo'lib xizmat qilganini e'tirof etadilar.

Umuman olganda, o'rta asrlarda Yaqin va O'rta Sharq, jumladan, hozirgi O'rta Osiyo hududida matematika sohasida kuzatilgan ulkan muvaffaqiyatlar mahalliy ilmiy an'analar, qadimgi yunon va Sharq zaminida erishilgan yutuqlar o'zaro qorishuvi asosida vujudga kelgani tasdiqdandi.³ G'arb olimlari buni amalga oshirishda ushbu jarayonda Beruniyning ulkan xizmati borligini ham ta'kidlaydilar. Xususan, E. Zaxau hali Beruniy asarlarini nashrdan chiqarmasidanoq uning matematika usullarini keng, hatto shaxmat o'yinida ham qo'llagani haqida yozgan edi. Olim, matematika nuqtayi nazaridan, nafaqat sof ilmiy, balki ba'zi bir ijtimoiy hodisalar, hatto o'yinlarni talqin qilishda yirik natijalarga erishgan.

Ma'lumki, hind raqamlarining musulmon dunyosida ilm-fan sohasiga joriy etilishida Muso Xorazmiyning ishlarini munosib davom ettirgan. Beruniyning ham xizmati katta. Alloma bu borada maxsus asar yozgan. Shu bois alloma ilmiy faoliyatining bu yo'nalishiga G'arb beruniyshunosligining ilk davrida-yoq katta e'tibor berilgan. Avvalo, rus matematiklarining ta'kidlashicha, Beruniy raqam tushunchasini arifmetika faniga kiritgan muhim yangilik sifatida qaraydi va unga kasrlarni joriy etadi.⁴ Beruniy Yerni bevosita o'rganishga bag'ishlangan, uning ayrim o'ziga xos tomonlarini tadqiq etadigan va uyg'un holda umumiy manzarasini yaratadigan geologiya, geografiya va geodeziya fanlariga alohida e'tibor berib, mazkur sohalarida jahon faniga muhim hissa bo'lib qo'shilgan natijalarga erishadi. Masalan, geologiya fani muammolari o'sha davrda katta qiziqish uyg'otishining sababi ushbu fan Yerning umumiy tuzilishi, tarkibi, ularning o'zgarishi va ichki harakatlarini o'rganishga qaratilganligi bilan izohlanadi. Albatta, o'sha davrda geologiya hali mustaqil fan sifatida shakllanmagan edi. Lekin qadimgi va o'rta asrlarda olimlar-ning ushbu muammolar bo'yicha olib borgan ilmiy kuzatuv va tajribalari, chiqargan nazariy xulosalari geologiyaning, keyinchalik, mustaqil fan bo'lib ajralib chiqishiga zamin tayyorladi. Shu sohada eng yirik natijalarga erishgan hamda geologiyaning asoschilaridan biri sifatida dunyo miqyosida tan olingan buyuk vatandoshimiz Abu Rayhon Beruniydir. G'arb beruniyshunosligida uning "Osor ul-boqiya" va "Hindis-ton" dastlabki o'rganish obyekti bo'lgan. Beruniy ushbu asarlarida geologiya, uning ayrim tarkibiy qismlariga taalluqli bir qancha muhim ilmiy muammolarni ko'targani va ularni hal qilish borasida hozirgacha o'z ahamiyatini saqlab kelayotgan

¹ Крачковский И.Ю. Арабская географическая литература. 257 с.

² Звёздный каталог ал-Бируни с приложением каталогов Хайяма и ат-Туси. Перевод С.А.Краснова и М.М. Рожанской Физико-математические исследования. Москва, 1962, вып. VIII, с. 83 – 192.

³ Розенфельд Б.А., Рожанская М.М., Соколовская З.К. Абу-р-Райхан ал-Бируни..., с. 29 – 30.

⁴ Shu manba.

natijalarga erishgani G'arb beruniyshunoslari tomonidan haqli ravishda tan olingan. E.Zaxau Beruniyning "Osor ul-boqiya" asarida muallifning gidrogeologiya va gidrostatika muamolari bo'yicha muhim qarashlari haqida gap ketishini ta'kidlaydi. Buning tasdig'i sifatida tadqiqot-chi Beruniyning quyidagi mulohazalarini keltiradi: "Shu kuni janubdan shamol turib, daryo va kanallar suvlari ko'tariladi, deb gumon qilishadi.¹ Suv ko'tarilishi hamma daryo va kanallarda bir holatda bo'l-maydi, balki juda xilma-xil bo'ladi. Masalan, Amudaryoni olsak, Dajla, Furot va boshqalar [daryolarda] suv ozaygan paytda uning suvi ko'payadi. Chunki eng sovuq joylardan chiqadigan [daryoning] suvi yoz-da ko'payib, qishda ozayadi. Bunga sabab shuki, [bu daryolar] asosiy suvining ko'prog'i buloqlardan yi-g'ilgan bo'lib, buloqlar chiqadigan yoki o'tadigan tog'larga yog'inlar tutib, sel o'sha buloqlarga quyil-ganda, suv ko'payadi, quyilmaganda ozayadi. Boshqa vaqtlardan ko'ra qishda va bahor boshlarida yog'in ko'proq, tushuvi yashirin emas. U tog'lar shimolga kirgani va ularda sovuq qattiq bo'lgani sababli bu yer-larga tushgan yog'inlar shu paytlarda muzlaydi, havo isib, qorlar erigan vaqtda Amu suvi ko'payadi. Daj-la va Furot suviga kelganda, ular shimolga kamroq kirishgan joylardan chiqadi. Shuning uchun yog'inlar yoqqan vaqtda va muzlashga yaqinlashgan [suvlar]ning bahor boshlarida erib tushuvi sababli ikkalasining suvi qishda va bahorda ko'tariladi. Nil daryosida esa Dajla va Furot [suvi] kamayganda, uniki ko'payadi. Chunki aytilishicha, uning manbai Habash mamlakatidagi Asvon shahri orasida bo'lib, janub tomonlarda: yo ekvatorida, yoki uning orqasidagi... Oy tog'idandir".²

Shu masalalar munosabati bilan, Beruniy buloqlar suvining ko'tarilishi sabablarini ochib berishga qaratilgan o'zining yana bir ilmiy-nazariy va katta falsafiy ahamiyatga molik yirik kashfiyoti haqida so'z yuritib, quyidagilarni bayon qiladi: "...buloqlarning qaynash va suvlarning yuqoriga ko'tarilish sababi shuki, suvlarning saqlanib turgan joylari, sun'iy fontanlarniki singari, chiqayotgan joylaridan baland bo'ladi. Suv faqat shunday yo'l bilangina yuqoriga ko'tariladi".³ Beruniy asarlarida tabiiy-ilmiy va falsafiy masalalarning o'zaro chambarchas bog'liqligi, bir-birini u yoki bu darajada belgilashining eng yorqin misollaridan biri sifatida uning ushbu xulosasini keltirish mumkin. G'arb olimlari tomonidan aniqlangan bu ilmiy yangilikni, keyinchalik, qator Sharq va Rossiya olimlari keng qo'llagan hamda o'zlaricha talqin etganlar. Dengizlar va qit'alarining shakllanishi va o'zgarishi kabi geologiya va geografiya sohalariga ta'alluqli muammolar hozirgi zamonda nafaqat nazariy, balki muhim amaliy ahamiyat kasb etib borayotgani ma'lum. Bu masalalarni hal qilishda Beruniyning chuqur nazariy va amaliy yondashuvlari g'oyatda muhim ahamiyat kasb etishini bir necha G'arb va Sharq olimlari ta'kidlab o'tganlar. Chunonchi, yirik rus sharqshunosi I.Y.Krachkovskiy Beruniyning sharq, umuman, jahon geografiyasiga yirik hissa bo'lib qo'shilgan dengizlar nazariyasiga katta baho berib, uning ahamiyatini birinchilardan bo'lib yoritib berishga azm-u qaror qilgan.⁴ Alloma tabiiy-ilmiy qarashlari va yutuqlarining jahon tamadduniga munosib hissa bo'lib qo'shilishi butun sharqning ilk o'rta asrlardagi tabiatshunosligiga qiziqish keskin ravishda oshishiga eng muhim omillardan biri sifatida ta'sir ko'rsatdi. Allomaning ulkan merosini o'rganishda jahon fanida to'plangan boy ilmiy tajriba ham, hech shubhasiz, jiddiy rol o'ynadi.

¹ Abul-Rayhan al-Biruni. The Book of Instruction in the Element of the Art of Astrology. London, 1934, p. 32.

² Абу Райхон Беруний. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар... 305 – 306-бетлар.

³ Уларнинг рўйхати Буало китобида келтирилган. Voilot D.J.L'oeuvre d'al-Beruni. Essai Bibliographique. Institut Dominicain d'etudes orientales du Cairo. Melanges 2, Le Caire, 1955, p. 237.

⁴ Крачковский И.Ю. Бируни и его роль в истории географии. Бируни. Сборник статей. М.–Л, 1950, с. 64.

Aqmonova Laylo Qurbonboy qizi (Urganch davlat universiteti Fizika-matematika fakulteti

“Matematik injiniring” kafedrası o‘qituvchisi; e-mail: laylo.aqmanova1@inbox.ru),

Sharipova Shohista Bakbergan qizi (Urganch davlat universiteti Fizika-matematika fakulteti

“Matematik injiniring” kafedrası o‘qituvchisi; e-mail: shshb1990@gmail.com)

YASSI KANALDA REOLOGIK MURAKKAB SUYUQLIKNING TEBRANMA OQIMI

Annotatsiya. Maqolada bosim gradientining garmonik tebranishi ta’siridagi reologik murakkab suyuqlikning yassi kanaldagi tebranma harakati masalasi yechilgan. Yechim natijasida tezlik profillari taqsimlanishini aniqlovchi formulalar keltirib chiqarilgan. Hisob natijalari shuni ko‘rsatdiki, tebranish chastotasi parametrining va Debora sonining kichik qiymatlarida, reologik murakkab suyuqliklarning tebranma oqimida suyuqlikning elastiklik xususiyati tezliklar taqsimoti profiliga va boshqa gidrodinamik kattaliklarga deyarli ta’sir etmasligi ko‘rsatilib, tebranma oqimida tezliklar taqsimoti va boshqa gidrodinamik kattaliklarning o‘zgarishi Nyuton suyuqligidagi kabi ro‘y berishi aniqlangan. Tebranish chastotasi parametrining va Debora sonining katta qiymatlarida, reologik murakkab suyuqliklarning tebranma oqimida suyuqlikning elastiklik xususiyati tezliklar taqsimoti profiliga va boshqa gidrodinamik kattaliklarga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi va bunda reologik murakkab suyuqliklarning tebranma oqimida M-simon taqsimot Nyuton suyuqligidagi taqsimotga qaraganda tebranish chastotasi parametrining kichik qiymatlarida ham ro‘y berishi mumkinligi aniqlangan.

Аннотация. В статье рассматривается задача о колебательном движении сложной по реологическим свойствам жидкости в плоском канале под влиянием гармонических колебаний градиента давления. Результатом решения найдены формулы, определяющие распределение профилей скоростей. Результаты расчета показали, что при малых значениях параметра частоты колебаний и числа Девора свойство упругости жидкости в колебательном потоке сложных по реологическим свойствам жидкостей практически не влияет на профиль распределения скоростей и другие гидродинамические величины. В колебательном потоке реологических сложных жидкостей при больших значениях параметра частоты колебаний и числа Девора было обнаружено, что свойство упругости жидкости оказывает значительное влияние на распределения профиля скоростей и другие гидродинамические величины. В этом случае M-образные распределения скоростей может иметь место даже при малых значениях параметра частоты колебаний.

Annotation. The article considers the problem of the oscillatory motion of a fluid with complex rheological properties in a flat channel under the influence of harmonic oscillations of the pressure gradient. As a result of the solution, formulas were found that determine the distribution of velocity profiles. The calculation results showed that for small values of the oscillation frequency parameter and the Debord number, the elasticity property of a liquid in an oscillatory flow of liquids with complex rheological properties has practically no effect on the velocity distribution profile and other hydrodynamic quantities. In an oscillatory flow of rheological complex fluids at large values of the oscillation frequency parameter and the Debord number, it was found that the elasticity property of the fluid has a significant effect on the velocity profile distributions and other hydrodynamic quantities. In this case, M-shaped velocity distributions can take place even for small values of the oscillation frequency parameter.

Kalit so‘zlar: tebranish harakati, suyuqlik, suyuqlikning reologik xossalari, tezlik profili, tebranish chastotasi, Dibord soni, gidrodinamik kattaliklar, suyuqlikning elastikligi, parametrlari.

Ключевые слова: колебательное движение, жидкость, реологические свойства жидкости, профиль скорости, частота колебаний, число Девора, гидродинамические величины, упругость жидкости, параметры.

Key words: oscillatory motion, liquid, rheological properties of liquid, velocity profile, oscillation frequency, Debord number, hydrodynamic quantities, elasticity of liquid, parameters

Texnik va texnologik jaraenlarda kanal va quvurlardan tebranma oqim hosil qilib oqib o‘tuvchi suyuqliklar harakati, suyuqliklarning reologik xossalari bog‘liq bo‘lib, u ba’zi hollarda noan’anaviy gidrodinamik hodisalarni yuzaga keltirishi mumkin. Shu boisdan ushbu maqolada yassi kanalda reologik murakkab suyuqliklarning tebranma oqimi haqidagi konkret masala yechiladi. Bunda asosiy maqsad, reologik murakkab suyuqliklarning harakatini soddalashtirilgan matematik modellar asosida tadqiq etish va olingan natijalarni xususiy holda nyuton suyuqligi tebranma oqimidagi mavjud gidrodinamik qonunyatlar bilan solishtirish, natijada, undan farq qiluvchi xususiyatlarini aniqlab, reologik murakkab suyuqliklarning gidrodinamik xarakteristikalariga bog‘liq bo‘lgan yangi gidrodinamik ef-fektlarni yaratishdan iboratdir.

Ma'lumki, suyuqliklar oqimida o'tish jarayonlari paydo bo'lmaydigan statsionar tebranma oqimlar fanda, qishloq xo'jaligining suyuqlik harakati bilan bog'liq bo'lgan sohalarida va texnologik jarayonlarda alohida qiziqish uyg'otadi. Bunday jarayonlarda suyuqlik harakati statsionar rejimda ro'y bersa ham tebranma harakat mavjudligi sababli, qaralayotgan jarayon vaqtning davriy funksiyasidan iborat bo'ladi. Bu holda suyuqlikning tebranishlari har bir davrida bir xil holatda ro'y beradi deb qaraladi. Shuning uchun ham suyuqlikning tebranma oqimiga oid masalalarni yechishda, vaqtning davriy funktsiyalardan foydalanish mumkin, bu xususiyat reologik murakkab suyuqliklarning tebranma oqimi-ni ifoda qiluvchi differensial tenglamalar sistemasini yechishni ancha osonlashtiradi va bunday hol-larda differensial tenglamalar sistemasini yechish uchun boshlang'ich shartlarni qo'yish talab qilin-maydi

Yurtimiz va xorij olimlari tomonidan nyuton suyuqligining yassi kanal va quvurlardagi tebranma oqimlariga ko'plab ilmiy va amaliy tadqiqotlar bag'ishlangan. Jumladan,[1.2] tadqiqot ishlarida tebranuvchi qovushoq suyuqliklarning kanal va quvurlardagi statsionar tebranma oqimlari yetarli darajada tadqiq qilingan. Birinchi bo'lib Uomerslining [3.6] qovushoq suyuqliklarning tebranma oqimiga bog'ishlangan ilmiy tadqiqot ishlari biomexanikaning qon aylanish tizimiga tatbiq qilingan. Bunda qon nyuton suyuqligi sifatida qaralib, uning oqimi bosim gradientining sinusoidal va umumiy holda Furbe qatori yordamida ifodalangan funksiya ta'sirida vujudga kelishi orqali tavsiflangan. Ke-yingi yillarda qovushoq suyuqligi sifatida qaralgan qonning laminar pulslanuvchi oqimiga bag'ishlangan biomexanik tadqiqotlar inson organizmining ishlash mexanizmini tashxislashda va davolashda dori-darmonlarni tomirlarga maqsadli yetkazib berishda muhim omil bo'lib kelmoqda [7]. Ayniqsa, bu tadqiqotlar tibbiyot sohasida ishlatiladigan mikrochip va pnevmatik mikronasos qurilmalarini samarali ishlatishda ahamiyatlidir [8]. Bu qurilmalarda suyuqlik oqimi ko'ndalang kesimi to'g'ri to'rtburchak-dan iborat bo'lgan prizmatik kanallardagi suyuqlikning laminar tebranma oqimi sifatida qaraladi. Af-suski, bunday oqim masalalariga bag'ishlangan ilmiy tadqiqot ishlari yetarli darajada emas. Mavjud-lari ham mikrokanallardagi suyuqlik (qon)ning pulslanuvchi oqimiga bag'ishlangan tajriba natijalari-dan iborat. Y.P.Valiyeva, M.S.Purdinning [9.10] ilmiy tadqiqot ishlarida quvur va yassi kanallardagi laminar pulslanuvchi oqimi va issiqlik almashinuvi masalalari qaralgan. Bu yerda asosiy tebranishni hosil qiluvchi kattalik sifatida, kanalning ko'ndalang kesimi bo'yicha o'rtalashtirilgan bo'ylama tez-likning boshlang'ich kesimdagi vaqt bo'yicha sinusoidal davriy ravishda o'zgaruvchi funksiyasi qabul qilingan. Qo'yilgan masala chekli ayirmalar metodi asosida yechilgan. Yechim natijasi orqali gidrav-lik qarshilikning va devordagi urinma kuchlanishning tebranish amplitudasi va fazasi bo'yicha o'zga-rishi tahlil qilingan. Tahlil natijalari [11] ishdagi analitik yechim va tajriba orqali olingan natijalar bi-lan solishtirilgan va natijalarning bir-biriga mos kelishi aniqlangan.

Kanal va quvurlardagi tebranma oqimlar nyuton suyuqligi sifatida qaralgan xolatlari yetarlicha tadqiq qilinishiga qaramasdan, reologik murakkab suyuqliklarning bu sohada oqimlariga juda kam tadqiqot ishlari bag'ishlangan. Bu sohada reologik murakkab suyuqliklarning tebranma oqimiga Maksvellning umumlashgan modellarini qo'llash orqali olib borilgan tadqiqot ishlar yetarli darajada emas. Ma'lumki, Maksvellning umumlashgan modellari suvda eritilgan polimer eritmaları, loyqa suv aralashmalari, neft mahsulotlari, va boshqa shunga o'xshash suyuqliklarning tebranma harakatini xarakterlashda muhim rol o'ynaydi. Shu boisdan ushbu maqolada Maksvellning umumlashgan modellari asosida yassi kanallardagi reologik murakkab suyuqliklarning tebranma oqimlari masalalari tadqiq qilinadi.

1. Masalaning qo'yilishi va yechish metodikasi. Masalani shakllantirishda yassi kanal devor-lar orasidagi masofa $2h$, kanal uzunligi L deb belgilanadi. Bu yerda L yetarlicha katta bo'lib, bunda $h/L \ll 1$, shart bajarilishi ta'minlanadi. Bunday hollarda oqim stabillashgan bo'lib, ko'ndalang tezlik qiymati nolga teng bo'ladi. Kanal o'qlari esa quyidagicha aniqlanadi, X o'qi kanal o'r-tasi bo'ylab, gorizontal yo'nalish bo'yicha yo'naltiriladi va bo'ylama o'q deb ataladi, Y o'qi esa X o'qiga perpendikular qilib vertikal yo'nalishda olinadi va vertikal o'q deb yuritiladi. Bu paragrafda, vaqt bo'yicha davriy ravishda o'zgaruvchi bosim gradientining ta'sirida bo'ladigan yassi kanallardagi reologik murakkab suyuqliklarning tebranma oqimiga bag'ishlangan masalalar yechiladi va tadqiq qilinadi. Bunda bosim gradientining vaqt bo'yicha sinusoidal ko'rinishda o'zgarishi orqali aniqlanadi

$$\left(-\frac{\partial p(t)}{\partial x}\right) = \left(-\frac{\partial p_0}{\partial x}\right) + \left(-\frac{\partial p_1}{\partial x}\right) \cos \omega t. \quad (1)$$

Bu yerda $\left(-\frac{\partial p_0}{\partial x}\right)$ – statsionar oqimdagi bosim gradienti; $\left(-\frac{\partial p_1}{\partial x}\right)$ – tebranma oqimda tebranish amplitudasining o‘zgarishini ifoda qiluvchi bosim gradienti; ω – tebranish chastotasi; t – vaqt.

Reologik murakkab suyuqlikning tebranma harakat differensial tenglamalari sistemasi, soddalashtirilgan harakat differensial tenglamalar sistemasi ko‘rinishda quyidagicha ifodalanadi [12.18]:

$$\begin{cases} \frac{\partial u}{\partial t} = -\frac{1}{\rho} \frac{\partial p}{\partial x} + \frac{1}{\rho} \frac{\partial \tau}{\partial y}, & \frac{\partial p}{\partial y} = 0, \\ \tau = \tau_s + \tau_p, \tau_s = \eta_s \frac{\partial u}{\partial y}, \lambda \frac{\partial \tau_p}{\partial t} + \tau_p = \eta_p \frac{\partial u}{\partial y} \\ \eta_0 = \eta_s + \eta_p \end{cases} \quad (2)$$

Oqim yassi kanal bo‘ylama o‘qi bo‘yicha simmetrik bo‘lganligi uchun chegaraviy shartlar quyidagicha shakllantiriladi:

$$\begin{aligned} y = h \text{ da } u &= 0, \\ y = 0 \text{ da } \frac{\partial u}{\partial y} &= 0. \end{aligned} \quad (3)$$

Ushbu masalada suyuqlikning stabillashga tebranma oqimi qaralayotganligi uchun boshlang‘ich shartlar talab qilinmaydi.

Suyuqlikning statsionar oqimi Puazeyl oqimidan iborat bo‘ladi.

Reologik murakkab suyuqliklarning tebranma oqimlari, (2) differensial tenglamalar sistemasi quyidagi ko‘rinishga keladi:

$$\begin{cases} i\omega u_1 = -\frac{1}{\rho} \frac{\partial p_1}{\partial x} + \frac{1}{\rho} \frac{\partial \tau_1}{\partial y}, \\ \tau_1 = \tau_s + \tau_p, \tau_s = 2\eta_s D_{21}, \\ i\lambda\omega\tau_p + \tau_p = 2\eta_p D_{21} \\ D_{21} = \frac{1}{2} \frac{\partial u_1}{\partial y}, \eta = \eta_s + \eta_p \end{cases} \quad (4)$$

Chegaraviy shartlar esa quyidagicha aniqlanadi:

$$\begin{aligned} y = h \text{ da } u_1 &= 0, \\ y = 0 \text{ da } \frac{\partial u_1}{\partial y} &= 0. \end{aligned} \quad (5)$$

Hosil qilingan (4) tenglamalar sistemasidagi ikkinchi tenglamadan beshinchi tenglamagacha bo‘lgan tenglamalardan foydalanib, urunma kuchlanishni aniqlash uchun ushbu ko‘rinishdagi tenglamani hosil qilamiz:

$$\tau_1(y) = \eta \left(\frac{\eta_s}{\eta} + \frac{\eta_p}{\eta} \frac{1}{1 + i\omega\lambda} \right) \frac{\partial u_1}{\partial y}. \quad (6)$$

Urunma kuchlanishning topilgan (6) qiymatini (4) tenglamalar sistemasining birinchi tenglamasiga qo‘yish natijasida ushbu tenglama hosil qilinadi:

$$\frac{\partial^2 u_1}{\partial y^2} - \frac{\rho i \omega}{\eta \eta^*(i\omega)} u_1 = \frac{1}{\eta \eta^*(i\omega)} \frac{\partial p_1}{\partial x}. \quad (7)$$

Bu yerda $\eta^*(i\omega) = \left(\frac{\eta_s}{\eta} + \frac{\eta_p}{\eta} \frac{1}{1+i\omega\lambda} \right) = \left(X_1 + Z_1 \frac{1}{1+i\omega\lambda} \right)$

Aniqlangan (7) tenglamaing bir jinsli qismining fundamental yechimlari

$$\cos\left(i^{\frac{3}{2}} \alpha_0 \sqrt{\frac{1}{\eta^*(i\omega)} \frac{y}{h}}\right) \text{ ba } \sin\left(i^{\frac{3}{2}} \alpha_0 \sqrt{\frac{1}{\eta^*(i\omega)} \frac{y}{h}}\right)$$

funksiyalardan iborat bo'lib, bir jinsli qismining umumiy yechimi quyidagi ko'rinishda topiladi:

$$u_1(y) = C_1(x) \cos\left(i^{\frac{3}{2}} \alpha_0 \sqrt{\frac{1}{\eta^*(i\omega)} \frac{y}{h}}\right) + C_2(x) \sin\left(i^{\frac{3}{2}} \alpha_0 \sqrt{\frac{1}{\eta^*(i\omega)} \frac{y}{h}}\right). \quad (8)$$

Tenglamaning bir jinsli bo'lmagan qismi o'zgaras bo'lganligi sababli, uning yechimi ushbu ko'rinishda axtariladi: $u_1^* = A$, bu holda $\frac{\partial^2 u_1^*}{\partial y^2} = 0$ bo'lib, (7) tenglamaning bir jinsli bo'lmagan qismi yechimi $u_1^* = \frac{1}{\rho i \omega} \left(-\frac{\partial p_1}{\partial x}\right)$ bo'ladi. Bularni e'tiborga olgan holda, masalaning umumiy yechimi quyidagicha aniqlanadi:

$$u_1(y) = C_1(x) \cos\left(i^{\frac{3}{2}} \alpha_0 \sqrt{\frac{1}{\eta^*(i\omega)} \frac{y}{h}}\right) + C_2(x) \sin\left(i^{\frac{3}{2}} \alpha_0 \sqrt{\frac{1}{\eta^*(i\omega)} \frac{y}{h}}\right) + \frac{1}{\rho i \omega} \left(-\frac{\partial p_1}{\partial x}\right) \quad (9)$$

Topilgan (9) yechimdagi noma'lum integral koeffitsiyentlar (5) chegaraviy shartdan topiladi.

$$u_1(y) = \frac{1}{\rho i \omega} \left(-\frac{\partial p_1}{\partial x}\right) \left[1 - \frac{\cos\left(i^{\frac{3}{2}} \alpha_0 \sqrt{\frac{1}{\eta^*(i\omega)} \frac{y}{h}}\right)}{\cos\left(i^{\frac{3}{2}} \alpha_0 \sqrt{\frac{1}{\eta^*(i\omega)} \frac{1}{h}}\right)} \right] \quad (10)$$

Bu yerda $\alpha_0 = \sqrt{\frac{\omega}{v} h}$, $v = \frac{\eta}{\rho}$.

Topilgan (10) yechim uchun quyidagicha yakuniy yechim aniqlanadi:

$$u_1(y,t) = \frac{h^2}{\eta} \left(-\frac{\partial p_1}{\partial x}\right) \left[\text{real} \left[\frac{1}{i\alpha_0^2} \left(1 - \frac{\cos\left(i^{\frac{3}{2}} \alpha_0 \left(\frac{1}{\eta^*(i\omega)}\right)^{\frac{1}{2}} \frac{y}{h}\right)}{\cos\left(i^{\frac{3}{2}} \alpha_0 \left(\frac{1}{\eta^*(i\omega)}\right)^{\frac{1}{2}}\right)} \right) e^{i\omega t} \right] \right] \quad (11)$$

Tezlik uchun hosil qilingan (11) yechimni, uning stasionar holatdagi maksimum tezligiga bo'lish natijasida, ushbu ko'rinishdagi o'lchamsiz holdagi yechim topiladi:

$$\frac{u_1(y,t)}{u_{1 \max}^0} = 2 \left(-\frac{\partial \bar{p}_1(x)}{\partial x}\right) \text{real} \left[\frac{1}{i\alpha_0^2} \left(1 - \frac{\cos\left(i^{\frac{3}{2}} \alpha_0 \left(\frac{1}{\eta^*(i\omega)}\right)^{\frac{1}{2}} \frac{y}{h}\right)}{\cos\left(i^{\frac{3}{2}} \alpha_0 \left(\frac{1}{\eta^*(i\omega)}\right)^{\frac{1}{2}}\right)} \right) e^{i\omega t} \right] \quad (12)$$

Bu yerda $(-\frac{\partial p_1}{\partial x})/(-\frac{\partial p_{10}}{\partial x}) = -\frac{\partial \bar{p}_1}{\partial x}$, $u_{1 \max}^0 = \frac{1}{2\eta} \left(\frac{p_1^0 - p_1^L}{L} \right) h^2$. – nyuton suyuqligi

statsionar oqimning maksimal tezligi.

2. Sonli hisob natijalari va tahlili. Reologik murakkab suyuqlikning yassi kanaldagi tebranma oqimi masalasini yechish natijasida topilgan (12) formula kompleks o'zgaruvchini o'z ichiga olganligi sababli uning haqiqiy va mavhum qisimlarini ajratish zarur bo'ladi

$$\frac{u(y,t)}{u_{0 \max}} = \left(1 - \frac{y^2}{h^2} \right) + 2\Lambda W. \quad (13)$$

Bu yerda: o'ng tomondagi birinchi had $\left(1 - \frac{y^2}{h^2} \right)$ – tezlikning statsionar tashkil etuvchisi, ikkin-chi had ΛW esa tebranma oqimdagi tezlikning o'zgarishini aniqlovchi kattalik bo'ladi, bu yerda $\Lambda = \left(-\frac{\partial p_1}{\partial x} \right) \cdot W$ ifodaning haqiqiy qismini ajratish orqali, u ushbu ko'rinishga keltiriladi:

$$2W = 2 \frac{\sin \omega t}{\alpha_0^2} - \frac{2}{\alpha_0^2 (\bar{A}^2 + \bar{B}^2)} \left[\left(\bar{A} \cos M_1 \bar{y} \operatorname{ch} \bar{M}_1 \bar{y} - \bar{B} \sin M_1 \bar{y} \operatorname{sh} \bar{M}_1 \bar{y} \right) \times \right. \\ \left. \times \cos \omega t + \left(\bar{B} \cos M_1 \bar{y} \operatorname{ch} \bar{M}_1 \bar{y} + \bar{A} \sin M_1 \bar{y} \operatorname{sh} \bar{M}_1 \bar{y} \right) \sin \omega t \right]. \quad (14)$$

Keltirilgan (14) formula tashqi ko'rinishdan [18] ishda keltirilgan formulaga o'xshash bo'lsa ham, bu yerdagi \bar{A} , \bar{B} , M_1 , \bar{M}_1 koeffitsiyentlar bir-biridan tubdan farq qiladi, bu koeffitsiyentlar reologik murakkab suyuqlik uchun quyidagicha aniqlanadi:

$$\bar{A} = \sin M_1 \operatorname{sh} \bar{M}_1, \quad \bar{B} = \cos M_1 \operatorname{ch} \bar{M}_1, \quad \bar{y} = \frac{y}{h},$$

$$i^{\frac{3}{2}} \alpha_0 \left(\frac{1}{\eta^*(i\omega)} \right)^{\frac{1}{2}} = \left(-\frac{\alpha_0}{\sqrt{2}} + \frac{\alpha_0}{\sqrt{2}} i \right) (\bar{G}_1 + \bar{G}_2 i) = -\frac{\alpha_0}{\sqrt{2}} (1-i)(\bar{G}_1 + \bar{G}_2 i) = \\ = -\frac{\alpha_0}{\sqrt{2}} [(\bar{G}_1 + \bar{G}_2) - (\bar{G}_1 - \bar{G}_2) i] = -\frac{\alpha_0}{\sqrt{2}} (\bar{\bar{G}}_1 - \bar{\bar{G}}_2 i) = \\ \left(-\frac{\alpha_0}{\sqrt{2}} \bar{\bar{G}}_1 + \frac{\alpha_0}{\sqrt{2}} \bar{\bar{G}}_2 i \right) = M_1 + \bar{M}_1 i, \quad \bar{\bar{G}}_1 = \bar{G}_1 + \bar{G}_2, \quad \bar{\bar{G}}_2 = \bar{G}_1 - \bar{G}_2,$$

$$M_1 = -\frac{\alpha_0}{\sqrt{2}} \bar{\bar{G}}_1, \quad \bar{M}_1 = \frac{\alpha_0}{\sqrt{2}} \bar{\bar{G}}_2, \quad \sqrt{\frac{1}{\eta^*(i\omega)}} = \sqrt{G_1 + G_2 i} = \bar{G}_1 + \bar{G}_2 i,$$

$$\bar{G}_1 = \sqrt{\sqrt{G_1^2 + G_2^2}} \cos \frac{\varphi + 2n\pi}{2}, \quad \bar{G}_2 = \sqrt{\sqrt{G_1^2 + G_2^2}} \sin \frac{\varphi + 2n\pi}{2}, \quad n = 0, 1$$

$$\varphi = \operatorname{arctg} \frac{G_2}{G_1}, \quad \frac{1}{\eta^*(i\omega)} = \frac{1 + De^2 X_1 \alpha_0^4 + i De \alpha_0^2 (1 - X_1)}{1 + De^2 X_1^2 \alpha_0^4} = G_1 + G_2 i$$

$$G_1 = \frac{1 + De^2 X_1 \alpha_0^4}{1 + De^2 X_1^2 \alpha_0^4}, \quad G_2 = \frac{De \alpha_0^2 (1 - X_1)}{1 + De^2 X_1^2 \alpha_0^4}$$

$$\eta^*(i\omega) = \left(\frac{\eta_s}{\eta} + \frac{\eta_p}{\eta} \frac{1}{1 + iDe\alpha_0^2} \right) = \left(X_1 + Z_1 \frac{1}{1 + iDe\alpha_0^2} \right) =$$

$$\frac{1 + iDeX_1\alpha_0^2}{1 + iDe\alpha_0^2}, \quad \frac{\eta_s}{\eta} + \frac{\eta_p}{\eta} = 1 \quad X_1 = \frac{\eta_s}{\eta}, \quad Z_1 = \frac{\eta_p}{\eta}, \quad X_1 + Z_1 = 1,$$

$$De = \frac{\lambda\eta}{\rho h^2}, \quad \alpha_0^2 = \frac{\omega}{\nu} h^2.$$

Bu koeffitsiyentlar xususiy holda Nyuton suyuqligi uchun juda sodda ko‘rinishga keladi:

$$\bar{A} = \sin M_1 sh \bar{M}_1, \quad \bar{B} = \cos M_1 ch \bar{M}_1, \quad \bar{y} = \frac{y}{h},$$

$$\alpha_0 = \sqrt{\frac{\omega}{\nu}} h, \quad i^{\frac{3}{2}} \alpha_0 = M_1 + \bar{M}_1 i, \quad M_1 = -\frac{\alpha_0}{\sqrt{2}}, \quad \bar{M}_1 = \frac{\alpha_0}{\sqrt{2}}.$$

Reologik murakkab suyuqlikning tebranma oqimida tezlikning o‘zgarishi De -Debor soni yoki elastiklik soniga bog‘liq ravishda o‘zgaradi va uning Nyuton suyuqligi tezligidan farq qilishini ta’kid-


lash lozim. Bunda $T_{\text{enuu}} = \frac{\rho h^2}{\eta}$ kanalda yopishqoq suyuqlikning siljish to‘lqin tarqalishini xarakterli

vaqti bilan, elastiklik soni bir-biriga bog‘langanligi, ya’ni, $De = \frac{\lambda\eta}{\rho h^2} = \frac{\lambda}{T_{\text{enuu}}}$ ekanligi sababli yassi ka-

nalda elastik yopishqoq suyuqlik tebranma oqimlarini ikkita son: De elastiklik soni va Reynolds tebranish soni $Re_\omega = \frac{\rho \omega h^2}{\eta}$ bilan xarakterlash mumkin. Agar $De \ll 1$ bo‘lsa, u holda suyuqlik-

ning elastiklik xususiyati tezliklar taqsimoti profiliga ta’sir etmaydi, ya’ni, tebranma oqimda tezliklar taqsimoti deyarli Nyuton suyuqligidagi kabi ro‘y beradi.


1-rasmda $\omega t = 0$ bo‘lgandagi Nyuton va reologik murakkab suyuqliklarning tebranma oqimda tebranishlar chastotasiga bog‘liq bo‘ylama tezlikning kanal kesimi bo‘yicha taqsimlanishi ko‘rsatilgan. Rasmdan ko‘rinadiki, Nyuton suyuqliklari tebranma oqimda tebranishlar chastotasining kattalashgan qiymatlarida tezlik tebranish amplitudasi kamayib borar ekan.



1-rasm.


Yassi kanal kesimi bo‘yicha bo‘ylama tezlik tashkil etuvchisining tebranma oqimdagi $\omega t = 0$, $\alpha_0 = 1$ bo‘lganda; 1 chiziq Nyuton suyuqligi 2–4-chiziqlar $De = 1$ bo‘lgandagi va Nyuton suyuqligining har xil konsentratsiyalaridagi reologik murakkab suyuqlikning grafiklari taqsimoti.

Reologik murakkab suyuqliklarning tebranma oqimida esa bunga teskari bo‘lgan holat ro‘y beradi, ya’ni, tebranishlar chastotasining bir soniga yaqinlashgan qiymatlarida tezlik tebranish amplitudasi kattalashadi. Bu holat 1-rasmning 2–4-chiziqlariga mos keluvchi grafiklarida tasvirlangan. Lekin reologik murakkab suyuqlik oqimida $De \geq 2$ bo‘lganda M – simon tezlik taqsimotlari Nyuton suyuqlik oqimidagi tezlik taqsimotlariga qaraganda tebranish sonining katta bo‘lmagan musbat qiymatlarida ham paydo bo‘lishi kuzatiladi (2-rasm).



2-rasm.

Yassi kanal kesimi bo‘yicha bo‘ylama tezlik tashkil etuvchisining tebranma oqimdagi $\omega t = 0$, $\alpha_0 = 2.5$ bo‘lganda; 1 chiziq Nyuton suyuqligi 2–4-chiziqlar $De = 1$ bo‘lgandagi va Nyuton suyuqligining har xil konsentratsiyalaridagi reologik murakkab suyuqlikning grafiklari taqsimoti.



3-rasm.

Yassi kanal kesimi bo‘yicha bo‘ylama tezlik tashkil etuvchisining tebranma oqimdagi $\omega t = 0$, $\alpha_0 = 3$ bo‘lganda; 1 chiziq Nyuton suyuqligi 2–4-chiziqlar $De = 1$ bo‘lgandagi va Nyuton suyuqligining har xil konsentratsiyalaridagi reologik murakkab suyuqlikning grafiklari taqsimoti.

Bu yechim natijalaridan kelib chiqqan holda, quyidagi limitik hollar alohida qiziqish uyg‘otadi:

- 1) $1 \gg Re_\omega \gg De$, 4) $Re_\omega \gg De \gg 1$,
- 2) $Re_\omega \gg 1 \gg De$, 5) $De \gg 1 \gg Re_\omega$,
- 3) $1 \gg De \gg Re_\omega$, 6) $De \gg Re_\omega \gg 1$.

Birinchi va uchinchi hollarda suyuqlik harakati inersiyasiz ro‘y beradi, ya’ni bu hollarda reologik murakkab suyuqlik oqimida bo‘ylama tezlik Nyuton suyuqligidagi kabi parabolik qoida bilan taqsimlanadi. Bu hollarda tezlik, suyuqlik sarfi va boshqa gidrodinamik xarakteristikalar bosim o‘zgarishiga mos ravishda bir xil fazada tebranadi. Ikkinchi holda elastiklik xossalarini hisobga olgan holda, suyuqlikning ko‘chish jarayonlari, inertsia va chegaraviy qatlam bilan aniqlanadi. Bunda reologik murakkab suyuqlik o‘zini yopishqoq Nyuton suyuqligi kabi tutadi, chunki relaksatsiya vaqti yopishqoq

suyuqlikning gidrodinamik xarakterli vaqtdan juda kichik. Beshinchi holda, ya'ni Rey-nolds tebranish soni birdan ancha kichik bo'lganida, Nyuton suyuqligida tezlik o'zgarishi parabolik xarakterga, reologik murakkab suyuqlikda esa pulsatsiyali xarakterda bo'ladi. To'rtinchi va oltinchi hollarda jiddiy o'zgarishlar ro'y beradi. Bu yerda tezlik tebranish fazasi bosim gradienti o'zgarish fa-zasidan ilgarilab ketishi va tezlik profilining parabolik ko'rinishdan chetlanishi ro'y berishini kuzatish mumkin. Bu holda suyuqlikning elastiklik xossalari ham tebranish jarayoniga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. $Re_{\omega} \gg 1$ ning katta qiymatlarida kanallarda reologik murakkab va Nyuton suyuqlik oqimlarida tezlik taqsimotlarida M – simon profillar paydo bo'ladi, ya'ni, suyuqlik zarrachalarining maksimal sil-jishi devor oldida, markazda esa kichik siljishi ro'y beradi. Reologik murakkab suyuqlik oqimida bo'ylama tezlik taqsimotlari turli kesmalarda turlicha ro'y berishi, hatto qarama-qarshi yo'nalishlar-dagi oqimlar hosil bo'lishi ham mumkin (2.3-rasm). Yopishqoq suyuqlikning tebranma oqimida tebranish effektlarining paydo bo'lishi suyuqlik inersiyasi va yopishqoq suyuqlik ishqalanishi bilan bog'liq.

Tebranish chastotasining katta qiymatlarida inersiyaning mavjudligi ahamiyatga ega. Bosim gradienti o'zgarishi ta'sirida tebranish chastotasining katta qiymatlarida suyuqlikning yopishqoqlik xususiyatining mavjudligi tufayli devorga yaqin bo'lgan qatlamlarida tezlik o'zgarishi oqim yadrosidagiga qaraganda tezroq ro'y beradi. Natijada devor oldidagi suyuqlik tezligi bosim gradienti ishorasi o'zgarishi ta'sirida ishorasini o'zgartirishi mumkin, bu vaqtda oqim yadrosida inersiya hisobiga ha-rakat avvalgi "eski" yo'nalishda davom etayotgan bo'ladi. Bunday holatning ro'y berishi tebranma oqimda tezliklar taqsimoti profillarida M – simon profilning paydo bo'lishi bilan izohlanadi.

3. Xulosa. Tebranish chastotasi parametrining va Debor sonining kichik qiymatlarida, reologik murakkab suyuqliklarning tebranma oqimida suyuqlikning elastiklik xususiyati tezliklar taqsimoti profiliga va boshqa gidrodinamik kattaliklarga deyarli ta'sir etmasligi, ya'ni tebranma oqimda tezliklar taqsimoti va boshqa gidrodinamik kattaliklar Nyuton suyuqligidagi kabi ro'y berishi aniqlangan. Tebranish chastotasi parametrining va Debor sonining katta qiymatlarida, reologik murakkab suyuqliklarning tebranma oqimida suyuqlikning elastiklik xususiyati tezliklar taqsimoti profiliga va boshqa gidrodinamik kattaliklarga sezilarli ta'sir ko'rsatib, bunda reologik murakkab suyuqliklarning tebranma oqimida M -simon taqsimot Nyuton suyuqligidagi taqsimotga qaraganda tebranish chastotasi parametrining kichik qiymatlarida ham ro'y berishligi mumkinligi aniqlangan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Громека И.С. О скорости распространения волнообразного движения жидкости в упругих трубах. Собр. соч., М., 1952, с. 172 – 183.
2. Lambossy P. Oscillations foresees dun liquids incompressible et visqulex dans un tube rigide et horizon-tal calculi de IA force de frottement. Helv. Physiol. Acta. 25 (1952), p. 371 – 386.
3. Womersly J.R. Method for the calculation of velocity rate of flow and viscous drag in arteries when the pressure gradient is known. J.Physiol, 1955, 127, № 3, p. 553 – 563.
4. Womersly I.R. An elastic tube theory of pulse transmission and oscillatory flow in mammalian arteries. Wright Air Development Center Techn. Rep. TR 56-614, Wright-Ratleron AFB., Chio, 1957.
5. Womersly I.R. Oscillatory flow in arteries 11. The reflection of the pulse wave at junctions and rigid inserts in the arterial system. Phys. Med. Biol., 1958, 2, n 4, p. 313 – 323.
6. Womersly I.R. Oscillatory flow in arteries 111. Flow and pulsevelocity formulae for a liquid whose viscosity varies with frequency. Phys. Med. Biol., 1958, 2, № 4, p. 374 – 382.
7. Marx U., Wallis H., Hoffmann S., Linder G., Harland R., Sonntag F., Klotzbach U., Sakharov D., Tonevit-skiy A., Lonster R. "Homan-on-a-Chip" developments: a translational cutting-edge alternative to systemic safety assessment and effecting evacuation in laboratory animals and man? ATLA, 2012, vol. 40, p. 235 – 257.
8. Inman W., Domanskiy K., Serdy J., Ovens B., Trimper D., Griffith L.G., Dishing modeling and fabrica-tion of a constant flow pneumatic micropump. J.Micromech. Microeng. 2007, vol. 17, p. 891 – 899.
9. Валуева Е.П., Пурдин М.С. Гидродинамика и теплообмен пульсирующего ламинарного потока в каналах. "Теплоэнергетика", 2015, № 9, с. 24 – 33.
10. Валуева Е.П., Пурдин М.С. Пульсирующее ламинарное течение в прямоугольном канале. "Тепло-физика и аэродинамика", 2015, том 22, № 6, с. 761 – 773.
11. Валуева Е.П., Свиридов В.Г. Введение в механику жидкости. М., изд-во МЭМ, 2001, 212 с.

12. Колесниченко В.И., Шарифулин А.Н. Введение в механику несжимаемой жидкости. Пермь, изд. Пермского нац. иссл. политех. университета, 2019, 127 с.
13. Лойцянский Л.Г. Механика жидкости и газа. М., “Дрофа”, 2003, 840 с.
14. Наврузов К. Гидродинамика пульсирующих течений в трубопроводах. Т., “Фан”, 1986, 112 с.
15. Наврузов К. Биомеханика крупных кровеносных сосудов. Т., “Fan va texnologiya”, 2011, 144 с.
16. Наврузов К., Хакбердиев Ж.Б. Динамика неньютоновских жидкостей. Т., “Фан”, 2000, 246 с.
17. Слезкин Н.А. Динамика вязкой несжимаемой жидкости. М., Гостехиздат, 1956, 520 с.
18. Файзуллаев Д.Ф., Наврузов К. Гидродинамика пульсирующих потоков. Т., “Фан”, 1986, 192 с.

Igamqulova Zilola Murodovna, Taylanov Nizom Abdurazzakovich (Джизакский государственный Педагогический университет; taylanov@yandex.ru)

MATLAB-SIMULINK СИМУЛЯТОР ФОТОЭЛЕКТРИЧЕСКОЙ СИСТЕМЫ НА ОСНОВЕ ДВУХДИОДНОЙ МОДЕЛИ С ЗАТЕМНЕННЫМИ СОЛНЕЧНЫМИ ЭЛЕМЕНТАМИ

Annotatsiya. Ushbu maqola yorug‘lik, harorat va sirt holati (qisman soya) bilan bog‘liq atrof-muhit parametrlarining o‘zgarishi bilan bog‘liq holda hujayra/modulning parametrlari, xarakteristikalarini va elektr harakatlarini baholash uchun Matlab-Simulink asosida fotovoltaik tizimlarni modellashtirish va tavsiflash uchun dasturiy ta‘minotni taklif qilingan. Maqsad – chiziqli bo‘lmagan IV tenglamaning parametrlarini uchta aniq nuqtada egri chiziqni sozlash orqali topish: ochiq tutashuv, maksimal quvvat va qisqa tutashuv. Interfaol grafik interfeysi bilan ushbu dastur PV mutaxassislari va tadqiqotchilari uchun katta moslashuvchanlikni talab etishi ko‘rsatilgan.

Аннотация. В данной статье предлагается программное обеспечение для моделирования и определения характеристик фотоэлектрических систем на основе Matlab-Simulink для оценки параметров, характеристик и электрического поведения элемента/модуля в отношении изменений параметров окружающей среды, касающихся освещенности, температуры и состояния поверхности (частичное затемнение). Цель состоит в том, чтобы найти параметры нелинейного уравнения ВАХ, настроив кривую по трем конкретным точкам: разомкнутая цепь, максимальная мощность и короткое замыкание. Благодаря интерактивному графическому интерфейсу это программное обеспечение предлагает большую гибкость для профессионалов в области фотоэлектричества и исследователей.

Annotation. This article proposes a software for modeling and characterizing photovoltaic systems based on Matlab-Simulink to evaluate the parameters, characteristics and electrical behavior of a cell/module in relation to changes in environmental parameters regarding illumination, temperature and surface condition (partial shading). The goal is to find the parameters of the non-linear IV equation by tuning the curve at three specific points: open circuit, maximum power, and short circuit. With an interactive graphical interface, this software offers great flexibility for PV professionals and researchers.

Kalit so‘zlar: fotovoltaiklar (PV), fotovoltaik elementlar, matlab, fotovoltaik modul, modellashtirish.

Ключевые слова: фотогальваника (PV), фотоэлементы, matlab, фотоэлектрический модуль, моделирование.

Key words: photovoltaics (PV), photovoltaic cells, matlab, photovoltaic module, modeling.

Введение. Благодаря неиссякаемой и экологически чистой энергии, исследования в области солнечной энергетики в последние годы становятся все более важной темой. Предполагается, что она станет одним из важнейших возобновляемых источников энергии. Это одна из самых перспективных альтернатив традиционным источникам энергии. Благодаря этому фотоэлектрическая солнечная энергия все шире используется для выработки электроэнергии [1.2]. Цель статьи – предоставить необходимую информацию для разработки фотоэлектрических моделей, которые можно использовать при моделировании фотоэлектрических систем. Для повышения точности использовалась двухдиодная модель.

С другой стороны, итерационный численный метод Ньютона-Рафсона был применен для параметров расчетной модели. Решение проблемы фотоэлектрического источника, содержащего ряд ячеек, соединенных последовательно и параллельно, в условиях частичного затемнения, становится

большой проблемой для поиска наилучшей точки максимальной мощности (MPP), поскольку его характеристики имеют большую нелинейность с множественными локальными максимумами [3]. В статье предлагается практическая модель и метод моделирования, которые могут прогнозировать кривые характеристик и модуля. Его можно использовать для изучения влияния изменений температуры и облучения при изменении затенения. Моделирование разработано с использованием среды Matlab-Simulink.

Моделирование фотоэлемента. В литературе было предложено множество эквивалентных схем для оценки поведения фотоэлемента. В нашем случае мы рассматриваем двухдиодную модель, которая еще лучше описывает солнечный элемент [1]. Используя первый закон Кирхгофа, выходной ток ячейки определяется выражением [4]:

$$I = I_{PV} - I_{d1} - I_{d2} - \frac{V + I \times R_s}{R_p}, \quad (1)$$

$$I_{d,i} = I_{0i} \times \exp\left(\frac{a_i V + I \times R_s}{a_i \times V_T}\right) \quad (2)$$

где $d, i = 1, 2$; $V_T = k \times T / q$ – тепловое напряжение; q – заряд электрона ($1,602 \cdot 10^{-19}$ Кл); k – постоянная Больцмана ($1,38 \cdot 10^{-23}$ Дж/к); T – температура p-n перехода.

Фотоэлектрический модуль является основным элементом каждой фотоэлектрической системы. Он состоит из множества совместно соединенных фотоэлементов. Уравнение схемы эквивалентного модуля для последовательно соединенных фотоэлектрических элементов приводит к уравнению

$$I = I_{PV} - I_{d1} - I_{d2} - \frac{V + I R_s N_{cell}}{R_p N_{cell}}, \quad (3)$$

$$I_{d,i} = I_{0i} \times \exp\left(\frac{a_i V + I R_s N_{cell}}{a_i R_p N_{cell}}\right) \quad (4)$$

Эксперимент проводится на одном модуле Siemens, SM55 [3]. В этом интерактивном графическом интерфейсе описана модель двух диодов и извлечения ее параметров, таких как (R_s , R_p) и кривые I-V и P-V при стандартных условиях испытаний (рис. 1).




Рис. 1. Расчетные кривые характеристик для фотоэлектрического модуля SM55.




Рис. 2. Кривые характеристик окна блока имитатора при различной температуре и облучении для ФЭ модуля SM55 ($T = 50^\circ\text{C}$, $I = 750 \text{ Вт/м}^2$).

На рисунке 2 показано, как симулятор учитывает изменение температуры и облучения путем построения различных кривых. Кривые ниже соответствуют $50\text{ }^{\circ}\text{C}$ и 750 Вт/м^2 . Показано окно различных входных параметров симулятора. Эффект частичного затенения для двух диодов показан на рис. 6 в виде двух точек пиковой мощности. В данном случае их значения явно далеки друг от друга. Это указывает на то, что количество пиков может появиться, когда такое же количество цепочек подключено параллельно с диодами. Количество пиков не может быть больше, чем количество цепочек, соединенных параллельно с обходным диодом.

Заключение. В статье представлена имитационная модель фотоэлементов/модулей Matlab/Simulink в условиях частичного затенения. Симулятор находит параметры эквивалентной схемы различных моделей двухдиодных фотоэлектрических модулей оценивались численным методом Ньютона–Рафсона. Это позволяет нам наблюдать кривые характеристик любых фотоэлектрических модулей производителя. Его можно использовать для предопределения поведения различных фотоэлектрических модулей, имеющих разное количество подключений цепочек-шунтирующих диодов в условиях тени. Можно сделать вывод, что выработка энергии увеличивается при увеличении количества подключений шунтирующих диодов. Это показали последние тесты.

Использованная литература:

1. К.Дин, Х.Биан и Х.Лю. Моделирование на основе Matlab-Simulink для изучения влияния не-равномерной инсоляции фотоэлектрической решетки. Конференция по энергетике и энергетике (AAEEC), 2011 Азиатско-Тихоокеанский регион, стр. 1 – 4, 25 – 28 марта 2011.

2. С.Р.Чоудхури и Х.Саха. Отслеживание точки максимальной мощности частично затененных солнечных фотоэлектрических батарей. Материалы солнечной энергии и солнечные элементы, Vol. 94, № 9, стр. 1441 – 1447, 2010.

3. Р.Хассан, Г.Радман и Д.В.Гао. Удобный в использовании инструмент лабораторного просмотра для изучения влияния частичного затенения на характеристики фотоэлектрических модулей. Труды IEEE Southeastcon, стр. 64 – 67, 17– 20 марта 2011.

4. Ф.Бушафаа, И.Хамзауи и А.Хаджаммар. Нечеткое логическое управление для отслеживания точки максимальной мощности фотоэлектрической системы. Energy Procedia, 6, стр. 633 – 642, 2011.

5. В.Quaschnig и R.Hanitscht. Численное моделирование вольт-амперных характеристик фотоэлектрических систем с затененными солнечными элементами. Solar Energy, Vol. 56, № 6, стр. 513 – 520, 1996.

Балтаева Ирода Исмаиловна (УрГУ; iroda-b@mail.ru),

Атаназарова Шоира Эркиновна (Хорезмское отделение Института математики имени

В.И.Романовского; atanazarova94@gmail.com)

ОБ ИНТЕГРИРОВАНИИ НАГРУЖЕННОГО МОДИФИЦИРОВАННОГО УРАВНЕНИЯ КОРТЕВЕГА-ДЕ ФРИЗА ОТРИЦАТЕЛЬНОГО ПОРЯДКА С ИСТОЧНИКОМ

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada moslangan manbali manfiy tartibli yuklangan modifitsirlangan Kortevog-de Friz tenglamasi “tez kamayuvchi” funksiyalar sinfida qaralgan. Asosiy natija potentsiali qaralayotgan masalaning yechimi bo‘lgan Dirak operatorining sochilish berilganlari uchun evolutsion tenglamalarni keltirib chiqarishdan iborat.*

***Аннотация.** В данной статье исследуется нагруженное модифицированное уравнение Кортевега-де Фриза (КдФ) отрицательного порядка с самосогласованным источником в классе «быстроубывающих» функций. Основной результат заключается в выводе эволюционных уравнений для данных рассеяния оператора Дирака, потенциал которого является решением рассматриваемой задачи.*

***Annotation.** In this article, we study the negative order loaded modified Korteweg-de Vries equation with a self-consistent source in the class of “rapidly decreasing” functions. The main result is the derivation of evolution equations for the scattering data of the Dirac operator the potential of which is solution of considered problem.*

***Kalit so‘zlar:** manfiy tartibli yuklangan modifitsirlangan Kortevog-de Vries tenglamasi, moslangan manba, sochilish berilganlari, Laks tenglamasi, potentsial.*

***Ключевые слова:** нагруженное модифицированное уравнение Кортевега-де Фриза отрицательного порядка, самосогласованный источник, данные рассеяния, уравнение Лакса, потенциал.*

***Key words:** negative order loaded modified Korteweg-de Vries equation, self-consistent source, scattering data, Lax equation, potential.*

В сегодняшнее время, наряду с нелинейными уравнениями положительного порядка [1], область изучения таких уравнений с отрицательными степенями значительно расширилась. Имеются замечательные результаты по изучению уравнения КдФ отрицательного порядка [2-3]. В частнос-

ти, в работах [4] и [5] установлена интегрируемость уравнения КдФ с отрицательного порядка с источником методом обратной спектральной задачи. В настоящей работе показана разрешимость нагруженного модифицированного уравнения КдФ отрицательного порядка с самосогласованным источником в классе «быстроубывающих» функций.

Рассмотрим следующую систему уравнений

$$\begin{cases} \rho_{xx} = -u^2 \\ u_{xt} + \alpha u + 2\rho_{xt}u = \gamma(t)u_x(0,t)u + \sum_{k=1}^{2N} (\Phi_{k1}^2 - \Phi_{k2}^2), \quad \alpha \in \mathbb{R}, \\ L\Phi_k = \xi_k \Phi_k, \quad k = 1, 2, \dots, 2N, \end{cases} \quad (1)$$

где $u = u(x, t)$ – комплекснозначная функция ($x \in \mathbb{R}$, $t > 0$), $\gamma(t)$ произвольная непрерывная функция, $\Phi_k = (\Phi_{k1}(x, t), \Phi_{k2}(x, t))^T$ – собственная вектор-функция оператора L , соответствующая собственному значению ξ_k . Система (1) рассматривается при начальном условии

$$u(x, 0) = u_0(x), \quad (2)$$

где начальная функция $u_0(x)$ обладает свойствами

$$1. \quad \int_{-\infty}^{+\infty} (1 + |x|) |u_0(x)| dx < \infty,$$

$$2. \quad \text{Оператор } L_0 = i \begin{pmatrix} d/dx & -u_0 \\ u_0 & -d/dx \end{pmatrix} \text{ не имеет спектральных особенностей и имеет ровно } 2N \text{ простых собственных значений } \xi_1(0), \xi_2(0), \dots, \xi_{2N}(0) \text{ таких, что } \text{Im } \xi_k(0) > 0, k = 1, \dots, N.$$

Предположим, что $u = u(x, t)$ достаточно гладкая функция, удовлетворяющая условию

$$\int_{-\infty}^{+\infty} (1 + |x|) |u(x, t)| dx < \infty,$$

$$\begin{cases} \rho(0, t) = 0, \quad \rho_x(x, t) \rightarrow 1, \quad x \rightarrow \infty \\ \rho_{xx}(x, t) \rightarrow 0, \quad \rho_{xt}(x, t) \rightarrow 0, \quad u_{xt}(x, t) \rightarrow 0, \quad x \rightarrow \pm\infty. \end{cases} \quad (3)$$

Допустим

$$\int_{-\infty}^{+\infty} \Phi_{k1} \Phi_{k2} dx = A_k(t), \quad k = 1, 2, \dots, 2N \quad (4)$$

где $A_k(t)$ – заданная непрерывная ненулевая функция, удовлетворяющая условию $A_k(t) = A_n(t)$ для $\xi_k = -\xi_n$.

Основная цель данной работы состоит в нахождении решений $u(x, t)$, $\rho(x, t)$, $\Phi_k(x, t)$ задачи (1)-(4) в рамках обратной задачи рассеяния для оператора L .

Согласно условию (3) система уравнений Дирака

$$\begin{cases} y_{1x} = -i\xi y_1 + u(x)y_2 \\ y_{2x} = i\xi y_2 + u(x)y_1 \end{cases} \quad (5)$$

обладает решениями Йоста $\varphi(x, \xi, t)$ и $\psi(x, \xi, t)$, которые однозначно определяются асимптотиками

$$\left. \begin{aligned} \varphi(x, \xi, t) &\rightarrow \begin{pmatrix} 1 \\ 0 \end{pmatrix} e^{-i\xi x} \\ \bar{\varphi}(x, \xi, t) &\rightarrow \begin{pmatrix} 0 \\ -1 \end{pmatrix} e^{i\xi x} \end{aligned} \right\}, \quad x \rightarrow -\infty \quad \left. \begin{aligned} \psi(x, \xi, t) &\rightarrow \begin{pmatrix} 0 \\ 1 \end{pmatrix} e^{i\xi x} \\ \bar{\psi}(x, \xi, t) &\rightarrow \begin{pmatrix} 1 \\ 0 \end{pmatrix} e^{-i\xi x} \end{aligned} \right\}, \quad x \rightarrow +\infty$$

При действительных ξ , пары вектор-функций $\{\varphi(x, \xi), \bar{\varphi}(x, \xi)\}$ и $\{\psi(x, \xi), \bar{\psi}(x, \xi)\}$ являются парами линейно независимых решений для системы уравнений (5), поэтому

$$\varphi(x, \xi, t) = a(\xi)\bar{\psi}(x, \xi, t) + b(\xi)\psi(x, \xi, t)$$

где $a(\xi) = W\{\varphi, \psi\} = \varphi_1\psi_2 - \varphi_2\psi_1$.

Функция $a(\xi)$ аналитически продолжается в верхнюю полуплоскость $\text{Im } \xi > 0$ и при $|\xi| \rightarrow \infty$, $\text{Im } \xi \geq 0$ обладает асимптотикой $a(\xi) = 1 + O(1/|\xi|)$. Функция $a(\xi)$ может иметь в полуплоскости $\text{Im } \xi > 0$ только конечное число нулей ξ_k , $k = 1, 2, \dots, N$, которые соответствуют собственным значениям оператора L в верхней полуплоскости. Поэтому $\varphi_k(x, t) = C_k\psi(x, t)$, где $\varphi_k(x, t) = \varphi(x, \xi_k, t)$, $\psi_k(x, t) = \psi(x, \xi_k, t)$.

Определение. Набор $\{r^+(\xi) = b(\xi)/a(\xi), C_k, \xi_k, k = 1, \dots, N\}$ называется данными рассеяния для системы уравнений (5).

Потенциал $u(x, t)$ находится по формуле

$$u(x) = -2K_1(x, x),$$

где $K_1(x, y)$ является решением системы уравнений Гельфанда-Левитана-Марченко

$$\begin{cases} K_2(x, y) + \int_x^\infty K_1(x, s)F(s+y)ds = 0 \\ K_1(x, y) + F(x+y) + \int_x^\infty K_2(x, s)F(s+y)ds = 0, \end{cases}$$

$$F(x) = \frac{1}{2\pi} \int_{-\infty}^{+\infty} r(\xi)e^{i\xi x} d\xi - i \sum_{j=1}^N C_j e^{i\xi_j x}.$$

Отметим, что функции $h_n(x) = \frac{1}{\dot{a}(\xi_n)} \frac{d}{d\xi} (\varphi - C_n\psi)_{|\xi=\xi_n}$, $n = 1, 2, \dots, N$, являются ре-

шениями уравнений $Lh_n = \xi_n h_n$. Легко можно показать, что

$$W\{\varphi_n, h_n\} = \varphi_{n1}h_{n2} - \varphi_{n2}h_{n1} = -C_n, \quad \text{где } \varphi_n \equiv \varphi(x, \xi_n), h_n = h(x, \xi_n), \quad n = 1, 2, \dots, N.$$

Рассмотрим систему

$$\begin{cases} \rho_{xx} = -u^2 \\ u_{xt} + \alpha u + 2\rho_{xt}u = G \end{cases} \quad (6)$$

при начальном условии (2), где $G = G(x, t)$, $t \geq 0$ – достаточная гладкая функция, что при $x \rightarrow \pm\infty$ имеет свойство

$$G(x, t) = o(1).$$

Аналогично работе [1] можно доказать следующую лемму

Лемма. Если функции $u(x, t)$ и $\rho(x, t)$ являются решениями системы (6) в классе (3), тогда данные рассеяния системы (5) зависят от t следующим образом

$$\frac{dr^+(\xi, t)}{dt} = \frac{i\alpha}{2\xi} r^+(\xi, t) - \frac{i}{2\xi a^2(\xi)} \int_{-\infty}^{+\infty} G(\varphi_1^2 + \varphi_2^2) dx, \quad \text{Im } \xi = 0,$$

$$\frac{dC_n}{dt} = \left(\frac{i\alpha}{2\xi_n} - \frac{i}{2\xi_n} \int_{-\infty}^{\infty} G(h_{n2}\psi_{n2} + h_{n1}\psi_{n1}) dx \right) C_n,$$

$$\frac{d\xi_n}{dt} = -\frac{i}{2\xi_n c_n \dot{a}(\xi_n)} \int_{-\infty}^{\infty} G(\varphi_{n1}^2 + \varphi_{n2}^2) dx, \quad n=1, 2, \dots, 2N$$

Применим Лемму для задачи (1) – (4). В случае

$$G(x, t) = \gamma(t) u_x(0, t) u + 2 \sum_{\substack{k=1, \\ \text{Im } \xi_k > 0}}^N (\Phi_{k1}^2 - \Phi_{k2}^2)$$

получим следующую теорему

Теорема. Пусть функции $u(x, t)$, $\rho(x, t)$, $\Phi_k(x, t)$, $k=1, 2, \dots, N$ – решения задачи (1) – (4). Тогда данные рассеяния системы (5) с потенциалом $u(x, t)$ зависят от t согласно равенствам

$$\begin{aligned} \frac{dr^+(\xi, t)}{dt} &= \left(\frac{i\alpha}{2\xi} - \frac{i\gamma(t)u_x(0, t)}{2\xi} \right) r^+(\xi, t) \quad \text{Im } \xi = 0, \\ \frac{dC_n}{dt} &= \left(\frac{i\alpha}{2\xi_n} - \frac{i\gamma(t)u_x(0, t)}{4\xi_n} + \frac{i}{\xi_n} A_n(t) \right) C_n \\ \frac{d\xi_n}{dt} &= 0, \quad n=1, 2, \dots, N. \end{aligned}$$

Полученные равенства полностью определяют временную зависимость данных рассеяния оператора $L(t)$, что позволяет применить метод обратной задачи рассеяния для решения задачи (1)-(4).

Использованная литература:

1. Khasanov A.B., Urazboev G.U. Solution of the general KdV equation in the class of step functions. Journal of Mathematical Sciences, 136, pp. 3625 – 3640 (2006).
2. Qiao Z., Li J. Negative-order KdV equation with both solitons and kink wave solutions. Europhysics Letters. Vol. 94, p. 50003 (2011).
3. Qiao Z.J., Fan E.G. Negative-order Kortewe-de Vries equations. Phys. Rev. Vol. 86, p. 016601 (2012).
4. Уразбоев Г.У., Хасанов М.М., Балтаева И.И. Интегрирование уравнения Кортевега-де Фриза отрицательного порядка с источником специального вида. Известия Иркутского государственного университета. Серия математика, т. 44, 2023, с. 31 – 43

**Eshnazarova Farida Jo‘raqulovna (JTSBMQTMOI Samarqand filiali dotsenti v/b; f.f.b.f.d. (PhD)
INNOVATSION TEXNOLOGIYA TUSHUNCHASINING MAZMUN-MOHİYATI VA
IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLILI**

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada innovatsion texnologiya tushunchasining mazmun-mohiyati yoritib berilgan va ijtimoiy-falsafiy tahlil qilingan. Shuningdek, innovatsion faoliyatning yo‘nalishlari, innovatsion ta‘limning falsafiy ko‘rinishlari kabi ma‘lumotlar bayon etilgan.*

***Аннотация.** В данной статье разъясняется сущность понятия инновационной технологии и проводится социально-философский анализ. Также описаны направления инновационной деятельности, философские взгляды на инновационное образование.*

***Annotation.** In this article, the essence of the concept of innovative technology is explained and socio-philosophical analysis is made. Also directions of innovative activity, philosophical views of innovative education are described.*

***Kalit so‘zlar:** innovatsiya, innovatsion texnologiya, innovatsion faoliyat, innovatsion ta‘lim, yangilik.*

***Ключевые слова:** инновации, инновационные технологии, инновационная деятельность, инновационное образование, инновации.*

***Key words:** innovation, innovative technology, innovative activity, innovative education, innovation.*

Insoniyat o‘zining ongli faoliyatini olib borar ekan, hamisha muayyan maqsadlarni ko‘zlab, innovatsion yo‘llar orqali umumiylikdan yakkalikka qarab boradi. Borliqning sir-sinoatlarini o‘zlashtirishi natijasida oddiy materiyadan aqlbovar qilmas darajadagi imkoniyat va shart-sharoitlarni yaratdi. Mana shunday holat yangi asrga kelib, fan olamida innovatsion texnologiyalar deb nom oldi.

“Innovatsiya” lotin tilidan olingan bo‘lib, yangi narsaning ma‘lum bir sohaga kirishi, unga implemtatsiya qilinishi va bu sohada bir qator o‘zgarishlarning paydo bo‘lishini anglatadi. Innovatsiya bir tomondan, yangilikni tatbiq etish, amalga oshirish jarayoni, boshqa tomondan, bu yangilikni umuman ob‘ekt emas, balki ma‘lum bir ijtimoiy amaliyotga aylantirish faoliyati sifatida yondashiladi” [1].

Ijtimoiy amaliyot bunda jamiyatning bu yangilikni qabul qilishi va shu yangilikka ko‘nikib yashashi tushuniladi. Ijtimoiy innovatsiyalar esa ana shu muhitdagi obyekt va subyekt o‘rtasidagi munosabatlarni yangi bosqichga ko‘tarib, inson tomonidan voqelikda mavjud bo‘lmagan narsalar yaratilishi va ishlab chiqilishiga keng imkoniyatlar yaratadi.

Agar ma‘lum bir ijtimoiy amaliyotda o‘zgarishlarda takrorlanish yoki buni o‘rnini boshqasiga bo‘shatib berish sodir bo‘lsa va mazkur faoliyatning to‘liq sikll sxemasini kuzatadigan bo‘lsak, innovatsion faoliyatning bir qancha yo‘nalishlarini qayd etish mumkin. Mazkur faoliyat bevosita ta‘limning aniq tizimli usullarini rivojlantirishni nazarda tutgan holda, ijtimoiy munosabatlarning tarmoqlararo yo‘nalishlari takomillashuvini bajaradi. Jumladan, tadqiqotchi Govrelyuk uning quyidagi yo‘nalishlarini alohida qayd etadi:

- “innovatsiya manbayi (ilm-fan, siyosat, ishlab chiqarish, iqtisodiyot va boshqalar);
- innovatsion taklif (yangilik, ixtiro, kashfiyot, ratsionalizatsiya);
- innovatsiyalarni amalga oshirish bo‘yicha faoliyat (o‘qitish, amalga oshirish, efirga uzatish);
- innovatsion jarayon (amaliyotda innovatsiyalarni ildiz otish shakllari va usullari)” [2].

Yuqoridagi yo‘nalishlar o‘zaro bog‘liq bo‘lib, bir-birini to‘ldiradi. Bu bog‘liqlik har bir faoliyatni ochiqlikni talab etadi, turli qarama-qarshiliklarning oldini olishda, odamlarning aniq maqsadli faoliyatini boshqarishda o‘z o‘rniga ega. Ularning o‘zaro aloqalari ilm-fanning yuksalish jarayonlari uchun xizmat qiladi. Jumladan, innovatsion faoliyat haqida to‘xtaladigan bo‘lsak, rivojlanish natijasida o‘zaro bog‘liq bo‘lgan tizimni nazarda tutib, ularning umumiyligi haqiqiy yangiliklar paydo bo‘lishini ta‘minlaydi. Yoki innovatsion texnologiyalarni turli rakursda tasniflash mumkin: Har bir sohada amalga oshirilgan faoliyatni tizimli baholashni yo‘lga qo‘yish va falsafiy tafakkurga tayanib boshqarishda; har bir shaxsning o‘z falsafiy tafakkur tarzini o‘stirishga imkoniyat yaratadigan individual, frontal, guruh shaklida, oilaviy tarbiyada; funksional jihatdan mahsulot yangiliklari (pedagogik vositalar, loyihalar, texnologiyalar va boshqalar), amalga oshirish usullari bo‘yicha muntazam; tarqatish ko‘lami bo‘yicha xalqaro miqyosda, lokal miqyosda; ijtimoiy va pedagogik ahamiyatiga ko‘ra turli yo‘nalishlarda; innovatsion salohiyatiga ko‘ra har bir tizimdagi natijalarni inobatga olish orqali ta‘limdagi o‘sishni ta‘minlash yo‘llarini kuchaytirish va hokazo.

Falsafa tarixiga murojaat qiladigan bo'lsak, innovatsiyaning falsafiy borlig'i bevosita qadimgi yunon falsafiy maktablari va ta'limotlaridan kelib chiqqanligini anglaymiz. Jumladan, Aflotunning g'oyalar olami va Arastuning jamiyat va insoniyat haqidagi ta'limotlari bugun uchun asos vazifasini bajardi. Jamiyatdagi yangilanishlarda bu faylasuflarning o'rtaga tashlagan muammolari kelajakning mevasi sifatida edi. Ular o'z falsafiy qarashlari orqali ilm-fanning cheksiz imkoniyatlari va innovatsiya falsafasi ta'lim bilan yangilanishini o'rtaga tashladi. Aflotun idealizm g'oyasini ilgari suradi. Mutafakkirning xizmatlari shundaki, u har qanday yangi faoliyatga g'oyalar asos bo'lishini ilgari suradi [3]. Ta'limdagi o'zgarishlar bugungi kunda juda dolzarb bo'lib qolgan "innovatsiya" so'zi bilan izohlanadi. To'g'ri, Aflotunning yangilik bilan bog'liq g'oyalari ancha mavhum, lekin uning falsafiy qarashlarida ideallik oliy kuch sifatida maydonga kelib, odamlarda ta'limga ijobiy munosabatni shakllantiruvchi omil sifatida aks etadi. Bizning bu innovatsiyalarimizda ta'lim falsafasiga ijodiy yondashish, ijtimoiy muhitdagi muammolarni ilmiy hal etish bilan xarakterlanadi.

Arastu falsafiy ta'limotida esa borliq muhim substansiya sifatida tiriklik uchun makon vazifasini bajaradi. Unda 4 omil, ya'ni, maqsad, sabab, materiya, shakl birinchi o'ringa chiqadi [4]. Arastuning ijtimoiy muhitni sabab va oqibatga tayanishi, borliqdagi dialektik jarayonlarning dinamik holati, undagi rivojlanish va taraqqiyot qonuniyatlarga egaligi haqidagi g'oyalari bugun uchun ham dolzarb hisoblanadi.

Yana bir masala innovatsion jarayonning asosiy bosqichlari mavjud. U quyidagilardan iborat bo'ladi: g'oya – manba – innovatsiya, ya'ni g'oya shakllanadi. Shu g'oyaning jamiyatda ijtimoiy fikr yoki xalqning ishonchiga aylanishida manbaga bo'lgan ehtiyoj paydo bo'ladi. G'oya shu manba asosida o'zining moddiylikka aylanishi, odamlarni boshqaruvchi kuchga ega bo'lishi bilan yangicha ruhda namoyon bo'ladi. Uning jamiyatda hayratlanarli, ikkilamchi moddiylik sifatida shakllanishi innovatsiya hisoblanadi. Ana shu bosqichma-bosqichlik innovatsion jarayon falsafasini namoyon etadi. Undagi o'zgarishlarda o'ziga xos ijobiy faoliyat, mantiqiy instrumentlar dialektikasi aks etadi. Ana shuni Arastuning falsafiy qarashlariga tayanib o'rgansak, g'oyaga ehtiyoj mavjudligi ko'ramiz.

Aslida, har qanday qarashlarning negizida yangilikka intilish yotadi. "Innovatsiya" tushunchasiga falsafiy yondashuvda ushbu ta'rifni keltirish mumkin: *inson tafakkuri tomonidan tabiat va jamiyatdagi faoliyatni muayyan dialektik yondashuv natijasida ikkilamchi borliqqa aylanishi yoki uning sifat va miqdor jihatidan o'zgarishidagi yangilik – innovatsiya deyiladi*. Bu ta'rifda innovatsiyaga o'ziga xos ijtimoiy taraqqiyotning mezon sifatida urg'u berilgan.

Ta'limga berilayotgan imkoniyatlarda innovatsion jarayonlarni jamiyatga ta'sirini tahlil qiladigan bo'lsak, bu davrda endi innovatsiyalar nafaqat bir guruh insonlar, balki, umuman, jamiyatlar hayotini o'zgartirmoqda. Shundan kelib chiqib, ayrim tadqiqotchilar innovatsion jamiyatni tobora ko'proq xavf-xatar jamiyati sifatida ta'riflamodalar (E.Giddens, U.Bek, V.Ustyanshev, S.Kara-Murza). Ya'ni, ularning nuqtayi nazaricha ana shu yaratilgan innovatsion mahsulot noo'rin yoki noto'g'ri qo'llanilishi ulkan inqirozga sabab bo'lishi mumkin.

Jamiyatda "innovatsiya" hamisha eskining yangi bilan almashinishi jarayonida vujudga kelib, o'zining ko'p o'lovchilik xususiyati, noaniqlikdan aniqlikka qarab borishi yoki muayyan darajada yangilanishlarni sodir qilishi bilan voqelikda rivojlanib boradi.

"Ma'naviy saviyamiz va umumiy, shu jumladan, siyosiy madaniyatimizni yangi bosqichga olib chiqishga ijtimoiy fanlar tizimida falsafaning roli oshishiga xizmat qiladi. Falsafa ilmi tabiat, jamiyat va inson tafakkuri rivojining eng umumiy qonuniyatlarini o'rganib, yoshlarda ilmiy tafakkur va falsafiy dunyoqarashni kamol toptiradi" [5]. Yoshlarning mukammal shaxs bo'lib voyaga yetishishida, o'zining aniq maqsad va ideallarini yuksaltirishida ta'lim falsafasiga tayanish, eng mukammal ta'lim standartlariga tayangan holda, falsafiy g'oyalarni yangi bosqichga olib chiqish bugunning vazifasiga aylandi.

Ta'lim tizimini mustahkam moddiy-texnik baza bilan ta'minlash, joylarda yangi asrning zamonaviy g'oyalari tayyor turadigan fidoyi, bilimdon, ma'naviyatli yoshlarni tarbiyalash ishlarining jadallik bilan olib borilayotganligi barchamiz uchun quvonarli holdir. Lekin ta'limda zamonaviy innovatsion texnologiyalar muayyan olimlar tomonidan yaratilsayu, uni tushunadigan, amaliyotga joriy qiladigan kadrlar tayyorlanmasa bu ham katta muammoga aylanadi. Shuning uchun ham rivojlangan davlatlarning innovatsion texnologiyalarini ta'limga joriy etishda faol bo'lish, yoshlar orasidan innovatsiyani tushunadigan kadrlarni xorijda tajriba almashishiga, rivojlangan davlatlarning yuksalish mexanizmlariga e'tibor qaratiшимiz zarur.

Bizga ma'lumki, mamlakatimizda ta'limdagi modernizatsiya jarayonlaridan biri "bu ta'limning barcha bo'g'inlarida tizim tuzilishini va mazmunini isloh qilish asosida o'qituvchilarning malakasini uzluksiz oshirib borish, malakali, yetuk va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash tizimida muassasalar faoliyatini kuchaytirish sanaladi". Innovatsiya barcha sohalarida "yangilik yaratish" texnologiyasi sifatida ishlatilib, ta'lim tizimi uchun ham dolzarb tushuncha hisoblanadi. Undan foydalanishda esa har bir shaxs yoxud

ta'lim-tarbiya beruvchi sinchkovlik bilan yondashishi, inson uchun naf keltiradigan mexanizmni yo'lga qo'yishi maqsadga muvofiqdir.

Bugungi kunda falsafadagi kategoriyalarning fan sohasiga keng kirib borishi natijasida falsafiy innovatsiyalarga ilmiy yondashuv bilan munosabatga kirishish va ta'lim tizimini yangilash g'oyalari yuqori bosqichga olib chiqishga keng imkoniyatlar yaratildi. Natijasida ta'limda faoliyat olib boradiganlar faoliyatini umumlashtirgan ta'limningmilliy innovatsion xizmati tushunchasi shakllandi. Bu tushuncha o'z navbatida sohaning inersiyasini vujudga keltirib, yangilikka nisbatan faollikni, g'oyaviy intilishlarni kuchaytiradi.

Falsafada innovatsiya, innovatsion faoliyat, falsafiy innovatsiya tushunchalari odamlardagi borliqqa qiziqishlarning ortishi natijasida yigirmanchi asrning oltmishinchi yillarida, dastlab, amerikaliklar va evropaliklar faoliyatlarida "ta'lim texnologiyasi" tushunchasi e'tirof etilgan vaqtida paydo bo'ldi. O'sha vaqtdayoq Yevropada pedagogik innovatsiyalar markazi va instituti tashkil etildi. Endi ta'lim zo'ravonlik (kaltaklash)ka asoslangan jarayon emas, balki qiziqarli shu bilan birga samarador jarayon bo'lishga intilish kuchaydi. Shunga undov esa, biz yuqorida ta'kidlaganimizdek, ta'limdagi yondashuvga falsafiy yondashuv hisoblanadi.

Shundan kelib chiqib, innovatsion ta'limning falsafiy ko'rinishlari quyidagilardan iborat:

- insonlar qalbida ezgulik nurlarini uyg'otadigan g'oyalarga mehrni kuchaytirish;
- yoshlarning ta'limga oid tizimli faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan mantiqiy usullar;
- tafakkur bilan bog'liq noan'anaviy yondashuvlar;
- samarali tashabbuslar;
- innovatsion ilg'or metodlar va h.k.

Falsafiy innovatsiyalar har bir davrning ilg'or g'oyalari ko'rinishida har bir tizimda shakllangan yangicha yondashuvlardir. Ularning rivojlanib borishi taraqqiyotga qaratilgan islohotlar sifatida hali ko'pchilikka ma'lum bo'lmagan ijtimoiy-iqtisodiy muammolar yechimi ustida bosh qotirishga yo'l ochadi.

XXI asrga kelib, ta'lim tizimiga ilg'or innovatsion g'oyalarni jalb qilishga doir ko'plab interfaol usullar pedagoglar tomonidan ishlab chiqilmoqda. Boisi shundaki, bunday metodlarni qo'llash:

- ta'limga yangicha yondashuv uning samaradorligini orttiradi;
- yoshlarda mantiqiy tafakkur tarzini rivojlantiradi;
- bilim olishga motivatsiya beradi;
- mushohadani o'stiradi;
- yaratuvchanlikni rag'batlantiradi;
- muammoga kreativ yondashishga o'rgatadi;
- ijod qilishni qo'llab-quvvatlaydi;
- izlanishga majbur etadi;
- hamkorlikdagi faoliyatni stimullashtiradi.

Umuman olganda, har bir davlat ta'lim islohotlarini amalga oshirishda, birinchi galda, milliy qadriyatlarini hisobga olib, uning negizida jamiyatning yuksalishiga xizmat qiladigan zamonaviy usullardan foydalanishga intiladi. Bunda innovatsiyaning roli kengroq namoyon bo'ladi. Innovatsiya – bu yangi g'oyalardan muvaffaqiyatli foydalanish. Qaysi sohaga innovatsiya joriy qilinadigan bo'lsa, u butun tizimning yangilanishiga olib kelishi kerak. U doimiy takomillashtirishga asoslangan bo'lib, o'rta va uzoq muddatli istiqbolda raqobatbardosh ustunliklarni yaratadi. Shu nuqtayi nazardan innovatsiyalar sohaning kelajakdagi barqarorligi uchun juda muhimdir. Innovatsiya innovatsion faoliyat mahsuli bo'lib, doimiy izlanishga, yangi bilimlarni o'rganishga asoslanadi. Biz ta'limning global muammolarini bugun uzoqni o'ylagan holda, tizimli va ratsional yo'lga qo'yishimiz, izchillikka mos karashlarni rivojlantirishimiz kerak.

Shubhasiz, innovatsiyalarning afzalliklari faqat ta'limga tegishli emas. Ammo ta'lim orqali texnologiyalar, ixtirolar, mahsulotlar, nihoyat, g'oyalar boshqa sohalarga ham tarqaladi.

Innovatsion texnologiyalar bu innovatsiyalarni ta'minlaydigan, innovatsiyalarni amalga oshirish bosqichlarini qo'llab-quvvatlovchi usullar va vositalar to'plamidir. Bunday texnologiyalar muammolarini hal qilishda falsafiy metodlarga tayanish, dialektikaning qonun va kategoriyalarini real voqelik bilan anglab yetish, dunyo tajribasiga yo'naltirilgan strategiyalarga tayanish ma'qul bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Дахл В. Словарь. Москва, "Наука", 2018, с. 78.
2. Говрелюк А. Развитие культуры инновационной деятельности в организации. Государственное управление. "Экономическое вестник", № 73, апрель 2019, с. 286 – 295.
3. Платон. Собр. соч. в 4 т, под общ. ред А.Ф.Лосева, Москва, 1993, т. 2, с. 528.
4. Аристотель. Соч. в 4 т. ред. В.Ф.Асмус, Москва, 1976, т. 1, с. 550.

5. Doliyev S.S. Ijtimoiy innovatsiyalarning fuqarolik jamiyati shakllantirilishidagi roli. “Xorijiy tillarni o‘rganishning innovatsion texnologiyalari”. Ilmiy-amaliy anjuman materiallari, Samarqand, 2019, 10–11-oktabr, 311-bet.

**Yazdonova Soxiba Kurbanovna (Samarqand davlat universiteti “Falsafa va milliy g‘oya” kafedrası dotsenti)
ZAMONAVIY JAMIYATDA KIBERMAKONNI YUZAGA KELITIRUVCHI OBYEKTIV VA
SUBYEKTIV OMILLAR**

Annotatsiya. Ushbu maqolada kibermakonni yuzaga keltiruvchi obyektiv omillar, ularga ta’sir etuvchi subyektiv elementlarning institutsional tizimi aniqlanib, bu ikki fenomenologik tushunchalar o‘rtasidagi dialektik aloqadorlikning rivojlanish qonuniyati, ya’ni, falsafaning qarama-qarshiliklar birligi va kurashi qonuni kontekstida ko‘rib chiqiladi.

Аннотация. В данной статье рассматриваются объективные факторы, порождающие киберпространство, институциональная система субъективных элементов, влияющих на них, и рассмотрен закон развития диалектической связи между этими двумя феноменологическими понятиями, т.е. закон единства и борьбы противоположностей философии.

Annotation. In this article, the objective factors that create cyberspace and the institutional system of the subjective elements affecting them are determined, and the law of development of the dialectical relationship between these two phenomenological concepts is considered in the context of the law of unity and struggle of opposites in philosophy.

Kalit so‘zlar: kibermakon, axborot texnologiya, virtual haqiqat, virtual fazo, real makon, ijtimoiy hayot elementlari, kibernetika, fan falsafasi, industrializatsiya, elektron ta’lim.

Ключевые слова: киберпространство, информационные технологии, виртуальная реальность, виртуальное пространство, реальное пространство, элементы социальной жизни, кибернетика, философия науки, индустриализация, электронное обучение.

Key words: cyberspace, information technology, virtual reality, virtual space, real space, elements of social life, cybernetics, philosophy of science, industrialization, e-education.

Kirish. Bugungi jamiyat taraqqiyotini axborot texnologiyalarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Ya’ni, zamonaviy dunyoda har bir insonni o‘z mavjudligini ta’minlovchi omillarga, xususan, o‘ziga qulay yashash sharoitlarni yaratishga bo‘lgan tabiiy ehtiyojlari natijasida “yangicha istaklar” kelib chiqmoqda. Aynan shu “istaklar” tufayli inson ongini zamonaviy sivilizatsiyaning barcha yutuqlari o‘rab olmoqda” [1.52–70]. Bunday o‘zgarishlar ortidan kirib kelayotgan “yangi odatlar va an’analar” kibermakon kengligida yanada mustahkam qaror topmoqda.

Kibermakon elementlari hisoblangan “sun’iy ong”, “virtual olam”, “ijtimoiy makon”, “raqamli iqtisodiyot”, “onlayn mulohaza” va boshqa shu kabi ta’sir vositalari qamrovida “zamonaviy shaxs” shakllanmoqda. Demak, zamonaviy jamiyatda inson omilini saqlab qolish, uning jamiyatda tutgan o‘rnini, milliy mentalitetga bo‘lgan munosabatini barqarorlashtirish uchun kibermakonni yuzaga keltiruvchi obyektiv va subyektiv sabablarni o‘rinishga ehtiyoj tug‘ilmoqda. Ushbu tadqiqotda shu va boshqa masalalar kurib chiqiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning sharhi. Zamonaviy jamiyatda kibermakonni yuzaga keltiruvchi obyektiv va subyektiv omillar borasida bir qator tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan, axborot tizimlari va internet tomonidan boshqariladigan kibermakonning obyektiv omili sifatida iqtisodiy ko‘rsatkichlarni ko‘rsatuvchi tadqiqotlar (Mbanaso U.M., Dandaura E.S. 2015). Yoshlarni kibermakon ta’siriga uchrashiga olib keluchi sabablar bo‘yicha yoshlar tanloviga oid masalalar ham kurib chiqilmoqda (Wąsiński A., Tomczyk Ł. 2015) tahlil etilib, tadqiqotning umumiy yo‘nalishi aniqlab olindi.

Tadqiqot metodologiyasi. Zamonaviy jamiyatda kibermakonni yuzaga keltiruvchi obyektiv va subyektiv omillarga institutsional tizim sifatida qarab, ularni harakatga keltiruvchi subyektlar o‘rtasidagi o‘zaro korrelyatsion aloqadorlik koeffitsiyentining mavjud yoki mavjud emasligi analiz va sintez metodi ko‘magida tahlil etilib, masalaning mohiyatini ochib beruvchi sababiyat turkumlashtiriladi, ya’ni, hodisa mohiyati tarkibiy qismlariga ko‘ra, bo‘laklarga ajratilib, olingan natijalar murakkablik darajasiga nisbatan yaxlitlashtiriladi.

Tahlil va natijalar. Kibermakon obyektiv hodisa bo‘lib, ijtimoiy ehtiyojlar ta’sirida yuzaga kelgan. Uning retrospektiv asoslariga e’tibor berilsa, u zamonaviy davrda turli shakl va nomlar ostida mavjud bo‘lib kelganligini ko‘rsatadi. Masalan, David Deutschning “The Fabric of Reality” (Haqiqat xatosi) nomli asarida shunday fikrlar keltiriladi:

– insonning hissiy tajribasini sun’iy boshqarish texnologiyalari ming yillar davomida rivojlanib kelmoqda. Tasviriy san’at yoki uzoq masofali aloqaning barcha usullarini “sezgilarning normal ishlashini ustun qo‘yadigan” (real olamdan tashqarida – kibermakonda) deb hisoblash to‘g‘ri bo‘ladi;

– oddiy insonlar (virtual fazo) inson dunyoqarashida noreal ko‘ringan tushunchalar bo‘lishi mumkin, aslida, ilm-fanga asoslangan tajribalarda – virtual haqiqatning namunasi isbotlanadi. Bu faktga fizika nuqtayi nazaridan qarasaq, “virtual haqiqat generatori” nima ekanligini tushunamiz [2.72–74].

David Deutsch konsepsiyasida urg‘u berilgan “virtual haqiqat”, “virtual reallik” tushunchalari mohiyat jihatidan zamonaviy “kibermakon”ning ibtidosi hisoblanib, mazmun jihatidan borliqdagi fazoviy kenglik ma’nosini anglatadi. Masalaning muhim jihati shundaki, David g‘oyalari “kibermakon” korpusini falsafiy kategoriya sifatida butundan qismga o‘tish tendensiyasini boshlab berdi. Shuningdek, kibermakonni obyektiv jarayon mahsuli sifatida asoslashga qaratilgan nazariyalarga ham e’tibor berish zarur. Xususan, A.A.Pliner, kibermakon qandaydir “joy” (“maydon”) yoki jarayonlar majmuyi emas. Uni axborot oqimi jarayonida yuzaga kelgan xayoliy fantaziya deyish ham mumkin emas. Uning fazosida kezuvchi ma’lumot jismoniy jihatdan aniq bo‘lmasa-da, ammo mavjuddir. Shunday ekan, kibermakon obyektiv mavjuddir. Chunki kibermakon cheksiz axborot aylanishini ta’minlab, ular o‘rtasidagi funksional integratsiyani yuzaga keltirdi.

Tadqiqotchi xulosalarida kibermakonning yuzaga kelishi kompyuter mashinalariga borib taqaladi. Uning qarashlari bo‘yicha kibermakon:

1) kompyuter mashinalari dasturiy ta’minot bilan bir qatorda, kibermakonning asosiy tarkibiy qismidir;

2) kompyuter bizga maxsus turdagi ma’lumotlarni yaratish vositasi sifatida emas, balki axborot harakatida vositachi bo‘lib xizmat qiladi [3.97–104].

Dan Hunter – inson bilimi va ong falsafasiga asoslangan fanlararo sohalarga e’tibor bersak, “internet” – joy va makonga asoslangan metaforalardan iborat kenglik ekanligini ko‘ramiz, chunki bizning kognitiv tuzilmamiz shuni ko‘rsatmoqdaki, biz olamni anglashda unga bog‘liq bo‘lmagan “fazoviy kenglik”ni, ya’ni kibermakon istaymiz.

Hunter qarashlarining ahamiyatliligi shundaki, u kibermakon obyektiv omil mahsulimi yoki subyektiv jarayon ta’sirida yuzaga keldimi? degan savollarga idealistik munosabat bildirib, kibermakonning joy va fazoga asoslangan nazariyalarining oqibatlarini haqida tanqidiy fikr yuritishga intiladi. Xususan, men uchta dalil keltirmoqchiman, deydi:

*Birinchi*dan, kibermakon nazariyotchilari o‘rtasidagi ichki munozaralarda – kibermakonning qanday “kosmik” ekanligi haqidagi munozaralar oxiriga yetmadi.

*Ikkinchi*dan, kibermakonga dominant hisoblangan joy va fazoga asoslangan yondashuvlar solishtirilsa, ularning barchasi “real makon”ga nisbatan “kibermakon”ning metaforik konstruksiyasini qanday joylashganligiga aniqlik kiritish qismiga kelganda, beixtiyor to‘xtab qoladi. Chunki istisno va g‘ayrioddiy nazariyalar doirasida metafora “kibermakon”ni aniq yoki bilvosita alohida makon sifatida o‘rganishga qaratilgan konsepsiyalar hanzur yaratilmadi.

*Uchinchi*dan, kibermakonga skeptik munosabatda bo‘luvchilar–“kibermakon”, umuman, “kosmos”mi yoki yo‘qmi haqidagi munozaraga juda tor doirada qarab, kognitiv jihatdan cheklangan fazoviylik tabiatini noto‘g‘ri ko‘rsatadilar [4.139–469]. Ular bilmaydiki, odamlarning fazoviy tafakkuri, biror joy yoki hudud emas, deydi.

Julie E.Cohen – kibermakonning yadrosi bo‘lgan “internet va uning tarkibiy tarmoqlari”ni, joy va makonga asoslangan metaforalarning qizg‘in bahs-munozaralar maydoni deb, kibermakonni “kibermakon” nazariyalar asosiga qo‘yadi. Bunga izoh berarkan, “kibermakon” metaforasi tarafdorlari kosmos sifatida kibermakon nazariyasining ijtimoiy qurilma sifatida ko‘rishlarini, uning faoliyatiga baho berishda yetarlicha asosga ega emasliklarini tanqid qiladi. Shuningdek, kibermakon fenomenining obyektivligini quyidagicha izohlaydi:

1) kibermakonni aniq yoki bilvosita alohida makon sifatida joylashtirish uchun, avvalo, uning kundalik fazoviy amaliyotidagi kengayish evolutsiyasini topish zarur. Aks holda, kibermakonning barcha usullari inkor etiladi. Shu sababli “kibermakon” bilan uchrashgan afora tanqidchilari bu ikki makonni “hissiy bilish”ga bog‘lab, uning metaforasini chalkashtirib yuborganliklaridan kibermakonni inson omilining mahsuli deb bilishadi;

2) kibermakon metaforasi mavhum, shuning uchun, uning o‘rniga insoniy idrok vositasida yuzaga kelgan tajribani qo‘yish, nisbatan to‘g‘ri bo‘ladi. Shu ma’noda kibermakon nisbiy, o‘zgaruvchan va amaliyot, konsepsiya va vakillik o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirlar orqali hosil bo‘ladi [5.210].

Umuman olganda, kibermakonni yuzaga keltiruvchi obyektiv omillarni topishda bir qator yo‘nalishlarga murojaat etishga to‘g‘ri keladi. Masalan, “kibernetika” – inson omili ta’sirida yuzaga kelgan jarayonlar hosilasi, xususan, axborot to‘plash, qayta ishlab jamoatchilik auditoriyasiga yetkazish amalini bajaruvchi tizim. Bu yo‘nalishning afzalligi shundaki, unda inson hayotiga xizmat etuvchi, jamiyat taraqqiyotini harakatga keltiruvchi barcha ijtimoiy munosabat shakllari jamlangan. Shuning uchun ham fal-

safiy lug'atlarda bu fenomenga "Kibernetika – axborotdan foydalanishga asoslangan tabiat, jamiyat va inson madaniyatining murakkab dinamik tizimlarida sodir bo'ladigan boshqarish jarayonlari va qonuniyatlari haqidagi fan" deb, ta'rif berilgan (6.4).

Demak, kibernetika keng qamrovli transdisipliner tarmoq bo'lib, u elektron ta'lim, elektron xaridlar, elektron ovoz berish, elektron demokratiya, elektron referendum, elektron kutubxona, elektron hukumat va boshqa "elektron boshqaruv" shakllarni qamrab oladi. Ammo kibermakonni shu "axborot elementlari" ortidan kelinishining o'zi obyektivligidir. Chunki bu "elektron xizmat"larning hech biri bir vaqtda joriy qilinmadi. Ikkinchidan, ular o'rtasidagi funksional integratsiya ham oldindan o'ylangan reja emas edi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, "kibermakon"ning obyektivligi:

Birinchidan, kibermakon inson omilidan tashqarida mavjud, uni boshqarish inson qudrati bilan belgilanmaydi (garchi inson doim shunga intilib kelayotgan bo'lsa-da). U go'yo vaqt va makon chegaralaridan tashqarida turadi.

Ikkinchidan, kibermakon fazosidagi elementlar, asosan, voqelikning obrazi sifatida yuzaga keladi. Bular inson manfaatlariga xizmat etuvchi bilimlar deyiladi.

Uchinchidan, zamonaviy axborot texnologiyasi o'tmishiga e'tibor bersak, ular telegraf, telefon, radio, televidenie singari texnika yutuqlari bilan qurollanganligini ko'ramiz.

Yuqorida keltirib o'tilganidek, kibermakonni harakatga keltiruvchi subyektiv omillarga: kompyuter, internet aloqasi, elektron biznes, elektron ta'limni kiritish mumkin. Shu o'rinda elektron ta'lim haqida kenroq to'xtalib o'tsak.

Elektron ta'lim – insonga bilim olishda virtual aloqa orqali nafaqat mintaqaviy, balki geografik joylashuvidan qat'iy nazar, onlayn kurslarga qatnashish imkonini beruvchi elektron platforma. Zamonaviy kibermakonda elektron ta'lim olish yoki berish imkoniyatlari:

– bugungi kunda internet tizimi orqali bilim olish yoki berishni istagan har qanday kishi yoki muassasa bir nechta texnik talablar asosida "elektron ta'lim" platformasi orqali bu maqsadini amalga oshirishi mumkin;

– elektron ta'lim berish tizim platformasi orqali: ta'lim yo'nalishlari bo'yicha tanlash, uni boshqarish, nafaqat tarkibni yaratish va boshqarish, balki uni almashish, shuningdek, talabalar o'rtasida almashinuv manbalari (suhbatlar, forumlar va boshqalar) ustidan nazoratni amalga oshirishga ham imkon beradi;

– elektron ta'lim orqali ijtimoiy masofa yo'qoladi va jahonning turli qatlamlaridan kelgan turli toifadagi insonlarni birlashtiradi [12.184–187], bu esa dunyoda ilmiy tajribani boyitish va transformatsiya qilishga imkon beradi.

Xulosa va takliflar. Yuqorida keltirib o'tilgan qiyosiy tahlildan ham ko'rish mumkinki, kibermakonning obyektivligi jamiyat hayotida inson omiliga bog'liq bo'lmagan holda rivojlanayotganligi bilan belgilansa, uning subyektivligi ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida ishtirok etish imkoniyati "inson ongi" mahsuli bo'lgan "ijodkorlik", "ixtirochilik" va "yaratuvchilik" natijalariga bog'liqligini ko'rsatmoqda. Ularning dialektik aloqadorligi quyidagi xulosalar bilan belgilanadi:

Birinchidan, kibermakon namoyon bo'lish xususiyatiga ko'ra, obyektiv va subyektiv omillar bilan belgilansa-da, uning dinamik rivojlanishi "relatsion" qoidasiga zid kechadi. Shu sababli kibermakonni – prekognitiv yondashuvda tadqiq etish ko'proq samara beradi.

Ikkinchidan, bugungi zamon insonlari virtual olamlardan tashqarida "mavjud bo'lmay" qoldi. Shuning o'zi ham kibermakonni "inson omilidan tashqarida mavjud bo'lgan obyektiv borliq" ekanligini ko'rsatmoqda.

Uchinchidan, kibermakon fazoviy kengligida o'zimizni erkin his etish, virtual dunyo bilan o'zaro munosabatimizni, kerak bo'lsa, o'zligimizni shakllantirish imkoniyatini bermokda.

To'rtinchidan, kibermakon tabiati borasidagi falsafiy munozaralarga subyektini (kibermakonni harakatlantiruvchi, rivojlantiruvchi omillar, masalan, insonning intellektual salohiyati), kibermakon obyektiga (tashqi dunyo) qarama-qarshi qo'yish, jamiyat ijtimoiy hayotida ichki diffuziyani keltirib chiqaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Добринская Д.Е. (2018). Киберпространство: территория современной жизни. "Вестник Московского университета", серия 18, "Социология и политология", № 24 (1), с. 52 – 70.
2. Deutch D. The Fabric of Reality. The Science of Parallel Universes and Its Implications. New York, Viking Penguin, 1998, p. 72 – 74.
3. Плинер А.А. Киберпространство: информационный, языковой, технологический аспекты. Эпистемы. Аспекты аналитической традиции, 2014, вып. 9, с. 97 – 104.
4. Dan Hunter. Cyberspace as Place and the Tragedy of the Digital Anticommons. 91 Cal. Rev. 2003, p. 439–469.

5. Cohen J.E. Cyberspace as/and Space. Colum. L. Rev. 2007, p. 210.
6. Словарь философских терминов и понятий. Саратов, 2017, с. 4.
7. Yazdanov U.T. (2014). Democracy of governing: state, society and public opinion. European science review (3-4), p. 184 – 187.
8. Mbanaso U.M., Dandaura E.S. (2015). The cyberspace: Redefining a new world. IOSR Journal of Computer Engineering, 17(3), p. 17 – 24.
9. Waśniński A., Tomczyk Ł. (2015). Factors reducing the risk of internet addiction in young people in their home environment. Children and Youth Services Review, 57, p. 68 – 74.

**Maxmudova Aziza Nugmanovna (Samarqand davlat Tibbiyot universiteti
“Ijtimoiy va gumanitar fanlar” kafedrasi mudiri, dotsent, falsafa doktori PhD)**

BIOETIKANING FAN SIFATIDA RIVOJLANISHI VA UNING METODOLOGIK ASOSLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada bioetikaning fan sifatida rivojlanishi yoritilgan. XX asrning 70-yillarida bioetikaning fan sifatida rivojlanib borishi yangi biotibbiyot texnologiyalarining amaliyotga tatbiq etilishi bilan bog‘liq. Global bioetika tibbiyot etikasi, atrof-muhit etikasi kabi axloqiy qonuniyatlarni o‘z ichiga olgan normalar tizimini tashkil etadi. Globallashuv natijasida insoniyat hayoti va faoliyatiga real xavfning tahdid solishi tibbiy xizmat ko‘rsatish va ekologiya sohasidagi axloqiy huquqlarning ishlab chiqilishi bioetikaning shakllanishiga olib kelgan.

Аннотация. В данной статье описывается развитие биоэтики как науки. Развитие биоэтики как науки в 70-х годах 20 века связано с внедрением новых биомедицинских технологий. Глобальная биоэтика – это система норм, включающая такие моральные законы, как медицинская этика и экологическая этика. Угроза реальной опасности для жизни и деятельности человека в результате глобализации, развития неимущественных прав в сфере медицинских услуг и экологии привели к формированию биоэтики.

Annotation. This article describes the development of bioethics as a science. The development of bioethics as a science in the 70s of the 20th century is connected with the implementation of new biomedical technologies. Global bioethics is a system of norms that includes moral laws such as medical ethics and environmental ethics. The threat of real danger to human life and activities as a result of globalization, the development of moral rights in the field of medical services and ecology led to the formation of bioethics.

Kalit so‘zlar: bioetika, transplantologiya, gen injeneriyasi, deontologiya.

Ключевые слова: биоэтика, трансплантология, генная инженерия, деонтология.

Key words: bioethics, transplantology, genetic engineering, deontology.

XX asrning 70-yillarida bioetikaning fan sifatida rivojlanib borishi yangi biotibbiyot texnologiyalarining amaliyotga tatbiq etilishi bilan bog‘liqdir. Transplantologiya va gen injeneriyasi, tibbiy diagnostika va inson reproduksiyasining rivojlanishi natijasida tibbiyot sohasidagi taraqqiyotning ilgarilab borishi na faqat hayvonlar, balki odamlarda ham turli tibbiy tadqiqotlar va ilmiy tajribalarning o‘tkazilishi kabi omillar bioetikaning fan sifatida rivojlanib borishiga sabab bo‘ldi. Natijada ilgari insoniyat taraqqiyotida yuz bermagan, tibbiy madaniyatga oid axloqiy muammolarni hal etishning ilmiy-falsafiy va axloqiy tamoyillari yaratildi.

Amerikalik olim Van Rensseler Potter o‘zining tadqiqotlarida axloqiy tarbiyani faqatgina insoniy munosabatlardagina emas, balki hayotning barcha jabhalarida insoniy xatti-harakatlarni tartibga solish maqsadida tatbiq etish lozimligini qayd etadi. Jumladan, u o‘zining “Bioetika: kelajakka ko‘prik” nomli kitobida “Ushbu kitobning maqsadi–bioetika deb nomlanadigan yangi mustaqil fan sohasini shakllantirish yo‘li bilan insoniyat kelajagiga hissa qo‘shish. Agarda tibbiyot fani va gumanitar bilimlar kabi ikki madaniyat mavjud bo‘lsa, kelajakni ro‘yobga chiqarish uchun biz ana shu ikki madaniyat o‘rtasidagi ko‘prik kabi bu yangi fan yordamida kelajakga o‘tish ko‘prigini qurishimiz mumkin”, deb qayd etgan [1].

Van Rensseler Potter (1911–2001) bioetika atamasini ilmiy muomalaga kiritgan olim sifatida shuhrat qozongan. Dastlab, Janubiy Xarkota universitetining biologiya fakultetini, keyinchalik, Viskonsin universitetida magistraturani tamomlagan Potter doktorlik ilmiy darajasini olganidan so‘ng, Stokgolm bioximiyasi institutida bilan hamkorlikda ilmiy tadqiqotlar o‘tkazdi. Potter uzoq yillar Viskonsin universitetida onkologiya professori sifatida faoliyat yuritib, saraton kasalligini davolashda hujayra o‘stirish amaliyotini o‘tkazgan. Ko‘plab ilmiy hamjamiyatlarda faoliyat yuritgan Potter erishgan yutuklari uchun u Pol-Levis, Bertner, Klous, Nobel fondi, Bristol–Meyr, Bioetika xalqaro jamiyati kabi mukofotlarga sazovor bo‘lgan.

Potter bioximiyasi hamda saraton kasalligi tadqiqotiga oid 350 dan ortiq asarlar yaratgan bo‘lsa, bioetika sohasi bo‘yicha 50 dan ortiq ilmiy maqola va ilmiy asarlarning muallifidir. Potter o‘z asarlarida na faqat bioximiyaga, balki fiziologiya, ekologiya, falsafa va sotsiologiyaga ham oid muammolarni yoritib

bergan. Bioetikaga oid eng mashhur dunyoga tanilgan asarlari “Bioetika – kelajakka ko‘prik”, “Global Bioetika” kabi asrlardir. Shuningdek, “Bioetika” atamasini Potter aynan mana shu asarlarida ilk marotaba qo‘llagan. Bugungi kunda Potterning ilmiy tadqiqotlari samarasi bioetika haqidagi zamonaviy qarashlarning asoslarini yaratishga, xalqaro amaliyotga joriy etilishiga, etika buyicha fanlararo qo‘mitalarning tashkil topishiga xizmat qilib kelmoqda.

Potterning asosiy g‘oyasi Yer yuzida hayotni saqlab qolish ayniqsa, biotibbiy texnologiyalar sohasidagi o‘zgarishlarni me‘yorga soluvchi, ilm-fan, texnika taraqqiyotining uzoq muddatli va xavfli oqibatlarini hal qilish uchun gumanitar fanlar va biologiyaning birlashtirilishi tartibga soluvchi axloqiy me‘yorlarni ishlab chiqib, amaliyotga joriy etishni nazarda tutadi. Barqaror taraqqiyotda insoniyatning uzoq muddat yashab qolishi borasidagi axloqiy normalarni qo‘llab-quvvatlashni va amaliyotga joriy etishni taqozo etadi. Shu sabab axloqiy normalarining mazkur tizimini V.R.Potter global bioetika deb nomlagan [2].

Axloq “o‘z-o‘zidan” harakatlantiruvchi sistema sifatida ma‘naviy hayotning eng muhim va keng sohasi bo‘lib, funksional xususiyatga ega. Uning barcha funksiyalaridagi murakkab dialektik o‘zaro aloqadorlikka qarab spesifikasi va rolini belgilash mumkin. Odatda, axloqning umumiy funksiyalari: tartibga solish (boshqaruv), stimuly, baholash, bilish, tarbiyalash funksiyalaridan iborat deb hisoblanadi. Amalda esa ularning barchasi bir-birini to‘ldiradi va bir-biriga o‘tib turadi, biri boshqasi orqali (ketma-ket) amalga oshadi. Bir-birini to‘ldirishda ular axloqning shaxsiy va ijtimoiy manfaatlarining moslashuvini va shu asosda jamiyat mavjudligi va rivojlanishining zaruriy sharti bo‘lgan tartib-intizomga rioya qilishni ifodalaydi.

Jamiyat hayotida axloqning tutgan o‘rni nihoyatda katta. Biroq u o‘z-o‘zidan ro‘yobga chiqmaydi. Har qanday g‘oyalarni ro‘yobga chiqarish uchun odamlarning amaliy kuch-qudratlari zarur, axloqiy tarbiya zarur. Tarbiya kishining ma‘naviy qiyofasi, uning irodasi o‘z-o‘zini anglashi, xarakterini shakllanishida katta ahamiyatga egaadir. Insoning ma‘naviy qiyofasi axloqiy fazilatlarini yaratadi, ideal motivlar tariqasida ma‘naviy rag‘bat namoyon bo‘ladi.

Axloq ijtimoiy taraqqiyot mahsuli bo‘lganligi sababli, uzluksiz o‘zgarib boradigan ijtimoiy hayot ta‘sir ko‘rsatib turadi, ya‘ni tarixiy xarakterga ega. Hozirgi rivojlangan jamiyatda axloqiy hodisalarga bo‘lgan munosabat o‘zgarib borsa ham, barcha davrlarda axloqdagi jasurlik, kamtarlik, himmat, mehmondo‘stlik, bemorlarga yordam ko‘rsatish va boshqa insonparvarona xislatlar rag‘batlantirilgan. Axloqdagi umuminsoniylik, milliylik qotib qolgan qoidalarning oddiy yig‘indisi emas, uning mazmuni hamisha ma‘lum ijtimoiy guruhlarining talablari, konkret davrning chegaralari bilan mustahkamlanib, rivojlanib boradi. Shunday qilib, axloq umuminsoniylik va milliylik elementlari bo‘lgan ijtimoiy hodisa hamda ma‘naviyat sohasidir. Axloq real hayotni aks ettirish, baholash shakli va uni o‘zgartirish vositasidir. Nihoyat, axloq ham, odamlar o‘rtasidagi o‘ziga xos aloqa vositasi, ham emotsional hissiy kuch-g‘ayratning qudratli manbai, ham shaxsni tarbiyalashning doimiy vositasidir.

Insonlarda axloqiy sifatlarining shakllanishiga jamiyatning iqtisodiy strukturasi tashkil etadigan ijtimoiy munosabatlarinigina emas, balki unga, ma‘lum davr yoki mamlakatdagi siyosat ham ta‘sir ko‘rsatadi. Siyosat millatlar, xalqlar, davlatlar o‘rtasidagi munosabatlarni aks ettiradi, kishilarning barcha mafkuraviy tasavvur va tushunchalariga singib boradi, kishilar amal qiladigan axloq prinsiplari, norma va qoidalarning ta‘sirchanligini orttiradi.

Siyosat axloqiy qarashlarning mazmunini ma‘lum bir shakllarga soladi, ularning rivojlanishiga yo‘nalish beradi. Axloq esa ijtimoiy ongning shakllaridan biri sifatida ijtimoiy taraqqiyotni tezlashtiruvchi yoki unga ta‘siq bo‘luvchi o‘ziga xos kuch sifatida siyosatga ta‘sir ko‘rsatadi. O‘z davrida hokimiyatga intilgan guruhlar ham siyosiy kurashda qulay kelganda axloqiy omildan yaxshigina foydalanadi [3.151].

Siyosat va axloq o‘zaro bog‘langan va o‘zaro bir-biriga ta‘sir ko‘rsatadi, axloq jamiyatning siyosiy ideallarini mustahkamlash uchun axloqiy qo‘llab-quvvatlashga muhtojdir. Nemis klassik falsafasining namoyandalari I.Kant va Gegel huquq bilan axloq o‘rtasidagi bog‘lanishni aniqlash borasida bir necha tadqiqotlar olib borishgan. Huquq va axloqning dialektik biriligini, o‘zaro bog‘liqligi va o‘zaro ta‘sirini, hamda ularning farqini, shuningdek, o‘ziga xos xususiyatlarini e‘tirof etmoq lozim. Ularning har ikkisi ham kishilar o‘rtasida tashkil topgan moddiy va ma‘naviy munosabatlarni mustahkamlashga, ularning xulqida bir-biriga, jamoaga, davlatga munosabatlarda lozim va mumkin bo‘lgan normalarni belgilashga qaratilgan.

Global bioetika tibbiyot etikasi, bioetika, atrof-muhit etikasi qabi axloqiy qonuniyatlarni o‘z ichiga olgan normalar tizimini tashkil etadi. Potterning fikriga ko‘ra, bioetika insoniyatning yashab qolishini ta‘minlash va butun kishilik jamiyatining sog‘lig‘ini saqlash uchun tibbiyot etikasi bilan atrof-muhit etikasining jahon miqyosidan birlashtiruvchi ko‘prik bo‘lishini ta‘minlaydi.

“Bioetika” yo‘nalishi insonning butun tirik mavjudotga bo‘lgan munosabatini ko‘rib chiqadigan soha bo‘lib, biologiya va tibbiyot sohasidagi bilimlarning taraqqiyoti, tibbiyotning yangi imkoniyatlari ri-

vojlani borgan sari an'anaviy etikada uchramayigan muammolarni keltirib chiqarganligi sabab vujudga kelgan. Tadrijiy rivojlanish jarayonida bioetikada insonga ma'naviy munosabat masalalarini ko'rib chiqish (tibbiyot etikasi) hamda insonning hayvonlarga munosabati etikasini, ya'ni, hayvonlardan turli maqsadlarda oziq-ovqat manbai, sanoat xomashyosi, biologik tadqiqotlar uchun model va ko'ngilxushlik obyekti sifatida foydalanish masalalarini o'rganuvchi ikki yo'nalish shakllanib bordi. Shuningdek, keyinchalik jahon miqyosida atrof-muhit etikasi ham shakllandi.

Ushbu yo'nalishlar ichida bugungi kunda eng dolzarb ahamiyat kasb etadigani bu tibbiyot etikasi bo'lib, insoniyatni jiddiy xavotirga qo'ymoqda. Amalda bioetika tibbiyotning axloqiy muammolariga e'tibor qaratib, bugungi kunda shifokor va bemor munosabatlarining axloqiy jihatlari, evtanaziya va o'limni aniqlash, inson a'zolarini transplantatsiya qilish, homila tushirish (abort), klonlash, irsiy injeneriya kabi masalalarni falsafiy axloqiy jihatdan tahlil etib kelmoqda. Ilmiy nuqtayi nazardagi qiyosiy tahlillar doirasida "tibbiyot etikasi", "bioetika" atamasi o'rnida "deontologiya" atamasi ham qo'llanilib kelmoqda. Deontologiya – etikaning burch va majburiyatlari bilan birga uning muammolarini ham o'rganuvchi bo'lim bo'lib ushbu atamani, dastlab, ingliz faylasufi Iyeremii Bentam XIX asrda ilmiy muomalaga kiritgan [4].

XX asrning ikkinchi yarmida transplantologiya, irsiy diagnostika, irsiy injeneriya va klonlashtirishning rivojlanib borishi tibbiyot texnikasida ilgari vafot etishi mumkin bo'lgan bemorlar hayotini sun'iy ravishda saqlab qolish, og'ir vaziyatdagi bemorlarning va nogironlarning huquqlarini yuridik jihatdan himoya qilishning yangidan yangi asoslari va usullarining ishlab chiqilishiga olib kelmokda.

Globalashuv natijasida insoniyat hayoti va faoliyatiga real xavfning tahdid solishi tibbiy xizmat ko'rsatish va ekologiya sohasidagi axloqiy huquqlarning ishlab chiqilishi bioetikaning shakllanishiga olib keldi. Etikasiz ish tutish va axloq masalalarini chetga surishga harakat qilingan joylarda inson hayoti uchun yangi xavf tug'iladi. Inson manfaatlarini himoya qilish, uning qadr-qimmatini haqida qayg'urish amaliy etikaning yuzaga kelishiga zamin yaratadi. Bioetika tibbiyot etikasidan qanday farq qilsa, amaliy etikadan an'anaviy etikadan shunday farq qiladi. Amaliy etikaning ba'zi bir yo'nalishlarini tahlil qilish uchun an'anaviy etikani tahlil qilish lozim.

An'anaviy etika va hozirgi zamon etikasi bir-biridan muammolar ko'lamining kengligi hamda o'z metodologiyasiga ko'ra farq qiladi. An'anaviy o'z yo'nalishlariga ko'ra baxt etikasi (evdemonizm, felisitologiya), ezgulik etikasi (aretologiya, arete-ezgulik), burch etikasi (deontologiya), muhabbat etikasi, hamdardlik etikasi, adolat etikasi va hokazo yo'nalishlarga bo'linadi. An'anaviy etikaning asosiy o'ziga xos jihatlari shundaki, unda qadriyatlar haqidagi nazariyalarni ro'yobga chiqarish, ularni axloqiy normalarga aylantirishga harakat qilingan. Ma'naviy qadriyatni asoslash zamirida mazkur qadriyatlarni xulq-atvor normasiga aylantirish masalasi asosiy o'rin egallagan.

Mumtoz faylasuflar sanalgan Suqrot, Aristotel, Spinoza va Kant o'z g'oyalarida insoniyatga yaxshi yashash sirini o'rgatgan buyuk ma'rifatchilar bo'lishgan va nasihatgo'ylar ham bo'lishgan. Jumladan, Spinozaning "Yig'lamang, kulmang, balki tushunishga intiling" degan mashhur iborasi "baxtli hayot" formulasi deb e'tirof etilgan.

Etikaning fanlararo o'zaro ta'siri masalasi ko'p asrlik tarixga egadir. Bu haqda Suqrot, Platon, Aristotel kabi antik davr faylasuflari ko'plab ma'lumotlar qoldirganlar. Bugungi kunda ilmiy etika fan va axloqning dialektik aloqadorligini e'tirof etgani holda, ilg'or axloqiy normalarning fan taraqqiyotiga ijobiy ta'sir etishini e'tirof etadi. O'z navbatida, fan ham faqat borliqdagi faktlarni izohlash va tahlil qilish, atrofda olam rivojlanishi qonunlarini ochish bilangina cheklanib qolmasdan, dunyo muamolarini tadqiq etib, haqiqatni ochish, ezgu tadqiqotlar orqali axloqiy javobgarlik, mas'uliyat, maqsadlarga erishishni belgilab beradi. Zero, bilim bo'lmasa, chin fazilatlar bo'lishi, aql bo'lmasa, vijdonning bo'lishi mumkin emas. Fan axloq uchun mutlaqo zarurdir. Chunki ilm-fanni, bilimni chetlashtirishga bo'lgan har qanday urinishlar axloqni inqorozga olib keladi Bunday holatda axloq o'zining ijtimoiy ahamiyat va ta'sirchanligini yo'qotishi, shubhasiz.

Etikaning axloqiy qoidalari odob-axloqni o'rgatish, axloqni targ'ib qilishdan farq qilib, uning o'ziga xos axloqiy dasturlari tajribaga va mantiqqa tayanadi. Shu sabab falsafiy-axloqiy tamoyillar diniy targ'ibotdan keskin farq qiladi.

XIX asrning boshlarida nemis faylasufi Artur Shopengauer inson haqidagi tasavvurlarga e'tiroz bildirib, an'anaviy etikaning asosiy g'oyalarini tanqid qiladi va "inson aql-idrokka ega. U o'z xatti-harakatlarini nazorat qila oladi, insonning ongi va irodasida oqilona maqsadlar va niyatlar yetakchilik qiladi, degan g'oyalarni ilgari surib, yangi irratsionalistik yo'nalishga asos soladi [5.26]. Shuningdek, Artur Shopengauer inson va jamiyatga nisbatan yangicha yondashuvga asos solib, unda insonni ideallashtirmaslikni, uni o'zgartirishga harakat qilmaslikni, uni qanday bo'lsa, shunday qabul qilishni ilgari suradi.

Axloq normalari jamiyatning iqtisodiy, siyosiy-ijtimoiy tuzilishiga bog'liq. Ammo bu gapdan, jamiyatga mansub bo'lgan kishi o'z ongi va fe'l-atvorida mazkur jamiyat, davrning axloqiy xususiyatini

to'la va bir xil darajada aks ettiradi, degan ma'no kelib chiqmaydi. Shaxs xulq-atvorining axloqiy ko'rsatkichi iroda erkinligi to'g'risidagi masala bilan mahkam bog'langan. Bir xil sharoitda ham odamlarning xatti-harakati, xulqi turlicha bo'lishi mumkin. Ular fidokor yoki qo'rqqoq, oliyanob yoki befahm, saxiy yoki ochko'z, mehnatsevar yoki tanbal, qatiyatli yoki qatiyatsiz bo'lishlari mumkin. Shuning uchun ham odamlarning xatti-harakatlariga axloqiy yoki axloqqa xilof xatti-harakat deb baho berishi mumkin. Ammo kishilarning axloqiy qarashlari va xulqini belgilovchi ijtimoiy muhitlarning ayrim shaxs fikri va harakatiga ko'rsatadigan ta'siri o'z-o'zidan sodir bo'lmaydi. Ya'ni, osmonga otilgan tosh yerga tushadi, och qolgan hayvon o'ljasining poyiga tushadi, lekin inson xatti-harakati boshqacha u aql-idrok, maqsad yoki hirsning ta'sirida harakat qiladi.

Axloqiy erkinlik shaxsning maqsadga muvofiq xatti-harakatlarga ongli ravishda shaxsiy va ijtimoiy manfaatlar o'rtasida mutanosib uyg'unlik o'rnatishga qobilligidan iborat. Shaxsning ijtimoiy va axloqiy zaruriyat bilan belgilangan doirada xatti-harakatlarni tanlashda o'z irodasini namoyon qilish imkoniyatlari, o'z xulqini nazorat qila bilish va o'z xatti-harakatlari uchun javobgarlik imkoniyatlari – axloqiy erkinlikdir. Demak, kishilarning hamma xatti-harakatlari va faoliyatlari, ularning irodasi va ongi hamisha obyektiv, konkret tarixiy sharoitlar, tabiatda ham, jamiyatda ham mavjud bo'lgan obyektiv zaruriyat bilan belgilanadi. Inson zaruriyatni bilib olgunga qadar shu zaruriyatning hukmi ostida bo'ladi. Dialektik tafakkur tarafdorlari obyektiv zaruriyatni e'tirof etish bilan birga, xatti-harakatlarning xilma-xilligini inkor etmaydilar. Umumiy ijtimoiy-tarixiy zaruriyat doirasida har bir kishi uchun tanlash erkinligi bor va iroda erkinligini ham ko'rsata oladi. Tanlash erkinligi jamiyat va kishilarning rivojlanish ehtiyojlariga mos keladigan, qaror topgan yoki shakllanayotgan muayyan axloqiy munosabatlarni tanlashdir.

Etika, shaxsning o'z xatti-harakatlari uchun mas'uliyati asosida shaxs va jamiyatning o'zaro aloqadorligi va bog'liqligini o'rganadi. Shaxsning axloqiy mas'uliyati kishining jamiyati oldida va o'zi oldida xulqini tanlash va uni baholashi uchun hisob berishda namoyon bo'ladi. Etika nuqtayi nazaridan, shaxsning axloqiy mas'uliyat darajasi faqat obyektiv omilga ega emas, ayni paytda, subyektiv omillarga ham, ya'ni kishilarning, aqli, irodasiga ham bog'liqdir.

Hozirgi zamon etikasi sotsiologiya, psixologiya singari fanlarga tayanib, axloq sotsiologiyasi yoki axloq psixologiyasi kabi vazifalarni bajaradi. Bugungi kundagi amaliy etikaning kompyuter etikasi, biznes etikasi, ishbilarmonlik etikasi, ekoetika, tibbiyot etikasi, bioetika kabi yo'nalishlari o'z taraqqiyot bosqichiga erishib bormoqda.

Bioetika terminining AQSHda ilmiy burilish yasashi Van Rensseler Potterning tadqiqotlaridan so'ng Yer yuzida ijtimoiy hayotni saqlab qolish muammolarini ilmiy-nazariy jihatdan hal etish borasida ilmiy va texnologik taraqqiyotning salbiy oqibatlarini, ayniqsa, biotibbiy texnologiyalar sohasida tub burilishga olib kelayotgan ilmiy tadqiqotlarning insoniyat taraqqiyotiga ta'sirini kamaytirish borasidagi sa'y-harakatlarning boshlanishiga hamda gumanitar va fundamental fanlarning itjobjiy natijalarini birlashtirishga yo'l ochib bergan.

Bioetikaning shiddat bilan rivojlanib borishiga turtki bo'lgan ilmiy tadqiqot esa yana bir amerikalik biotibbiyot yo'nalishi professori Jon Kennedi nomidagi Etika institutining asoschisi Andre Helleghersning tadqiqotlaridir. Andre Helleghers biotibbiyotning axloqiy muammolarini tahlil qilgan ekan, birinchi navbatda, bemorlarning haq-huquqi va qadr-qimmatini himoya qilish bilan bog'liq bo'lgan fanlararo tadqiqotlarni amalda namoyon etish uchun "bioetika" atamasidan foydalangan. A.Helleghers bioetikaning zamonaviy tibbiyot taraqqiyotida yuzaga kelayotgan axloqiy nizolarni tahlil qilish bilan birga, uning liberal yechimini topish va zamonaviy yangi yangi usullardan huquqiy jihatdan mohirona foydalanishni kiritgan. Ushbu tashabbus bioetikaga ilmiy tus berish va uning ilmiy va siyosiy mavqeyini oshirishga xizmat qilgan. Natijada 1971-yilga kelib, Andre Helleghers tomonidan Jon Kennedi nomidagi Etika institutiga asos solinib, ilk bora shifokorlar, faylasuflar hamda ushbu sohadagi barcha mutaxassisliklar vakillari uchun bioetika bo'yicha dastlabki ta'lim kurslarini tashkil etish boshlangan. Shundan so'ng bioetika Amerika Qo'shma Shtatlarida fanlararo yangi ijtimoiy bilim sohasi sifatida jadal sur'atlarda rivojlanib, keyinchalik, G'arbiy Yevropa va asta-sekin dunyo davlatlariga tarqala boshlangan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Поттер В.Р. Биоэтика: мост в будущее. Киев, 2002, 216 с.
2. Potter V.R. Global bioethics. Building on the Leopold Legacy. Michigan: Michigan State University Press, 1988, p. 203.
3. Г.В.Плеханов. Очерк общественной деятельности и эстетических взглядов. Собрание сочинений. Т. 3, М., "Изобраз. искусство", 1988, 560 с.
4. Бентам Иремия. Деонтология, или наука о морали (Deontology or The Science of Morality. V. 1–2, 1834). <https://ru.wikipedia.org>.

5. Юдин К.А., Бандурин М.А. Артур Шопенгауэр и судьба его идейного наследия в истории философии (К 225-летию со дня рождения (1788–2013)). “Вестник Московского университета”, Серия 7, Философия. 2013, № 5.

**Tajibayev Muxiddin Abdurashidovich (Jizzax Politehnika instituti o‘qituvchisi;
e-mail: muxiddin4949@mail.ru)**

SINERGETIK DUNYOQARASH PARADIGMASINING IJTIMOIIY-FALSAFIY VA MADANIY JIHATLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy dunyo umuman dunyoqarashning metodologik asoslari va xususan, ijtimoiy-madaniy jarayonlarning falsafiy va ilmiy nutqini qayta ko‘rib chiqishga harakat qilamiz. Shu munosabat bilan, dunyoqarashni borliqning biopsixosotsial-ma‘naviy asosi sifatida tushunishi ko‘rib chiqiladi.

Аннотация. В данной статье мы попытаемся пересмотреть философско-научный дискурс современного мира в целом и социокультурных процессов в частности. В связи с этим рассматривается понимание мировоззрения как биопсихосоциально-духовной основы существования.

Annotation. In this article, we will try to revise the philosophical and scientific discourse of the modern world in general and sociocultural processes in particular. In this regard, the understanding of worldview as a biopsychosocial-spiritual basis of existence is considered.

Kalit so‘zlar: sinergetik dunyoqarash, sinergetik metodologiya, olamning postnoklassik manzarasi, o‘z-o‘zini tashkillashtirish, nochizirlilik–izchillik–ochiqlik, inson–shaxs–jamiyat, dissipativ tuzilmalar, ilmiy paradigma, attraktor, chizirlilik, murakkab tizimlar.

Ключевые слова: синергетическое мировоззрение, синергетическая методология, постноклассическая картина мира, самоорганизация, нелинейность–последовательность–открытость, человек–индивид–общество, диссипативные структуры, научная парадигма, аттрактор, линейность, сложные системы.

Key words: synergetic worldview, synergetic methodology, post-classical picture of the world, self-organization, nonlinearity–consistency–openness, man–individual–society, dissipative structures, scientific paradigm, attractor, linearity, complex systems.

Hozirgi vaqtda falsafaning aksiologik funksiyasining ustuvorligi tufayli madaniy jarayonlarning sinergiyasini tushunishga qiziqish ortib bormoqda, bu madaniyatda insoniyatning keyingi mavjudligi va evolutsiyasi uchun zarur bo‘lgan barcha qimmatli va foydali g‘oyalarni izlashni o‘z ichiga oladi. Shu bilan birga, falsafaning ijtimoiy, tarbiyaviy-gumanitar va prognostik funksiyalari alohida ahamiyatga ega bo‘lib, ular ijtimoiy organizm sifatida inson hayotining hozirgi holatini tushuntirishga imkon beradi, jamiyatda yuzaga keladigan qarama-qarshiliklarning sabablarini ko‘rsatadi, maqsadli ravishda tarbiyalaydi. Bundan tashqari, bir qator avlodlarda insonparvarlik qadriyatlarini va g‘oyalarini, ularni madaniy qadriyatlarining saqlovchisi va o‘zgartiruvchisi sifatida yoshlarga singdirish, kelajak avlodlarning atrofida dunyoqarashni moslashishi va unda hayot mazmunini izlashga ko‘maklashish, turmush madaniyatining biopsixosotsial-ma‘naviy asoslarining rivojlanish tendensiyalarini oldindan belgilashni taqozo etadi.¹

Dunyoqarashni tushuntirishga tizimli-sinergetik yondashuv doirasida “hayot... tabiatda sodir bo‘ladigan o‘zini-o‘zi tashkillashtirish jarayonlarining eng yuqori ko‘rinishi sifatida namoyon bo‘ladi”² degan falsafiy qarashlari chiziqli nuqtayi nazardan yangilanadi. Faqat tarixiy jarayon nuqtayi nazaridan ahamiyatli bo‘lgan hayotning madaniy jarayonlarini hisobga olgan holda, dunyo deterministik xarakterdagi cheklangan sabab-oqibat munosabatlaridir. O‘z-o‘zini tashkillashtirish konsepsiyasi avlodlar madaniyati muloqoti uchun kengaytirilgan imkoniyatlarga ega bilimlar tizimidagi evolutsiyaning yangi bosqichini aks ettiradi. Sinergetik metodologiya tarafdorlari madaniy jarayonlar oqimining chiziqli bo‘lmagan ko‘p qirrali tabiati, tashkiliy yaratuvchisi sifatida fluktuatsiyalarning konstruktiv roli va hayot madaniyatining barqaror va dinamik rivojlanishiga asos bo‘lgan xilma-xillik to‘g‘risida xulosa chiqaradilar.

Keng ma‘noda dunyoqarashning sinergizmi bu jamiyatning avlodlar tuzilishi, dastlab, tashkil etilgan va shaxsiy hayotni yaratish orqali insonning o‘zini biopsixosotsial mavjudot sifatida ko‘rsatishning chiziqli bo‘lmagan jarayonidir. Shu bilan birga, hayotni tashkil etishning fazo va vaqt parametrlari bilan belgilanadigan ijtimoiy-madaniy tuzilmalarni tavsiflashda V.B.Samsonov dunyoqarash sinergizmi to‘g‘risida, bu atamani milliy-madaniy kodda to‘plangan, butun mamlakat bo‘ylab (sivilizatsiya) inson tanasi

¹ Лысенко Е.М. Синергийный анализ функционирования культуры. Философия и образование: интеллектуальные традиции и новации. Саратов, 2006.

² Пригожин И. Определено ли будущее. Ижевск, ИКИ, 2005, 240 с.

va mentaliteti sohalarida tizimli ta'sir ko'rsatadigan tarixiy hayot yo'llarining yig'indisi sifatida tushunib, insoniyatning demo-, texno- va noosferasi deb ataydi.

Yangi metodologik yondashuvlar va konsepsiyalarni ishlab chiqish, birinchi navbatda, zamonaviy texnik sivilizatsiyaning rivojlanish paradigmasi va shakllarini o'zgartirishni talab qiladigan sayyoramizning ekologik haddan tashqari yuklanishi bilan bog'liq bo'lgan globallashuv davrining o'ziga xos muam-molariga;

◆ ikkinchidan, insoniyatning yashashning yangi iqtisodiy sharoitlariga moslashgan va moslash-magan, moddiy turmush madaniyati past bo'lgan sayyora aholisining ko'pchiligiga tabaqalanishiga;

◆ uchinchidan, turli xil jismoniy, somatik va ijtimoiy salomatlik buzilishlariga ega bo'lgan odamlar-ni ko'payishi va virtual dunyo ilinjida real dunyoni «tark etish» tendensiyasi kuchayishiga;

◆ to'rtinchidan, insoniyatning ma'naviy va axloqiy tanazzulga uchrashiga, jinoiy statistikaning kes-kin yomonlashuvi va aholining ruhiy tushkunligi bilan namoyon bo'ladi, bu esa zudlik bilan ijtimoiy-ma-daniy paradigmani o'zgartirishiga;

◆ beshinchidan, yoshlar hayoti madaniyatiga aylanib borayotgan, uning axloqiy ideallari va hayot-ni barcha sohalarini belgilab beruvchi ommaviy madaniyatning asosiy namunalarini hukmronligi tufayli madaniyatning nobud bo'lishi haqidagi jamoatchilik fikrining kuchayishiga javob bo'ldi.

Sinergetik metodologiyani asosiy usul sifatida tanlash tasodifiy emas, chunki zamonaviy shaxsning ijtimoiy-madaniy makonida hayot yo'li va ustuvor qadriyatlarning ko'plab alternatalari mavjud. Siner-getika, ko'p jihatdan, tadqiqotchiga bipolyar dinamika qonuni, mumkin bo'lgan tanlov oldidagi tizimning bifurkatsiya nuqtalaridagi holati to'g'risida fikr yuritishga yordam beradi. Shuningdek, tarixiy nuqtai na-zardan va retrospektivda muqobillarni faol tasvirlash va qabul qilish, ma'nosini tushuntirishga yordam be-radi.

Nobel mukofoti laureati Bryussel maktabi vakili I.R.Prigojinning tadqiqotlari zamonaviy vaqt uz-luksizligi uchun ko'rsatma bo'lib xizmat qilgan sinergetikaning metodologik asoslari edi. Bu maktab va-killarining asarlarida dissipativ tuzilmalar nazariyasi va o'z-o'zini tashkillashtirish nazariyasining tarixiy va g'oyaviy asoslari ochib berildi. Tadqiqot mavzusiga bilvosita Shtutgardagi Sinergetika va nazariy fi-zika instituti professori G.Xaken¹ maktabining ishlari, matematik apparatdan foydalangan holda katastro-fik sinergetik jarayonlarni tavsiflash bo'yicha klassik ishlar va akademik V.I.Arnoldning² bifurkatsiyalar nazariyasi kiradi. Sinergetik qarashlarni konseptualashtirishga biofizika maktabi, fransuz matematigi P. Tom va akademik A.A.Samarskiy³ maktablari, shuningdek, Rossiya Fanlar akademiyasining muxbir a'zosi S.P.Kurdyumovlar⁴ matematik modellar asosida o'z-o'zini tashkillashtirish nazariyalari ishlab chi-qish va olingan natijalar ochiq nohiziqli muhit (tizimlar)da nisbatan barqaror tuzilmalar evolutsiyasi mexanizmlarini o'rganishda katta hissa qo'shdilar.

Sinergetika va dialektikaning birligi, har qanday o'zaro ta'sirning boshlang'ich nuqtasi va tizim rivojlanishining manbai to'g'risidagi qoidada ham namoyon bo'ladi. Dialektik qarashlar tarafdorlarining fikriga ko'ra, "materianing mavjudligi shakli harakatdir, implitsit saqlanish bilvosita o'zgarishlarni o'z ichiga oladi, qarama-qarshiliklarning birligi va kurashi tufayli muqarrar rivojlanish sodir bo'lishi mum-kin, sinergetikada attraktor yaxlit tizimni tashkil etuvchi omil",⁵ evolutsiya o'zagi bo'lib, elementlarning o'zaro ta'siri uchun muhim asosga aylanadi va elementlarning tizimga birlashishi bu «rivojlanish yoki o'z-o'zini tashkillashtirish istagi» bilan emas, balki tizimlar muvozanatsiz sharoitda "yashab qolish"⁶ ista-gi bilan bog'liq. Dunyoqarashni dialektik birlikda ko'rish, unda muhim asoslari: biologik, ijtimoiy, psi-xologik, ma'naviy, bir butun sifatida, shuningdek, sinergetika prizmasi orqali namoyon bo'lishi yesa o'z-o'zini tashkil qilish qobiliyatini keltirib chiqaradi.

Bizning nuqtayi nazarimizga ko'ra, dunyoqarashning subyektiv dinamikasini sinergetik tushunish asosini tashkil etuvchi va dialektik qonuniyatlarga asoslangan tizimli metodologiyalar fazo-vaqt uzluksiz-ligining madaniy-tarixiy jarayonlarini sinergik tushuntirish bilan birga yashashi mumkin.

Sinergetika birlashtiruvchi vazifani bajaradi va «dunyoqarashda yangi shakllanish» sifatida namo-yon bo'ladi.⁷ Sharqning eng yaxshi an'alarini idrok etgan holda, sinergetika klassik madaniyatning

¹ Haken H. Synergetics as a Tool for the Conceptualization and Mathematization of Cognition and Behavior – How Far Can We Go? Synergetics of Cognition. Eds. Haken H., Stadler M. Berlin, 1990, p. 2 – 31.

² Арнольд В.И. Теория катастроф. М., 2005.

³ Самарский А.А., Курдюмов С.П., Ахромеева Т.С., Малинецкий Г.Г. Нелинейные явления и вычислитель-ный эксперимент. Вестник АН СССР, 1985, № 9.

⁴ Курдюмов С.П. Законы эволюции и самоорганизации в сложных системах. М., 1990.

⁵ Режабек Е.Я. Капитализм: проблемы самоорганизации. Ростов н-Д, 1993.

⁶ Богданов А.А. Тектология. Кн. 2, М., 1989.

⁷ Психология и культура. Под ред. Д.Мацумото, СПб., 2003.

analitikligidan tashqariga chiqadi. Xitoy donishmandlaridan har bir voqea boshqa hodisalar bilan bog‘liq bo‘lgan olamni izchil deb hisoblash g‘oyasi va Sharq mutafakkirlarining g‘oyalari – «Hind fazilatlar – «ichki dushmanlar» – Ayurveda, Xitoyning axloq va Sigun haqidagi ta‘limoti; Tibet tibbiyoti – «Jud – Shi», musulmonchilikdagi “Halol va harom” yaxlit tizim kabilarni o‘z ichiga oladi, amal qiladi. G‘arb dunyoqarashi an‘analariga muvofiq, sinergetika Platon va Aristotelning ba‘zi g‘oyalari (potensial va noaniq shakllar haqidagi g‘oyalar),¹ G.Leybnitsning (monadalar va kogerentlik, dunyo qismlarining izchilligi),² Nitsshening (abadiy qaytish, hozirgi vaqtni oldindan belgilash),³ A.Bergsonning (evolutsiyaning qaytarilmasligi),⁴ N.Gartmannning (dunyoning darajadali ontologiyasi va teleologik tafakkur strukturalari),⁵ P.Valerining (olamni xaotik tartibga solish g‘oyalari, yangilikni nisbiy «dasturlash», olam va inson kreativlik mexanizmlari),⁶ A.Uaytxedning (koinotdagi hodisalarning protsessualligi kogerentligi g‘oyalari) bilan mos keladi.

Sinergetikani ijtimoiy-gumanitar sohadagi nomutanosibli uchun tanqid qilish erta, chunki to‘g‘ri analitik modellar nafaqat metafora, balki fanlararo soha mutaxassislarining jamoaviy hamkorligida nisbatan yaqinda yaratila boshlandi. Sinergetika «ijodkorlar ongida» oqayotgan g‘oyalarni «aks ettiradi», shaxs mustaqilligining sof insoniy, ekzistensial va etnik nuqtayi nazari qo‘shimcha bo‘lib xizmat qiladi.⁷

Tadqiqotning metodologik o‘zagini asoslab shuni ta’kidlash kerakki, dunyoqarashning postnoklasik ko‘rinishi an‘anaviy g‘oyalardan farqli o‘laroq, insoniyatning madaniy rivojlanish jarayonini oldindan belgilangan maqsadli va tartibga solinadigan yutuqlar dinamikasi bilan chiziqli harakat sifatida emas, balki madaniy va tarixiy makonda boshlang‘ich holatdan yuqori darajadagi tashkillashishga va ma‘lum bir vaqt davomiyligiga o‘tishning ko‘p o‘zgaruvchan modelini ochib beradigan nochiziqli harakat sifatida ko‘rib chiqishga imkon beradi. Tasodifiylik muntazamlik bilan uchrashadigan bifurkatsiya nuqtasida evolutsiya o‘zgarganda, ular kesishadi va madaniyatning har bir turi turli yo‘nalishlarda harakatlana boshlaydi. Sinergetikaning tizimning fazaviy o‘tish momentiga (bifurkatsiya nuqtalarida) e‘tibori sinergetikaning dialektikadan ustunligidir.

«Sinergetika evolutsiyaning ba‘zi bir universal qonuniyatlarini va murakkab tizimlarning o‘z-o‘zini tashkillashtirishi, har qanday ochiq nomutanosib tizimlar evolutsiyasi qonuniyatlarini izlashga qaratilgan».⁸

Siklik ijtimoiy-madaniy jarayonlarning evolutsion-sinergetik paradigmasi bizning nuqtai nazari-mizdan muhim gumanitar salohiyatga ega bo‘lib, obyektiv haqiqat idealidan, fikrlash va o‘z-o‘zini bilishning gumanitar tarzini saqlab qolish uchun imkoniyatlar yaratadi. Evolutsion tendensiyadan o‘z-o‘zini tashkillashtiruvchi tizimlar, o‘zgaruvchan siklik dinamik jarayonlarning jonli, rivojlanayotgan ketma-ketligi sifatida dunyoning fraktal manzarasi g‘oyalari kelib chiqadi. Bundan tashqari, evolutsion-sinergetik paradigma dunyoni tushunishda tubdan yangi chegaralarga erishishga, ko‘plab murakkab hodisalar va madaniy o‘zgarishining paradokslarini noan‘anaviy tushuntirishga imkon beradi. Sinergetik metodologiyani tanqid qilish chiziqli fikrlashni qaytarish istagi va uning ijtimoiy-madaniy hodisalarni mos ravishda tushuntirish istagidan boshqa narsa emas.

Evolutsion-sinergetik metodologiya ochiq tizimlarining umumiy rivojlanish tendensiyalariga e‘tibor qaratgan holda, subyekt-obyekt makonida va tahlil qilingan vaqt oralig‘ida madaniy jarayonlarni baholash va prognozlarni yaratishga va o‘z-o‘zini tashkillashtirishning umumiy mexanizmlarini yaratishga imkon beradi.

Xulosa. Sinergetika nuqtayi nazaridan dunyoqarash metodologiya sifatida turli tomonlardan tavsiflanadi:

birinchidan, dunyoqarash o‘ziga xos rivojlanish tendensiyalariga ega bo‘lgan va sivilizatsiya yo‘llariga kiradigan tizim sifatida qaraladi, uning doirasida boshqariladigan ta‘lim va rivojlanish muammosi o‘z-o‘zini boshqarish shaklini oladi;

ikkinchidan, xaos nafaqat dezorganizatsiyaning boshlanishi, balki evolutsiyaning ijodiy momenti sifatida ham harakat qilishi mumkin va shuning uchun tartibsizlik orqali barcha sohalarda yangi bosqichga ko‘tarilishi mumkin;

¹ Аристотель. Соч. в 4 т, М., 1976.

² Лейбниц Г. Новые опыты о человеческом разуме. М.–Л., 1936.

³ Ницше Ф. Человеческое, слишком человеческое. Соч. в 2-х т, т. 1, М., 1990.

⁴ Бергсон А. Опыт непосредственных данных сознания. Собр. соч. М., 1992.

⁵ Гартман Н. К обоснованию онтологии. М., 1935.

⁶ Валери П. Об искусстве. М., 1976.

⁷ Мамчур Е.А. Процессы самоорганизации в развитии научного знания. “Филос. науки”, 1989, № 7.

⁸ Князева Е.Н., Курдюмов С.П. Сinergetika: начало нелинейного мышления. “Общественные науки и современность”, 1994, № 3.

uchinchidan, dunyoqarash kabi murakkab tizimlar uchun rivojlanishning yagona yo‘li yo‘q, aksincha, ma‘lum bir muqobillar majmuasi, albatta, mavjud bo‘lib, bu madaniyat shakllanishining evolyutsion yo‘li yagona emasligini ko‘rsatadi;

to‘rtinchidan, insoniyat taraqqiyotining dastlabki davridagi moddiy, ma‘naviy va badiiy tamoyillarning boshlang‘ich sinergiyasi va ularning fazo va vaqt parametrlari tufayli boshlang‘ich ijtimoiy-madaniy tuzilmalarni hisobga olgan holda asta-sekin o‘z-o‘zini tashkillashtirib borgan;

beshinchidan, bir-birini inkor etuvchi murakkab dunyoqarash shakllaridan, madaniy hayotidagi turli yo‘nalish va tendensiyalardan yaxlitlikni “yig‘uvchi” yangi superpozitsiya tamoyillari ishlab chiqilmoqda;

oltinchidan, dunyoqarashning nohiziqi o‘z-o‘zini rag‘batlantiruvchi ko‘chiga o‘xshash jarayonlari oqimining qonuniyatlari va shartlari aniqlanib, insonning jismoniy, mentaliteti, insoniyatning demo-, texno- va noosfera darajasi aniqlanadi.

Butoyev Ilxom Uzokovich (SamDU Kattaqo‘rg‘on filiali Gumanitar fanlar kafedrası o‘qituvchisi)
SOG‘LOM TURMUSH TARZI VA UNING SHAKLLANISHIGA TA‘SIR KO‘RSATUVCHI
OMILLAR

Annotatsiya. *Maqolada sog‘lom turmush tarzi, uning barkamol avlodni tarbiyalashda tutgan o‘rni masalalari tahlil qilinib, ushbu tushunchaga tegishli bo‘lgan bir qancha ta‘riflar berilgan. Sog‘lom turmush tarzi va uning tarkibiga kiruvchi tushunchalar haqida ma‘lumot berib, ushbu tushunchalar tahlil qilingan. Sog‘lom turmush tarzi va salomatlik tushunchalarining o‘zaro aloqadorligi ko‘rib o‘tilgan. Sog‘lom turmush tarzining O‘zbekistonda olib borilayotgan siyosat bilan bog‘liq jihatlari ijtimoiy-falsafiy tahlil qilinib, tegishli fikrlar ilgari surilgan.*

Аннотация. *В статье анализируются вопросы здорового образа жизни, его роль в воспитании здорового поколения, даётся несколько определений, связанных с этим понятием. Эти понятия анализируются путём предоставления информации о здоровом образе жизни и о понятиях входящих в него. Рассмотрена взаимосвязь понятий здорового образа жизни и здоровья. Проведен социально-философский анализ аспектов здорового образа жизни, связанных с проводимой в Узбекистане политикой, и выдвинуты соответствующие мнения.*

Annotation. *The article analyzes the issues of a healthy lifestyle, its role in raising a healthy generation and gives several definitions related to this concept. These concepts are analyzed by providing information about healthy lifestyle and the concepts included in it. The relationship between the concepts of healthy lifestyle and health is considered. A socio-philosophical analysis of the aspects of a healthy lifestyle related to the policy carried out in Uzbekistan has been made and relevant opinions have been put forward.*

Kalit so‘zlar: *sog‘lom turmush tarzi, barkamol avlod, insonning jismoniy va ma‘naviy kamoloti, sog‘lom turmush tarzining madaniyatda tutgan o‘rni, sog‘lom turmush tarzi va uning tarkibiy qismlari, sog‘lom turmush tarzi va jismoniy, aqliy va axloqiy salomatlik, sog‘lom turmush tarzi va davlat siyosati.*

Ключевые слова: *здоровый образ жизни, здоровое поколение, физическое и духовное развитие человека, роль здорового образа жизни в культуре, здоровый образ жизни и его составляющие, здоровый образ жизни и физическое, психическое и нравственное здоровье, здоровый образ жизни и государственная политика.*

Key words: *healthy lifestyle, healthy generation, physical and spiritual development of a person, role of healthy lifestyle in culture, healthy lifestyle and its components, Healthy lifestyle and physical, mental and moral health, healthy lifestyle and public policy.*

O‘zbekistonda demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini shakllantirishda barkamol avlodni tarbiyalash masalasi muhim ahamiyat kasb etadi. Barkamol avlodni tarbiyalash masalasi esa jamiyatda sog‘lom turmush tarzini qaror toptirishga bevosita bog‘liqdir. Sog‘lom turmush tarzi jamiyat hayotida amalga oshirilayotgan barcha o‘zgarish va yangilanish jarayonlarining asosini tashkil etadi. Jamiyat hayotida inson salomatligini ta‘minlash tabiiy atrof-muhit holati bilan bir qatorda, ijtimoiy hayot, inson tarbiyasi bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan jarayondir. Falsafiy ma‘noda inson biopsixosotsial tizim bo‘lib hisoblansa, insonning biologik, psixologik va ijtimoiy salomatligini ta‘minlash jamiyatda sog‘lom turmush tarzini qaror toptirish asosida amalga oshiriladi.

Yoshlarimizni jismoniy sog‘lom, ma‘naviy yetuk insonlar etib tarbiyalash uchun besh muhim tashabbus doirasida ko‘plab stadionlar, suv havzalari, sport majmualari va saroylari barpo etilmoqda, deydi

Prezident Shavkat Mirziyoyev, – Eng muhimi, farzandlarimiz o‘rtasida sport bilan muntazam shug‘ullanadigan, sog‘lom turmush tarzini o‘z hayotiy maqsadiga aylantirgan yigit-qizlar safi kengayib bormoqda.¹

Sog‘lom turmush tarzi – bu insonning xatti-harakatlarining individual tizimi bo‘lib, unga haqiqiy muhitda (tabiiy, texnogen va ijtimoiy) jismoniy, ruhiy va ijtimoiy farovonlik va uzoq umr ko‘rishni ta‘minlaydi. Sog‘lom turmush tarzi fiziologik va ruhiy jarayonlarning normal borishi uchun eng yaxshi sharoitlarni yaratadi, bu turli kasalliklarning ehtimolini kamaytiradi va insonning umr ko‘rish davomiyligini oshiradi.

Sog‘lom turmush tarzi bizning maqsad va vazifalarimizni amalga oshirishga, rejalarimizni muvaffaqiyatli amalga oshirishga, qiyinchiliklarni engishga yordam beradi. Insonning o‘zi tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan va mustahkamlangan yaxshi sog‘liq, unga uzoq va quvonchli hayot kechirishga imkon beradi. Salomatlik har bir insonning, umuman, butun jamiyatning bebaho boyligidir.²

Jamiyat hayotida salomatlik insonning birinchi va eng muhim ehtiyoji bo‘lib, uning mehnat qobiliyatini belgilaydi va shaxsning barkamol rivojlanishini ta‘minlaydi. Bu atrof-dagi dunyoni bilish, o‘zini-o‘zi tasdiqlash va inson baxtining eng muhim shartidir.

Sog‘lom turmush tarzi – axloqiy, faol, mehnat, sabr-toqat tamoyillariga asoslangan va shu bilan birga, atrof-muhitning salbiy ta‘siridan himoya qiluvchi, keksalikka qadar axloqiy, aqliy va jismoniy salomatlikni saqlashga imkon beradigan hayot.

Sog‘lom turmush tarziga quyidagilar kiradi: samarali mehnat, ratsional ovqatlanish, biologik ritmga rioya qilish, optimal harakat rejimi, shaxsiy gigiyena, kundalik rejimga rioya qilish.³

Sog‘lom turmush tarzi haqida turlicha qarashlar ilgari surilgan bo‘lib, falsafiy va sotsiologik yo‘nalish vakillaridan P.A.Vinogradov, B.S.Erasov, O.A.Milshteyn, V.A.Ponomarchuk, V.I.Stolyarov va boshqalar sog‘lom turmush tarzini global ijtimoiy muammo, butun jamiyat hayotining ajralmas qismi deb hisoblaydilar.

Salomatlikning uch turi mavjud bo‘lib, bular jismoniy, aqliy va axloqiy (ijtimoiy) salomatlikdir. Jismoniy salomatlikning mohiyati shundan iboratki, agar barcha organlar va tizimlar yaxshi ishlasa, unda butun inson tanasi (o‘zini-o‘zini boshqarish tizimi) to‘g‘ri ishlaydi va rivojlanadi. Ruhiy salomatlik miyaning holatiga bog‘liq bo‘lib, u fikrlash darajasi va sifati, diqqat va xotiraning rivojlanishi, hissiy barqarorlik darajasi, irodaviy fazilatlarining rivojlanishi bilan tavsiflanadi. Axloqiy salomatlik insonning ijtimoiy hayotining asosi bo‘lgan axloqiy tamoyillar bilan belgilanadi. Shaxsning axloqiy salomatlik belgilari, eng avvalo, mehnatga ongli munosabatda bo‘lish, madaniyat xazinalarini o‘zlashtirish, oddiy turmush tarziga zid bo‘lgan odat va odatlardan faol ravishda voz kechishdir. Sog‘lom turmush tarzi inson hayotining turli jabhalarini rivojlantirish, faol uzoq umr ko‘rish va ijtimoiy funksiyalarni to‘liq bajarish uchun zarur shartdir.

Sog‘lom turmush tarzining dolzarbligi ijtimoiy hayotning murakkablashishi, salbiy o‘zgarishlarni keltirib chiqaradigan texnogen, ekologik, psixologik, siyosiy va harbiy xavfning kuchayishi natijasida inson tanasiga stresslarning ko‘payishi va o‘zgarishi bilan bog‘liq.⁴

Sog‘lom turmush tarzi inson hayotining turli jabhalarini rivojlantirish, faol uzoq umr ko‘rish va ijtimoiy funksiyalarni to‘liq bajarish uchun zarur shartdir. Sog‘lom turmush tarzining dolzarbligi ijtimoiy hayotning murakkablashishi, salbiy o‘zgarishlarni keltirib chiqaradigan texnogen, ekologik, psixologik, siyosiy va harbiy xavflarning kuchayishi natijasida inson tanasiga stresslarning ko‘payishi va o‘zgarishi bilan bog‘liq.

Sog‘lom turmush tarzi quyidagi asosiy elementlarni o‘z ichiga oladi: “samarali mehnat, oqilona mehnat va dam olish rejimi, yomon odatlarni yo‘q qilish, optimal harakat rejimi, shaxsiy gigiyena, chiniqish, ratsional ovqatlanish va boshqalar”. Samarali mehnat sog‘lom turmush tarzining muhim elementidir. Inson salomatligiga biologik va ijtimoiy omillar ta‘sir qilib, ularning asosiysi mehnatdir. Mehnat va dam olishning oqilona rejimi sog‘lom turmush tarzining zarur elementidir. To‘g‘ri va qat‘iy rioya qilingan rejim bilan tananing aniq va zaruriy ish ritmi ishlab chiqiladi, bu ish va dam olish uchun maqbul sharoitlarni yaratadi va shu bilan salomatlikni mustahkamlash, mehnat qobiliyatini yaxshilash va mehnat unumdorligini oshirishga yordam beradi.

¹ Мирзиёев Ш.М. Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари. 4-жилд, Тошкент, “Ўзбекистон”, 2020, 444-бет.

² <https://gp16.medkhv.ru/index.php/medinfo/32-zdorovyy-obraz-zhizni-i-ego-sostavlyayushchie>

³ <http://ozdorovlenie73.ru/zoj/85-zoj>

⁴ <https://bercrb.by/patsientom/novosti/686-ponyatie-i-elementi-zdorovogo-obraza-zhizni>

Y.P.Lisitsinning fikriga ko'ra, inson salomatligi ko'p jihatdan turmush tarzi va turmush ukkladiga bog'liq. Hozirgi vaqtda shaxs haqidagi bilimlarning ilmiy tizimida ushbu tushunchaning eng to'liq ta'riflarini ajratib ko'rsatish mumkin bo'lib, sog'lom turmush tarziga nisbatan quyidagi ta'riflar keltiriladi:

– sog'lom turmush tarzi – insonning o'zi qo'ygan har qanday maqsadga erishish qobiliyatining aniq ifodasi sifatida sog'liq muammosiga turli omillar ta'sirida hayot jarayonida rivojlanadigan qarashlar tizimi;

– sog'lom turmush tarzi – insonda shakllangan, o'z ijodiy salohiyatini u yoki bu darajada ro'yobga chiqarish imkonini beruvchi hayotning ishlab chiqarish, maishiy va madaniy jihatlarini tashkil etish usuli;

– sog'lom turmush tarzi – sog'liqni saqlashning ijtimoiy va tarixiy jihatdan aniqlangan g'oyasi, shuningdek, uni amaliy hayotga integratsiya qilish vositalari va usullari;

– sog'lom turmush tarzi – insonning kundalik faoliyatining tipik shakllari va usullari, bu organizmning zahiraviy imkoniyatlarini mustahkamlaydi va takomillashtiradi, shu bilan jinsi, iqtisodiy va ijtimoiy-psixologik holatidan qat'iy nazar, o'z ijtimoiy va kasbiy funksiyalarini muvaffaqiyatli bajarishni ta'minlaydi.¹

O'zbekistonda taraqqiyot strategiyasi asosida amalga oshirilishi kerak bo'lgan asosiy vazifalar – inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish; mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish, milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash; adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish, ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish, milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda umumbashariy muammolarga yondashish; mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq pragmatik va faol tashqi siyosat olib borish, eng avvalo, O'zbekiston fuqarolarida sog'lom turmush tarzini rivojlantirish asosida amalga oshiriladi.

Yangilanayotgan O'zbekistonda inson salomatligi, jismoniy barkamolligi, sog'lom turmush tarzi madaniyatiga egaligi o'ta muhim ijtimoiy qadriyat hisoblanadi. Millat salomatligini ta'minlash, xalq genofondini bekam-u ko'st saqlash sog'lom turmush tarzi tufayligina etarlicha ijobiy tarzda hal etiladi. Bu esa, jamiyatning barcha ijtimoiy institutlari; oila, o'quv-tarbiya maskanlari, mahalla hamda mustaqil ta'lim oldiga jamiyatimiz fuqarolariga sog'lom turmush tarzi mazmuni va mohiyatini anglatish, yoshlarni sergak va bilimdon, barkamol shaxs qilib tarbiyalash masalasini ko'ndalang qilib qo'yadi.

O'zbekistonlik faylasuf olimlardan I.Shodimatov, O.Oqilov, K.Sodiqov, Sh.Bo'tayev, X.A.Shayxova, Q.N.Nazarov, M.M.Qahharova, G.H.Tillayeva, N.E.Temirovalar sog'lom turmush tarzi va uning falsafiy masalalari sohasida ilmiy tadqiqotlar olib borishgan.

Sog'lom turmush tarzi–faol mehnat qiladigan, mehnatga ijodkorlik asosida yondashadigan, kuchli jismoniy va ruhiy bosimlarni, o'ta xavfli va zararli ta'sir ko'rsatuvchi omillarni engil tarzda bartaraf etadigan, har tomonlama taraqqiy etgan shaxsning shakllanish jarayonidan iborat bo'lib, O'zbekistonda istiqomat qilayotgan fuqarolarning tafakkuri, sog'lomligi ularning mulkka, ma'naviy qadriyatlarga bo'lgan qarashlarida ham ijobiy natijalarga olib keladi. Yangilanayotgan O'zbekistonda sog'lom turmush tarzini shakllantirish fuqarolarning dunyoviy bilimlar asosida dunyoqarashining shakllanishi, diniy qadriyatlar asosida axloqiy, ma'naviy tarbiyasi asosida amalga oshirilmogda.

Falsafiy adabiyotlarda sog'lom turmush tarzini shakllantirish masalasiga keyingi paytlarda katta e'tibor berilib, sog'lom turmush tarzining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy, ruhiy-psixologik, tibbiy-gigiyenik, shaxsga tegishli bo'lgan motivatsion tomonlari tadqiq etilmogda. Sog'lom turmush tarzining metodologik muammolari, ijtimoiy-iqtisodiy mezonlari, aholi turmush madaniyatiga, diniy va dunyoviy qadriyatlarga tegishli jihatlari bugungi kunda ijtimoiy-falsafiy jihatdan o'rganilishi zarur bo'lgan sohalardir.

Sog'lom turmush tarzi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan yangilanish jarayonida odamlar o'rtasidagi sog'lom munosabatlar va namunaviy hulqning shakllantirish jarayonini tartibga soladi hamda tezlashtiradi. Sog'lom turmush tarzini shakllantirishda motivatsiya omili ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, motivatsiya shaxsning ma'lum bir faoliyatni bajarishga kirishishi, harakatga keltirishi, uning muhimligini asoslashi va anglatishini o'zida ifodalaydi.

Sog'lom turmush tarzi mafkurasi, R.U.Arziqulovning fikricha, turmush tarzining falsafasini, davlatning sog'lom turmush tarzini shakllanishi bo'yicha yuritayotgan siyosatini, sog'lom turmush tarzining huquqiy, axloqiy asoslarini, sog'lom turmush tarzining pedagogikasi, psixologiyasi, sotsiologik madaniyati, etikasi va estetikasini o'zida mujassamlashtirgan bo'lishi lozim.²

¹ <https://cyberleninka.ru/article/n/ponyatie-zdorovyy-obraz-zhizni-v-sovremennoy-pedagogicheskoy-nauke>

² <https://new.tdpu.uz/article/8>

F.Xaldibekovanning fikriga ko'ra, Sog'lom turmush tarzi har bir yurtdoshimizdan haqiqat majmua-siga suyanib, aql-farosatga rivoj berib, ilm, bilim, hayot falsafasi, ajdodlar tajribasi, davr talablarini chu-qur va ongli anglab, turmush tarzi va hayot mazmunini odamiylik yo'lida rivojlantirib, hamma jabhada axloqiy fazilatlariga amal qilishni talab etadi. Axloqiy yetuklik kishida iymon-e'tiqod va amalni kuchayti-radi. Insonlik sharafiga ko'taradi. Bu jarayon ongli hayot kechirish bo'lib, baxt-saodatga yetaklaydi. Sog'-lom turmush tarzini qaror topishiga, jamiyatni insonparvarlashtirish va sog'lomlashtirishga xizmat qiladi.¹

R.Matibayevning fikricha, Bolalarni tarbiyalash ishida eng muhim sharoit – oilaning mustahkam, ma'naviy sog'lom asosga qurilganligi. Demakki, sog'lom oilada sog'lom farzandlar, Vatanimizning mu-nosib farzandlari, ya'ni, ijodiy fikrlaydigan, mustaqil xulosalar chiqaradigan, kelajakda qaysi bir soha mutaxassisi bo'lishidan qat'iy nazar, O'zbekiston mustaqilligining istiqboliga munosib hissa qo'sha ola-digan barkamol avlod bo'lib yetishadi.²

Sog'lom turmush tarzi murakkab ijtimoiy jarayonlarni o'zida ifodalaydi va sog'lom turmush tarzi-ning mezonlariga shaxsning jamoatchilik va mehnat jarayonlarida faollik ko'rsatib, samarali ijodiy faoli-yat bilan mashg'ul bo'lishi, oilada va kundalik turmushda namunali yashashi, o'zidagi jismoniy va ma'-naviy qobiliyatlarni ro'yobga chiqarishga intilishi, tabiiy va ijtimoiy muhit bilan mutanosiblikda yasha-shi, sog'lom va barkamol inson bo'lib shakllanish uchun o'z shaxsini bosqichma-bosqich rivojlantirib bo-rishga intilishi, nosog'lom turmush tarziga xos zararli odatlarning ta'siriga tushib qolishdan o'zini as-rashga intilib yashashi, hayotda to'g'ri yashayotganidan qoniqish hosil qilib, zavqlanib yashashga intili-shi, sog'lom turmush tarzini o'zi uchun bir umrga maqsad qilib tanlashi va shu yo'lda faoliyat olib bori-shi kabi qimmatli insoniy sifat va xususiyatlarni kiritish mumkin.

O'zbekistonda sog'lom avlodni tarbiyalash masalasi davlat siyosatidagi eng muhim masalalardan biridir. O'zbekistonning tashqi siyosatida o'zaro tenglik va manfaatli hamkorlik masalasiga asosiy e'tibor qaratilayotgan bo'lsa, ichki siyosatda fuqarolarning bahtli va farovon hayot kechirishi, ularning sog'lom turmush tarzini ta'minlash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Sog'lom turmush tarzining rivoj-lanishida diniy va dunyoviy qadriyatlarni uyg'unlashtirish O'zbekistonning kelgusi taraqqiyot yo'lini mil-liy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi asosida belgilab beradi.

Mustafayev Jafar Shomirzayevich (Samarqand davlat universiteti tayanch doktorantura (PhD) doktoranti MA'NAVIIY MEROS JAMIYAT TARAQQIYOTINI HARAKATLANTIRUVCHI KUCH SIFATIDA

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada ma'naviy merosning jamiyat taraqqiyotini harakatlantiruvchi kuch sifatidagi roli yoritilgan. Markaziy Osiyo azaldan ilm-fan, madaniyat va ma'naviyatning markazlaridan biri bo'lib kelgan. O'ra asrlarda yashab ijod qilgan, jahon sivilizatsiyasi rivojiga bebaho hissa qo'shgan Sharq allomalari va mutafakkirlarining ma'naviy merosi ko'plab tadqiqotlarda yoritilgan. Ma'naviy me-ros va qadriyatlarining tiklanishi, fuqarolar ongida ma'naviy merosga hurmat tuyg'usini shakllantiradi.*

***Аннотация.** В данной статье описывается роль духовного наследия как движущей силы развития общества. Центральная Азия издавна является одним из центров науки, культуры и духовности. Духовное наследие восточных ученых и мыслителей средневеков и внесших неоценимый вклад в развитие мировой цивилизации, освещено во многих исследованиях. Возрождение духовного наследия и ценностей формирует в сознании граждан чувство уважения к духовному наследию.*

***Annotation.** This article describes the role of spiritual heritage as a driving force for the develop-ment of society. Central Asia has long been one of the centers of science, culture and spirituality. The spi-ritual legacy of the scholars and thinkers of the East, who lived and created in the Middle Ages and made an invaluable contribution to the development of world civilization, has been covered in many studies. Revival of spiritual heritage and values forms a sense of respect for spiritual heritage in the minds of citizens.*

Kalit so'zlar: ma'naviy meros, falsafiy tafakkur, Uyg'onish davri.

Ключевые слова: духовное наследие, философское мышление, Ренессанс.

Key words: spiritual heritage, philosophical thinking, Renaissance.

Xalqimizning boy ilmiy, madaniy merosi, toshga muhrlangan qadimiy yozuvlar, bebaho me'moriy obidalar, nodir qo'lyozmalar, turli asori-atiqalar davlatchilik tariximizning uch ming yillik teran ildizlari-

¹ Халдибекова Ф. Соғлом турмуш тарзини шакллантиришда ахлоқий қадриятларнинг ўрни. Монография, Тошкент, "Университет", 2014, 14 – 15-бетлар.

² Матибаева Ф. Соғлом турмуш тарзи – обод турмушнинг кафолати. "Соғлом турмуш тарзи – обод турмуш кафолати". Илмий-амалий конференция материаллари, Тошкент, 2013, 108-бет.

dan dalolat beradi. Antik davrda Yunonistonda yongan ilm mash'alagi IX–XII asrlarda Markaziy Osiyo hududida qayta porladi desak, haqiqat. Mana shuni hech qachon, hech qaysi birimiz unutmasligimiz kerak. Bu davrda yurtimiz hududida Birinchi Renessans yuzaga keldi va u butun dunyo tan oladigan mashhur allomalarni yetishtirib berdi. Xususan, Muhammad Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Ahmad Farg'oniy, Mahmud Zamaxshariy singari o'nlab buyuk allomalarimizning jahonshumul ilmiy, ijodiy kashfiyotlari umumbashariyat taraqqiyoti rivojiga beqiyos ta'sir ko'rsatdi. Islom madaniyatining oltin asri deb e'tirof etilgan bu davrda ona zaminimizdan yetishib chiqqan Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy, Burhonuddin Marg'inoniy, Abu al-Muiyn Nasafiy kabi ulug' ulamolar butun musulmon olamining faxr-u iftixori hisoblanadi.

Davr silsilalaridan omon qolgan eng qadimgi toshbitiklardan tortib, bugungi kunda dunyo kutubxonalari xazinalarida saqlanayotgan minglab qo'lyozmalar va ularda mujassamlashgan tarix, adabiyot va san'atga doir noyob ma'lumotlar, o'rta asrlarda yetuk mutafakkir ajdodlarimiz tomonidan yozilgan siyosat, axloq, falsafa, tibbiyot, matematika, fizika, kimyo, astronomiya, me'morchilikka oid ming-minglab nodir asarlar bizning beqiyos ma'naviy boyligimizdir.

VII–VIII asrlarda islom dini ta'limotining xalqimiz hayotiga kirib kelishi kishilar hayotiga yuksak ma'naviyat, adolatparvarlik, ma'rifatsevarlik kabi ezgu fazilatlarining kirib kelishiga hamda Sharq falsafasining islom dini ta'limotlari bilan uzviy ravishda rivojlanib borishiga zamin yaratdi. Natijada bunday falsafiy-axloqiy ta'limotlar xalqimiz hayotiga chuqur singib, millatlar bundan bahramand bo'lib boravardilar. Bugungi kunda yaratilayotgan ma'naviy merosimiz ushbu falsafiy-axloqiy ta'limotlarga uyg'un holda Xoja Ahmad Yassaviy, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Xoja Bahouddin Naqshband, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Bobur Mirzo singari mutafakkir ajdodlarimizning falsafiy tafakkuri bilan qorishiq holda boyib bormoqda.

Ma'naviy meros – bu o'tmishdan qolgan qadriyatlar, g'oyalar, tajriba, bilimlar, ularni o'zlashtirish yo'llari, shuningdek, ijodiy faoliyat usullari mahsuli hamda tafakkur tarzida o'zlashtirilgan bilimlar majmuyidir [2.65].

O'rta asrlarda yashab ijod qilgan, jahon sivilizatsiyasi rivojiga bebaho hissa qo'shgan Sharq allomalari va mutafakkirlarining qomusiy bilimlari o'sha tarixiy davrlarda yuz bergan har xil fojialar, urushlar, tabiiy ofatlar natijasida ular qoldirgan buyuk merosning bir qismigina bizgacha yetib kelgan, xolos.

Xalqimiz falsafiy tafakkuri tarixining muhim manbalaridan sanalmish qadimiy ma'naviy merosimiz bo'lgan zardushtiylikning muqaddas kitobi "Avesto", yozma manbalardan Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'atit-turk", ("Turkiy so'zlar devoni"), Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Ahmad Yungakiyning "Hibat ul-haqoyiq", Ahmad Yassaviyning "Hikmat", Imom Buxoriyning "Al-jome' as-sahih", Abu Iso Muhammad at-Termiziyning "Sunnani Termiziy", Imom Abu Mansur al-Moturidiyning "At-Tavhid", Mahmud az-Zamaxshariyning "Qur'on haqiqatlari va uni sharhlash orqali so'zlar ko'zlarini ochish", Abu al-Muiyn an-Nasafiyning "Bahr al-kalom", Abu Nasr Forobiyning "Fozil odamlar shahri", Ibn Sinoning "Tib qonunlari", Abu Rayhon Beruniyning "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar", Muso al-Xorazmiyning "Al-jabr val muqobala", Ahmad Farg'oniyning "Samoviy harakatlar va umumiy ilmi nujum kitobi", Abu Bakr Narshaxiyning "Tarixi Buxoro", Qaffol ash-Shoshiyning "Odob al-bahs" ("Bahs odobi"), Abulqosim Firdavsiyning "Shohnoma", Burhoniddin Marg'inoniyning "Hidoya", Najmiddin Kubroning "Risolatun odob ul-zokirin" ("Zikr aytuvchilar odobi haqidagi risola"), Sharafuddin ali Yazdiyning "Zafarnoma", Amir Temurning "Temur tuzuklari", Abdurahmon Jomiyning "Nafahot ul-uns min hazarat ul-quds", Alisher Navoiyning "Xazoyin ul-maoniy" va "Xamsa" kabi shoh asarlari, Mirzo Ulug'bekning "Zijji jadidi ko'ragoniy", Ali Qushchining "Risola fil-hisob" ("Hisob haqida risola"), Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma", Ya'qub Charxiyning "Risolayi unsiya" ("Do'stona suhbat"), Xoja Muhammad Porsoning "Risolayi qudsiya" ("Qudsiy kalimalar"), Xoja Ahror Valiyning "Faqarot ul-orifin" ("Oriflar so'zlaridan parchalar"), Maxdumi A'zamning "Ganjnoma", Davlatshoh Samarqandiyning "Tazkirat ush-shuaro", Husayn Voiz Koshifiyning "Axloqi Muhsiniy", Kamoliddin Behzodning musavvirlik mahorati aks ettirilgan asarlar, Abulg'oziyning "Shajarayi turk", Muhammad Sharif Buxoriyning "Ar-risola ad-davriyya" ("Davriylik haqidagi risola"), shuningdek, jadid namoyandalardan Ahmad Donishning "Navodur ul-vaqo'ye" ("Nodir voqealar"), Mahmudxo'ja Behbudiyning "Padarkush" dramasi, Abdurauf Fitratning "Munozara", Abdulla Avloniyning "Turkiy Guliston yoxud axloq" kabi asarlari hamda Boborahim Mashrab, Maxtumquli, Uvaysiy, Nodira, Gulxaniy, Muqimiy, Ogahiy va Avaz O'tar kabi shoirlarning lirik ijodlari ulkan ma'naviy merosimizning durdonalaridandir. Bunday noyob, durdona manbalarni o'rganish orqali bugungi yoshlar mamlakatimizning mustaqillikka erishish yo'lining murakkab kechganligi, mustaqillik yillarida jamiyatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar, xalqimiz ma'naviy qadriyatlarining tiklanishi, fuqarolar ongida ma'naviy merosga hurmat tuyg'usini shakllantiradi.

Amir Temur va temuriylar madaniyatining Sharq sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasi Yevropa temurshunoslik maktabi olimlari tomonidan ham yuqori baholangan. Jumladan, tadqiqotlarda "Amir Temur Markaziy Osiyo o'tmishi taraqqiyotining barcha siyosiy, iqtisodiy va madaniy merosini o'zidi gavdalandirdi. U X va XI asrlarda falsafa, tibbiyot, astronomiya, geografiya, tarix va adabiyot sohalarida arab va fors tillarida ajoyib asarlar yaratilgan yurtda o'sib-ulg'aygan. Amir Temurning tarix sahnasiga kelishi tasodif emas, zero, u o'z davrining eng iqtidorli vakili edi, deb ta'rif berilgan [3.17].

Renessans jarayonlariga ijobiy ta'sir ko'rsatgan ilmiy-madaniy yuksalish IX–XII va XIV–XV asrlarda Sharq uyg'onish davri (Renessansi) sifatida dunyo ilmiy jamoatchiligi tomonidan haqli ravishda e'tirof etilmoqda. Sharq Uyg'onish davrining o'ziga xos xususiyati, avvalo, matematika, astronomiya, fizika, ximiya, geodeziya, farmakologiya, tibbiyot kabi aniq va tabiiy fanlarning, shuningdek, tarix, falsafa va adabiyotning rivojlanishida yaqqol namoyon bo'lgan. O'rta asrlarda Xorazm Ma'mun akademiyasi kutubxona, madrasa, tarjimon va xattotlar maktabi kabi tuzilmalarga ega bo'lgan va unda yuzdan ortiq allomalar, iste'dodli talabalar ilmiy izlanishlar olib borishgan.

Markaziy Osiyoda "Islom madaniyatining oltin asri" sanalmish IX–XII asrlarda porlagan ilm mash'alasi, suronli chingiziylar bosqinini parchalab, Sohibqiron Amir Temur asos solgan temuriylar saltanatida "Ikkinchi Renessans", ya'ni "Temuriylar renessansi" davrida qayta porlagan. Aynan Amir Temur va temuriylar davrida ilm-fanga bo'lgan qiziqishning o'sishi, islom ma'naviyatining yuksalishiga va ilm-fanda yangi yo'nalishlarning paydo bo'lishga zamin yaratgan. Shu nuqtayi nazardan, Amir Temur va temuriylar davri allomalarning ma'naviy merosini ilmiy tahlil qilish taraqqiyotimizda boshlanayotgan yangi davrga salmoq salmoqli hissa bo'lib qo'shiladi [4.91].

O'rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlarining butun bir avlodi haqida so'z yuritar ekanmiz, Amir Temur va temuriylar davri deb nom olgan davr haqida so'z boganda, Mirzo Ulug'bek va uning Qozizoda Rumiy, Ali Qushchi singari allomalarning ilmiy faoliyatlari ko'z oldimizda gavdalanadi. Sohibqiron Amir Temur buyuk saltanat barpo etib, davlatchilik borasida o'zidan ham amaliy, ham nazariy meros qolgan ilmu fani madaniyat, bunyodkorlik, din va ma'naviyat rivojiga keng yo'l ochib bergan bo'lsa, umumjahon madaniy taraqqiyotini buyuk ilmiy kashfiyotlar bilan boyitgan Mirzo Ulug'bek Samarqandni dunyoga dong'i ketgan ilm-fan, madaniyat va ma'rifat markaziga aylantirgan. Bobosi Amir Temur, otasi Shoxruh Mirzo kabi ilm-fan, san'at va hunar ahliga homiylik qilibgina qolmasdan, shaxsan o'zi ham ilm va ta'lim ishlari bilan faol shug'ullangan. Natijada Samarqand Ulug'bek davrida nafaqat Movarounnahr, balki butun temuriylar saltanatining yirik ilmiy-madaniy markaziga aylangan. Ko'plab taniqli olimlar yetishib chiqib, ular o'z davrining nodir kashfiyotlarini amalga oshirganlar.

XV asrda Sohibqiron Amir Temur bobomiz asos solgan va uning munosib avlodlari davom ettirgan muhtasham saltanat yurtimizda Ikkinchi Uyg'onish, ya'ni Ikkinchi Renessans davrini boshlab berdi. Bu davrda Qozizoda Rumiy, Mirzo Ulug'bek, G'iyosiddin Koshiy, Ali Qushchi singari benazir olimlar, Abdurahmon Jomiy, Lutfiy, Sakkokiy, Hofiz Xorazmiy, Alisher Navoiy, Bobur Mirzo kabi mumtoz shoir va mutafakkirlar maydonga chiqdi. Sharofiddin Ali Yazdiy, Mirxond, Xondamir kabi tarixchilar, Mahmud Muzahhib, Kamoliddin Behzod singari musavvirilar, ko'plab xattot va sozandalar, musiqashunos va me'morlarning shuhrati dunyoga yoyildi [1].

Bunday buyuk ma'naviy merosga ega bo'lgan xalq dunyoda kam topiladi. Xalqimizning haqiqiy ma'naviy merosi bo'lgan iymon, insof, mehr-oqibat, andisha, or-nomus, kattaga hurmat, kichikka izzat, mehmondo'stlik, yurtga va xalqqa sadoqat kabi fazilatlarini asrab-avaylab, kelajak avlodga singdirish, jamiyat kundalik hayotida doimo ustuvorlik kasb etmog'i darkor.

Markaziy Osiyo azaldan ilm-fan, madaniyat va ma'naviyatning markazlaridan biri bo'lib kelgan. Bu o'lka, shubhasiz, dunyoga ma'naviyat va ma'rifatning barcha sohalarida yuzlab, minglab jahonmushul ulug' zotlar, davlat arboblari tarbiyalab, yetkazib bergan. Buyuk ajdodlarimiz bevosita umumbashariyat ma'rifatiga ulkan hissa qo'shib, ilm-fan taraqqiyotining shakllanib, boyib borishiga xizmat qilganlar. Zero, tadqiqotlarda Markaziy Osiyo ma'naviy merosi jahon madaniyati va ma'rifatining uzviy ajralmas tarqibiy qismi ekanligi tadqiqotlarda bir necha bor isbotlangan [5.240].

Ma'naviy meros turli ta'sir doiralarda bo'lib, u ma'lum bir millat, davlat, mintaqa yoki butun insoniyatga ham tegishli bo'lishi mumkin. Chunonchi, o'rta asrdagi buyuk allomalarimiz Imom Buxoriy va Imom Termiziyning hadisnavislikdagi ilmiy merosi, Abu Ali ibn Sinoning tibbiyotga oid merosi yoki Al-Farg'oniy va Mirzo Ulug'bekning astronomiyaga doir kashfiyotlari va ilmiy meroslari nafaqat bizning yurtimiz yoki Markaziy Osiyoda, balki jahon sivilizatsiyasi madaniyatidan o'rin olgan bebaho ma'naviy meroslar sirasiga kirishi ayni haqiqatdir.

Xulosa qilib aytganda, ajdodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan moddiy va ma'naviy meros, xususan, urf-odat va an'analar, milliy tarbiya, tarixiy va ma'naviy qadriyatlar xalqni yagona maqsad sari birlashtiruvchi bayroqdir. Ularni chuqur o'rganish va yoshlar tafakkurida "Yangilanayotgan O'zbekiston"ning bu-

yuk kelajagini qurishga qodir, yangicha ruhni shakllantiradi. Bunday tafakkur va dunyoqarash bilan qurollangan zamonaviy yoshlar millat va xalq manfaatini har narasada yuqori qo'yib, Vatan ravnaqi uchun halol va vijdonan xizmat qilib, ajdodlarga munosib vorisga aylanadi. Shu nuqtayi nazardan, bugungi kunda yosh avlodni ta'lim sohasining barcha bo'g'inlarida moddiy va ma'naviy merosi namunalarini bahramand etgan holda tarbiyalash mamlakatimiz taraqqiyotining strategik rejasiga aylantirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Президент Учинчи Ренессансдан аввалги иккита Ренессанс қачон бўлиб ўтганини маълум қилди. 30.09.2020. <https://xs.uz/uzkr/post/prezident-uchinchi-renesansdan-avvalgi-ikkita-renesans-qachon-bo'lib-o'tganini-ma'lum-qildi>.
2. В.Каримов. Madaniyatshunoslik. O'quv qo'llanma, Toshkent, 2015, 573-bet.
3. Хуххэм Х. Властитель семи созвездий. Перевод с английского Г.Хидоятова. Т., "Адолат", 1995.
4. С.Рахронов. Иккинчи ренессанс даврининг маънавий-рухий ҳаёти. Самарқанд, Самарқанд Давлат Чет тиллар институти нашриёти, 2021, 172-бет.
5. Хайруллаев М. Ўрта Осиёда илк Уйғониш даври маданияти. Тошкент, "Фан", 1994; Ртвеладзе Э.В. Историческое прошлое Узбекистана. Издание 2-е, дополненное. Ташкент, 2009, 240 с.

Ravshanov Akmal Maxmudovich (Samarqand davlat Chet tillar instituti erkin tadqiqotchisi) NAQSHBANDIYA TARIQATINING NAZARIY ASOSLARI

Аннотация. *Mazkur maqolada naqshbandiya tariqatining nazariy asoslari aks ettirilgan. Tasavvufda tariqatlar ko'p. Naqshbandiya tariqati o'zining mazmun-mohiyati jihatidan boshqa tariqatlardan ajralib turadi. Naqshbandiya tariqati Bahouddin Naqshband yaratgan ta'limot g'oyalari orqali komil insonni tarbiyalashni targ'ib qilgan va umumbashariyat tan olgan tariqatdir.*

Аннотация. *В данной статье отражены теоретические основы тарикаты накибандия. В суфизме существует множество тарикатов. Тарикат накибандия отличается от других тарикатов своим содержанием. Тарикат накибандия, пропагандируют воспитание совершенного человека через идеи учений, созданных Бахауддином Накибандом и получил всеобщее признание.*

Annotation. *This article reflects the theoretical foundations of the Naqshbandi order. There are many sects in Sufism. The Naqshbandi sect differs from other sects in terms of its content. The Naqshbandi sect is a sect that promotes the education of a perfect person through the ideas of teachings created by Bahauddin Naqshband and is universally recognized.*

Kalit so'zlar: *tasavvuf, tariqat, naqshbandiya, rashha, zikr.*

Ключевые слова: *суфизм, тарикат, накибандия, рашха, зикр.*

Key words: *sufism, tarikat, naqshbandiya, rashha, zikr.*

IX–XIII asrni tasavvufning mumtoz davri, XIII–XIV asrlar tasavvuf tarixida maxsus davr bo'lganligi ko'plab manbalarda e'tirof etilgan. Bu davrga kelib, tasavvuf ham nazariy-ilmiy nuqtayi nazardan, ham amaliy harakatchilik nuqtayi nazardan yuksak cho'qqiga ko'tarilgan. Vahdat ul-vujud ta'limoti rivojlanib, tasavvuf ilmi koinotning tuzilishi, odamlarning xususiyatlari, olam va odam munosabatlari, komil inson tushunchalari haqida bahs yurita boshlagan. Naqshbandiya ta'limotining gullab-yashnashi ham aynan shu davrga to'g'ri kelgan.

Professor Najmiddin Komilov tasavvuf tarixida XV–XVI asr naqshbandiya tariqati Movarounnahr va Xurosonda to'liq tantana qilgan davr bo'lganligini e'tirof etgan.

Tasavvuf odob-axloqli, qalbi va ruhi pok, bilimli insonlarni, ya'ni, komil insonlarni tarbiyalanib kamolga yetishiga zamin yaratgan. Boshqa so'z bilan aytganda, insonning ruhiy-ma'naviy kamoloti tasavvufning asosiy maqsadi bo'lib, bu maqsad yo'lida har bir ulug' shayx o'z tartib-qoidalarini ishlab chiqqan va shu asosda turli tariqat suluklari shakllangan.

Iroqlik tasavvufshunos olim shayx Amin Alovuddin Naqshbandiy ta'kidlashicha, tasavvuf tariqatlari bir xil bo'lmasa ham, barchasi bir manba, bir asosdan sarchina oladi. Bu bug'doy unidan turli-tuman ovqatlar, go'sht-u guruchdan xilma-xil taomlar pishirishga o'xshaydi. Ular bir-biridan har qancha farqli bo'lmasin, hammasining asosiy manbayi bitta, ya'ni bug'doy yoki go'sht-u guruchdir [1].

Tasavvufda tariqatlar juda ko'p bo'lgan. Jumladan, Naqshbandiya, Yassaviya, Kubraviya va hozirgacha ayrim Sharq mamlakatlarida saqlanib kelayotgan Qodiriya (Eron va Afg'onistonda), Rifo'iya (Eronda), Tayfuriya (arab mamlakatlarida), Mavlaviya (Turkiyada), Chishtiya (Hindiston va Pokistonda), Bektoشيya (Turkiyada), Savafiya (Eronda) va boshqalar shular jumlasidandir. O'rta Osiyoda esa azaldan Naqshbandiya tariqati keng tarqalgan.

Naqshbandiya tariqati o'zining mazmun-mohiyati jihatidan yangi tarbiya usullari, ya'ni, suhbat ta'limi, yashirin, botiniy zikr, "anjuman ichra xilvat"ni targ'ib qilishi bilan ajralib turadi. Ya'ni, Allohga

yaqinlashishning butunlay yangi, sifat jihatdan, avvalgi tariqatlardan tubdan farq qiladigan o'n bitta qoida, talab va usullarini ishlab chiqqanligi shular jumlasidandir.

Tariqatlar borasida xojagon-naqshbandiya tariqatining vujudga kelishi quyidagicha izohlanadi. Xoja Abdulxoliq G'ijduvoniyy 1103-yili Buxoro viloyati G'ijduvon shahrida tug'ilib, 1179-yili o'sha joyda hayotdan ko'z yumgan. Abdulxoliq G'ijduvoniyy Xoja Yusuf Hamadoniyyning to'rtinchi xalifasi sifatida e'tirof etilgan.

Abdulxoliq G'ijduvoniyyning otasi Xoja Abdulmajid molikiylik mazhabining asoschisi Imomi Moliq ibn Anasga onasi Usmonli turklar avlodidan bo'lgan. Rum diyorida (hozirgi Turkiya) istiqomat qilgan oila davr taqozosi bilan Buxoroga ko'chib kelib, G'ijduvonda yashagan. Abdulxoliq G'ijduvoniyy Buxoro shahrida tahsil olgan va o'z ustozlaridan tasavvufga tegishli ta'limotlarni o'zlashtirgach, ma'naviy kamolotga erishgan. Abdulxoliq G'ijduvoniyy suluk usullarini Buxoroga kelgan Xoja Yusuf Hamadoniyydan o'zlashtirgan. Xoja Yusuf Hamadoniyy (1048–1141) ko'plab muridlar yetishtirgani bilan shuhrat qozongan. Shuningdek, yassaviya tariqatining asoschisi Xoja Ahmad Yassaviyy (1141–1167) ham Xoja Yusuf Hamadoniyy bilan hamsuhbat va hammaslak bo'lganligi hamda Abdulxoliq G'ijduvoniyy va Xoja Ahmad Yassaviyy aynan tasavvuf yo'lidagi tarbiyalarini Xoja Yusuf Hamadoniyydan olib kamolotga yetganliklari ko'plab manbalarda e'tirof etilgan. Shu sababdan Abdulxoliq G'ijduvoniyy “Maqomoti Xoja Yusuf Hamadoniyy”da ustoz Xoja Yusuf Hamadoniyyni har jihatdan komil va “shayxlar shayxi” deb ta'riflagan. Bundan tashqari, Yusuf Hamadoniyyning ko'plab mamlakatlarga safar qilganligi, o'ttiz marotaba haj ziyoratini amalga oshirganligi, Qur'oni karimni ming marotabadan ortiq xatm qilganligi, qur'on oyatlari tahlili bo'yicha ikki yuzdan ortiq shayxlar bilan suhbatlashganligi, doimo toati-bodat qilib, ro'za tutganligi, sakkiz mingdan ortiq butparast aynan uning da'vati sabab islom dinini qabul qilganligi “Maqomoti Xoja Yusuf Hamadoniyy”da keltirilgan [2.44].

Abdulxoliq G'ijduvoniyy naqshbandiya tariqatida xojalar silsilasining asoschisi sanalgan. Xojagon-naqshbandiya tariqatining olti yirik piri murshidi – Abdulxoliq G'ijduvoniyy, Xoja Orif Revgariyy, Mahmud Anjir Fag'naviyy, Xoja Ali Romitaniyy, Muhammad Boboyi Samosiyy, Amir Kulol bilan birga naqshbandiya tariqatining asoschisi Bahouddin Naqshband hozirgi kungacha musulmon olamida “Yetti Pir” nomi bilan mashhurdirlar.

Shayx Yusuf Hamadoniyy shogirdi Abdulxoliq G'ijduvoniyy tomonidan Xojagon Naqshbandiya tariqatiga sakkiz rashhaning kiritilishiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Keyinchalik, mazkur qoidalarga Bahouddin Naqshband tomonidan uchta qoida (rashha) qo'shib, naqshbandiya tariqatining yaxlit nazariy tizim tamoyili shakllantirilgan. Har bir solik ma'naviy fayz olish uchun naqshbandiya tariqatining mazkur o'n bir asosiga ko'ra, quyidagilarga amal qilishi lozim:

Yusuf Hamadoniyy tomonidan asoslangan to'rt tamoyil:

1. Hush dar dam: Har bir nafas olish va chiqarishda ogoh bo'lish.
2. Nazar bar qadam: Qadamlarini nazorat qilib yurishi, noo'rin qarashlardan ehtiyot bo'lish va o'zini saqlash.

3. Safar dar vatan: Har qadamda asl maqsadga – Haq tomonga yurish.

4. Xilvat dar anjuman: Zohiran xalq bilan botinan haq bilan bo'lish.

Abdulxoliq G'ijduvoniyy tomonidan asoslangan to'rt tamoyil:

5. Yodkard: Nafas chiqarimasdan (nafasni yutib) qalb va til bilan tavhid zikrini jamlab aytish.

6. Bozgasht: Matlub va maqsudning faqat Alloh rizosi uchun ekanligini bilish.

7. Nigohdosht: Qalbni xavotirdan saqlash.

8. Yoddosht: Har nafasda Alloh bilan bo'lish.

Bahouddin Naqshband tomonidan asoslangan uch tamoyil:

9. Vuqufi zamoniyy: Har bir lahzasini hisob-kitob qilish va qadrlash.

10. Vuqufi adadiyy: Zikrda sanoqqa rioya qilish.

11. Vuqufi qalbiyy: Qalbni “Alloh” zikri, fikri va amri bilan band qilish, qalb holatidan ogoh bo'lish kabi tamoyillardir.

Xojagon-naqshbandiya ta'limotining asosini tashkil etuvchi mazkur rashhalar, ya'ni, tomchilar o'ziga xos tamoyillar hisoblanib, har bir solik o'z amaliyotida ularni qo'llashi lozimligi qayd etilgan.

Teranroq tahlil etadigan bo'lsak, birinchi rashha “Xush dar dam”deb atalib undan ko'zlangan maqsad har bir solikni olayotgan har nafasi uchun ogohlikka da'vat etishdir. “Rashahot”da “Hush har dam ul tururkim, har nafasekim, ichkaridin kelur, kerakdurkim, huzur va ogohlik yuzidin bo'lsa va g'aflat onga yo'l topmasa”, deb qayd etilgan. Har bir olingan nafas Haq inoyati bilan bo'lib, ichga yutilgan nafas chiqmay qolishi va chiqqan nafas boshqa yutilmay qolishi e'tirof etilgan. Shunday ekan, har olgan va chiqargan nafasimiz Alloh dandir. Shuning uchun har bir nafasimizda shu nafasni berayotgan yaratganni yod etishimiz, uning qudratini his etishimiz lozim ekanligi bu rashhada uqdiriladi [3.38].

Ikkinchi rashha hisoblanmish “Nazar bar qadam”da solikning har bosgan qadamini nazoratda ushlab turmog‘i tushuniladi. Faxruddin Ali Safiyning “Rashahot ayn al-hayot” asarida, “Nazar bar qadam uldirki, solikka yurganda va kelgonda shaharu sahroda va barcha yerda nazari po’shti poyida bo‘lsun, tokim oning nazari parokanda bo‘lmasun va durust ermas joyga tushmasun” deb, mazkur rashha borasida ma’lumot berilgan [3.39]. Ya’ni, bu yerda tariqat yo‘lidan yuruvchi kishi – solik, yurganda nazarini oyoqlari ostiga qaratib yurishi, nigohini bo‘lar-bo‘lmas narsaga yoki atrofqa qaratmasdan yurishi, aniqrog‘i, solikning nazari keraksiz joylarga qaratilmasligi va qadami nojoiz yo‘llarga bormasligiga ishora qilingan.

Uchinchi rashha “Safar dar vatan” deb ataladi. Faxruddin Ali Safiyning “Rashahot ayn al-hayot” asarida, “Safar dar vatan” ul tururkim, solik tabiati bashariyda safar qilur, ya’ni sifati bashariydin sifati malakiyga va sifoti zamimadin sifoti hamidaga intiqol etar”, deb mazkur rashha borasida ma’lumot berilgan [3.40]. Naqshbandiylik tariqatining mazkur rashhasida ikkita safar, ya’ni, ham jismoniy safar va ham ruhiy safar to‘g‘risida so‘z boradi. Jismoniy safarning xususiyati shundaki, kishi bir yurtidan boshqa yurtga borishi natijasida ko‘plab ma’naviy-ruhiy holatlarga duch keladi va ogoh bo‘ladi hamda ijobiy xulosalar chiqaradi. Ruhiy safar deganda esa insonning odamiylik tabiatiga safar nazarda tutilgan bo‘lib, bunda solikning ruhiy kechinmalari nazarda tutilgan.

To‘rtinchi rashha “Xilvat dar anjuman” deb ataladi. Ushbu rashha to‘g‘risida ham quyidagicha ma’lumot berilgan: “Hazrati Xoja Bahouddindan so‘rdilarkim, sizning tariqangizning binosi ne nimarsaga turur? Oydilarkim, “xilvat dar anjuman” bazohir boxalq va babotin bohaqdur.

Shayx Sayyid Abdulqodir Giyloniyning “Sirrul-asror” asarida “Xilvat ham, uzlat ham ikki shaklda ya’ni, zohiriy va botiniy bo‘ladi. Xilvat holining zohirdagi ma’nosi shuki, inson o‘z nafsini o‘rgangan narsalaridan tozalaydi. O‘rinsiz fe‘llari bilan xalqqa aziyat yetkazmasligi uchun o‘zini chekka bir joyga olib, odamlardan uzoqlashadi. Botiniy xilvatda esa inson o‘zini qalbiga nafs va shaytoniy fikrlar kirmasligi uchun barcha narsadan uzoq tutishi mumkin bo‘ladi”, deb ta’rif berilgan [4.125].

Beshinchi rashha “Yodkard” deb nomlanib, bunda til yoki dil zikri nazarda tutilgan. Faxruddin Ali Safiyning “Rashahot ayn al-hayot” asarida, “Zikrdin maqsad uldirkim, ko‘ngil hamisha muhabbat va ta’zim vaz’i bila Haq subhonahu va taologa ogoh bo‘lsun” deb, qayd etilgan [3.40]. Mazkur rashhaning yana bir e’tiborli tomoni shundaki, unda zikr til bilan emas, balki qalb bilan aytiladi va natijada zikr qalbnig sifatiga aylanadi.

Oltinchi rashha “Bozgasht” deb atalib, bunda solikning doim Alloh rizoligi uchun harakat qilganligi, g‘aflatda qolmasligi va xotirasini poklashi va zikrni qaytarishi nazarda tutilgan.

Yettinchi rashha “Nigohdosht” bo‘lib, mazkur rashhaga muvofiq, solik kishi zikr qilish mobaynida xayolini boshqa narsalarga chalg‘itmasligi tushunilgan. Chunki turli o‘y-xayollar inson diqqatini boshqa tomonga chalg‘itib, uni zikrdan adashtiradi. Zikr qilguvchi esa, imkon qadar, diqqatini kalimada jamlashi talab etiladi.

Sakkizinchi rashha “Yoddosht” bo‘lib, mazkur rashhada Bahouddin Naqshband vuqufi adadiyni laduniy ilmning ibtidosi deb qaraydi va sondan ogoh inson laduniy ilm sohibi bo‘lishi mumkinligini e’tirof etadi.

Mazkur rashhada Haqni doimo zavqu shavq bilan yodga olish nazarda tutilgan. Faxruddin Ali Safiyning “Rashahot ayn al-hayot” asarida, “Ba’zi haqiqat ahlining nazarida u shunday bir mushohadadurki, Haq subhonahu muhabbati ko‘ngilni tamoman o‘ziga qamrab oladi”, deb, qayd etilgan. Shuningdek, “yoddosht” inson o‘z diqqatini boshqara boshlaganini ko‘rsatadigan muhim psixologik holatdir.

Naqshbandiya tariqatining davomchisi Xoja Ahror Valiy insoniy haqiqatni topishda xotiraning maxsus o‘rni borligiga e’tibor bergan. Inson kamolotida xotiraning o‘rni katta. Tasavvuf ahli bu masalaga maxsus e’tibor berganlar. Xojagon ta’limoti asoschisi Xojayi Jahon nomi bilan mashhur Abdulxoliq G‘ijduvoni tariqatiga kiritgan yodkard (xotirga keltirish, eslash), bozgasht (qaytish, qaytadan qilingan amallarni eslab tahlil etish), nigahdosht (xotira muroqabasi, xotirani saqlash), yoddosht (xotirani to‘xtatish) kabi tamoyillar inson xotirasini mustahkamlash va asl zaruriy narsalarni yodda saqlashga qaratilgan. Xojagon tariqatining yirik namoyandasi Hazrat Azizon nomi bilan mashhur Xoja Ali Romitaniiy o‘zining “Risolai Azizon” asarida inson kamoloti uchun zarur bo‘lgan o‘n shartdan biri xotirani saqlash deb yozadi. Xojagon ta’limotidagi g‘oyalar asosida vujudga kelgan naqshbandiyada ham bu tamoyillar to‘la qabul qilingan. Naqshbandiya ta’limotining yirik vakillaridan biri Xoja Ahror Valiy ham asarlarida yodkard, bozgasht, nigohdosht, yoddoshtni batafsil tahlil etgan. U o‘zining “Anfosi nafiya” (“Nafis nafaslar”, “Nozik, latif iboralar, fikrlar”) risolasida inson bor g‘ayratini Haq – Xudoni “Har vaqt, balki har lahza yodda saqlashga sarf etishi zarur”, deydi [5.38]. Buni Xoja Ahror ma’rifatning hosil bo‘lishi uchun asosiy sabablardan biri sifatida “Risolayi volidiya” asarida ham ko‘rsatadi.

To‘qqizinchi rashha “vuqufi zamoniyy” deb nomlanib, unda solik har doim vaqtdan ogoh bo‘lib, o‘z holidan xabardor bo‘lishi lozim. Faxruddin Ali Safiyning “Rashahot ayn al-hayot” asarida, mazkur rashha

xususida quyidagi parcha keltirilgan: “Va Hazrati Mavlono Ya’qubi Charxiy quddisa sirruhu oytib tururlarkim, Hazrati Xojayi Buzrug, ya’ni Xoja Bahouddin quddisa sirruhu qabzi holatda mani istig’foriga amr etdilar va basti holatda shukr etmakka buyurdilar va oydilar: “Bu ikki holning rioyasi vuqufi zamoniyy turur”. Shuningdek, vuqufi zamoniyyda solikning umr deb atalgan bebaho ne’matdan qanday foydalanganligi to’g’risida tafakkur qilishi nazarda tutilgan. “Vuquf” esa tasavvufiy atama bo’lib, “bilim”, “ta’limot” degan ma’nolarni anglatadi.

O’ninchi rashha “vuqufi adadiy” deb nomlanadi. “Vuqufi adadiy” sonidan ogohlik bo’lib, mazkur rashhada qalbdagi adadga rioya etmoq, parokanda bo’lgan xayollarni jam’ etmoq nazarda tutiladi. Tadqiqotlarda, Bahouddin Naqshband “vuqufi adadiy”ni ilmi la’duniyning boshlang’ich pog’onasi sifatida e’tirof etilganligi keltirilgan [6.208]. Vuqufi zamoniyyda kalimani bir nafasda uch marta aytish sharti qo’yiladi. Agar hisob yigirma birdan oshganda ham birorta sifat o’zgarishi kuzatilmasa, solikning botiniy holatida o’zgarish kuzatilmasa yoki solik chalg’isa, zikrni yangidan boshlaydi.

O’n birinchi rashha esa “vuqufi qalbiy” deb ataladi. Faxruddin Ali Safiyning “Rashahot ayn alhayot” asarida, “vuqufi qalbiy” to’g’risida shunday izohlar keltirilgan: “...vuqufi qalbiy iborat turur ko’ngulning janobi Haq subhonahu ta’olog’a ogoh va hozir bo’limg’idin, bir vajhekim, ko’ngulda Haq subhonah-u ta’olodin boshqa hech boyisti va xosti bo’lmasun”. Shuningdek, “vuqufi qalbiy” to’g’risidagi mazkur jumalalar Xoja Ubaydullohi Ahrorning “Kalimoti qudsiya” asarida keltirilganligi e’tirof etilgan.

Umuman tasavvuf ahli qalb masalasiga juda katta e’tibor beradi. Bu masalada Bahouddin Naqshbandgacha ko’p fikrlar aytilgan, asarlar yozilgan, lekin aynan Bahouddin Naqshband “vuqufi qalbiy” tushunchasini inson kamoloti uchun zaruriy tamoyil sifatida naqshbandiya tariqatiga kiritgan.

Xulosa qilib aytganda, XIV asr ikkinchi yarmida vujudga kelgan xojagon-naqshbandiya tariqati butun tariqatlardagi (jumladan, yassaviya tariqatidagi) mushtarak unsurlarni o’zida aks ettirgan mumtoz tariqatlarning biriga aylangan. Shu bilan birga, naqshbandiya tariqati ham boshqa tariqatlar kabi komil insonni tarbiyalashda o’ziga xos uslub va qoidalardan foydalangan. Naqshbandiya tariqati mumtoz tariqatlarning oxirgisi va shuning uchun unda butun tasavvuf va tariqatlardagi eng yaxshi tomonlar o’z aksini topgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдулҳаким Жўзжоний. Абдулҳолик Ғиждувоний ва нақшбандия тариқати. “Ўзбекистон адабиёти ва санъати” газетаси, 33-сон, 2007.
2. Сайфуллоҳ С., Ҳасан Н. Хожа Абдулҳолик Ғиждувоний. Мақомоти Юсуф Ҳамадоний. Тошкент, “Янги аср авлоди”, 2003, 44-бет.
3. Фахриддин Али Сафий. Рашахот: (Оби ҳаёт томчилари). Табдил ва сўнгсўз муаллифи М.Ҳасаний. Тошкент, Абу Али ибн Сино номидаги тиббиёт нашриёти, 2003.
4. Шайх Саййид Абдулқодир Гийлоний. “Сиррул-асрор”, “Мактубот”. Таржимон, сўзбоши ва луғат-изоҳлар муаллифи Отабек Жўрабоев. Т., “Мовароуннаҳр”, 2005, 125-бет.
5. Хожа Убайдуллоҳ Аҳрор. Рисолаи “Анфоси нафийса”. Табаррук рисолалар. Нашрга тайёрловчи, таржимон, сўз боши ва изоҳ муаллифлари – М.Ҳасаний, Б.Умрзоқ, Ҳ.Амин. Т., “Адолат”, 2004, 38-бет.
6. Абул Муҳсин Муҳаммад Боқир ибн Муҳаммад Али. Баҳоуддин Балогардон. Таҳрир ҳайъати: А. Рустам ва бошқ. Форсийдан тарж. Маҳмудхон Махдум Ҳасанхон Махдум ўғли. Т., Ёзувчи, 1993, 208-бет.

Akbarova Munira Shavkatovna (QDPI “Boshlang‘ich ta‘lim” kafedrası o‘qituvchisi;
e-mail:akbarovamuniraxon30@gmail.com; e-mail:akbarovam1989@mail.ru)

EMOTSIONAL-EKSPRESSIV SINTAKSISDA G‘AYRIODATIY BIRIKMALARNING TUTGAN O‘RNI

Annotatsiya. Ushbu maqolada g‘ayriodatiy birikmalar badiiy matnning lingvopoetik qiymatini oshiruvchi eng muhim sintaktik vositalardan biri ekanligi, shu jihatdan, g‘ayriodatiy birikmalarning ekspressiv sintaksisdagi o‘rni ochib berilgan. G‘ayriodatiy birikmalarning matn qurilishini o‘rganishda sintaktik struktura xususiyatlari alohida o‘ringa ega ekanligi ko‘rsatilgan.

Аннотация. В данной статье необычные сочетания являются одним из важнейших синтаксических средств, повышающих языковую ценность художественного текста, и в связи с этим раскрывается роль необычных сочетаний в экспрессивном синтаксисе. Показано, что особенности синтаксической структуры занимают особое место в изучении текстового построения необычных сочетаний.

Annotation. In this article, it is said that unusual combinations are one of the most important syntactic tools that increase the linguopoetic value of an artistic text, and in this respect, the role of unusual combinations in expressive syntax is revealed. It is shown that syntactic structure features have a special place in the study of text construction of unusual combinations.

Kalit so‘zlar: ekspressiv sintaksis, lingvopoetik aktuallashuv, okkazonal birikmalar, okkazonalizm, oksyumoron, g‘ayriodatiy birikmalar.

Ключевые слова: экспрессивный синтаксис, лингвопоэтическая актуализация, окказиональные сочетания, окказионализм, оксюморон, необычные сочетания.

Key words: expressive syntax, linguopoetic actualization, occasional combinations, occasionalism, oxymoron, unusual combinations.

Kirish. Ekspressivlik ifodalashning usul va vositalari ko‘p va xilma-xil ekanligi aytiladi. Ekspressivlik ifodalash nuqtayi nazaridan yondashilganda, boshqa sohalarga nisbatan sintaksisning imkoniyatlari juda katta. Chunki har qanday til birligi sintaktik konstruksiyalarda «jonga kiradi». Ekspressivlik ifodalashning sintaktik usuli kommunikatsiyada ham, subyektiv munosabatda ham o‘zining asl mohiyatini ko‘rsata oladi. V.A.Bogoroditskiy aytganidek, «Morfologiya ayrim kategoriyalarning (so‘z kategoriyalarining), ular formalarining inventarlaridan iborat. Sintaksis esa bu so‘z formalarining hammasini harakatda va hayotda, nutq sostavida ko‘rsatadi» [1]. Turli ekspressiv vositalarni bilish mualliflarga o‘z matnlarini o‘zgacha qiyofada kashf etishlariga va aytmoqchi bo‘lgan fikrlarini o‘quvchiga yaxshiroq yetkazib berishlariga yordam beradi. Har qanday fikr nutqda namoyon bo‘lar ekan, so‘zlovchi axborotni tinglovchi shaxsiga nafaqat yetkazib berishni, balki bu fikrning tinglovchiga ta‘sir etish ko‘lamini ham deyarli doimo nazarda tutadi. Shu boisdan ham nutqning ifodaliligi, ta‘sirchanligini, ya‘ni, ekspressivligini ta‘minlovchi til birliklariga, vositalarga malakali so‘zlovchi, yozuvchilar har doim o‘ta sezgir nigoh bilan qaraydilar. Ma‘lumki, tilda ekspressivlikni ifoda etishning turfa xil imkoniyatlari mavjud. Bu kabi imkoniyatlarning naqadar kenglikda ekanligi tilning ham nechog‘lik boy ekanligini ko‘rsatib beruvchi mezonlardandir. Tilshunoslikda xatto “ekspressivlik til taraqqiyotining harakatlantiruvchi kuchidir” degan fikr ham mavjud [2]. Til haqidagi fanda tilning kommunikativ va yana boshqa vazifalari qatorida uning ekspressivlik funksiyasi ham alohida ko‘rsatiladi. Tilning bu vazifasi, ayniqsa, badiiy matnda yanada ahamiyatli ekanligi ko‘rinadi. Badiiy matnning lingvopoetik muammolarini tadqiq etgan M.Yo‘ldoshev ta‘kidlaganidek, “badiiy asar tili tadqiqiga bag‘ishlangan ishlarda tilning ayni “ekspressiv vazifasi” termini bilan bir qatorda, “tilning poetik vazifasi”, “tilning badiiy vazifasi”, “tilning stilistik vazifasi” kabi atamalar ham qo‘llanadi” [3]. U o‘z mulohazalari davomida to‘g‘ri ta‘kidlaganidek, deyarli keltirilgan atamalarining barchasidan tilning estetik vazifasi namoyon bo‘lishi anglashiladi.

Adabiyotlar tahlili. Rus tadqiqotchilaridan bo‘lgan A.P.Skovorodnikov rus tilshunosligida ekspressiv sintaksisning asosiy birliklarini quyidagicha ajratilishini ta‘kidlaydi: 1) ellipsis; 2) antiellipsis; 3) kesish; 4) pozitsion-leksik takror; 5) parsellatsiya; 6) segmentatsiya; 7) antisipatsiya; 8) bog‘lovchisizlik hodisasining turli ko‘rinishlari; 9) so‘z birikmasi komponentlarining o‘rnini almashtirish; 10) inversiya; 11) sintaktik parallelizm; 12) ritorik so‘roq gap; 13) undov konstruksiyalar [4]. Rus tilshunoslari sanab o‘tilgan bu 13 ta sintaktik hodisani ekspressiv sintaksis birliklari sifatida bir sistemaga birlashishini asoslashga urinadilar. Tatar tilshunosi X.R.Kurbatov ham takror, gradatsiya, parallelizm kabi hodisalarni nutq ta‘sirchanligini oshiruvchi sintaktik figuralar sifatida ta‘kidlaydi [5].

O‘zbek tilshunosligida ham bu kabi qarashlar kuzatiladi. Masalan, A.Abdullayev ekspressivlikning sintaktik usul orqali ifodalanishi yuzasidan fikr yuritar ekan, sintaktik gradatsiya, sintaktik sinonimiya, bog‘lovchilarning maxsus qo‘llanishi yoki qo‘llanmasligi, antiteza, monolog, sukut qilish, inversiya, ritorik so‘roq, takroriy gaplar kabi hodisalarni sanab o‘tadi [6]. M.Yo‘ldoshev ham ekspressiv sintaksis birliklari haqida so‘z yuritar ekan, sintaktik parallelizm, inversiya, gradatsiya, oksyumoron kabi bir qator hodisalarni keltirib o‘tadi [7].

Oksumoron atamasiga izoh keltirsak. Oksyumoron – o‘zaro mos kelmaydigan so‘zlarning kombinatsiyasi, ikkita bir-birini istisno qiladigan tushunchalarning birikma hosil qilishi, paradoks. Bu termin “o‘tkir” va “ahmoq” deb tarjima qilinishi mumkin bo‘lgan ikkita yunoncha so‘zdan kelib chiqqan. Shuni e‘tiborga loyiqki, yozuvchilar asar nomini o‘ylab topishda, ko‘pincha, bu usuldan foydalanadilar. Misol tariqasida, quyidagi rus yozuvchilarining asarlari nomlarini keltirish mumkin: Nikolay Gogol “O‘lik jonlar”, Vsevolod Vishnevskiy “Optimistik fojia”, Fyodor Dostoyevskiy “Halol o‘g‘ri”, Yevgeniy Shvarts “Oddiy mo‘jiza” kabi.

M.Yo‘ldoshev oksumoron hodisasini izohlayotganda uni ayrim adabiyotlarda “okkazional birikmalar”, “noodatiy birikmalar”, “g‘ayriodatiy birikmalar” deb ham nomlanishini aytib o‘tadi. Yuqoridagilardan ko‘rinib turganidek, ekspressivlikni oshiruvchi birliklar deya sanalganlar ichida biz “g‘ayriodatiy birikmalar” nomi bilan tilga olayotgan sintaktik birliklar ko‘rib o‘tilgan ishlarning hech birida asosiy o‘rinda tilga olinmaydi.

O‘zbek tilshunosligining ardoqli vakili bo‘lgan N.Mahmudov o‘zbek tilshunosligidagi sintaktik birliklar qatoriga “g‘ayriodatiy birikma” terminini kiritadi va “So‘z estetikasi” [8] nomli qo‘llanmasida alohida ta‘rif berib o‘tadi. U o‘zining “So‘z shayxining mo‘jizalari” nomli maqolasida ham “g‘ayriodatiy birikmalar” terminini tilga oladi va uni shunday izohlaydi: “Muallif bunday birikmalarni tuzar ekan, u til qonuniyatlariga nopisandlik yoki zo‘rlilik qilmaydi. Hassos so‘zchi sifatida u tilning botinida, tub qatlamlarida yashiringan so‘z qo‘shilishi imkoniyatlarini badiiy niyatiga muvofiq tarzda ishga soladi. Buning natijasida kutilmagan so‘z qo‘shilmalari yuzaga keladi, ular o‘quvchi diqqatini o‘ziga jalb qiladi va uni o‘ylashga chorlaydi, natijada u bu qo‘shilmalarda pinhon bo‘lgan ma‘no injaliklarini kashf etadi” [9]. Quyida badiiy matnlarda yozuvchilar tomonidan ishlatilgan g‘ayriodatiy birikmalardan namunalar keltiramiz.

Tahlillar va natijalar. Har nechuk Holidiy temirdan emas, barcha bandalar kabi “loydan yasalgan” ekan. Ko‘kragida uyg‘ongan *g‘azab ummoni* to‘lqinlarining mavjini vujudi sig‘dirolmay portladi. – Yo‘qol! – dedi tishlarini g‘ijirlatib. Tishlar *g‘azab vulqonini* to‘sib qolmoq qasdida g‘ijirlar edi (T.Malik. “Shaytanat”). “G‘azab ummoni” birikmasi keltirilgan gapni butunligicha g‘ayriodatiy deb hisoblash mumkin, aslida. Yozuvchi shu o‘rinda soddaroq qilib “Holidiy ko‘p g‘azablanti yoki u g‘azablanganidan o‘zini tuta olmadi” ko‘rinishidagi jummalarni ham keltirishi mumkin edi. Lekin badiiy asar ijodkori o‘quvchini asarni o‘qishga bo‘lgan ishtiyoqini oshirish, asar bilan ishlashga qiziqishini orttirish, asardagi voqealar ustida atroflicha fikr yurita olishga undash maqsadida shu ko‘rinishdagi g‘ayriodatiy birikmalardan mohirona foydalana olgan.

Mashoyixlar “so‘z xanjar bo‘lib, jonni olishi ham, tiriklik suvi bo‘lib, o‘likka jon berishi ham mumkin”, deganlariday, Zohidning “kennoyi” deyishi ayoldagi *xavotir buluti*ni biroz tarqatdi (T.Malik. “Shaytanat”). Ushbu gapdagi “xavotir buluti”ni tarqatish ayolga taskin bermoqni ifodalash maqsadida ishlatilgan.

Laxtak bulutlar qitmirligi tufayli yayrab, nur tarata olmayotgan quyosh... (T.Malik. “Shaytanat”). Keltirilgan parchalardagi *g‘azab ummoni*, *g‘azab vulqoni*, *xavotir buluti*, *laxtak bulutlar qitmirligi* kabi birikmalar muallif hissiyatini ifodalab, voqea-hodisa hamda turli tushunchalarning mohiyatini har tomonlama ochib berishga xizmat qiladi.

O‘zbek adabiyotining yirik namoyandalaridan bo‘lgan Tohir Malikning “Shaytanat” nomli qissasida quyidagicha g‘ayriodatiy birikmalarni uchratish mumkin: “Anvar masrur edi. U o‘rnidan yengil turdi. Go‘yo uni uzoq yillar ezib kelgan *g‘am xarsanglari* Xolidiyning baqirig‘idan so‘ng yelkasidan ag‘darilganday bo‘ldi”. “Birovlarning onalari dur-u gavhar ustida tug‘ib, zarhal choyshablarga yo‘rgaklaydi. Sharif esa o‘zining nazarida, *alamlar tikonzori* ustida tug‘ilib, *tashvish choyshabiga* yo‘rgaklangan. Birovlar bu dunyo ne‘matlaridan to‘yib bahramand bo‘lish uchun tug‘ilgan bo‘lsa, Sharif, o‘zining nazarida, bu dunyodan nafratlanish uchungina tug‘ilgan” (T.Malik. “Shaytanat”). Siz guvohi bo‘lgan ushbu parchalarda *g‘am xarsanglari*, *alamlar tikonzori*, *tashvish choyshabi* kabi birikmalar mavjud. Ko‘rinib turganidek, g‘am, alam, tashvish so‘zlari insonlarga xos bo‘lgan, ichki kechinmalarni, his-tuyg‘ularini ifoda etuvchi so‘zlar hisoblanadi. Xarsang, tikon, choyshab so‘zlari esa narsa nomlarini bildiruvchi so‘zlardir. Adib asar qahramonining ichki tuyg‘ularini ifodalash, o‘quvchiga yetkazib bera olish, qahramon bilan birga yashash tuyg‘usini his qila olishi uchun shu kabi birikmalarni hosil qiladi. Mahoratli yozuvchi kel-

tirilgan namunadagi alamlar tikonzori hamda tashvish choyshabi deya ta'rif berilgan Sharifning tug'ilib o'sgan olami, uni o'rab turgan muhit uning uchun naqadar ayanchli, nafratga to'la ekanligini, bu hayot tarzidan uning, umuman, ko'ngli to'imasligi haqida o'quvchiga yanada yaqqolroq tasavvurga ega bo'lish imkoniyatini hadya etadi.

Sherzod shaharga kelgandan buyon ko'p davralarda bo'lgan, hatto *to'ng'ich hikoyalari* nazarga tushib qolgan edi (O'.Hoshimov. "Nur borki, soya bor"). Sening hukumating butun mamlakat ustiga *temir parda* tortgan! – dedi (A.Qahhor. "Dumli odamlar"). Muhayyoga bu gap kalaka bo'lib tuyuldi, shekilli, rangi bo'zarib kotibga *ayiq qarash qildi...* (A.Qahhor. "Muhabbat"). Mahallaga *alvasti mish-mish* bosh tiqdi (A.Qahhor. "Muhabbat"). Bu gapdagi *alvasti mish-mish* birikmasida urg'u, albatta, alvasti so'ziga tushadi, alvasti – go'yo har xil qiyofada ko'rinadigan afsonaviy maxluq, jin, ajina, nihoyatda ko'rimsiz badbashara odam kabi ma'nolarni ifodalaydi [10]. Alvasti so'zini mish-mish so'ziga bog'lashda uning yashirin ma'no qirralari e'tiborga olingan, xalq orasida tez tarqaluvchi mish-mishlarning nechog'lik yo-qimsiz ekanligiga ham ishora berilgan.

Shu o'rinda quyidagi birikmaga e'tiboringizni tortmoqchimiz: *Tiriklar go'ristoni* bo'lgan bu daroghning daxshati oldida o'liklar go'ristonining daxshati unga dahshat ko'rinmas edi (A.Qahhor. "Dahshat"). Bu birikmada ham okkazonalizm, ham oksumoron hodisasiga guvoh bo'lishimiz mumkin, ya'ni, birikmadagi go'riston so'zi okkazonal yo'l bilan go'r+iston tarzida hosil qilingan bo'lib, qabrison so'ziga sinonim holatda ishlatilgan. Qabrison esa o'liklar makoni ekanligi hammamizga oydek ayon, tiriklar so'zi esa o'liklar so'zi bilan o'zaro zid ma'nodagi so'z hisoblanadi. Shu bois bu birikmani haqiqiy g'ayriodatiy birikma sifatidagi topilma, desak bo'ladi. Bu birikmaning aynan qanday ma'noni izohlayotganini esa, albatta, matnni o'qish orqaligina anglash mumkin. Shu sababdan ham g'ayriodatiy birikmalarning semantik xususiyatlari matniy qurshovda o'rganiladi.

Xulosalar. Yuqorida berilgan namunalardan anglashiladiki, g'ayriodatiy birikmalarni tuzish bilan yozuvchi badiiy asardagi qahramonlarning his-tuyg'ulari, sodir bo'layotgan voqea-hodisa, makon va zamonga bo'lgan munosabatni o'quvchiga yetkazib bera olish bilan birga, o'quvchini o'sha muhitni yanada aniqroq his qilishi hamda o'sha makon va zamonda hayolan yashay olish tuyg'ularini yuzaga keltiradi. Olib borilgan tadqiqotlarimizdan kelib chiqib, shuni ta'kidlaymizki, lingvistik-poetik usulning mohiyati asarning badiiy kompozitsion va sujet xususiyatlarini hisobga olgan holda, dolzarb lingvistik materialni tahlil qilishdadir. Bunday tahlil turli darajadagi lingvistik vositalar yig'indisi obraz yaratishda qanday ish-tirok etishi haqida xulosa chiqarish imkonini beradi va o'quvchiga badiiy matn muallifi tomonidan ko'rsatilgan hissiy va estetik ta'sirni to'liq tushunish va idrok etishga yordam beradi. Hech qaysi matnni tropik yoki stilistik figuralardan foydalanmasdan yozib bo'lmaydi. Yuqoridagi misollarda ko'rganimizdek, biz oddiy nutqda ongsiz ravishda ko'plab usullardan foydalanamiz. Ular bizning hayotimizga idiomalar, matallar, xalq og'zaki ijodi bilan birga kirib keladi. Har qanday mohir quruvchi bir imorat qad rostlashi uchun kerak bo'ladigan jamiki qurilish materiallaridan foydalanar ekan, o'zining bor mahoratini, o'zidagi mavjud g'oyalarini, iste'dodini ishga solib, tinimsiz mehnat qiladi va oxir-oqibat o'z mehnatining samarasi o'laroq, yuksak bir imorat bo'y ko'rsatadi. Xuddi shuningdek, adabiyot san'atida ham ijodkor o'z ijod mahsulini yaratish uchun til materiallaridan shunchalik mohirona foydalanadiki, til materiallarini bir-biriga semantik va grammatik jihatdan shunday birlashtiradiki, natijada o'quvchi bu ijod namunasi haqida naqadar betakror san'at asari ekaniga shohid bo'ladi. G'ayriodatiy birikmalar esa badiiy matnning lingvopoetik qiymatini oshiruvchi eng muhim sintaktik vositalardan biridir. Shu jihatdan g'ayriodatiy birikmalar-ning ekspressiv sintaksisdagi o'rni beqiyosdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayev A. O'zbek tilida ekspressivlikni ifodalashning sintaktik usuli. Toshkent, "Fan", 1987; Акимова Ж.Н. Новое в синтаксисе современного русского языка. М., "Высшая школа", 1990, с. 80.
2. Yo'ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. Toshkent, "Fan", 2008, 90-bet.
3. Сковородников А.П. О системе экспрессивных синтаксических конструкций современного русского литературного языка. Филологические науки, 1982.
4. Курбатов Х. Татарская лингвистическая стилистика и поэтика. М., "Наука", 1978, с. 130.
5. Abdullayev A. O'zbek tilida ekspressivlikning ifodalanishi. Toshkent, "Fan", 1983, 8-bet.
6. Yuldashev M.M. Badiiy matnning lingvopoetik tadqiqi. Filol. fan. dok. ...diss. avtoref., T., 2009, 39-bet.
7. Abdurahmonov H., Mahmudov N. So'z estetikasi. Qo'llanma, Toshkent, "Fan", 1981, 38-bet.
8. Mahmudov N. So'z shayxining mo'jizalari. "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasi, 2009, 7-son.
9. O'zbek tilining izohli lug'ati. I – II tomlar, M., "Rus tili", 1981.
10. Akbarova M. Badiiy matnda uchraydigan g'ayriodatiy birikmalarning lingvopoetik xususiyatlari. Comparative Turkish Dialects and Literatures, 1(2), 25 – 31-betlar.
11. To'xtasinova O.Y. O'zbek tilida leksik okkazonalizmlar va ularning badiiy-estetik xususiyatlari. Filol. fan. nom. ...diss., Toshkent, 2007.

12. Jamoliddinova Dilnoza. The poetical actualization of terms in the literary works (As the sample of the works of askad mukhtar, abdullah kahhor and ulmas umarbekov). International Journal of Psychosocial Rehabilitation 24.6 (2020), pp. 2597 – 2602.

13. Shavkatovna A.M. (2023). Morphological Characteristics of Unusual Compounds Found in Literary Text. World of Science. Journal on Modern Research Methodologies, 2(3), pp. 83 – 88.

14. Mirhojiddinova J.D., Shavkatovna A.M., Alijonova M.D. (2022). Linguistic Features Of Unconventional Combinations And Agricultural Terms In Literary Texts. Journal of Positive School Psychology, 6(11), pp. 1599 – 1604

15. Mirhojiddinova D., Jamoliddinova D. (2022). The importance of critical thinking in primary class education system. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(12), pp. 1117 – 1119.

16. Shavkatovna A.M. (2023). G'ayriodatiy birikmalarning badiiy matnda lingvopoetik aktuallashi. Journal of Integrated Education and Research, 2(3), pp. 129 – 132.

17. Zholiddinova D.M. (2022). Some Comments on the Vertical and Horizontal Relations of Terms in the Work of Art. Web of Scholars: Multidimensional Research Journal, 1(5), pp. 145 – 148.

Baxodirova Shaxlo Baxodirovna (Chirchiq davlat Pedagogika universiteti tayanch doktoranti)

LAKUNALARNING O'RGANILISHIGA DOIR AYRIM MULOHAZALAR

***Annotatsiya.** Bo'shliqlar manbai turli madaniyatlar, dunyoqarashlar va qadriyatlar vakillari o'rtasidagi muloqot jarayonida aniqlangan semantik farqlardir. Lakunalar madaniy identifikatsiyalash jarayonida qo'shuvchi omil va uning teskari tomonidir. Ular germenevtik jarayonning manbai va dvigateli vazifasini bajaradi, chunki ular bilish subyektini axborot bo'shlig'ini yengib o'tishga undaydi.*

***Аннотация.** Источником пробелов являются смысловые различия, выявляемые в процессе общения представителей разных культур, мировоззрений и ценностей. Лакуны являются как фактором, способствующим, так и противоположным фактором в процессе культурной идентификации. Они выступают источником и двигателем герменевтического процесса, поскольку побуждают субъекта познания к преодолению информационного разрыва.*

***Annotation.** The source of gaps is the semantic differences identified in the process of communication between representatives of different cultures, worldviews and values. Lacunae are both a contributing factor and a reverse in the process of cultural identification. They act as the source and engine of the hermeneutic process, because they encourage the subject of knowledge to overcome the information gap.*

***Kalit so'zlar:** madaniyat, madaniyatlararo muloqot, bo'shliqlar, bo'shliq tipologiyasi, tushunish.*

***Ключевые слова:** культура, межкультурная коммуникация, пробелы, типология пробелов, понимание.*

***Key words:** culture, intercultural communication, gaps, gap typology, understanding.*

Bilish jarayoni faqat subyektning obyekt bilan o'zaro ta'siri emas. Nodonlik muloqot yoki matn ushida ishlash jarayonida hech qanday nomga ega bo'lmagan narsa "bo'shliq" shaklida namoyon bo'ladi. Bilishda insonparvarlik jarayoni sifatida jaholatdan bilimga harakat bo'shliqlarni bartaraf etish orqali sodir bo'ladi. Lakunalar (lotincha lakuna – bo'shliq) – bu "bo'shliqlar", bilimdagi "bo'shliqlar", matndagi "qarama-qarshiliklar" va "qorong'u joylar"dir. Kundalik hayot tuzilmalarida turli etnik guruhlar, madaniyatlar, konfessiyalar va jamoalarning o'zaro munosabatlarida "noto'g'ri tushunish holatlari", "noto'g'ri tarjima holatlari" kabi bo'shliqlar doimo paydo bo'ladi. Shaxslararo darajadagi bo'shliqlar shaxsiy tezauri, xotiraning leksik va etimologik boyligidagi farq bilan bog'liq. Til "borliq uyi" sifatida bizga nafaqat o'ziga xoslik amaliyotini, balki, ayni paytda, lakunarlik amaliyotini ham beradi.

Til nomuvofiqliklarida namoyon bo'lgan madaniy farqlar turli mualliflar tomonidan turli atamalar-da qayd etilgan: "ekvivalent bo'lmagan lug'at" (L.S.Barxudarov, E.M.Vereshchagin, V.G.Kostomarov, "antiso'zlar" (Y.S.Stepanov), "realliklar" (S.I.Vlaxov, S.P.Florin, Luksik farqlar sifatida ular "etnoeydema" (L.A.Sheyman va N.M.Varix), "qorong'u joylar" (R.A.Budagov), "burr" (G.Gachev) atamalar bilan belgilanadi.

Ikki tilning grammatik sistemalarini solishtirish haqida gapirar ekan, Ch.Xokket tasodifiy qoldirishlarni, nutqiy qoliplardagi bo'shliqlarni ("qoliplardagi tasodifiy teshiklar") ajratib ko'rsatadi. K.Xeyl avstraliyalik Valbiri etnik guruhining tili va madaniyatini o'rganib, uni ingliz tilida so'zlashuvchi madaniyat bilan qiyoslab, "bo'shliq" (gap, lacuna) atamasini qo'llaydi.

Ko'rib chiqilgan atamalarning har biri ma'lum bir jihatda tillar va madaniyatlar o'rtasidagi farqlarni tavsiflash uchun ishlatiladi. Biroq, hozirgi bosqichda ushbu fanlararo sohada tushunchalarning yagona nomenklaturasini yaratish zarurati paydo bo'ldi. Ko'pgina mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar "lacuna" atamasini tillar va madaniyatlardagi umumiy farqlarga ishora qilish uchun umumiy atama sifatida ishlatadilar. Y.N.Karaulov "Umumiy mafkura" asarida bo'shliqlar va ularning paydo bo'lish sabablari ha-

qida gapiradi. G.V.Bykova, Z.D.Popova va I.A.Sternin, A.A.Makhonina va ba'zi boshqa mualliflar ham "lacuna" atamasini qo'llashadi.

XX asrning 60–80-yillariga kelib, chet el adabiyotida, jumladan ingliz adabiyotida ham frazeologiya sohasiga bo‘lgan qiziqish tez sur’atlar bilan o‘sd. G‘arb hamda Amerika tilshunosligida shu vaqtga qadar frazeologiyaga bag‘ishlangan alohida asar yo‘q edi. Umuman, “frazеologiya” termini ilk marotaba

¹ Gary Martin. Break a leg. The Phrase Finder. From the original on 2015-04-02. Retrieved 2015-03-29.

Sharl Balli tomonidan “Precis de stylistique” asarida qo‘llanilgan. Frazeologiya sohasining ilk tadqiqotchisi, shubhasiz, shvetsar-fransuz tilshunosi Sharl Balli hisoblanadi. U o‘zining “Stilistika ocherki” (1905) va “Fransuz stilistikasi”(1909) nomli asarlarida so‘z birikmalari, frazeologizmlarni tadqiq etuvchi maxsus boblar kiritgan.¹

Frazeologiya tilshunoslikning keyingi taraqqiyotida tez rivojlangan sohalardan biridir. Rus va ingliz tilshunosligida frazeologiya ancha ilgari o‘rganila boshlangan bo‘lsa, o‘zbek tilshunosligida bu soha sistemali ravishda o‘rganila boshlanganini o‘tgan asrning 40–50-yillariga to‘g‘ri keladi. Bu davrda Sh. Rahmatullayev (1969), G.A.Bayramov (1970), G.X.Axunzyakov (1974), V.G.Uraksin (1975), L.K. Bayramova (1983), M.F.Chernov (1986)larning doktorlik dissertastiyalari frazeologizmlar tadqiqiga bag‘ishlangan. V.V.Vinogradov frazeologizmlarni uch sinfga tasniflaydi:

1. Frazeologik chatishmalar (phraseological fusions).
2. Frazeologik qo‘shilmalar (phraseological units).
3. Frazeologik birlashmalar (phraseological collocations or combinations).²

Frazeologik chatishmalar – komponentlarining ma‘nosi butun birlikning ma‘nosiga aloqador bo‘lmagan frazeologizmlar. Frazeologik birlashmalar o‘ziga xos valentlikka ega bo‘lgan so‘zlardan tashkil topgan. Bunday frazeologik birliklarning komponentlaridan biri o‘zining to‘g‘ri ma‘nosida, qolganlari metaforik ma‘noda qo‘llanadi. Frazeologik birlashmalar ma‘lum darajada semantik jihatdan bo‘linmasdir. Masalan: *heavy father – teatr asaridagi asosiy rol; to kick the bucket – o‘lmoq; red tape – byurokratik metod* kabi frazeologizmlar yaxlit holda bir ma‘no beruvchi frazeologizmlardir. Frazeologik chatishmalar ma‘nosi butunlay o‘zgargan so‘z birikmasidir. Ammo frazeologik qo‘shilmalardan farqli o‘laroq, ularning ma‘nolari tarkibiy qismlarining ma‘nolaridan anglashilmaydi. Muqaddas diniy kitobdan kelib chiqqan so‘z va iboralar S.Stoffenning “Studies in English, Written and Spoken” kitobida keng taqdim qilingan. “Scriptural phrases and Allusions in Modern” bobida olim Bibliya iboralarini va ularning etimologiyasini o‘rganib ilmiy jihatdan tahlil qilladi. G‘arb tilshunosligida bibliizmlarni o‘rganish yana L.P.Smit nomi bilan bog‘liq. U o‘zining “Ingliz tili frazeologiyasi” kitobida Bibliya iboralariga alohida bo‘lim bag‘ishlab, ularni o‘rgangan. Muallif “Ingliz tilidagi Bibliya abarotlari va iboralarining soni shu darajada ko‘pki, ularni yig‘ish va sanab chiqish oson vazifa emas” deb yozadi. L.P.Smit ingliz tili nafaqat bir talay Bibliya so‘zlarini, balki o‘zida qadimgi yevrey va yunon idiomalari so‘zma-so‘z tarjimasini namoyish qiladigan bibliya idiomatik iboralarini ham o‘z ichiga oladi deb ta‘kidlaydi.³ Tahlillar natijasida Bibliya bilan bog‘liq bo‘lgan oziq-ovqat komponentli frazeologik birikmalarga misol qilib quyidagilarni keltiramiz:

- Adam’ apple – qo‘shimoq, kekirdak olmasi;
- The apple of Sodom – chiroyli, ammo aynigan ho‘l meva;
- Milk and honey – to‘kin-sochinlik, mo‘l-ko‘llik;
- Manna from heaven – zor-intizor bo‘lib kutmoq;

A forbidden fruit–ta‘qiqlangan ho‘l meva Bibliyaga asoslangan frazeologizmlar ingliz tilidagi oziq-ovqat komponentli frazeologizmlar tarkibida “apple”, “bread”, “milk”, “fat”, “olive” kabi oziq-ovqat nomlari mavjud. Ingliz tilida joy nomlari bilan bog‘liq frazeologik birliklar ham mavjud. Ularning tahlil va tadqiq tadqiqoti M.Rajabovanning ilmiy ishida uchraydi. Joy nomlarini o‘rganish nafaqat tilshunoslikning, balki tarix va geografyaning obyekt sifatida ham qaraladi. Joy nomlari bilan kelgan frazeologizmlar tarkibida lingvomadaniy tadqiq qilish, ularning milliy, madaniy tomonlarini yoritib berish zamonaviy tilshunoslikning dolzarb masalalaridan biridir. Joy nomlari bilan bog‘liq frazeologizmlarga quyidagi birliklarni misol qilib keltirish mumkin: *have kissed the Blarney stone – tilyog‘lamachi, xushomadgo‘y. Irlandiyada Blarni qasri oldida katta bir tosh bo‘lib, ingliz xalqi afsonalariga ko‘ra, bu toshni o‘pgan odam xushomadgo‘ylik, laganbardorlik illatiga ega bo‘ladi; go for a Burton – o‘lmoq, ko‘z yummoq, izsiz yo‘qolmoq.*

Barton – Staffordshir viloyatidagi pivo ishlab chiqaradigan kichik shahar. Bu iborani britaniyalik uchuvchilar birinchi marta II Jahon urushi davrida o‘zlarining urushda halok bo‘lgan quroldosh do‘stlarini eslab ishlatgan. L.P.Smit ingliz tili nafaqat bir talay Bibliya so‘zlarini, balki o‘zida qadimgi Yevrey va Yunon idiomalari so‘zma-so‘z tarjimasini namoyish etadigan Bibliya idiomatik iboralarini ham o‘z ichiga oladi, deb ta‘kidlaydi. Masalan, *Adam’s apple–oziq-ovqat* komponentli frazeologik birlik – “*qo‘shimoq*”, “*kekirdak olmasi*” deb tarjima qilinadi.–George entered the office of the property broker, a little bold, old man with a thin neck and prominent adam’s apple. A forbidden fruit – taqiqlangan ho‘l meva.

¹ Bally, Ch. *Precis de stylistique*. Geneve, 1905, 320 p.

² Виноградов В.В. Основные понятия русской фразеологии как лингвистической дисциплины. Л., 1946, с. 61.

³ Смирницкий А.И. Лексикология английского языка. М., ИИЛ, 1956, 260 с.

Frazeologik chatishmalar – komponentlarining ma'nolari butun birlikning ma'nosiga aloqador bo'lgan frazeologizmlar. Masalan, *heavy father – teatr pyessasidagi asosiy rol, to kick the bucket – o'lmoq, red tape – byurokratik metodlar* manosi o'z tarkibidagi so'zlarning ma'nolariga bog'liq bo'lgan yaxlit holda bir ma'no beruvchi frazeologizmlardir. Frazeologik chatishmalar ma'nosi butunlay o'z-gargan so'zlar birikmasidir.¹

Ammo frazeologik qo'shilmalardan farqli o'laroq, ularning ma'nolari tarkibiy qismlarining ma'nolaridan anglashilmaydi, metaforaga asoslangan ma'no ko'chish o'z aniqligini yo'qotadi. *To leave smb in lunch (to abandon a friend when he is in trouble), to show the white feather (to betray one's cowardice), to dance attendance on smb (to try and attract smb, to show exaggerated attention)* kabi frazeologizmlar ham frazeologik chatishmalarga misol bo'la oladi. Frazeologik qo'shilmalar – ma'nosi bir butun frazeologizmlarning frazeologik ma'nosidan anglashiladigan frazeologizmlar. Metaforaga asoslangan ma'no ko'chish aniq va oydindir. Frazeologik qo'shilmalarning leksik komponentlari eng turg'un hisoblanadi. Masalan:

♦ to look a gift horse in the mouth (to examine a present too critically, to find fault with smth one gained without effort);

♦ to ride a high horse (to behave a superior, haughtily, overbearing way);

♦ a big bug (a person to importance);

♦ a fish out of water (a person situated uncomfortably outside his usual and proper environment)

kabi frazeologizmlar frazeologik qo'shilmalarga misol bo'la oladi. Frazeologik qo'shilmalar hajmi anchagina. Ularning ba'zilari osongina tarjima qilinadi, hatto ba'zilari internatsional hamdir. Bilim tematikasiga kiruvchi frazeologik birliklarga to'xtalsak, Masalan, *to know the way the wind blows – qayerga shamol esishini bilmoq*. Frazeologik birlashmalar – o'ziga xos valentlikka ega bo'lgan so'zlardan tashkil topgan. Bunday frazeologik birliklarning komponentlaridan biri o'zining to'g'ri ma'nosida, qolganlari metaforik ma'noda qo'llaniladi. Frazeologik birlashmalar ma'lum darajada semantic jihatdan bo'linmasdir. Frazeologik birlashmalar ma'nosi qisman o'z-gargan so'zlar birikmasidir. Bu frazeologik birliklar ma'nosi ularni tashkil etuvchi so'zlarning ma'nosidan osongina anglashiladi.

To be at one's wits end, to be a goodhand at smth, to come off a poor second, to come to a sticky end, to stick at nothing, gospel truth, bosom friend kabilar frazeologik birlashmalarga misol bo'ladi.

Xulosa qilganda, kasbga oid frazeologik birliklarning semantik jihatlari, har ikkala tilde ham insonning jismoniy mehnati bilan bog'liq ekanligini ko'rsatadi, ular bevosita inson mehnat faoliyati bilan bog'langan tushunchalarni ifodalaydi.

Toshnazarova Dilnavoz Olimovna (Urganch davlat universiteti Xorijiy filologiya fakulteti

“Roman-german filologiyasi” kafedrasida tayanch doktoranti; toshnazarovadilnavoz@gmail.com)

INGLIZ TILIDA AKADEMIK MATNLAR YARATILISHIDA SO'Z BIRIKMALARNING ROLI

Annotatsiya. Ushbu maqolada ingliz tili akademik matnlarida so'z birikmalarining qo'llanilishi, kollokatsiya va uning turlari hamda ushbu til birligi haqida tilshunoslarning fikrlari keltirilgan.

Аннотация. В статье рассматривается использование словосочетаний в академических текстах английского языка, коллокация и её типы, а также мнения лингвистов об этом языковом единстве.

Annotation. This article presents the usage of word combinations in English academic texts, collocation and its types, as well as the opinions of linguists about this language unit.

Kalit so'zlar: akademik matn, kollokatsiya, leksik va grammatik kollokatsiya, ekstralingvistik faktor.

Ключевые слова: академический текст, словосочетание, лексико-грамматическое словосочетание, экстралингвистический фактор.

Key words: academic text, collocation, lexical and grammatical collocation, extra linguistic factor.

So'z birikmalari, qayerda ishlatilishidan qat'iy nazar, muhim lingvistik masaladir. Shunga ko'ra, ushbu maqola akademik matnlar yaratilishida ravon yozish qobiliyatiga ega bo'lish uchun birikmalarning ahamiyati haqida e'tiborimizni oshirishga qaratilgan. Akademik matnlarga so'z birikmalari orqali qo'shma gaplarni yaratish bo'yicha ba'zi takliflar berish va milliy tilimizdagi ba'zi birikmalarni ingliz tili maqolalarida qo'llanilishi kerak bo'lgan murakkab birikmalarning ro'yxatini yaratishga qaratilgan. Ingliz tilida so'zlashuvchilar tomonidan ELT (ingliz tili o'qitish) sohasida mazkur tilda yozilgan yuztadan ortiq

¹ Амосова Н.Н. Основы английской фразеологии. Л., ЛГУ, 1963, 208 с.

tadqiqot maqolalari yaratilgan. Shu ma'lumotlar tahlil qilinib, so'z birikmalari aniqlandi va toifalarga ajratildi.

“Chet tillarni o'qitishda frazeologiyaning ta'siri va roli munosib e'tirof etilgan. Korpus tilshunosligining paydo bo'lishi tufayli akademik matnlarda frazeologik birliklar paydo bo'ldi, bu esa o'quvchilarning so'z boyligini oshirishda qimmatli qurilish bloklarini yaratdi” (Jurko. 2010). Keyinchalik, Neysh (2006)ning ta'kidlashicha, “O'rganilyotgan til so'z birikmasi yoki birikma, tilni mukammal egallashda alohida e'tiborga loyiqdir. Kollokatsiya (collocation) – bu ikki yoki undan ortiq so'zning “o'zboshimchalik”dan ko'ra semantik takrorlanishi hamda yozuvchilar tomonidan akademik matnlarda ko'p qo'llanilishidir” deya ta'riflagan.

Ingliz tilshunosligida so'z birikmasi borasida qo'llanilgan “o'zboshimchalik” deb hisoblanadigan qarashlardan, so'z birikmalarini sintaktik yoki semantik asosda qurish va muloqotda qo'llash, birikma bo'lishi uchun belgilangan me'yoriy munosabatlar asos bo'lishi kerakligi milliy tilimiz lisoniy qarashlarida ham o'z aksini topganini inkor qilmaymiz.

Ma'lumki, ilgari ekstralingvistik faktor sifatida e'tibordan chetda qolgan ko'plab muhim faktlar asta-sekinlik bilan o'z ta'sirini kengaytira boshladi. Bir paytlar arziyas deb hisoblangan qo'shma gaplar va so'z birikmalar vaqt o'tishi bilan ahamiyat kasb eta boshladi va so'z birikmalariga katta qiziqish uyg'ondi.

Bugungi kunda birikmalar ELT (ingliz tili o'qitish)da, xususan, lug'at tuzish va frazeologiyada bosh rolni ijro etishi fikrimizning aniq isbotidir. Bundan tashqari, tildan foydalanuvchilar uchun birikmalarining foydasini isbotlovchi keng qamrovli adabiyotlar mavjud. Birinchidan, so'z birikmalar o'quvchilarning leksika haqidagi bilimlarini va umumiy tilni bilish darajasini oshirish uchun qimmatli bo'lsa, ikkinchi tomondan, miya ma'lum bo'laklar va formulali iboralar bilan yaxshiroq ishlaydi, ammo metakognitiv munosabatlarda milliy til ta'sirini yengib o'tishda asosiy muammo bo'lib qolmoqda. Hillning ta'rifi-cha,¹ kollokatsiya ravonlik kalitidir.

Til foydalanuvchisi o'z og'zaki yoki yozma nutqlarida ona tilidagi ravonlikka ega bo'ladi”,² deya birikmalarining ahamiyatini yana bir pog'ona oshirgan.

Shu kungacha yozgan maqolalarimizning barchasida dissertatsiya ishimiz predmeti hisoblangan so'z birikmalari (word combination)ni aynan shu nom bilan nashr qildirib kelyapmiz. Ammo mazkur maqolada ba'zi xorijlik tilshunoslarning so'z birikmalari borasida “collocation”, ya'ni, “kollokatsiya”– inglizchadan tarjima qilinganda “*birga joylashish yoki birga rejalashtirish natijasi yoki harakati*”, the act or result of placing or arranging together shaklida berilgan, ammo “O'zbek tilining izohli lug'ati” 2020-yilgi nashrida bu so'z berilmaganini nazarda tutib, ingliz va o'zbek tilida so'z birikmalarining nomlanishi bo'yicha keyingi maqolalarimizda batafsil to'xtalishni maqsad qildik.

Kollokatsiya terminini to'liqroq izohlash maqsadida quyidagi ta'rifni keltirib o'tamiz: “Kollatsiya so'zlarning gapda joylashuvlarini yaxshiroq tushunish, bizning ular haqida xabardorligimizni oshirishga yordam beradi. Garchi adabiyotda kollokatsiyalarning ta'riflari so'zlovchining ongida intuitiv qo'shma so'z bilan bog'liq bo'lsa-da, boshqa ko'plab ta'riflar bizga birikmalarni tushunishning yaxshiroq usulini beradi.

Kollokatsiya sintagmatik munosabatlarga murojaat qiladi, ularning ma'nosi bevosita konseptual ma'noga bog'liq emas (Firth. 1957).

Kollokatsiyalar kuchli moyillik bilan birga kelgan ikki yoki undan ortiq so'zlardir (Xalliday, McIntosh, Stevens. 1964).

Kontekst nuqtai nazaridan qo'shma gaplar tilning mos shakllari hisoblanadi. Ularning kuchi bor, bir-birining sodir bo'lishini aniqlaydi (Kororsadoovich-Strazynska. 1980).

Qo'shma gap lug'aviy bo'lakning birga kelgan ketma-ketligi bo'lgani uchun u idiomatikdir. Shunga qaramay, qo'shma gapni idiomatik ifodadan farq qiladigan farq bor, ya'ni, qo'shma gap butunlay shaffof va semantik tarkibiy qismdir (Benson. 1985).

Kollokatsiya – tarkibiy elementlarning o'zaro darajada o'zgarib turadigan semantik uyg'unlik turi. Kollokatsion tarkibiy qismdagi leksik birliklar orasidagi qo'shma kelishik kuchli yoki kuchsiz bo'lishi mumkin (Cruise. 1986).

So'z birikmasi ona tilida so'zlashuvchining xotirasida bog'langan ikkita birga kelgan so'zdan tuzilgan (Aghbar. 1990). Ingliz tilidagi birikma ikki yoki undan ortiq so'zlarning formulali, tayyor va shartli birikmasi sifa-tida tavsiflanadi (Zhang. 1993).

¹ Hill J. (2000). Revising priorities: from grammatical failure to collocational success. In M.Lewis, Teaching Collocations: Further developments in the lexical approach (pp. 47–69). Hove: Language Teaching Publications.

² <https://www.merriam-webster.com/>

Ingliz tili akademik matnlarida qoʻllaniladigan kollokatsiyalarni shakla va mazmun jihatdan tahlil qilib, ularni: a) leksik; b) grammatik guruhlariga boʻlib oʻrgandik.

Leksik birikmalar infinitiv shakl, predloglar yoki gaplarni oʻz ichiga olmay, aksincha, sifatlar, qoʻshimchalar kabi turli birikkan soʻzlarni bildirsa, yaxshi qiz (nice girl), mazali ovqat (yummy food), grammatik birikmalarga feʼl yoki ot, qoʻshimcha ravishda infinitiv va gap kiradi. Masalan, ot minmoq (to ride a horse), sayrga chiqmoq (to go for a walk).

Frazalar esa grammatik birikmalarining qoliplari boʻlgan leksik birlikdan hosil boʻladi. Ammo baʼzi kollokatsiyalar borki ularni qotib qolgan leksik birikmalar deyish mumkin. Sababi ular biri-birini taqozo qiladi va butunlikka oʻxshaydi. Bunday leksik birikmalardagi leksik birliklar oʻrtasida shunday kuchli oʻzaro bogʻliqlik mavjudki, ona tilida soʻzlashuvchi ularni alohida boʻlaklar yoki erkin birikmalar deb hisoblamaydi. Ushbu guruhga: kuchli shamol, chin sevgi, sodiq doʻst, issiq non kabilarni misol qilish mumkin.

Filologiya fanlari doktori Anvar Gafurovich Muhiddinov va Fargʻona davlat universiteti magistranti Kuchkarova Kamila Mirojiddinovnalarning “Ingliz kollokatsiyalarining sof lisoniy jihatlari” nomli maqolasida “Ingliz tilidagi birikmalar ingliz tilining muhim qismidir. Ingliz tilida kollokatsiyalar, odatda, ogʻzaki va yozma nutqda qoʻllaniladi va ingliz tilini oʻrganuvchilarning malakasini oshirishda ajralmas omil boʻlib hisoblanadi. Kollokatsiyalarni oʻrganish tilni oʻrganuvchilari uchun juda muhim, shu bilan birga, qiyin va muammoli boʻlishi mumkin. Ushbu maqolada biz, birinchi navbatda, kollokatsiyalarga soʻz birikmasi sifatida qaraymiz va ularning hosil boʻlish yoʻllari, tarixi va ularni semantik va grammatik xususiyatlariga koʻra tasniflaymiz”, deya kollokatsiyalar va soʻz birikmalari bir xil til birliklari sifatida qaralganiga guvoh boʻlishimiz mumkin.

Mazkur maqolaga tahlil qilish uchun koʻplagan birikmalarni tortmaganimizning sababi, baʼzi soʻz birikmalari milliy tilimizda birikma holatida, ammo ingliz tilida tub soʻz, bilʼaks, ingliz tilida soʻz birikma sifatida uchraydigan soʻzlar esa ona tilimizda qoʻshma soʻz sifatida uchraydi. Bundan tashqari, kollokatsiya va soʻz birikmalari kabi lisoniy birliklar oʻzbek tilida shaklan va mazmunan aynan bir xil emas. Qiyoslanayotgan tillarimizda birikmaning turlari, yasalishi boʻyicha keyingi maqolalarimizda batafsil toʻxtalamiz.

Ahmedova Aziza Komilovna (O'zbekiston davlat Jahon tillari universiteti, f.f.f.d, PhD.;
aziza.ahmed@inbox.ru)

OBRAZ YARATISH MAHORATI INTERTEKSTUAL ALOQALAR KESIMIDA

Annotatsiya. Maqolada zamonaviy adabiyotshunoslikning markaziy tushunchalardan bo'lgan intertekstuallikning ilmiy-nazariy masalalari tahlil qilindi. Xususan, intertekstuallik atamasiga berilgan ta'riflar, ushbu istilohning badiiy adabiyotdagi talqini diqqat markazida bo'ldi. Amerika romannavisi Sinkler Lyuisning badiiy mahoratini baholashda intertekstual tahlildan foydalanish samarali ekanligi ilgari surildi. Maqolada S.Lyuisning uch romani, *Main Street*, *Arrowsmith*, *Elmer Gantry*, qahramonlari presedent-resepiant obraz kesimida tahlil qilindi. Natijada yozuvchining badiiy novatorligi, xarakter yaratishining betakror jihatlari aniqlandi. Intertekstual tahlil S.Lyuisning poetik mahoratini baholashning yangi mezonlarini berishi isbotlandi.

Аннотация. В статье проанализированы научно-теоретические вопросы интертекстуальности, которая является одним из центральных понятий современного литературоведения. В частности, в центре внимания оказалось определение термина интертекстуальность, трактовка этого термина в художественной литературе. Было высказано предположение, что использование интертекстуального анализа эффективно при оценке художественного мастерства американского писателя Синклера Льюиса. В статье герои трех романов С.Льюиса, *Main Street*, *Arrowsmith*, *Elmer Gantry* проанализированы в контексте прецедентно-реципиентного образа. В результате были выявлены художественное новаторство писателя и уникальные стороны создания персонажей. Доказано, что интертекстуальный анализ дает новые критерии оценки поэтического мастерства С.Льюиса.

Annotation. The article analyzes the scientific and theoretical issues of intertextuality, which is one of the central concepts of modern literary criticism. In particular, the focus was on the definition of intertextuality and the interpretation of this term in fiction. It has been suggested that using intertextual analysis effectively assesses the artistic mastery of the American writer Sinclair Lewis. In the article, the heroes of three novels by S.Lewis, *Main Street*, *Arrowsmith*, and *Elmer Gantry* are analyzed in the context of the precedent-recipient image. As a result, the writer's artistic innovation and the unique aspects of character creation were revealed. It is proved that intertextual analysis provides new criteria for evaluating the poetic skill of S.Lewis.

Kalit so'zlar: intertekstuallik, badiiy mahorat, dialogizm, badiiy obraz, roman, presedent obraz, qahramon.

Ключевые слова: интертекстуальность, художественное мастерство, диалогичность, художественный образ, роман, прецедентный образ, герой.

Key words: intertextuality, artistic skill, dialogue, artistic image, novel, precedent image, hero.

Ijod psixologiyasi murakkab jarayon bo'lib, biror asarning dunyoga kelishida mazkur asar yaratilgunga-cha mavjud bo'lgan badiiy matnlarning zalvorli ta'sirini inobatga olish lozim. Bunday yondashuv, birinchidan, asar mazmun-mohiyatini chuqur anglashga yordam bersa, ikkinchidan, intertekstual aloqalar tahlili ijodkorning badiiy mahoratini vorisiylik va novatorlik kontekstida o'rganishga hamda asardagi originallikni, muallif g'oyasining mantiqiyligi va ijodiy fantaziyasining kengligi kabi badiiylik mezonlarini xolis baholashga imkoniyat beradi. Shu bois maqolada amerikalik romannavis S.Lyuis yaratgan obrazlar galeriyasini jahon adabiyotida mavjud bo'lib, S.Lyuisga ta'sir qilgan pretsedent obrazlar bilan qiyoslab o'rganishni lozim topdik. Zotan, chin mahorat bilan yaratilgan obrazlar taqaddir etib, tabiiy ravishda asardan asarga ko'chib yuradiki, ularni tadqiq etish ijodkorning poetik betakrorligini, novatorligini kashf etishga yo'l beradi. Biroq shuni afsus bilan ta'kidlash lozimki, intertekstuallik bo'yicha tilshunoslarning ko'p sonli tadqiqotlari paydo bo'layotgan bir vaqtda, adabiyotshunoslikda intertekstual masalalar, obrazlar o'rtasidagi matniy aloqadirlik e'tibordan chetda qolib kelmoqda. Mazkur tadqiqot bu masalada kamtarona hissa bo'lishiga harakat qilindi.

Matnlar orasidagi dialog, intertekstual aloqalar haqida ilk qarashlar yigirmanchi asr o'rtalarida, M.M.Baxtin asarlarida uchraydi. Xususan, Baxtinning matn orqali muallif va kitobxon, muallif va boshqa ijodkorlar dialogga kirishishi, ijodda o'zniki va o'zganiki masalalari, ayniqsa, dialogizm intertekstuallikka nazariy asos bo'ldi. Baxtin uchun dialogizm tiriklikning muhim falsafiy kategoriyasi, "hayot o'z tabiatiga ko'ra dialogik xarakterda... yashash, demak, dialogda qatnashish: muomala qilish, e'tibor qaratish,

mas'ullik, kelishuv va boshqalar...”,¹ deb yozadi olim. Demak, inson muloqot orqali dunyoni anglaydi, inson muloqotdagina mavjud. Fransuz olimasi Y.Kresteva Baxtinning dialogizm haqidagi go'yalarini, asosan, matnlar orasidagi munosabat sifatida o'rganib, intertekstuallik² (lot. inter–aro, textum–matn) istilohini ilk bora qo'llagan. Keyinchalik, g'arbda poststrukturalizm, posmodernizm va dekonstruktivizm namoyandalari intertekstuallik masalalariga faol murojaat qildilar. R.Bart,³ J.Janett va U.Eko intertekstuallik bo'yicha nazariy qarashlarni shakllantirgan olimlar hisoblanadilar. Biror matn boshqa matnlar ta'siridan xoli emasligini qayd etadi Yuliya Kresteva. Roland Bart esa “Har bir matn eski iqtiboslardan hosil bo'lgan yangi matodir”,⁴ deya ta'rif beradi.

Intertekstuallik keng (adabiyotshunoslikda) hamda tor (tilshunoslikda) ma'nolarda tushuniladi. “Keng ma'noda intertekstuallik allaqachon mavjud bo'lgan matnlar korpusiga nisbatan matn aloqalarining ochiqligi va xayrixohlik sifatida tushuniladi”⁵ deb ta'rif beradi tadqiqotchi A.V.Stepanova. G.Allenning ham matnlar intertekstualligi haqidagi fikri diqqatga sazovor: “Barcha matnlar ko'p ma'noli, qayish-qoq, kitobxonning taxminlariga ochiq bo'lib, aniq chegaraga ega emas. Matnlar jamiyatda mavjud bo'lgan dialogig “ovozlarni ifoda etishga yoki aksincha, bostirishda ishtirok etadi”.⁶ Demak, intertekstual aloqalarni tadqiq etish matndagi ma'no qatlamlarining chuqurroq sathlariga yetib borish, zohirda turgan ma'nolarning tub, botiniy mazmunini anglash imkonini beradi.

Muammo shundaki, intertekstual aloqalarni payqash bilim ufqlari keng bo'lishini, favqulodda sinchkovlik va matnlar bilan ishlashda katta tajribani talab etadi. “Badiiy matnning chuqur mazmunini anglash uchun muallim va talaba matnga kamida tarixchi va faylasuf nigohi bilan boqishi lozim” deya xulosaga keladi R.Schales.⁷ Boshqa tomondan esa intertekstual aloqalar aniq maqsadga yo'nalmagan bo'lsa, asardagi ma'nolar talqini kontekstual ma'nodan ancha uzoqlashib, “o'tlab ketish” muammosiga duch kelish mumkin. Bu borada Tomashevskiy oqilona tavsiya beradi. Unga ko'ra, avvalo, matnlar orasidagi adabiy o'xshashliklarni uch guruhga bo'lish lozim: 1) boshqa ijodkor asariga ongli ravishda murojaat qilish; 2) anglanmagan ravishda u yoki bu adabiy qolipga ergashish; 3) tasodifiy hamohanglik.⁸ Olimning fikricha, o'xshashliklarni tasniflab, so'ng tahlilga kirishilmasa, bunday tahlil shunchaki adabiy kolleksionerlikka o'xshab qoladi. Muxtasar aytganda, badiiy matn tahlilida intertekstual aloqalar kesimidan yondoshganda muayyan mezonlarga tayanish, aniq maqsaddan kelib chiqib, talqin qilish muhim hisoblanadi.

Tabiiyki, mallif obraz yaratayotganda atayin mavjud bo'lgan tayyor obrazga murojaat qiladimi yoki bu holat tasodiy sodir bo'ladi, degan savol tug'iladi. Mazkur masalada N.A.Fateeva asosli ravishda “anglangan” va “anglanmagan” intertekstuallik,⁹ I.V.Arnold esa “maqsadli”¹⁰ intertekstuallik haqida yozadi. Shuningdek, tilshunoslar implitsid (yashirin) va eksplitsid (oshkor) intertekstual aloqalar tilning barcha qatlamlarida, fonetik qatlamdan tortib, butun boshli matngacha qamrab olishi mumkinligini ta'kidlaydilar.¹¹

Ijodkor uchun biror asarni yaratishida manba bo'lib xizmat qilgan asar tilshunoslar tomonidan turlicha nomlanadi: presedent matn (Karaulov Y.N.), arxitekt, asl matn, manba-tekst, genotekst, pratekst, prototekst, pretekst, predtekst (Gudkova D.B., Stepanova A.V.). D.B.Gudkovning tasnifiga ko'ra manba bo'lgan matn, ya'ni predtekst quyidagicha namoyon bo'ladi:

- 1) presedent nutq orqali (sitata, asar nomi, matnga to'liq taqlid);
- 2) presedent voqea (vaziyat) orqali;
- 3) presedent ism orqali (ism, personaj, tarixiy shaxs).¹²

¹ Бахтин М.М. Эстетика словесного творчества. М., 1979, с. 318.

² Kristeva J. Bachtin, das Wort, der Dialog und der Roman. Literaturwissenschaft und Linguistik. Ergebnisse und Perspektiven Text. J.Kristeva. Bd 3: Zur linguistischen Basis der Literaturwissenschaft II. 1972, s. 335 – 375.

³ Барт Р. S/Z. 3-е изд., М., Академический проект, 2009, 373 с.

⁴ Барт Р. Избранные работы. Семиотика. Поэтика. С. 486; 428.

⁵ Степанова А.В. Интертекстуальная природа образа и образности: на материале образных сравнительных конструкций английской и американской литературы 19 и 20 вв. Дисс. ...канд. филол. наук, М., 2006, 212 с.

⁶ Allen G. (2006). Intertextuality. London, Routledge, p. 209.

⁷ Schales R, 1982, Semiotics and Interpretation, London, Yale University.

⁸ Томашевский Б.В. Пушкин-читатель французских поэтов. Пушкинский сборник памяти С.А.Венгерова. М., 1923, с. 210 – 213.

⁹ Фатеева Н.А. Типология интертекстуальных элементов и связей в художественной речи. Текст. Известия АН. Серия Литературы и языка. 1998, № 5, с. 25 – 38.

¹⁰ Арнольд И.В. Семантика. Стилистика. Интертекстуальность. Текст. СПб., изд-во СПб. ун-та, 1999, с. 392.

¹¹ Ashurova D.U., Galieva M.R. Stylistics of literary text. Т., Alisher Navoiy nomidagi Milliy kutubxona nashriyoti, 2013, p. 76.

¹² Гудков Д.Б. Прецедентные феномены в языковом сознании и межкультурной коммуникации. Текст. Автореф. дис.док.филол. наук, М., 1999, 42 с.

Demak, matnlar orasidagi aloqa personaj orqali ham namoyon bo'ladi. Bunda muayyan asardagi obrazning presedent obraz bilan aloqasini tasdiqlashda ikki qahramon o'rtasidagi o'xshashlik, ijodkorga ta'sir qilgan adib, ta'sir aloqalarini tasdiqlaydigan adabiy-tanqidiy va ilmiy-biografik ishlarga murojaat qilish lozim bo'ladi. Ushbu maqolada Sinkler Lyuisning qahramonlariga presedent obraz bo'lib xizmat qilgan obrazlar tahlilga tortiladi. Maqsad esa Lyuisning poetik mahoratini presedent-resepiant obraz munosabatlari orqali baholashdan iborat. Bunda quyidagi jadval asoslab beriladi:

Presedent obraz	S.Lyuis yaratgan obrazlar. (Resepiant obrazlar, ya'ni intertekstual aloqaga kirishgan obrazlar	Asar nomi
Don Kixot (Migel Servantes, 1547) Nataniel Bampo (Fenimor Kuper, 1841)	Kerol Kennikot, Bebbit Martin Erousmit	Main Street, Babbitt (1920, 1922) Arrowsmith (1925)
Tartuf (Molyer, 1664)	Elmer Gentry	Elmer Gentry (1926)

Shubhasiz, S.Lyuisning yozuvchi bo'lib shakllanishida ta'sir ko'rsatgan ijodkorlar, umuman, lyuis-shunoslikning adabiy ta'sir masalalari qator tadqiqotlar obyekti bo'lgan.¹ Bu masalalarda S.Lyuisning aynan obraz yaratish mahoratiga aloqador muhim faktlarga e'tibor qaratish joiz.

S.Lyuisning «Asosiy ko'cha» romanida butun asar davomida «donkixotlik» mavzusi takrorlanadi. Bosh qahramon o'zi yashayotgan shaharchani ilg'or va orzulardagidek qilish uchun shiddatli kurash olib boradi. Martin Layt Sinkler Lyuisning ijodini yaqindan o'rganib, donkixotcha tafakkur adibning butun ijodiga xos, degan xulosaga keladi hamda "The Quixotic vision of Sinclair Lewis"² («Sinkler Lyuisning donkixotcha qirrasini»–tarj. A.A.) risolasini yaratadi. Laytning e'tirof etishicha, sentimental romanlar o'qib ulg'aygan Sinkler Lyuis ijodini hassos she'rlar yozishdan boshlaydi. Tasavvur dunyosi boy yozuvchi romanlarining bosh qahramonlariga o'zidagi yuksak go'zallikka intilish, ezgulik uchun ayovsiz kurash hislarini «yuqtiradi». S.Lyuisning "Asosiy ko'cha" romani qahramoni Kerol Kennikot ham, garchi bu yigirmanchi asr boshida yaratilgan ayol obrazi bo'lsa-da, oliyanob ritsar Don Kixot kabi mudom orzular ro'yobi uchun kurashga tayyor. Asar sujeti sodda: Kerol, shaharlik kutubxonachi qiz Uil ismli shi-fokor yigitga turmushga chiqadi hamda u bilan to'ydan so'ng qishloqqa ko'chib boradi. Boradi-yu qish-loqning osuda, beozor, romantik hayoti haqidagi tasavvurlari kun sayin y'qolib boradi. Gofer-Prerida bu-tun qishloq har bir oilaning hayotidan xabardor, hech kim nazardan chetda qolmaydi. Qoloqlik va konservativ munosabat barcha jabhalarda, qurilishdan tortib bazm va ziyofatlarda ham ko'zga tashlanadi. Asar qahramonlaridan biri, qishloq hayotining ta'sirini "village virus" – "qishloq virusi" deb nomlaydi. Uning aytishicha, shahardagi jadal hayot tarzi insonning o'zi ustida muntazam ishlashga, yangiliklar bilan doimiy hisoblashib yashashga majbur qilsa, chekka hududlar aholisi, aksincha, har qanday yangilikni es-kicha hayot tarziga singdirib yuboradi. Kerol go'yo Don Kixot singari kurash maydoniga chiqadi, uning ham dushmanlari ko'rinmas kuchlar: qoloqlik, aqidachilik, islohotlarga yopiqlik. Yozuvchi Kerolni turli vaziyatlarda ilg'or g'oyalar beruvchi, yetakchi obrazlarda gavdalaniradi. Avvaliga Kerol qishloq aholi-siga shaharliklarga xos madaniy hordiqni tashkil qilishni o'rgatmoqchi bo'ladi, so'ng u ayollar klubiga a'zo bo'lib, klub faoliyatiga yangi takliflar beradi. Gofer-Preridagi yagona kutubxonada komitet a'zosi si-fatida kitoblar ro'yxatini kengaytirish, fondga mablag' xayriya qilish, ko'proq o'quvchilarni qamrab olish kabi tashabbuslari jamoa tomonidan loqaydlik bilan qabul qilinadi. Drama truppasini tashkil qilib, klassik pyesalarni sahnalashtirish fikri esa tomoshaning omadsiz premyerasi bilan tugaydi. Kerolning ketma-ket mag'lubiyatga uchrashi ham Lamanchlik jahongashtaning tegirmon parraklari bilan muvaffaqiyatsiz jang-lari, mahbuslar tomonidan kaltaklanishi, kamsitilishi, alaloqibat telbaga chiqarilishi kabi epizodlarni esla-tadi. Biroq asar nihoyasida S.Lyuis Servantesdan biroz boshqacharoq yo'ldan borishni afzal ko'radi. Vaqt o'tib, Kerol o'zi ham Gofer-Preri qadriyatlariga moslashib qolganligini angelaydi. Asar so'ngida Kerol qishloqdan ketib, ikki yil davomida Vashingtonda yashaydi. U yerda yangi shakllanib kelayotgan suffra-jistlik harakati vakillari bo'lgan ayollar bilan tanishadi, ofisda ishlab, davlat tashkilotlari o'rtasidagi yozi-shma va xatlarni tahrirlaydi. Kerol ijtimoiy hayot haqida samarali tadbirlar va yangi g'oyalar bilan qurol-lanib, Gofer-Preriga qaytib keladi. Garchi yozuvchi bosh qahramondagi ulkan ma'naviy o'zgarishlar tas-viriga bir necha sahifa ajratgan bo'lsa-da, asar yakunida Kerolning istiqboldagi harakatlari, hayotining ke-yingi ijobiy manzaralari kitobxonga ayon bo'ladi. Servantesning keksa ritsari esa o'limi oldidan o'zining ideallaridan voz kechadi, barcha harakatlarining zoe ketganligini, xato bo'lib chiqqanligini afsus bilan tan oladi. Ko'rinadiki, S.Lyuisning Kerol Kennikoti uchun Don Kixot presedent obraz bo'lib xizmat qilgan esada, ikki romandagi o'xshash "oliyanob ritsarlik" motivlari ayri-ayri badiiy konsepsiyani ro'yobga chi-

¹ Coleman A. The Genesis of Social Ideas in Sinclair Lewis. PhD. dissertation, New York University, 1954.

² Light M. The Quixotic vision of Sinclair Lewis. Purdue University Press, 1975, p. 176.

qargan. Kerol ham ritsar! Faqat u madaniyat ritseri, qishloq muhitida madaniy taraqqiyot uchun kura-shuvchi ritsar. Shu o'rinda unutmazlik lozimki, Kerol obrazi amerika adabiyotida yaratilgan ziyoli ishchi ayolning ilk obrazidir. Servantesning jahongashta ritsarini ayol qiyofasida yigirmanchi asr kontekstida qayta yaratish, uni Don Kixotga o'xshash vaziyatlarda aks ettirib, zamonaviy dunyoda ham oliyjanob rit-serlarning kurashiga ehtiyoj borligini, biroq bu kurashni, ezgu ijtimoiy islohotlarni jamiyat hanz don-kixotlarni kaltaklash va telbaga chiqarish bilan qarshilayotganligini shahar-qishloq ziddiyati orqali man-zaralashirganligi yozuvchining keng ijodiy fantaziyasidan va betakror badiiy navatorligidan dalolat bera-di.

S.Lyuisning "Erousmit" (1925) romani bosh qahramoni Martin Erosmit bakteriolog olim sifatida gavdalanirtilgan. Asar markazida tibbiyot, ilm-fan va shu sohalarining vakillari, tadqiqodchilik hamda kasb axloqi masalalari turadi. Martin Erousmit– Sinkler Lyuisning estetik idealini aks ettirgan obraz. Xu-susan, yozuvchini bolaligidan to'iqinlantirgan ko'chkinchilar obrazi Martin Erousmitda yorqin namoyon bo'ladi. S.Lyuis konservativ oilada ilk amerikaliklarga xos puritancha qadriyatlar asosida tarbiya topgan. U bolalik yillaridan chegara ko'chkinchilari haqidagi hikoyalarni qiziqish bilan mutolaa qilgan. Ameri-kaning hali odam oyog'i yetmagan "Yovvoyi g'arb" o'rmonlari tomonga otlangan jasur chegara ko'ch-kinchilari obrazi, ularning tabiat qo'ynidagi sarguzashtlari S.Lyuis qalbida nozik tuyg'ularni shakllan-tirgan. Yozuvchi uchun g'arbga siljiyotgan chegara ko'chkinchilari obrazi yangi hayot sari intilayotgan erkin shaxs timsoli sifatida badiiy tafakkurida muhrlanib qolgan. Aynan pionerlar, ya'ni chegara ko'ch-kinchilari mavzusida Erousmit va Nat Bampo obrazlarining intertekstual aloqalari namoyon bo'ladi. Zo-tan, "Bampo – Amerika adabiyotida ilk mashhur chegara ko'chkinchisi va kelgusi behisob kovboylar, o'r-mon chakalakzorlari qahramonlarining o'tmishdoshi".¹ "Amerika adabiyoti otasi" deb atalgan Jeyms Fenimor Kuper (1789–1851) ko'chkinchilar hayotini ideallashtirgan romantik yozuvchi bo'lib, "Charm paypoq qissalari" pentalogiyasi bilan tanilgan. Mazkur pentalogiyaning qahramoni oq tanli Nat Bampo chegara ko'chkinchisi, o'rmonda hindu qabilalari orasida voyaga yetgan. S.Lyuisning Nat Bampo obrazidan maqsadli ravishda andaza olishiga quyidagi omillar sabab bo'lganligini tahmin qilish mumkin:

1. Nat Bampo amerika jamiyati tarixining ilk pallasi, hali kapitalistik munosabatlar ildiz otmagan, milliy o'zlik, demokratik qadriyatlar kurtaklayotgan o'n sakkizinchi asrning vakili sifatida namoyon bo'ladi. S.Lyuis esa burjua tanqidchisi sifatida bebbitizmdan xoli, pul-tovar munosabatlari bilan chirkinlan-magan sof muhitni, oliyjanob qahramonni yaratishni ko'zlab, "Erousmit" romaniga qo'l uradi. Demak, Kuper uchun ham, S.Lyuis uchun ham chegara ko'chkinchisi obrazi, tarixning pionerlar, g'arbga siljish davrlari o'z estetik ideallarini ro'yobga chiqarish uchun ilhom manbayi bo'lib xizmat qilgan. Martin Ero-usmit go'yoki Nat Bamponing yigirmanchi asrda, yovvoyi chakalakzorda emas, balki Uinnemak shahri-da, tibbiyot oliygohida paydo bo'lgan yangi qiyofadoshi sifatida aks ettirilgan.

2. Nat Bampo obrazi tabiatni sevisi, ozodlikni, hurlikni, shaxsiy erkni oliy qadriyat hisoblashi bi-lan ajralib turadi. O'rmonda yashab tabiat tilini biladigan bu qahramonni hindu qabilalar ham o'ziga qon-dosh birodar hisoblaydilar. «Erousmit» romanida amerikaliklar uchun alohida ahamiyatga ega bo'lgan shaxsiy erk (individual freedom – izoh. A.A.) Martin obrazida o'z in'ikosini topgan. S.Lyuisning Erousmit obrazini Amerika adabiyotidagi erkparvar qahramonlardan biri sifatida talqin qilinishida jiddiy asos mavjud. Erkning Martin obrazi chizig'ida hayot-mamot masalasiga aylanishi uni realistlik obrazdan ko'ra ko'proq romantik obrazga yaqinlashtiradi. Uzoq mashaqqatlardan so'ng, Martin yuksak obro'e'tiborga, yirik boylikka va rahbar lavozimiga erishadi. Biroq Martin bularning baridan voz kechib, tadqiqotchi sifa-tida mustaqil izlanish olib borish maqsadida hamkasbi Terri Uoket bilan birgalikda o'rmon chetidagi g'a-rib kulbaga ko'chib o'tadi. Ayrim Amerika tanqidchilari Lyuisning romanga bu tarzda ertaknamo yechim berishini jiddiy tanqid qilishgan. Jumladan, G.Lov "New Americans: The Westerner and the Modern Ex-perience in the American Novel" («Yangi amerikaliklar: Amerika romanlarida g'arb va modern tajriba-lar» – tarj. A.A.) risolasining S.Lyuis romanlarida ilk amerikaliklar bilan bog'liq pionerlik mavzusiga ba-g'ishlangan faslida qayd etishicha, S.Lyuis «Erousmit» romanida tabiatning insonni poklovchilik xususi-yatini ramziy ma'noda aks ettirgan.

Oydinlashadiki, Martin Erousmit va Nat Bampo obrazlari o'rtasidagi intertekstual aloqalar shun-chaki tasodif bo'lmay, yozuvchining anglangan, maqsadli badiiy konsepsiyasi bilan bog'liq ijodiy dialog mahsulidir.

Sinkler Lyuisning "Elmer Gantry" (1927) asari kuchli bahs-munozalarga sabab bo'lgan. Buning sababi shundaki, asarda muallif amerika cherkov faoliyatini muayyan ruhoniylar obrazi orqali ifodalashga harakat qilgan. Qizig'i, asarning asosiy obrazi–aksilqahramon. Elmer Gentri Molyerning Tartyufiga o'xshagan riyokor, manfaatparast, munofiq shaxs. Zohirdan islohotchi, fidoiy ko'ringan Gentri cherkov-

¹ Ванспенкерен К. Америка адабиётининг асослари. АҚШ ахборот бўлими, 1994, 24-бет.

dagi xizmatlardan so'ng butunlay teskari hayot tarzini olib borishi, nafs yo'lida har qanday qabihlikka tayyorligi bilan ajralib turadi. Uning asl qiyofasi oddiy xalqqa asar so'ngigacha ham oshkor bo'lmaydi. Mazkur asar ko'p taqiqlarga uchrab, hatto asar tufayli yozuvchining qamalishiga bir bahya qolgan.

"Elmer Gentry" asarini yaratar ekan, S.Lyuis jahon adabiyotida mavjud bo'lgan yorqin antiklerikal ruhdagi asarlarni qayta mutolaa qiladi, amerika cherkov faoliyatiga oid va diniy mavzudagi ikki yuzga yaqin kitoblarni o'rganib chiqadi. Realistik romanning maromiga yetishini ko'zlab, cherkov jamoatchiligiga imkon qadar yaqin bo'ladi. Amerikadek puritan ildizlarga ega bo'lgan jamiyatda cherkov mavzusida satira yaratish o'z davri uchun katta dovyuraklikni talab qilar edi. Haqiqatni yozish tamoyili bilan ijod qilgan S.Lyuis uchun "Elmar Gentry"ni dunyoga keltirish dardga, ulkan ehtiyojga aylangan edi. Shunday qilib, fransuz dramaturgi Molyer o'n ettinchi asrda yaratgan Tartyuf obrazi yigirmanchi asrda, kapitalistik amerika jamiyatida badiiy transformatsiyaga uchrab qayta tug'ildi. Tartyuf kabi Gentry ham ikkiyuzlamachilik, riyokorlik, badnafslilik ramziga aylangan. Dindan boshqalarni manipulatsiya qilish uchun foydalanishda, moddiy manfaatlarni ko'zlashda, dunyoviy lazatlardan bahramand bo'lish istagi kuchliligi jihatdan ikki obraz ham o'xshash. Biroq Molyerdan farqli ravishda, S.Lyuis komediya emas, realistik roman, jiddiy satirik asar yozadi. Molyer komediyasi asosan bir xonadonda, Argonning uyida, bir oila davrasida sodir bo'lsa, S.Lyuisning asarida Gentrining o'smirlik pallasidagi beboshliklaridan tortib, uning cherkov tizimining turli bo'g'inlaridagi xilma-xil nayrang va sarguzashtlaridan yirik romaniy badiiy voqelik bunyod etilgan. S.Lyuisning kuchli badiiy mahorati shundaki, u tartuflarning butun boshli galeriyasini manzaralastiradi, Gentridan ham ustasi farangroq, ta'magirlikda tengi yo'q Sharon Falkoner ismli ayol, miss Riddl va ularning hamtovoqlari Gentry bilan birgalikda diniy tijorat amaliyotini yo'lga qo'yadilar..

Tartyuf asar oxirida fosh etilib, jazoga tayinlangan bo'lsa, S.Lyuis qahramoni psixologik jihatdan anchayin murakkab obraz sifatida jamiyatda mustahkam o'rinish oladi, muvaffaqiyat bilan yangi o'ljalarni ovlash jarayonida asarga nuqta qo'yilgan. "Elmer Gentry" asari bilan S.Luis jahon adabiyotining Rable, Bokkachcho, Molyer, Volter kabi buyuk satiriklari kabi yuksak maqomga erishgan.

Muxtasar qilib aytganda, intertekstual tahlil badiiy asarning tub ma'no qatlamlarini anglab etishga imkoniyat beradi. Biroq intertekstual tahlil muayyan maqsadga yo'naltirilishi samarali natijaga erishishda muhim hisoblanadi. Mazkur maqolada badiiy asarlar orasidagi dialog qahramonlar misolida, presedent-resipient obraz kesimida ko'rib chiqildi. Ayon bo'ldiki, garchi Sinkler Lyuis roman qahramonlarini yaratishda o'zigacha mavjud bo'lgan jahon durdonalariga ergashgan bo'lsa-da, uning qahramonlari badiiy konsepsiya, xarakter evolutsiyasi va mantiqi nuqtayi nazaridan yangi va betakror obrazlardir.

**Raxmonov Sunnatillo Mavlonovich (Samarqand davlat Chet tillar instituti dotsenti,
falsafa fanlari doktori (DSc)**

JALOLIDDIN RUMIY HAYOTI VA ILMIIY MEROSI

Annatsiya. Mazkur maqolada Jaloliddin Rumi hayoti va ilmiy merosi ilmiy nuqtayi nazardan o'rganilganligi aks ettirilgan. Jaloliddin Rumi asarlari ilmiy-falsafiy jihatdan shoirlar va faylasuflar ijodiga katta ta'sir ko'rsatib, "Masnaviyi ma'naviy" asari xalqlar orasida keng tarqalgan. Jaloliddin Rumi hayoti va ijodiga bag'ishlangan turli tillardagi ilmiy tadqiqotlar mutafakkir ta'limotining asl mohiyatini ochib berishga xizmat qiladi.

Аннотация. В данной статье с научной точки зрения рассматривается жизнь и творчество Джалалиддина Руми. Произведения Джалаладдина Руми оказали большое влияние на творчество поэтов и философов с научно-философской точки зрения, а особенно произведение «Маснавий манавий» было широко распространено среди народов. Научные исследования на разных языках, посвященные жизни и деятельности Джалалиддина Руми, служат раскрытию сути учения мыслителя.

Annotation. This article reflects the study of Jalaluddin Rumi's life and scientific heritage from a scientific point of view. The work of Jalaladdin Rumi had a great influence on the work of poets and philosophers from a scientific and philosophical point of view, and especially the work "Masnaviy manaviy" was widely distributed among the peoples. Scientific research in different languages, dedicated to the life and work of Jalaliddin Rumi, serves to reveal the essence of the thinker's teachings.

Kalit so'zlar: tasavvuf, tariqat, mavlaviya, "Ma'naviyi masnaviy".

Ключевые слова: суфизм, тарикат, зикр, мавлавия, "Маънави маснави".

Key words: Sufism, tarikat, dhikr, Mavlavi, Manavi masnavi.

Yetuk tasavvuf namoyandalaridan bo'lgan Jaloliddin Rumi 1207-yilning 30-sentabrida hozirgi Afg'oniston shimolidagi Balx shahrida, sulton al-ulamo nomini olgan ulug' shayx Muhammad Bahouddin Valad xonadonida dunyoga kelgan. Otasi Bahouddin Valad so'fiy va fiqh donishmandi bo'lib, sul-

ton Muhammad Xorazmshoh (1199–1220) tomonidan saroyga taklif etilgan. Lekin Bahouddin Valad uning taklifini rad etib, maktabdorlik va ilmiy-ijodiy ish bilan mashgʻul boʻlgan. Jaloliddinning onasi esa xorazmlik boʻlib, shajarada xorazmshohning qizi boʻlgan. Bahouddin Valad oilasi bilan Makka safariga chiqib, Xuroson-u Eronning shaharlarini kezib, zamonasining buyuk donishmandlari bilan hamsuhbat boʻladi. Shundan soʻng, Bahouddin Valad Turkiyaning Kunya (Konya) shahrida oilasi bilan qoʻnim topadi. Saljuq sultonlari tarafidan izzat-ikrom bilan qabul qilingan Bahouddin Valad shu yerda muqim ya-shab madrasada mudarrislik faoliyati bilan shugʻullangan.

Otasining vafotidan soʻng Jaloliddin Rumi, uning oʻrniga Kunya madrasasining bosh mudarrislik lavozimida faoliyatini davom ettirgan. Mavlono Rumi 1225-yilda Sharafuddin Lolo Samarqandiyning qizi Gavhar xonimga uylanadi. Mavlono Rumi bu nikohdan Sulton Valad va Alouddin Chalabiy ismli ikki oʻgʻli boʻlib, keyinchalik, Jaloliddin Rumi nomi bilan asos solingan mavlaviylik tariqatini davom ettirganlar. Keyinchalik, Mavlono Jaloliddin Rumi buyuk faylasuf, mutafakkir va mutasavvif salkam yigirma yetti ming baytdan iborat “Maʼnaviyi masnaviy”ni, oʻttiz ming baytga yaqin “Devoni Shams”ni yozgan shoir, mavlaviya tariqatining asoschisi hamda musiqani zikrning yordamchi unsuri deb ulugʻlagan shayx sifatida shuhrat qozongan.

Rumi oʻzini anʼnaviy maʼnodagi faylasuf ham, shoir ham deb hisoblamagan, balki oʻzini Oллоhga cheksiz muhabbat bildirgan inson deb bilgan. Jaloliddin Rumi ilmiy merosini oʻrganayotgan tadqiqotchi olimlarning fikricha, Rumi ijodiga Imom Gʻazzoliyning diniy qarashlari, soʻfiy shoir Sanoiy va Fariduddin Attorning ijodlari katta taʼsir koʻrsatgan. Shuni ham alohida taʼkidlash lozimki, Jaloliddin Rumiyning “Masnaviyi maʼnaviy” asarining mashhur boʻlishi Jaloliddinning oʻgʻli Sulton Valad hamda xalifasi va mavlaviya tariqatining birinchi rahbari Hisomiddin Hasan Chalabiy nomi bilan bogʻliqdir. Jaloliddin Rumiyning falsafa, tasavvuf hamda sheʼriyat bobida yuksak darajaga koʻtarilishida shayx Shams Tabriziy va Farididdin Attorlarning hissalarini beqiyosdir.

Jaloliddin Rumiyning tasavvuf olamiga kirib kelishini Shayx Farididdin Attor bashorat qilganligi bir necha manbalarda qayd etilgan. Makka ziyoratiga yoʻl olgan Bahouddin Valad va uning oʻgʻli Nishopurga yetganidan xabar topgan Shayx Farididdin Attor ularga peshvoz chiqadi. Oʻspirinning suhbatidan mamnun boʻlib, unga oʻzining “Asrornoma” kitobini bagʻishlaydi va otasiga qarata: “Oʻgʻlingiz tez orada olamdagi barcha kuyganlar qalbiga otash soladi”, deb bashorat qiladi [1.327–328].

Jaloliddin Rumi tariqat yoʻlini tutgach, dastlab, shoir Said Burhoniddinga shogird tushadi, soʻng qalandar soʻfiy Shamsiddin Muhammad Tabriziy bilan doʻstlashib, uni oʻzining piri deb eʼlon qiladi.

Jaloliddin Rumiyning 1244-yil 12-noyabrdagi Shamsi Tabriziy bilan ilk suhbatini manbalarda “Ikki dengizning uchrashuvi” deb qayd etilgan. Shams Tabriziy Jaloliddin Rumiya uch yil falsafa, xususan, soʻfiylik taʼlimotlaridan dars beradi. Rumiyning oʻzi ham bir baytida: “Agar Attor menga ruh baxsh etgan boʻlsa, Shamsi Tabriziy tilsim kalitini tutqazdi”, deb taʼkidlaydi [2.5]. Biroq bu hamjihatlik uzoqqa choʻzilmaydi. Tabriziyning vafotidan qattiq taʼsirlangan Rumi pirining ismi-sharifini taxallus qilib, gʻazallar yoza boshlaydi. Jumladan, qirq ikki ming baytdan iborat “Devoni Kabir” – “Ulugʻ devon” (ikkinchi nomi “Devoni Shamsi Tabriziy”) asarini piriga bagʻishlab yozadi. Ushbu asarning “Devoni Shamsi Tabriziy” nomi bilan shuhrat qozonishining boisi Rumiyning “Shamsi Tabriziy” taxallusini qoʻllashidir. Jaloliddin Rumiya Shams Tabriziyning vafotidan bir necha yil oʻtgach, Salohiddin Zarqubiy va Husomiddin Chalabiy hamrohlik qiladilar.

Jaloliddin Rumiyning ilmiy va adabiy merosi gʻoyat katta boʻlib, oʻzidan keyingi avlodlarga beshta muhim va qimmatbaho asarini qoldirgan. Bular: “Devoni kabir”, “Devoni Shamsi Tabriziy”, “Devoni Shamsul Haqoyiq” degan nomlar bilan mashhur boʻlgan, gʻazal va ruboiylardan iborat asar; “Masnaviyi maʼnaviy” nomli yigirma besh ming baytdan tashkil topgan bebaho axloqiy-tarbiyaviy asar; “Ichindagi ichindadir” (“Fiyhi ma fiyhi”) – Mavlono Rumi suhbatlaridan iborat falsafiy-tarbiyaviy asar; “Mavoizi majolisi sabʼa” – Rumiyning yetti oʻgit va pand-nasihatlarini qamrab olgan bebaho asar; “Maktubot” – Mavlono Rumi turli davrlarda zamondoshlariga yozgan maktublaridan tuzilgan toʻplam kabi asarlardir.

Jaloliddin Rumiyning yana bir eng buyuk ilmiy merosi yuqorida tilga olingan olti daftardan iborat tasavvufiy-falsafiy majmua boʻlgan “Masnaviyi maʼnaviy” asaridir. Ushbu shoh asar sermaʼno va jozibali baytlari sabab barcha kishilar qalbidan joy olgan asardir. “Masnaviyi maʼnaviy” qariyb oʻn yildan koʻproq vaqt davomida yozilgan boʻlib, Jaloliddin Rumi vafotidan oldin, yaʼni 1269-yilda yozib tugatilgan.

“Masnaviyi maʼnaviy” asarining buyukligi yana shundaki, bugungi kunga qadar mazkur memuariga bir yuz ellikdan ortiq sharhlar yozilganligidadir [3.81]. Shuningdek, “Masnaviyi maʼnaviy” asari musulmon olamida eng koʻp oʻqiladigan va eʼtiborga molik kitobdir. Rumi “Masnaviy”si bilan tanishgan kitobxon, hayot mohiyatini tushunadigan, oʻz-oʻzini anglagan, muomala qilish madaniyatini egallagan, har bir masalaga insof va adolat nuqtayi nazaridan yondashadigan, vijdon nima, yolgʻon va rost nima, or-nomus nima, halol va harom nima – bularning hammasini bir-biridan ajrata oladigan, hayotda yomonlikka

boshlovchi xatti-harakatlardan voz kechadigan va yaxshilikka boshlovchi amallarni bajaradigan shaxs bo'lib yetishadi. Bunday ma'nan shakllangan insonlar jamiyatning, millatning yuzi, g'ururi, obro'-e'tibori hisoblanadi.

“Masnaviyi ma'naviy” asarida mutafakkir Sharq xalqlari og'zaki ijodining noyob durdonalaridan hikoyalar tarzida ko'plab namunalar hamda Qur'oni karim oyatlari va hadislardan dalillar keltiradi. “Masnaviyi ma'naviy” asari inson tafakkurini o'zgartiruvchi, yuksak ma'naviy-axloqiy tarbiyani tarannum etuvchi muhim manbadir. Shuningdek, “Masnaviyi ma'naviy” asarida mutafakkir, ma'naviy-axloqiy tarbiyaga oid qarashlarni targ'ib etishda hamda insonlar orasidagi muloqot, munosabat va voqealarni tasvirlashda fe'l atvoriga mos ravishda ramziy qushlar (lochin, o'rdak, g'oz, tovus, zog', xo'roz, chumchuq, qarg'a, to'tiqush) va hayvonlarni (tuya, arslon, quyon, bo'ri, tulki, chumoli, ho'kiz, sigir, mushuk) tasvirlab, falsafiy xulosalar bergan. Shuningdek, joy nomlarini ko'rsatishda Shom, Iroq, Samarqand, Buxoro, Hindiston, Hirot, Turkiston, Chin, Damashq kabi shaharlardan mohirona foydalangan. Shuningdek, Rumiyning “Forsiy tildagi Qur'on” deya ta'riflangan “Masnaviyi ma'naviy” asari XVII–XVIII asrlardan boshlab inson ma'naviy hayotining qomusi sifatida nafaqat Sharqda, balki G'arbda ham keng shuhrat qozongan. “Qalb ko'zingni och... Mavlono Rumiyan hikmatli so'zlar” kitobi Rumiyni anglash, uning ma'naviy olamidan bahramand bo'lishga, asardagi hikmatlar esa insonni jiddiy tafakkurga va ibratga chorlaydi.

“Masnaviy”da Qur'oni karim va Hadisi sharif ma'nolarini o'ziga singdirgan holda, inson hayoti, tabiat va jamiyat, ma'naviyat va ma'rifat bilan bog'liq bir qator masalalar badiiy-irfoniy yo'sinda bayon etilgan. “Masnaviyi ma'naviy” asari olti jilddan iborat bo'lib, uning dastlabki “Naynoma” deb nomlangan qismi Jaloliddin Rumiyan tomonidan yozilgan va keyingi qismlari esa bevosita Rumiyning shogirdi Hisomiddin Chalabiy tomonidan ustoz Mavlondonan aytayotgan chog'ida yozib olingan. Hisomiddin Hasan Chalabiyning vafotidan so'ng (1264), Rumiyan mazkur asar ustida taxminan yana o'n yilga yaqin vaqt mobaynida ishlagan. “Masnaviyi ma'naviy” asari Qur'oni karim va hadis ma'nolarini o'zida jamlagan bo'lib, unda inson hayoti bilan bog'liq barcha masalalar badiiy uslubda bayon etilgan. Asarda ikki yuz yetmishdan ortiq hikoya va yuzlab pandu nasihatlar joy olgan bo'lib, yetti yuz oltmish o'rinda Qur'oni karim oyatlaridan iqtiboslar keltirilgan, yetti yuz qirq besh o'rinda esa hadislardan foydalanilgan.

Bu asar o'zigacha bo'lgan Sharq va G'arb dunyosida ko'rilmagan uslub va tarzda ma'rifat hamda ma'naviyatni donishmandlik va shoirona ulug' badiiyat ila bera olganligi bilan ajralib turadi. Muallifning falsafiy-irfoniy qarashlari sodda va yoqimli uslubda, ravon she'riy maromda o'z badiiy ifodasini topgan. Undagi yuksak badiiyatgina emas, balki mantiq va falsafaning boyligi ham kitobxonga kuchli ta'sir qiladi.

Alisher Navoiy o'zining “Mahbub ul-qulub” asarida Jaloliddin Rumiyan va uning ijodi, so'z san'ati borasida fikr yuritib, qalam ahlini uch guruhga ajratadi va Jaloliddin Rumiyni birinchi toifaga mansub shoirlardan, deb hisoblaydi: “...Yana qoyili Masnaviyi ma'naviy, g'avvosi bahri yaqin (aniq ilmdagi g'avvos) Mavlono Jaloliddin, ya'ni Mavlaviy Rumiyan, maqsadlari nazmdan asrori ilohiy adosi va ma'rifati namutahoniy imlosidan o'zga yo'qdur”, deb e'tirof etadi. Shuningdek, Navoiy o'z qarashlari orqali Jaloliddin Rumiyan o'zining barcha asarlarida yer-u ko'kning sohibi bo'lmish Ollohi karimni va uning zamindagi xalifasi Hazrati insonni ulug'laydi deb, mutafakkir shaxsining ma'rifatparvarlik fazilati borasida ta'rif keltiradi [4.24–25].

Jaloliddin Rumiyan o'z asarlarida inson tabiati va ichki olamini tadqiq etadi. Insonning nafs va xulqi natijasida kelib chiqishi mumkin bo'lgan yomonliklarni tahlil etib, bulardan qutulish yo'llarini bayon etadi. Jaloliddin Rumiyan inson kamoloti uchun kurashuvchi shaxs sifatida maydonga chiqib, asarlarida insonni o'zligini anglashga undaydi. Yomonlikdan nafratlanish va qiladigan yaxshiligidan faxrlanishga o'rgatadi.

Rumiyan mohiyatni dengiz ichidagi durga o'xshatadi va inson narsa-hodisalarning o'z mohiyatini anglagani sari o'zini, o'zligini anglay boshlaydi, deydi. O'zini anglagan kishi baxtli kishidir. O'zlikni anglash qalb orqali amalga oshadi. Shuningdek, o'zligini anglagan kishining ruhi uning tanasini yo'lga soladi, deb e'tirof etadi [5.97].

Inson barcha zamonlarda ham o'zining kimligini, o'zligini bilishga intilgan. Barcha davlatlarda, jamiki ijtimoiy tuzumlarda inson eng oliy qadriyat hisoblanadi. Tarix ham, tarixiy taraqqiyot ham, inson faoliyatidan boshqa narsa emas. Moddiy, ma'naviy, ijtimoiy-siyosiy, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni maqsad qilgan, tabiatni obod, jamiyatni go'zal va farovon qilish, tinchlik, haqiqiy adolatni hayot qoidasiga aylantirish, insoniylikka loyiq hayot uchun kurashayotgan inson – eng oliy darajadagi qadriyatdir. Insonning olamga bo'lgan munosabatini, uning atrof-muhitni, hatto o'zini-o'zi o'zgartira olish yo'llari va uslublarini, o'z taqdirini o'zi belgilovchi buyuk mavjudot ekanligini har tomonlama tahlil qildi. O'zi

haqida, o'zining ruhiy-ma'naviy kamoloti haqida turli g'oyalar, ta'limotlar yaratdi. Insonning o'zi to'g'risida yaratgan g'oyalari ham zamonlar o'tishi bilan o'zgarib bordi.

Jaloliddin Rumiylarning ijodining buyukligi uning rang-barangligida emas, balki tasavvufiy-falsafiy qarashlar bilan sug'orilganligi uchun ham katta ta'sir kuchiga egadir. Nemis faylasufi Gegelning e'tiroficha, Jaloliddin Rumiylarning tabiat va jamiyat hodisalarining doimiy o'sish va o'zgarishda ekanini, eskini yo'qotib, yangisining paydo bo'lishi yoki "dunyoning ziddiyatlar birligi jangidan" iboratligi to'g'risidagi qarashlari orqali o'zining dialektik metodni yaratgan. Nemis professori Annemariye Shimmel esa "Falsafani Gegel va Marksdan, Shopengauer va Kantdan o'rgangan kishilar Jaloliddin Rumiylarning ijodidan bahramand bo'lgach, barchasi allaqachon Rumiylarning asarlarida zikr etilganligiga amin bo'lishlari tayin" deb ta'kidlagan [6.47].

Jaloliddin Rumiylarning tasavvufiy-falsafiy salobati shundaki, u barcha dinlar uchun yagona bo'lgan g'oyani ilgari surib, unda Ollohga bo'lgan muhabbatni, uning kuchiga bo'lgan e'tiqodni, niyat va ishlarining pokligini tarannum etganidadir. Jumladan, mutafakkir shunday yozadi: "Yo'llar turli bo'lishi mumkin, ammo yakuniy maqsad yagona – Ollohning oldiga borishdir" [7.14]. Mavlono Jaloliddin Rumiylarning o'zining barcha qarashlarida Ollohning oldida barcha tengligini targ'ib qiladi. Shuningdek, Rumiylarning adabiy faoliyati falsafiy mushohadakorlikga asoslangan bo'lib, dunyo ulug'vorligidan qat'i nazar, "Sen o'zingni kichik sanashni bas qil, sen yura oladigan bir olamsan", deb insonning qadr-qimmatini birinchi o'ringa olib chiqadi.

Jaloliddin Rumiylarning ajoyib sifatlaridan biri u boshqalarni o'zi bosib o'tmagan yo'ldan yurishga undamaydi. Shuningdek, Rumiylarning qarashlari yuksak ma'naviy mazmunga ega bo'lib, undagi g'oyalar irqi, millati va dinidan qat'iy nazar, insonni yuksak axloq sohibi bo'lishga chorlaydi. Inson qalbiga boruvchi barcha yo'llarni birlashtiradi va azaliy mohiyatlarni kashf etib, insoniyatni bag'rikenglik va ma'naviy komillik sari yetaklaydi [8.59].

Jaloliddin Rumiylarning shaxsning ma'naviy-axloqiy shakllanishida go'zal va pok xulqining o'rni beqiyos ekanligini ko'rsatib beradi. Sharqona an'analarni saqlagan holda, hikoya va matallar orqali keltirilgan obrazlarda ustoz va shogird, ota va o'g'il munosabatlari, muhabbat, insoniylik, javonmardlik, donishmandlik sifatleri mohirona talqin etilgan. Jumladan, ustoz, eng avvalo, ilmli bo'lishi, ilmni shogird ko'ngliga singdirishi va shogirdini sevishi kerakligini qayd etadi.

Jaloliddin Rumiylarning merosi shaxs ma'naviy-axloqiy tarbiyasini shakllantirishda muhim o'rinni egallaydi. Uning ijodiy faoliyati asosini insonni to'g'ri yo'lga boshlash, ilm o'rganish, nafsni yengish, sabrli bo'lish kabi tasavvufiy qoidalar tashkil etadi. Mutafakkir jamiyatning taraqqiyotini ma'naviy-axloqiy komillikda ko'rgan bo'lsin kishilarni ma'naviy komillik sari eltuvchi o'ziga xos qarashlarni ilgari suradi. Shuningdek, mutafakkir asarlarida ilgari surilgan g'oya va qarashlar, ifodalangan ma'no va mazmuniga ko'ra muayyan tartib bilan joylashtirilsa, komil insonni tarbiyalaydigan maxsus axloq kitobi vujudga keladi.

Jaloliddin o'z asarlarini turli taxalluslar bilan imzolagan. Jumladan, ko'hna Balxda tug'ilganligi sabab "Balxiy", do'sti va ma'naviy ustozlari Tabriziy xotirasiga bag'ishlab "Shams Tabriziy", eng ko'p tarqalgan va tanilgan taxallusi "Rumiylarning" bo'lib, ikkinchi vatanini nisbat qilib olgan.

Hayotini "Xom edim, pishdim, yondim" so'zlari bilan xulosalagan Mavlono Jaloliddin Rumiylarning 1273-yil 17-dekabrda vafot etadi. Mavlono Jaloliddin Rumiylarning janozasini uning vasiyatiga ko'ra, Sadridin Qo'nyoviy o'qishi lozim bo'lgan. Lekin Sadridin Qo'nyoviy eng yaxshi ko'rgan insonni yo'qotganidan o'zini tutib turolmay, janozada hushidan ketadi. Shu sababli Rumiylarning janozasini qozi Sirojiddin o'qiydi. Mavlono o'lim kunini yangidan tug'ilgan kun sifatida qabul qilar va o'lgan zahoti sevganiga, ya'ni Ollohga yetishishini bilardi. Shuning uchun Mavlono o'lim kunini to'y kuni ma'nosida kelgan so'z "Shabi aruz" deb ataydi va do'stlariga o'limi orqasidan oh-voh chekib yig'lamaslikni vasiyat qiladi. Jaloliddin Rumiylarning "O'lganimizdan so'ng mo'rorimizni yerdan axtarmang! Bizning mo'rorimiz oriflar ko'ngillaridadir!" deb ta'kidlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Алишер Навоий. Насойим ул-мухаббат. Мукамал асарлар тўплами. 17-жилд, Т., "Фан", 2001.
2. Мавлоно Жалоліддин Румий. Методик-библиографік қўлланма, Т., Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2007.
3. Махмаджонова М.Т. Философия Джалолуддина Руми. Таджикистан, Душанбе, 2007.
4. Алишер Навоий. Махбуб ул-қулуб. Мукамал асарлар тўплами. 14-жилд, Тошкент, "Фан", 1998.
5. Г.Избуллаева. Жалоліддин Румий шахси ва илмий меросини ўрганишнинг педагогик асослари. Тошкент, "Фан", 2015.
6. Шиммель А. Мир исламского мистицизма. Москва, "Алетей", 1999.
7. Жалоліддин Румий. Ичиндаги ичиндаур. Тошкент, "Ёзувчи", 1997.

Berdibayev Ulug‘bek Soatboy o‘g‘li (Berdaq nomidagi Qoraqalpog‘iston xalq shoiri I.Yusupov she‘riyatida individual talqin o‘ziga xosligi qiyosiy-tipologik tahlilga tortiladi. Unda har bir shoir ijodiga mansub tasvir ruhiyati va ifoda mustaqilligi, lirikada holat va kayfiyatni bir-biriga payvandlash usulida tipologik mushtaraklik, estetik idrok va baholash mezon, tuyg‘u va ong vazifadoshligi, badiiy nutq va poetik g‘oya nisbati, so‘z qatimida ijodkor dunyoqarashi namoyon bo‘lishi, ijod ruhiyatidan san‘at falsafasiga o‘tish darajasi xususida mushohada yuritiladi. Tuyg‘u moddiylashuv jarayoni, aslida, tashbeh qo‘llash mahoratiga borib taqaladi. Holat manzarasini chizish – tasavvurni idrokda yig‘ish ijodkor fitratini belgilaydigan asosiy omil sanaladi.

ABDULLA ORIPOV VA IBRAYIM YUSUPOV SHE‘RIYATIDA INDIVIDUAL TALQIN O‘ZIGA XOSLIGI

Аннотация. Мақоллада О‘zbekiston xalq shoiri A.Oripov va Qoraqalpog‘iston xalq shoiri I.Yusupov she‘riyatida individual talqin o‘ziga xosligi qiyosiy-tipologik tahlilga tortiladi. Unda har bir shoir ijodiga mansub tasvir ruhiyati va ifoda mustaqilligi, lirikada holat va kayfiyatni bir-biriga payvandlash usulida tipologik mushtaraklik, estetik idrok va baholash mezon, tuyg‘u va ong vazifadoshligi, badiiy nutq va poetik g‘oya nisbati, so‘z qatimida ijodkor dunyoqarashi namoyon bo‘lishi, ijod ruhiyatidan san‘at falsafasiga o‘tish darajasi xususida mushohada yuritiladi. Tuyg‘u moddiylashuv jarayoni, aslida, tashbeh qo‘llash mahoratiga borib taqaladi. Holat manzarasini chizish – tasavvurni idrokda yig‘ish ijodkor fitratini belgilaydigan asosiy omil sanaladi.

Аннотация. В статье сравнительно-типологическому анализу подвергается своеобразие индивидуальной интерпретации в поэзии народного поэта Узбекистана А.Орипова и народного поэта Каракалпакстана И.Юсупова. Оно включает дух образа и самостоятельность выражения, присущие творчеству каждого поэта, типологическую общность в способе спайвания состояния и настроения воедино в лирике, критерии эстетического восприятия и оценки, взаимность чувства и сознания, соотношение художественной речи и поэтического замысла, в составе слов наблюдается в условиях проявления творческого мировоззрения, уровня перехода от духа творчества к философии искусства. Процесс эмоциональной материализации на самом деле восходит к навыку использования метафор. Создание картины ситуации – собирание воображения в восприятии считается главным фактором, определяющим характер творца.

Annotation. In the article, the uniqueness of individual interpretation in the poetry of the national poet of Uzbekistan A.Oripov and the national poet of Karakalpakstan I. Yusupov is subjected to a comparative and typological analysis. In it, the spirit of the image and the independence of expression belonging to the work of each poet, typological commonality in the method of welding state and mood together in the lyrics, aesthetic perception and evaluation criterion, feeling and consciousness, the ratio of artistic speech and poetic idea, in the word structure it is observed in terms of the manifestation of the creative worldview, the level of transition from the spirit of creativity to the philosophy of art. The process of emotional materialization actually goes back to the skill of using metaphors. Drawing a picture of a situation – collecting imagination in perception is considered the main factor that determines the nature of the creator.

Калум so‘zlar: o‘zbek she‘riyati, qoraqalpog‘ lirikasi, shoir, ijodkor fitrati, tasvir ruhiyati, estetik mezon, poetik talqin, idrok, an‘ana va tajriba, ifoda yurishi.

Ключевые слова: Узбекская поэзия, каракалпакская лирика, поэт, творческая натура, дух образа, эстетические критерии, поэтическая интерпретация, восприятие, традиция и опыт, процесс выражения.

Key words: Uzbek poetry, Karakalpak lyrics, poet, creative nature, spirit of image, aesthetic criteria, poetic interpretation, perception, tradition and experience, process of expression.

She‘riy idrok obraz ma‘naviy-ma‘rifiy, ijtimoiy-falsafiy hamda ruhiy-mantiqiy ma‘no iqlimini belgilaydi, keng qamrovga mayl quvvati ifoda o‘ziga xosligiga tayanadi. Muayyan usulda pozitiv munosabat va estetik mezon yaxlitligi masala mohiyatini ochiqlyaydi, an‘ana va tajriba uyg‘unligi ijodiy mustaqil ifoda uslubini tavsiflaydi. Vaholanki, har bir poetik talqinda “ijodkorning tarixi, taqdiri, dunyoqarashi, kechinmalari, ruhiy dunyosini tebratgan hissiyotlarinigina aks ettirib qolmay, shu bilan birga, ijodkor yashagan muhit, nafas olgan sharoit, ijtimoiy hayot va uning turli-tuman voqealariga ham oyna bo‘la oladi”.¹Qo‘llanilgan har bir tashbeh, so‘z bo‘yoqdorligi, obrazlar taqvimini ijodkor fitratiga daxldor adabiy zavqni tasdiqlashga xizmat qiladi, unda ruhiy kechinma tadriji, holat manzarasi chizgisi individual mohiyatga erishadi. Hayotiy materialdan rang va nafas olgan sezimda kayfiyat tarzi xususiyati suvratlanadi, go‘zallik hamda hayrat yaxlitligida shoirona uquv, poetik mahorat va falsafiy mushohada mantiqiy izchilligi qabarib ko‘rinadi. Unda tahlil va talqin bir-birini mantiqan boyitadi:

Mana, o‘tib olding asal oyidan,

Endi suv ichgaysan turmush soyidan.

¹ G‘afurov I. Yurak – alanga. Toshkent, “Adabiyot va san‘at”, 1979, 10-bet.

*Yetti o'lchab bir kes, yetmish o'lchab kes,
Lekin kes, Yoshulli aytgan joyidan.²*

A.Oripov "O'git" (2002) she'rida falsafa, ma'no, mantiq uyg'unligini ta'minlaydi. Muallif kinoya asnosida tasvir ruhiyatini boshqaradi, achchiq kesatq zamirida hayot norasoligidan zada bo'lgan ko'ngil iztirobi in'ikos topadi. "Lekin kes, Yoshulli aytgan joyidan" satrida ohang quyuqlashadi, oniy lahza va u taqdim etayotgan hukm-xulosa energiyasi kitobxon qalbiga ko'chadi. Mantiqiy ta'kid (Yoshulli) nozik shama hamda o'tkir imo-ishoraga aniqlik kiritadi, holat ziddiyati falsafiy teranligini umumlashtiradi. I. Yusupovning "Nasihati" she'rida mavzu va muammo talqini o'zgachalanadi:

*Mytajiqliq aydao 'inda kelse esikke diyo 'ana,
Qatti-qayirim so'z aytib, insaniyatni qiyinama.
Sendey, ol tilenshi de, bilseng allaning quli,
Ashliq-aptadaliqtan sag'an jayilg'an qoli.³*

She'r tafsilot tavsifi asosiga qurilgan. Shoir hayotiy aqida falsafiy bayonini ta'kidlash yordamida tuyg'u va so'zni yaxlitlashtiradi, sodda nisbat (sendey, ol tilenshi de, bilseng allaning quli) muallif insoniyatga cheksiz muhabbati, har yurakka hammaslak va hamdardligini tasdiqlaydi. Mazmuniy salmoq va estetik joziba matnga ajib bir tarovat bag'ishlaydi, didaktik g'oya kitobxon shuuriga teran singishini istaydi. Maishiy manzaraga ijodkor munosabatini yorqin hissiyotga to'ldiradi, achchiq haqiqatni o'quvchiga takror etkazishga intiladi. Lo'nda va ixcham mushohada kitobxonni sergak tortish, o'ylashga majbur qiladi, adabiy talqinda realistik muhokama teranlashadi.

«Abdulla Oripovning asosiy yutug'i mumtoz adabiyotimizni ham, zamonaviy adabiyotni ham teran bilishida, ijodida milliy adabiyotimizning yuksak maqomini ta'minlagan yutuqlardan samarali foydalanishida bo'lsa, ajab emas. Zero, shoirning mahorati aruzda ham, barmoqda ham birday namoyon bo'ladi»⁴, yozadi professor N.Jabborov. Shoir ijtimoiy ohangni falsafiy-axloqiy mazmunga yo'naltiradi, badiiy idrok tuyg'usini tafakkur teranligiga bog'lash muallif ifoda uslubini tayin etadi. Muhimi, ijodkor fitratida shaxs va dunyoqarash manfaat-ehtiyojlari birlashadi, milliy ifoda poetik talqini teranlashuvi qabarib ko'rinadi.

I.Yusupov she'riyatida ruhiy holat harakat o'zgaruviga yo'naltiriladi, harakat muntazamligi esa kayfiyat manzarasini yaratadi. Tashbeh muttasil yangilanishi hamda obraz chizmasi yaxlitligi, aslida, muallif pozitsiyasini belgilaydigan asosiy omil, unda odamzod shuurini band etgan poetik g'oya so'z quvvat-hofizasini kuchaytiradi, unda tasvir betakrorligi ifoda tahlilini teranlashtiradi, unda adabiy talqin tasavvur malakasini yorqinlashtiradi, alalxusus, she'rda shoir o'quvchiga ruhiyat va abadiyatdan saboq bermaydi, uni yuksaklardagi nurlil manzillarga chorlamaydi. She'rlarida o'z ko'nglini taftish qilishga urinadi, yuragida kechayotgan holatlar manzarasini chizadi. Shoir borliqni yaqindan ko'radi va ichdan tuyadi»⁵. Badiiy tasavvur qatimida muallif ifoda daxlsizligini ta'minlaydi. Inson ruhiyatini taftish etish qulay hamda samarador usuli tasvir alohidaligiga ko'chish vositasida amalga oshadi. Shaxs ma'naviy olamini o'rganish aynan xilma-xil taqdir yo'llarini o'zlashtirishdan ibtidolanadi. Shu o'rinda ta'kidlash joiz, shoir har bir adabiy talqinida uning xarakter qirralari yig'iladi, ruhiy kechinmadoshlik hissi ijodkor va kitobxon manfaatlarini birlashtiradi:

*Adam ata uli – insaniyat bul,
Bari bir tamurdan do'regen zat bul.
Birining basina is tusse eger,
Basqalari oning azabin sheger.
Kisi qayg'usinan hazarlanbasang,
Adam uli bo'la almassang hesh qashan.⁶*

Odam Ato avlodlariga diyonat, mehr-oqibat, saxovat hamda insoniylik fazilatlarini meros qolgan. Bir ildizdan tarqalgan insoniyat qayg'udan ozor chekadi, hamdardlik tuyadi. Shoir asl haqiqatni ta'kidlar ekan, keskin hukm-xulosa chiqaradi (Kisi qayg'usinan hazarlanbasang, Adam uli bola almassang hesh qashan). Shoir adabiy talqinida tasavvur ko'ngil, sezim va holat g'alati tarzda omixtalashadi. Idrok sezgisiga tenglashgan tashbeh jozib va yorqin, aniq va tiniq tasvir hosil qiladi. Ruhiy kechinma tadrijini o'ziga xos yo'sinda ifodalash mayli ijodkor uslubi tabiatini belgilaydi. Cheksiz va murakkab inja kayfiyatni

² Oripov A. Adolat ko'zgusi. Toshkent, "Adolat", 2005, 77-bet.

³ Yusupov I. Məngi bulaqlar. Nukus, "Qaraqalpaqstan", 1985, 71 – 72-betlar.

⁴ Badiiyat ufqlari. Toshkent, "Universitet", 2008, 3-bet.

⁵ Qozoqboy Yo'ldosh. Ochqich so'z. Toshkent, "Tafakkur", 2019, 27-bet.

⁶ Ko'rsatilgan adabiyot. 6-bet.

rivoya izchilligida ko'rsatish hamda baholash sohir she'riyat asosiy fazilati, binobarin, samimiy tuyg'u sharhi, so'z estetik ta'sir quvvatini oshirishga mayl ma'no yaxlitligini ta'minlaydi.

Intellectual daraja keskin malakalanishi A.Oripov hamda I.Yusupov she'riy idrokiga muayyan salmoq bag'ishlaydi. Poetik talqinda til, nutq va tafakkur ziddiyatga kirishuvi qonuniy holat, binobarin, mantiq hamda falsafa raqobati she'r uyg'unligini ta'minlaydi. Mushohada vertikal yo'nalishi so'z estetik qiymatini ancha kengaytiradi, emotsional bosim aslida idrok sezgisini sharhlaydi. Hayotiy material poetik talqin uchun muhim, ruhiyat manzarasini xilma-xil rakursdan baholash iroda (ratsional) bosqichi o'ziga xosligi bilan o'lchanadi. Badiiy fikr shakllanish mexanizmi faqat va faqat ijod ruhiyati bog'lamini hosil qilsa, asl mohiyatni anglash hamda anglatish imkoniyatdan tashqari hodisaga aylanadi. Vaholanki, "badiiy g'oya san'atkorning borliqqa munosabati, tabiat sirlari, davr ijtimoiy hodisalarini fahmlash, anglash va baholay olish iqtidori, go'zallik, olijanoblik hamda baxt haqidagi ideallari bilan bog'liq ravishda tug'iladi. Binobarin, ana shularga ko'ra, kashf etiladigan obraz muayyan dunyoqarash bilan yo'g'rilgan aql mahsuli"⁷ vazifasini o'taydi. Hissiy idrok hamda emotsional daraja bog'lanishi poetik ifodada ramziy-majoziy talqinni mustahkamlaydi. Unda ijodiy inersiyaga yig'ilgan quvvat-hofiza ijtimoiy aqida tahlilidan qabariq tasvir hosil qiladi, hayrat va go'zallik tushunchasi individual talqini o'ziga xoslikni tayin etadi. A.Oripov barmoq vazni musiqiy tabiatidan samarali foydalanadi, unda ohang falsafani teranlashtiradigan omilga aylanadi. I.Yusupov she'riyatida esa G'arbona badiiy shartlilik ta'siri seziladi, poetik to'xtamni mantiqan urg'ulash yordamida shoir hayotiy ziddiyatlar falsafiy teranligini umumlashtiradi. Aynan ijodkor fitrati – subyektiv munosabat keskinligi ikki buyuk shoir ijodida mushtaraklik yaratadi.

Umuman, ikki xalq – o'zbek va qoraqalpoq she'riyatida qo'l etmas cho'qqi – A.Oripov va I. Yusupov ijodida mushtarak jihatlar mavjud, bu tipologik yaqinlik, birinchidan, hayratdan ungan go'zallik, ehtirosdan rang olgan lirik kechinmada ruhiy vazminlik bilan o'lchanadi, ikkinchidan, shakliy ixchamlik va falsafiy mushohadakorlikka intilish darajasiga bog'liq, uchinchidan, milliy idrok sezimi tahlili teranligiga payvandlanadi, to'rtinchidan, muntazam yangi adabiy zavq va poetik kashfiyotga maylning ustuvor ahamiyati bilan sharhlanadi. Ikkala ijodkor fitratida ham go'zallik, joziba, tahlil hamda teranlik san'at darajasini tavsiflaydi.

Qodirova Ma'rufat Abdullayevna (SamDU mustaqil tadqiqotchisi; qodirovamarifat@gmail.com)

AHMAD A'ZAM HIKOYALARINING NOAN'ANAVIY TALQINI

***Annotatsiya.** Maqolada 80–90-yillar adabiyoti vakillari Ahmad A'zam, Abdulla Qahhor hikoyalari qiyosiy tahlili keltirilgan. Ahmad A'zamning hikoyalari va novellalarining farqli tomonlari, adabiyotshunoslikda bu ikki terminning o'ziga xosligi asoslar asosida keltirildi. Yozuvchining ijodida bu o'rindagi hikoya va novellalarining o'xshash va farqli tomonlari ko'satilgan.*

***Аннотация.** В статье представлен сравнительный анализ рассказов представителей литературы 80-х и 90-х: годов Ахмада Аъзама и Абдуллы Каххора. На базе были представлены разные стороны рассказов и новелл Ахмеда Аъзама, уникальность этих двух терминов в литературоведении.*

***Annotation.** The article presents a comparative analysis of the stories of the representatives of the literature of the 80s and 90s, Ahmad Azam and Abdulla Khahhor. Different sides of Ahmad Azam's stories and novellas, the uniqueness of these two terms in literary studies were presented on the basis of the basis.*

***Kalit so'zlar:** uslub, badiiy obraz, novella, tugun, mikrokompozitsiya, pryom, yombi, kompozitsiya, postmodern, personaj.*

***Ключевые слова:** метод, художественный образ, новелла, узел, микрокопозиция, приём, оба, композиция, постмодерн, персонаж.*

***Key words:** style, artistic, image, novella, node, mikrokompozitiya, pryom, both, composition, post-modern, character.*

Ahmad A'zamning yetmishinchi yillar avlodi orasidagi o'z o'rni, egallagan mavqeyi bor. Hech bir davr oqimiga bo'y bermagan, butun borlig'i bilan o'z davri ijtimoiy tafakkurini uyg'otish zavqi bilan yashagan ulug' yozuvchidir. Yozuvchi kamtarin, kamsuqum, ma'rifatli inson sifatida o'zini har joyga uravermasdi. Radio-televideniya, gazeta-jurnallarda, ommaviy yig'ilish va majlislarda o'zini ko'pam ko'rsatavermas edi. Balki shuning uchun ham ijodkor asarlari targ'iboti-tashviqoti keng yo'lga qo'yilmagan. Biroq o'zbek adabiyotida, qolaversa, umumjahon adabiyotiga aytar so'zini aytib, o'zidan boy meros qoldirib ketdi. E'tibor beradigan bo'lsak, ko'plab ulug' yozuvchilar tirikligida qadr topmaganlar, ularni

⁷ Adabiyot nazariyasi. 1-jild, Toshkent, "Fan", 1978, 108-bet.

avlodlar almashinuvi kashf etishgan. Yozuvchidan xotira bo‘lib adabiyotimiz xazinasiga bir qator hikoyalar, novellalar, qissalar, romanlar, adabiy tanqidga oid ilmiy asarlar, ma’naviy-ma’rifiy maqolalar qoldi.

Ahmad A’zam hikoyalari birinchi jumla tugun vazifasini o‘tab beradi. Asosiy mazmun shu nuqtadan boshlanadi. Bu pryom, bu usul katta ehtimol bilan Abdulla Qahhor hikoyalari kompazitsiyasi natijasi ta’siridir. Hikoyalarni boshlanish, jummalarning sodda va pishiqligi, qisqa jumalarda mazmun tig‘izligi va mukammal yombi so‘zlarning maqsadga muvofiq ishlatilishi kabi holatlar fikrimizning isbotidir. Yozuvchi o‘zining “Mansur dard” maqolasida shunday yozadi: “Ma’lumki, she’r to‘g‘ri ilg‘ab olingan bir ruhiy ohang, odatda, satrdan tug‘iladi va shu satr uning ichki ritmikasi, fikriy, hissiy yo‘nalishini belgilab beradi. Hikoya ham qariyb shunday. Uning juda ko‘p fazilati birinchi jumlagacha bo‘g‘liq. Ayrim yozuvchilar uchun esa boshlang‘ich jumlaning topildiq bo‘lishi, umuman, yaratilajak hikoyaning originalligini ta’minlaydi. Chunki bu jumla hikoyadagi ohang kayfiyatini yig‘noq holda, kurtak sifatida o‘zida mujassam qiladi, hikoyada dunyoga ochilgan darcha bo‘ladi. Boshqacha aytganda, hikoya daraxti ilk jumladan unib chiqadi. Shuning uchun ham birinchi jumlada asarning o‘ziga xos mikrokompozitsiyasi deb atash mumkin”.¹ Mazkur fikrlar muallif tomonidan, garchi Abdulla Qahhor hikoyalari nisbatan aytilgan bo‘lsa-da, uning o‘z hikoyalari nisbatan ham istisnosiz ravishda qo‘llash mumkin.

“Soyasini yo‘qotgan odam” hikoyasi: O‘shanda menga nima bo‘lganini o‘zim ham bilmayman, bu hozir ham tushuntirib berolmayman. Hech narsa bo‘lmagandek yuribman. Lekin bunga ko‘nikkunimcha ko‘p narsalar bo‘lib o‘tadi”.

“Go‘zallik qirralari” hikoyasi: “O‘zi g‘alati kun bo‘ldi. Havo ham shunga o‘xshagan. Qandaydir, bo‘g‘ilib ketayotgandek bo‘lasan-u, chuqur nafas olaman desang, havo bemalol, ko‘kraging to‘ladi, “havo yetishmayapti-ya!”, deb yozg‘irmoqqa chog‘langan odamga alam qiladi”.

“Oyning gardishi” hikoyasida: “Otasi uni hech qachon urmagan, hatto chertmagan ham, lekin qatitiroq gapirganda, u bo‘ynini qisadi, yelkalarida titroq turadi”.

Yuqorida qyd etilgan kirish jumlar hikoyaning umumkayfiyatini belgilash bilan birga, asar peshlavhasi kabi uning voqealar rivojida asosiy rol o‘ynaydi.

Yozuvchining “Soyasini yo‘qotgan odam” hikoyasi noan’anaviy postmodern ruhda yozilgan hikoyalardan hisoblanadi. Hikoya Kafkaning “Evrilish”i kabi, kutilmaganda, asar qahramonini vujudidan mazmunning chiqib ketishi-yu, zumda qaytib, forig‘lanib, o‘z o‘rniga joylashib olganiga o‘xshash holatni boshidan kechirishi bilan boshlanadi. Uning soyasi yo‘qolib qoladi. Quyosh nuri uning tanasidan to‘siqlarsiz o‘tib ketadi. Uning vujudi oyna kabi oftob zarralarini boshqa predmetga ulashadi. Ko‘p yillik qadrdoni Barot hayronlikdan o‘zini yo‘qotgani yo‘q. Aksincha, uning antiqa holatidan huzurlanib kuladi, chapak chaladi. Ko‘rinyapdiki, yuzaga kelgan hodisa fojiya emas. Asar qahramoniga ham o‘zidagi o‘zgarish qo‘rqinchli bo‘lib tuyulmaydi. Hikoya birinchi shaxs tilidan bayon etiladi. Bu yerda soya haqida aytadigan bo‘lsak, Nazar Eshonqul, Faxriyor she’riyatida bildirilgan mulohazalarning birida “soya” haqida shunday fikr yuritadi: soya nursizlik, yorug‘liksizlik, yorug‘likning qora tomoni degani. Voqelikda soya hukmron bo‘lsa, bu manzilda miflardagi marhumlar dunyosi kabi sharpa, ko‘lanka kezib yuradi, soya qaysi qiyofaga kirmasin, nurni asl o‘zida mujassam qila olmaydi, boshqacha qilib aytganda, soya faqat shakl, unda mazmun bo‘lmaydi, soyaning sinonimi mazmunsizlik, yolg‘izlik, begonalik, xavotir, tushkinlik umidsizlikdir”.²

Yozuvchi nazarida, o‘z soyasini yo‘qotish, shunchaki odatdagi hol. Faqat shakl bilan mazmun ichki bog‘liqlik bilan ajralishi, o‘zini begonadek his etishi, vaqtinchalik xavotirning kuchayishi, tushkunlik va umidsizlikning inson ruhiyatidagi betakrorlanishi, xolos.

Ahmad A’zam hikoyasidagi asar qahramonining o‘z soyasini yo‘qotishi, o‘zligini yo‘qotish emas, balki soxta e’tiqodlardan tozarish, yangi mavjud tuzum haqidagi ko‘r-ko‘rona qarashlarning yangilanishi, yolg‘on aqidalarning anglab yetilishi deb tushinilsa, mohiyatga to‘g‘ri yondashilgan bo‘ladi. Bu holat yozuvchi hikoyalari rivojida ochib boriladi.

Shu o‘rinda aytish joizki, jahon xalqlar adabiyotida o‘zlikni anglash, davr tizimini majoziy, metaforik obrazlar vositasida fosh etish, shu orqali inson hurrligini kuyulash, uning erkinligini ifodalash, so‘z erkinligini joriy etish, inson demokratik qoidalar asosida jamiyatning boshqaruvchisiga aylanishi kabi ijtimoiy-siyosiy muammolarning kun tartibiga aylanib borayotganligi asar qahramonining siyosiy ongini faollashtirib yuboradi. Oqibatda soxta mafkuraning tub ildizi qayerda ekanligini anglab yetishi asnosida, undagi yolg‘on haqiqatlarning tanani tark etishi soya timsoli orqali yorqin ifodasini topgan. Yozuvchi ham

¹ A.A’zam. Mansur so‘z. T., G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashryoti, 1987, 8-bet.

² Eshonqul N. Ijod falsafasi. T., Akademiya nashri, 2018, 215-bet.

shu o'rinda inson botinidan shaytoniy vasvasaning butunlay quvib chiqarilishini shunday timsol bilan ifodalamoqda. A.A'zam asarida bu holatning guvohi bo'lamiz, albatta.

Ahmad A'zam hikoyalar ijod qilish bilan bir qatorda, novella janrida ham asarlar yozgan ijodkoridir. Novella janrining o'ziga xosliklari adabiyotshunoslikka oid lug'atlarda, darsliklarda, qayd etilgan. Jumladan, Dilmurod Qur'onovning "Cho'lpon nasri poetikasi" monografiyasida janr tabiatiga xos qarashlar atroflicha bayon etilgan. Adabiyotshunos hikoyani ikki toifaga bo'lib o'rganadi. "Adabiyotshunoslikda "hikoya" va "novella" atamallari xususida izchillik yo'q: ayrim adabiyotshunoslar bu ikki atamani sinonim hisoblasalar, boshqalari keskin farqlaydilar. Biz bu masalada hikoyaning ikki tipi bor: birinchisi ocherkliklik (tavsifiy-rivoyaviy), ikkinchi novvelistiklik (konfliktli-rivoyaviy) xususiyati ustundir, degan fikrga ko'proq qo'shilamiz, ya'ni, bu o'rinda gap ikki turlar haqida emas, balki bir janrning ikki sifat ko'rinishi haqida boradi".¹ Olim monografiyasida novella va hikoyani bir janrning ikki sifati deb tushunsa-da, "adabiyotshunoslik lug'ati"² kitobida novellani ajratib, janrga nisbatan to'liqroq ma'lumot beradi. Ibrohim G'ofurov esa o'zining Ozod Sharafiddinov haqidagi maqolasida: "Negadir Merime hikoyalari nisbatan novella degan so'zni qo'llashardi. Kutilmagan yakunga ega hikoyalar novella deb atalsa kerak, deb tushunardim. Merime hikoyalari, haqiqatdan ham, favqulotda tugashi bilan hayratga solardi" deb yozadi.³

Anan shu janr nazariyasiga oid tadqiqot olib brogan Akram Toshpo'latov janr o'ziga xosliklarini quyidagi ko'rinishda tushunadi: "Hikoyada voqea odatiy yakun topadi, ya'ni kichik sahnalarda har kungi turmush tarz bayon etiladi. Novellada voqea kutilmagan muqaddima bilan boshlanadi, ziddiyatlar yechimi sirli ko'rinishga ega bo'ladi, personajlar ruhiyatidagi, xatti-harakatidagi, voqealardagi o'zgarishlar muayyan drammatizmni yuzaga keltiradi. Novella kutilmagan yechim bilan yaskun topadi".⁴

Yuqorida qayd etilgan novella nazariyasiga oid qarashlardan kelib chiqsak, Ahmad A'zam novellalari ko'rsatilgan nazariy qoidalarga mos emas. Nazarimizda, ijodkor kichik nasr namunalarini novella deb nomlashda Izzat Sulton fikrlariga asoslanadi: "Yangi eposning eng kichik shakli novelladir. Unda kishilar hayotidagi juda kichik epizod hikoya qilinadi. Mapassan, Chexov va Qahhorning ko'pchilik hikoyalari novellaning namunalari hisoblanadi".⁵ Mazkur qoidalar o'tgan asrning 80-yillarida hukmron bo'lgan. Undan keying yangi adabiyotlardabunday farqlar yo'q. Ammo "Hikoyaning eng kichik shakli, ko'rinishi – novella" degan, o'zini oqlamagan aqida hamon yozuvchilarni chalg'itib kelmoqda.

Xulosa qilib aytganda, Ahmad A'zam barcha novellalarini umumaxrajga olib kelsak, birgina inson o'zligi – "men"i atrofida birlashadi. Agar biz barcha novellalar sujetiga e'tibor qaratsak, "men"likning turli rakursdagi talqinlar, ko'rinishlar bo'lib chiqaveradi.

Karimova Sohiba (Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti)
ADABIYOTDA INSON QALBI OHANGLARI

Annotatsiya. Maqolada bemor obraziga tegishli unsurlar tahlil qilingan. Maqolada qo'yilgan muammo Nazar Eshonqulning "Muolaja" va "Og'riq lazzati" asarlari misolida o'rganilgan. Bemor obraziga xos ayrim xususiyatlarga misollar keltirilgan. Bemor obrazi yuzasidan umumlashma xulosasini bergan. Maqolada, asosan, yozuvchilarning tibbiy obrazni ochib bergan epizodlarga diqqat qaratilgan. Maqola zaruriy adabiyotlar bilan boyitilgan.

Аннотация. В данной статье анализируются литературные элементы, относящиеся к образу героя-пациента. Проблема изучена на примере рассказов "Муолажа" и "Ог'риқ лаззати" Назара Эшонкула. Приведены различные примеры из произведений. Автор делает выводы по анализу образа пациента в рассказах названного автора. В статье особенное внимание уделено образу пациента в разных эпизодах.

Annotation. The article analyzes the patient image. The problem posed in the article is studied in the example of Nazar Eshonqul's "Muolaja" and "Og'riq lazzati". There are examples of some features specific to the patient image. The article has generation conclusion on the image of the patient. The article focused mainly on the episodes in which the writers revealed a medical image. The article is supplemented with the necessary literature.

Kalit so'zlar: obraz, hikoya, bemor, adabiy janr, tasvir.

¹ Qur'onov D. Cho'lpon nasr poetikasi. T., "Sharq", 2004, 37-bet.

² Qur'onov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug'ati. T., Akademiya, 2013.

³ G'ofurov I. Parivashlar majlisi. T., "Yangi asr avlodi", 2013, 37-bet.

⁴ Toshpo'latov A. O'zbek adabiyotida novella janri va uning badiiyati. Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd) dissertatsiyasi aftoreferati, Samarqand, 2018, 15-bet.

⁵ I.Sulton. Adabiyot nazariyasi. T., "O'qituvchi", 1980, 248-bet.

Ключевые слова: образ, рассказ, пациент, литературный жанр, изображение.

Key words: image, story, patient, literary genre, definition.

Zamonaviy o'zbek nasrida iste'dodli adib Nazar Eshonqul o'ziga xos, g'aroyib hikoyalari bilan boshqalardan ajralib turadi. Adibning hikoyalari majozga boy, chuqur tafakkurga undovchi, topishmoq kabi sirlidir. Yozuvchining "Og'riq lazzati" va "Muolaja" hikoyalari bir qarashda bir-biridan uzoqdek tuyuladi. Biroq ularni qandaydir ko'rinmas tilsim o'zaro bog'lab turadi. Hikoyaning ramziy ma'no qatlami bemorlarni davolash usuliga diqqat qaratgan adabiyotshunos Abdug'afur Qosimov bunday yozadi: "Hikoyada stalincha zo'ravonlik siyosatining erkini fikrli kishilar boshiga solgan azob-uqubatlariga, barchani bir xil fikrlaydigan, bir qolipdagi kishilarga aylantirishni maqsad qilib olgan tuzumga nisbatan ishora seziladi. Asarda ozod dunyo orzusi bilan yashovchi bemorlarni savalash bilan davolash usullari batafsil batayon qilinadi".¹

"Muolaja" hikoyasi – juda muhim topilma. Yozuvchi ushbu hikoyada zamonaviy tibbiyotda shizofreniya deb ataluvchi kasallikning davolash usulini, davolash jarayonini tasvirlaydi. Adib kasallikka "qut-qut" deb nom beradi. "Kasal xayolning qutqusiga tushib qoladi. Bu juda yuqumli va xavfli, bunday kasalga yo'liqqanlar atrofda qilarga jiddiy zarar yetkazadilar". deya ta'riflanadi kasallik.² Kasalni xivchin bilan urib davolash to'g'risida aytiladi. Xivchidan qolgan yaralar kasalga azob beradi va uning xayol surishga vaqti bo'lmaydi, tanani jarohatlash orqali ruhiy kasallik chekinadi. Hikoyada davolash ishlari, garchi insonparvarlik g'oyalari to'g'ri kelmasa ham, sof tibbiy jihatdan o'z isbotini topgandir. Negaki, ruh dardini davolash, tanani davolashdan ko'ra qiyinroq. "Jismdagi qon va asab harakatini tartibga solish uchun kaltaklash kasallikni tuzatishning zarur omillaridan biri bo'lib qolish xavfi bor", deyiladi hikoyada.³ Ya'ni ushbu kasallikni o'rganayotgan shifokor uni davolashning boshqa usulini ham qidirmoqda, ammo hali topgan emas.

"Muolaja" hikoyasida adib tibbiyotga doir unsurlardan unumli va o'rinli foydalangan holda jamiyatdagi dolzarb ijtimoiy muammolar yechimini topishga urinadi. Aytaylik, hayotda adashgan, o'z yo'lini topa olmagan, noto'g'ri yo'llarga kirgan insonlarni qanday davolash uqtirilganday. Hayot inson uchun doim ikki yo'lni taklif etadi. To'g'ri yo'lni tanlaganlar – saodatga erishadi. Egri yo'ldagilarini esa "davolashadi". Bu hayot qonuni. Yozuvchi bashariyat taqdiriga befarq bo'lmagani uchun jamiyatdagi kasallar haqida qayg'urgani, ularni davolash chorasini izlagani hikoyada majoziy tarzda aks etadi. "Gazak olgan yara kasalning badanida oz-moz og'riq uyg'otadi, uning xayolidagi sharpalarni oz bo'lsa ham chalg'itadi".⁴

Kasal odam shifokor yordamida darddan xalos bo'ladi. Ijodkor esa dardidan faqat o'zi xalos bo'lishi mumkin. Nazar Eshonqulning bir hikoyasida "Adabiyot insonning og'riqlaridir" deyiladi. Qachonki, inson ijod qilsa og'riqdan xalos bo'lib, yengil tortadi. Dard qobig'ini yorib chiqqan insonlar dunyoni angalaydi. Uni yangicha ko'z bilan ko'ra boshlaydi. Yozuvchilar, umuman, san'at ahlining irodasi mustahkam. Negaki, ular o'zini yenggan, ruhiy iztirobdan chiqishning shaxsiy yo'lini topa olgan insonlardir. Bizni hayratga solgan san'at asarlari: suratlar, kitoblar, musiqalarning barchasida insonning ayov-siz dardi aks etadi. Har bir insonga o'z toqatiga yarasha dard beriladi. Xoh u jismoniy bo'lsin, xoh u ruhiy bo'lsin. Shu darddan xalos bo'lish uchun inson bor vujudi bilan kurashmog'i lozim. Bu maydonni tark etib bo'lmaydi, uni faqat yengib o'tmoq kerak, shundagina haqiqiy insonlik maqomiga erishiladi.

Bu dunyoda dardsiz odam yo'q. Adabiyot va tibbiyot, garchi ikki xil doiraga taalluqli bo'lsa ham, ularni birlashtirib turuvchi tilsim mavjud. Bu tilsimni majoziy ma'noda inson va uning dardi deyish mumkin. Adabiyot ham, tibbiyot ham, tabiiyki, insonsiz, dardsiz mavjud bo'la olmaydi. Shu sabab ikkala soha ham faqat tiriklikni talab etadi. Negaki, faqat tiriklarga kasal bo'ladi. Ya'ni joni bor tananing betob bo'lishi, tabiiy. Tirik qalbnigina yaralash mumkin. Adabiyot va tibbiyot uchun bosh va asosiy muammo: darddan qay usulda, nima orqali xalos bo'lish. Har ikki soha vakillari ham odamlar dardining turlariga qarab, ularga davo topishga intilishadi. Kimningdir tanida dardi bo'lsa, kimningdir ko'nglida dardi bor. Azal-azaldan tan dardiga shifo topishni tabiblar o'z zimmasiga olgan bo'lsalar, ko'ngil dardini malham bo'lish, inson kamolot bosqichlarida yuksaltirish adabiyot va san'atning zimmasiga tushib kelgan. O'z ruhiy quvvatini nazorat qilish orqaligina tana sog'ligiga erishish mumkin. Sinov kelganda sabr bilan kurashish kerak, qochish yaramaydi. Dardga chalindingmi, tamom, uni davolash kerak. Buni ortga surganing bilan u davolanib qolmaydi. Yaralar yiring boylab turaveradi. Keyin esa cheksiz azobga aylanadi. Xuddi shu kabi ruhingda xastalik sezildimi, uning sababini aniqlash va davolash lozim. Aks holda, bu holat ru-

¹ Қосимов А. Жамиятнинг бадиий тасвирида рамзий образлар. "Ҳозирги адабий жараён масалалари. 77-бет.

² Эшонқул Н. Маймун етаклаган одам. Муолажа. Тошкент, "Янги асар авлоди", 2004, 190-бет,

³ Эшонқул Н. Маймун етаклаган одам. Муолажа. 195-бет.

⁴ Эшонқул Н. Маймун етаклаган одам. Муолажа. 197-бет.

hiy zaiflikka olib kelishi mumkin. Inson uchun eng yaxshi tabib uning o‘zi. Inson sog‘ligi uchun, avvalo, o‘zi qayg‘urishi kerak. Navoiy aytadiki:

*“Kim bo‘lsa tabiati muolij,
Jismidin etar marazni xorij”.*

Nazar Eshonqulning hikoyalaridagi dard bu tana dardi emas, balki ruh dardi, vijdon azobi, sezgir qalbning iztirobidir. “Og‘riq lazzati” hikoyasida mahkumlarning azob chekishi, hatto bir-birining azoblariga hasad qilishi mohirona tasvirlanadi. Bu juda kulgili. Ya‘ni, Nazar Eshonqul bu hikoyada kinoyaviy uslubni qo‘llaydi. Tasavvur qilaylik, mahkumlar bu yerda shoirlar, ular chekayotgan azob esa ularning she‘rlari. Bu xuddi yaxshi she‘r yozgan shoirga boshqasi hasad qilganday ko‘rinadi. Yozuvchi ularning ustidan nega kuladi? Buning sababi shuki, ular she‘rning asosiy maqsadi va ma‘nosini unutib, uni faqat mashhurlikka olib boruvchi pillapoya qilib olishganidir. Yozuvchi ijodkorlar psixologiyasiga doir bu holni juda teran tasvirlaydi: “Mabodo, birontasi fig‘on qilishdan to‘xtab qolsa, xuddi aybdordek, yaralar behad azob berayotgan sheriklariga hasad aralash ko‘z tashlar va nazoratchilarni imlardi; nazoratchilar qo‘lida qamchi bilan yetib kelar va ko‘kara boshlagan yaralar ustidan savalashga tushardi”.¹ Albatta, adib hayotni kuzatib, o‘z azobini hammaga ko‘z-ko‘z qilayotgan shoirlar ustidan kuladi. Birgina to‘rtinchi raqamli mahkum yozuvchini e‘tiborini qozonadi; u yuragini sug‘urib olishlarga rozi bo‘lgan mahbus edi. “To‘rtinchining xuddi may to‘latilgan qadah kabi og‘riq to‘la yuzini ko‘rganda kunlar qanday kech bo‘lganini ham bilmay qolardik”.² U eng mashhur mahbus.

Adabiyot olami sun‘iylikni yoqtirmaydi: shoir she‘rlariga o‘z qonidan, jonidan qo‘shmaguncha u haqiqiy e‘tirofga erisholmaydi. Zo‘rma-zo‘raki yozilgan asarlarning umri doimo qisqa bo‘lgan. Har holda nasrdan ko‘ra nazmda ko‘ngil ko‘proq bo‘shatiladi. Shu sabab ushbu hikoyada dardsiz ijodkorlar majoziy ma‘noda, kinoya yo‘li bilan tanqid qilingani seziladi.

Ijodkorning qalbi tug‘ma nozik va juda sezgir bo‘ladi. Shu sabab hech bir so‘zni shunchaki hazm qilmaydi. Aql chig‘irig‘idan, ko‘ngil prizmasidan bir o‘tkazib oladi. Adiblar odamlarning farqiga boradi. Ular o‘ziga o‘xshaganlarni darrov taniydi. Ijodkorlar asosan, asarlariga o‘z ko‘nglini yoradi. Dil og‘riqlarini chiroyli tarzda taqdim etish esa faqat chin iste‘dodgagina xos xislat. Adiblar har qachon o‘z ko‘ngliga davo izlaydi. Adiblar o‘ziga o‘xshagan ko‘ngli yaralarga hamdard bo‘lish, yoki hali hayotda qoqilib ulgurmagin insonlarni ogohlantirish uchun yonib-kuyib ijod qilishadi. Ammo bir narsani unutmaslik kerakki, “Tani boshqa dard bilmas”. Ya‘ni, inson o‘zi o‘sha dardni his qilmaguncha, birovning kasalligini ham, bu xususda asarlar yozgan adiblar qalbini ham tushunmaydi.

Erta bahorda yerdan niholning qiyinchilik bilan unib chiqqani kabi nodir asarlar ham ijodkor qalbining og‘riqlarisiz paydo bo‘lolmaydi. Yozuvchi Nazar Eshonqul o‘z hayotiy falsafasi va kuzatishlarini majoziy yo‘sinda “Muolaja” va “Og‘riq lazzati” hikoyalari mazmun-mohiyatiga joylaydi. Bu bilan adabiyotning, ijodning inson hayotidagi o‘rni va ahamiyatiga urg‘u beradi. O‘z adabiy g‘oyasini poetik ifoda etish uchun esa tibbiyotga doir vositalar hamda obrazlardan foydalanadi. Adabiyot inson ma‘naviy-ruhiy olamiga ta‘sir ko‘rsatsa, tibbiyot uning jismi-tanasi va ba‘zan ruhiy kayfiyati bilan ham shug‘ullanadi. Shunga ko‘ra inson ruh va tanadan iborat ekan, ulardagi turli holatlar bir-biriga chambarchas bog‘liq hodisalar bo‘lib, adabiyot, san‘at va tibbiyotning o‘zaro uyg‘unligi xususidagi tushunchalarni mukammallashtiradi. Qachon ruh sog‘lom bo‘lsa, tana ham sog‘lom bo‘ladi, aksincha, tananing sog‘lomligi ruhiyatni ham go‘zallashtiradi, ma‘naviyatni yuksaltiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. Тошкент, “Ўзбекистон”, 2002, 560-бет.
2. Болтабоев Х. Наср ва услуб. Тошкент, “Фан”, 1992, 106-бет.
3. Дўстмухаммад Х. Ижод – кўнгил мунавварлиги. Тошкент, “Мумтоз сўз”, 2011, 313-бет.
4. Эшонкул Н. Маймун етаклаган одам. Муолажа. Тошкент, “Янги асар авлоди”, 2004.
5. Эшонкул Н. Маймун етаклаган одам. Оғриқ лаззати. Тошкент, “Янги асар авлоди”, 2004.
6. Қозокбой Йўлдош, Муҳайё Йўлдош. Бадиий таҳлил асослари. Тошкент, “Камалак”, 2016, 464-бет.
7. Қосимов А. Жамиятнинг бадиий тасвирида рамзий образлар. “Ҳозирги адабий жараён масалалари”. Назар Эшонкул таваллудининг 60 йиллигига бағишлаб ўтказилган халқаро илмий-назарий анжуман материаллари, “Фан”, Тошкент, 2022, 77-бет.

¹ Эшонкул Н. Маймун етаклаган одам. Оғриқ лаззати. Тошкент, 152-бет.

² Эшонкул Н. Маймун етаклаган одам. Оғриқ лаззати. Тошкент, 157-бет.

Norboyev Farxod Chorshanbiyevich (Termiz davlat universiteti tayanch doktoranti;
e-mail: norboyevf@inbox.ru)

**MAKTABLAR ISLOHOTI JARAYONIDA INNOVATSIYALARGA QARSHILIK FENOMENI:
TURLARI VA SABABLARI**

Annotatsiya. Jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojida innovatsiyalar masalasi hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligi sir emas. Mazkur maqolada innovatsiyalarga nisbatan subyektiv qarshilik tushunchasi, uning turlari va sabablari bayon qilingan. Muallif innovatsiyalarga nisbatan ichki qarshiliklarni yuzaga keltiruvchi omillarni tahlil qilgan, g'ayriinnovatsion to'siq, innovatsion qarshilik, psixologik to'siq innovatsiyalarning ichki psixologik to'siqlari tushunchalarini mazmunini ochib bergan.

Аннотация. В данной статье изложено понятие субъективного сопротивления инновациям, его виды и причины. Автор проанализировал факторы, порождающие внутреннее сопротивление инновациям, дал толкование понятиям “антиинновационный барьер”, “инновационное сопротивление” психологический барьер”, “внутренние психологические барьеры инноваций”.

Annotation. There is no secret that the issue of innovation is of decisive importance in the socio-economic development of society. This article describes the concept of subjective resistance to innovation and its types and causes. The author has analyzed the factors that creates internal resistance to innovation, commented on the concepts of “anti-innovational barrier”, “innovation resistance”, “psychological barrier” and “internal psychological barrier of innovation”.

Kalit so'zlar: innovatsiya, islohot, innovatsion jarayon, g'ayriinnovatsion to'siq, innovatsion qarshilik, psixologik to'siq, innovatsiyalarning ichki psixologik to'siqlari.

Ключевые слова: инновация, реформа, инновационный процесс, антиинновационный барьер, инновационное сопротивление, психологический барьер, внутренние психологические барьеры инноваций.

Key words: innovation, reform, innovation process, antiinnovational barrier, innovation resistance, psychological barrier, internal psychological barrier of innovation.

So'nggi yillarda ilm-fan va texnologiya taraqqiyoti sabab yanada jadallashgan jamiyat taraqqiyoti va ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar ta'lim tizimini doimiy ravishda modernizatsiyalash, ta'lim metodlari, shakllari va mazmunini muntazam tarzda takomillashtirish, murakkab o'zgaruvchan shart-sharoitlarda uning sifati va samaradorligini ta'minlab borish vazifasini qo'ymoqda.

Ammo pedagogik sohadagi yangiliklar va ularga bo'lgan munosabat har doim ham birday ijobiy bo'lavermaydi. Pedagog innovatsiyalarni baholar ekan, ularni o'z qadriyatlar sistemasi va shaxsiy ma'no-lar tizimi orqali o'tkazadi, bunda ular orasidan kasbiy faoliyatining odatiy usullarini buzmay o'zlashtirsa hamda qo'llasa bo'la oladiganlari hamda bu borada bilimga ega bo'lganlarini tanlaydi. Yangilik oldidagi xavotir, hatto qo'rquv, o'z kuchiga ishonmaslik hissi, yangiliklar mohiyatini tushunmaslik va mavjud psixologik-pedagogik pozitsiyalardan hamda metodik ko'rsatmalardan voz kechish zaruriyati pedagoglarni innovatsiyalardan ko'ngli sovishiga va yangilikni tatbiq etish yo'lidagi kuchli ichki to'siqlar paydo bo'lishiga olib keladi. Tadqiqotchilar bu hodisani “antiinnovatsion to'siq” [4], «psixologik to'siq» [3], «innovatsion qarshilik», «innovatsion to'siq» deya nomlashadi (2).

Innovatsiyalarga qarshilik muammosi so'nggi yillarda pedagogikada eng faol muhokama qilana-yotgan muammolardan biri. Bu so'nggi yillarda ta'lim jarayoniga yangiliklarni tatbiq etish, o'qitishda innovatsion usul, texnologiya va vositalardan foydalanish tendensiyasining kuchayishi, ta'lim tizimi va amaliyotiga jahoning iqtisodiy rivojlangan mamlakatlari tajribasini joriy etish, shiddat bilan rivojlana-yotgan axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta'lim jarayonida qo'llash zarurati bilan izohlanadi. Shu sabab innovatsion faoliyat to'siqlari muammosi yangiliklar, innovatsiyalarning o'zlashtirilishi va amalga tatbiq etilishi muammosini tadqiq etayotgan hech bir muallif chetlab o'ta olmaydigan muammolardan biri hisoblanadi. Innovatsiyalarga nisbatan subyektiv, ichki to'siqlar mohiyati psixologlar tomonidan hissiy kechinmalar, kasbiy faoliyatdagi qiyinchiliklarning subyektiv kutilmalari bilan bog'lanadi [5]. Ular innovatsion to'siqlarni “psixik holat”, “salbiy ustanovka”, “shaxsning hissiy va intellektual dissonansi”, pedagogik yangiliklar tadbqiqiga qarshilik, ularni to'xtatish, ushlab qolish, xalal berish yoki inkor etish shaklida ifodalanadigan “innovatsiyalarga nisbatan keskin javob reaksiyasi” sifatida belgilashadi [1]. Ko'plab mualliflar “innovatsion to'siq” tushunchasini “innovatsion qarshilik” tushunchasi bilan sinonim deya hisoblashadi va bu hodisasini pedagogik yangiliklarga nisbatan salbiy munosabat orqali paydo bo'lgan qarshi harakat sifatida talqin qilishadi [2].

Umumiy tarzda, innovatsiyalarga qarshilik ikki alohida farqli turga ajratilishi mumkin:

(1) *aktiv innovatsion qarshilik* yangi mahsulot (g'oya, jarayon)ni muayyan maqsadda baholashdagi funksional va psixologik to'siqlardan kelib chiquvchi salbiy munosabat [7], (2) *passiv innovatsion qarshilik* yangi mahsulot (g'oya, jarayon)ni baholashgacha shakllanadigan individning o'zgarishlarga qarshilikka moyilligi va mavjud holatdan qoniqqanligidan kelib chiquvchi innovatsiyalarga qarshilikka moyillik [8]. Bir qator tadqiqotlarda ham aktiv, ham passiv innovatsion qarshilikning sabablari va oqibatlarini tadqiq qilingan hamda ularda yangi mahsulot (g'oya, jarayon) moslashishi uchun to'siq sifatida jiddiy rol o'ynashi isbotlangan. Shu sabab ilmiy jamiyatlar ham, boshqaruv amaliyoti ham innovatsion qarshiliklarni yengib o'tish strategiyalarini tadqiq etish zaruratiga urg'u bermoqda. Bir qator tadqiqotlarda marketing instrumentlaridan foydalangan holda innovatsiya atributlarini ijobiy idrok qilishni yaxshilash bo'yicha aktiv innovatsion qarshilikni yengib o'tish strategiyalariga e'tibor qaratilgan. Ammo bu ishlarda bunday marketing instrumentlarining passiv innovatsion qarshilikni kamaytirishdagi samaradorligi baholanmagan.

Innovatsion qarshilik yashirin holatda ham, ochiq holatda ham namoyon bo'lishi mumkin. Innovatsiyalardan foydalanish bosqichida, unga nisbatan o'z salbiy munosabatini ochiq ifodalash, bayon qilish imkoni bo'lmagan hollarda pedagoglarda innovatsiyalarga ularni oxirigacha qabul qilmasdan, ko'r-ko'rona moslashish holatlari kuzatiladi.

Innovatsion qarshilik manbalari sifatida yangilik tatbiqi va uning tushunilishi hamda qabul qilinishi o'rtasida faollashgan qarama-qarshiliklar xizmat qiladi. Bu hodisa bir qutbida taklif etilayotgan yangilik haqida foydalanish uchun tavsiyalar, uning xususiyatlari va miqyosi, murakkablik darajasi, texnologik ishlanganligi va tekshirilganligi, amalga tadbiqudan kutilayotgan samara va h.k.lar turadi. Boshqa bir qutbda esa individual-shaxsiy xususiyatlari va imkoniyatlari, innovatsion faoliyatga tayyorlik darajasi, tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorligi, nazariy va metodik bilimi, kasbiy fobiyalari, oilaviy va boshqa muammolari bilan pedagog joylashadi. Juda ko'p hollarda qarama-qarshiliklar innovatsion jarayonning bevosita ishtirokchilari maqsadlarining mos tushmasligi, yangi va an'anaviy (mavjud) o'rtasidagi haqiqiy yoki xayoliy antagonizm, novatsiyalar va sog'lom fikr orasidagi botiniy yoki zohiriy nomuvofiqliklar bilan bog'liq bo'ladi. Bular va boshqa shu kabi dissonanslarni anglash pedagoglarda salbiy kechinmalar va ularga muvofiq harakatlarni qo'zg'atadi, rag'batlantiradi [4].

Yangini o'zlashtirishga, tatbiq etish hamda amalda qo'llashga xalal beruvchi ichki shaxsiy sabablar: innovatsiyalarga nisbatan motivatsiya yo'qligi, jamoada egallangan alohida maqomni yo'qotish xavfi hissi, o'z kasbiy no'noqligi (kompetensiyalar yetishmasligi) yoki shaxsiy nochorligini anglashdan xavf-sirash, riskka borish xavfining rivojlanmaganligi, o'z shaxsiy muammolariga aralashtirib yuborish, innovatsiya, yangilik mohiyatini yaxshi tushunmaslik hisoblanadi.

Innovatsion jarayonga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi tashqi omillar sifatida: jamoada antiinnovatsion ustanovkalar va kayfiyat ustunligi, yangiliklar tadbiquining pedagogik jamoa an'analari hamda imkoniyatlariga mos kelmasligi, maktab ma'muriyatining innovatsiyalarga tayyor emasligi, yangiliklar tatbiqining zahira ta'minoti, innovatsiyalarni ma'muriy "yopishtirish" holatlari ko'rsatib o'tiladi.

Rus olimlari V.I.Zagvyazinskiy, T.A.Strokovaya ayni davrda amaliyotga tatbiq etilayotgan yangiliklarning nazariy jihatdan to'laqonli ishlanmaganligi va amaliyotga tatbiqidagi qarovsizligi, hatto eng yaxshi novatorlik g'oyalarini ham inkor etilishiga hamda bebro' bo'lishiga olib kelishi mumkin deya hisoblashadi. Bu holatga olib kelishi mumkin bo'lgan bir qator obyektiv va subyektiv sabablarni keltirib o'tishadi [5.21]:

◆shu davrgacha uning (kompetentlik va kompetensiya tushunchalari, ularning ayni faoliyatni isloh qilish, yangilash bilan, ya'ni, novatsiya, innovatsiya bilan aloqasi) ilmiy asoslari va tushunchalar apparati yetarlicha tarzda shakllantirilmagan (ko'plab pedagog-amaliyotchilar "kompetentlik" va "kompetensiya" tushunchalari o'rtasidagi farqni ko'rmaydilar va kompetensiyalarni ko'nikmalar bilan bog'lashadi);

◆umumiy ta'limiy kompetentlik mazmuni to'laqonli aniqlashtirilmagan;

◆o'quv fanlarining mazmuni kompetensiyaviy yondashuv talablari bilan muvofiqlikda qurilmagan;

◆darsliklarda kompetentlik xarakteridagi didaktik materiallar deyarli uchramaydi;

◆pedagoglar va ta'lim oluvchilar kompetentligini baholash usullari hamda mezonlari to'la aniqlashtirilmagan.

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, innovatsiyalarga qarshilik innovatsion jarayonning barcha bosqichlarida uchrovchi hodisa bo'lib, umumiy o'rta ta'lim tizimini isloh qilish va takomillashtirish, pedagog xodimlarning yangi bilimlar va texnologiyalarni o'zlashtirish jarayoni muvaffaqiyati pedagog xodimlar, o'qituvchilarning innovatsiyalarni qabul qilish, joriy etishga kasbiy, metodik, psixologik tayyorligi bilan bevosiya bog'liq. Islohotlar jarayonida ayni jarayon ijrochilari – mutaxassislarining innovatsiyalarga nisbatan munosabati, dunyoqarashi, tayyorlik darajasini tushunish, tavsiflash, bashoratlay olish islohotlar va yangiliklar tatbiqi samaradorligini ta'minlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Айзерман Л. Время новелл. “Учительская газета”, 2014, 18 февраль.
2. Подымов Н.А., Подымова Л.С. Барьеры на пути к инновациям (Методологические основы исследования отношений в процессе инновационной деятельности) [электрон. ресурс]. Режим доступа: http://education.rekom.ru/4_2002/podymows.htm.
3. Пригожин А.И. Нововведения: стимулы и препятствия (социальные проблемы инноватики). М., 1989.
4. Слостенин В.А., Подымова Л.С. Педагогика: инновационная деятельность. М., “Магистр”, 1997.
5. В.И.Загвязинский, Т.А.Строкова. Как снять инновационные барьеры. “Народные образования”, 2014, № 5, с. 18 – 25.
6. Шакуров Р.Х. Барьер как категория и его роль в деятельности. “Вопросы психологии”, 2001, № 1.
7. Kleijnen, M., N.Lee, and M.Wetzels. An exploration of consumer resistance to innovation and its antecedents. *Journal of Economic Psychology* 30 (3): 2009, pp. 344 – 57.
8. Talke K., and S.Heidenreich. How to overcome pro-change bias: Incorporating passive and active innovation resistance in innovation decision models. *Journal of Product Innovation Management*, 2014,.doi: 10.1111.jpim.12130.

Tangirqulov Elmurod Aliyarovich (Termiz davlat universiteti “Boshlang‘ich ta‘lim”

kafedra o‘qituvchisi; e-mail: rustamkhurramov@mail.ru)

BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARIDA ATROF-MUHITNI ASRASH ORQALI EKOLOGIK TARBIYA BERISHNING UMUMIY-NAZARIY, METODOLOGIK ASOSLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqola boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida atrof-muhitni asrash orqali ekologik tarbiya berish mexanizmlarini takomillashtirishning umumiy-nazariy, metodologik asoslari haqida yozilgan. Jamiyatning har bir jabhasida, jumladan, ekologik ta‘lim va tarbiyada ham, shaxsning moddiy mahsulot yetkazib berish imkoniyatlaridan ko‘ra ko‘proq, uning intellektual potensialini yuzaga chiqarish ko‘proq ahamiyat kasb etmoqda. Ikkinchidan, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning yangi ko‘rinish kasb etishi, buning natijasida esa tabiiy resurslardan foydalanish ko‘lamining ma‘lum me‘yorlar asosida amalga oshirilishiga erishiladi.*

Аннотация. *В данной статье речь идёт об общетеоретических и методических основах совершенствования механизмов экологического воспитания учащихся начальной школы путем защиты окружающей среды. Во-первых, во всех аспектах жизни общества, включая экологическое образование и воспитание, реализация интеллектуального потенциала человека становится важнее способности производить материальные продукты. Во-вторых, социально-экономические отношения приобретают новый облик, в результате чего степень использования природных ресурсов будет достигаться на основе определенных норм.*

Annotation. *This article is written about the general-theoretical and methodological foundations of improving the mechanisms of environmental education for elementary school students by protecting the environment. In every aspect of society, including environmental education and upbringing, the realization of the intellectual potential of a person is becoming more important than the ability to deliver material products. Secondly, socio-economic relations will acquire a new look, and as a result, the extent of natural resources use will be achieved on the basis of certain standards.*

Kalit so‘zlar: *o‘quvchi, atrof-muhit, ekologik tarbiya, pedagog, muammo, tabiat, jamiyat.*

Ключевые слова: *учащийся, окружающая среда, экологическое воспитание, педагог, проблема, природа, общество.*

Key words: *student, environment, ecological education, pedagogue, problem, nature, society.*

Kirish. XXI asrga xos bo‘lgan muhim xususiyatlardan biri shuki, bu davrda jamiyat e‘tibori ko‘proq moddiy ishlab chiqarish mahsulotlaridan shaxs intellektual faoliyati mahsulotlariga e‘tibor qaratilishdek o‘zgarishlar sodir bo‘lmoqda. Bu o‘zgarishlar ikki jihati bilan muhim. Bunday sharoitlarda o‘qituvchining asosiy vazifasi – boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yoshga oid, individual va psixologik imkoniyatlaridan kelib chiqib, ularda boshlang‘ich ekologik madaniyatni shakllantirishning mundarijasini belgilab olishdan iborat bo‘lmog‘i lozim. Shu o‘rinda ekologik madaniyat tushunchasi va uni shakllantirish mexanizmlariga to‘xtalib o‘tish zarurati tug‘iladi.

Tahlil va natijalar. Xo‘sh, biz ekologik madaniyat deganda nimani tushunimiz lozim? Ekologik madaniyat va ekologik tarbiya, ekologik tafakkur va ekologik ong tushunchalari o‘rtasida qanday strukturaviy, konseptual aloqadorliklar va umumiyliklar mavjud? Umumiy tarzda qaraydigan bo‘lsak, ekologik madaniyat – bu tabiat va atrof-muhit bilan kechadigan munosabatlarda hal etiladigan masalalarni ekologiyaga oid bilim, malaka, ko‘nikma va eng muhimi qat‘iy javobgarlik hissi bilan hal etish zaruratini ongli ravishda his etishdir.

Biroq bizning tadqiqot ishimiz boshlang'ich sinf o'quvchilarining ekologik tarbiyasini shakllantirish mexanizmini takomillashtirishga qaratilgan va ayni o'rinda ekologik madaniyatning strukturaviy tarkibiga kiruvchi komponentlarni (masalan, ekologiya sohasiga oid bilimlar, ekologik tafakkur, ekologik huquq kabilarni) bevosita boshlang'ich sinf o'quvchisining ekologik madaniyatini shakllantirish munda-rijasiga tatbiq eta olmaymiz. Shuning uchun bundan keyingi o'rinlarda ekologik madaniyatning boshlan- g'ich ko'rinishi hisoblangan, ekologik madaniyat shakllanishi uchun eng dastlabki tayanch negiz hisob- langan ekologik tarbiya tushunchasiga ko'proq murojaat qilamiz va har doim ekologik tarbiyaning ekolo- gik ta'lim bilan uyg'unlashgan holda rivojlanib, tom ma'nodagi ekologik madaniyat shakllanishi uchun birlamchi asos vazifasini o'tashini nazarda tutamiz.

Demak, bizning oldimizda boshlang'ich sinf o'quvchilarining ekologik tarbiyasini tashkil etish ma- salasini hal etish vazifasi turganligini inobatga olgan holda, "ekologik tarbiya" tushunchasining peda- gogik, ijtimoiy-psixologik aspektlariga batafsil to'xtalib o'tamiz.

A.N.Ilina fikriga ko'ra, ekologik tarbiya – bu shaxsning jamiyatda joriy etilgan va omma tomoni- dan umume'tirof etilgan ekologik madaniyatni egallashga intilishidir, bundan kelib chiqib, aytish mum- kinki, ekologik tarbiyaning pirovard maqsadi muayyan shaxsda shaxsiy ekologik madaniyatni shakllanti- rishdan iborat. Yig'ilgan tajribalarga ko'ra, ekologik madaniyatning tub negizi hisoblangan ekologik tar- biyaning ilk ildizlari inson hayotining dastlabki o'n yilligida shakllana boshlaydi. Biroq bolaning oila ba- g'rida oladigan ekologik tarbiyasi aksar hollarda stixiyaviy xususiyatga ega bo'lib, tizimli ko'rinishga ega bo'lmaydi va unda izchillik, uzviylik, onglik kabi tamoyillarga amal qilinishi kuzatilmaydi. Oilaviy mu- hitda ekologik tarbiya umumiy tarbiyaning tarkibiy qismi sifatida qaraladi va ko'proq milliy an'analar, qadriyatlar negizidagi olib boriladi. Shuning uchun ham biz ekologik tarbiyaning boshlang'ich bosqichi – boshlang'ich ta'lim davriga to'g'ri keladi, degan fikrni to'g'ri deb hisoblaymiz.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ekologik tarbiyasi ularning o'z mahallalari, o'z yashab turgan geografik hududlariga xos ekologik bilimlar, tabiatshunoslik, geografiya, boshlang'ich o'lkashunoslik ka- bi fan sohalari bo'yicha bilimlariga, tabiatga nisbatan ijobiy-emotsional munosabatlariga, oilaviy qadri- yatlariga, ekologik qadriyatlar bilan milliy qadriyatlarning uyg'unlashtirilganligiga asoslanadi. Ekologik tarbiya tushunchasining pedagogik aspektida uning konseptual komponentlari quyidagilardan iborat bo'- ladi:

- zarur darajada boshlang'ich ekologik bilimlar;
- mavjud ekologik bilimlarni amaliy vaziyatlarda qo'llay bilish, ya'ni, ekologik xatti-harakatlar ko'- nikmasiga ega bo'lganlik;
- lokal va mahalliy ekologik muammolar haqida tasavvurga ega bo'lish;
- mahalliy ekologik muammolar bilan ijtimoiy turmush tarzi o'rtasidagi bog'liqliklarni tavsiflay bi- lish;
- ekologik ta'lim-tarbiyani milliy va mahalliy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirish.

Ekologiya sohasiga oid boshlang'ich bilimlarni aniqlashtirish, ya'ni, boshlang'ich sinf o'quvchisi- ning mufassal ekologik tarbiyaga ega bo'lishi uchun qanday darajadagi boshlang'ich bilimlarni o'zlashti- rishi lozimligi ham mutaxassislarining e'tiborini tortgan masalalardan biridir. Umume'tirof etilgan xu- losalarga ko'ra, boshlang'ich sinf o'quvchisining ekologiya va tabiatshunoslik sohalari o'quv fan- laridan "a'lo" baholarga o'zlashtirganligi unda ekologik tarbiyaning mukammalligi uchun zarur bo'ladi- gan ekologik bilimlar yetarli, degan ma'noni anglatmaydi. Shuning uchun biz quyida boshlang'ich sinf o'quvchisining ekologik bilimlari mazmun-mundarijasini hosil qiluvchi bilimlar, ma'lumotlar va axbo- rotlar tizimini keltirib o'tamiz:

–zamonaviy ekologiyada keng qo'llaniladigan va mahalliy hamda mintaqaviy ekologik muammo- lar tavsifida tilga olinadigan 25 ta atamaning tavsifi va xususiyatlarini bilishi (masalan, "Chuchuk suv zaxirasi", "Tuproq tarkibining buzilishi", "Erning sho'rlanishi", "Havoning ifloslanishi" kabi);

–o'z yashash manzilining iqlimi, kamayib borayotgan yovvoyi jonvorlari haqida 10 fakti aytib va asoslab bera olishi (masalan, "Bu yil qishda eng past harorat -150 ga tushdi", "Surxondaryoda bo'rilar ka- mayib bormoqda" kabi);

–tabiatni muhofaza qilish bilan shug'ullanuvchi davlat va jamoat tashkilotlarining faoliyati haqida umumiy ma'lumotlarga ega bo'lish;

–ekologik huquqbuzarlik uchun mahalliy tabiatni muhofaza qiluvchi davlat organlari tomonidan qo'llaniladigan jazo turlari haqida boshlang'ich ma'lumotlarni bilish;

–xalqaro tabiatni muhofaza qilish tashkilotlarining faoliyati haqida umumiy ma'lumotlarga ega bo'lish;

–o'z yashash hududidagi daryolar, tog'lar, ko'llar va shu kabi tabiiy obyektlarni umumiy tarzda tavsif eta olish;

–o‘z yashash hududidagi qo‘riqlanadigan, muhofaza etiladigan tabiiy obyektlar haqida ma‘lumotlarga ega bo‘lish va qushlar, o‘simlik va hayvon turlari, respublika ahamiyatidagi tarixiy obyektlar haqida yetarli darajada bilish zarur bo‘ladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchisining ekologik tarbiyasi uchun zamin yaratadigan boshlang‘ich ekologik bilimlarni aniqlash uchun savollar o‘qituvchi tomondan ijodiy yondashuv asosida tuzilishi mumkin.

Ekologik tarbiya tushunchasining pedagogik aspektida mazkur tushunchaning strukturaviy elementlaridan navbatdagisi boshlang‘ich ekologik bilimlarni amaliy vaziyatlarda qo‘llay bilish mahoratining shakllanganligidan iborat. Bu bolaning ma‘lum bir lokal ekologik muammoning kelib chiqish sabablarini o‘z tasavvurlari doirasida tahlil etishi va mazkur muammoni bartaraf etish borasida shaxsan o‘zi nimalar qila olishini tasavvur qilishidan iborat. Masalan, bolaga kimyoviy plastmassa asosida ishlatiladigan kundalik buyumlardan foydalanish tartibini jonli hayotiy manzara orqali tushuntirish mumkin. Bunda plastmassa mahsulotlaridan tayyorlangan mahsulotlarning hech qachon hech qanday tabiiy ta’sirlarga (buzilish, yemirilish, so‘kilishi, titilish, erish, eroziya, korroziya va hokazo) uchramasligini, binobarin, bitta mahalla miqyosida bir kunda ishlatiladigan bunday kundalik buyumlar (misol uchun) 3000 donani tashkil etishini, ularni duch kelgan joyga tashlash oqibatini tasavvur qilishga o‘rgatish orqali bolaning mazkur vaziyatda o‘z boshlang‘ich ekologik bilimlaridan foydalanib, qanday yo‘l tutishini hayotiy sinovdan o‘tkazish mumkin bo‘ladi. Biz buni lo‘ndalik uchun “ekologik xatti-harakat” deb nomlaymiz va u qaysi vaziyatlarda boshlang‘ich ekologik bilimlarning hosilasi o‘laroq, namoyon bo‘lishini tadqiq etishga harakat qilamiz. Bolaning ekologik xatti-harakatlari ongli va instiktiv ravishda namoyon bo‘lishi mumkin.

Xulosa. Bolaning muayyan vaziyatlarda ekologik xatti-harakatlarni ongli ravishda sodir etishi uning boshlang‘ich ekologik bilimlarga ega ekanligini, o‘zlashtirgan bilimlarini amaliy vaziyatlarda qo‘llay bilish mahoratini o‘rganganligini anglatadi. Oddiy hayotiy vaziyatni ko‘z oldimizga keltiramiz: ko‘chadan umumfoydalanish maqsadlariga o‘rnatilgan suv ta‘minlash krani ochiq holda oqib turgan vaziyatda ekologik bilimga ega bo‘lgan (ya‘ni, ushbu suv ta‘minlash nuqtasidan behuda oqib ketayotgan suvning tuganmas ne‘mat emasligini, muayyan vaqt kesimi oralig‘ida qancha suv befoyda isrof bo‘lishini ongli ravishda tushungan) bola uni yopib ketadi. Bu xatti-harakatni instiktiv ravishda amalga oshirgan bola (suvning zaxirasi tuganmas emasligi haqida ma‘lumotni bilmasligi, ma‘lum vaqt kesimi oralig‘ida qancha suv oqib ketib, behuda isrof bo‘lishi haqida tushunchaga ega bo‘lmasligi mumkin) o‘z ichki sezgi va emotsiyalariga bo‘ysunadi hamda “Suvning uvol ekanligi”, “Behuda isrofga yo‘l qo‘yish odobdan emas”ligi haqidagi qadriyatlarga amal qiladi. Ekologik xatti-harakatni instiktiv tarzda amalga oshirgan bola ekologik tarbiya tushunchasining ijtimoiy-psixologik aspektida tarkib hosil qiluvchi komponentlarni namoyon qiladi. Biz mazkur komponentlarga keyingi o‘rinlarda batafsil to‘xtalib o‘tamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Шайх Мухаммад Содик Мухаммад Юсуф. Тошкент, «Хилол-нашр», 1991.
2. Одум Ю. Экология. В 2 т, М., “Мир”, 1986.
3. Пианка Эрик. Эволюционная экология. М., “Мир”, 1981, 399 с.
4. Карпенков С. Х. Экология. Учебник для вузов. Кн. 2, М., Берлин, “Директ-Медиа”, 2017, с. 6.
5. Ахатов А. Г. Экология и международное право. Экологий & Интернационал Лав. М., АСТ-ПРЕСС, 1996, 512 с.

Norboyeva Sarvinoz Mengaliyevna (Termiz davlat universiteti, p.f.f.d. (PhD) v.b. dotsent)
BO‘LAJAK PEDAGOGLARDA TAYANCH MA‘NAVIY KOMPETENSIYANI
RIVOJLANTIRISHDA PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK FANLARNING AKSIOLOGIK
IMKONIYATLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo‘lajak pedagoglarda tayanch ma‘naviy kompetensiyalarni rivojlantirishda pedagogik-psixologik fanlarning aksiologik imkoniyatlaridan foydalanish yo‘llari nazariy tahlil qilib o‘tilgan.

Аннотация. В данной статье теоретически проанализированы пути использования аксиологических возможностей педагогико-психологических наук в развитии базовых духовных компетенций у будущих педагогов.

Annotation. In this article, the ways of using the axiological possibilities of pedagogical-psychological sciences in the development of basic spiritual competencies in future pedagogues have been theoretically analyzed.

Kalit so‘zlar: tarbiya, ma‘naviyat, qadriyat, aksiologiya, umuminsoniy, milliy, ijtimoiy me‘yorlar, shaxsiy rivojlanish va boshqalar.

Ключевые слова: образование, духовность, ценность, аксиология, общечеловеческие, национальные, социальные стандарты, развитие личности и др.

Key words: education, spirituality, value, axiology, universal, national, social standards, personal development, etc.

Kirish. Globallashuv jarayonlari tobora kengayib va chuqurlashib borayotgan hozirgi davrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 19-sentabrda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqida butun jahondagi 2 milliarddan ortiq yosh avlod vakillarining insoniyat taraqqiyotida muhim o'ringa ega bo'layotgani va yoshlar omilining alohida e'tiborni talab qilayotgani haqidagi fikri nihoyatda muhim ahamiyatga ega. Yurtboshimizning ushbu anjumandagi "Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo'lib kamolga yetishi bilan bog'liq. Shu munosabat bilan, odamlar, birinchi navbatda, yoshlarning ong-u tafakkurini ma'rifat asosida shakllantirish va tarbiyalash eng muhim vazifadir" [3], degan xulosasi esa BMTga a'zo barcha mamlakatlar vakillarining diqqatini o'ziga qaratgani bejiz emas.

Adabiyotlar tahlili. So'nggi yillarda ta'lim tizimi, shu jumladan, oliy ta'lim muassasalarida o'quv-tarbiya jarayonlarini tashkil etishning huquqiy asoslarini takomillashtirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida"gi qonunida ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari sifatida ta'lim sohasida kamsitishlarga yo'l qo'yilmasligi, ta'lim olishga doir teng imkoniyatlarning ta'minlanishi, ta'lim va tarbiyaga milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarining singdirilganligi, ta'lim va tarbiyaning insonparvarlik, demokratik xususiyati kabilarda belgilab berilgan (1).

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-sonli "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida "Pedagog xodimlarning qadr-qimmatini va nufuzini oshirish, ularning moddiy-ma'naviy va ijtimoiy himoyasini kuchaytirish", bugungi islohotlarning mohiyatini yoritishga qaratilgan tizimli ishlarni tashkil etish masalalari alohida e'tirof etilganligida ko'ramiz (2).

Ushbu muammoning ijobiy yechimini topish bo'yicha S.Nishonova, N.Norqulova, Sh.Olimov, D.Ro'ziyeva, Z.Saliyeva, S.Sanayeva, Sh.Taylakova, Sh.Taylanova V.Baydenko, A.Belyayeva, S.Zilberman, V.Ignatovalarning tadqiqotlarida bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash, talabalarida ma'rifatparvarlik fazilatini rivojlantirish, pedagogik fanlarni o'qitish jarayonida bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik madaniyatni shakllantirish, jamiyatda ma'naviy-axloqiy muhit barqarorligini ta'minlash, "Pedagogika" kursi misolida bo'lajak o'qituvchi shaxsini yaxlit rivojlantirish, milliy ma'naviy meros asosida universitet talabalarida xulq-odob fazilatlarini tarbiyalash, kompetensiyaviy yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash bo'yicha olib borilgan izlanishlari to'g'ri keladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilab berilgan vazifalarni muayyan darajada hal etish hamda masalaning dolzarbligini asoslash uchun mavzu bilan bog'liq holda, mazkur maqolada, dastlab, "aksiologiya", "qadriyat" va "qadriyatlar tizimi" tushunchalarining mohiyatiga e'tibor qaratilib, so'ngra, pedagogik-psixologik fanlarning aksiologik imkoniyatlari yoritib berildi.

Aksiologiya – qadriyatlar haqidagi fan bo'lib, olam va insonga qadriyatli munosabatni tarkib topirish yo'llarini o'rganadi.

Pedagogika fanida qadriyatlarni ta'limiy-tarbiyaviy imkoniyatlarini tadqiq etuvchi alohida fan sohasi – pedagogik aksiologiya mavjud bo'lib, so'nggi yillarda mazkur yo'nalishda alohida ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

"Mustaqillik izohli ilmiy-ommabop lug'at"da "Qadriyatlar – jamiyatda kishilar o'rtasida obro'ga, e'tiborga, hurmatga, nufuzga, ahamiyatga ega kishilar, munosabatlar, holatlar, moddiy narsalar va ma'naviy boyliklar majmuasi", degan ta'rif berilgan.

"Ma'naviyat: asosiy tushunchalar" izohli lug'ati"da: "Qadriyat inson va jamiyat ma'naviyatining tarkibiy qismi, olamdagi voqealar, hodisalar, jarayonlar, holatlar, sifatlar, talab va tartiblarning qadriini ifodalash uchun ishlatiladigan tushuncha deb talqin etilgan [5].

"Tarbiya" ensiklopediyasida: "Qadriyat – voqelikdagi muayyan hodisalarning umuminsoniy, ijtimoiy-axloqiy, madaniy-ma'naviy ahamiyatini ko'rsatish uchun qo'llanadigan tushuncha", deb ta'rif berilgan.

Respublikamizda pedagogik aksiologiya fanidan o'quv qo'llanma yozishni boshlab bergan olim B.X.Xodjayev pedagogik nuqtayi nazardan qadriyat tushunchasining quyidagi o'ziga xos jihatlarini aniqlashtirgan: "Qadriyat tushunchasining kelib chiqishi shuni ko'rsatadiki, unda uch asosiy belgi birlashadi: narsa va hodisalarni baholashga doir insonning amaliy hamda emotsional munosabatini ta'riflash; insonning psixologik tavsifini aniqlovchi axloqiy kategoriyalarni tavsif etish; insonlar orasidagi munosabatlarni

xarakterlovchi ijtimoiy hodisalarni ta’riflash. “Qadriyat” tushunchasining rivoji shartli ravishda qadriyat-larning turli ko’rinish (iqtisodiy, psixologik, axloqiy, estetik, bilishga oid, ijtimoiy)larini ajratib ko’rsa-tish, inson tabiati, uning bilishga intilish mexanizmlarini anglab etish, bilish faoliyatining harakatlantiruv-chi kuchlarini aniqlashga imkon beradi”.

Tahlil va natijalar. Falsafiy va pedagogik-psixologik adabiyotlar tahlili “qadriyat” tushunchasini talqin etishda xilma-xil yondashuvlar mavjudligini ko’rsatdi. Falsafiy nuqtai nazardan qadriyat – inson tomonidan baholanadigan keng ommalashgan subyektiv obraz yoki tasavvurlar sifatida idrok etilsa, sot-siologik yondashuvda qadriyat inson hayotiy faoliyatini tashkil etuvchi ijtimoiy me’yorlar, uning xulq-at-vari bilan mustahkam aloqadorlikda talqin etiladi, psixologiya mazkur tushunchani shaxsning qiziqishlari, ehtiyojlari bilan bog’liqlikda ifoda etadi. Pedagogikada qadriyat tushunchasi insonning har tomonlama uyg’un rivojlantirishga yo’naltirilgan individual hayotiy tajribasi, dunyo haqidagi bilimlari asosida yuza-ga keluvchi olamga shaxsiy munosabatini aks ettiradi.

Milliy va xorijiy tajriba tahlili “qadriyatlar tizimi” masalasi falsafiy nuqtayi nazardan aniqroq yori-tib berilganligini ko’rsatdi. Faylasuf olim Q.Nazarov ta’kidlaganidek, jamiyat taraqqiyotining muayyan davrida uning ijtimoiy tuzilishi mutanosiblikka ega bo’ladi va uning bu davriga qadriyatlarining ham nis-batan barqaror va o’zaro mutanosib umumiy tizimlari mos keladi. Bu barqarorlik va mutanosiblik qad-riyat tizimlari o’rtasidagi munosabatlarga ham xos bo’lganidan, bir davrda mavjud bo’lgan qadriyat tizim-laridan boshqa davrlarda mavjud bo’lgan qadriyatlar tizimini ajratish, ular o’rtasidagi farq va tafovutlarni o’rganish mumkin [6].

Sh.Taylanova o’zining “Pedagogika oliy ta’lim muassasasi talabalarida qadriyatlar tizimini shakl-lantirish (“Pedagogika tarixi” fani misolida”) deb nomlangan tadqiqot ishida “Qadriyatlar tizimi asrlar davomida shakllangan tabiat, jamiyat va madaniyatda aks etgan voqelikka ongli munosabat natijasida yu-zaga keluvchi qarashlar yig’indisidir”, deb ta’kidlab o’tgan. Mazkur ta’rifdagi “qarashlar yig’indisi” tu-shunchasi, ehtimol, “Pedagogika tarixi” fanini o’qitish bilan bog’liqlikda to’g’ri aniqlashtirilgan bo’lishi mumkin, biroq qadriyatlar tizimi qadriyat shakllari majmuyini o’zida ifoda etishi, ayni haqiqatdir.

Xulosa va takliflar. Pedagogik ta’limni rivojlantirishning zamonaviy bosqichida ta’lim oluvchi shaxsiga yo’nalganlik, insonni jamiyatda oliy qadriyat sifatida e’tirof etish ijtimoiy sohaning eng muhim va keng ko’lamli yo’nalishlaridan biridir. Ta’limni insonparvarlashtirish g’oyasi pedagogikada aksiologik yondashuvning keng tatbiq etilishi natijasidir.

Yuqorida ko’rib chiqilgan umumiy aksiologiyaning kategorial apparati pedagogik faoliyatning o’ziga xosligi, uning ijtimoiy roli va shaxsni rivojlantirishdagi imkoniyatlarini aniqlashtirishga xizmat qi-ladigan pedagogik aksiologiyaga e’tibor qaratishga imkon beradi. B.X.Xodjayev ta’kidlab o’tganidek, pe-dagogik aksiologiya ta’limiy qadriyatlar (ularning tabiat va aloqadorligi) haqidagi fan sifatida quyidagi funksiyalarni bajaradi:

◆mazmun-mohiyat bilan aloqador (ta’lim mazmuni va tashkiliy jihatlarini birlashtirganligi sababli, intellektual tashabbusni rag’batlantiradi) – fikriy jarayon, obyektни aktuallashtirish, aniq dalil va isbotlarni belgilash, axborotni tanqidiy mushohada etish, ma’no-mazmunini tushunish, shaxsiy fikrning o’sishi;

◆baholovchi – pedagogik jarayon ishtirokchilarida borliq va ma’naviy hodisalarni adekvat baho-lashni rivojlantirishni aks ettiradi;

◆yo’naltirish funksiyasi – “qadriyatlar ierarxiyasi”ning ma’lum parametrlari asosida shaxsiy, kas-biy tavsifning muhim qoidalarini aniqlash imkoniyatlari bilan bog’liq;

◆me’yoriy (normativ) – pedagog va tarbiyachining aksiosferasining tarkibiy qismlari, o’zida qadri-yat tarzini aks ettiruvchi ularning o’zaro munosabatlari tizimini “qonuniylashtiradi”;

◆boshqaruvga doir – insonparvar mazmunga ega milliy va umuminsoniy qadriyatlar oqimidagi ti-zim subyektlari, ta’lim tizimi rivojlanishini yo’naltiradi, ta’lim sohasidagi o’zaro zaruriy harakatni hosil qiladi, nazorat – madaniy-tarixiylik kontekstida qadriyatning rivoji, shaxsda qadriyatga yo’nalganlikni shakllantirish imkonini beradi [10].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида”ги қонуни (23.09.2020). Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси. 24.09.2020, 03/20/637/1313-сон.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 14 августдаги ПК-3907-сонли “Ёшларни маънавий-ахлоқий ва жисмоний баркамол этиб тарбиялаш, уларга таълим-тарбия бериш тизимини сифат жиҳатидан янги босқичга кўтариш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори. Қонун ҳужжатлари маълумотла-ри миллий базаси. 15.08.2018, 07/18/3907/1706-сон; 14.12.2019. 06/19/5894/4161-сон.

3. Ўзбекистон Президенти Шавкат Мирзиёевнинг БМТ Бош Ассамблеяси 72-сессиясида сўзлаган нутқи. “Халқ сўзи”, 2017 йил 20 сентябрь.

4. Макаревич М.А. Ценность. Российская социологическая энциклопедия. Под общ. ред. акад РАН Г.В.Осипова. М., НОРМА-ИНФРА-М, 1998, 672 с.

5. Маънавият: асосий тушунчалар изоҳпи луғати. Т., Фафур Фулом номидаги нашриёт-мағбаа ижодий уйи, 2010, 760 бет.
6. Мустақиллик изоҳли илмий-оммабоп луғати (А.Жалолов ва Қ.Хонназаров умумий таҳририда). Т., “Шарқ”, 1998, 320 бет.
7. Подласый И.П. Педагогика: 100 вопросов – 100 ответов. М., ВЛАДОС-пресс, 2004, 368 с.
8. Сорокин П. Человек. Цивилизация. Общество. Пер. с англ. М., Политиздат, 1992, 542 с.
9. Тайланова Ш. Педагогика олий таълим муассасаси талабаларида кадриятлар тизимини шакллантириш (“Педагогика тарихи” фани мисолида). Педагогика фанлари номзоди. ... дисс. автореф., Т., 2012, 23 бет.
10. Ходжаев Б. Педагогик аксиология. Ўқув қўлланма, Т., “Fan va texnologiya”, 2012, 165-бет.

Bekimbetova Gulbaxar Risbayevna (Ajiniyoz nomidagi NDPI “Umumiy pedagogika va psixologiya” kafedrasida dotsenti, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori)
DISKURSIV KOMPETENSIYA ASOSIDA TALABALARNING LINGVISTIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

***Annotatsiya.** Maqolada filolog-talabalarning lingvistik kompetensiyalarini takomillashtirishda Diskursiv kompetensiyaning ahamiyati haqida ma’lumotlar berilgan.*

***Аннотация.** В статье представлена информация о значении дискурсивной компетенции в обеспечении лингвистической компетентности студентов-филологов.*

***Annotation.** The article provides information on the importance of discursive competence in ensuring the linguistic competence of philology students.*

***Kalit so‘zlar:** diskursiv kompetensiya, semantik vosita, lingvistik kompetensiya, kommunikativ kompetensiya, strategik kompetensiya.*

***Ключевые слова:** дискурсивная компетентность, семантический инструментарий, лингвистическая компетентность, коммуникативная компетентность, стратегическая компетентность.*

***Key words:** discursive competence, semantic tools, linguistic competence, communicative competence, strategic competence.*

Diskursiv kompetensiya (og‘zaki yoki yozma nutqni rivojlantirish, gaplarni tuzish qobiliyati kiradi. Buning uchun turli sintaktik va semantik vositalardan foydalanish, boshqa insonning fikrlarini, xabarlarini tushinish qobiliyati) hisoblanadi. Izlanish davomida filolog-talabalarning lingvistik kompetensiyalarini takomillashtirishga yo‘naltiruvchi texnologiyani amaliyotga joriy qilishda metodik ma’lumotlar mazmuni aniqlangan, lingometodik mahsulot tayyorlandi.

Loyihaga asoslangan ta’lim talabalarga teran bilim, shu bilan birga, tanqidiy fikrlash, hamkorlik, ijodiy va yondashuv ko‘nikmalarini rivojlantirishga imkoniyat beradi. PBL, shu jumladan, talabalar va o‘qituvchilar o‘rtasida ijodiy energiyani ochib berishi bilan yetakchi bo‘lib, bu talabalarning faolligini oshirishga va hamma uchun o‘quv natijalarini yaxshilashga olib keldi.¹

Til kompetensiyasi, ko‘pincha, kommunikativ kompetensiya bilan bevosita aloqador holda ko‘rib chiqiladi. Til kompetensiyasidan tashqari, kommunikativ kompetensiyaga quyidagilar kiradi:

◆ gaplashish – kommunikatsiyaning eng universal vositasi hisoblanadi. Gaplashish – bu odamning boshqa odam bilan tabiiy til orqali muloqot qilish jarayoni;

◆ filolog-talaba lingvistik nutqning asosiy tushunchalarini bilishda nutq usullarini, nutq turlarini, nutq tavsifining tuzilishi, gurunlashish, mulohaza yuritish usullari va boshqalar haqida ko‘nikmalar shakllanishi zarur bo‘ladi;

◆ sotsiolingvistik kompetensiya (kommunikativ IKTning sotsiolingvistik kontekstini, muloqot sharoitining farqli xususiyatlarini, atrofdagi insonlarning ijtimoiylik mavqeyini hisobga olish qobiliyati), uni ba’zan pragmatik va illokatsion kompetensiya deb ham ataymiz;

◆ ijtimoiy-madaniy kompetensiya (o‘rganilayotgan tilshunoslikning etnomadaniy xususiyatlarini bilish (hududiy, lingvistik-hududiy, madaniy, lingvistik-madaniy va madaniyatlar aro kompetensiyalar), odatdagi hollarda nutq orqali va so‘zsiz xulqlar orqali va bu bilimlarga yarasha amalga oshirish qobiliyati);

◆ diskursiv kompetensiya (og‘zaki yoki yozma nutqni rivojlantirish, gaplarni tuzish qobiliyati kiradi. Buning uchun turli sintaktik va semantik vositalardan foydalanish, boshqa insonning fikrlarini, xabarlarini tushinish qobiliyati);

◆ strategik kompetensiya har xil kommunikativ muammolarni yechish uchun eng samarador strategiyalarni tanlash va ulardan chiqib ketish qobiliyati hisoblanadi.

¹ Зимняя И.А. Психологические аспекты обучения говорению на иностранном языке. М., МГУ, 1998, с. 142.

Kommunikativ kompetensiya va uning hamma tuzilma bo'limlari til kompetensiyasiga, avvalambor, lug'at va grammatikani bilishga, leksik va grammatik vositalarni amalda qo'llashga asoslangan. Leksik va grammatik tuzilmaviy bo'limlardir faqatgina lingvistik, sotsiolingvistik, ijtimoiy-madaniy, diskursiv va strategik kompetensiyalarga ham ajratish mumkin. Boshqacha qilib aytganda, lingvistik kompetensiya boshqa kompetensiyalar uchun asos hisoblanadi.

Izlanish davomida quyidagilar amalga oshirildi:

–ta'lim oluvchilarning universal (asosiy) kompetensiyalarini takomillashtirishga yo'naltirilgan oliy o'quv yurtlari ta'lim jarayonining modelini tajriba-sinovdan o'tkazish;

–kompetensiyalarni baholashga uchta yondashuvni aniqlash;

–ta'lim oluvchilar o'z kompetensiyalarini o'zlari baholashdan foydalanilishi.

OTMLar mutaxassisining universal kompetensiyalarini natijali rivojlantirishni ta'minlaydigan rejalashtirish metodi kabi pedagogik texnologiyalar jamlanmasi aniqlangan.

Pedagogika OTMLari talabalarining kasbiy tayyorgarlik faoliyatini yanada takomillashtirishning yo'nalishlarini quyidagicha belgilab olish zarur:

◆talabalarining pedagogik va kasbiy darajasini oshirishda ularning nazariy, ilmiy va amaliy izlanishlar, texnologik rivojlanish va o'qitilib kelinayotgan ixtisoslik fanlar bo'yicha innovatsiyalarni o'zlashtirish;

◆samarador zamonaviy ta'lim va innovatsiya texnologiyalari, oldingi xorijiy tajribalardi joriy qilgan holda, OTM ta'lim yo'nalishi, mutaxassisligi bo'yicha malaka talablari, o'quv rejalarini, o'quv dasturlari va usullarini zamon talabi zarurati asosida takomillashtirish;

◆oliy o'quv yurtlari talabalarining ijtimoiy internet tarmog'i, multimediyalar tizimlari va masofaviy o'qitish usullaridan foydalangan holda, zamonaviy innovatsion pedagogika, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini egallashi va ularni o'quv jarayoniga faol qo'llana olishi;

Ta'lim yo'nalishlarida uzluksiz ixtisoslik amaliyoti o'tkazish va belgilangan obyektlarda bitiruv ixtisoslik ishlarni tajriba-sinovdan o'tkazishni belgilash.

Loyihaga asoslangan ta'lim oliy o'quv yurtlari va boshqa o'quv yurtlarida har xil usul va har xil darajada borgan sari ko'proq qo'llanilmoqda.

Loyihaga asoslangan ta'lim – bu talabalarining murakkab savol, muammo yoki qiyinchiliklarni o'rganish orqali o'rganadigan o'quv usuli. Bu aktiv o'rganishni rag'batlantiradi, talabalarni jalb qiladi va a'lo darajada fikrlashga imkoniyat beradi. Talabalarga o'z loyihalarni yakunlash orqali real turmush masalalarini o'rganish va javob topish vazifasi yuklangan bo'ladi. Shu jumladan, talabalar ishlayotgan loyihani, xususan, loyiha qanday yakunlanishini va yakunlovchi mahsulotni kuzatishi mumkin.

Talabalar loyihaga asoslangan o'quv topshiriqlarini bajarganda, maqsadlar boshidan belgilanadi va bunday o'qitish bir qancha tartibli bo'ladi. Loyihaga asoslangan ta'lim, odatda, ko'p tarmoqli bo'lib, u turli fanlar bo'yicha ko'nikma va bilimlardan foydalanadi. Loyihaga asoslangan ta'lim to'la bo'lishi uchun umumiylik bosqichlarni bajaradi. Loyihaga asoslangan ta'lim hozirgi zamon sinfida munosib o'rin egallaydi va XXI asr ta'lim tizimini qo'llay oladi.

Loyihaga asoslangan ta'limdan ko'zlangan natija uzoq muddatli bo'lishi va o'quv o'rni, o'qituvchi va tashkilotga qaray farqlanishi mumkin. Ammo, loyihaga asoslangan o'quv maqsadlari yuqorida tavsiflangan xususiyatlardan va uning afzalliklaridan farqlanmaydi. Shunday bo'lsa ham, quyidagi loyihalarga asoslangan ta'limning umumiy maqsadlari keltirilgan:

● turli sohalardagi bilim va ko'nikmalarni yanada murakkab izlanishlar va ko'p tarmoqli loyihalar orqali umumiylik;

● mustaqil o'rganish tartibsiz bo'lgan muammolarni mustaqil tadqiqot orqali rag'batlantiradi;

● talabalarni ijtimoiy muhitga tayyorlashga yordam beradigan jamoaviy ish;

● o'z-o'zini baholash va o'z-o'ziga tanqid bildirish, bu talabalarni o'z g'oyalari va bilimlarini bilishga chorlaydi.

Auditoriyada loyihaga asoslangan ta'limni amalga oshirishning keng tarqalgan afzalliklaridan ba'zi birlari:

● ma'nosini teranroq o'rganish va kollej va kasbga tayyorgarlik bilan aloqador zarur ko'nikmalarni rivojlantirish imkoniyatlarini taklif etadi;

● talabalarining ishtirok etishi va yutuqlarini oshiradi va talabalarga kelajakdagi kasblarida yutuqlarga erishish uchun zarur bo'lgan XXI asr ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Bularga tanqid, aloqa, hamkorlik va ijodiyot kiradi;

● talabalarga tanlov imkoniyatini yaratadi, bu esa talabalarga o'z-o'zini o'quv sayohatlarining me'mori kabi sezinishiga imkoniyat beradi;

- talabalarni mashg'ulotlarga tortish qobiliyati sababli ularning bilimga bo'lgan munosabatini yaxshilaydi;
- reja va loyihani takroriy ko'rib chiqish va takrorlash uchun ko'p imkoniyatlar beradi;
- talabalarni har bir fan sohasi haqida alohida o'ylamasdan, mazmunli sohalarda mazmunli aloqalar o'rnatishga chaqiradi (ko'p tarmoqli pedagogik yondashuv);
- talabalarni haqiqiy tajribaga jalb qiladi, ularga tegishli va haqiqiy tajribalar orqali tushunchalarni teranroq tushinishga imkoniyat beradi. Bu talabalarni haqiqiy dunyodagi qiyinchiliklarni qabul qilishga va hal etishga tayyorlaydi, professionallar har kuni nima ishlayotganini aks etdiradi.

Shu bilan birga, ko'plab talabalar o'rgangan odatiy bo'lmagan imtihon o'rniga, ma'lum bitta loyiha bilan aloqador taqdimot qanday bo'lishi haqida mutaxassislar bilan uchrashish orqali haqiqiy baholarni ishlab chiqishi mumkin.

Tajriba-sinov ishlari boshida va oxirida izlanish maqsadini aniqlashga xizmat qiluvchi so'rovnomalar talabalar va professor-o'qituvchilarga tarqatildi. Talabalar, odatda, loyihalar ustida uzoq, ya'ni, bir haftadan bir semestrga qadar vaqt davomida ishlaydi va bu ularni haqiqiy muammoni hal etishga yoki murakkab savolga javob berishga jalb qiladi. Haqiqiy auditoriya uchun ommaviy mahsulot yoki taqdimot yaratish orqali ular nimani o'rgatganligini ko'rsatadi.

Loyihali ta'limda ishning natijalarini ko'rsatish, shaklini tanlash unchalik zarur emas. Bu video-film, kitob, maket, jurnal (og'zaki yoki yozma), spektakl, targ'ibot-tashviqot guruhining chiqishi, ta'lim muassasasining xonalarini uskunalanishi, sport maydonini yaratish va boshqalar bo'lishi mumkin. Loyihani ko'rsatish shakli uning mavzusi, maqsadi, mazmuni, muallifning umumiy fikri bilan aniqlanadi.

**Xolmatov Javohir Yusupovich (Jizzax davlat Pedagogika universiteti Pedagogika nazariyasi.
Pedagogik ta'limotlar tarixi 1-bosqich tayanch doktoranti)
TA'LIM TURLARINI INTEGRATSIYALASH ORQALI MA'NAVIYATLI SHAXSNI
TARBIYALASH**

***Annotatsiya.** Bu maqola ta'limning muhim asoslaridan biri bo'lgan integratsiyalash usuliga e'tibor beradi va ularning ta'lim turlarini bir-biriga bog'lash orqali bilimli, tarbiyali va ma'naviyatli shaxsni tarbiyalashga yo'naltiradi. Maqolada o'zida ta'lim va tarbiya sohasining zarurati va o'quvchilarning insonparvarlik va jamiyatga foydasi tegadigan kadrlar bo'lishi muhimligi aytib o'tiladi.*

***Аннотация.** Данная статья посвящена методу интеграции, который является одной из важных основ образования, и направляет воспитание образованной, образованной и духовной личности путем соединения их видов образования. В статье говорится о необходимости сферы образования и обучения и о важности того, чтобы студенты становились гуманными и полезными для общества кадрами.*

***Annotation.** This article is focused on the method of integration, which is one of the important foundations of education, and directs the education of an educated, educated and spiritual person by connecting their types of education. The article mentions the necessity of the field of education and training and the importance of the students becoming humane and useful personnel for the society.*

***Kalit so'zlar:** integratsiyalashgan ta'lim, kompetensiya, o'quv dasturlari, ma'naviyat.*

***Ключевые слова:** интегрированное образование, компетентность, образовательные программы, духовность.*

***Key words:** integrated education, competence, educational programs, spirituality.*

O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimida ma'naviyatli shaxsning rivojlanishi va tarbiyalanishiga e'tibor beriladi. O'quvchilarga adabiyot, san'at, tarix, etika, axborot texnologiyalari, milliy va dunyoviy madaniyat asoslari kabi fanlar orqali ma'naviyatni tushunish va rivojlantirish imkoniyati beriladi. Bunda o'quvchilar g'oyalarini ifodalash, ijodiylik va muhokama qobiliyatlarini rivojlantirish, adolat, huquq va insonparvarlik prinsiplariga amal qilish va boshqa ma'naviy qadriyatlarni tushunishga o'rgatiladi. Shuningdek, O'zbekistonda oliy ta'lim muassasalari ham o'quvchilarni ma'naviyatli shaxslar sifatida tarbiyalashga xizmat qilishga intilishadi. Bu muassasalarda o'quvchilarga ilmiy tadqiqot faoliyati, ijodiylik va ijodiy ishlar, ijtimoiy xizmat va milliy madaniyatning saqlanishi va rivojlanishi muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

O'zbekistonda ma'naviyatli shaxs tushunchasi o'quvchilarning shaxsiy, ijtimoiy va ma'naviy taraqqiyotini rivojlantirish, o'zining insonparvar, adolatli, huquqiy muhofazaga ega bo'lishini, o'z fikr-mulohazalarini erkin ifoda qilishini, ijod va ijodiy ishlarini rivojlantirishini, milliy va dunyoviy qadriyatlarni tushunishni talab etadi.

Maktab va maktabgacha ta'limning yosh avlodni tarbiyalashdagi o'rni, ularning dastlabki hayotiy-ilmiiy bilimlarini shakllantirishda katta ahamiyatga ega. Bu o'rinda o'quvchilarni o'zlarini tanishi, o'zlarini rivojlantirishi, g'ayrioddiy g'oyalarga qarshilik qilishi, ijtimoiy qadriyatlarni o'rganishi, jamoatchilik a'zolari bilan hamkorlik qilishi va o'z shaxsiy fikr-munosabatini ifoda qilish imkoniyatlarini takomillashtirishga yo'naltirishi mumkin.

Maktabning o'quvchilarni tarbiyalashdagi o'rni, ularni fikr-mulohaza qilishga, savollar berishga, muhokama qilishga, ijodiy yondashuv qilishga va kreativlikni rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi lozim. O'quvchilar sport, san'at, ijtimoiy faoliyat, reja va loyihalar yaratish kabi sohalarda ishtirok etish orqali ijtimoiy moslashuvchanlik, liderlik, jamoat bilan hamkorlik qilish va mas'uliyatni his qilishni o'rganishadi. Tarbiyalash jarayonida o'quvchilarga turli adabiyotlar, fanlar va ta'lim-tarbiya qo'llanmalari yordamida adolatli munosabat, huquqiy himoya, o'ziga ishonish, ijodiy yondashuv, samarali ishlash va maqsadni to'g'ri qo'ya olishni tayyorlash kabi xususiyatlarni oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu ko'rsatkichlar o'quvchilarni o'z-o'zini o'rganish, o'z mehnatlarini takomillashtirish va o'z-o'zini samarali tahlil qilish orqali kelajakda muvaffaqiyat kaliti bo'lishlari uchun asosiy qo'llanma sifatida xizmat qiladi. Maktab va maktabgacha ta'limning o'rni, uning o'quvchilarga yaxshi tarbiya berish va ularga o'zlarining to'liq salohiyatini rivojlantirish imkonini yaratishdir [5].

O'quvchilarni ma'naviyatli, ma'rifatli, barkomil qilib tarbiyalashda umumiy o'rta ta'lim va oliy ta'limning integratsiyasi juda muhimdir. Bu integratsiya o'quvchilarning intellektual, ma'rifatli, ma'naviy va ijtimoiy taraqqiyotini yaxshilashga yordam beradi.

Umumiy o'rta ta'lim dasturi o'quvchilarga o'zaro aloqalarni, jamiyatga moslashishni, to'g'ri qaror qabul qilishni, ijtimoiy muammoni tahlil qilishni, ijtimoiy-huquqiy qadriyatlarni o'rganishni va jamoada mas'uliyat hissi qanday bo'lishi va uning o'rnini tushuntiradi [8]. Bu dastur orqali o'quvchilar ona tili, matematika, tarix, tabiiy fanlar, ijtimoiy fanlar va boshqa ko'plab sohalarda bilim va malakalarini oshirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Oliy ta'lim esa o'quvchilarga ilmiy tadqiqot ishlari, hayotiy bilimlarni o'zlashtirish va insonlar bilan o'zaro hamkorlik bilan bog'liq yo'nalishlarni o'rganish imkonini beradi. Umumiy o'rta ta'lim va oliy ta'lim integratsiyasi o'quvchilarga bilimlarni bir-birini to'ldirib boruvchi bo'lib xizmat qiladi, ya'ni, ularning intellektual, amaliy, ma'rifatli, ma'naviy va ijtimoiy taraqqiyotini birlashtiradi. Bu integratsiya o'quvchilarning asosiy xususiyatlari, g'oyaviy fikrlari, etik qadriyatlari va shaxsiy tartibi bilan bog'liq bo'ladi. Bu, shuningdek, ularni ijtimoiy tashkilotlardagi muammolarga qarshi tura olish, jamoatdagi xizmatlarga, qonun va adolat tizimiga o'zgartirishlarni taklif qilishga o'rgatadi. Bu integratsiya o'quvchilarni o'z-o'zini samarali his qilish, shaxsiy mehnatini, aqliy salohiyatini oshirishni o'rganish, ma'naviy taraqqiyotini rivojlantirish, maqsadli ish qilish, ijodiy va ijtimoiy yondashuvni amalga oshirish va jamiyatda o'ziga xos o'rnini topa olish bilan ta'minlaydi. Buning natijasida o'quvchilar yaxshi shaxslar bo'lib, o'zining salohiyatini yuksaltirish jamiyatning foydali a'zolari va tinchlik hamkorlari bo'lishadi.

Ta'limni integratsiyalash orqali ma'naviyatli shaxsni tarbiyalash pirovardida ma'naviyatli, ma'rifatli, adolatli, huquqiy qat'iy fikrga ega bo'lgan, ijtimoiy normalarga rioya qiladigan tayyor kadrlar shakllantiriladi. Bu jarayon o'quvchilarning intellektual, ma'naviy, etik, ijtimoiy, insonparvarlik va boshqa qadriyatlarini o'z ichiga oladi [3]. Ma'naviyatli shaxsni tarbiyalashda, o'quvchilarga o'z vaqtlarini to'g'ri taqsimlay olish, o'zgarishlarga moslashish, umumiy mas'uliyat, o'z bilimini o'rganish, o'z fikr-mulohazalarini ifoda qilish, o'zini-o'zida samarali tahlil qilish, yaratish va ijodiy yondashuv qilish imkoniyatlarini takomillashtirish kabi ko'nikmalarni ta'minlash muhim hisoblanadi.

Integratsiya o'quvchilarni bir-biri bilan, o'z tarixi va madaniyati bilan, turli dunyoqarashlar va ularning ichki dunyosi bilan bog'liqlik qilishga yordamlashadi. Bu esa o'quvchilarga umumiy tarix, madaniyat, milliy va jahon adabiyoti, dinlar va ma'rifat, estetika, fikrlash va ilmiy qarashlarga oid bilimlarni o'rganish imkonini beradi.

Ma'naviyatli shaxsni tarbiyalashning bir qismi ham o'quvchilarga adolatli va huquqiy qat'iyatni o'rganish va amal qilishni o'rgatadi. Bu shu bilan birga, qonunlar, insonga samarali xizmat qilish, ijtimoiy adolat tizimining tushunilishi, inson huquqlarini tushunish va hurmat qilish, ijtimoiy muammolarni tartibga solish kabi mavzularni o'z ichiga oladi [4].

Ma'naviyatli shaxsni tarbiyalashning asosiy maqsadi o'quvchilarning ma'naviyati va insonparvarligini rivojlantirishdir. Bu ularni ma'naviyat, o'z va boshqalarining hurmat-ehtiromi, mehnat, ijtimoiy mas'uliyat, o'zi va boshqalarining fikri va erkinligi, insonparvarlik va vatanga muhabbat, alohida harakatlarni amalga oshirishda samarali yondashishni o'rgatadi.

Bundan tashqari, ma'naviyatli shaxsni tarbiyalash jarayoni o'quvchilarga o'zgarishlarga moslashish, o'z xatosidan xulosa chiqarish, sabr, muzokaralar, muhim muhokama va kreativlikni o'rganish, ijtimoiy jamiyatga foydali xizmat qilish imkoniyatlarini takomillashtirishni ham o'z ichiga oladi. Bu bar-

cha tadbirlar o'quvchilarning ma'naviyatini rivojlantirish, o'zining insoniyligini tushunish, boshqalar bilan o'zaro hamkorlik qilish, o'z mehnatini qadr-qimmatini bilish, qadrlil bo'lish va o'zining hayotida maqsadli, ishtiyqli va doimiy harakatda bo'lishga yordam beradi.

Ma'naviyati kuchli shaxsni tarbiyalashda ta'lim turlaridagi muammolar quyidagilar bo'lishi mumkin:

Fanlarning o'zaro bog'liqligi. Ba'zi ta'lim turlarida fanlar o'zaro aloqasi kam bo'lishi mumkin. Misol uchun, o'quvchilarga faqat diniy va ilmiy fanlar o'qitilganda ularning ijtimoiy va san'atga oid g'oyalari rivojlantirish imkoniyatlari cheklangan bo'ladi. Bu esa o'quvchilarning shaxsiy, ijtimoiy va ma'naviy taraqqiyotlarini to'liq ta'minlay olmaydi.

Ma'naviy-tanqidiy ta'limning yetarli emasligi. Ba'zi ta'lim turlarida ma'naviy-tanqidiy mazmunlar yetarlicha e'tibor berilmagan va o'rgatish metodi bilan ta'limda samarali natijaga erisha olmaslik mumkin. Bu esa o'quvchilarni o'zaro insoniy munosabatlarda, etik, adolat, huquq va boshqa ma'naviy masalalarda yetarli tushuncha va tajriba bilan ta'minlashga imkon bermaydi.

Individual tarzda o'quvchilarning imkoniyatlarini yaxshilashga sharoit yaratish. Ta'lim turlarida o'quvchilarning individual xususiyatlari, imkoniyatlari va qobiliyatlariga ko'ra bajariladigan individuallashgan ta'lim yo'llarida muammolari mavjud bo'lishi mumkin. Ba'zi ta'lim turlari o'quvchilarning o'zining o'zini samarali his qilishi, yaratish va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishi uchun yetarli individual mehnat va tahlil qilish imkonini bermaydi.

Ma'naviyati kuchli shaxsni tarbiyalashda bu muammolarning hal qilinishi uchun o'quvchilar bilan mustaqil guruh ishlari, g'oyaviy tushunchalar va maqbul mulohazalar olib borilishi, doimiy aloqada bo'lishning turli xil usullari, ma'naviy muhit yaratish va ma'naviy bilimlarni rivojlantirishga yo'naltirish kerak. Shuningdek, ma'naviyatli tarbiya uchun o'qituvchilarning tayyorligi, dars usullari va qo'llanadigan o'quv jihozlari muhim ahamiyatga ega [4].

Yuqoridagi muammolarga yechimlar quyidagicha bo'lishi mumkin.

Fanlarning integratsiyasi. Ta'lim turlarida fanlar o'rtasidagi aloqalarni oshirish va integratsiya qilish muhimdir. Fanlarning bog'liqligini ko'rib chiqish uchun qo'shimcha ko'rsatmalar, amaliy mashqlar va loyihalar yordamida o'quvchilar bilimlari o'rtasida bog'liqlik va insoniy munosabatlarni rivojlantirish mumkin. Bu o'quvchilarning boshqa fanlardagi bilimlarini amaliyotga o'tkazish, ularni bir-biridagi bo'shliqlarni to'ldirishiga imkon beradi.

Ma'naviy-tanqidiy ta'limni integratsiya qilish. Ma'naviy-tanqidiy mazmunlarni ta'limda integratsiya qilish uchun darslarni ko'p tomonlama, interaktiv va qiziqarli qilish muhimdir. O'quvchilarga ma'naviy masalalar, etik muammolar va insonparvarlik prinsiplariga oid mazmunlar o'qitilishi, o'quvchilar bilan muhokama va muzokaralar o'tkazilishi kerak. Bu o'quvchilarni o'z fikr-mulohazalarini ifoda qilish, tartib, adolat va odob-axloq prinsiplarni tushunishga o'rgatadi.

Adolat va tenglikni ta'minlash. O'quvchilarni adolat va tenglik prinsiplariga muvofiq tarbiyalash uchun, ta'lim jarayonida o'quvchilarning imkoniyatlarining tenglashtirilishi va huquqlarining himoya qilinishi kerak. Bu barcha o'quvchilarga adolatli imkoniyatlar va resurslar taqsimlanishini, qonunlarning qat'iyligi va insonparvarlik prinsiplariga asoslanganligini o'rganishini ta'minlaydi [2].

Individual tarzda o'quvchilarni qobiliyatini yaxshilash. Individual tarzda o'quvchilarni xususiyatlarini yaxshilash uchun, o'quvchilarning boshqa o'quvchilardan farqli bo'lgan xususiyatlari, qobiliyatlariga asoslangan ta'lim yo'llari va dasturlar kiritish kerak. O'quvchilarning individuallashtirilgan o'quv yo'llari va usullari orqali o'zlarining o'zini samarali ishlar qila olishini his qilishini, kreativ fikrlash va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishini ta'minlash imkonini beradi.

Bundan tashqari, o'qituvchilarning o'qitish metodi bilan ta'limning tarbiyaviy tomoni katta ahamiyatga ega. O'qituvchilar o'quvchilarni ma'naviy taraqqiyotga tarbiyalashda yaratuvchi, o'z fikr-mulohazalarini qo'llab-quvvatlovchi va o'quvchilarning mustaqil fikrlash va ijodiy faolliklarini rag'batlantiruvchi bo'lishlari kerak [7]. O'qitish metodlari esa o'quvchilarning g'oyalari qo'llab-quvvatlash, ularning amaliyotda ham faoliyat yuritishi va o'zining insoniy burch va vazifalarini o'rganishga yordam berish uchun qiziqarli va interaktiv bo'lishi muhimdir.

Xulosa qilish mumkinki, ma'naviyati kuchli shaxsni tarbiyalashda ta'lim turlaridagi muammolar o'quvchilarning ma'naviy va insoniy qobiliyatlarini rivojlantirish va ularga adolatli, huquqiy savodxon, etik, ijtimoiy qadriyatlarni asraydigan bo'lish imkonini berishi kerak. Bu uchun fanlar o'rtasidagi integratsiya, ma'naviy-tanqidiy mazmunlarni o'rganish, adolat va tenglikni ta'minlash, individual tarzda o'quvchilarning qobiliyatlarini yaxshilash va hukumat qarorlari muhimdir. O'quvchilarni ma'naviyatli shaxslar sifatida rivojlantirish uchun o'qituvchilar o'quvchilarning g'oyalari to'g'ri yo'naltira olishga o'rgatishi va yaratishga imkon beruvchi, o'zlarining fikr-mulohazalarini qo'llab-quvvatlovchi bo'lishlari

zarur. Bu jarayon o'quvchilarning ma'naviy yetuk, etik, adolatli, huquqiy bilimdon, insonparvar va boshqa qadriyatlarini rivojlantirishga yo'l ochib berishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "Maktab ta'limini rivojlantirish masalalari yuzasidan yig'ilishi"dagi nutqidan. <https://yuz.uz/uz/news/talim-tarbiya>.
2. Ta'lim to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi qonuni. 40 bet. 19-may 2020. <https://lex.uz/docs>.
3. R.Mavlyanova, N.Raxmankulova. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi. O'quv qo'llanma, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, T., "Voriz" nashriyoti, 2013, 240-bet.
4. M.Hamdanova. Ma'naviyat asoslari (Barkamol avlodni tarbiyalashda uzluksiz ta'limni insonparvarlash-tirish texnologiyasi). O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan, Toshkent, 2008, 224-bet.
5. O.Qirg'izova, M.Usmonova. Boshlang'ich sinflarda integratsiyalashgan ta'limning o'ziga xos xususiyatlari. "Ta'lim tizimida innovatsiya, integratsiya va yangi texnologiyalar". VI respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari, 93 – 96-betlar, Namangan davlat universiteti, "O'zbekiston", 2021.
6. Sh.Abduraimov. Ensuring the quality of training and employment of personnel. Higher and secondary vocational education as the basis for professional socialization of students: Materials of the 13th International Scientific and Practical Conference (Kazan, May 28, 2019), p. 194–98. Kazan State University of Architecture and Civil Engineering. Kazan.
7. J.Xolmatov. Ta'limda integratsiyalashgan kompetensiyani shakllantirish. JDPU, Pedagogik ta'lim xalqaro fanlar akademiyasi akademigi, texnika fanlari doktori, professor To'raqulov Xolbo'ta Abilovich xotirasiga bag'ishlangan "Ilmga baxshida hayot" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya, 225–229-betlar, 2023, 15-may.
8. J.Xolmatov. Ta'lim berish jarayonida raqamli integratsiyalashgan axborot texnologiyalarini qo'llashning ahamiyatliligi va nazariy jihatlari. Universitet 4.0: ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalar va zamonaviy tendensiyalar, 52 – 54-betlar. Xalqaro ilmiy va ilmiy-texnikaviy anjuman, 2023, 18 mart.
9. J.Xolmatov. Ta'lim turlariaro integratsiyaning mavjud holati va rivojlanish bosqichlari. "Tafakkur ziyosi" ilmiy-uslubiy jurnali, 2023, 1-son, 9 – 12-betlar.

Abdurahmonova Sharofat Bahromali qizi (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti; sharofatabdurahmonova@gmail.com)

ADABIYOT DARSLARINI KULTUROLOGIK TA'LIM ASOSIDA O'QITISH ILMIY MUAMMO SIFATIDA

Annotatsiya. Ushbu maqolada adabiy ta'lim jarayonida kulturologik yondashuv va undan foydalanish yo'riqlari borasida so'z boradi. Kulturologik ta'limning termin sifatida shakllanishi tarixiy aspectlarda ko'rib chiqiladi. Atamaning polisemantik jihatlari hamda ma'naviy yaqinlik tendensiyalari qator olimlar qarashlarida nazariy asoslab beriladi. Shuningdek, kulturologik yondashuvdan foydalanish afzalliklari va samarali ta'lim muhitini shakllantirishdagi ahamiyati amaliy misollar yordamida dalillanadi.

Аннотация. В данной статье рассматривается культурологический подход и рекомендации по его использованию в процессе литературного образования. Становление культурного образования как термина рассматривается в исторических аспектах. Многозначность термина и тенденции духовной близости имеют теоретическое обоснование во взглядах ряда ученых. Также с помощью практических примеров доказываются преимущества использования культурологического подхода и его важность в формировании эффективной образовательной среды.

Annotation. This article discusses the cultural approach and guidelines for its use in the process of literary education. The formation of cultural education as a term is considered in historical aspects. The polysemantic aspects of the term and the tendencies of spiritual closeness are theoretically justified in the views of a number of scientists. Also, the advantages of using a cultural approach and its importance in forming an effective educational environment are proven with the help of practical examples.

Kalit so'zlar: kulturologiya, ta'lim, tendensiya, atama, termin, polisemantik, tahlil, tadqiq, talqin, yondashuv, metod, uslub, aspekt, nazariya, ta'limot, madaniyatshunoslik.

Ключевые слова: культурология, образование, направление, термин, полисемантика, анализ, исследование, интерпретация, подход, метод, аспект, теория, преподавание, культурология.

Key words: culturalology, education, trend, term, polysemantic, analysis, research, interpretation, approach, method, aspect, theory, teaching, cultural studies.

Kirish. Jahon adabiyotiga oid yangi namunalarni samarali o'qitish, asarga xos belgili jihatlarni qiyosiy tahlil qila olish, qolaversa, asar mohiyatining tub negizi darajasida fahmlash va amaliyotga oqilona joriy qilish uchun, albatta, o'qituvchida ilgari o'rganilgan bilimlarga tayangan holda, jahon xalqlarining kulturologik asosiga doir bilimlar ham mavjud bo'lishi kerak. Chunki o'zga millatga mansub asarni o'z millatining nuqtayi nazaridan turib tahlil qilish hech qachon o'qirmanni to'g'ri xulosaga to'la-to'kis olib

bormaydi. Birlamchi bu asarni noto'kis talqin qilinishiga olib borsa, ikkilamchi, badiiy asarni o'zlashtirishidan ko'zlangan maqsad ro'yobi ham o'z-o'zidan mohiyatini yo'qotadi: "Badiiy matnning filologik tahlilidan asosiy maqsad muallif obrazini to'la idrok etib, unga yetishishdir. Ayni shu holat badiiy matnni tahlil qilishning asosiga qo'yilishi lozim" [1].

Badiiy matn jozibasini to'la his etish, estetik zavqini tuyish badiiy asarni o'rganishdagi eng asosiy maqsad, eng asosiy mantiq va asar mohiyati zamiriga borishdagi eng to'g'ri, yagona tutumdur. Shuni hisobga olgan holda, xalqlarga xos kulturologik tamoyillarni izchil o'rganib chiqish bugungi kunning dolzarb masalalari sirasiga kiradi. Bu yondashuv turli xalqlar adabiyotini chuqur anglashga qaratilgan ijtimoiy-madaniy bilimlar asosini tizimlashtirish ehtiyojini yuzaga chiqaradi. "Pedagogika fanlarini o'qitishda amalga oshirilayotgan sotsial-madaniy yondashuv pedagogik voqelikni jamiyatda ro'y berayotgan o'zgarishlarning inikosi, shu jamiyatning pedagogik madaniyatidagi yangi tendensiyalarning ko'rinishi sifatida ko'rsatish imkonini beradi. Shaxsning rivojlanishi har doim o'ziga xos tarixiy jarayondir, shuning uchun pedagogik faoliyatga tayyorgarlik ko'rishda jamiyat holatining xususiyatlarini va unga mos keladigan madaniyat turini o'rganish zarur bo'ladi" [2].

Asosiy qism. Sovet marksist faylasufi G.I.Oyzerman madaniyat atamasiga falsafa fani doirasida muhimligi jihatidan quyidagicha izoh beradi: "Agar biron-bir falsafa madaniyat hodisasini idrok eta olmasa va "madaniyat" atamasiga ta'rif bera olmasa, uning qadri yo'q, chunki falsafa dunyoqarashning ilmiy-nazariy, uslubiy o'zagidir" [3]. Madaniyat atamasining mohiyati "keng ma'noda bu so'z tabiatda o'zgaragan narsadan farqli o'laroq, inson tomonidan ishlab chiqilgan, g'amxo'rlik qilgan va yaratilgan narsani anglatadi. Buni insoniyat sivilizatsiyasi yutuqlari yig'indisi sifatida tushunish mumkin. Tor ma'noda esa badiiy ifoda shakllari "madaniyat" atamasi ortida birlashtiriladi" [4]. Madaniyatni inson tomonidan yaratilgan qadriyatlar majmuyi deb tushunish – bu so'zning ma'nosi ochiqroq namoyon bo'lishini ta'minlaydi, deb aytadi madaniyatshunos olim M.Abdullayev. "Madaniyat tushunchasida hayotning bilologik shakllaridan tashqari farqli o'laroq, inson faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari bir qatorda bu faoliyatning tarixiy taraqqiyotning muayyan bosqichlarida, ma'lum bir tarixiy davrdagi, milliy va etnik rivojlanishdagi sifatli o'ziga xoslik ham o'z ifodasini topadi" [5].

"Madaniyat hamma narsani qamrab oladi, u hayotning barcha jabhalariga ta'sir ko'rsatadi va uni san'at sohasi bilan cheklab bo'lmaydi. Madaniyat nafaqat teatr, kino, musiqa, xoreografiya yoki tasviriy san'atdir, balki madaniyat xalqlarning eng yaxshi an'analari, chuqur va mustahkam bilimlarida, jamiyat manfaatlarini uchun ijodiy va yuksak samarali mehnatda, chinakam insonparvar ijtimoiy munosabatlarda o'z aksini topgan qadriyatlardir" [6]. Rus madaniyatshunos olimi kulturologiyani bir-biriga zid bo'lgan qadriyatlar umumiylik sifatida kengroq yoritishga harakat qiladi: "Madaniyat aksiologik va tavsif usullarining birligi va qarama-qarshiligidir" [7]. Madaniyat atamasi keng ma'noda jamiyat va inson tarixiy taraqqiyotining muayyan bir darajasi, kishilar hayoti va faoliyatining turli ko'rinishlarida, shuningdek, ular yaratgan moddiy va ma'naviy boylıklarda ifodalanadi. Tor ma'noda esa kishilarning faqat ma'naviy hayoti sohasiga nisbatan ishlatiladi. Kulturologik ta'lim esa madaniyatning ana shu tor ma'nosi bilan shug'ullanadi. "Fan va jamiyat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda yuzaga kelgan chuqur o'zgarishlar ushbu muammoni, eng avvalo, insonparvarlik nuqtayi nazaridan, uning qadriyat ma'nolari nuqtayi nazaridan puxta o'rganishni taqozo etadi" [8].

Ko'rinib turibdiki, madaniyat tushunchasining asosiy mazmuni inson faoliyati bilan bog'liq tendensiyalarda o'z ifodasini topgan: "Madaniyat keng etnografik ma'noda o'zining butunligidan iborat bilim, e'tiqod, san'at, axloq, qonunlar, urf-odatlar va boshqalar insonning jamiyat a'zosi sifatida egallagan qobiliyatlari va odatlari yig'indisidir" [9] va bu tushuncha umumiy ma'noda "...ijtimoiy tuzilmani tashkil etuvchi ijtimoiy munosabatlarni saqlash va qayta ishlab chiqarish funksiyasiga ega bo'lgan shaxslararo munosabatlarning qadriyat, institutsional va ramziy elementlari" [10] sifatida tushunilgan. Shu bois madaniyat har doim "muayyan turmush tarzida mujassam bo'ladi va unda o'zini namoyon qiladi" [11].

Muhokama. Kulturologiya fanining alohida bir soha sifatida shakllanishi, dastavval, olimlar tomonidan bir qancha bahslarga sabab bo'lgan. Xususan, kulturolog olim M.Rozin ushbu bahsni yuzaga chiqargan omillarni quyidagicha tushuntiradi: "Kulturologiya, bizning fikrimizcha, insonparvarlik fanidir, shuning uchun bu keng qamrovli atama doirasida turli xil paradokslar mavjud bo'lishi, tabiiy. Yagona kulturologiya termini yo'q, u haqda ko'plab nazariyalar mavjud va bu bo'yicha ko'plab taniqli olimlar yetishib chiqqan: ularning har birining o'ziga xos madaniyatshunoslik yo'nalishi, o'ziga xos yondashuvi, o'ziga xos mavzusi bor" [12]. Yana qo'shimcha tarzda quyidagi nazariya bu tushunchaga yakdil xulosani berishga asos bo'ladi: "Umuman olganda, kulturologiya hali to'liq darajada yuzaga chiqmagan va u shakllanish bosqichida. Unda hali yetarlicha rivojlangan tushunchalar, toifalar va terminologik apparatlar mavjud emas" [13].

Badiiy asarlarni kulturologik tahlil qilish deganda uning millatga xos mentaliteti, madaniyati, turmush tarzi, makon va zamon nuqtayi nazaridan ijtimoiy muhiti va muallif ko‘zlagan holatidan turib tahlil qila olish va amaliyotga oqilona tatbiq qilish yo‘llarini ochishga ko‘mak beradigan amaliy tavsiyalar yo‘rig‘ini yaratish amaliyoti tushuniladi. Bunday vaziyatda adabiy ta‘limning quiy bosqichlarida ko‘p ham ma‘qullanmaydigan yagona subyekt faoliyati turidan foydalanish samarali bo‘ladi. Ya‘ni, bu ta‘lim turida o‘qituvchining faolligi birlamchi hisoblanadi, sababi, bola adabiy ta‘lim jarayonida jahon adabiyotiga oid asarlarni o‘zlashtirish chog‘ida asarning millatga xos kulturologik belgilariga bog‘liq bilimlar bilan boyitilmagan bo‘ladi va o‘z-o‘zidan badiiy asarni tahlil qilishda ixtiyoriy cheklanish yo‘lini tanlaydi. Bu kabi vaziyatlarda bolalarga talabchanlik qilib, ularni gapirtirishga majburlamagan ma‘qul. Zotan, ma‘naviy ozuqa manbaya bo‘lgan badiiy adabiyot jozibasini zo‘raklik bilan bolaga singdirib bo‘lmaydi. Bunday qilingan taqdirda, badiiy adabiyotning estetiklik funksiyasi yo‘qoladi, qolaversa, asarni o‘qitishdagi maqsad o‘z ahamiyatidan uzoqlashib ketadi. O‘rta ta‘limning “har bir yosh bosqichida bola ruhiyatida turlicha holatlar yetakchilik qiladi. Shulardan kelib chiqqan holda, adabiy ta‘limni yo‘lga qo‘yishda ham turli yoshdagi o‘quvchilarga turlicha yondashish lozimligi ko‘zda tutilishi kerak” [14].

Tahlil. Kulturologik tamoyil asosida badiiy asarni tahlil qilish yo‘llarini belgilashda umumiy xususiyatlarni aniqlab olish tahlil kechimining osonlashuviga asos bo‘ladi. Masalan, Antuan de Sent- Ekzyuperining “Kichkina shahzoda” asarida bolaning tasavvurlari uning o‘yida nima kechayotganini kattalarga uqdirish barobarida, asarda o‘sha millatning bolalari biografiyasi haqida tasavvur hosil qilish uchun yetarlicha ma‘lumotlar beriladi. Qolaversa, bolaning kattalarni senlab murojaat qilishida mentalitet jihati-dan bizga notabiiydek ko‘ringan ijtimoiy munosabati, aslida, ularning turmush tarzi uchun normal muloqot hodisasi sifatida yuritilishi hamda olmosh turkumining “sen” va “siz” so‘zlari bir nom ostida ifodalanishini bolalarga to‘g‘ri uqdirishda lozim bo‘ladi yoki Nodar Dumbadzening “Hellados” hikoyasi qahramonlari Yanguli va Jamol munosabatlarida ota va bola, musiqa ustози va Jamol, Jamolning xolasi bilan bog‘liq dialoglarida ijtimoiy munosabatlardagi farqli kultural belgilar ifodasini qiyosiy tahlil asosida farqlash mumkin bo‘ladi.

Xulosa. Kulturologik ta‘lim adabiy ta‘limning ajralmas qismi sifatida XX asrning boshlarida faol qo‘llana boshlandi. Madaniyatshunos olimlarning uning o‘rganilish obyektini belgilashda turlicha yondashuvlar borligini e‘tirof etadilar. Ammo bu tushunchaning mohiyati qay yo‘sinda tahlil qilinmasin, albat-ta, asosiy mazmun obyektida inson faoliyati bilan bog‘liq tendensiyalar o‘z ifodasini topgan bo‘ladi. Kulturologik ta‘lim asosida tahlil qilish orqali esa badiiy yaratilishning barcha jabhalardagi rangli chizgilari to‘laroq ochilishiga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Б.Бобылев. Теоретические основы филологического анализа художественного текста в националь-ном педвузе. Дисс. докт. пед. наук, Москва, 1991, с. 296.
2. D.Quronov. Badiiy asar tahlili. Tanqid va tahlil. <https://www.facebook.com/posts/badiiy-asar-tahlili-d-quronov-tahlil-va-talqin-tushunchalari/>
3. Ойзерман Г.И. Марксистская концепция и её буржуазные интерпретаторы. Философия культуры. М., “Знание”, 1985, с. 21.
4. Helles Köpfchen: Suchmaschine für Kinder – Kinderseiten, Spiele für Kinder. 2004. Sayt: <https://www.helles-koepfchen.de/>.
5. Abdullayev M., Umarov E., Ochildiyev A., Yo‘ldoshev A., Abdullayev A. Madaniyatshunoslik asoslari. Qo‘llanma, T., “Turon-Iqbol”, 2006, 16-bet.
6. Кан-Калик А.В., Хазан В.И. Психолого-педагогические основы преподавания литературы в школе. М., “Просвещение”, 1988.
7. Сарингулян К.С. Культура и регуляция деятельности. Ереван, изд-во АН АрмССР, 1986, с. 13.
8. Иззетова Э. Наука и гуманизм. Философско-методологические аспекты. Ташкентский государственный педагогический университет имени Низами. Методические пособие, Т., 2005, с. 5.
9. Тайлор Э.Б. Первобытная культура. Пер. с англ., М., Политиздат, 1989, с. 18.
10. Маркарян Э.С. Очерки теории культуры. Ереван, 1969, с. 12.
11. Каракеев Т.Д., Тологонов Р., Есенкулов Б. Образ жизни и проблемы духовных потребностей. Фрунзе, “Илим”, 1986, с. 4.
12. Розин В.М. Введение в культурологию. Учебник для высшей школы, М., издательский дом «Форум», 1988, с. 3.
13. Силичев Д.А. Культурология. Учебн. пособие для вузов, М., изд-во “ПРИОР”, 2001, с. 6.
14. Yo‘ldosh Q., Yo‘ldosh M. O‘zbek adabiyotini o‘qitish metodikasi. Filologiya va tillarni o‘qitish muta-xassisligi bo‘yicha bakalavr yo‘nalishi talabalari uchun darslik, T., 2022, 43-bet.

TIBBIYOT OLIY O‘QUV YURLARIDA SHAXSGA YO‘NALTIRILGAN TA‘LIMNI QO‘LLASH IMKONIYATLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada tibbiyot yo‘nalishida ta‘lim olayotgan, jumladan, oliy ma‘lumotli hamshiralalar yo‘nalishi, talabalarni o‘qitishda shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim mohiyati va imkoniyatlari ochib berilgan. Jumladan, shaxsga yo‘naltirilgan ta‘limni tibbiyot kadrlarni tayyorlash uchun qo‘llash imkoniyatlari hamda ijobiy tomonlari ochib berilgan.

Аннотация. В данной статье раскрываются сущность и возможности персонализированного обучения студентов медицинских специальностей, в том числе медицинских сестер высшего образования. В частности, раскрыты возможности и положительные стороны использования лично-ориентированного образования для подготовки медицинских кадров.

Annotation. This article reveals the essence and possibilities of personalized training in specialties, including the development of higher education nurses. In particular, there are opportunities and positive aspects of using student-centered education for personnel training.

Kalit so‘zlar: kadrlarni tayyorlash, ta‘lim, shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim.

Ключевые слова: подготовка кадров, образование, лично-ориентированное образование.

Key words: personnel training, education, student-centered education.

Kirish. Respublikamizdagi ta‘lim tizimini isloh qilishning asosiy yo‘nalishlaridan biri bu xorijiy tajribalar asosida yuqori samarali pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish hamda innovatsion jarayonlarni qo‘llab-quvvatlash orqali ta‘lim va kadrlar tayyorlash sifatini yuqori darajaga ko‘tarishdir.

Adabiyotlar tahlili. Respublikamizda ta‘lim tizimini muntazam isloh etish, ta‘lim sifatini oshirishga qaratilgan bo‘lib, bu borada bir qancha samarali ishlar olib borilmoqda. Jumladan, ta‘lim tizimida uzluksiz ta‘limning yo‘lga qo‘yilishi, shu jumladan, o‘rta tibbiy ta‘limdan so‘ng oliy ta‘lim muassasalarida o‘qitilayotgan oliy ma‘lumotli hamshiralarni tayyorlash fakultetlarida o‘qishlarini davom ettirishlari, mamlakatimizda ta‘lim sifatidagi tub o‘zgarishlar davriga kiradi.

Globalashuv va o‘zgarishlar davrida an‘anaviy ta‘lim tizimining samarasizligi bilimlarni o‘rgatishga asoslanganligi bilan ifodalanadi. An‘anaviy o‘qitish quyidagi xususiyatlari bor: o‘qitishning tushuntiruv usuli, ommaviy o‘qitish. An‘anaviy o‘qitishda avtoritarlik quyidagi shaklda namoyon bo‘ladi: ta‘lim oluvchi bu hali to‘la shakllanmagan shaxs, u faqat bajarishi zarur, pedagog esa – bu sardor hakam, yagona tashabbuskor shaxs.¹

Professional ta‘limda esa bilimlarni nafaqat o‘rgatish, balki olingan bilimlarni tahlil qilib, ulardan to‘g‘ri foydalanish zaruriyatini taqozo qilmoqda. Bu borada kelajakdagi tibbiy xodimlarida klinik tajribani shakllantirish o‘zlarini yangilashga, kasbiy darajasiga tanqidiy ravishda qaray oladigan va muammoli yechimlarni topish imkonini yaratish lozimdir. Hozirgi kunda tizimli fikrlash vaqt talabiga aylandi va taklif qilingan yondashuvlar qoida tariqasida, ta‘lim tizimining turli bo‘limlariga taqdim etiladi. O‘quv jarayonida olingan materialni tizimlashtirishga, didaktik birliklar o‘rtasidagi tizimni shakllantiruvchi munosabatlar ham nazariy, ham klinik fanlarni o‘rganishda yetarlicha e‘tibor yo‘q. Talabalarning bilim olishidagi zaif yo‘nalishi bu mavjud turli fanlar bilan bog‘liq tushunchalar va ularning orasidagi munosabatlarda noaniqliklarning borligidadir.

Tibbiyot o‘quv yurtlarida tibbiyot xodimi kasbini o‘zlashtirish talaba uchun asosiy nazariy fanlarni o‘rganish bilan ko‘p sonli tushunchalar, atamalarni bilish va yodlash bilan boshlanadi. Olingan bilimlar uzluksiz ravishda yangilanib boriladi va talaba klinik bo‘limlarda amaliyot bilan bog‘liq bo‘lgan vaziyatli vazifalarni yechimini topishga harakat qiladi. Fikrlash bilan bog‘lanish g‘oyasining asosiy xususiyatlaridan biri bo‘lgan o‘zlashtiriladigan bilim faoliyatga asoslangan o‘qitish nazariyasi psixologik va pedagogik xususiyatlarni belgilaydi, kasbiy fikrlashni shakllantirish shartlari esa o‘quv materialini o‘zlashtirishning ma‘lum bir usulini tashkil etish² (muayyan faoliyat – kognitiv, tadqiqot va boshqalar)dan iboratdir. Buning uchun mustaqil fikrlaydigan tibbiy xodimlarni tayyorlashda yangi yondashuvlarni izlash va qo‘llash dolzarb masalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Tibbiyot yurtlari faoliyatning maqsadi shunday yondashuvlarni o‘quv jarayoniga joriy etishdir. Talabalar shakllanishiga imkon beradigan tizimli yondashuv o‘z ichiga o‘quv adabiyotlari bilan ishlash qo-

¹ Материалы 11-ой международной научно-практической конференции. Документ. <https://refdb.ru/look/1723115-pall.html>

² <https://pandia.ru/text/78/238/7936-2.php>

biliyati, tahlil qilish, o'zlashtiriladigan materialda orientatsiya sxemalarini ko'rish, olingan bilim va ma'lumotlarni sintezlash va kasbiy muammolarni hal qilish jarayonidagi amaliy faoliyatni o'z ichiga olishi lozimdir. Bugungi kunda shunday yondashuvlardan biri bu shaxsga yo'naltirilgan ta'limdir. Shaxsga yo'naltirilgan ta'limning asosiy yo'nalishi bu talabaning fikrlash va harakat strategiyasini inobatga olgan holda, uning shaxsi va qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'limdir.

Shaxsga yunaltirilgan ta'limning imkoniyatlari va samaradorligi to'g'risida Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlaridan S.Bagayeva, A.Baxmutskiy, I.Belevseva, E.V.Bondarevskaya, I.Galmukova, S.V.Kulnevich, A.Makarov, A.Mayorov, S.Xoxlova, F.T.Fomenko, I.S.Yakimanskaya hamda xorij mamlakatlari olimlaridan S.Anderson, B.Blum, N.Gronlud, L.Hoffmann, L.Kronbach, R.Linn, R.Stigtins, H. Yulek va boshqalar o'z fikrini bildirgan.

Shu bilan bir qatorda, B.R.Adizov, B.Ma'murov, S.Nishanova, R.F.Safarova, E.A.Seytxalilov, K. Hoshimov, F.R.Yuzlikayev, E.Yuzlikayeva va boshqalartomonidan shaxsga yunaltirilgan ta'limni rivojlantirishni tashkil etish monitoringini amalga oshirish yuzasidan tadqiqot ishlari olib borilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Bu turdagi ta'lim talabalarda mustaqillik, tashabbuskorlik javobgarlik kabi sifatlar, shuningdek, mustaqil, ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini tarbiyalashga xizmat qiladi. Bu turdagi ta'limni tashkil etishda pedagoglardan har bir talaba, imkon qadar, individual yondashishni, uning shaxsini hurmat qilishni, unga ishonch bildirish taqozo etiladi¹ hamda o'zaro hamkorlikda bilim olish uchun qulay pedagogik sharoitni yaratish zaruriyatini ifodalaydi. Shu bilan bir qatorda, O'zbekiston sharoitida o'rta ma'lumotli hamshiralarni tayyorlash mezonlari tahlil qilindi va oliy ta'lim sifatini yaxshilash bo'yicha turli yondashuvlar o'rganildi.

Tahlillar va natijalar. Zamonaviy sharoitda talabalarning o'qitish sifatini oshirish maqsadida innovatsion ta'lim shakllaridan foydalanish katta ahamiyat kasb etmoqda. Shunday ta'limlardan biri bo'lgan shaxsga yo'naltirilgan ta'lim talabaning iqtidorini ochib berishda muhim ahamiyatga kasb etmoqda. An'anaviy pedagogik texnologiyalardan farqli o'laroq, shaxs yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasining markazida har xil vaziyatlarda qarorlarni mustaqil, nostandart fikrlash fazilatlariga ega talaba shaxsi turadi.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim quyidagi xususiyatlarga ega:

- talabalarning mustaqilligini ta'minlaydi;
- talabalarning mavjud bilim hamda salohiyatlariga, tajribalariga ishonch bildiradi;
- talabalarning ijtimoiy xususiyatlari va turmush tarzini hisobga olgan holda o'zligini namoyon qilish imkoniyatlarini yaratadi va rag'batlantiradi;
- talabalarning ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini hisobga olgan holda, o'quv ko'nikmalarini maqsadli shakllantirish imkonini yaratadi.²

O'tkazilgan izlanishlar natijalari asosida shaxsga, jumladan, bemorga yo'naltirilgan tibbiy ta'lim – bemorni o'quv jarayonining markaziga qo'yadigan va talabalarni ta'limning barcha jabhalarida bemorni hisobga olishni talab qiladigan tibbiy ta'limga sifatida yoritishga harakat qildik. O'quv rejasiga kiritilgan mavzular bemorlarga eng zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va munosabatlarni, jumladan, shifokor va bemor muloqoti kabi sohalarni, axloq va kasbiy xulq-atvor va bemor xavfsizligini o'z ichiga olgan.

Bemorga yo'naltirilgan tibbiy ta'limni rag'batlantiradigan usullar sifatida muammoga asoslangan ta'limni yoki ularni davolash bilan bog'liq shaxsiy yoki ijtimoiy muammolarni aniq o'z ichiga olgan boshqa holatlarga asoslangan o'rganish strategiyalarini o'z ichiga olgan yondashuvlarga tayandik.

Hozirgi xalqaro ta'lim talablari oliy tibbiy ta'lim sohasidagi mutaxassislar maqsad-malakali, malakali kadrlar tayyorlashni ta'minlash, psixologik va ijtimoiy vakolatli shifokorlar va hamshiralarni tayyorlashga qaratilishi lozim.

Demak, kompetensiyaga asoslangan yondashuv – bu yondashuv, ta'lim natijasiga va sifatiga e'tibor qaratish, natija o'rganilgan ma'lumotlarning yig'indisi sifatida emas, balki o'rganish natijasida ko'rib chiqadi. Sog'liqni saqlash mutaxassisining turli xil sharoitlarda harakat qilish qobiliyati, muammoli vaziyatlar, uning vakolatlari va vazifalarni bajarishga tayyorligi hayot va professional funksiyalarning to'liq doirasi va erkin gumanistik yo'naltirilgan tanlovni amalga oshirish imkonini yaratadi.

Shularni inobatga olib, talabalarning mustaqil ishlariga qo'yiladigan zamonaviy g'oyalar, mustaqil ish shakllari, turlari va turlarining o'ziga xos mazmunida mujassamlangan o'quv va kognitiv vazifalarning xususiyatlari bilan belgilanadigan o'ziga xos pedagogik qurilish sifatida ko'rib chiqishga imkon beradi. Mustaqil ishni bilimlarni oqilona o'zlashtirish va chuqurlashtirish, asosiy kompetensiyalarni rivojlantirish va talabalarni faollashtirish vositasi sifatida ham talqin qilish mumkin.

¹ Д.Файзуллаева (2016). Инновацион таълим технологиялари ва педагогик компетентлик. Тошкент, <https://staff.tiame.uz/storage/users/421/books/sUI7T3JLAYTFOGum2gLIR8MNoVal1hTKdOIwY6Sp.pdf>

² http://www.medpressa.kuzdrav.ru/files/MKSP/MKSP2005_6.pdf#3

Yangi ta'lim standartlarida majburiy deb e'lon qilingan va ma'lum miqdordagi o'quv yuki bilan ta'minlangan talabalarning mustaqil ishi bugungi kunda pedagogik yordam va uslubiy yordamga muhtoj. Shu munosabat bilan, talabalarning ushbu ish turi o'qituvchining tashkiliy roli bilan bog'liq bo'lishi kerak, bu talabaning mustaqil faoliyati jarayonini doimiy monitoringini nazarda tutadi. To'g'ri tashkil etilgan mustaqil ish, albatta, ortib borayotgan murakkablik va mehnat zichligi bilan birga keladi, bu uning rivojlanayotgan tabiatini ta'minlaydi.

Talabalar uchun mustaqil ishni qanchalik zarurligi va samaradorligini aniqlash uchun hamda shaxs-ga yo'naltirilgan o'qitish tizimini turli jabhalarini rivojlantirish uchun biz talabalar o'rtasida so'rovnomaga o'tkazdik.

Oliy ma'lumotli hamshiralalar fakultetida ta'lim olayotgan talabalar o'rtasida o'tkazilgan so'rov natijalariga ko'ra, mustaqil ish shakllarini tanlashda quyidagi imtiyozlar iyerarxiyasi aniqlandi: vizual materiallar bilan ishlash – 72,9%, ishlab chiqarish amaliyoti –60,2%, bemorlar bilan bevosita muloqot –49,5%.

Talabalar konsepsiyasida mustaqil ish uch xil bo'lishi mumkin: o'qituvchining ishtirokisiz bajariladi, lekin uning vazifasiga ko'ra, 40%, mustaqil ravishda o'qituvchi nazorati ostida – 31% yoki o'qituvchining maslahatisiz mustaqil ta'lim faoliyati shakli sifatida – 29%.

Talabalarning fikriga ko'ra, taklif etilayotgan tadbirlarning har biri maqbuldir, ammo ularning aksariyati (66,4%) o'zlariga aniq yuklangan vazifalarni mustaqil ravishda bajarishni xohlashadi. Talabalar-ning samarali mustaqil ishi eng muhim rag'batlantiruvchi omillardan biri sifatida o'qituvchi nazoratini talab qiladi – bu respondentlarning 38% fikri.

Ma'ruzalar, seminarlar va amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishning tasdiqlangan usullarida amalga oshiriladigan muvaffaqiyatli ta'lim faoliyatini tashkil etishga o'rnatilgan an'anaviy yondashuv hamshiralarni tayyorlash darajasiga qo'yiladigan talablarga javob beradi. Biroq ba'zi talabalar (24%) samarali mustaqil ishlarni tashkil etishni o'quv jarayoni sifatini oshirish uchun muhim zaxira deb bilishadi.

Respondentlarning aksariyati (54%) fikriga ko'ra, o'qitish shakllari va usullarini takomillashtirish, zamonaviy axborot texnologiyalaridan kengroq foydalanish kerak – 31%.

Mustaqil ishlarni muvaffaqiyatli tashkil etish uchun talabalarning 88,2% o'quv va uslubiy materiallar bilan yetarli darajada ta'minlanganligiga to'xtalib o'tdi. Mustaqil ishlarni bajarishda talabalar ma'ruza materiallari – 69,5%, tavsiya etilgan darsliklar – 72% va o'qituvchilarning uslubiy ishlanmalari – 47,8% kabi an'anaviy bilim manbalaridan foydalanishni afzal ko'rishadi.

Talabalarning fikriga ko'ra, mustaqil ish samaradorligini oshirish uchun quyidagilar zarur:

–o'z-o'zini tarbiyalash faoliyatini – 64,2%;

–mustaqil ish uchun qo'shimcha ajratish va unga amal qilishni oshirish – 40,1%;

–o'z-o'zini o'qitish jarayonida undan samarali foydalana olish – 41,8%.

Shuni ta'kidlash kerakki, so'rovnomada ishtirok etgan talabalarning aksariyati (88,7%) mustaqil ish uchun ajratilgan vaqtdan oqilona foydalangan holda, o'z bilimlarini doimiy ravishda oshirishni xohlashadi.

Mustaqil ishdagi qiyinchiliklarni engish uchun talabalar o'zlarining sa'y-harakatlari va qat'iyatlili-giga 70% va o'qituvchilarning yordamiga 51% katta ahamiyat berishadi. Mustaqil ish natijasida tibbiy xodim kasbiy muhim fazilatlarini shakllantirish mumkinligiga 83% talabalar ishonadi, shuningdek, ularning keyingi ilmiy va amaliy faoliyati sohasini maqsadli ravishda aniqlaydi.

So'rov natijalari talabalarning mustaqil ishlarini o'tkazish va oqilona rejalashtirishning samarali shakllari va usullarini ishlab chiqishda muhim asosni tashkil etish mumkin.

Agar biz talabalarning mustaqil ishlarini kengroq ko'rib chiqsak, ta'limning didaktik shakli sifati-da, talabalarning o'quv faoliyatini o'z-o'zini boshqarishni ta'minlaydigan keng pedagogik sharoitlarni tashkil etish tizimini yarata olamiz.

Sog'liqni saqlashni rivojlantirishning zamonaviy konsepsiyasida "Hamshiralik ishi" mutaxassisligi bo'yicha oliy ma'lumotli hamshiralalar tayyorlash tobora dolzarb bo'lib bormoqda. Oliy hamshiralik ishi fakulteti mutaxassis hamshiralarni tayyorlash bilan birgalikda, har qanday darajadagi hamshiralik xizmatiga rahbarlik qila oladigan mutaxassislarni tayyorlashning asosiy vazifasiga ega, shuningdek, tibbiyot texnikumlari va kollejlarda mustaqil ravishda o'quv ishlarini olib boradigan mutaxassislarni tayyorlash muhim vazifalaridan birdir. Bu uning bitiruvchilariga chuqur klinik tayyorgarlikdan o'tishni ta'minlash lozimligini bildiradi.

Asosiy klinik fanlar bo'yicha oliy ma'lumotli hamshira diplomiga ega bo'lgan hamshiralalar uchun amaldagi namunaviy o'quv dasturlarining tahlili shuni ko'rsatadiki, ular o'rta maxsus ma'lumotli hamshiralalar uchun o'quv dasturlarining mazmunini ko'p jihatdan takrorlaydi va faqat asosiy kasalliklar va jarohatlarni tashxislash va davolashda sindromli yondashuv bilan cheklanadi. Yuqoridagilar bilan bog'liq holda, biz Farg'ona, Andijon va Toshkent shahar tibbiyot oliy hamshiralik ishi fakultetlari o'qituvchilari

xodimlarining uzoq yillik tajribasi asosida o'qitish mazmunining yangi konsepsiyasini va oliy hamshiralik ishi ta'limiga ega hamshiralarni klinik tayyorlash uchun o'quv dasturini ishlab chiqishni maqsadga muvofiq deb topdik.

Nozologik yondashuv asosida klinik fanlarni o'qitishning taklif etilayotgan konsepsiyasi kelajakdagi hamshiralik bakalavrlariga bemorni to'g'ridan to'g'ri tekshirishning barcha usullarini va klinik fikrlashning dastlabki ko'nikmalarini to'liqroq o'zlashtirishga, qo'shimcha tadqiqotlar natijalarini malakali baholashga va etiologiya, patogenez, klinikasini bilish bilan birgalikda, bemorlarga hamshiralik jarayoni asosida bemorlarga hamshiralik tashxisini qo'ya olishni va yangi innovatsion yondashuvlar asosida parvarishlash ishlarini olib borishlari uchun imkon beradi.

Mavjud oliy tibbiy ta'lim tizimining muammolaridan biri shundaki, ushbu tizimda hanuzgacha axborot paradigmasi ustunlik qilmoqda, uning vazifalari, asosan, talabalarga ma'lumot va bilimlarni oddiy uzatishni o'z ichiga oladi. Ta'lim tizimining asosiy maqsadlaridan biri, ko'pincha, jamiyat uchun zarur bo'lgan ishlab chiqarish jarayonining malakali ishtirokchisini tayyorlashdir. Shaxsning boshqa barcha potensial qobiliyatlari, shu jumladan, ijodiy qobiliyatlari talab qilinmaydi. Natijada etarli darajada rivojlanmagan ijodiy fikrlashga ega bo'lgan bitiruvchi, keyinchalik, doimiy ravishda murakkablashib borayotgan ma'lumotlarni idrok etishda, nostandart vaziyatlarda qaror qabul qilishda qiyinchiliklarga duch keladi va odatdagidan bir oz farq qiladigan tushunchalar va hodisalar o'rtasidagi bog'liqlikni anglay olmaydi. Shuning uchun ta'lim muassasalariga ma'lumotni o'zlashtirishga asoslangan o'quvchilarning ijodiy va standart bo'lmagan tafakkurini rivojlantirish murakkab va dolzarb vazifalardan biri bo'lib kelmoqda.

Ijodkorlikni shaxsiy va nafaqat xulq-atvor mulki sifatida shakllantirish uchun maxsus tashkil etilgan ta'lim muhiti talab qilinadi. Ijodkorlikni rivojlantirishning "mahalliy" usullari (masalan, nostandart vazifalarni hal qilish), albatta, foydali, ammo ularni qo'llash natijasida talabalar shunchaki hal qilishning yangi usullarini yodlaydilar va keyinchalik o'rganilgan harakatlarni takrorlaydilar. Shuning uchun ijodkorlikni shaxsiy mulk sifatida shakllantirish talabalarga ko'p qirrali tizimli ta'sir ko'rsatadigan maxsus muhitni talab qiladi. Nihoyat, talabalarni baholash va o'quv dasturini baholash o'quv dasturi asosida bemorga yo'naltirilgan o'quv maqsadlari bilan bog'liq natijalarni muntazam ravishda ko'rib chiqib quyidagilarni taklif qildik.

Muammoli o'rganish. Muammoga asoslangan ta'lim o'zida mujassam etgan asosiy yo'nalishlarni bir shaklidir. Bu usuldan ta'lim uchun boshlang'ich nuqta sifatida foydalanish mumkin, ya'ni:

1. Kichik guruhlarda hamkorlik qilish.
2. Moslashuvchan repetitor rahbarligi.
3. Ma'ruzalar sonining cheklanganligi.
4. Ta'lim talabaning tashabbusi bilan boshlanishi kerak.
5. Mustaqil o'qish uchun yetarli vaqt.

Bu yo'nalishlar imkoniyatni ta'minlash uchun bemorlar sog'lig'iga ta'sir qiladigan biologik, klinik, demografik va xulq-atvor muammolari haqida talabalarga g'amxo'rlik qiladigan jozibali hikoya va personajlarni yaratishdan iboratdim, ya'ni dars jarayoni dialog sifatida modellashtiradi.

Bemorga qaratilgan panellar va taqdimotlar. Bu yo'nalishda o'qitish jarayoni kichik guruhlarda olib boriladi. Amaliy mashg'ulotlarga nisbatan ma'ruzalarga kamroq vaqt ajratiladi va ma'ruza vaqtining bir qismi bemorga yo'naltirilganlik tushunchasini mustahkamlash uchun ishlatiladi.

Erta klinik tajriba. Klinik ta'lim tajriba o'quv dasturining boshidan boshlanadi. Bemorlar bilan muloqot talabalarga shifokor sifatidagi vazifalari va darsda o'rganilayotgan material o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rishga yordam beradi. Talabalar tibbiyot maktabining birinchi yilining boshida kasalxonaga yotqizilgan va ambulatoriyaga yotqizilgan bemorlar bilan muloqatda bo'lishadi.

Standartlashtirilgan bemorlar. Bunda ko'p sonli bemor simulatsiyasi taqdim etiladi. Standartlashtirilgan bemorlar shaxsiy, yuzma-yuz muloqot qilish uchun ishlatiladi va har bir talabaning o'z bemorlarining madaniyati va e'tiqodlarini hurmat qilish qobiliyati baholanadi.

Manekenlar asosida modellashtirish. Maneken asosidagi modellashtirish tibbiyot maktabining dastlabki ikki oyida boshlanadi va deyarli barcha talab qilinadigan kurslar va amaliyotlarda sodir bo'ladi. Manekenlar real vaqt rejimida tibbiyot talabalarining savollariga javob berishi va turli jismoniy xususiyatlarni taqlid qilishi mumkin, bu esa talabalarga o'rganganlarini bemorning muayyan ssenariylarida qo'llash imkonini beradi. Ham standart bemorlar, ham maneken simulatsiyalari o'quv dasturiga birlashtirilsa, ta'lim olish jarayoni "jonlanadi".

Xulosa. Olib borilgan izlanishlarga asosan, quyidagi xulosaga keldik. Shaxsiga yo'naltirilgan ta'lim talaba shaxsidagi mustaqillik, tashabbuskorlik, javobgarlikni his etish, tanqidiy fikrlash kabi sifatlarini tarbiyalaydi. Bu esa, o'z navbatida, ta'lim sifati va samaradorligini oshiradi.

Saloxitdinova Navro'za Murodulla qizi (Termiz Iqtisodiyot va servis universiteti "Ijtimoiy-gumanitar fanlar" kafedrası katta o'qituvchisi, dots.v.b. p.f.f.d. (PhD); e-mail: saloxitdinovanavruza@gmail.com)
BOSHLANG'ICH TA'LIMDA TEXNOLOGIYA VA TABIIY FANLARNING O'ZARO FANLARARO BOG'LIQLIGI

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich ta'limda texnologiya va tabiiy fanlarning o'zaro fanlararo bog'liqligi ifoda etilgan. Ya'ni, texnologiya va tabiiy fanlar o'zaro qay tartibda bir-biri bilan integrativ jarayonga kirishishi haqida bayon etilgan. Tabiiyki, ishlab chiqarishda texnika va texnologiya sohasiga oid bo'lgan turli xil muammolar ko'plab uchrab turadi va ularni bartaraf etmasdan turib, ishlab chiqarishning samaradorligini oshirib bo'lmaydi. Bu jarayon esa, albatta, tabiiy fanlar bog'liqligini namoyon etadi.

Аннотация. В данной статье описывается междисциплинарная связь между технологией и естественными науками в начальном образовании. Комментируется процесс интеграции техники и естествознания. Естественно, что технических и технологических проблем в производстве много, и без их устранения невозможно повысить эффективность производства. Этот процесс, безусловно, показывает связь естественных наук.

Annotation. This article describes the interdisciplinary relationship between technology and natural sciences in primary education. That is, it explains how technology and natural science enter into an integrative process with each other. Naturally, there are many technical and technological problems in production, and without their elimination, it is impossible to increase production efficiency. This process certainly shows the connection of the natural sciences.

Kalit so'zlar: texnologiya, tabiiy fanlar, integratsiya, texnika, fanlararo bog'liqlik.

Ключевые слова: технология, естественные науки, интеграция, техника, междисциплинарность.

Key words: technology, natural sciences, integration, technology, interdisciplinarity.

Kirish. Ma'lumki, yoshlarni o'qitish, ularga ta'lim-tarbiya berish, kelajak uchun munosib kadrlar qilib tarbiyalash hamma vaqt ham har bir davlatning eng birinchi navbatdagi ishlaridan biri bo'lib kelgan. Shuningdek, bizning mamlakatimizda ham bunday ishlar davlatimiz rahbarlarining doimiy ravishda diqqat markazida turibdi, desak, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz.

Respublikamiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning bevosita tashabbusi va rahbarligida qabul qilingan hamda izchil ravishda amalga oshirilayotgan O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalish bo'yicha Harakatlar strategiyasi respublikamizda rivojlanish taraqqiyotning yangi bosqichini boshlab berdi. Bu jarayonning amaliy natijalari bugungi kunda hayotimizning barcha sohalarida, eng muhimi, xalqimizning ong-u tafakkuri, intilish va harakatlarida yaqqol namoyon bo'lmoqda [1.488].

Harakatlar strategiyasining to'rtinchi – Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lgan ta'lim tizimini takomillashtirish masalasiga ham alohida e'tibor qaratilgan. Davlatimiz rahbari har bir viloyatga tashrifi doirasida o'tkazilgan yig'ilishlarda, turli uchrashuvlarda so'zlagan ma'ruzalari va suhbatlarida barkamol avlodni tarbiyalash, yoshlarni sog'lom turmush tarziga amal qilib yashash masalalariga kun tartibidagi dolzarb masala sifatida qarash zarurligini ta'kidlab kelmoqda.

Mamlakatimizda, ma'lumki, "Ta'lim to'g'risida" va milliy o'quv dasturlarining mohiyatida jahon andozalari talablariga javob bera oladigan yuksak malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash vazifalari qo'yilgan. Jumladan, hozirda ta'limning asosiy maqsadi – ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to'la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi malakali kadrlar tayyorlashning milliy tizimini yaratishdan iboratdir.

Ta'lim-tarbiya sohasidagi islohotlar bosqichma-bosqich amalga oshirib borilayotgan hozirgi davrda ta'lim sifati talablaridan kelib chiqqan holda, ta'lim samaradorligini oshirish borasida mavjud bo'lgan xulosalar va tavsiyalarni amalda qo'llashga ehtiyoj tug'ilmoqda. Xususan, bugungi kadrlarni yetishtirishda bozor iqtisodiyotiga o'tish davriga moslasha oladigan, raqobatdosh, faol shaxslarni, ya'ni mutaxassislarni shakllantirishdan iboratdir. Bu masala boshqa fanlar qatori "Texnologiya" fanini o'qitishda ham asosiy vazifa hisoblanadi. Bu vazifa mazmuni esa, fikrimizcha, "Tabiiy fanlar" bilan o'zaro aloqadorlikda yanada oydinlashadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Sharqning buyuk mutafakkirlari, allomalari o'zlarining ilmiy-tarbiyaviy asarlarida, she'r va g'azallarida, adabiy meroslarida halol, yaratuvchan, ijodiy mehnatni, kasbhunar egallashning muqaddasligi va zarurligini ta'kidlagan va ulug'lagan edilar. Jumladan, Ahmad al-Farg'oniy, Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy, Mahmud Koshg'ariy, Mahmud Zamaxshariy, Shayx Najmiddin

Kubro, Burxoniddin Marg'inoniy, Mahmud Chag'iniy, Bahouddin Naqshbandiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug'bek va boshqa ko'plab allomalar o'z asarlarida ijodiy ishni, yaratuvchan mehnatni, kasb-hunarni o'z asarlarida ifoda qilganlar [11.156].

Yangi qurilmalarga oid ixtirolar yaratish borasida, ayniqsa, Ahmad al-Farg'oni (IX asr), Abu Rayhon Beruniy (IX–X asrlar) hamda Mahmud Chag'iniylar (XII–XIII asrlar) ijodini alohida ta'kidlab o'tish joizdir. Al-Farg'oniyning bu sohadagi yirik asarlaridan biri astronomik kuzatish asbobi – asturlob yasashga bag'ishlangan “Kitob fi sa'ha al-asturlob” (Asturlob yasash haqida kitob) asari bo'lib, alloma unda stereografik proyeksiyalash, astrolyabiya yasash uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar jadvallari, shimoliy va janubiy asrolyabiyani yasash bo'yicha o'z tavsiyalari misolida yangi texnik yechimlarni ishlab chiqishga oid g'oyalarini bayon qilgan.

XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab, Markaziy Osiyo hududida paydo bo'lgan yangi ma'rifat-parvarlik oqimining M.Behbudiy, A.Fitrat, H.H.Niyoziy kabi namoyandalari o'zlarining yangi usuldagi maktablarida ilk bor yoshlar ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning evristik usullarini tatbiq qildilar. Jumladan, Fitrat aqliy tarbiya o'qish-o'rganish orqali amalga oshirilishini ta'kidlaydi va bunda tabiatan in'om etilgan fikriy va ilm vositasida hosil bo'luvchi kasbiy (komil) aqlni ajratib ko'rsatadi.

Ko'pgina ilmiy tadqiqot ishlarida bu masalalar atroflicha o'rganilgan. Vatanimiz pedagog olimlari A.I.Vorobyev, K.Davlatov, R.Mavlonova, P.T.Magzumov, K.Mirsaidov, N.Muslimov, U.N. Nishonaliyev, M.O.Ochilov, J.Ramizov, N.S.Sayidahmedov, O'.Tolipov, Sh.S.Sharipov, O.Eshonov, A.R.Xodjaboyev, E.T.Choriyev, N.Shodiyev, O.Qo'ysinov, O.H.Hayitov va boshqalar tomonidan yoshlarni kasbga yo'naltirish, o'qituvchi kadrlar tayyorlash, bo'lajak o'qituvchilarni amaliy-pedagogik faoliyatning turli sohalari, jumladan, talabalar va o'quvchilar ijodiy faoliyatini samarali boshqarish muammolari yoritib berilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqola uchun o'qitishning samarali metodlari (muammoli, mantiqiy, og'zaki bayon etish, kuzatish, tajriba o'tkazish) asosida boshlang'ich ta'limda aniq va tabiiy fanlar integratsiyasi mazmuni tadqiq qilingan.

Tahlil va natijalar. Ma'lumki, qadimdan ota-bobolarimiz o'z farzandlarining ta'lim-tarbiya olishi, hunar o'rganishiga alohida e'tibor qaratganlar. Binobarin, har bir ota-onaning o'z farzandlari oldida burchlari bor, jumladan, yaxshi nom qo'yish, xat-savod o'rgatish, kasb-hunarli qilish, boshini ikki va uyli-joyli qilish. Qadimdan ota-bobolarimiz bu naqlga amal qilib kelishgan. Ular hech, bo'lmaganda, o'zlarining hunarlarini avlodlariga meros qilib qoldirishgan. Ana shu tufayli bizning milliy an'analarimiz, urf-odatlarimiz, qadriyatlarimiz, milliy hunarmandchiligimiz asrlar osha rivojlanib, sayqal topib kelmoqda.

Respublikamiz davlat mustaqilligiga erishgan davrdan boshlab, o'zbek o'g'il-qizlarini zamonaviy o'quv muassasalarida, zamonaviy texnika vositalaridan foydalangan holda, malakali mutaxassislar qo'lida ta'lim-tarbiya topishlari uchun ta'lim tizimida tubdan islohotlar olib borilmoqda.

Ta'limni isloh qilishdan maqsad nima? Asosiy maqsad shundaki, biz O'zbekiston atalmish kelajagi buyuk davlat qurmoqchimiz. Mamlakatimiz kelajagi bugungi kundagi avlodlar qo'lidadir. Biz O'zbekistonning buyuk kelajagini yuksak ma'naviyatli, jismonan sog'lom, malakali va ijodkor shaxslar qo'lida bo'lishini istaymiz. Bunday fazilatlariga ega bo'lgan shaxslarni kamol toptirish uchun esa ta'lim-tarbiya tizimiga diqqatimizni qaratmog'imiz lozim. Mana shu maqsadda isloh etilayotgan barcha qonunlar, qonun osti hujjatlari, albatta, o'zaro uyg'unlikda va izchillik bilan hayotga tatbiq etib kelinmoqda. Ta'lim muassasalari turlariga mos holda davlat ta'lim standartlari va bu standartlar asosida o'quv dasturlari ishlab chiqildi. Ta'lim berishning davlat va nodavlat tashkilotlari tuzildi, o'quv adabiyotlari yaratib kelinmoqda. Bularning barchasi kelajak avlodlarimiz uchundir [2.52].

Bugungi kunda O'zbekiston jahon miqyosida keng quloq yozib, rivojlanib bormoqda. O'zbekistonni yanada rivojlanishi va taraqqiy etishi uchun biz malakali kadrlarni tarbiyalamog'imiz zarur. Malakali kadrlar esa bular o'qimishli, uddaburon, ijodkor shaxslardir. Bunday shaxslarni kamol toptirish mamlakatni va jamiyatni taraqqiy ettirish garovidir. Aks holda, ular bir nuqtada qotib qoladi. Chunki ijod bor joyda o'sish ham, rivojlanish ham, raqobat ham bo'ladi [8. 221].

Xo'sh, ijodkor shaxsni tarbiyalash nimaga bog'liq? Albatta, bu masala pedagoglarga borib taqaladi, chunki izlanuvchan, bilimli, o'z kasbining ustasigina, haqiqiy mutaxassisni tarbiyalashi mumkin. O'quvchilarni yaxshi ta'lim-tarbiya olishi uchun sog'lom muhit, qulay shart-sharoitlar ham yaratilishi lozim. Bu borada mamlakatimizda bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda. Masalan, maktablarni mukammal ta'mirlanishi, zamonaviy texnika va jihozlar bilan ta'minlanishi, zamonaviy darsliklar, elektron darsliklarni yaratilishi yuqoridagi fikrlarimizning isbotidir. Demak, mana shu qulayliklardan foydalanib, malakali kadrlar yetishtirish, albatta, pedagog xodimlarning vazifasidir.

Bugungi kunda respublikamizda ta'lim-tarbiya sohasida olib borilayotgan islohotlar barcha fanlarni o'qitilishida bir qator vazifalarni maqsad qilib qo'ymoqda. Shu bilan bir qatorda, umumiy o'rta ta'lim

maktablarida o‘tiladigan “Texnologiya” va “Tabiiy fanlar” darslarini o‘qitishni va o‘quvchilarni kasbga yo‘llash ishlarini yanada yaxshilash uchun bir qancha amaliy ishlarni amalga oshirish zarurligi yaqqol ko‘rinmoqda.

Ma’lumki, Respublikamiz davlat mustaqilligiga erishgandan beri mamlakatimizga bir qator chet el davlatlarining investitsiyalari olib kirilmoqda, bir qancha xorijiy mamlakatlar bilan qo‘shma korxonalar tashkil etilmoqda, chet el dastgohlari olib kelinib, bir qancha ishlab chiqarish sanoat korxonalariga o‘rnatilmoqda, lekin mana shu joylarda faoliyat yuritish uchun bizga zamonaviy bilimlarga ega bo‘lgan malakali kadrlar yetishmasligi bugungi kunning dolzarb masalaridan hisoblanmoqda [9.68]. Kasb-hunarga yo‘llash masalalari esa umumiy o‘rta ta’lim maktablarida “Texnologiya” fani darslarini o‘qitishni yaxshilashga katta ahamiyat qaratishni talab qilsa, “Tabiiy fanlar” orqali esa har bir kasbning faqat kasb-hunar egalarini emas, balki mustaqil fikrlay oladigan va ishlaydigan shaxslarni tarbiyalashni bog‘liqlikda ifoda eta oladi. Chunki bu fanlar negizida tabiat va hayot o‘rtasidagi bog‘liqlikni bola tushunadi va anglay olishiga yordam beradi. Shularni hisobga olgan holda mustaqil fikrlay oladigan va ishlay oladigan shaxsni tarbiyalash masalasini maktablarda o‘tiladigan “Texnologiya” va “Tabiiy fanlar” mashg‘ulotlarining asosiy mezonini qilib belgilab olishimiz ayni maqsadga muvofiqdir.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘qitiladigan “Texnologiya” fanining asosiy maqsadi maktab o‘quvchilariga texnologik ta’lim qirralarini singdirishdan iboratdir. Ya’ni, bu texnologiya fani o‘qituvchisi rahbarligida o‘quvchilar tomonidan bajariladigan aqliy va jismoniy harakatlar jarayonidan iborat bo‘lib, yakuniy natijada ularni mehnat qurollari, vositalari va jarayonlari haqidagi bilimlarni hamda ma’lum sohadagi ishlab chiqarish mehnatini bajarish uchun zarur amaliy ko‘nikma va malakalarini egallashlariga, ongli ravishda kasb tanlashga hamda jamiyat va shaxs farovonligi yo‘lida mehnat faoliyatiga qo‘shilishlariga imkon beruvchi shaxsiy sifatlarini va tafakkurlarini rivojlantirishga qaratilgan o‘quv fanidir [3.4.5.6].

“Tabiiy fanlar” darslarida esa o‘quvchilarning amaliy ishlarini, shu jumladan, mustaqil va ijodiy faoliyatini tashkil etish bevosita o‘qituvchining shu sohaga oid bilimi hamda pedagogik mahoratiga bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Odatda, bunga oid tushunchalar o‘quvchilarga “Texnologiya fanini o‘qitish metodikasi” va “Geografiya fanini o‘qitish metodikasi” fanini o‘qitish jarayonida beriladi. Ya’ni, texnologiya fanini o‘qitish metodikasi umumlashtiruvchi fan bo‘lib, bunda talabalarga maktablarda texnologiya fani darslarini tashkil etish shakllari va usullaridan foydalanish ishlari umumiy tarzda o‘rgatiladi [7.52]. Bunda o‘qitish jarayonida ta’lim texnologiyalaridan, xususan, interfaol metodlardan, innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish masalalariga ayni hozirgi darsliklarda alohida ahamiyat berilgan. Shundan kelib chiqib, bu o‘quv fanlari o‘zaro uyg‘unlikda ta’limning uzviy bir qismi vazifasini ham o‘taydi.

Xulosa. Boshlang‘ich sinflarda integratsion yondashuvni yanada samarali yo‘lga qo‘yish o‘quvchilarda texnologiya va tabiiy bilimlarni o‘zlashtirishga yanada qiziqish uyg‘otishi, ularning ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarni mustahkamlashga yordam berishi ta’kidlanadi. Boshlang‘ich sinflarda integratsiyalashgan ta’limni takomillashtirish, o‘z faoliyatini tahlil qilish va loyihalash, mustaqil izlanish, kasbiy muammoli vaziyatlarni ijobiy hal etish kompetensiyalarini shakllantirish lozim.

Shunday qilib, yuqoridagi ma’lumotlar, tahlillar yuzasidan quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Boshlang‘ich sinflarda texnologiya va tabiiy fanlar integratsiyasi asosida o‘quvchilarning nazariy bilimi, amaliy ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarini rivojlantirishda muammoli vaziyatlarni hal qilish jarayonida shaxsiy intellektual sifatlarni shakllantirishga yo‘naltirilgan o‘zaro aloqador componentlarni (tashkiliy, faoliyat, mazmun, baholash, natija) uyg‘unlashtirish orqali aniqlandi.

2. Integratsiyalashgan yondashuv komponentlari (tashkiliy-faoliyatli, kreativ, aksiologik, kognitiv, refleksiv-baholash) hamda fanlararo aloqadorlikni takomillashtirish darajalari (ehtimollik, optimal, cheklangan) va natijadorligini (o‘z-o‘zini ijodiy rivojlantirish sur‘ati) mujassamlashtirish asosida takomillashtirildi.

3. Boshlang‘ich sinflarda texnologiya va tabiiy fanlar integratsiyasi o‘quvchilarning yoshga xos psixologik xususiyatlari, didaktik prinsiplar, ya’ni, ilmiylik, uzviylik, izchillik, tushunarlilik, nazariya va amaliyot birligini o‘qituvchining pedagogik mahoratiga bog‘liqligiga asoslangan holda, integratsion bilimlar sifati va samaradorligi ta’minlandi.

4. Boshlang‘ich sinflarda texnologiya va tabiiy fanlar integratsiyasini yanada samarali yo‘lga qo‘yish, o‘quvchilarda aniq va tabiiy bilimlarni o‘zlashtirishga qiziqish uyg‘otishi, ularning ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarni mustahkamlashga yordam berishi ta’kidlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyanob xalqimiz bilan birga quramiz. T., “O‘zbe-

kiston”, 2017, 488-bet.

2. Mavlonova R.A., Rahmonqulova N.H. Boshlang‘ich ta‘limning integratsiyalashgan pedagogikasi. O‘quv qo‘llanma, Toshkent, “Ilm-Ziyo”, 2009, 192-bet.

3. Miraxmedova D., Shamsiyeva Z. Texnologiya. 1-sinf uchun darslik, T., Respublika ta‘lim markazi, 2021, 72 bet.

4. Sanakulov X., Abdiyeva D. Texnologiya. 2-sinf uchun darslik, T., Respublika ta‘lim markazi, 2021, 80 bet.

5. Sanakulov X., Abdiyeva D. Texnologiya. 3-sinf uchun darslik, T., Respublika ta‘lim markazi, 2022, 80 bet.

6. Mannopova I.A., Sayfurov D.M. Texnologiya. 4-sinf uchun darslik, T., “O‘qituvchi”. 2020, 112 bet.

7. Saloxitdinova N.M. Boshlang‘ich sinflarda integratsiyalashgan ta‘limni takomillashtirish. Uslubiy qo‘llanma, Toshkent, “Tamaddun”, 2021, 52 bet.

8. Saloxitdinova Navro‘za Murodulla qizi. Development prospects of primary education integration (on the example of exact and natural sciences). Jamiyat va innovatsiyalar jurnali, p. 22–225. Special Issue-7 (2021).

9. Saloxitdinova N.M. Boshlang‘ich sinflarda integratsiyalashgan ta‘limni takomillashtirish texnologiyasi. “Муғаллим ҳам узликсиз билимлендириў” ilmiy-metodik jurnali, Nukus, O‘zbekiston Pedagogika fanlari ITI Qorqalpog‘iston filiali, 2022, 6/7-son, 68 – 73-betlar.

10. Saloxitdinova N.M., Erdanayev R.X. Raqamli dunyo sharoitida ta‘limga innovatsion yondashuvning pedagogik asoslari. Yangi O‘zbekistonda pedagogika fanini innovatsion rivojlantirish istiqbollari: nazariya va amaliyot. Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari, 2021/10/06, 271 – 274-betlar.

11. Saloxitdinova N.M. Raqamli dunyo sharoitida boshlang‘ich ta‘limda aniq va tabiiy fanlar integratsiyasining rivojlanish istiqbollari. TISU ilmiy tadqiqotlari xabarnomasi, ilmiy-uslubiy jurnal, 1/2023, 150 – 156-betlar.

Matsaidova Sayyora Xudayberganovna (Urganch davlat universiteti, p.f.n., dotsent;

e-mail: matsaidovasayyora@gmail.com),

Sobirov Javoxir Xayrulla o‘g‘li (Urganch davlat universiteti Tabiiy fanlar fakulteti Geografiya yo‘nalishi 3-bosqich talabasi; e-mail: Sabirovj75@gmail.com)

IQTISODIY VA IJTIMOY GEOGRAFIYASI KURSINI O‘QITISHDA “XORAZM VILOYATI” MAVZUSINI O‘RGANISHDA INNOVATSION METODLARDAN FOYDALANISH

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada O‘zbekistonning “Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi” kursini Xorazm viloyatini o‘rganishda innovatsion metodlar, elektron dasturlardan foydalanish usullari haqida yoritilgan.*

***Аннотация.** В данной статье описано использование инновационных методов и электронных программ при изучении Хорезмской области в курсе экономической и социальной географии Узбекистана.*

***Annotation.** This article describes the use of innovative methods and electronic programs in the study of the Khorezm region in the course of Economic and Social Geography of Uzbekistan.*

***Kalit so‘zlar:** iqtisodiy va ijtimoiy geografiya, idrok xaritasi metodi, “tarsiya pazll”, “xatoni toping metodi”, Xorazm viloyati, adir, cho‘l.*

***Ключевые слова:** экономическая и социальная география, метод карты восприятия, «пазл тарсия», «метод поиска ошибки», Хорезмская область, возвышенность, пустыня.*

***Key words:** economic and social geography, perceptual map method, “tarsiya puzzle”, “find the mistake method”, Khorezm region, hill, desert.*

O‘smirlik yoshdagilardagi idrok maqsadga yo‘naltirilgan mazmunga ega bo‘lib, obyekt va hodisalarning xususiyatlarini idrok etish, bevosita qo‘yilgan vazifalar bilan uzviy bog‘liq holda kechadi deb uqdirganlar. Ulardagi diqqat o‘quvchilarning bevosita tarbiyaviy va rivojlanish xususiyatlari bilan ham bog‘liq. Diqqat hajmi kengaya borib, u sekin-asta ixtiyoriy diqqatga aylana boradi.

Esda saqlash jarayonida sifat o‘zgarishlar sodir bo‘ladi, ya‘ni, ixtiyorsiz esda saqlashdan birmuncha murakkabroq bo‘lgan so‘zlarda ifodalangan ma‘lumotlarni ham eslashga erishiladi.

Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya predmetlarini o‘qitish jarayonida o‘quvchilardagi bilish faoliyatlarini rivojlantirish uchun ularda esda saqlashni yanada mustahkamlash, hayoliy tafakkurni rivojlantirish har tomonlama zarur. O‘quvchilar har qadamda bunga muhtojlik sezadilar [2]. Shu maqsadlarni ko‘zlagan holda, biz ishimizda metodlarni sinovdan o‘tkazdik. O‘zbekistonning iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi kursini o‘qitishda “Xorazm viloyati” mavzusini o‘rganishda turli xil metodlardan foydalandik.

Darsda o‘quvchilar diqqatini jalb qilish, ularni darslarga qiziqishini orttirish maqsadida dars uchun shior tanladik “To‘xtama, o‘qi, o‘rgan koinot ilmin, zero, tinmay aylanar kurrayi zamin”. O‘tilgan mavzu yuzasidan o‘quvchilarni baholash bo‘yicha quyidagi topshiriqlar berildi. O‘tilgan mavzu yuzasidan tayanch so‘z va tushunchalar yozilgan tarqatmalar guruhlarga tarqatiladi. Bunda “Idrok xaritasi metodi” dan foydalaniladi–mavzu yoki o‘quv materialini grafikli bayon etish usuli bo‘lib, axborotlarni tizimli, tartibli

va vizual o'zlashtirish imkonini beradi. Oldingi o'rganilgan mavzu "Quyil Amudaryo iqtisodiy geografik rayon"i bo'yicha grafikli bayon qilish usuli qo'llaniladi. Qo'llanilish maqsadi va shakli: ma'ruza mashg'ulotlarida yangi bilimlarni bayon qilish, jamoaviy, seminar mashg'ulotlarida bilimlarni tekshirish, mustahkamlash, kichik guruhlarda, mustaqil ta'limda-ijodiy ishlash, mantiqiy fikrlash malakalarini rivojlantirish, individual;

O'quvchilarning tarqatmalardagi savollarga qay darajada izoh berganliklariga qarab "Ofarin", "Barakallo", "Harakat qil" so'zlari yozilgan shakllardan tegishlisi taqdim etiladi. O'quvchilar bilan o'tgan mavzularni takrorlash maqsadida "Topqirlik" mashqi o'tkaziladi. Bunda o'quvchilar "Shatranj" taxtasiga yashiringan ma'lumotlarga to'g'ri javoblarni qaysilariga tegishli ekanliklarini aniqlashlari kerak bo'ladi.

"Shatranj" taxtasiga keltirilgan ma'lumotlardan namunalar:

1. Xorazm viloyatida aholining o'rtacha zichligi har km²ga qancha kishi to'g'ri keladi?
2. Qoraqalpog'iston Respublikasida aholining o'rtacha zichligi har km²ga qancha kishi to'g'ri keladi?
3. Sho'rtan gaz-kimyoy majmuasi yiliga qancha polietilen ishlab chiqaradi?
4. Quyil Amudaryo iqtisodiy-geografik rayoni aholisi nima bilan shug'ullanib kelgan?
5. "Chorjo'y - Qo'ng'iro't" temir yo'li nechanchi yili ishga tushirilgan?
6. "Qo'ng'iro't - Makat" temir yo'li nechanchi yili ishga tushirilgan?
7. O'zbekiston qishloq xo'jaligiga yaroqli yerlarning necha foizi Quyil Amudaryo iqtisodiy-geografik rayoniga to'g'ri keladi?
8. "Do'stlik" shahrida nimani qurish rejalashtirilgan?
9. Cho'l yaylovlarida yil bo'yi nima boqiladi?
10. Quyil Amudaryo mahsuldorligi jihatdan nima uchun O'zbekistonning boshqa rayonlaridagidan hamon orqada?

Guruh o'quvchilari "Shatranj" taxtasidagi savollarga bergan javoblariga qarab, rag'batlantiruvchi kartochkalar bilan taqdirlanadi.

O'qituvchi yangi mavzuni o'quvchilarga tushuntirish jarayonida kompyuter, telefon tarmog'i yoki USB-Modem orqali internetga ulangan holda, "Google EarthWin" dasturini ishga tushiradi. Ekranda Yerning sun'iy yo'ldoshi orqali tushirilgan tasviri, Yerning o'z o'qi atrofida aylanishi, kosmosdan Yerning tabiiy ko'rinish holati, kosmosdan Xorazmning umumiy ko'rinish holati namoyish etilgan vaqtdan boshlab yoki Xorazm xaritasini o'zidan foydalansa ham bo'ladi. O'qituvchi quyidagi matn va ma'lumotlar asosida globus, dunyo va O'zbekistonning siyosiy va tabiiy xaritalaridan foydalangan holda, o'quvchilarga yangi mavzuni tushuntirib beradi. O'qituvchi yangi mavzu bayonini o'quvchilarga tushuntirish jarayonida kompyuter, ekrandan bevosita foydalangan holda, Microsoft Office dasturi tarmog'iga kiruvchi Microsoft Office Power Point matn muharriri orqali ekranda mavzuga tegishli rasmlardan lavhalarini ham namoyish etib tushuntiradi.

Yangi mavzu bayon qilinadi. Mavzu: Xorazm viloyati.

O'quvchilarni o'rganilgan mavzu bo'yicha bilimlarini sinash maqsadida "Urganch" va "Xiva" guruhlariga "Geografik talqinlar" tarqatiladi.

"Urganch" guruhi uchun:

Talqinlar (+, -)

Xorazm viloyati mavzuga tegishli to'g'ri javoblarga (+) ishorasi, noto'g'ri javoblarga (-) ishorasi qo'yiladi.

1. O'zbekistonning shimoli-g'arbida joylashgan. ()
2. Qishda harorat -31°C -32°C gacha pasayadi. ()
3. 51,5 foizi qishloqlarda yashaydi. ()
4. Tuproq 0,5 m.gacha muzlaydi. ()
5. Paxta barcha ekin maydonining 43 foiziga ekiladi. ()

"Xiva" guruhi uchun:


Talqinlar (+, -)

Quyil Amudaryo viloyati mavzuga tegishli to'g'ri javoblarga (+) ishorasi, noto'g'ri javoblarga (-) ishorasi qo'yiladi.

1. O'zbekistondagi qishloq xo'jaligiga yaroqli yerlarning 6 foizini tashkil etadi. ()
2. Yengil va oziq-ovqat sanoati korxonalarining yuzdan ortig'i joylashgan. ()
3. Yangiariq tumani bor. ()
4. Cho'l-yaylov chorvachiligi yaxshi rivojlanmagan. ()
5. Xorazmda turizm rivojlanmoqda. ()

O'quvchilarning geografik talqinlarga bergan javoblariga qarab, tegishli rag'batlantiruvchi kartochkalar bilan rag'batlantiriladi. Yangi o'tilgan mavzuni o'quvchilar qay tariqa tushunganliklarini tekshirib ko'rish maqsadida mavzu yuzasidan test sinovi olinadi. Darslarda elektron dasturlardan foydalanish samarali natija beradi [3].

O'zbekiston iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi fanidan "Xorazm viloyati" mavzusi yuzasidan o'quvchilar bilimni baholash uchun "Xorazm viloyati" "Tarsiya Pazll" dasturi asosida tuzilgan pazllardan foydalaniladi. Tayyorlangan pazll qirqilib, ikkita shaklda guruhlarda ishlanadi [4].



2-rasm. "Xorazm viloyati" tarsiya pazlli.

Uyga vazifa berib, dars yakunlanadi.

Matn bilan ishlashda "Xatoni toping metodi" juda qo'l keladi. Xatoni toping usuli eng qulay va qiziqarli so'rash usulidir. Bu usul orqali avvalgi mavzularni o'quvchilar tomonidan qanday o'zlashtirilganligini sodda usulda bilib olish mumkin. Uning yana bir qulayligi uni umumiy tartibda ham, guruhlar bilan ishlashda ham qo'llash mumkin. O'qituvchi oldingi o'tilgan mavzular bo'yicha kichik hikoyacha tuzadi. Hikoya 5 – 10 ta gapdan iborat bo'lish mumkin. Hikoyacha ichida xatolar bo'lib, uni o'quvchilar topib to'g'irlashi kerak. Bu usul orqali o'quvchilarning sezgirligi, topqirligi, dunyoqarashi shakllantiriladi, xotirasini mustahkamlaydi. Bu metodni barcha sinflarda matnlar bilan ishlashda qo'llab bo'ladi. Masalan: "Tabiiy sharoit va tabiiy resurslarning milliy iqtisodiyotdagi ahamiyati" mavzusi misolida mamlakatimiz hududining tabiiy sharoiti va xo'jalikdagi ahamiyatiga ko'ra cho'l, adir, yaylovga bo'lish mumkin.

Dengiz sathidan 200 metr balandlikkacha cho'l mintaqasi hisoblanadi. Bu yerlardan yaylov dehqonchilikda foydalaniladi, ammo cho'lning ozuqa boyligi juda kam. Bitta qo'y uchun 5 – 6 gektar o'tloq talab etiladi. Shu hisobdan O'zbekiston cho'llarida 5 mln. boshgacha qorako'l qo'y boqsa bo'ladi. Cho'l yaylovlarini yaxshilash va kengaytirish hisobiga dehqonchilikni 11 – 12 mln. gektarga yetkazish mumkin.

Dengiz sathidan 300 – 400 metrgacha baland bo'lgan qismi adir mintaqasini tashkil etadi. Adir iqlimi cho'l iqlimidan mo'tadilroq bo'ladi. O'simlik turi ko'p va zich. Tuprog'i chirindiga boy. Bu yerlardan, asosan, obikor, dengiz sathidan 300 metrdan baland yerlarda, lalmikor dehqonchilik yuritiladi. Cho'llar dehqonchilik uchun eng qulay joy bo'lganidan, odamlar qadimdan shu yerlarda qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanaverib, uning yer yuzasini ham, o'simlik va hayvonot olamini ham o'zgartirib yubordi.

Matn xatolar to'g'rilangach quyidagi holga kelishi kerak.

Mamlakatimiz hududining tabiiy sharoiti va xo'jalikdagi ahamiyatiga ko'ra cho'l, adir, tog', yaylovga bo'lish mumkin.

Dengiz sathidan 400 metr balandlikkacha cho'l mintaqasi hisoblanadi. Bu yerlardan yaylov chorvachiligida foydalaniladi, ammo cho'lning ozuqa boyligi juda kam. Bitta qo'y uchun 2 – 3 gektar o'tloq talab etiladi. Shu hisobdan O'zbekiston cho'llarida 10 mln boshgacha qorako'l qo'y boqsa bo'ladi. Cho'l yaylovlarini yaxshilash va kengaytirish hisobiga qorako'l qo'ylarining sonini 11 – 12 mln boshga yetkazish mumkin.

Demak, iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi kursini o'qitishda "Xorazm viloyati" mavzusini o'rganishda innovatsion metodlardan foydalanish bo'yicha turli xil usullar, ayniqsa, elektron dasturlardan foy-

dalanish ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, guruhda ishlashga, tanqidiy fikrlashga undaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Musayev P., Musayev J. Geografiya. O'zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik, Toshkent, 2019.
2. Бондарев А.Г. Методика работы с текстом учебников и дополнительная литература в обучении географии (V–VII кл). Автореф. дис. ...канд. пед. наук, М., НИИ СиМО АПН, 1986, 13 с.
3. Қаҳҳоров С., Жўраев А. Бўлажак технология фани ўқитувчиларини касбий тайёрлашда дастурлаштирилган таълим воситаларидан фойдаланишнинг назарий асослари. 2-сон, 2020, "Педагогик маҳорат", 15-бет.
4. <https://www.tarsiamaker.co.uk/>

Xaitov Abdunosim Abdulakim o'g'li (Termiz Iqtisodiyot va servis universiteti "Ijtimoiy-gumanitar fanlar" kafedrasida o'qituvchisi: e-mail: abduqosimxaitov@gmail.com)

BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA AKMEOLOGIK POZITSIYANI SHAKLLANTIRISHNING O'ZIGA XOS PEDAGOGIK SHARTLARI

Аннотация. Ushbu maqolada bo'lajak o'qituvchilarda akmeologik pozitsiyani shakllantirishning o'ziga xos pedagogik shartlari, zamonaviy o'qituvchilarga qo'yiladigan talablarni takomillashtirish, pedagogika oliy o'quv yurtlaridagi mutaxassislar tayyorlash jarayonidagi imkoniyatlar va mavjud holatlardan kelib chiqib, mazkur ta'lim muassasalarida o'qitish tizimiga innovatsion texnologiyalarining joriy etilish jarayonlari mavzuning muammosi sifatida ochib berishga harakat qilingan.

Аннотация. В данной статье на основе конкретных педагогических условий формирования акмеологической позиции у будущих учителей, совершенствования требований к современным учителям, возможностей и существующих условий процесса подготовки специалистов в педагогических вузах, преподавания в этих учебных заведениях предпринята попытка раскрыть процессы внедрения инновационных технологий в систему как суть проблемы.

Annotation. In this article, based on the unique pedagogical conditions for the formation of an acmeological position in future teachers, the improvement of the requirements for modern teachers, the opportunities and current conditions in the process of training specialists in pedagogical universities, teaching in these educational institutions an attempt was made to reveal the processes of introducing innovative technologies into the system as a problem of the topic.

Kalit so'zlar: akmeologiya, pozitsiya, mazmun, mohiyat, talabalar, innovatsion metodlar, zamonaviy axborot texnologiyalari, bo'lajak o'qituvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini o'zlashtirishi, pedagogik shartlari.

Ключевые слова: акмеология, положение, содержание, сущность, студенты, инновационные методы, современные информационные технологии, приобретение знаний, умения и квалификация будущих учителей, педагогические условия.

Key words: acmeology, position, content, essence, students, innovative methods, modern information technologies, acquisition of knowledge, skills and qualifications of future teachers, pedagogical conditions.

Kirish. Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarda akmeologik pozitsiyani shakllantirish orqali ularni o'quv jarayonidagi faolligini oshirishda, tanlagan kasbiga nisbatan mas'uliyat hissini uyg'otishga, jamiyatdagi turli islohotlarga o'z munosabatini bildira olishiga, eng asosiysi, o'z taraqqiyoti bosqichida ma'lum yutuqlarni qo'lga kiritish imkoniyatiga ega bo'lishiga asos bo'ladi. Biror kasb-korni tanlagan talaba o'sha o'zi tanlagan sohasida yuqori natijalarga erishish uchun o'zida shaxsan qaysi sifatlar talab qilinishini yaxshi bilishi va shu orqali kasbiy mahorat yoki professionalizm cho'qqisini zabt etishi mumkin. Kasbiy mahorat nafaqat insonning o'ziga, yaqinlari, oilasi, balki jamiyat va insoniyatga manfaatli ekanligini uni ijodiy ishlashga, o'z takomil darajasidan qoniqmagan holda tinimsiz izlanishda bo'lishga undaydi. Shuning uchun ham bo'lajak o'qituvchilarda akmeologik pozitsiyani shakllantirish bugungi kunda har bir professor-o'qituvchidan talabning iqtidori va ijodiy salohiyatini to'la namoyon etishi va taraqqiyotini ta'minlovchi har bir omilning o'rnini ko'rsata bilishni taqozo etadi. Bu yangicha ta'limdagi innovatsion yondashuvlardan biridir.

Har bir bo'lajak o'qituvchi o'z shaxsiy pozitsiyasiga ega bo'lishi uchun unda o'sha tanlagan ixtisosligiga nisbatan kuchli undovchi motivlar, hayotda esa muvaffaqiyatlarga erishish ehtiyoji kuchli rivojlangan bo'lishi lozim. O'zbekistonda ta'lim tizimida ta'kidlangan innovatsion yoki yangicha ta'limning mohiyati ham aynan akmeologik omillarni inobatga olinganligi, unda shaxsga individual, insonparvarlik

tamoillari asosida yondashuv zarurligini ta'kidlanganligi, bu narsa, o'z navbatida, talabalardagi professional mahoratni o'stirishni nazarda tutganligi bilan kuchlidir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Pedagogik ta'limni tashkil etishning psixologik xususiyatlari, ta'lim samaradorligini oshirish, o'qituvchi kadrlarni tayyorlash, ularda kasbiy sifatlarni va akmeologik pozitsiyani takomillashtirish masalalari A.N.Ribnikov, B.G. Ananyev, A.A.Derkach va A.A.Bodaleva, N.V.Kuzmina, M.Ochilov, N.N.Azixodjayeve, F.R.Yuzlikayev, O.Musurmonova, V.A.Slastyonin, M.G.Davletshin, B.R.Djurayeva va boshqalar tomonidan o'rganilgan.

Shuningdek, Stepanov S.Y., A.A.Derkach, Ilin V.V., Pojarskiy S.D., Golovko-Garshina N.V., Branskiy V.P., Zimnyaya I.I., O.A.Kozirevalar akmeologiyani mustaqil fan sifatida falsafiy asoslarini, shaxs fenomeni, akmeologiyani kasbiy muvaffaqiyatga erishishdagi o'rni, akmeologiya fanining predmetini aniqlash, ijtimoiy sinergetika va akmeologiyaning uyg'unligi, kasbiy rivojlanishning akmeologik asoslari hamda akmeologik yondashuv asosida o'qituvchi kompetentligini rivojlantirish muammolarini tadqiq etishgan.

Kuzmina N.V., Pojarskiy S.D., Pautova L.E., A.K.Markovalarning ilmiy tadqiqot ishlarida akmeologiyaning ilmiy asoslari, mutaxassis kasbiy faoliyatining akmeologik sifatlari, o'qituvchi kasbiy kompetentligining psixologik tahlili kabi muammolar yoritilgan.

Shaxsning akmeologik qobiliyatini rivojlantirishning amaliy jihatlari, oliy ta'lim tizimida bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashning akmeologik aspektlari, shaxsning o'z-o'zini takomillashtirishi, shaxsni rivojlantirish va autopsixologik kompetentlikni shakllantirishning akmeologik texnologiyalari mazmuni Slastyonin V.L., Tartakovskiy M., Bulgakova R.G., Sayko E.V., Andropova L.O., L.A.Stepnovalar tomonidan keng miqyosda o'rganilgan. Tadqiqotchi G.H.Tillayeve mutaxassis shaxsini shakllantirishga nisbatan akmeologik yondashuv muammosini o'rganib, bo'lajak o'qituvchilarda akmeologik pozitsiyani shakllantirilib borilishi talabaning qiziqishlari, qobiliyati hamda imkoniyatlarini inobatga oluvchi, uning shaxs sifatidagi taraqqiyoti, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalaridan samarali foydalanishga qaratilgan jarayondir. Shu bois o'qitishni tabaqalashtirish va individuallashtirish shaxsga yo'naltirilgan ta'limni joriy etishning asosiy tamoyillari sifatida xizmat qiladi deb keltiradi [1.80].

Tadqiqot metodologiyasi. Maqola umum qabul qilingan metodlar – tarixiylik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, ketma-ketlik, xolislik tamoyillari asosida yoritilgan bo'lib, talabalarda akmeologik pozitsiyani shakllantirishning o'ziga xos pedagogik shartlari tadqiq etilgan.

Tahlil va natijalar. Bo'lajak o'qituvchilarda akmeologik pozitsiyani shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar:

Pedagogik mahorat – pedagogik faoliyatning yuqori darajasi bo'lib, u pedagogning belgilangan vaqt ichida optimal natijalarga erisha olishida namoyon bo'ladi:

kreativlik (ingl.– ijodkorlik) o'qitish jarayoniga ijodiy yondashuv, yangi g'oyalarni ishlab chiqish;

kompetentlik (ingl.– qobiliyat) yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish;

refleksiya – takrorlash, aks ettirish, o'z harakatlari va holatini aks ettirish.

Pedagogik faoliyat – ta'lim maqsadlarini amalga oshirishga qaratilgan ijtimoiy faoliyatning alohida turi:

♦ o'qitish – ta'lim oluvchining bilish faoliyatini boshqarishga qaratilgan o'qituvchining faoliyati;

♦ tarbiyalash – talabalarda vatanparvarlik, insonparvarlik tuyg'ularini shakllantirish; faol fuqarolik pozitsiyalarini tarkib toptirish;

♦ rivojlantirish – talabalarda o'qitilayotgan o'quv fani yuzasidan ilmiy bilimlarni berilishi; ma'naviy-axloqiy sifatlarini tarkib toptirish;

Pedagogik madaniyat – pedagogning jamoada, turli vaziyatlarda o'zini tuta bilishi va to'g'ri qarorlar qabul qila olishi: tashqi ko'rinish va nutq madaniyati o'qituvchiga xos kiyinish, muloqotning rivojlanganligi, pedagogik odob samimiylik, adolatlilik, o'zini-o'zi boshqara olishi, birgalikdagi faoliyat o'qituvchi va talabalar hamkorliklarini mujassam etadi.

Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarda akmeologik pozitsiyani shakllantirish o'quv va tarbiyaviy jarayonining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib, bu borada muayyan muvaffaqiyatga erishish quyidagi shartlarga rioya etish asosida kechadi:

1) oliy o'quv yurti faoliyatini tashkil etishdan ko'zlangan asosiy maqsad negizida xususiy maqsadlarning to'g'ri belgilanishi;

2) o'quv va tarbiya jarayonlarining birligi va o'zaro aloqadorligiga erishish;

3) obyektiv va subyektiv shart-sharoitlarning mavjudligini inobatga olish;

4) bo'lajak o'qituvchilar shaxsida namoyon bo'lishi zarur sanalgan kasbiy madaniyat (sifat)lar to'plami va ularning mohiyatini aniqlash;

- 5) bo'lajak o'qituvchilarning professiogrammasini yaratish;
- 6) tayanch tushunchalarni nazariy jihatdan sharhlash;
- 7) bo'lajak o'qituvchilarda akmeologik pozitsiyani shakllantirish texnologiyasini ishlab chiqish hamda ushbu jarayonning mexanizmini yaratish.

Bo'lajak o'qituvchilarning akmeologik pozitsiyasini shakllantirish, kelgusida ular tomonidan tashkil etiluvchi pedagogik faoliyat samaradorligini kafolatlovchi jarayon sanalib, mazkur jarayonda quyidagi vazifalar hal etiladi:

- talabalarga kasbiy faoliyatni tashkil etishda muhim omil bo'lib xizmat qiluvchi sifatlar va ularni tarkib toptirish shartlari, shuningdek, ushbu sifatlarning ijtimoiy va shaxsiy ahamiyati xususida nazariy ma'lumotlar berish;

- bo'lajak o'qituvchilarda akmeologik pozitsiyani shakllantirish, ularni mustahkamlanib borishini ta'minlash borasidagi shaxsiy ehtiyojni qaror toptirish;

- talabalarda akmeologik pozitsiyani shakllanib borish yo'lida mustaqil faoliyatni tashkil etish ko'nikmalarini shakllantirish;

- ularda pedagogik faoliyatni tashkil etishga nisbatan texnologik va ijodiy yondashuvni yuzaga kelishini ta'minlash;

- oliy o'quv yurtida tahsil olayotgan talabalarda pedagog shaxsi, uning faoliyati g'oyalarini aks ettiruvchi ijobiy mazmundagi kasbiy madaniyat pedagogik odob (pedagogik nazokat), nutq madaniyati, harakat va nutq texnikasini o'zlashtirish va hokozolar)ning qaror topishini ta'minlash;

- talabalarda akmeologik pozitsiyani shakllantirishga xizmat qiluvchi texnologiya (talaba shaxsida mavjud bo'lgan ma'naviy-axloqiy sifatlarning shakllanganlik darajasini dastlabki o'rganish, ularning takomillashib va kasbiy madaniyat bilan boyib borishi uchun sharoit yaratish, axborot vositalari yordamida, shuningdek, mustaqil ravishda umumiy va kasbiy bilimlarni puxta o'zlashtirilishini ta'minlash, pedagogik sifatlarning shakllanishi yo'lida maxsus mashg'ulotlarni olib borish, amaliy pedagogik faoliyatni tashkil etish, mustahkamlovchi nazariy bilimlarni berish, talabalarda akmeologik pozitsiyani shakllanganlik darajasini ikkilamchi o'rganishni yaratish. Bo'lajak o'qituvchilarda akmeologik pozitsiyani shakllantirishga quyidagi tamoyillar asosiy o'rin tutadi:

1. Oliy o'quv yurti talabalarida akmeologik pozitsiyani shakllantirish jarayonining tizimli, uzluksiz, izchil va maqsadga muvofiq tashkil etilishi.

2. Mazkur jarayonning aniq maqsadga yo'naltirilganligi.

3. Talabalarda akmeologik pozitsiyani shakllantirishda ularning shaxsiy va psixologik xususiyatlarini inobatga olish.

4. Nazariya va amaliyot birligi. Bo'lajak o'qituvchilarning akmeologik pozitsiyani shakllantirishda pedagogik ta'lim-tarbiya samaradorligini inobatga olish talab etiladi. Bo'lajak o'qituvchilarning akmeologik pozitsiyani shakllantirish jarayonining ichki (subyektiv) va tashqi (obyektiv) samaradorligi quyidagi ko'rsatkichlar bilan belgilanadi:

- ular tomonidan pedagogik tizim doirasiga kiruvchi fanlar metodikasi yuzasidan yaratilgan o'quv predmetlari asoslarining o'zlashtirilish darajasi, ya'ni, pedagogik bilimlarni o'zlashtirishning muayyan darajasi;

- talabalar tomonidan pedagogik odob, pedagogik nazokat, nutq (muomala) madaniyati, harakat va nutq texnikasini o'zlashtirish darajasi;

- amaliy pedagogik faoliyat ko'lami va uning samaradorlik darajasi.

Talabalarda pedagogik sifatlarning qaror topishi ularning pedagogik bilimlar ta'limi va pedagogik amaliyotdagi ishtiroki darajasi va sifatiga bog'liq. Doimiy, maqsadga muvofiq tarzda pedagogik faoliyatni tashkil etish, o'z ustida izlanish, ijodkorlik, mustaqil ravishda o'qib o'rganishni tashkil etish, ilg'or tajribalardan xabardor bo'lish, ularni o'z faoliyatiga tatbiq etish, shuningdek, malakali pedagog va psixologlar bilan muloqotda bo'lish talabalarda akmeologik pozitsiyani shakllanishiga olib keladi. Talabalarining shaxsiy va psixologik xususiyatlariga tayangan holda, ularda akmeologik pozitsiyani shakllantirish darajalarini quyidagi mezonlar yordamida aniqlashga urindik:

1. Akmeologik pozitsiyaning ijtimoiy va kasbiy ahamiyatini tushunish.

2. Kasbiy madaniyat, mahorat va qobiliyatlarni o'zlashtirishga bo'lgan ehtiyoj va qiziqishning yuzaga kelishi.

3. Chuqur pedagogik bilimga egalik.

4. Pedagoglik kasbiga nisbatan hurmat.

5. Pedagogik faoliyatni tashkil etish salohiyati (mahorati).

Yuqorida bildirilgan fikr-mulohazalarga tayanib, quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Oliy o'quv yurtlarida bo'lajak o'qituvchilarning akmeologik pozitsiyasini shakllantirish ijtimoiy zarurat sanaladi, shuningdek, ularning yuqori darajadagi kasbiy mahoratga ega bo'lishi pedagogik faoliyatni samarali tashkil etish va muayyan muvaffaqiyatlarga erishishlarini kafolatlaydi.

2. Bo'lajak o'qituvchilarning akmeologik pozitsiyasini shakllantirish jarayoniga nisbatan texnologik yondashuv mazkur jarayonni loyihalashtirish hamda talaba shaxsi modelini yaratish imkonini beradi.

3. Bizning nazarimizda, oliy o'quv yurti bo'lajak o'qituvchilarning akmeologik pozitsiyasini shakllantirish jarayonining modeli quyidagi jarayonlar mohiyatini yoritib bera olishi zarur:

– talaba shaxsini o'rganish va uning mavjud shaxsiy sifatlarini aniqlash;

– talabalarda akmeologik pozitsiyaning shakllanish holatini tashxis qilish;

– talabalarga maxsus va mutaxassislik bilimlarini berish (mazkur jarayonda ularning mustaqil ta'lim olish hamda axborotli texnologiyalar xizmatidan foydalanish ko'nikma va malakalarini shakllantirish maqsadga muvofiqdir);

– tarbiyaviy ishlarni tashkil etish (ushbu jarayonda tarbiyaviy ishlarni talabalarining shaxsiy tashabbuslari asosida tashkil etishga alohida e'tibor qaratish zarur);

– pedagogik amaliyotni samarali tashkil etish;

– akmeologik pozitsiyani shakllanganlik darajasini aniqlash;

– maxsus ko'rsatmalar berish va maslahatlarni tashkil etish.

Oliy o'quv yurtlarida bo'lajak o'qituvchilarning akmeologik pozitsiyani shakllantirish texnologiyasi hamda bo'lajak o'qituvchining modelini yaratishda ushbu o'quv yurtlarida tahsil olayotgan talabalarining yosh, psixologik, fiziologik xususiyatlari borasida batafsil ma'lumotga ega bo'lish, shuningdek, o'qituvchi shaxsining shakllanishiga nisbatan qo'yilayotgan zamonaviy talablarning mohiyatini chuqur anglash muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, bo'lajak o'qituvchilarda akmeologik pozitsiyasi o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini amaliyotda yuqori darajada qo'llay olishida namoyon bo'ladi. Zamonaviy jamiyatda ta'lim tizimini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlaridan biri – bu insonning turli sohalarda maqsadli va mustaqil faoliyatini tashkil etishi. Shunday ekan, bo'lajak o'qituvchilarda akmeologik pozitsiyani shakllantirishning o'ziga xos pedagogik shartlarini quyidagi motivatsion, ijtimoiy, axborotli-mazmunli, faoliyatli, didaktik omillarga alohida e'tibor qaratish orqali ta'limda yanada samarali natijalarga erishish mumkin bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasini 2017–2021-yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor vazifalari. "Harakatlar strategiyasi". T., "O'zbekiston", 2017.

2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari. T., "O'zbekiston", 2019.

3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 26 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda so'zlangan ma'ruzadan. 2018, 10-dekabr.

4. Mardonov Q.Sh. Bo'lajak o'qituvchilarning akmeologik pozitsiyasini shakllantirish texnologiyasi. T., "Fan", 2019.

5. Tillayeva G.H. Akmeologiya asoslari. O'quv qo'llanma, "Tafakkur bo'stoni", Toshkent, 2014, 126-bet.

6. Nishonova Z. O'quvchilarni kreativ fikrlashga o'rgatish. T., TDPU, 2015.

7. Tillayeva G.H. Akmeologiya asoslari. Toshkent, 2014.

8. Деркач А.А., Кузьмина Н.В. Акмеология: пути достижения вершин профессионализма. М., 1993, с. 220.

9. Акмеология. Хрестоматик лугат. Ильин В.В., Пожарский С.Д. 2004, 201 bet.

10. Маркова А.К. Психологические критерии и профессионализма учителя. "Педагогика", 1995, № 6, с. 55 – 63.

11. Komilov N. O'qituvchilarning akmeologik pozitsiyasini shakllantirish. T., "Cho'lpon", 2016.

12. Xudoyqulov X.J. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. T., "Innovatsiya–ziyo", 2020.

Safarqulova Nasiba Olimjonovna (Termiz Iqtisodiyot va servis universiteti magistranti)

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA O'QUVCHI NUTQINI O'STIRISHNING PEDAGOGIK VA METODIK USULLARI

Аннотация. Ushbu maqolada o'quvchi nutqini o'stirishning tashkiliy, pedagogik metod va usullari haqida batafsil ma'lumot berilgan bo'lib, unda o'quvchilarni ravon so'zlashi, o'z fikrini erkin bayon eta olishi, tengdoshlari bilan erkin muloqotga kira olishi, adabiy til me'yorlariga amal qilgan holda gapira olishi yoritib o'tilgan.

Аннотация. В данной статье представлена подробная информация об организационно-педагогических методах и методах развития речи учащегося, выделено умение говорить по нормам

литературного языка.

Annotation. This article describes the interdisciplinary relationship between technology and natural sciences in primary education. That is, it explains how technology and natural science enter into an integrative process with each other. Naturally, there are many technical and technological problems in production, and without their elimination it is impossible to increase production efficiency. This process certainly shows the connection of the natural sciences.

Kalit so'zlar: nutq o'stirish, metodik usul, pedagogik usul, til, metod.

Ключевые слова: развитие речи, методический метод, педагогический метод, язык, метод.

Key words: technology, natural sciences, integration, technology, interdisciplinarity.

Kirish. Bola hayotining barcha ko'rinishlarida til rivojlanishining ahamiyatini oshirish mushkul. Hayotiy qobiliyat kaliti sifatida aloqa va tilning asosiy roli haqida ishonchli dalillar keltirish mumkin. Rasmiy ta'lim va maktab hayotining dastlabki yillarida ta'sirli verbal va nonverbal aloqaga asoslangan til mahorati o'rganish va rivojlanishga zamin bo'lgan. Til va boshqa muhim qobiliyatlarning o'sishi o'qishga tayyorgarlik, savodxonlik va hisob kitobni o'z ichiga olgan. Bundan tashqari, hozir aloqa va til rivojining qiyinchiligi butun umr ta'sirining dalilidir [1.32]. Til mahorati muvaffaqiyatli ta'limning eng yaxshi bashoratchisi: boshlang'ich maktabning dastlabki 2 yilida tilning rivojlanishi bolaning xarakteristikasini oldindan aytib beradi. Aks holatda, til o'rganishdagi qiyinchiliklar o'quv muvaffaqiyatsizligi bilan bog'liq: nutqi va tilida muammosi bor bolalar maktabga ilk qadam qo'yganda eng katta qiyinchiliklar ularning savod chiqarishi bilan bog'liq. Tili yaxshi rivojlanmagan bolalarda 5 yoshda 7 yoshdagiga nisbatan muvaffaqiyatsiz ta'lim ehtimoli katta bo'ladi [2].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Bolani har tomonlama rivojlantirish uning insoniyat tajribasi, bilimlari, qobiliyati va madaniyatining saqlovchisi bo'lgan kattalar bilan muloqoti tufayli insoniyatning ko'p asrlik tajribasini o'zlashtirish asosidagina amalga oshiriladi. Bu tajribani faqat insoniy muloqotning eng muhim vositasi – til orqaligina berish mumkin. Til – hayotimizning ajralmas qismi bo'lib, biz unga o'z-o'zidan bo'lishi shart bo'lgan narsa sifatida qaraymiz. Tilning o'zi nima, biz unda qanday so'zlayapmiz, biz qanday qilib so'zlashni o'rganishimiz haqida esa unchalik ko'p o'ylab ham o'tirmaymiz. Bilimni uyushtiruvchi boshlang'ich bosqich sifatida chiqadigan nazariya tilda shakllanadi, bu esa bilish jarayonida tilga alohida o'rin beradi va shu bilan til haqidagi fan oldida yangi ilmiy uflarni ochadi, uni o'zining gumanitar mohiyati haqida orzu-xayollarga berilgan holda doimo tinch-osuda va jimgina o'tiradigan burchagidan chiqishga majbur qiladi.

Insonning yana bir o'ziga xos xususiyati, o'ziga xos insoniy ehtiyoji mavjud. Bu – boshqa odamlar bilan muloqotga ehtiyojmandlik, «emotsional muloqotga ehtiyojmandlik»dir (K.Obuxovskiy). Aynan shu ehtiyoj tufayli, dastlab, til paydo bo'lgan. Muloqotga ehtiyojmandlik doimo tilni egallashga olib keladi. Bolaning so'zlashni o'rganishining sababi shuki, unga kattalar bilan birgalikdagi faoliyatda ishtirok etishga to'g'ri keladi, buning uchun esa bolaning unga nimalar deyishayotganliklarini tushunishi va o'zi ham so'zlashi lozim. Bu o'rinda tilning uch sifati (tajribani jamlash va sintez qilish – fikrga jamlash – muloqotni amalga oshirish) haqida so'z yuritish mumkin (V.A.Zveginsev). Tilni tadqiq qilish mustaqil, umumilmiy qiziqishdan tashqari ko'plab dolzarb amaliy vazifalarni hal etishda ulkan ahamiyatga egadir [3.55].

Tadqiqot metodologiyasi. Maqola uchun o'qitishning samarali metodlari (muammoli, mantiqiy, og'zaki bayon etish, kuzatish, tajriba o'tkazish) asosida boshlang'ich ta'limda aniq va tabiiy fanlar integratsiyasi mazmuni tadqiq qilingan.

Tahlil va natijalar. O'quvchi nutqini o'stirishning ilmiy-metodik asoslarining vazifalari:

◆maktab yoshidagi bolalarda turli yosh bosqichlaridagi nutq rivojini ko'ra olish va tushunish qobiliyatini shakllantirish;

◆bola nutqiga ta'sir ko'rsatishning eng samarali yo'lini to'g'ri tanlash va bolaning nafaqat yoshini, balki uning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, o'zaro birgalikda harakat qilish hamda olingan natijani tahlil qilish;

◆bolalar nutqining turli jihatlarini rivojlantirish, aniq uslublari va usullari haqidagi bilimlar o'zlashtirilishini hamda ularning didaktik nutq muloqotlari paytida qo'llay olinishini ta'minlash;

◆uslubiy adabiyotlarni tanqidiy tahlil qilgan holda maktab yoshida bo'lgan bola nutqiga ta'sir ko'rsatishning o'ziga xos usullari va uslublarini yaratishga intilishni rag'batlantirish [4.31].

Nutqni rivojlantirish metodikasining asosiy mazmuni – bolalarda og'zaki nutqni, uning atrofdagilar bilan nutqiy muloqoti ko'nikmalarini shakllantirishdir. Nutqni rivojlantirish metodikasi quyidagi asosiy savollarga javob topish imkonini beradi: nimani o'qitish (bolalarda qanday nutqiy ko'nikmalarni tarbiyalash), qanday o'qitish (bolalar nutqini shakllantirishda qanday sharoitlarda qaysi metod va usullardan foydalanish lozim), nega endi aynan shunday o'qitish zarur (nutqni rivojlantirishning taklif etilayotgan usullari nazariya va amaliyotning qaysi ma'lumotlariga asoslanmoqda) [5.24]. Nutqni rivojlantirish meto-

dikasi har qanday rivojlanishning umumiy shakllari, tomonlari va o‘zaro bog‘liqligini aks ettiradigan dialektika qonunlari va toifalariga tayanadi.

Til – tarixiy va o‘zgaruvchan hodisa. Har bir xalq, millat, elat va odamlar qabilasi o‘z tiliga egadir. Har bir xalqning tilida mazkur jamiyatning tarixiy rivojlanish jarayoni, uning turmush sharoiti, ijtimoiy hayotidagi o‘zgarishlar va yangilanishlar, ijtimoiy mehnat faoliyatidagi yangi kashfiyotlar va erishilgan natijalari aks etgan.

Bolalar nutqini rivojlantirishning tashkiliy pedagogik va metodik ishlari. Maktab yoshidagi bolalar nutqini rivojlantirishda nutqni tuza bilish darajasini ko‘tarish maktab ta‘lim tizimi metodistlari oldidagi asosiy vazifalardandir.

Shuni hisobga olgan holda, tevarak-atrofni o‘rganishda maktab tarbiya yoshidagi katta bolalarning nutqini rivojlantirish muammosiga oid tadqiqotni nutqni rivojlantirishni ta‘minlaydigan omillarni aniqlashdan boshlash maqsadga muvofiqdir. Maktab yoshidagi bolalar nutqini rivojlantirishning yuqori darajasiga quyidagilar evaziga erishilishi mumkin ekan:

- tilning adabiy me‘yorlari va qoidalaridan xabardorlik;
- o‘z fikr-mulohazalarini erkin bayon eta olish;
- muloqotga kira bilish, kattalar va tengdoshlar bilan muomala qila olish;
- suhbatdoshni tinglay bilish, so‘rash (savollarni to‘g‘ri bera olish), javob berish, e‘tiroz bildirish, zarur bo‘lganda esa tushuntirish, izohlash [6.21].

Maktab yoshidagi bolalar nutqini o‘stirishda nutqdialogik va monologik nutqni rivojlantirishga alohida e‘tibor berish zarur bo‘ladi. Maktab yoshidagi bolalar dialogik nutqni nisbatan oson o‘rganadilar. Bu quyidagilar bilan ifodalanadi: bolalar uyda, maktabda doimo dialogik nutqni eshitadi. Bundan tashqari, bolalar o‘zaro muloqotda bo‘lib, asosan, dialogik nutqdan foydalanadilar.

Metodik adabiyotlarda bayon qilinishicha, adabiy til negizida asosan monologik nutq yotadi. Shuning uchun ham nutqni rivojlantirish ta‘lim-tarbiya tizimida muhim ahamiyat kasb etadi [7.68]. Monologik nutq, muayyan mavzuga oid mantiqiy izchil gaplar shaklida ifodalangan hamda boshqalarga ta‘sir ko‘rsatish uchun yo‘naltirilgan fikrlar (tovushlar)ning uyushgan tizimini namoyon etadi. Bola uchun monologik nutq, shubhasiz, psixologik jihatdan murakkab hisoblanadi. Gap shundaki, maktab yoshidagi bola monologik nutqqa tayyorgarlik jarayonida, shuni tushunadiki, tinglovchi (boshqa)lar uning aytayotgan fikr-mulohazalaridan qandaydir qiziqarli narsani bilishni istaydilar [8.172]. Bola intuitiv tarzda bo‘lsa-da, monologik nutq rejasini mantiqan tuzish, maqsadini bayon etishga oid iboralarni to‘g‘ri tanlash, gap tuzish, tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilishga harakat qiladi. Noqulay psixologik sharoit maktabgacha katta yoshdagi bolaga shunday muhit yaratadiki, uning o‘zi bayon qilmoqchi bo‘lgan so‘z, ibora, gap ma‘nosini tushunib yetmaslik bilan bog‘liq bo‘lgan «noqulaylik»ni his etadi. Haqiqatan ham, monologik nutq tinglovchiga maroqli va tushunarli bo‘lishi uchun maktab yoshidagi bola, avvalo, xotira va mantiqiy fikrlashga tayanmog‘i lozim.

Xulosa:

- til – hayotimizning ajralmas qismi bo‘lib, biz unga o‘z-o‘zidan bo‘lishi shart bo‘lgan narsa sifatida qaraymiz. Tilning o‘zi nima, biz unda qanday so‘zlayapmiz, biz qanday qilib so‘zlashni o‘rganishimiz haqida esa unchalik ko‘p o‘ylab ham o‘tirmaymiz;

- nutq madaniyati – bu to‘g‘ri so‘zlay olish, ya‘ni, nutqiy muloqot shartlari va fikr bildirishdan ko‘zlangan maqsadni hisobga olgan holda, barcha til vositalaridan (til vositalaridan, shu jumladan intonatsiya, leksik zaxira, grammatik shakllardan) foydalanib, bayon qilinayotgan mazmunga mos holda gapirishdan iboratdir;

- nutq o‘stirish nazariyasi va metodikasi ijtimoiy fanlar tizimiga kiruvchi fan sanalib, maktab yoshidagi bolalarni jismoniy va ruhiy kamolotini tarbiyalash, unga ta‘lim berish muammolarini o‘rganadi;

- maktab yoshidagi bolalar nutqini rivojlantirishda nutqni tuza bilish darajasini ko‘tarish maktab ta‘lim tizimi metodistlari oldidagi asosiy vazifalardandir.

- maktab yoshidagi bolalar nutqini o‘stirishda nutq – dialogik va monologik nutqni rivojlantirishga alohida e‘tibor berish zarur bo‘ladi

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ochilov M. O‘qitish usuli – pedagogik texnologiyalarning asosiy komponenti. “Xalq ta‘limi”, 1999, 6-son, 32 – 35-betlar.
2. G‘afforova T. va boshqalar. 1-sinf savod darslari. T., «O‘qituvchi», 1996.
3. Qodirova F.R., Qodirova R.M. Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. T., “Istiqlol”, 2006.
4. Qo‘chqorova M. Maqsadga erishish yo‘lida. Bolalar o‘yinlari orqali olgan bilimlar. “Boshlang‘ich ta‘lim”, 1999, 3-son, 30 – 31-betlar.
5. Qurbonov T. Yoshlarda milliy g‘ururning shakllanishida madaniy mehriining roli. Avtoref. dis. ped fan.

nom., T., 2005, 24 bet.

6. Saloxitdinova Navro'za Murodulla qizi. Development prospects of primary education integration (on the example of exact and natural sciences). Jamiyat va innovatsiyalar jurnali, p. 221–225. Special Issue-7 (2021).

7. Saloxitdinova N.M. Boshlang'ich sinflarda integratsiyalashgan ta'limni takomillashtirish texnologiyasi "Mu'jalim ham uzliksiz bilimlendiriy" ilmiy-metodik jurnali, Nukus, O'zbekiston Pedagogika fanlari ITI Qorqalpoq'iston filiali, 2022, 6/7-son, 68–73-betlar.

8. Saloxitdinova N.M., Erdanayev R.X. Raqamli dunyo sharoitida ta'limga innovatsion yondashuvning pedagogik asoslari. Yangi O'zbekistonda pedagogika fanini innovatsion rivojlantirish istiqbollari. Nazariya va amaliyot ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. 2021/10/06, 271 – 274-betlar.

9. Saloxitdinova N.M. Raqamli dunyo sharoitida boshlang'ich ta'limda aniq va tabiiy fanlar integratsiyasining rivojlanish istiqbollari. "TISU ilmiy tadqiqotlari xabarnomasi", ilmiy-uslubiy jurnal, 1-son, 2023, 150 – 156-betlar.

**Toshpulatov Akmal Xolmirzayevich (Termiz davlat universiteti tayanch doktoranti;
akmaljon767626@gmail.com)**

ADABIYOT DARSLARIDA NAFOSAT TARBIYASIGA OID SAVOL-TOPSHIRIQLAR SIFATI VA SAMARADORLIGINI OSHIRISH

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada adabiyot darslarida estetik tarbiyaga oid savol-topshiriqlar didaktik tamoyil, talab va mezonlar asosida mantiqan ketma-ket, izchil bayon qilingan.*

***Аннотация.** В данной статье вопросы и задания, связанные с эстетическим воспитанием на уроках литературы, представлены в логической последовательности и связно на основе дидактического принципа, требований и критериев.*

***Annotation.** In this article, questions and tasks related to aesthetic education in literature lessons are presented in a logical sequence and coherently based on the didactic principle, requirements and criteria.*

***Kalit so'zlar:** ta'lim, tarbiya, mas'uliyat, imkoniyat, tizm, vatanparvarlik, milliy g'urur, nazorat, hodisa, jarayon, tushuncha, muammo, xususiyat, fikrlash, tafakkur, tajriba.*

***Ключевые слова:** образование, воспитание, ответственность, возможность, система, патриотизм, национальная гордость, управление, событие, процесс, концепция, проблема, особенность, мышление, мышление, опыт.*

***Key words:** education, upbringing, responsibility, opportunity, system, patriotism, national pride, management, event, process, concept, problem, feature, thinking, thinking, experience.*

O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni hamda «Uzluksiz ta'lim konsepsiyasi», «Davlat ta'lim standartlari», davlatimiz rahbarining milliy maktab yaratish haqidagi farmoyishlari milliy pedagogik merosimiz, adabiy ta'lim-tarbiya bilan bog'liq tadqiqot ishlari, «Adabiyot fani o'quv dasturi» (umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun) talablari adabiy ta'lim va tarbiyani insonparvar, demokratik tamoyillarga tayangan holda olib borishni shart qilib qo'ydi. Maktabda mustaqil fikr yuritish ko'nikma va malakalarini egallash qaysi davrdan boshlanadi? Bu borada adabiy ta'lim-tarbiya zimmasiga nechog'li mas'uliyat yuklatilgan? Adabiyot darslarida savol-topshiriqlar ustida ishlashning ta'limiy didaktik asoslari nimalardan iborat? Shu va shunga o'xshash savollarga javob berish, savol-topshiriqlar ustida ishlash usullarini ta'lim-tarbiyaviy jarayoniga tatbiq etish mazmuni va shakllarining aniq belgilanishini taqozo etadi.

Sobiq sho'ro tuzumi davrida tendensioz ruhdagi didaktik va metodik talablar ma'lum ma'noda o'quvchilarning mustaqil fikr yuritishlarni cheklab qo'ygan edi. Sobiq Ittifoq hududidagi barcha umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim-tarbiyaning yagona talabga bo'ysundirilgan o'quv dasturi asosida tashkil etilishi natijasida ikki yilliksiz o'qitish, o'qituvchining yakka hukmronligi o'quvchilarning mustaqil faoliyatiga, kreativ tafakkurini yuksaltirishga ko'p hollarda izn bermas edi.

O'quv qo'llanmalari darsliklarni qisman to'ldiradi, muayyan fan dasturi bo'yicha fan asoslarining chuqur o'zlashtirilishini ta'minlaydi, ayrim bob va bo'limlarni kengroq tarzda yoritishga mo'ljallanadi.

O'quv qo'llanmalarida muayyan mavzular darslikka nisbatan kengroq yoritiladi. Masalan, A. Hojiahmedovning «She'riy san'atlarni bilasizmi?»¹ Q.Husanboyevaning «Adabiy ta'limda mustaqil fikrlashga o'rgatish asoslari»,² T.Boboyevning «She'r ilmi ta'limi»,³ Z.K.Kudasheva, S.S.Magdiyevalarning ikki qismdan iborat «Adabiyot o'qitish metodikasi»⁴ o'quv qo'llanmalarida adabiyot dasturlari va darslik-

¹ Ножиахмедов А. Шейрий санъатларни биласизми? Т., «Шарк», 1991.

² Хусанбоева Қ. Адабий таълимда мустақил фикрлашга ўргатиш асослари. Т., Ўзинкоммарказ, 2003.

³ Бобоев Т. Шейр илми таълими. Т., «Ўқитувчи», 1996.

⁴ Кудашева З.К., Магдиева С.С. Методика преподавания литературы. В 2-х частях. Т., ТГПУ им.Низами, 2004.

larida berilgan mavzular bo'yicha ma'lumotlar to'la qamrab olingan bo'lib, tegishli darajada savol-topshiriqlar keltirilgan.

Metodik qo'llanmalar bevosita o'qituvchilar uchun mo'ljallangan. Bu xildagi adabiyotlar muayyan o'quv fani yuzasidan o'quvchilarning ta'lim mazmunini o'zlashtirishlariga doir metodik ko'rsatmalar berilishi, dars o'tish vositalari va usullari, darslarning mazmuni, amaliy mashg'ulotlar, qo'shimcha topshiriqlar haqida tavsiyalar bayon qilinishi, eng muhimi, muammoning qo'yilishi va yechimi bilan bog'liq tahlil usullari yoritilishiga ko'ra, o'ziga xos xususiyat kasb etadi. Masalan, tajribali metodist O.Madayevning «Insho qanday yoziladi?»¹ nomli metodik qo'llanmasida insho turlari, ularning o'quvchilar yozma nutqini o'stirishdagi ahamiyati insholar tahlili asosida ko'rsatilgan bo'lsa, professor Q.Yo'ldoshevning «O'qituvchi kitobi»² metodik qo'llanmasida umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-sinfi adabiyot darslarida o'rganilishi ko'zda tutilgan badiiy asarlarning namunaviy tahlillari berilgan. Shuningdek, adabiyot darslarini o'qitish, dastur va darslik-majmuadan foydalanish hamda badiiy asar tahlilini amalga oshirish yuzasidan foydali metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan. Ularda adabiyot darslarida o'rta tashlanadigan savollar muammoning qo'yilishi, topshiriqlar muammoning yechimi bilan bog'liq metodik unsurlar sifatida tilga olinadi.

So'nggi yillarda ilm-fan taraqqiyoti tufayli har xil sohaga doir ma'lumotlar to'plami, ma'lumotlar jamg'armasi, elektron darsliklar, multimedialar yaratish o'quvchilarni jahon standarti talablariga javob beradigan, har jihatdan bilimdon kadrlar qilib tarbiyalash vazifasiga bo'yusundirilgandir. Jumladan, ma'lumotlar to'plami u yoki bu sohaga tegishli ta'lim yo'nalishini o'zlashtirish uchun zarur bo'lgan, isbot talab qilmaydigan ma'lumotlar, ilmiy metodik ko'rsatkichlar majmuyi hisoblanadi.

Masalan, S.Matjon va Sh.Sariyevlarning «O'zbek adabiyoti»³ qo'llanmasi adabiyotdan matbuotda e'lon qilingan jamiki test topshiriqlari bo'yicha ma'lumotlar majmuasi sifatida foydalanishga qulayligi bilan ajralib turadi.

Ma'lumotlar jamg'armasi axborotlashtirilgan kompyuter texnologiyalarining imkoniyatlari va vositalari asosida yaratilgan bo'lib, statik va dinamik rejimda tuzilgan, tovush va rangli tasvirlar bilan ta'minlangan, katta hajmdagi axborotlarni o'z ichiga olgan va ularni turli ko'rinishda (jadvallar, diagrammalar, gistogramma, matn, rasm va h.k.) bera oladigan, o'quv jarayonida o'quvchilarning o'z ustida mustaqil ishlashlari va bilimlarini nazorat qilish uchun doimiy ravishda to'ldirib boriladigan, keng doirada foydalanishga mo'ljallangan, davlat ro'yxatidan o'tgan ma'lumotlar to'plami.

Bundan tashqari, fanning ayrim sohalar bo'yicha alifbo tartibidagi so'z va terminlarning ikkinchi tildagi muqobillari majmuasi tarzida yaratiladigan lug'atlar ham bevosita ilmiy-nazariy mazmundagi savol-topshiriqlar ustida ishlash bilan bog'liq qo'shimcha manbalar sifatida qadrli. Masalan, H.Homidiy, S.Ibrohimova, M.Ahmadboyevalarning «Adabiyotshunoslik terminlari lug'ati»,⁴ B.Sarimsoqov, N.Hotamovlarning «Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o'zbekcha qisqacha izohli lug'ati»⁵ da adabiyotshunoslik terminlarining grammatik, etimologik va ilmiy-nazariy tavsifi berilgan, ularni amalda qo'llashga oid misollar, ma'lumotlar keltirilgan. Bunday lug'atlardan har xil turdagi mustaqil ishlarni bajarish, jumladan, masofali o'qish, kreativ, sharxli o'qish, matn ustida ishlashga doir mashg'ulotlardan unumli foydalanish mumkin.

Dayjest davriy adabiyotlar mazmunining qisqacha bayoni va sharhi keltirilgan ma'lumotlar to'plami sifatida yangi pedagogik texnologiyalar asosida internet tarmog'idan foydalanishga keng yul ochadi.

Elektron adabiyotlar kompyuter texnologiyasiga asoslangan o'quv uslubini qo'llashga, mustaqil ta'lim olish hamda fanga oid o'quv materiallari, ilmiy ma'lumotlarni har tomonlama samarali o'zlashtirishga mo'ljallangan. Ularda:

- a) ilmiy materiallar faqat verbal (matn) shaklida;
- b) o'quv materiallari verbal (matn) va ikki o'lchamli grafik shaklida;
- d) «multimedia» – (ko'p axborotli) qo'llanmalar, ya'ni, ma'lumotlar uch o'lchamli grafik ko'rinishda, ovozli, video, animatsiya va qisman verbal (matn) shaklida yaratiladi.

Ko'rinadiki, savol-topshiriqlar ustida ishlash muhim didaktik muammolardan sanaladi. Ammo metodik adabiyotlarda unga yetarli e'tibor berilmayotgani afsuslanarlidir. Holbuki, adabiyot darsliklari va darslik-majmualarda berilayotgan savol-topshiriqlar ma'lum ma'noda o'qituvchi uchun ham, o'quvchilar uchun ham umumiy yo'llanma vazifasini bajaradi. O'qituvchi ulardan tashqari o'zi tuzadigan savol-top-

¹ Мадаев О. Иншо қандай ёзилади? Т., «Ўқитувчи», 1991.

² Қ.Йулдошев. Ўқитувчи китоби. Т., «Ўқитувчи», 1996.

³ Матжон С., Сариев Ш. Ўзбек адабиёти. Т., Низомий номидаги ТДПУ, 2003.

⁴ Хомидий Х., Иброхимова С., Аҳадбоева М. Адабиётшунослик терминлари луғати. Т., «Ўқитувчи», 1967.

⁵ Саримсоқов Б., Хотамов Н. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча қисқача изоҳли луғати. Т., «Ўқитувчи», 1982.

shirshqarga ham asoslanib, o'quvchilarning mavzu (badiiy, ilmiy, ilmiy-metodik matnlar) yuzasidan o'zlashtirgan bilimlari, ko'nikma va malakalari darajasini aniqlaydi, adabiy-nazariy tushunchalarini boyitishga turtki beradi.

O'quvchilarning darslik va darslik-majmua materiallarini to'larok, o'zlashtirishlari uchun darsda qo'llaniladigan tahlil turiga qarab, beriladigan savol-topshiriqlar mazmun-mohiyati ham o'zgaradi. Masalan, umumiy o'rta ta'lim maktablarining adabiyot darslarida ko'proq murojaat qilinadigan ilmiy tahlil, metodik tahlil, didaktik tahlil kabi tahlil jarayonida o'rganiladigan material janri, mazmuni va darsning maqsadi kabi qator omillar savol-topshiriqlarda ham o'z aksini topadi.

Tushunilishi murakkab bo'lgan matnlar yuzasidan beriladigan savol-topshiriqlar ustida ishlash jarayonida izohli uqish, lug'at ustida ishlash, sinonimlardan foydalanish kabi ijodiy ishlarga murojaat qilinsa o'quvchilarning faolligi oshadi. Shu jarayonda o'zi o'zlashtirgan bilimlarni amaliyotda qo'llashi natijasida o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyati shakllana boradi, ijodiy tafakkuri yuksaladi.

Xar qanday fanga doyr bilim va tushunchalar faqat o'quvchilarning aqligagina emas, balki qalbi va his-tuygusiga ham ta'sir ko'rsatgandagina ta'lim-tarbiya uyg'unligiga erishish mumkinligi metodika ilmiyda allaqachon o'z isbotini topgan haqiqatdir. Bu borada adabiyot darslarida didaktik tahlildan foydalanish, shubhasiz, o'zining ijobiy natijalarini beradi.

Adabiyot darslarida didaktik tahlilni qo'llash orqali, birinchidan, o'quvchilar qo'yilgan masalani o'rganishga tayyorlanadi, ikkinchidan, darslik va darslik-majmualardagi badiiy, ilmiy va ilmiy-metodik matnlar ustida ishlash, qo'shimcha adabiyotlardan foydalanish malakalarini egallay boradilar, uchinchidan, adabiy-nazariy tushunchalarni amalda qo'llash hamda o'zlari bajargan mustaqil ishlardan tug'ri xulosalar chiqarishga o'rganadilar.

Yuqoridagi fikr-mulohazalardan quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. Dastur bo'yicha o'zlashtirilishi ko'zda tutilgan bilim, ko'nikma, kompetensiya va malakalar savol-topshiriqlar yordamida to'la amalga oshirilishi mumkin. Shunga ko'ra, savol-topshiriqlar ustida ishlash g'oyat muhim didaktik muammo sanaladi.

2. Darslik va darslik-majmualaridagi savol-topshiriqlar o'qituvchi uchun ham, o'quvchi uchun ham yullanma vazifasini taydi. Ammo tayyor savol-topshiriqlarning o'zi bilangina cheklanmasdan, o'quvchilarning saviyasi va qiziqishiga qarab savol-topshiriqlar tuzish ta'lim samaradorligiga yo'l ochadi.

3. O'rganilayotgan adabiy material janri, mazmuni va darsning maqsadi ham savol-topshiriqlarda o'z aksini topishi maqsadga muvofiq.

Asqarova Manzura Avazbekovna (Namangan davlat universiteti
tadqiqotchisi (PhD); e-mail-kuldasheva80@bk.ru)

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA O'QISH VA MATNNI TUSHUNISH KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISHDA PISA XALQARO BAHOLASH DASTURIDAN FOYDALANISH

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish va matnni tushunish kompetensiyalarini rivojlantirishda PISA xalqaro baholash dasturidan foydalanishning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritilgan.*

***Аннотация.** В статье рассматривается научная и практическая важность использования программы международной оценки PISA для развития навыков чтения и понимания текста у учащихся начальной школы.*

***Annotation.** This article discusses the scientific and practical importance of using the PISA international assessment program for the development of reading and text comprehension skills in elementary school students.*

***Kalit so'zlar:** PISA, savodxonlik, bilim, kompetentsiya, baholash, taraqqiyot, strategiya, samaradorlik.*

***Ключевые слова:** PISA, грамотность, знания, компетентность, оценка, прогресс, стратегия, эффективность.*

***Key words:** PISA, literacy, knowledge, competence, assessment, progress, strategy, efficiency.*

O'quvchilarning ta'lim yutuqlarini baholash bo'yicha xalqaro PISA dasturi (ingl. Programme for International Student Assessment, PISA) – dunyoning turli mamlakatlaridagi maktab o'quvchilarining funksional savodxonligini va bilimlarni amalda qo'llash qobiliyatini baholaydigan test qatoriga kiradi. Bu har uch yilda bir marta o'tkazilib, sinovda 15 yoshli o'smirlar ishtirok etadi. 1997-yilda ishlab chiqilgan, birinchi marta 2000-yilda o'tkazilgan. PISA testlari milliy markazlar ishtirokida yetakchi xalqaro ilmiy tashkilotlar bilan konsorsiumda iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti tomonidan tashkil etiladi.

Konsorsium ushbu tadqiqotlarga rahbarlik qiladi. Xalqaro dasturlar Avstraliya Pedagogik tadqiqotlar ke-
ngashi (ACER), Gollandiya milliy Pedagogik o'Ichovlar instituti (CITO), AQSH pedagogik test xizmati
(ETS), AQSH (WESTAT), Yaponiyadagi Ta'lim tadqiqotlari milliy instituti (NIER) tomonidan kabi nu-
fuzli tashkilotlar doirasida amalga oshiriladi. PISA tadqiqoti monitoring bo'lib, u turli mamlakatlardagi
ta'lim tizimlarida sodir bo'layotgan o'zgarishlarni aniqlash va solishtirish hamda ta'lim sohasidagi stra-
tegik qarorlar samaradorligini baholash imkonini beradi.

Tadqiqotda iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotiga a'zo davlatlar hamda OECD bilan ham-
korlik qiluvchi davlatlar ishtirok etadi. Bunday mamlakatlar soni sezilarli darajada oshib bormoqda. PISA
tadqiqoti ta'lim monitoringi bo'lib, u turli mamlakatlardagi ta'lim tizimlarida bo'layotgan o'zgarishlarni
aniqlash va solishtirish hamda ta'lim sohasidagi strategik qarorlar samaradorligini baholash imkonini be-
radi [3].

PISA tadqiqotida ta'lim sifatini monitoring qilish to'rtta asosiy yo'nalish bo'yicha amalga oshirila-
di: o'qish savodxonligi, matematik savodxonlik, fan savodxonligi va kompyuter savodxonligi kabilar.
PISA 2000–2015 dagi tadqiqotlari natijalariga ko'ra, Sharqiy Osiyo mamlakatlari: Xitoy, Koreya, Singa-
pur, Yaponiya, Yevropada Finlyandiya, Estoniya, Shveysariya, Polsha va Niderlandiyada eng yaxshi o'rta
ta'lim natijalari qayd etilgan. 2000-yilda testda 32 mamlakatdan 265 ming o'quvchi qatnashdi. Asosiy
mavzu matnni o'qish va tushunish qobiliyatini sinab ko'rishdan iborat. Ushbu test savollarining uchdan
ikki qismi aynan shu bilan bog'liq bo'lib, Rossiya o'qish bo'yicha 462 ball (27-o'rin), matematika bo'yi-
cha 478 ball, ilmiy savodxonlik bo'yicha 460 ball to'plagan.

2018-yilgi tadqiqotda asosiy e'tibor so'nggi yillarda dunyoda o'qish savodxonligining rivojlanish
tendensiyalarini aniqlash va funksional o'qish savodxonligini baholashga qaratildi. Tadqiqotda Rossiya
Federatsiyasining 43 mintaqasidagi 200 dan ortiq ta'lim tashkilotlaridan 8 mingdan ortiq o'quvchi ishti-
rok etishi rejalashtirilgan. Namuna o'rta kasb-hunar ta'limi maktablari va ta'lim muassasalarining 15
yoshli o'quvchilarini o'z ichiga olgan. Rossiya Federatsiyasida tadqiqotlar Rao ta'limni rivojlantirish stra-
tegiyasi institutining ta'lim sifatini baholash markazi tomonidan federal va mintaqaviy ta'limni boshqa-
rish organlarining faol ishtirokida ta'lim sifatini baholash federal instituti bilan birgalikda amalga oshiril-
di. Ish ta'limni rivojlantirish bo'yicha federal maqsadli dastur doirasida amalga oshirildi [2].

OECDga a'zo davlatlar va hamkorlar Coviddan keyingi qiyinchiliklarni aks ettirish uchun PISA
2021 bahosini 2022-yilgacha, PISA 2024 bahosini esa 2025-yilgacha kechiktirishga qaror qilishdi.

PISA-2022 ijodiy fikrlash uchun matematikaga qo'shimcha test o'tkazildi. Yangi PISA-2022 mate-
matik tizimi ishga tushirilib, ushbu testga tayyorgarlik OECDga a'zo 38 mamlakatdan va ehtimollik bilan
50 dan ortiq a'zo bo'lmagan mamlakatlardan kelgan ishtirokchilar bilan olib boriladi.

PISA-2025 ilm-fanga va chet tillarini bilishga oid yangi baholashga e'tibor qaratadi. Shuningdek, u
o'quvchilarning raqamli vositalardan foydalangan holda, raqamli innovatsion ta'lim sohasini o'z ichiga
oladi.

PISA tadqiqotlari nafaqat o'quvchilarning yutuqlarini baholashga, balki, umuman, mamlakatning
maktab ta'limi tizimidagi zaif tomonlarni aniqlashga qaratilgan. PISA natijalari xalqaro ta'lim tenden-
siyalariga, muvaffaqiyat, ijodiy salohiyatni ro'yobga chiqarish va jamiyat bilan to'liq o'zaro munosabat-
larga bog'liq bo'lgan zamonaviy insonning asosiy ko'nikmalariga aylangan yangi muhim vakolatlarga
ega bo'lish natijalaridir.

O'quvchilar savodxonligi bo'yicha ekspertlar guruhi o'n to'rtta misolni ma'qulladi. Ochiq topshi-
riqlar va ularga kiritilmagan yettita misol o'quv topshiriqlari sifatida qabul qilingan. Har bir vazifa bitta-
sining bir qismidir yoki ikkita bo'limi ochiq vazifalar misollarida taqdim etilganidek, vazifalar o'qish
qobiliyatlari bilan bog'liq holda joylashtirilgan. O'qish va matnni tushunish kompetensiyalarni shakllan-
tirish darajasi quyidagicha tavsiflanadi.

O'qish qobiliyatlari. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish va matnni tushunish, ma'lumotni
olish va umumlashtirish murakkab kognitiv jarayon hisoblanadi. PISA ko'rsatmalarida o'qish qobiliyat-
lari o'rtasidagi munosabatlar tasvirlangan va kognitiv funksiyalar qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.
O'quvchilarning savodxonligini baholashda muhim bo'lgan ko'nikma (jihatl)lar quyidagicha bo'ladi.

PISA topshiriqlari:

1. Ma'lumotni topish va kerakli jihatlarni ajratib olish.
2. Olingan axborotlarni boshqa fanlar bilan integratsiya qilish.
3. Ma'lumotni tushunish va baholash.

Quyida tegishli guruhlar doirasida o'qish qobiliyatining qisqacha tavsifi keltirilgan.

– ma'lumotni topish va kerakli jihatlarni ajratib olish;

– matnni o'qish va ma'lumotni topish;

– bir necha turdosh so'zlardan iborat bo'lgan ma'lumotlar;

- jumlar yoki raqamlar.
 - matndan topshiriqqa doir bir nechta ma'lumotlarni qidirish;
 - matn mazmunini birlashtirish va tahlil qilish [2];
 - so'zma-so'z ma'noni aniqlash–jumlalarining so'zma-so'z ma'nosini tushunish yoki, odatda, savol-ga xos bo'lgan qisqa parchalarni izohlash;
 - jumlada yoki parchada berilgan ma'lumotlarning parafrazasi;
 - xulosalarni umumlashtirish va berilgan ma'lumotlarning yig'indisidan umumiy xulosa chiqarish.
- Yuqori berilgan asosiy g'oyani shakllantirish, xulosa yozish yoki sarlavha qo'yish o'quvchilardan talab qilinadi.

Tushunish va baholash. Matndagi ma'lumotlar tekshirish-ishonchlilik, dolzarblik, aniqlik, obyektivlikni baholash asosida takomillashtiriladi. O'quvchilar ma'lumot manbasini baholashlari, matnning mazmuni va shaklini tahlil qilishi zarur. Bunday vazifalar, ko'pincha, o'quvchilardan murojaat qilishni, turli xil matn mazmunini taqqoslashi uchun o'z tajribasi va bilimiga yoki o'z nuqtayi nazarini bildirish, qarama-qarshiliklarni aniqlash va qanday mos kelishini aniqlash, matn parchalarida qarama-qarshiliklar mavjud bo'lsa, qanday bartaraf etish lozimligini o'ylab, mushohada qilishi kerak. Masalan, "aniqlash" turidagi vazifani hal qilish va qarama-qarshiliklarni bartaraf etish uchun o'quvchidan quyidagilarni talab qilishi mumkin: ikki muallif biron-bir masala bo'yicha bitta pozitsiyaga rioya qiladimi yoki aniqlaydimi ularning har birining nuqtayi nazarini tahlil qila olishi kerak. Bundan tashqari, bunday vazifalar bo'yicha o'quvchidan manbalarning ishonchligini tahlil qilish va muallif buni aniq namoyish etishi, matnda faqat ishonchli manbalardan olingan ma'lumotlardan foydalanish talab etiladi.

Matn turlari. Matnlarning qiyinlik darajasiga ko'ra, besh xil omil bo'yicha tasniflash mumkin: gipermatnlar, statik matnlar, dinamik matnlar, uzluksiz matnlar, aralash matnlar, hikoyalar.

Gipermatnlar. Gipermatn – bir yoki bir guruh mualliflar tomonidan yozilgan va sanasi ko'rsatilgan matn hisoblanadi.

Murakkab matn – turli mualliflar tomonidan yozilgan va har xil vaqtga ega bo'lgan matnlar nashrlar, sarlavhalar yoki raqamlardan iborat bo'ladi.

Statik matnlar – bu oddiy tashkil etilgan va oz sonli matnlar odatda bir yoki bir nechta chiziqli tarkibdan iborat joylashtirilgan sahifalar.

Dinamik matnlar – bu yanada murakkab, chiziqli bo'lmagan tashkilotga ega matnlar hisoblanadi.

Uzluksiz matnlar–bu bir qator ro'yxatlar yoki elementlardan tashkil topgan matnlar jadvallar, grafikalar, diagrammalar, reklamalar, kataloglar, indekslar va shakllarni o'z ichiga oladi.

Aralash matnlar – bu murakkab elementlar to'plamidan tashkil topgan, bir nechta ma'nolarni anglatuvchi va aralash ma'lumotlar berilgan matnlar hisoblanadi.

Hikoya – bu matn turi bo'lib, unda ma'lumotlar obyektlarning xususiyatlariga ishora qiladi. Unda turli xil elementlarning qanday ishlashini tushuntirib beradigan matn turi ular bir butunga birlashadi, ko'pincha, "qanday" degan savolga javob beradi (masalan, ilmiy maqola, xotira modeli sxemasi, aholi sonining o'zgarishini ko'rsatadigan grafik va hokazo).

Vaziyatlar. O'qish – bu maqsadli faoliyat bo'lib, o'quvchi xohlagan jarayon muayyan maqsadga erishish, masalan, to'ldirish uchun kerakli ma'lumotlarni topish shakl yoki suhbatni davom ettirish uchun ma'lum bir mavzuni tushunishni shakllantiradi. Maqsad an'anaviy ravishda o'quvchilarning savodxonligi bo'yicha topshiriqlar bir nechta savollarga javob berishdir. Matnning umumiy mavzusida va keyingi vazifaga o'tish, an'anaviylardan farqli o'laroq, o'quvchilarning savodxonligi bo'yicha topshiriqlar vaziyatlariga asoslangan bo'ladi. Har biri bo'lim matnini o'qishning asosiy maqsadini tavsiflovchi xayoliy vaziyat bilan boshlanadi yoki bo'limdagi bir qator matnlar o'quvchiga imkon beradigan kontekst va maqsad beriladi.

Ma'lumotni topish, tushunish va birlashtirish usullarini aniqlash. Ushbu vazifalar quyidagilarga asoslangan vaziyatlarning toifalarini tavsiflaydi.

O'quvchilarning savodxonligini baholash bo'yicha o'quv vaziyatlariga asoslangan kontekstlar ishlab chiqilgan. Kontekstlar – PISA topshiriqlarining asosi sanaladi. Kontekst hayotiy muammoli vaziyatlar aks etgan topshiriqlardir. O'z navbatida, kontekstlar shaxsiy, mahalliy va milliy (global) darajalarga bo'linadi. To'g'ridan to'g'ri tadqiqot maqsadlari va vazifalari uchun bunday misollar matnlar darsliklarda berilgan biror-bir matn yuzasidan vazifa va topshiriqlarni ishlab chiqish va o'quvchilarga vazifa va topshiriqlar asosida beriladi. Matn asosida:

1. Hodisalarni ilmiy jihatdan tushuntira olish kompetensiyasi.
2. Ilmiy tadqiqotlarni loyihalash va baholash kompetensiyasi.
3. Ma'lumotlar va dalillarni ilmiy talqin qilish kompetensiyasi shakllantiriladi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy fanlardan sa-vodxonligini baholashga qaratilgan xalqaro baholash dasturi natijalari asosida dunyo mamlakatlari o'quv dasturlarida mavjud talablar doirasida o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini hayotiy vaziyatlarda qo'l-lash, fikrlash va muloqot qilish qobiliyatlarini aniqlashga yordam beradi.

Foydalanilgan abadiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 28-iyuldagi «Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida»gi PQ-3160-sonli qarori.
2. Андреас Шляйхер. Сила учителя – сердцевина образования» основатель исследования PISA. 9 июнь 2022.
3. Журнал «Отечественная и зарубежная педагогика». № 5 (79), т.2, 2021, выпуск посвящен между-народным сравнительным исследованиям TIMSS и PISA.2.https://www.ivege.ru/content/work/international_studies/pisa.

Rasulova Zulfiya Rasul qizi (Termiz davlat Pedagogika instituti

“Pedagogika” kafedrası o'qıtuvchisi; rasulovazulfiya281@gmail.com)

O'QUVCHILARNI TARBIYALASHDA OILA, MAHALLA, MAKTAB HAMKORLIGI

Annotatsiya. Ushbu maqolada oilaning muqaddasligi, o'zbek oilalarga xos bo'lgan an'analar, o'quvchilarni tarbiyalashda oila, mahalla, maktab hamkorligi haqida so'z boradi. Ta'lim-tarbiya va odob-axloq masalalarida qadriyatları, buyuk mutafakkirlarimiz ta'limotlariga tayangan holda, har tomonlama yetuk, mukammal inson bo'lib yetishish uchun zarur bo'lgan oilaviy munosabatlarning eng muhim masalalariga, ota-onaning oiladagi burchi va bu borada mas'uliyatli yondashishiga e'tibor berilgan.

Аннотация. В данной статье говорится о святости семьи, традициях узбекских семей, сотрудничестве семьи, соседства и школы в воспитании учащихся. Опираясь на ценности воспитания и нравственности, учения наших великих мыслителей, важнейшим вопросам семейных отношений, долгу родителей в семье и ответственному подходу в этом отношении уделено внимание.

Annotation. This article talks about the sanctity of the family, the traditions of Uzbek families, the cooperation of the family, neighborhood, and school in educating students. Based on the values of education and morals, the teachings of our great thinkers, the most important issues of family relations, the duty of parents in the family and a responsible approach in this regard attention is given.

Kalit so'zlar: oila, ma'naviy-axloqiy rivojlanish, mazmun, metod, xususiyat, g'oya.

Ключевые слова: семья, духовно-нравственное развитие, содержание, метод, характеристика, тема.

Key words: family, spiritual and moral development, content, method, characteristics, topic.

Kirish. Yoshlarni baynalmilal jahon hamjamiyatida, xalqaro maydonda O'zbekistonga munosib hurmat tug'dirish uchun intilish ruhida tarbiyalash, yosh avlodni vatanparvarlik, el-yurtga sadoqat, yuksak odamiylik va insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalash, yosh avlodni ulug' ajdodlarimizning munosib vorislari ekanliklari, ayni vaqtda, jahon va zamonning umumbashariy yutuqlarini egallash ruhida tarbiyalash O'zbekistonda o'quvchi-yoshlarni tarbiyalashning eng dolzarb masalasidir.

Ta'lim-tarbiya sohasidagi islohotlar – ijtimoiy-siyosiy iqlimga ijobiy ta'sir ko'rsatishga, umuman, mamlakatdagi mavjud muhitni butunlay o'zgartirishga, insonning hayotda o'z o'rnini topishini tezlashtirishga, jamiyatda mustaqil fikrlovchi erkin shaxsni shakllantirishga; insondagi mavjud salohiyatni to'la ro'yobga chiqarishga, umumiy va maxsus bilimlarga ega, ongli, tafakkuri ozod, zamonaviy dunyoqarash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga voris bo'lgan, kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etadigan komil insonlarni tarbiyalashga qaratilgan.

Milliy tarbiya yo'nalishi orqali yoshlarda o'zlikni anglash, vatanparvarlik, milliy g'urur, millatlararo muloqot madaniyati, milliy mafkuraviy ongliklik, milliy odob, fidoyilik fazilatları shakllantiriladi. Umuminsoniy yo'nalishda huquqiy, iqtisodiy, jismoniy, aqliy, estetik, ekologik, gigiyenik va boshqa tarbiya yo'nalishlari amalga oshiriladi. Oila, maktab, mahalla hamkorligi bugungi kunning ma'naviy, ma'rifiy, mafkuraviy, tarbiyaviy zarurati ekanligini bildiradi. Yosh avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda xalqimizning boy milliy, madaniy, tarixiy an'alariga, urf-odatlariga hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali, zamonaviy pedagogik texnologiyaning ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etilishi, shaxsni tarbiyalash va uni har tomonlama kamol toptirishning ustuvorligini ta'minlash;

umumiy hamda milliy pedagogik madaniyatni oshirish, mamlakatimiz fuqarolari orasida milliy-mafkuraviy tarbiya ishlarini takomillashtirish oila, mahalla, maktab hamkorligining asosiy maqsadidir.

Tahlil va natijalar. O'zbekistonda ro'y berayotgan o'zgarishlar "Oila, mahalla, maktab hamkorligi" yo'nalishidagi bola tarbiyasida oila, ota-ona, mahalla, maktabning asosiy vazifalarini mazmunan yangilab hayotga tatbiq etishni taqozo qiladi.

"O'quvchilarni tarbiyalashda oila, mahalla, maktab hamkorligi" Konsepsiyasini amalga oshirish jarayonida oilaning vazifalari: oilada sog'lom muhitni yaratish, milliy ruh va turmush tarzini hisobga olish, farzandlar uchun ota-ona har tomonlama o'rnak bo'lishi, farzandlarning ota-onasiga, Vatanga muhabbat tuyg'usini shakllantirish, o'zaro g'amxo'r bo'lishni ta'minlash; oilada huquqiy tarbiyani yaxshilash, oila a'zolarining o'z huquq va burchlarini anglab yetishlarini va ularga rioya qilishlarini ta'minlash; farzandlariga chuqur dunyoviy bilim asoslarini berish, ma'rifatli va ma'naviyatli kishilar bo'lib yetishish, bozor munosabatlariga mos bo'lgan kasb-hunar o'rgatish, iqtisodiy tushunchalarni farzandlar ongiga singdirish, bolalarning ma'naviy barkamol va jismonan sog'lom bo'lishlari uchun iqtisodiy va ijtimoiy muhitni yaratish, bolalarni mustaqil fikrlashga o'rgatish, istiqloq g'oyalari va milliy mafkuraga sadoqat ruhida tarbiyalash; bolalarning bo'sh vaqtlarini pedagogik nuqtayi nazardan kelib chiqib, unumli tashkil qilish, ularga qo'shimcha ta'lim berish, farzandlarida mavjud bo'lgan iste'dod kurtaklarini rivojlantirish uchun zarur sharoitlarni yaratish, o'z farzandlarining maktab, mahalla, davlat va jamiyat oldidagi burchlarini to'la ado etishlari uchun oilada mas'uliyatli bo'lish, ota-onalar o'zlarining pedagogik va psixologik bilim saviyalarini doimo oshirib borishi, bolalarda tejamkorlik va ishbi-larmonlikning ma'naviy axloqiy tomonlarini shakllantirish, oilada milliy va umuminsoniy tarbiyaning barcha yo'nalishlarini uyg'un holda bosqichma-bosqich amalga oshirishga mas'ullikni ta'minlash; sanitariya-gigiyenik, ekologik ko'nikmalarni singdirish, diniy aqidaparastlik, ichkilikbozlik, giyohvandlikka qarshi tarbiyani amalga oshirish, oila, maktab va mahalla oldida o'z farzandlarining barcha xatti-harakatlari uchun javobgardir, sog'ligida va aqlida nuqsonlari bo'lgan farzandlariga hayot talablariga mos ravishda bilim va kasbkor o'rgatishdan iborat.

Ota-onaning farzand oddidagi burchi, o'zbekona ta'bir bilan aytganda, farzandga yaxshi nom qo'yish, yaxshi muallim qo'lga topshirib savodini chiqarish, ilmiy, kasb-hunarli qilish, oilali va uyli-joyli qilishdan iboratdir.

O'quvchilarni tarbiyalashda oila, mahalla, maktab hamkorligi jarayonida mahallaning vazifalari:

– "Bir bolaga yetti mahalla ota-ona" degan naqldan kelib chiqib, kelajak avlodni tarbiyalash va unga ta'lim berish jarayonini amalga oshirish borasida kichik Vatan bo'lmish mahallaning oldida quyidagi vazifalar turadi:

– mahalla faollari tomonidan tarbiya muassasalari bilan birgalikda ta'lim-tarbiya jarayonida amalga oshirilishi kerak bo'lgan masalalarni muhokama qilishda qatnashishi va oqilona yechimlarini topishda faollik ko'rsatilishi;

– mahalla o'z hududidagi ijtimoiy va iqtisodiy yordamga muhtoj oilalarni aniqlab, ularni qo'llab-quvvatlab va farzandlarining bilim hamda tarbiya olishlariga bosh-qosh bo'lishi;

– ma'nan nosog'lom oilalarni mahalla yig'inlarida muhokama qilish, ularga nisbatan jamoatchilik choralarini ko'rish;

– mahalla hududidagi o'quv-tarbiya muassasalariga iqtisodiy va ijtimoiy yordam ko'rsatilishini qo'llab-quvvatlash;

– ota-onalar orqali bolalarni tashabbuskorlik, mehnatsevarlik, milliy g'urur, vatanparvarlik, milliy odob, baynalmilallik kabi xislatlarini singdirishni har tomonlama rag'batlantirish;

– yoshlar diniy mahzablar va sektalar, aqidaparastlikning mohiyatini to'g'ri anglab yetishiga ota-onalar orqali ta'sir ko'rsatish, ulug' ajdodlarimizning tarbiyaviy o'gitlarini singdirib borishga jamoatchilikni safarbar qilish;

– mahalla yig'inlarida milliy davlatchilik va milliy mafkura g'oyalarini, Respublikamizda iqtisodiy va ijtimoiy sohalarida erishilgan yutuqlar targ'ibotini amalga oshirish borasida turli tadbirlar tashkil qilish;

– "Ma'naviyat va ma'rifat", "Sog'lom avlod uchun", "Mahalla", "Ekosan", "Umid", "Ulug'bek", "Nuroni", "Kamolot" jamg'armalari, xotin-qizlar qo'mitalari, turli jamiyatlar, birlashmalar va ijodiy uyushmalarni yosh avlodni milliy istiqloq g'oyalari asosida tarbiyalash ishiga, muammoli masalalarning yechimini topishga faol jalb qilish;

– mahalla hududidagi ishlab chiqarish korxonalarini va tashkilotlarining imkoniyatlarini o'quv-tarbiya muassasalari moddiy negizini mustahkamlashga jalb qilish;

– mahalla hududida o‘quv-tarbiya muassasalari bilan birgalikda turli ko‘rik-tanlovlar, sport musobaqalari, anjumanlar, bayram va bellashuvlar tashkil qilish, turli yo‘nalishda iqtidorli bo‘lgan o‘quvchi bolalarni maktablar tavsiyasiga ko‘ra ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash;

– ilg‘or pedagogik xodimlar, tarbiyachilarga mahalla imkoniyatlaridan kelib chiqib, har tomonlama yordam ko‘rsatish;

– farzandlariga ta‘lim va tarbiya berishda ijobiy natijalarga erishayotgan, namunali oilalar hayot tajribasini ommalashtirib, mahalla hududida “Oila saboqlari” mashg‘ulotlarini tashkil qilish;

– mahallada istiqomat qilayotgan xalq ustalari, san‘atkorlar, ziyolilar va barcha ijod axlining imkoniyatlaridan foydalanib, turli to‘garak va “Usta-shogird” rusumida bilim va kasb berish faoliyatini tashkil qilish;

– mahalla hududidagi ishlab chiqarish korxonalarini tomonidan mahallada istiqomat qilayotgan va moddiy qiynalgan yoshlar uchun ish joylari kvotasining ajratilishiga erishish;

– har bir yosh fuqaro O‘zbekistonga, uning tabiatiga muhabbat, tarixiga qiziqish, mahalla obo-donchiligi, ahilligi uchun javobgarlik ruhini shakllantirish.

Xulosa. Bu kabi ustuvor vazifalar mahalla rahbari va har bir shu mahallada yashovchi insonni be-farq qoldirmasligi lozim. Mahalla har bir oila, har bir shaxs bilan imkoniyat darajada ish olib borish uchun ma‘naviy salohiyatga va huquqiy imkoniyatga ega bo‘lgan maskan hisoblanadi. Mahallada kishi-larni odo-baxloqqa o‘rgatish, ularga urf-odatlar, turli qadriyatlarini singdirish, ilg‘or udumlarni keng yo-yish borasida ajoyib an‘analar qaror topgan. Oila kichik vatan bo‘lsa, mahalla uning mustahkam tayanchi hisoblanadi. Oilalar farovon, obod bo‘lsa, mahalla ko‘rkiga ko‘rk qo‘shadi. Mahallalar obod bo‘lsa, yur-timiz ham shunchalik obod bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Президенти Шавкат Мирзиёев хужжатли фильмда оиланинг ҳаётидаги ўрни ҳамда нима, уни бахтли қилиши тўғрисидаги нутқидан. 2018 йил 24 июнь.
2. Мавлонова Р. ва бошқалар. Педагогика. Тошкент, “Ўқитувчи”, 2001.
3. Худойқулов Х.Ж. Комиллик фазилатлари. Тошкент, “Инновация-Зиё”, 2021.
4. Худойқулов Х.Ж., Бобоқулова Д.М. Педагогика. Ўқув қўлланма, олий таълим муассасалари учун дарслик, Тошкент, “Инновация-Зиё”, 2021.
5. Мусурмонова О. Оила маънавияти – миллий ғурур. Т., “Ўқитувчи”, 1999, 200-бет.
6. Муҳаммад пайғамбар алайҳиссалом қиссаси. Ҳадислар. Т., “Камалак”, 1991, 51-бет.
7. Иномова Н. Оилада болаларнинг маънавий-ахлоқий тарбияси. Т., “Фан”, 1999. 15-бет.
8. Камолова Н.Қ. Ўқувчи-ёшларни иқтисодий-инновацион тарбия беришнинг миллий-маънавий асослари. Т., 2004.
9. Кайковус. Қобуснома. Тошкент, “Ўқитувчи”, 1992, 85-бет.

Atamuratov Dilshod (Urganch davlat universiteti tayanch doktoranti)

MUTAFAKKIR AJDODLARIMIZNING YOSHLARDA BAG‘RIKENGLIK VA MILLATLARARO MULOQOT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHGA OID PEDAGOGIK TA‘LIMOTLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada mutafakkir ajdodlarimizning yoshlarda tolerantlik va millatlararo muloqot madaniyatini shakllantirish sohasidagi pedagogik ta‘limotlari tahlil qilinib, bag‘rikenglik madaniyatini rivojlantirish, prinsiplari, yo‘nalishlari haqidagi qarashlari bayon etilgan. Maqola pedagogik jamoatchilik, talabalar, tadqiqotchilar uchun manba sifatida xizmat qiladi.

Аннотация. В данной статье анализируются педагогические учения наших предков-мыслителей в области формирования культуры толерантности и межэтнического общения у молодежи и описываются их взгляды на развитие, принципы, направления культуры толерантности. Статья служит ресурсом для педагогического сообщества, студентов, исследователей.

Annotation. This article analyzes the pedagogical teachings of our ancestors-thinkers in the field of forming a culture of tolerance and interethnic communication among young people and describes their views on the development, principles, and directions of a culture of tolerance. The article serves as a resource for the pedagogical community, students, researchers.

Kalit so‘zlar: bag‘rikenglik, muloqot madaniyati, shaxslararo munosabatlar, madaniy dunyoqarash, o‘zaro hurmat, mutafakkirlar, insonparvarlik, totuvlik, muloqot, madaniy-tarixiy yondashuv.

Ключевые слова: толерантность, культура общения, межличностные отношения, культурное мировоззрение, взаимоуважение, мыслители, гуманизм, гармония, коммуникация, культурно-исторический подход.

Key words: *tolerance, culture of communication, interpersonal relations, cultural worldview, mutual respect, thinkers, humanism, harmony, communication, cultural-historical approach.*

Insonparvarlik prinsipi madaniyatshunoslikka asoslangan oliy pedagogik ta'lim jarayonida qadriyatlarini tizimli tarzda o'zlashtirish imkonini beradi. Oliy pedagogik ta'lim mazmunini insonparvarlik prinsipi asosida tanlash umuminsoniy qadriyatlarni o'zlashtirish uchun qulay imkoniyat yaratadi. Mutafakkir ajdodlarimiz o'zlarining hayotiy tajribalariga tayangan holda, yoshlarda millatlararo bag'rikenglik sifatlarini shakllantirishga alohida e'tibor qaratganlar. Insonparvarlik prinsiplari naqshbandiylik tariqatining yirik namoyandasi Bahouddin Naqshbandiyning pedagogik qarashlarida, Alisher Navoiyning dostonlari va g'azallarida ustuvor o'rin egallagan.

*Ko'ngulni olsa malohat bila tafovut yo'q,
Xitoyi o'lsin-u yo' armani va yo' hindu.
Husn chun jilva qilur, oq-u qorada yo'q farq,
Kishiga kelsa balo-xohi Xito, xohi Habash.
Men tilab husn, vale shoh tilab asl-u nasab
Menga lo'li bila hind-u, anga qo'ng'iro't-u qiyot.¹*

Insonparvarlik tarbiyasi Abu Nasr Forobiy asarlarida ham yetakchi o'rin egallagan. Mutafakkir umuminsoniy qadriyatlarni ulug'lash orqali millatlararo munosabatlar va muloqotni yuksak darajada e'tirof etgan. Abu Rayhon Beruniy ham millatlararo muloqot madaniyatiga alohida e'tibor qaratgan, u o'zining "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar", "Hindiston" asarlarida millatlararo munosabatlarini insonparvarlik prinsipiga tayangan holda tahlil va talqin etishga muvaffaq bo'lgan.

Zahiriddin Muhammad Bobur esa o'zining "Boburnoma" sida turkman, afg'on, ozarbayjon, eron, hind, urdu kabi millat vakillariga bo'lgan munosabatini alohida-alohida bayon qilib, ularning madaniyati urf-odati, an'analarini e'tirof etgan va hind xalqiga bo'lgan alohida ehtiromini bayon qilgan. Bobur qaysi o'lkani zabt etmasin, unda yashovchi millatlarning urf-odat, an'alariga nisbatan o'z hurmatini bayon qilgan. Ularning tarixini o'rgangan, madaniyatini boyitish uchun qulay shart-sharoitlar yaratgan. Xalq pedagogikasi namunalari ham millatlararo munosabatlar va ular orasida madaniy muloqotga alohida e'tibor qaratilgan. Jumladan xalq dostonlari va ertaklarida turli millat vakillari orasidagi do'stlik, o'zaro hurmat, muhabbat, bir-birin qo'llab-quvvatlash e'tirof etilgan. Masalan "Alpomish", "Go'ro'g'li", "Avazxon", "Tohir va Zuhra", "Oshiq G'arib va Shoxsanam" kabi dostonlarning barchasida turli millat vakillari orasidagi munosabatlar bayon etilgan. Ogahiy, Munis Xorazmiy, Avaz O'tar she'rlarida ham ko'p tillilik va millatlararo munosabatlariga e'tibor qaratilgan. Jumladan, Avaz O'tarning

*Har tilni biluv emdi bani odama jondur,
Til vositayi robitayi olamiyondur.
G'ayri tilini sa'y qiling bilgali, yoshlar,
Kim ilm-u hunarlar bilonki ondin ayondur.
Lozim siza har tilni biluv ona tilidek,
Bilmakka oni g'ayrat eting, foida kondur.
Ilm-u fan uyig'a yuboringlar bolangizni,
Onda o'qug'onlar bori yaktoyi zamondur.
Zor o'lmasin onlar dog'i til bilmay Avazdek,*

Til bilmaganidin oni bag'ri to'la qondur misralarida ko'p tillilik, til bilishning ahamiyati tillar barcha ilmlarning kaliti ekanligi, uni o'rganish yoshlar uchun koni foydaliligi haqida fikr yuritilgan. O'rta asrlarda yashab ijod etgan Taniqli sayyoh ibn Batuta o'zining "Sayohatnoma" asarida "Butun dunyo bo'ylab qilgan sayohatimda men xorazmliklardan ko'ra xushxulq, oliyjanob, ajnabiylarga nisbatan mehmondo'st odamlarni uchratmagan edim",² deb yozadi.

Fitrat: "...Odamlar qaysi din, qaysi qavm, qaysi millatda bo'lmasinlar, bir otaning farzandlari, bir jinsning avlodlari, boshqacha qilib aytsak, bir-birlariga birodardirlar.

Shunday ekan, bir-birlariga shart qo'ymay, muhabbatli va shafqatli bo'lishlari kerak. Ya'ni o'rtalarida "umumiy birodarlik"ni barpo etishlari kerak".³

Boburning nevarasi Akbarshoh ham hind xalqiga yuksak ehtirom bildirganligi, ularning dini va madaniyatini hurmat qilganligi, saroydi hind va boshqa xalqlarning ibodat qilishlari uchun sharoit yaratganligi haqida tarixiy asarlarda aniq dalillarni keltirilgan. Hindiston yerida turli millatlar va dinlarning vakillarini hamjihatlikka chorlagan. "Hamida begim o'g'lidagi o'zgarishni hayrat bilan kuzatib turar, Akbar

¹ Alisher Navoiy. Xazoin ul-ma'oniyy. Navodir ush-shabob. <https://forum.ziyouz.com/>

² Ibn Battuta. Sayohatnoma. T., "Sharq", 2012, 688 bet.

³ Fitrat Abdurrauf. Najot yo'li. T., "Sharq", 2001, 200; 207-betlar.

avvalgiday serg'ayrat, ishchan qiyofaga qaytgani sari onaning quvonchi ortib borardi. Ashrafxon esa Akbarning ketma-ket yopirilib kelayotgan istaklarini shosha-pisha qog'ozga tushirmoqda edi:

– Yozing: Qosim sarkorga farmoyish shulki, biz borguncha to'rt qismlik ibodatxonaning barcha xonalarini turli tildagi muqaddas kitoblar bilan jihozlasin. Biz poytaxtga qaytganda saidlar, ulamolar, brahmanlar, boshqa din-u millat vakillarini shu e'tiqodxonaga taklif etgaymiz. So'nggi farmoyish: hozir Bhiradagi barcha bek-u a'yonlarni kechqurun mashvaratga chorlang. Miri manzil yo'l tayyorligini ko'rsin, erta o'tib indin poytaxtga qaytib ketgaymiz!

– Anchadan beri jimib mudrab yotgan Bhiradagi qarorgoh bu farmonlardan go'yo cho'chib uyg'on-di-yu, xammayoq birdan jonlandi, Chodirlar va ko'shklarning ichi-tashini g'ivir-g'ivir harakat tutib ketdi”.

«Ey insonlar! – deydi Allohi taolo: – Biz sizlarni bir ota, bir onadan yaratdik va sizlarni turli millatlar va qabilalarga mansub qildik, toki bir-birlaringiz bilan yaqindan tanishgaysizlar». Butun bani bashar bir ota, bir onaning farzandi bo'lsa, barcha millatlar-u qavmlar bir-birlariga birodar emasmilar? O'shal suraning o'n ikkinchi oyatida aytilmaganmiki, boshqa din, boshqa millat vakilini nohaq o'ldirmoq birodarkushlikdir. Bormi shu ma'nodagi oyatlar? – Endi esladim... Bor! – Bor bo'lsa, ulamolaringizga ayting. Chekka-chekkada bizni dahriy deb g'iybat qilmasinlar. Men Allohga dil-dilimdan ishonurmen. Mening maqsadim – haq yo'liga qaytmoqdir. Seshanba kuni turli din, turfa millat vakillari bir davraga yig'ilgaymiz. Siz ham munozarada ishtirok eting”.¹

Tasavvuf ta'limotining yirik namoyandalari, Ahmad Yassaviy, Shayxontohur, Xo'ja Ahror Valiy, Bahouddin Naqshbandiy o'z asarlarida millatlararo munosabatlar va milliy bag'rikenglik haqida qimmatli fikrlarni bayon qilganlar. Bunga misol qilib Ahmad Yassaviyning hikmatlaridan namuna keltirishimiz mumkin:

*Sunnat ermish, kofir bo'lsa, berma ozor,
Ko'ngli qattiq dilozordan Xudo bezor,
Alloh haqqi bunday qulg'a sijjin tayyor,
Donolardin eshitib, bir so'z aytdim mano.*²

Ko'rinib turibdiki, barcha davrlarda ta'lim oluvchilar millatlararo muloqot madaniyatini shakllantirish, turli millat vakillariga nisbatan insonparvarlik prinsipi asosida munosabatda bo'lish alohida dolzarblik kasb etgan. Shuning uchun ham ma'rifat va madaniyat namoyandalari ushbu masalaga nisbatan o'z munosabatlarini bayon etib kelganlar. Bugungi kunda bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy pedagogik faoliyatga samarali tayyorlash, ularda millatlararo munosabatlar madaniyatini shakllantirish har qachongidan ham dolzarbroq ahamiyat kasb etmoqda. Chunki ekstremistik g'oya tarafdorlari turli millat vakillari orasidagi keskinlik va bosimlarni kuchaytirish orqali jamiyatdagi osoyishtalikni buzish, millatlarga xos bo'lgan madaniyatni yo'qotib, “ommaviy madaniyat”ni yoshlar ongiga majburan singdirishni harakat qilmoqdalar. Bunda ular san'at, madaniyat, moda va psixologik ta'sirning boshqa ko'plab ko'rinishlaridan foydalanmoqdalar. Milliy madaniyat ta'sirini pasaytirish orqali ommaviy madaniyatga xos bo'lgan zo'raonlik, hayosizlik kabi illatlarni yoshlar ongiga majburan singdirishga harakat qilmoqdalar. Buning natijasida o'quvchi va talabalar orasida milliy kamsitish an'analarga bepisandlik, milliy mansublikni hurmat qilmaslik, milliy madaniyat ko'rinishlariga eskilik sarqiti sifatida qarash kabi ko'plab illatlar vujudga kelmoqda. Shuning uchun ham bo'lajak o'qituvchilar o'quvchilarni millatlararo muloqot madaniyatini shakllantirishga tayyorlashda nazariy yondashuvlar hamda xalqning ijtimoiy tajribasidan samarali foydalanish talab qilinadi.

Ajdodlarimiz millatlararo muloqtoni uchta muhim asosga tayangan holda tashkil etishni maqsadga muvofiq deb bilganlar.

1. Islomiy bag'rikenglik madaniyati me'yorlariga tayangan holda.
2. Davlat siyosati doirasida barcha millat vakillarining tengligini tan olish asosida.
3. Ayni bir jamiyatda yashaydigan xalqlarning irodasini hisobga olgan holda.

Jamiyatdagi yuksak madaniyatli, pok axloqli insonlar barcha millat vakillariga tenglik va tolerantlik asosida munosabatda bo'ladilar. Natijada ular bilan madaniy muloqot o'rnatadilar. Bunday yondashuvni amalga oshirishda jamiyatdagi barqaror madaniy muhit muhim ahamiyat kasb etadi.

O'tmishda ota-bobolarimiz diniy qarashlarga tayangan holda millatlararo muloqot madaniyatini rivojlantirishga intilganlar. Buning natijasida jamiyat a'zolarida bag'rikenglik madaniyati tarkib topgan. Bunday yondashuv jamiyatning ilg'or vakillarining ma'naviy madaniyatini belgilagan. Shunga ko'ra, o'zbek xalqining irodasiga muvofiq tarzda yoshlarda millatlararo muloqot madaniyati shakllantirilgan. Bun-

¹ Qodirov P. Humoyun va Akbar. T., “Sharq”, 1997, 257, 259; 331-betlar.

² Xo'ja Ahmad Yassaviy. Devoni hikmat Faqrnoma. Hikmatlar. T., G'afur G'ulom, 1992, 22; 207-betlar.

day madaniyat doirasida millatlararo tolerantlik yaqqol namoyon bo'lgan va shaxslaaro munosabatlarni barqarorlashtirishga xizmat qilgan. Shuning uchun ham o'zbek xalqning pedagogik ta'limotida millatlararo muloqot madaniyatini shakllantirishga oid yondashuvlar, konsepsiyalar va madaniy modellar tizimli tarzda o'z ifodasini topgan.

O'tmishda jamiyat a'zolari orasidagi ma'naviy, madaniy, iqtisodiy muvozzantni saqlashda millatlararo muloqot madaniyati yetakchi o'rin egallagan. Ushbu tajribalardan bugungi kunda ham samarali foydalanish imkoniyatlari mavjud. Buning uchun bo'lajak o'qituvchilarga ushbu ta'limotlarning mazmun-mohiyatini yetkazishga xizmat qiladigan pedagogik jarayonlarni tashkil etish, oliy pedagogik ta'lim mazmuniga mazkur yondashuvlarni singdirish alohida pedagogik ahamiyatga ega.

Tojiyeva Xolida Baxtiyrovna (O'zFinPI dotsenti, p.f.b.f.d. (PhD); xolidatojiyeva29@gmail.com)
UMUMTA'LIM MAKTABLARI ADABIYOT DARSLARIDA ASAR BADIYATINI
O'QITISHNING ILMIIY-PEDAGOGIK ASOSLARI

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada umumta'lim maktablari adabiyot darslarida asar badiyatini o'qitishning ilmiy-pedagogik asoslari haqida so'z boradi. Adabiyot darslarida asar badiyatini o'quvchilarga yetkazish usullari tahlil qilinadi. Shuningdek, badiiy asarning o'quvchilar ruhiyatiga ta'siri, so'z qudrati xususida so'z boradi.*

***Аннотация.** В данной статье говорится о научно-педагогических основах обучения искусству произведения на уроках литературы общеобразовательной школы. На уроках литературы анализируются приемы донесения до учащихся художественности произведения, также идёт речь о влиянии художественного произведения, силы слова на психику учащихся.*

***Annotation.** This article talks about the scientific-pedagogical basis of teaching the art of works in literature classes of secondary schools. Methods of conveying the art of the work to students are analyzed in literature classes. Also, the influence of an artistic work on the psyche of students, the power of words it is mentioned.*

***Kalit so'zlar:** adabiyot, asar badiiyati, o'quvchi ruhiyati, badiiy nafislik, sharq she'riyati.*

***Ключевые слова:** литература, художественное произведение, читательская ментальность, художественное изящество, восточная поэзия.*

***Key words:** literature, artistic work, reader's psyche, artistic elegance, oriental poetry.*

Adabiyot inson tafakkuri rivojining eng muhim omillaridan biri sanaladi. Badiiy adabiyotda muayyan bir millat qomusi, ruhiyati, tarixi, dini, madaniyati, e'tiqodiga xos bo'lgan xususiyatlar mujassam. Demak, inson adabiyot orqali dunyoni anglaydi, ma'lum ma'nodagi ruhiy yuksaklikka erishadi.

Tarixan avlodlarimiz buyuk ajdodlarimiz merosiga tayangan holda, har bir zamon va makonda yoshlar tafakkurini shakllantirganlar.

Me'yoriy hujjatlarda e'tirof etilgan "yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish" borasida so'z borar ekan, umumta'lim maktablarining o'quv dasturiga kiritilgan barcha fanlar qatori, adabiyot fanining o'rni va ahamiyati muhim o'rin tutadi. Adabiyot fani, asosan, o'quvchilar dunyoqarashini shakllantirishda, ularning estetik zavqini, tafakkurini tarbiyalashda katta ta'limiy ahamiyatga egadir.

Adabiyot ijtimoiy ong shakllaridan biri sifatida ma'lum bir xalqning ijtimoiy hayoti, tarixi, urf-odatlarini, tafakkur tushunchalari, ma'naviyati va ma'rifati bilan uzviy bog'liqdir. Shunday ekan, juda ko'p ta'limiy masalalarni o'zida qamrab olgan adabiyot fani haqida yosh avlodga ma'lumot berish uchun o'qitishning muqobil shakllarini tanlash va amaliyotda qo'llash bilan bog'liq pedagogik jarayonni tanlash muhim masalalardan biridir. Uzoq yillar davomida adabiyot o'qitish usullari pedagogika fanining uzviy qismi hisoblanib, adabiyotning taraqqiyot bosqichlari haqida, yozuvchilarning tarjimai xoli haqida, turli janrdagi badiiy asarlarning tahlili haqida ma'lumot berib kelmoqda. Adabiyot o'qitish usullarini amaliyotda qo'llashdan maqsad, adabiyot fanida o'rganiladigan mavzularga asoslanib, ta'lim-tarbiya masalasi-ni amalga oshirish o'qitish usullarining asosiy mezonidir.

Pedagogika fani bilan o'qitish usullarining o'rtasidagi farq shundaki, pedagogika keng miqyosdagi masalalarni, ya'ni, ta'lim-tarbiyaning umumiy qonuniyatlarini qamrab olsa, adabiyot o'qitish usullari esa tor doiradagi faqat adabiyot ilmidan saboq berishga oid masalalarni hal qiladi.

Demak, adabiyot o'qitish metodikasi fani, adabiy ta'lim bilan bog'liq masalalarni hal qilish barobarida, yosh avlod tafakkurini shakllantirishga xizmat qiladi. Bu vazifani amalga oshirishda gumanitar fanlar orasida adabiyot fanining imkoniyatlari beqiyosdir. Bu imkoniyatdan foydalanish bugun paydo bo'lgan jarayon bo'lmay, balki asrlar davomida ta'lim tizimida qo'llanilib kelgan.

Inson aql-zakovati ilmga tashnalik tuyg'usini sezgan chog'lardayoq adabiyot faniga bo'lgan qiziqish uning asriy davomiyligi buyuk allomalimiz ilmiy tafakkurida o'z aksini topgan. Adabiyot o'qitish

usullarini kashf qilish, murakkab matndagi asarlarning asl mohiyatini o'quvchilarga yetkazish bugungi kundagi muhim muammolardan biridir. Chunki adabiyot o'zining badiiy nafisligi bilan, so'z orqali inson ruhiyatiga qoniqish hosil qiluvchi fan sifatida alohida o'rin tutadi. Bu sirli olamni qanday o'qitish, qanday usullarni qo'llash kabi masalalar bugungi adabiyot o'qitish metodikasi fani oldida turgan dolzarb masalalardan biridir.

Maktablarda o'qitiladigan adabiyot fanining ilmiy-nazariy asosini va mazmunini adabiyot haqidagi fan belgilab beradi. Adabiyotshunoslik fanining asosi esa o'zbek adabiyoti tarixini davrlashtirishga tayinlangan holda o'rganiladi. Davrlashtirish esa tarixdan iborat bo'lib, adabiyot uni badiylashtirib xalqimizning o'tmishini ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayotini ifodalaydi.

Yuqorida tilga olingan muammolarni hal qilish adabiyot o'qitish usullari fanining maqsad va vazifasi hisoblanadi. Shuningdek, adabiyot fanini o'qitish o'zining ko'p qirrali maqsad vazifasi bilan ajralib turadi. Adabiy ta'lim haqidagi bilimlar asosi, dastavval, o'quvchilarni fikrlash va fikrni to'g'ri ifodalash malakalarini taraqqiy ettirish kabilar ham asosiy masalalardan biridir.

Ma'lumki, adabiyot mashg'ulotlarining yuksak samaradorligiga erishish uchun boy imkoniyatlar mavjudligini tajribali o'qituvchilar amalda ko'rsatib kelmoqdalar. Adabiy bilimga ega o'qituvchi, mashg'ulot jarayonida o'quvchilarga berilishi lozim bo'lgan mavzularni oqilona, juda ustalik bilan yetkazishga intilmog'i lozim, chunki o'qitish ilmgina bo'lib qolmay, balki san'atkorlikni ham talab qiladi.¹

Umumta'lim maktablarining o'quv dasturiga kiritilgan badiiy asarlar mazmun-mundarijasi g'oyaviy jihatdan falsafiy, siyosiy, pandnoma, mantiq bilan uzviy bog'liqdir. Eng muhimi, o'quvchilarga adabiyot haqida tushuncha berish eng murakkab va qiyin jarayondir. Adabiyot mashg'ulotlarida ko'zda tutiladigan asosiy maqsad va vazifalarga o'quvchilarda estetik tarbiyani amalga oshirish adabiyot fani haqidagi tushunchalarni shakllantirishga erishishdan iborat bo'lmog'i lozim.

Ma'lumki, qadim zamonlardan buyon, ilm-fanni o'rganishning ma'lum usullari kashf qilingan va amalda qo'llanilgan. Bu usullar, asosan, murakkab matndagi asarlarni o'rganishga moslashtirilgan bo'lib, ularning soni, taxminan, yigirmadan ortiqdir. Barcha o'qitish usullari qatorida sharhlash usuli ham ko'p yillik amaliy tajribalar asosida maydonga kelganligining guvohi bo'lamiz. O'zbek adabiyoti tarixi namunalarini qadimgi arab, turk va fors-tojik she'riyatida erishilgan yutuqlar zaminida rivojlangan. Ular tomonidan yaratilgan har bir bayt ma'lum bir maqsadni yoritib berishni nazarda tutgan. Bu o'rinda, har bir so'zni o'z o'rnida qo'llash, badiiy san'at namunalarini orqali sayqal berish, ibora-yu ishoralar bilan bezash orqali shoir o'z tuyg'ularini tuyg'ularni bayon qiladi.² Shunday ekan, mumtoz adabiyot namunalarida uchraydigan tushunilmagan so'zlarni sharhlash urg'uli so'z, gap, ibora, ishora, tarixiy ma'lumotlarni manbalar asosida izohlash lozim bo'ladi.

Ular yaratgan beqiyos she'riyat, nodir asarlar bilim darajasi sayoz bo'lgan kitobxonga emas, balki fikri teran, tasavvuri keng o'quvchiga mo'ljallangan. Ularning asarlarini jo'n, oddiy xulosalar bilan umumlashtirib bo'lmaydi. Chunki ularning zamirida sharqona ibrat namunasi mavjuddir.

«Shoir she'rida tasvirlangan g'oya, tuyg'u, obraz, ruhiy manzaralarni o'z nomi bilan aytishga erishish, – deb yozadi adabiyotshunos olim Ibrohim Haqqul, – ular bag'ridagi yashirin ma'no va badiiy sir-larni tahlil tilida ifodalash – haqiqatning bosh mezonini mana shudir».³

Ma'lumki, maktab darsliklarida mumtoz adabiyot namunalarining yaratilish davriga oid, ijodkorning tarjimai holiga oid sanalar mavjud. Ular abjad va milodiy sanalar bilan bog'liq bo'lib, har ikkala sanalar haqida o'quvchilarga ma'lumot yoki sharh berish muhim ta'limiy ahamiyatga ega.

Ma'lumki, abjad tarixiy sanalarni ifodalashning Sharq xalqlari orasidagi o'ziga xos usuldur. Unda sanalar raqamlar bilan emas, balki harflar ishtirokida hosil bo'luvchi so'z va jumlar vositasida ifodal-nadi. Abjad hisobida harflarning maxsus tartibi mavjud. Bular: abjad, havvaz, huttiy, kalaman, sa'faz, qarashat, saxxaz, zazag'. Raqamlar 1 dan 9 gacha, 10 dan 90 gacha, 100 dan 1000 gacha, har bitta harfga bi-riktiriladi. Abjad hisobida harflar tartibidagi dastlabki to'rtta harfni (alif (a), be (be), jim(j), va dol (dol)) ifodalovchi so'z hisoblanadi.

«Agar bu davrdagi madrasalarda ta'lim olgan samarqandlik Nizomiy Aruziyning adabiy-ilmiy fao-liyati mahsuli bo'lgan «Nodir hikoyalar» yoki «Chahor maqola», buxorolik Muhammad Avfiyning Sa-marqandda yashab, bu yerdagi olimu mudarrislar, shoir-u adiblar bilan suhbatda bo'lib, so'ngra Hindis-tonga safar qilib, Dehlida «Lubob ul-albob» nomli tazkirasini yozganini e'tiborga olsak, unda mazkur

¹ Qodirov V. Mumtoz adabiyot: o'qitish muammolari va yechimlar. Monografiya, T., Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009, 100-bet.

² Tursunova M. Milliy ta'lim sarchashmasi. "Muloqot", 2003, 2-son.

³ Ibrohim Haqqul. Tasavvuf va she'riyat. Toshkent, Adabiyot va san'at nashriyoti, 1991, 131-bet.

davrdagi madrasalar, mudarrislar va ulamolar muhitida she'ru shoirlik, adabiyotshunoslik masalalariga ham katta e'tibor berilganligidan xabardor bo'lamiz»,¹ deb yozadi adabiyot bilimdoni B.Valixo'jayev.

Ma'lumki, Sharq mumtoz adabiyotida ramziylik tasvirning yetakchi usuli sanaladi. Shuning uchun hayot voqealari epik ko'lamda hissiy munosabat tarzida tasvirlangan asarlarni o'qitishda sujet voqealarining zohiriy mazmunini bayon etish bilangina cheklanib qolmay, ular vositasida talqin etilgan, ramz tili bilan bayon qilingan mohiyat sharhlanishi lozim. Mumtoz adabiyot (umuman, adabiyot) o'qitishdan ko'zlangan bosh maqsadni tarbiyalanuvchilar shaxsiyatida komillik sifatlarini muayyan darajada shakllantirishdan iborat deb ifodalash mumkin. Keltirilgan adabiyotning ushbu bosh maqsadidan kelib chiqib, mumtoz adabiyotni o'qitishga qo'yiladigan xos vazifani quyidagicha belgilash mumkin: mumtoz badiiy tafakkur tarzini anglaydigan, obrazlar tabiati va ular o'rtasidagi munosabatni idrok etadigan, ramziy va majoziy tasvirni talqin va tahlil qila oladigan, mumtoz so'z jozibasini his etadigan, mutolaani o'zining hayotiy ehtiyojiga aylantirgan, adabiyotni olam va odamni tushunish vositasi deb biladigan yuksak ma'naviyatga intiluvchi kitobxon o'quvchini shakllantirishdan iboratdir.

Sharq mutafakkirlari insonni ilohiy va dunyoviy ilmlardan xabardor etishda, uning aql-u zehni oshirishda tinimsiz izlanganlar va samarali ijod qilganlar. Ular yaratgan bebaho asarlardan olam va odam, borliq, hayotning mazmun-mohiyati singari falsafiy, tasavvufiy mavzular yuzasidan bilim berish uchun madrasalarning asosiy o'quv qo'llanmasi sifatida foydalanilgan. Shu bois yuksak salohiyat sohiblari asrlar osha avlodlar ardog'ida yashab kelgan, insoniyatni hayajonga solib kelgan muammolarning nazariy va amaliy jihatlarini hal etishga yordam bergan.

Mumtoz adabiyot namunalarini o'rganishda, har bir ijodkorning maktab dasturiga kiritilgan janriy jihatdan sodda va murakkab asarlarining tahliliga doir ilmiy, nazariy, uslubiy yo'l tanlanishi muhim ahamiyatga egadir. Mumtoz adabiyot namunalarining mavzu doirasi juda ham keng bo'lib, asosan, inson ichki dunyosini insoniy komillikni, orzu-o'ylarini, jamiyatda bo'layotgan salbiy va ijobiy munosabatlarni ijodkor o'z nuqtayi nazaridan kelib chiqib, qalamga oladi va o'z badiiy mahoratini namayon etadi.

**G'aniyeva Gulhayo Islom qizi (Termiz davlat Pedagogika instituti
"Boshlang'ich ta'lim metodikasi" kafedrası o'qituvchisi; rustamkhurramov@mail.ru)
BOSHLANG'ICH SINFLARDA TABIIY FANLARNI O'QITISHDA
INTEGRATSIYALASHGAN MEDIATA'LIMNING MAQSAD VA VAZIFALARI**

***Annotatsiya.** Ushbu maqola boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni o'qitishda integratsiyalashgan mediata'limning maqsad va vazifalari haqida yozilgan. Mazkur muammolarni yechish uchun o'quv jarayonida fanlararo aloqadorlikni ta'minlashni ilmiy jihatdan asoslash maqsadida har bir o'quv fanining fanlararo aloqadorlikdagi mazmunini tanlash, ta'lim jarayonida qo'llanilayotgan zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalangan holda, o'quv fanlarining bir-biri bilan bog'langan tizimini shakllantirish lozim.*

***Аннотация.** В данной статье речь идёт о целях и задачах интегрированного медиаобразования в обучении естествознанию в начальных классах. Для решения этих задач необходимо выделить межпредметное содержание каждого учебного предмета, чтобы научно обосновать межпредметную связь в образовательном процессе, сформировать систему взаимосвязанных учебных предметов с использованием современных образовательных технологий, применяемых в образовательном процессе.*

***Annotation.** This article is written about the goals and tasks of integrated media education in teaching natural sciences in elementary grades. In order to solve these problems, it is necessary to select the interdisciplinary content of each academic subject in order to scientifically substantiate the interdisciplinary connection in the educational process, to form an interconnected system of educational subjects using modern educational technologies used in the educational process.*

***Kalit so'zlar:** boshlang'ich sinf, tabiiy fan, o'qitish, integratsiya, mediata'lim, maqsad, vazifa.*

***Ключевые слова:** начальная школа, естествознание, обучение, интеграция, медиаобразование, цель, задача.*

***Key words:** elementary school, natural science, teaching, integration, media education, goal, task.*

***Kirish.** Xorijiy mamlakatlarda fan va texnologiyaning jadal sur'atda rivojlanishi olimlar oldida murakkab muammolarni qo'ymoqda. Shu sababli tabiat va jamiyat taraqqiyoti qonuniyatlari haqidagi yangi nazariy va amaliy bilimlarni ta'lim mazmuniga kiritish, barcha fanlardan o'zaro aloqadorlikda eng zarur bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni hosil qilish, ijtimoiy hayot tajribalari va ilm-fanning*

¹ B.Valixo'jayev. O'zbek adabiyotshunosligi tarixi. T., "O'zbekiston", 1983, 55 – 60-betlar.

turli sohalari uchun muhim bo'lgan bilimlarni o'quvchilar egallashlari uchun yuksak bilim va mahoratga ega bo'lgan pedagoglarni tayyorlash nihoyatda zarur.

Darhaqiqat, bugungi kunda maktab fanlarini integratsiyalashtirishga nisbatan yangi yondashuv bosqichi boshlanadi. Fanlararo bog'liqlikda turli bir-biriga yaqin bo'lgan o'quv fanlarini yaqinlashtirish, yaxlit holda integratsiyalash muammosiga murojaat qilinmoqda.

Ta'lim jarayonida fanlararo aloqadorlikni ta'minlash, fanlarning o'zaro aloqadorligi mohiyatiga tayanish, ayniqsa, tabiiy fanlar turkumidagi fanlarni o'qitishning yangi jihatlarini aniqlash zarurdir. O'quvchilarga taqdim etiladigan matematik bilim, tushuncha va hosil qilinadigan hisoblash ko'nikmalari umumlashgan mazmunga ega bo'ladi.¹ O'quv jarayonida fanlararo aloqadorlik ta'minlanganda o'quvchilarga o'zaro bog'langan bilim va tushunchalar taqdim etiladi.

Tahlil va natijalar. Demak, o'quv jarayonida fanlararo aloqadorlikni ta'minlash, dars mavzularining mazmunini o'rganish, undagi muhim qoidalarni ajratib olib o'zlashtirishda quyidagi jarayonlarni foydalanish imkoniyatini beradi:

– fanning muhim g'oyalarini ochib berishda birinchi darajali ahamiyatga ega bo'lgan o'quv fanlari asosiy jihatlariga o'quvchilar e'tiborini jalb etish;

– doimiy ravishda idrok etishni murakkablashtirib borib, o'quvchilar ijodiy tashabbuskorligi va o'quv-bilish faoliyati mustaqilligi ko'lamini kengaytirish, ko'p tomonlama o'quv jarayonida fanlararo aloqadorlikni samarali yo'lga qo'yish uchun didaktik vositalarning har xil turlarini qo'llab, o'quv jarayonida fanlararo aloqadorlikdan foydalanish bo'yicha tashkiliy ishlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish;

– turli didaktik vositalar yordamida o'quv fanlarining o'zaro uzviy birlikda o'zlashtirilishiga erishish;

– o'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasida ijodiy hamkorlikni vujudga keltirish.

Hozirgi vaqtda zamonaviy maktabda integratsiya va pedagogik muammolarning yechimini topuvchi, maktabdagi faoliyatni yaxshilashga, pedagoglar jamoasining ilmiy-metodik salohiyatini oshiruvchi, ularga ta'sir etishning optimal yo'l va vositalarini topishga xizmat qiluvchi omil deb qaralmoqda.

Darhaqiqat, bugungi kunda ta'lim tizimida o'quvchilarda fanlararo aloqadorlikka oid bilimlarni axborot texnologiyalarini tatbiq etish orqali amalga oshirilmoqda. Bu esa Vatanimiz kelajagi uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir bo'lgan, jismonan va ma'nan sog'lom, barkamol avlodni tarbiyalash uchun zarur bo'lgan barcha sharoitlarni yaratish bo'yicha keng ko'lamlı chora-tadbirlarni amalga oshirish imkonini tug'dirdi.²

Axborot madaniyati – o'quvchilarning kundalik hayoti va faoliyatida axborot texnologiyalarining barcha turlaridan o'quv-bilish jarayonida maqsadli foydalana olish ko'nikma, malaka va kompetensiyalar, ta'lim tizimi oldida o'quvchilarning axborot olish va qayta ishlash madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish vazifalari turibdi. Bu jarayonning muvaffaqiyatli kechishida o'qituvchining o'zi maslahatchi yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi, o'quv jarayonining boshqaruvchisiga aylanib boradi. O'qituvchi axborot manbayi, tarqatuvchi funksiyalarini axborot texnologiyalari zimmasiga yuklaydi. Bunda bosh masala bilimlar olamiga kirish, bu olam zaxiralardan foydalanish va o'zlashtirishga bog'lanib qoladi. O'quvchilar axborot ummonida yangicha qoidalarni o'rganishi, barcha o'quv fanlari kesimida axborot olishi, uni qayta ishlay olishi zarur.

Boshlang'ich maktab ta'lim va tarbiyasini integratsiyalash muammosi nazariya uchun ham, amaliyot uchun ham muhim va dolzarb. Boshlang'ich ta'limni integratsiyalash masalasiga keyingi paytda bir qancha yondashishlar bo'ldi: darsni ikki fan o'qituvchisi olib borishi yoki ikki fanni bir darsga birlashtirib, uni bir o'qituvchi tomonidan o'tilishidan to integratsiyalangan kurslar tashkil etish, boshlang'ich ta'lim mazmunini tubdan o'zgartirishgacha. Bunga maktab ham, didaktika va metodika ham yetarli darajada tayyor emas.³

Hozirgi kun asosini boshlang'ich ta'lim bo'yicha bilimlar tashkil etuvchi integratsiyalangan kurs yaratish muammosi dolzarb bo'lib turibdi. Bular boshqa turdagi bilimlarni jipslashtiruvchi asosiy vazifani o'z zimmasiga oladi. Bunday yondashish anchadan beri ma'lum xorijiy davlatlar maktablari tajribasida hal etilgan. Bunda siz faqat sinflarda emas, balki umumiy ta'limning o'rta va tugallovchi bo'g'inlarida ham bir qator fanlarning mazmunini integratsiyalash ustida bormoqda. Bu integratsiyalangan fanga tabiat

¹ Norbo'tayev X.B. Boshlang'ich sinf tabiatshunoslik darslarida innovatsion-pedagogik texnologiyalardan foydalanish metodikasi. "Zamonaviy ta'lim", Toshkent, 2016, 6-son, 34 – 39-betlar.

² Narbo'ev A.B. Mediatexnologiya vositalaridan–foydalanish astronomiya o'qitishda samaradorlikni oshirishning muhim omili. "O'zMU xabarları", Toshkent, 2018, 268 – 272-betlar.

³ Бекетова О.А. Инновация в образовании: понятие и сущность. Теория и практика образования в современном мире. Материалы междунар. науч. конф., июль, Санкт-Петербург, 2014, СПб., "Сатис", 2014, с. 1 – 2.

va jamiyatning birligini tushunish uchun zarur bo'lgan bir qator ijtimoiy-iqtisodiy, axloqiy-estetik g'oya va tushunchalarni kiritish ko'zda tutilgan.¹

Oxirgi paytda maktab ta'limini integratsiyalash to'g'risida juda ko'p taklif va mulohazalar bildirilmoqda. Olimlar va amaliyotchi-o'qituvchilar o'quvchilarda qanday qilib olam to'g'risida yaxlit tushuncha hosil qilish va turli fanlar bo'yicha bilimlarni yaqinlashtirish uchun bir butun dasturni tuzish to'g'risida bosh qotirmoqdalar. Bir-biriga yaqin bo'lgan fanlarni birlashtiruvchi kurslar tashkil etish harakatlari bo'lmog'unda. Masalan, matematika, tabiatshunoslik, tasviriy san'at va texnologiya, bu kabi fanlarning samaradorligi to'g'risida xorijlik pedagoglarning ko'p yillik ishlari natijalari bo'yicha baholash mumkin. Integratsiyalashgan kurslar xorijiy davlatlar maktablari uchun odatiy holga aylangan.²

Kursning maqsadi o'quvchini dunyo bilan suhbatga tortish, inson tabiat, jamiyat, fan, san'at bilan suhbatlashishga faqat odamlar suhbatlashadigan til bilangina emas, hayvonlar, o'simliklar tili bilan, rassomlar, musiqachilar, olimlar foydalanadigan til bilan tanishtirish.³

Kichik maktab o'quvchisiga fikr doirasi keng bo'lgan muloqot san'atining boshlang'ich savodini egallashda yordam berish. Bu savod o'z ichiga odamlar bilan muloqotdan tortib (tengdoshlar, katta yoshdagilar, kichik yoshdagilar) o'z-o'zi bilan muloqotdan to' atrof-muhitdagi hodisalar bilan muloqotni kiritadi.

Kursning maqsadlaridan yana biri o'zi ishlayotgan olam haqida narsa va hodisalar orasidagi bog'liqlik, o'zaro yordam, moddiy va madaniyatning turli-tumanligi haqida keng va eng asosiysi, insonning ichki (ma'naviy) va (ijtimoiy) dunyosi haqida, olamda hukmsuruvchi qonunlar (tabiiy, ilmiy, tarixiy, axloqiy) haqida tushuncha berish.⁴ Asosiy urg'u faqat ma'lum bilimlarni egallashgagina emas, balki obrazli fikrlashni rivojlantirishga beriladi. Olamning umumiy ko'rinishi tovushlar, obrazlar, ranglar orqali tanishtiriladi, o'quvchi esa ham dunyoni, ham o'zini o'rganuvchi, tekshiruvchi o'rniga qo'yadi. Bunda kursning ta'limiy maqsadi kichik maktab o'quvchilarining kurs bilan parallel ravishda asosiy fanlarni ham o'rganishlariga hamda o'rta maktab ta'limida qulay sharoitlar yaratishga xizmat qiladi.

Kursning tuzilishi qanday? Kursning integrativligi uning tuzilishiga xos xususiyatlarni belgilab beradi. Yil uchun umumiy bo'lgan bir mavzu, har chorakning asosiy mavzusida o'z rivojini topadi. Shunday qilib kurs asosiga qo'yilgan (fikrlar) g'oyalarning gorizontalar harakati amalga oshiriladi. Xuddi shu yo'l bilan vertikal harakat ham amalga oshiriladi (sinf dan sinfga), bunda bir mavzu o'quvchining o'sishiga qarab murakkablashib boradi.

Xulosa. Integrativlik insonning olam bilan o'zaro aloqalariga aks etuvchi mavzularga kiritilgan: o'quvchi idrokida abstrakt bo'lgan uzoq olam bilan (kosmos, yulduzlar, yer sayyorasi, katta bo'shliqlar va vaqt qa'ri). Yaqin olam (mikroolam, uy oldidagi hayvonlar va o'simlik dunyosi, ona-Vatan tabiati va boshqa mamlakatlar tabiati). Insonlar olami bilan (turli mamlakatlar va madaniyatlar, sivilizatsiya markazlari, insonning inson va jamiyat bilan munosabatlari insonning ichki dunyosi), madaniy dunyosi bilan (xalq ijodi, rassom va olimlar ijodi, ma'naviy qadriyatlarni saqlovchi odamlarning ishlari).

Abdullaev Safibullo Xabibullaevich (Namangan davlat universiteti texnologik ta'lim kafedrasini professori vazifasini bajaruvchisi, pedagogika fanlari doktori (DSc), e-mail: safibullo.abdullaev@gmail.com)
MALAKA OSHIRISH VA QAYTA TAYYORLASH MUASSASALARIDA O'QITUVCHILARNI ERGONOMIK FAOLIYATGA TAYYORLASH

***Annotatsiya.** Maktablarda yangi ergonomik ta'lim muhitini tashkil etishning, hozirgi zamon maktab o'qituvchisining ergonomik madaniyatini rivojlantirishda ergonomik bilim, ko'nikma va malakalarning dolzarbligi asoslangan. Ergonomik tizimda pedagog va o'quvchilarning mehnatni tejash, maktabda qulay va samarali, xavfsiz ta'lim muhitini yaratishda o'qituvchining ishtirok etishi muammolari ko'rib chiqilgan.*

***Аннотация.** Организация новой эргономичной учебной среды в школах и развитие эргономической культуры современного школьного учителя основаны на актуальности эргономических знаний, навыков и компетенций. Эргономическая система решает вопросы участия учителей и учеников в экономике рабочей силы, создавая комфортную, эффективную, безопасную учебную среду в школе.*

¹ Narboyev A.B. Shu manba.

² Bahromov A.D., Sharipov Sh., Nabiyeva M. Tabiatshunoslik. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 3-sinf uchun darslik, T., "Cho'lpon", 2019, 126-bet.

³ Бекетова О.А. Инновация в образовании: понятие и сущность. Теория и практика образования в современном мире. Материалы междунар. науч. конф., июль, 2014, Санкт-Петербург, "Сатис", с. 1 – 2.

⁴ Norbo'tayev X.B. Shu manba. 34 – 39-betlar.

Annotation. *The organization of a new ergonomic learning environment in schools and the development of the ergonomic culture of the modern school teacher are based on the urgency of ergonomic knowledge, skills and competencies. The ergonomic system addresses the issues of teacher and student participation in saving labor, creating a comfortable and effective, safe learning environment at school.*

Kalit so'zlar: *ta'lim ergonomikasi, o'qituvchi ergonomik madaniyati, ergonomik ta'lim muhiti.*

Ключевые слова: *эргономика обучения, эргономическая культура учителя, эргономическая среда обучения.*

Key words: *educational ergonomics, teacher ergonomic culture, ergonomic learning environment.*

Mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishlar bilan bir qatorda, ta'limni modernizatsiya qilish yo'nalishida keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. Kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati insonni intellektual va ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash bilan uzviy bog'liq bo'lgan uzluksiz ta'lim tizimi orqali har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirishni nazarda tutgan holda, malaka oshirish ta'lim muassasalarida tinglovchilarning o'quv modullari va bloklari bo'yicha muntazam bilim olishlarini, ularda bilim o'zlashtirish ehtiyojini, asosiy o'quv-ilmiy va umummadaniy bilimlarni, milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan ma'naviy-axloqiy fazilatlarini, kasbiy rivojlanishlarini, ijodiy fikrlash va atrof-muhitga ongli munosabatda bo'lishni belgilab berdi.

Dars mashg'ulotlarining internet va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanilgan holda masofadan turib amalga oshirish, muayyan loyiha asosida tashkil etish, aniq maqsadga erishishga yo'naltirilgan, ta'lim natijasini kafolatlaydigan pedagogik jarayonlarda eng samarali metodlardan foydalanish, ta'lim va tarbiya texnologiyalarini tanlash hamda dars jarayonlarini tashkil etish samaradorligini ta'minlashga ergonomik madaniyat xizmat qiladi. Ta'lim mazmunini belgilash tamoyillari hamda mezonlariga rioya etgan holda o'quv materiallarini tanlash va tizimlashtirish, ta'lim muassasasi o'quv moddiy bazasi va ta'lim vositalariga qo'yiladigan ergonomik talablarni hisobga olish o'quv materiallarini samarali modellashtirish imkoniyatini beradi [1.54]. Natijada yaxlit pedagogik jarayonning umumiy qonun, qonuniyat va tamoyillariga amal qilgan holda, ta'lim-tarbiya jarayonida gnoseologik, tashkiliy, psixologik, didaktik, sotsiologik va kibernetik konuniyatlarining uygunligiga erishiladi.

Malaka oshirish va qayta tayyorlash muassasalarida tahsil olayotgan o'qituvchilarning tayyorgarlik darajasiga, fanlar bo'yicha o'qituvchi-tinglovchilarda shakllanishi zarur bo'lgan malaka va ko'nikmalarga, o'zlashtirishi zarur bo'lgan bilimlar mazmuniga va ta'lim dasturlarining mazmuni hamda komponentlariga qo'yilayotgan talablarda o'qituvchilarda pedagogik ergonomika yo'nalishida zaruriy bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish zaruriyati dolzarb bo'lib qolmoqda.

“Ergonomika” atamasi birinchi marta polshalik tabiatshunos V.Yastshembovskiy tomonidan 1857-yilda ishlatilgan bo'lib, u tabiat to'g'risidagi qonuniyatlarga asoslanib, mehnat haqidagi fanni nazarda tutgan [4.343]. Ergonomika ta'limining kelib chiqishiga B.G.Ananiev [2.288], V.P.Zinchenko [4.343], A.N. Leontiev [5.304], B.F.Lomovlar asos solganlar [7.465]. Umuman olganda, ergonomika “insonni zamonaviy ishlab chiqarishdagi faoliyatining o'ziga xos sharoitlarida har tomonlama o'rganadigan ilmiy fan sohasidir” [3.230].

1986-yildan boshlab, “Ergonomics Abstracts” jurnalida ta'limning ergonomik muammolariga bag'ishlangan yangi fan sohasi paydo bo'ldi – Education (ta'lim) deb rus tadqiqotchisi A.A.Kuligina o'zining “Ta'lim dunyosida ergodizayn” nomli asarida, dastlab, yoritib berdi [8.356].

Lekin ta'lim muammolarini xal etishga bo'lgan qiziqish ergonomistlarda avvalroq paydo bo'lgan edi. 1980-yili inson omillari jamiyatida ergonomikaning istiqbolli yo'nalishlarini aniqlash uchun maxsus gurux tuziladi. Guruh tomonidan tavsiya etilgan 8 ta yo'nalishning bittasi ta'lim va mashg'ulotlar tizimini yaratish bo'ladi. Shuni takidlash lozimki o'tgan davr ichida ergonomikaning bu yo'nalishi faqat operatorlar kasbi bilan (insonning texnika bilan) bog'liq mehnat faoliyatini o'rganishga qaratilgan xolda rivojlandi.

Bir qator mualliflar ergonomikaning tamoyillari va tavsiyalarini ishlab chiqarish jarayonidan pedagogik jarayonga o'tkazish mumkin deb hisoblashadi. Jumladan, V.P.Zinchenko “pedagogik ergonomika yaratishga ehtiyoj bor” deb juda to'g'ri ta'kidlaydi [4.343]. “Ergonomika” odam-mashina “tizimini tekshirsa ham, uning ko'plab xulosalari va tavsiyalari maktabdagi o'quv jarayonini yaxshilash uchun ishlatilishi mumkin”, deydi A.A.Chentsov [10.273]. “Bir qator mehnat faoliyati to'g'risidagi fanlar va texnik fanlarning yutuqlarini sintez qilish orqali ergonomika tegishli fanlararo aloqalarni o'rnatishga va o'quv jarayonining o'zini yaxshi tashkil etishga hissa qo'shishi mumkin” [4.343]. “Murakkab zamonaviy texnologiyalar bilan ishlash muammolarini har tomonlama hal qilish usullaridan biri bu ergonomik yondashuvdan foydalanishdir” [6.141]. “Asosan, antropotexnik tizimlar dizayni bilan shug'ullanadigan an'anaviy yondashuvdan farqli o'laroq, kasb-hunar ta'limi ergonomikasi yangi o'qitish uslublarini, tizimli va kompleks yondashuvga asoslangan texnik o'quv vositalarini asoslash bilan bog'liq bo'lishi kerak” [6.

141]. “Ergonomik talablarni hisobga olgan holda, ushbu fanning tavsiyalaridan foydalangan holda maktab jihozlari, ko‘rgazmali qurollarni loyihalashda, sinfda kerakli qulaylikni yaratish, shubhasiz o‘quvchilar tomonidan bilim, qobiliyat va ko‘nikmalarni egallash jarayoniga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi, o‘quv tizimini umuman, yaxshilaydi” [10.273].

Bizning fikrimizcha, mazkur fanlarni o‘qitishda ko‘zda tutilgan fanlararo aloqalar ta‘minlanishida oliy ta‘lim pedagogika ta‘lim sohasi talabalari uchun “Pedagogika nazariyasi va tarixi” fanidan ishlab chiqilgan dasturda ta‘lim ergonomikasi bo‘yicha talabalarga tushunchalar berish uchun alohida bo‘lim keltirilmaganligi va mazkur bo‘limda bakalavrlarga ta‘lim tizimi muammolarini bartaraf etishning psixologik-pedagogik asoslarini o‘rgatish belgilanmaganligini, shuningdek, “Pedagogik ergonomika” fanidan mashg‘ulotlar tashkil etilishi nazarda tutilmaganligini inobatga olishimiz mumkin.

“Pedagogik ergonomika” o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatini o‘qitishning texnik vositalari, didaktik vositalari, pedagogik texnologiyalari hamda maktabdagi ta‘lim va tarbiya muhiti bilan bog‘liq holda, har tomonlama o‘rganadigan ilmiy fan sohasidir [9.200].

Pedagogik ergonomika – xavfsiz va qulay ta‘lim muhitini tashkil etish maqsadida o‘qitish va o‘zlashtirish jarayonini inson va texnika imkoniyatlari hamda ularning o‘zaro ta‘sirini hisobga olgan holda yaratish, tatbiq etish, aniqlash, o‘qituvchi va o‘quvchi mehnatini yengillashtirish, ruhiy zo‘riqish holatlarini kamaytirish, ta‘lim tizimi muammolarini bartaraf etishdir [1.54].

Fikrimizcha, pedagogik ergonomika fanini o‘qitilishida rejalashtiriladigan: ta‘lim va tarbiyaviy muhit ergonomikasi, ta‘lim va tarbiya jarayoniga oid mehnatga aloqador bo‘lgan insonning biomexanik, fiziologik, antropometrik, anatomic tavsiylari bilan bog‘liq masalalar muhim ahamiyat kasb etadi. Ta‘lim jarayoni dolzarb muammolarni hal etish yo‘llarini izlash ishlari olib borish: ish o‘rni, materiallarga ishlov berish, inson tayanch harakat a‘zolarining o‘zgarishi, ish o‘rni kompozitsiyasi, ishonchlilik va salomatlik, tashkiliy ergonomika ijtimoiy texnik tizimlar va ularning tashkiliy tuzilmalari va boshqarish jarayonlari o‘z ichiga olgan holda, optimallashtirish bilan bog‘liq masalalarni hal etish va boshqalarni nazarda tutiladi. Shuningdek, individlararo aloqalar tizimi, inson resurslarini boshqarish, loyihalar ishlab chiqish, kooperatsiya, jamoa ishi oqilona tashkil etish va boshqarish masalalarini o‘rganiladi; kognitiv ergonomika ruxiy jarayonlarga aloqalarni (idrok, xotira, qaror qabul qilish va boshqalar) topish, tizimning boshqa elementlari bilan insonning aloqadorlik masalalarini o‘rganiladi. Aqliy mehnat, qaror qabul qilish, malakali bajarish, inson va kompyuter hamkorligi kabi muammolarni ko‘rib chiqiladi, bu jarayonda, ijtimoiy texnik tizimlarni loyihalashda insonga uzluksiz ta‘lim berish va uni kasbiy tayyorlash masalasiga e‘tibor qaratiladi va tushunchalar beriladi. Pedagogik ergonomika talabalarni ta‘lim tizimi muammolarini oqilona bartaraf etish faoliyatiga tayyorlashda o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Yuqorida keltirilgan fikrlarga asosan aytilish mumkinki, talabalar ergonomik madaniyatini rivojlantirish yo‘nalishlari, integrativ va androgogik yondashuv fanlar bo‘yicha ishchi dasturlar tuzishda, mavzularning mazmun-mohiyatiga ko‘ra, soatlar taqsimlashda, shuningdek, ta‘lim jarayonini loyihalashtirish va tashkil etishda mavzularning o‘zaro aloqadorligi va bog‘liqligini ta‘minlanishi, fanlarning maqsad va vazifalarini o‘zaro muvofiqlashtirilishini nazarda tutadi, o‘z navbatida, o‘quv rejasida fanlar bo‘yicha ajratilgan soatlardan unumli foydalanishga, mavzularning ahamiyatini kengroq yoritib berishga, talabalarining dunyoqarashi va fanlar bo‘yicha tushunchalarini kengaytirishga, ularning o‘zi tanlagan kasbga bo‘lgan qiziqishlarini rivojlantirishga, ularni amaliy faoliyatga tayyorlashda ta‘lim jarayoni sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Demak, ta‘lim tizimi muammolarini oqilona bartaraf etish ergonomik faoliyatiga oliy pedagogik ta‘lim muassasalari talabalarni maxsus tayyorlash jarayoni tashkil etilmaganligini inobatga olgan holda, biz malaka oshirish va qayta tayyorlash muassasalarida o‘qituvchilarni ergonomik faoliyatga tayyorlash jarayonini tashkillashtirish va ularning tayyorgarlik darajasiga, pedagogik ergonomika bo‘yicha shakllanishi zarur bo‘lgan malaka va ko‘nikmalarga, o‘zlashtirishi zarur bo‘lgan bilimlar mazmuniga va ta‘lim dasturlarining mazmuniga belgilangan talablarning yo‘nalishini ifodalovchi va ta‘lim-tarbiya jarayonida ko‘zlangan natijalarga erishishni, o‘qituvchilarda ergonomik madaniyatni rivojlanishini ta‘minlovchi o‘zaro bog‘liq bo‘lgan va bir-birini o‘zaro to‘ldiruvchi komponentlardan iborat bo‘lgan texnologiya va tizimni tavsiya etamiz.

Texnologiya va tizimni tashkil etuvchi komponentlarning o‘zaro aloqadorligi va bog‘liqligi kabi qator xususiyatlar inobatga olinadi, sababi mazkur xususiyatlar ergonomik madaniyatni shakllanishi va rivojlanishida o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Muhokamalar va natijalar. O‘qituvchi-tinglovchilarning ergonomik madaniyatini shakllanishi va rivojlanishiga ta‘sir qiluvchi obyektiv va subyektiv ta‘sir etuvchi omillar ta‘sirining xususiyatlarini hisobga olib, biz tinglovchilarning ergonomik madaniyatining shakllanish darajasini (yuqori, o‘rta, past) baholash mezonlari va ko‘rsatkichlarini aniqladik:

a) kognitiv xususiyat tinglovchilarning ergonomik madaniyat, uning shakllanish yo‘llari haqidagi bilimlarini tavsiflaydi;

b) motivatsion tinglovchilarning ergonomik madaniyatini shakllantirish muammolariga munosabatni belgilaydi;

d) integrativ faoliyat zamonaviy maktabda qulay, samarali va xavfsiz o‘quv muhitini yaratish bo‘yicha ergonomik qobiliyatlarni, ko‘nikmalarni egallashni ko‘rsatadi.

Umuman olganda, tinglovchilarning aksariyati ergonomik madaniyatning past darajasiga ega. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, malaka oshirish va qayta tayyorlash tizimida tinglovchilarni o‘qitish o‘qituvchi uchun ta‘lim tizimidagi ergonomik komponentning zarur darajasini ta‘minlamaydi.

Xulosa qilib aytish mumkinki ergonomik madaniyatni rivojlantirish jarayonida uning ergonomik bilim, ko‘nikma, fikrlash, yo‘nalish kabi tarkibiy qismlarini o‘qituvchi-tinglovchilarda shakllantirish darajasini nazorat qilib borishi kerak bo‘ladi. Agar o‘quv jarayonida turli xil nazorat turlari, ergonomik bilimlar va ko‘nikmalar taqdimoti o‘tkazilsa, o‘qituvchi-tinglovchilarning o‘quv faoliyatini, bilimlardagi bo‘shliqlarni o‘z vaqtida aniqlab va bartaraf etib borilsa, bizning fikrimizcha, o‘qituvchilarda ergonomik madaniyat takomillashib rivojlanib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдуллаев С.Х. Технологик таълим ўқитувчиларининг эргономик компетентлиги. Монография, GlobeEdit is a trademark of Dodo Books Indian Ocean Ltd., member of the OmniScriptum S.R.L Publishing group str. A. Russo 15, of. 61, Chisinau–2068, Republik of Moldova Europe Printed at: see last page, 2022.

2. Ананьев Б.Г. Человек как предмет познания. Избранные психол. труды. В 2-х т., т.2, М., “Педагогика”, 1980, 288 с.

3. Большая Советская Энциклопедия. 3-е изд, М., 1978, т. 30, 230 с.

4. Зинченко В.П., Мунипов В.М. Основы эргономики. М., МГУ, 1979, 343 с.

5. Леонтьев А.Н. Деятельность. Сознание. Личность. М., Политиздат, 1975, 304 с.

6. Лернер И.Я. Внимание – технологии обучения. «Советская педагогика», 1990, № 3, с. 139 – 141.

7. Ломов Б.Ф. Человек и техника. М., «Советское радио», 1966, 465 с.

8. Мунипов В.М. Эргономика: человекоориентированное проектирование техники, программных средств и среды. Учебник, М., 2001, 356 с.

9. Окулова Л.П. Педагогическая эргономика. Монография, М., Ижевск, Институт Компьютерных исследований, 2011, 200 с.

10. Ченцов А.А. Теоретические основы научной организации учебного процесса. Белгород, 1972, 273 с.

Арипова Малика Ганишеровна (д.ф.п.н. (PhD) и.о. доцента кафедры русского языка и литературы НавГПИ; Aripova1101@gmail.com)

РОЛЬ ИММЕРСИВНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ПРИ ФОРМИРОВАНИИ МЕТАКОГНИТИВНЫХ СПОСОБНОСТЕЙ СТУДЕНТОВ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ВУЗОВ

Аннотация. *Ushbu maqolada “Rus adabiyoti tarixi” fanini o‘rganishda filologiya talabalarining metakognitiv qobiliyatlarini shakllantirishda immersiv texnologiyalarning o‘rni ko‘rib chiqilgan. “Immersivlik” va “kengaytirilgan haqiqat” tushunchalari ochib berilgan. Immersiv texnologiyalardan foydalanish talabalar va o‘qituvchi o‘rtasida o‘zaro ta’sir va yaqin, ishonchli munosabatlarning paydo bo‘lishiga yordam beradi, bunda maqsadga erishish uchun shaxsning ijodiy harakatlari amalga oshiriladi va rejalashtirilgan natijaga erishiladi, bu insonning ichki dunyosini rivojlantirishga yordam beradi.*

Аннотация. *В данной статье рассматривается роль иммерсивных технологий в формировании метакогнитивных способностей у студентов филологов при изучении дисциплины «История русской литературы». Раскрываются понятия «иммерсивность», «дополненная реальность». Применение иммерсивных технологий способствует возникновению взаимодействия и тесных, доверительных отношений студентов между собой и педагогом, при котором для достижения цели реализуются творческие усилия личности, и достигается запланированный результат, способствующий развитию внутреннего мира человека.*

Annotation. *This article discusses the role of immersive technologies in the formation of metacognitive abilities in students of philology in the study of the discipline “History of Russian Literature”. The concepts of “immersiveness”, “augmented reality” are revealed. The use of immersive technologies contributes to the emergence of interaction and close, trusting relationships between students and the teacher, in which the creative efforts of the individual are realized to achieve the goal, and the planned result is achieved, contributing to the development of the inner world of a person.*

Kalit so'zlar: metakognitiv qobiliyatlar, adabiyot, o'rganish, yangi texnologiyalar, immersive texnologiyalar.

Ключевые слова: *метакогнитивные способности, литература, обучение, новые технологии, иммерсивные технологии.*

Key words: *metacognitive abilities, literature, learning, new technologies, immersive technologies.*

В развивающемся обществе технологии создают определенные условия для прогрессивно-го использования современных инновационных разработок. Все отрасли производства, занимаются внедрением инновационных технологий, так как инновационные технологии являются неотъемлемой частью прогрессивного развития современного общества. Большинство домов-музеев имеют современную виртуальную площадку, где желающие могут виртуально посетить музей и ознакомиться с экспонатами. Может быть виртуальное посещение, не даст посетителю чувство близости, визуального и тактильного восприятия, но оно способствует восприятию, появлению метакогнитивных способностей и новых ощущений.

Иммерсивность – есть понятие, которое происходит от англ. «immersion», что означает «погружение». В толковых словарях иммерсивность рассматривается как совокупность ощущений человека, находящегося в искусственно созданном трехмерном мире, в котором он может менять точку обзора, приближать и удалять объекты и т.д.

Понятие «иммерсивные технологии» (immersive learning) появилось относительно недавно, но уже широко используется в образовательном процессе. Иммерсивное обучение – это метод, который использует искусственную или смоделированную среду, благодаря которой обучающиеся могут полностью погрузиться в процесс обучения. Он не только устраняет отвлекающие факторы, но и убивает монотонность в процессе обучения и развития, обеспечивая стимулирующие визуализации. Иммерсивное обучение позволяет повысить вовлеченность обучающихся и, следовательно, сделать обучение более продуктивным и ценным.

Имея под рукой гаджеты, студенты могут воспользоваться поиском интересующего материала, но нередко получается, что они заняты посещением соцсетей. Использование иммерсивных технологий позволяет заинтересовать студентов и развить метакогнитивные способности. Создание проектов, интерактивные методы и использование цифровых технологий, симуляторов, тренажеров, виртуальных лабораторий, дополненной и виртуальной VR – реальности педагогом при изучении дисциплины «История русской литературы» может способствовать развитию метакогнитивных способностей у студентов.

Метакогнитивные способности – это психические качества, которые обеспечивают произвольный и произвольный контроль процессов переработки информации и саморегуляцию разных аспектов интеллектуальной деятельности. Задачи, которые ставит перед собой современный педагог, передача информации, мотивирование к постижению поставленной цели, развитие и формирование психологических процессов по переработки и восприятию информации.

Современные факторы развития VR-технологий в образовательном процессе зависят от материальных возможностей. Высокая стоимость разработки образовательного контента не позволяет использовать данные технологии на каждом занятии. Использование современных технологий способствует развитию метакогнитивных способностей у студентов. Различают несколько видов метакогнитивных способностей:

♦метакогнитивные способности как проявление самоосведомленности (наличие знаний о собственных знаниях, собственном процессе мышления и содержании собственной системы представлений);

♦метакогнитивные способности как способность к произвольной, осознаваемой саморегуляции деятельности (формирование целей деятельности, планирование, мониторинг процесса решения проблемы и т.д.);

♦метакогнитивные способности как способность к произвольному контролю процессов оперативной переработки информации.

Если говорить о VR в образовании, то нужно понимать разницу между обучением в виртуальной реальности и обучению виртуальной реальности. Рассмотрим первый тип использования виртуальной реальности, как дополнительный способ изучения предмета.

Здесь можно обозначить несколько типов по содержанию:

1.Видео 360 градусов. Педагог может показывать на занятии различные видео 360 градус-сов. Путем взаимодействия с виртуальными очками, система переводит 2-D изображение в 3-D, создается обволакивающее изображение. К примеру, студенты, надев шлем, совершают путешес-

твие по Царскосельскому лицей и встречаются в коридорах А.Пушкина и его однокурсников на занятии по дисциплине «История русской литературы», либо посмотреть восстание декабристов на Сенатской площади и т.д. Это позволит использовать эффект погружения в окружающую среду изучаемой темы.

2. Платформы и площадки. Виртуальная среда будет создаваться в режиме реального времени, где студенты будут погружены в VR. К примеру, используя VR Chemistry LAB, которую разработали СТЕМ-игры и Центр НТИ ДВФУ, студенты будут совершать необходимые химические опыты без вреда для своего здоровья и риска для здоровья при проведении опытов.

Интерактивные программы. Данный образовательный контент представляет из себя завершённый продукт, готовый к использованию на занятиях или в виде домашнего задания. Студенты могут посетить виртуальный музей, чтобы рассмотреть природные явления и события на картинах художников.

Выделяют основные причины для расширения применения технологий виртуальной и дополненной реальности в образовательном процессе:

1. **Преимущества в освоении образовательного материала.** Проведённые исследования показывают положительную результативность обучающихся от применения технологий, лучшую усвояемость, вовлечённость и другие характеристики учебного процесса.

2. **Рост числа реализованных проектов и программных продуктов на базе VR.** Число реализованных проектов и созданных продуктов перевалило за несколько тысяч и продолжает расти.

3. **Снижение цен на VR шлемы.** Цены на VR-устройства существенно снизились за последние несколько лет.

4. **Успешное применение иммерсивных технологий в образовательных целях в бизнесе.** Многие крупные компании реализовали свои VR проекты для обучения сотрудников, проведения вводных инструктажей, обучения молодых сотрудников, проведения тренингов, обучения по охране труда и обучения во внутренних университетах, реализации проектов по геймификации.

5. **Инвестиции в VR.** Ежегодно в данное направление инвестируется около 2,5 млрд долл.

6. **Кейсы удачного применения VR в образовании.** В исследовании много примеров применения VR проектов в сфере образования.

На занятиях по русской литературе с использованием иммерсивных технологий задействованы специфические системы, которые помогают студентам лучше познать сущность и понятийный аппарат произведения.

Художественная литература – одна из важнейших источников всестороннего развития личности. Развитие метакогнитивных способностей и творческого восприятия художественной литературы – проявление специфических черт осмысления конкретного литературного материала.

Психологи разделяют студентов по трём системам восприятия: визуальной (зрение), аудио-файлов (слух) и кинестетиков (ощущения). «Визуальная, аудиальная и кинестетическая системы являются первичными репрезентативными системами при усвоении литературоведческих понятий, используемыми в западной культуре.¹ Также следует отметить, что не существует личностей, у которых есть только одна репрезентативная система, но это не значит, что их сознание лишено образов из других систем.

Литературное произведение представляет собой сложное образование, складывающееся из самого текста и необходимого внетекстового контекста, который строится самим читателем в соответствии с его индивидуальными и возрастными особенностями. Следовательно, характер протекания взаимодействия читателя с произведением определяется двумя основными моментами – самим текстом (его содержанием, структурой, звучанием, форм преподнесения и т.п.) и способами познания, осмысления окружающего мира, сложившимися под влиянием прошлого жизненного и художественного опыта.

Писатель для повышения колоритности своего текста в плане установления контакта с читателем использует основные предикаты всех трёх репрезентативных систем (сенсорно-определённые слова: прилагательные, наречия и глаголы), не забывая, что личность писателя, естественно, имеет свою доминирующую репрезентативную систему. Так, для визуального восприятия

¹ Абдуллаева Ш.А., Арипова М.Г. Имитационная модель коллаборативных проектов по русской литературе. Преподаватель XXI век. 2021, № 2–1. URL <https://cyberleninka.ru/article/n/imitatsionnaya-modello-la-bo-rativnyh-proektov-po-russkoj-literature> (дата обращения: 02.12.2022).

(а статистически эта система наиболее распространена), используются в качестве предикатов такие слова, как «я вижу в ваших словах истину, хочу четко для себя определить, ярко, достаточно ясно, красиво, контрастно, я уже вижу, точка зрения». Аудиофайлы употребляют выражения «звучит похоже на правду, слышится, громко о себе заявил, послушай».¹ Кинестетики имеют самый широкий набор слов, охватывающий широкий спектр реакций: «я чувствую, что вы правы, в ваших словах ощущается, это делает меня; тяжелый, тёплый, холодный, кислый».

Художественная литература должна одновременно – показать (для визуала); – объяснить, рассказать (для аудиофайла); – дать прочувствовать (для кинестетика).

Процесс и результат восприятия литературного произведения зависит от ряда взаимосвязанных причин. С одной стороны, конкретный текст студент воспринимает в своей целостности и уникальности. Литературный опыт в целом и его отдельные элементы могут влиять на характер и способы восприятия конкретного литературного произведения, да и всего окружающего мира, на всю систему образных представлений. Кроме того, источники своеобразия в восприятии художественной литературы следует искать и в особенностях словесно-образного освоения окружающего мира, и в стихийно складывающихся эстетических предпочтениях, и в излюбленных формах словесного творчества.

При использовании иммерсивных технологий восприятие художественной литературы носит творческий характер, который выражается в субъективно эмоциональном и преобразующем отношении студента к художественному произведению. Элементы литературного опыта включаются ими в искусственно созданные ситуации и претерпевают различные изменения. Так, в коллективных ситуациях чаще всего варьируются детали сюжета при сохранении традиционного облика героев, а в индивидуальных воображаемых ситуациях – образ самого героя.

Применение иммерсивных технологий способствует возникновению взаимодействия и тесных, доверительных отношений студентов между собой и педагогом, при котором для достижения цели реализуются творческие усилия личности, и достигается запланированный результат, способствующий развитию внутреннего мира человека.

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-sonli qarori. <https://lex.uz/ru/docs/-5426736?ONDATE=12.05.2022%2000>

chamanni sevar, odam vatanni”¹– ‘a nightingale loves flower garden, person loves his Motherland’, “musofir bo‘Imaguncha musulmon bo‘Imas”–‘not being wanderer one does not know the value of his country’, “Ayrilmagin elingdan–quvvat ketar belingdan”²–‘don’t be alone of your people, otherwise you loose youth strength’, “Baliq suv bilan tirik, odam el bilan”– ‘fish is alive with water, people alive with its people’, “Birovning yurtida bek bolguncha o‘z yurtningda gado bo‘l”–‘it is better to be a beggar in your country than to be king in alien country’, “Vatangado bo‘lguncha, kafangado bo‘l”– ‘it is better to be without shroud, than to be homeless’, “Elga xizmat – oliy himmat”–‘service for the country is a great deed’, “Yaxshi yigit yurt tuzar, Yomon yigit yurt buzar”– ‘a good man creates a country, a bad man destroys his country’, “O‘z uying – o‘lan to‘shaging” – ‘East or west home is best’, “O‘zga yurtning qu-yoshi, oyingga arzimaydi, jannat tug‘ilib o‘sgan joyingga arzimaydi” – ‘the moon of your country is better than the sun of alien country’, birthplace is better than paradise’, “Himmatli er, o‘z elin der”, ‘Honorable person prefers his country’, “Vatangado kimsaga beminnat makon qayda?”– ‘there is no place for betrayers in his country’. “Non gadosi bo‘lsang ham Yurt gadosi bo‘lma”³.

These proverbs mainly are devoted to love for one’s country.

We introduce these proverbs mostly in the sessions of English clubs and after class activities. While introducing the proverbs to students we create an atmosphere for them. In introductory part we ask students to translate or to give a short meaning of the proverbs which are presented them.

While introducing the proverbs we give their explanations and ask students to paraphrase them. For instance: Dear students let’s try to understand the meaning of this proverb. Why do people say “Ayrilmagin elingdan – quvvat ketar belingdan”, please try to paraphrase its meaning. Students present their versions and variants of this proverb: to my mind it sounds like this ‘ if a person leaves his country, and lives in foreign country he is considered as an emigrant and other people do not respect him, as he betrayed his country. If a person lives in his country he can rely on the support of his relatives, neighbors, friends if he needs a help everybody will help him. The second student gives his opinion: As for me, living in abroad has its difficulties. He faces various difficulties, he does not know the traditions, culture and customs of them, so he becomes isolated, he can not join to various societies. There are no friends to help him, being alone influences negatively to his mood, to his health, so I think wise people live in their native country.

The next proverb “Birovning yurtida bek bolguncha o‘z yurtningda gado bo‘l”– ‘it is better to be a beggar in your country than to be king in alien country’. Let’s analyze this proverb. Why do people prefer to be a slave in their country? What is your opinion to this proverb?. Students try to explain the meaning of this proverb. One student gives his idea. Dear friends I think if you are a king in other country the people do not trust you, because you do not belong to their society, you live in danger in that place, if you are a slave in your country, you are supported by society, you live in peace and you believe in your future. So, I prefer to live in my country than in other countries, as here I feel myself in safety, I am supported by everybody. I liked this proverb.

Students let’s analyse the proverb “O‘z uying o‘lan to‘shaging” ‘East or west home is best’. What do you think about this proverb. Give your opinions.

The first student: As far as I know, people prefer to live in their house, for they are accustomed to dwell in their house, they devote their life to this place, they build convenient conditions for their life, so they don’t like to live in another places.

The second student: No, I don’t agree with your opinion, the living conditions are not the solution for the problem, I think people should love their Motherland, so we born there, we grow in this place, we value its nature, we should take care of our country.

The third student: I approve the idea of my friend, I don’t forget every time which I spend in my country, recently I visited Japan, when I was in that country I found many interesting information about this country, but after a week I began to miss my country, I missed my friends, relatives, my pets, I realized the value of my country in abroad, I think we should visit other places so that to feel real stranger life.

Now we analyse another proverb “Yaxshi yigit yurt tuzar, Yomon yigit yurt buzar –‘a good man creates a country, a bad man destroys his country’. Give your opinions:

The first student: to my mind a good person loves, his country, he takes care of it, he tries to contribute his assistance for the development of his country, a bad person does not care of his country, he

¹ T.Mirzayev, A.Musoqulov, B.Sarimsoqov. O‘zbek xalq maqollari. T., 2005, 9-bet.

² Shu manba.

³ Shu manba. 10-bet.

doesn't love it, he may betray it in any moment, he is not reliable, so, to my mind we should love our country.

The second student: this proverb is devoted to people who loves and who doesn't love it, we must build, not to destroy our Motherland, only then we consider ourselves as a patriotic person.

The third student: as for me, I don't like the people who doesn't love his country, they are not worthy for respect.

The following proverb also helps to students to be true patriot of his country: , "Elga xizmat – oliy himmat" – 'service for the country is a great deed'. Dear students let's discuss this proverb and its meaning. Why do we have to serve to our country? please give your opinions.

The first student: As I suppose, people who live with us are very dear for us, as they are our relatives, parents, neighbors, friends, colleagues etc. With whom we live together, they are very close for us. So, we have to work for the development of our country.

The second student: to my mind the service for the country is a holy thing, I know many historical events where the great men of the country fought for the freedom of their country, they gave their lives for their country, such as Shiroq, Muqanna<Tumaris, they saved their country from invasions.

In this way we analyse many proverbs with our students. This task helps to develop the creative thinking ability of the students, it gives them the chance to select, to judge something, to stand for his ideas.

Uzbek proverbs and saying are very wise and meaningful and can be used as an additional source for the development of the vocabulary, and translation skills of the students, we can find the English equivalents in order to compare their meaning, their coincidence.

While concluding our article we can summarize the following:

1. Proverbs and sayings keep very useful information from the educational point of view.
2. The use of proverbs and sayings in English classes widen the outlook of the language learners.
3. The use of proverbs and saying help to develop translating skills of students.
4. The use of Uzbek folk proverbs create a ground for the development of paraphrasing ability of the students.
5. The use of proverbs and saying in English classes help to develop discussing ability of the language learners.
6. The use of Uzbek proverbs and sayings in English classes help to form patriotic sense of students.

The use of Uzbek proverbs and saying in English classes give students freedom of expressing their own ideas, helps them how to paraphrase their thoughts and paves the way for the further development of creative abilities of the language learners.

Such kind of debate and discussions can be held in the upper level, as it requires some basic language skills, the use of such activity is not desirable in elementary level, as students do not have enough language experiences to explain their deep inner senses.

Eshmurodova Zarifa Raxmonberdiyevna (Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti o'qituvchisi, PhD; email: zarifa.eshmurodova@gmail.com)
FRANSUZ VA O'ZBEK FOLKLOR MATNLARIDA QUROL-ASLAHA NOMLARINING IFODALANISHI

Annotatsiya. Maqolada o'zbek xalq dostoni «Alpomish» va fransuz xalq dostoni «Roland haqida qo'shiq» matnlarining etnografik leksikasi o'rganilgan. Xalqlarning moddiy va ma'naviy madaniyatga oid etnografizmlari, ularning, o'z navbatida, leksik va semantik kichik guruhlariga bo'linganligi aniqlangan. Maqolada ikki xalq dostonida uchragan qurol-aslahaga oid etnografizmlar va ularning ma'nolari xususida so'z boradi.

Аннотация. В статье исследуется этнографическая лексика текстов узбекского народного эпоса «Алпамыш» и французского народного эпоса «Песнь о Роланде». Этнографии народов, относящиеся к материальной и духовной культуре, в свою очередь делятся на лексико-семантические подгруппы. В статье говорится об этнографии оружия и его значениях, встречающихся в эпосах двух народов.

Annotation. The ethnographic lexicon of the texts of the Uzbek folk epic "Alpomish" and the French folk epic "The Song of Roland" is studied in the article. Ethnographies of peoples related to material and spiritual culture, which in turn are divided into lexical and semantic subgroups. The article talks about the ethnographies of weapons and their meanings found in the epics of two peoples.

Kalit so'zlar: moddiy madaniyat, folklor, etnografiya, qilich, Dyurandal, Artekler, egar, abzal, anjom.

Ключевые слова: материальная культура, фольклор, этнография, шпага, Дюрандаль, Артеклер, седло (эгар), украшение (абзал), аксессуар (анжом).

Key words: material culture, folklore, ethnography, sword, Durandal, Artekler, saddle jewelry, accessory.

Dostonlarda ajdodlarimizning harbiy sohaga taalluqli juda ko'plab etnografik leksemalari ko'zga tashlanadi. Ularda o'sha davrda xalqlarni harbiy hayoti, qo'shin va uning qismlari, vazifasiga ko'ra turlari, harbiy unvon, nishon, qurol-aslahaga, harbiy kiyimlar nomlari, jangovar va ijtimoiy-siyosiy tayyorgarligiga oid leksemalar qo'llanilgan.

«Roland haqida qo'shiq» dostonida qurol-aslahaga haqida ko'plab keltirilgan izohlarni ko'rishimiz mumkin. O'rta asr rit-sarlarini qurol-aslahalarining o'rganilishi ko'pgina olimlarimiz diqqat markazida bo'lgan. Jumladan, qurol-aslahalarning nomlanishi [2], ularning qo'llanishi va xalqlar madaniyatining bir bo'lagi ekanligi, ijtimoiy ramzlar ekanligi [15], o'rta asrlar poemalarida qurol-aslahaga badiiy vazifa bajariishi [2] haqidagi qarashlar mavjud. Ijodkor asarning har bir bandida jangda qo'llangan qurol-aslahalarning qanday materialdan tayyorlanganligi, qilich va kamonlarning sifati haqidagi fikrlarni isbotlab turadi. Qurollarni ta'riflash mobaynida franklar va mavrlarning ham ta'rifu-tavsifiga ega bo'lamiz. Masalan: LXXIX. 995. *Quand de fortes épées forgées viennoises.//Quand des chevaux et des boucliers Valen...//venaliklar yasagan o'tkir qilichlar//Venliklar qalqonlari va otlari ... (R. 57)* va undan keyin yasalgan qilichlar, nayzalar, qalqonlar har biri puxta tasvirlangan.

Une espée (qilich)ga *bon* (yaxshi), *ceinte* (mahkamlangan), *belle* (chiroyli), *léger* (yengil), *acier* (po'lat), *tranchant/nu* (o'tkir), *une omme punz d'or* (oltin tutqichi bilan); *armure* (sovut), *vestuz* (kiyilgan), *feafrez* (oltindan), *sara-zineis* (saratsin), *doublet* (qonli); *espiet* (nayza), *dgenchant* (keskir), *brun* (yaltirovchi), *grand* (katta), *Valentineis* (Valantian)da tayyorlangan; *Aelme* (dubulg'a), *laciez*, *fermez* (mahkamlangan), *flambius* (porlayotgan), *Sarraguzeis* (Saragossa)da tayyorlangan, *perres d'or gemmes* (oltin va toshlar) bilan qoplangan kabi tavsiflar bilan birga keltirilgan.

LXXIX. 995. *Quand de fortes épées forgées viennoises.//Quand des chevaux et des boucliers Valen//venaliklar yasagan o'tkir qilichlar//Venliklar qalqonlari va otlari hozir turganda (R.57)*. Saragossa – shimoli-sharqiy Ispaniyaning avtonom viloyatining poytaxti hisoblanib, qadimda temirchilik bilan mashhur bo'lgan. Eng yaxshi sovut, qalqon, dubulg'alar Yevropaga Saragossadan keltirilgan. Venn qiroligi o'rta asrlarda Fransiyaning janubida Rona daryosi bo'yida joylashgan bo'lib, o'z davrida mashhur qilichlar shu yerda yasalgan. *Valen* – Ispaniya sharqida joylashgan shahar bo'lib, yilqichilik bilan shug'ullangan.

Dostonda u yoki boshqa qahramonga tegishli qilich, nayza va otlari nomlangan. Asardagi qahramonlar – Karlning oti – *Tansandor* (sho'x, o'ynoqi), qilichi – *Juayez* –joyeuse (xursand, shod); Rolandning oti – *Velyantif*, («veiller» fe'lidan hosil bo'lgan – «hushyor bo'lmoq» («hushyor», «sergak») yoki

«vieil» – «eski» va «antif» – «qadimiy»), qilichi – *Dyurendal* (dur – qattiq), burg‘usi – *Olifan* (fil suyagi); Ganelonning qilichi – *Morgles*, oti – *Toshbrun* (jigarrang olma), Olivyer qilichi – *Altekler* (yop-yorug‘) sifatlaridan shakllangan. Manbadan keltirilgan iqtiboslar masalani oydinlashtiradi: Beliga osilgan mehribon qilich *Morgles* (R.37).

N.Tomashevskiyning so‘zlariga ko‘ra, ayrim qurol-aslaha nomlarning ma‘nolari hali aniqlanmagan. Qilichlarning nomi shundan dalolat beradiki, qilich tirik mavjudot, shaxs sifatida qabul qilingan. Bu yagona holat emas. Biz bu haqda juda ko‘p ma‘lumotni Roland qilichining o‘ziga xos xususiyatlarida ko‘rishimiz mumkin, uning o‘ziga xos va nihoyatda go‘zal nomi mavjud – *Dyurendal*: CV. 1340. *Ici le comte Rolland saute à travers le champ de bataille//Et il coupe et coupe Durendal//Mana graf Roland jang maydoniga o‘zin otdi //Dyurendal bilan kesib, bo‘lib tashladi* (R.68).

«Roland haqida qo‘shiq»da *Dyurendal* qilichini regensburglik usta Madelger yasaganligi haqida bayon etilgan. Tadqiqotchilarning ta‘kidlashicha, qilichning nomi jenskiy rodga bo‘lib, «dur» – «qattiq» sifati, «durer» – «baquvvat, turg‘un bo‘lmoq» fe‘lidan kelib chiqqan. Ritsar haqiqiy sevgi va mehri egasi bo‘lganligi uchun ham qilichini shunday atagan. Rolandning qilich bilan suhbatlashishi, unga murojaat qilishi va xayrlashuv sahnasi orqali ritsarlarga taalluqli narsalarning barchasi ilohiyashtiriladi. Masalan, LXXXIV. Roland, mon compagnon, sonnez l’olifant//Roland, mening yelkadoshim, burg‘uni chaling (R.10). LXXXVII. Votre olifant, vous n’avez pas daigné le sonner//Siz burg‘ungizni chalishni lozim ko‘r-madingiz (R.11). CXXXIII. Roland a mis l’olifant à ses lèvres. Il l’embouche bien, sonne à pleine force // Roland burg‘usini lablariga qo‘ydi. So‘ngra uni bor kuchi bilan chaldi (R.11).

Rolandning sodiq do‘sti Oliviyening ham Altekler nomli qilich bir necha bor tilga olingan: CVI. *Où donc est votre épée, qui a nom Hauteclaire? La garde en est d’or, le pommeau de cristal. – Je n’ai pu la tirer, «lui répond Olivier.//Altekler nomli qiliching qani? Qini tillodan, dastasi kristaldan. – Men uni ushlay olmayman, «deya unga javob berdi Olivye* (P.2). Altekler – «Jerard Vian» dostoniga ko‘ra, Oliviyedan oldin, bu qilich Rim imperatori Klozamontga tegishli bo‘lib, uni o‘rmonda yo‘qotib qo‘ygan edi. Qilich topilgach, uni Rim papasiga berishadi, lekin, keyinchalik, Karlning otasi pakana Pipinga, so‘ng uni o‘z vassaliga topshirgan. Pontiy Pilatning zamondoshi Yahudiy Ioaximga sotib yuborgan. Roland bilan Olivye o‘rtasidagi duel paytida Oliviyening qilichini sinadi. Roland uni Vianaga borib, boshqa qilich olib kelishiga imkon beradi. Ana shunda Ioaxim unga Alteklerni yuboradi va duel durang bo‘lib yakunlanadi. Ushbu afsonadan ko‘rinib turibdiki, ritsarlik dostonlarida har bir qahramon buyumlarining o‘z qismati mavjud bo‘lib, qilichlarning ilohiyligi qahramonlarni saqlovchi vosita ekanligiga urg‘u beradi [8].

Graf Rolandning qilichining xususiyatlari haqida quyidagicha tasvirlar mavjud: «Bir urishda o‘n besh mavrni qulatdi», «Shunday qilib, nayza parchalanib ketdi», «Shunda Roland Dyurendalni tortdi», «U otiga qamchi bosdi, Chernubliyaga zarba berdi», «Qimmatbaho toshlar bilan qoplangan, dubulg‘ani bo‘lib tashladi». O‘lim bilan kurashayotgan Roland keskir qilichi mavrlar qo‘liga tushmasligi uchun Dyurendalni toshga urib sindirmoqchi bo‘ladi, ammo u qilichiga umuman shikast yetkaza olmaydi. Keyin ijodkor Roland o‘zining qilichi bilan gaplashib, xayrlashuv nutqini keltiradi: CLXXI. «Ah!» dit le comte, «sainte Marie, à mon aide! Ah! *Durendal*, bonne Durendal, c’est pitié de vous! Puisque je meurs, je n’ai plus charge de vous//Graf shunday deydi: «Ey Xudo, menga yordam ber//*Dyurendal*, sen bilan xayrlashuv vaqti keldi // Endi sen menga boshqa xizmat qilmaysan.

CLXXII. «Ah! *Durendal*, comme tu es belle, et claire, et blanche! Contre le soleil comme tu luis et flambes! Charles était aux vaux de Maurienne, quand du ciel Dieu lui manda par son ange qu’il te donât à l’un de ses comtes capitaines: alors il m’en ceignit, le gentil roi, le Magne//Mening keskir *Durendalim*, po‘lat qilichim, //Sen qandayin quyoshda yaltillab turarding! //Sen Karlga Morian ulushida berilgansan – Seni unga farishta tutqazdi //Seni eng yaxshi vassalga topshirishdi //Karl meni sen bilan himoyaladi (R.7).

Doston ritsarlarning umumiy xristianlik haqidagi tasavvurlarini qurollarga bog‘liqligini ochib berishga imkon beradi. Eslatib o‘tamiz, O‘rta asrlarda barcha odamlar xristianlikka, oxirat hayotiga – jahannam yoki jannat borligiga, jon abadiy ekanligiga ishonishgan. Ular mo‘jizaga, shu jumladan, avliyolarning muqaddasligiga, tabarruk narsalar kasalliklardan xalos qilishiga, janglarda hayotni saqlab qolishga, xavf-xatar, balo-qazolardan himoya qilishga yordam berishiga ishonishgan. Dostonda *Ganelon*, *Karl*, *Roland* va boshqalarning qilichlari muqaddas kuch-quvvatga ega. Masalan, Roland o‘z qilichini shunday ta‘riflaydi:

CLXXIII. Ah! *Durendal*, que tu es belle et sainte!
Ton pommeau d’or est plein de reliques:
une dent de saint *Pierre*, du sang de saint *Basile*,
et des cheveux de monseigneur saint *Denis*,
et du vêtement de sainte *Marie*.

*Il n'est pas juste que des païens te possèdent:
des chrétiens doivent faire votre service.
Puissiez-vous ne jamais tomber aux mains d'un couard! (R. 8)
Oh, **Dyurandal** sen chiroyli va muqaddassan
Dastasini qadimda muqaddas qildim:
Unda **Vasiliyning qoni, Pyotrning mangu tishi**
Denis mo'yi, Xudoning bandasi,
Maryam-unutilmas qizning kiyimidan parcha.
Sizning po'latinigiz g'ayridinga xizmat qilmas
Faqat nasroniylar ega bo'lsin
Hech qachon abadiy qo'rqoq demasin!..*

Ushbu parchadan ko'rinadiki, Roland qilichi – Dyurendalda to'rt muqaddas quvvatning zarrasi saqlangan: Avliyo Pyotrning tishi, Avliyo Vasiliyning qoni, Avliyo Denisning sochlari va Bibi Maryamning kiyimining parchasi.

«Xristianlik» ensiklopediyasida berilishicha, Avliyo Vasiliy, Buyuk Vasiliy IV asr cherkovining ta-niqli arboblardan biri, katolik va pravoslavlar tan oladigan arxiepiskop bo'lgan [7]. Avliyo Denis VI – VII asr boshlarida Fransiya va franklarning asosiy homiysi va himoyachisi bo'lgan. O'z e'tiqodiga sodiq bo'lgani uchun Parijda qatl etilgan [3]. «Pyotrning tishi» eng buyuk ziyoratgohlardan biridir. Pyotr Masihning shogirdi va tarafdori bo'lgan. Masih unga Osmon Shohligining kalitlarini va, shuningdek, Rim cherkovining asoschisi bo'lishni vasiyat qilgan [8]. Bokira Maryamning kiyimi maxsus kuchga ega bo'lib, u Masihning onasi bilan bog'liq.

Dostonda ritsarlarning qilichlari muqaddas sanaladi, ular qilichlar oldida ibodat qilishadi, chunki qilichlar xoch shaklida yasalgan.

LXI. 770. – *Rolland s'est exclamé: «Roi juste, je te pardonnerai, donne-moi ton arc» // Roland xitob qildi; «Adolatli Qirol, Men sizdan iltimos qilaman, menga o'z kamoningni ber» (R.50).*

Qirol qo'shinning boshqaruvini Rolandga topshirganida, qo'shinga qo'mondonlikni topshirish ramzi sifatida unga kamoni beradi. Yoki Marsiliy Ganelondan g'azablanganida, unga oltin suvi yugurtirilgan kamoni o'qini otadi.

SXV. 1525. *Criez «Montjou!» ils jettent à nouveau/Montju deb baqiring! Ular yana otishmoqda (R.73).* XII asrda fransuzlarning jang qichqirig'i. Tarixiy manbalarga ko'ra, bu Mont Gadii – Mons Gaudii («Sevinch tog'i», ital. nomi – Monte Mario) cho'qqilariga chiqqan fransuz ziyoratchilarining safardan qaytish chog'ida birinchi marta Rimni ko'rishdagi hayqirig'idir [9]. Asarning 2505–2510-sahifalarida bu qichqiriqning izohi berilgan [8] («Montju» – Montjou go'yo «Juayez» – Joyeuse – baxtli, quvnoq, shod so'zidan olinganga o'xshaydi), ammo til nuqtai nazaridan bir-biriga aloqador emas.

«Alpomish» dostonida *chotir, sovut, xanjar, kirovka, qilich, yoy, nayza* kabi bir qator harbiy leksemalar qo'llangan. Masalan, *Borayotgan Qo'ng'iroq elning botiri, //Qorajonning qirq aymoqli chotiri* (A.110). *Chotir* – chodir, harbiy qo'nalg'a. Bundan ko'rinib turibdiki, yilqichi, cho'ponlarning yaylovda yilqi, qo'ylarni boqish tartibi, ularning yashash tarzi tasvirlangan.

A.Matg'oziyevning qayd etishicha, eski o'zbek tiliga doir manbalarda qo'l, dasta, to'p singari o'zaro sinonim bo'lgan atamalar ham harbiy bo'linma, otryad ma'nolarini anglatadi [5]. Darhaqiqat, dostonlarda dasta so'zining takror holda harbiy saf ma'nosidagi yasov so'zi bilan bir o'rinda qo'llanishi, mazkur so'zning otryad, vzvod, harbiy bo'linma so'zlari bilan sinonim ekanligidan dalolat beradi: Qo'shin keldi dasta-dasta, Yasov tortdi baland-pastda (A.175). Baydoq – to'p-to'p. Qo'lga bayroq tutgan askarlarning to'p-to'p safi. Jo'nadi bunda jam bo'lib//Baydoq-baydoq lashkar to'lib (A.234).

Til tarixiga doir manbalarda ta'kidlanishicha, navkar mo'g'ulcha no'xar-do'st, o'rtoq ma'nosidagi so'z bilan etimologik jihatdan bog'liq bo'lib, turkiy tillarda askar so'ziga sinonim sifatida hamda xizmatkor, amaldor singari ma'nolarda qo'llangan [4]. Dostonda askar, lashkar ma'nosida uchraydi: Op borgan taomni no'karlari yeb (A.166). Men bilmayman qanday bekka no'karsan (A.210). *Baydoq-baydoq lashkar to'lib* (A.175).

Tilimiz tarixida piyoda qo'shin, jangchi ma'nolarini ifodalashga arabcha askar so'zidan ham unumli foydalanilgan: Qalmoqshohi askarini buyurdi (A.175).

Ma'lumki, ajdodlarimiz, umuman, Markaziy Osiyo xalqlari o'ziga xos harbiy taktika, strategiyasi bilan bir qatorda, tarixning turli bosqichlarida amalda bo'lgan qurol-aslahalarga ham ega bo'lganlar. Xusususan, xanjar, nayza, kamoni kabilar mazkur qurollarning eng oddiysi hisoblansa, dostonlarda, keyinchalik, kashf etila boshlangan murakkab mexanizmli qurollarning xilma-xil turlarini ifodalovchi so'zlar ham kuzatiladi. Masalan, *Shunday qilib, kiyintirib, keskir qilichlarni beliga boylab; Arpali ko'lidan otdana berdi. Alpomishning Alpinbiy bobosidan qolgan o'n to'rt botmon birinchidan bo'lgan parli sari yoyi bor*

edi (A.84). *Ko'p qalmoqni o'ldiradi//Olmos qilich olar edi qo'liga* (A.359). *Po'lat nayza, qilich solar* (A.220). *Urayotir, qilich, olmos//Hech bir isfihon kor qilmas* (A.208). *Parli yoy o'qini qo'lga oladi* (A.237). *Xitoychalar patir-putur* (A.134). *Misollardan ko'rinib turibdiki, qilich so'zi olmos, keskir, isfahon, zulfiqor so'zlari bilan birga qo'llangan. Ayrim hollarda olmos so'zining o'zidan qilich ma'nosi anglashiladi: Olmos olsam, qirmizi qon quyaman* (A.208). *Ostida dulduli, belda zulfiqor* (A.96). Bulardan tashqari, yuqorida berilgan so'zlar jumlasiga uzoqdan dushmanga talofat yetkizishga mo'ljallangan murakkabroq qurol nomlarini ham kiritish mumkin: *Kattalarin to'pga solib otarman* (A.247). *Aydahorday katta to'plar // Ishqirar maydon ichinda* (A.289). *Podsholar bo'shatgan xurma to'p bo'lar* (A.350). To'p - uzoqqa o'q otadigan yirik harbiy qurol. Misollarda qilich, to'pning katta-kichikligi va qanday materialdan tayyorlanganligiga diqqat qaratishgan. Jumladan, isfahon qilichi – Eronning Isfahon shahrida maxsus tayyorlanadigan qilich. Olmosdan tayyorlangan qilich. Xurma to'p boshqa to'plarga nisbatan kichik va mo'ndisimon bo'lib, arab mamlakatlarida tayyorlangan. Xitoycha – xitoyda ishlab chiqarilgan miltiq turi. *Jazoyil, qora miltiq, parang miltiq* – miltiq turlari. *Shabgir, ashrafi, cho'qmor* – to'qmoq shaklidagi qadimiy urush quroli, gurzi, shashpar.

Bu guruhga mansub etnografik birliklar askarlarning gavdasi va boshqa tana a'zolarini himoyalash uchun zarur bo'lgan aslahalar nomlari kiradi: qalqon, qadimgi turkiy tilda: qalqan; sipar, qalqonning forschacha sinonim; kirovka – tanani o'q va tig'dan himoya qiladigan nimcha; sovut – tig' va o'qdan himoya qiladigan metall kiyim; dubulg'a – tig' va o'qdan boshni himoyalaydigan metall qalpoq [4]. *Ko'kaman alp turib aytdi: –Sizlar tarz ahmoqsizlar, men sizlarning qaysingdan kamman, to'qson botmon temirdan sovut kiyisam, to'qson shirbozning etini ta'til qilsam, to'qson alpning biri bo'lsam, shu o'zbakning qizi aytadi har so'zning o'ralida* (A.67). *Dubulg'a boshda do'ng'illab//Kark qubba qalqon qarqillab* (A.87). *Oq kirovka, oltin sovut* (A.219).

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, qahramonlarning nafaqat qurol-aslahalari, balki otlariga ham nom qo'yilgan va ilohiylashtirilgan. Bu haqda quyiroqda fikr bildiramiz. Bulardan tashqari, cho'ntoq, yilqi, biya singari otlarga doir, baqaloq, taqim, chacha, quyruq kabi otning tana a'zolari; tabla, sayisxona kabi otxona; qamchi, yugan, uzangi, umulduruq, baqan, jazliq, qutos, qo'yushqon, zul, qantar kabi ot jihozlari nomlari ham uchraydiki, bu ELnarning ko'pchiligi tilimizda o'ta qadimdan iste'molda bo'lgan. Ular umumiy xarakterga ega bo'lsa, ular o'rtasidagi ma'no nozikliklari hududiylik orqali farqlanishi mumkin. Masalan, *egar* – ot-ulov ustiga uriladigan va minib o'tirish uchun moslangan abzal: *Ko'rar ko'zim, bolam, senga yo'l bo'lsin?//Egar, abzal, anjom olib kelasan* (A.76). *Jahazdirik // jahaldirik* – jazlik, ot asbobi: *Chergi ustidan soldi bellikni//Boz ustidan soldi jahaldirikni* (A.83). *Jul* – ot yopig'i, yopiq: *Mening ko'zim ko'r bo'lmasa, tanidim, //Barchin checham tikib bergan chol julni* (A.329). *Korson //karson* – egarning ustki orqa qismini birlashtirib, u qismi, ya'ni orqada chqib turgan qismi: *Tilla korson, qoshi oltin egarni.//El ko'chirib Olatovdan oshirdi, //Sirin aytmay dushmanlardan yashirdi, //Ikkovi ham tilladandir uzangi* (A.84). *Poyanak* – ot abzallarini bezash uchun ishlatiladigan kumush, tilla va shu kabi metallardan tayyorlanadigan yarim tuxumsimon buyum: *Tilla poyanak urilgan //Uzangilarga shirqillab* (A.87).

Xulosa qilib aytganda, mazkur maqolada qurol-aslahalar nomlari bilan birga yilqichilikka oid leksemalarning tahlil sohaviy leksik tizimning tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'layotgan yaxlitlashgan birliklar umumiy leksik qatlamda ifodalangan harakatlarning dastlabki markaziy ma'nosini saqlagan holda namoyon bo'ladi.

Sohaviy leksik tizimning birliklari sanalgan qurol-aslahalar, yilqichilik etnomadaniy leksemalariga tegishli ifodalarning ayrimlari polisemantik xususiyatga ega. Chunki ular, bir tomondan, umumiy leksik qatlamdagi denotativ ma'nolari bilan, ikkinchi tomondan, yaxlitlashgan birlik sifatidagi nomlar tarzida gavdalanadi. Mazkur barqaror ifodalar shakl va ma'no xususiyatlari asosida ham o'zaro sinonimik, antonimik, ko'p ma'nolilik belgilariga ko'ra farqlanadi. Jumladan, bir-biri bilan sinonimik asosda munosabatga kirishgan lug'aviy birliklar ko'proq xududiy jihatdan farqlanishi kuzatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ashirov A. O'zbek xalqining qadimiy e'tiqod va marosimlari. Toshkent, 2007, 179-bet.
2. Brady C. «Weapons» in «Beowulf: an Analysis of the Nominal Compounds and an Evaluation of the Poet's Use of them. Anglo-Saxon England. Cambridge University Press, 1979, p. 199–246. DOI: <https://doi.org/10.1017/S0263675100002611>
3. Гуревич А.Ю. Проблемы генезиса феодализма в Западной Европе. Москва, 1979 г.; Гуревич А.Ю. Категории средневековой культуры. Москва, 1984.
4. Jabborov I. O'zbek xalqi etnografiyasi. Toshkent, "O'qituvchi", 1994, 89-bet.
5. Yo'ldoshev Q. «Alpomish» talqinlari. Toshkent, 2002, 18-bet.
6. Mirzayev T., Eshonqul J., Fidokor S. «Alpomish» dostonining izohli lug'ati. T., 2007, 19, 40, 42-betlar.

7. Олевская М.И. Функционирование терминов феодальной иерархии во французском героическом эпосе. АКД, Москва, 2002, с. 21.
8. Пастухова Я.Н. Семантика наименований артефактов в древнеанглийской героической поэзии. Автореферат диссерт. канд.фил.наук, Иваново, 2003, 27 с.
9. Пипп А.Н. История русской этнографии. СПб., 1890 – 1892, т. 1 – 4.
10. Узбекско-русский словарь. Ташкент, 1988, с. 106.
11. Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li. Alpomish. Toshkent, 1998.
12. Чистов К.В. Фольклор и этнография. с. 4.
13. Чистов К.В. Фольклор и этнография. К девяностолетию со дня рождения. Сборник научных статей. Отв. редактор. А.К.Байбурун, Т.В.Сперанская. СПб.: МАЕ РАН, 2011. 316 с. S.3.
14. Шор Р.О., Ярхо В.И. Песнь о Роланде. Под общей редакцией. Москва–Ленинград, Академия. 1934, с. 332.
15. Florent Véniel. Les hommes du Moyen âge: paysans, bourgeois et seigneurs à la fin du Moyen âge. Paris: Éd. Errance, 2008, 91 p. (Histoire vivante), p. 53 – 54.

**Rahimova Bekposhsha (filologiya fanlari nomzodi, UrDU dotsenti),
Komilova Nazokat (UrDU mustaqil tadqiqotchisi)
ISAJON SULTONNING “OZOD” ROMANIDA DINIY MAVZUNING BADIY TALQINI**

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada zamonaviy o‘zbek nasrining yetakchi namoyandalaridan biri bo‘lgan Isajon Sultonning “Ozod” romanidagi diniy ohanglarning badiiy talqini tahlilga tortiladi.*

***Аннотация.** В данной статье анализируется художественная интерпретация религиозных тонов в романе “Озод” (“Свободный”) Исаджона Султана, одного из ведущих представителей современной узбекской прозы.*

***Annotation.** This article analyzes the artistic interpretation of religious themes in Isajon Sultan’s novel “Ozod” which is considered one of the leading representatives of modern Uzbek literature.*

***Kalit so‘zlar:** roman, falsafiy-didaktik asar, diniy mavzu, badiiy talqin, tasavvuf, Qur‘oni karim, prototip, taxauyul, badiiy sintez, tarixiy haqiqat.*

***Ключевые слова:** роман, философско-дидактическое произведение, религиозная тема, художественная интерпретация, мистика, Священный Коран, прототип, воображение, художественный синтез, историческая правда.*

***Key words:** novel, philosophical-didactic work, religious theme, artistic interpretation, Sufism, Koran, prototype, imagination, artistic synthesis, historical truth.*

Bugungi globallashuv zamonida ma’naviy qadriyatlarining hayotiy zarurati yanada oshmoqda. “Mustaqillik yillarida adabiyot bilan islom dini o‘rtasidagi munosabatlarda ham keskin burilish yuz berdi. O‘zbek adabiyotining islom falsafasidan va islom ta’minotidan o‘zi ham unga muayyan ta’sir ko‘rsatib rivojlanishi endi tan olingan fakt bo‘lib qoldi”.¹ Shu ma’noda o‘z asarlarida diniy mavzularning badiiy talqiniga alohida urg‘u berayotgan ijodkorlardan biri Isajon Sultondir.

Isajon Sultonning “Ozod” romani “Professor Ozod Sharafiddinovning yorqin xotirasiga, shuningdek, elimizning o‘sib kelayotgan yosh avlodiga – yurtning haqiqiy egalariga bag‘ishlanadi”.² Darhaqiqat, o‘zbek adabiyotshunosligi va tanqidchiligining yirik namoyandalaridan biri, O‘zbekiston Qahramoni, kuchli e’tiqod va matonat egasi bo‘lgan Ozod Sharafiddinovning hayot yo‘li ibrat namunasi. Bu jihatdan yozuvchi tanlagan obyekt juda to‘g‘ri ekanligini alohida ta’kidlash joiz. “Ozod” romani o‘zbek adabiyotida yaratilgan boshqa romanlardan o‘zining uslub tuzilishi, tasvir vositalari bilan ajralib turadi. Isajon Sulton ijodi haqida U.Normatov, A.Rasulov, R.Rahmatlarning maqolalari e’lon qililib, unda adib mahorati, mavzu muhimligi, obrazlar olami, asar badiiyati haqida fikrlar bildiriladi. Ayni paytda, umuman, o‘zbek nasri taraqqiyotiga bag‘ishlangan tadqiqotlarda, adibning boshqa asarlari o‘rganilib yozilgan ishlarda Isajon Sulton romanlari haqida muayyan fikrlar bildirilgan, ammo muallif asarlaridagi diniy ohanglarning badiiy sintezi masalasi hali o‘zbek adabiyotida maxsus o‘rganilmagan. “Badiiy asar poetik tadqiqotga munosib bo‘lgan taqdiridagina unga adabiyotchi-olimlar takror va takror murojaat etishi mumkin”.³ Isajon Sultonning “Ozod” romani ham ana shunday asarlar qatoriga kiradi. Romanda diniy motivlarning badiiy sintezi yaqqol ko‘zga tashlanadi. Adibning “Boqiy darbadar”, “Ozod” va “Genetik” romanlarining uchovi ham hajman kichik romanlar bo‘lib, uchalasida ham diniy motivlar ustunlik qiladi. Adabiyotshunos Baxtiyor Nazarov ushbu uchta romanning kelgusida bir muqova ostida e’lon qilinishi va (g‘oyaviy hamohangligiga ko‘ra trilogiya bo‘lishi yoki bo‘lmasligidan qat’iy nazar) ketma-ket, bir vaqtda

¹ Шарафиддинов О. Ижодни англаш бахти. Тошкент, 2004, 181-бет.

² Исажон Султон. Озод. Роман ва хикоялар. Тошкент, “Sharq”, 2012, 3-бет.

³ Каримов Б. Абдулла Қодирий ва герменевтик тафаккур. Т., Akademiashr, 2014, 115-бет.

o'qilishi bu romanlar mohiyatini teranroq idrok etishda muhim omil bo'lishini ta'kidlaydi¹. Biroq ushbu romanlarni "poetik tafakkur tarzining betakrorligi uni mazkur silsilada ayricha ijod namunasi sifatida farqlanib turishiga sabab bo'ladi", deb hisoblovchilar ham mavjud. Shuningdek, "mazmuniy-poetik mohiyatiga ko'ra, "Ozod"ning janriy mansubligini falsafiy-majoziy roman" deb, "ma'nolar haqidagi yoki o'zlikni anglash yo'lidagi falsafiy-didaktik asar" deb belgilaydiganlar ham bor.

"Ozod" hali hayotda ro'y bermagan holatlarni taxayyul orqali xuddi ro'y bergandek hosil qila bilish hikmati haqida yozilgan go'zal asardir. Romanda Navoiyning "Lison ut-tayr" dostonidagi jon yo'li, ruh yo'li asos qilib olinadi va postmodernistik sujet modifikatsiyasini namoyon qiladi. Bu haqida Isajon Sultonning o'zi ham quyidagi fikrlarni bildirib o'tgan edi: "Alisher Navoiyga ehtirom, Navoiyga bo'lgan havas ham yo'q emas. Chunki "Ozod" romanining qurilishi, uning fabulasi, nihoyasi ulardagi boblar ko'pchiligi "Lison ut-tayr"ga, Farididdin Attorning "Mantiq ut-tayr"iga o'xshash. Iste'dodli yozuvchimiz Xayriddin Sultonning "Ko'ngil ozodadir" qissasiga ozgina o'xshash joylari bor". Xuddi "Lison ut-tayr"-dagi kabi Ozod ham yo'l davomida ma'ni tomon takomillashib, mukammallashib boraveradi. Mana shu yo'l sujetida ota, ona, yor, humo, lola, tosh kesuvchi kishi, ko'r kishi, kuchuk yetaklagan kishi, uzumzorlar egasi, yo'l ko'rsatuvchi, murtad, mardud, xoin, kuchuk, ot, qushcha, yajuj-ma'jij kabi obrazlar uchraydi va ularning tilidan hikoyatlar beriladi. Romandagi mulki fano, tuz cho'li, oydingo'l, daraxtzor, qon yo'li kabi badiiy makonlar hamda taqdir lolasi, tole qushi, arslon, oyna, darcha, ko'za kabi badiiy ramzlarning hammasi asar g'oyasini ochish uchun xizmat qiladi. Ularning ba'zilar Alisher Navoiyning "Lison ut-tayr" dostonidagi vodiylarni, Abdulla Oripovning "Jannatga yo'l" dramasi haqida arosatni, ba'zilar G. Markesdagi ramzlashtirilgan narigi dunyo haqidagi tasavvurlarni eslatadi.²

Asarning g'oyasi odamlardan tortib, butun borliq, o'simliklar-u hayvonlar, avom nazaridagi oddiygina bir shamol, bugun va kelajak ham Allohning yaratiqi ekanligidir. Ozodga doimo shamol hamrohlik qiladi va u bilan gaplashib, bahslashadi, ustozlik qiladi, oxir-oqibat unga bo'ysunadi va Ozod Baxt lolasini topadi. "Asar boshidanoq u chechakning sirayam lola emasligini anglab qolamiz. Nafaqat u, balki tevaragida ro'y bergan barcha hodisalar va narsalar boshqa mazmun kasb eta boshlaydi".³"Niyati g'arazdan yiroq, so'zlari rost, amallari samimiy inson narsa-hodisalar botinini angelaydi. Demak, Ozod izlagan lola dunyoning tamali bo'lgan hikmatdir... Tangri bo'ysundirgan barcha narsa-yu jonzotlarni avaylasang Uning rahmatiga noil bo'lasan. Binobarin, lola o'sha minglab hikmatlarning bittasi, xolos".⁴ Oxir-oqibat Ozod yaratilganlarda Tangri irodasini ko'rdi va ularning har biriga o'ziga xos taqdir ato etilganini anglandi. Xuddi Simurg o'zligini anglagani kabi Ozod ham o'zligini anglab yetadi va shamolga "Amrimga bo'ysun!" deydi.

Ba'zi o'rinlarda Qur'ondagi uslub aynan shu muqaddas kitob tarjimasida berilgani kabi, sujet voqealari tarkibiga sintezlashib ketadi. Odamga xos botiniy holatlar, Yaratganga murojaat va munojotlarni sezmaslik mumkin emas. "Ozod" romani Alisher Navoiyning ("Munajat" asaridan) "ilohi" so'zi (18 marta takrorlanadi) bilan boshlanuvchi Allohga munajat bilan yakunlanadi hamda ushbu munajat ramziy ma'nodagi ko'za (inson) timsoli tilidan beriladi.

Isajon Sultonning deyarli barcha asarida odam va olam mushtarakligini uchratish mumkin. "Ozod" romanida ham shunday, bu asar jahon adabiyotshunosligi uslubiga tayanib yozilgani holda, musulmon xalqiga xos dunyoqarashning zamonaviy ifodasi sifatida namoyon bo'ladi. Roman tasavvufiy ruhda yaratilgan va qushlarning barchasi majoziy ruh tashuvchi Farididdin Attorning "Mantiq ut-tayr" hamda Alisher Navoiyning "Lison ut-tayr" asarlarini yodga soladi. Adib Farididdin Attor, Alisher Navoiy va islom ta'limotlariga tayangan holda, roman voqealarini tasvirlaydi. "Mantiq ut-tayr"da bir to'da qushlar Semurg'ni izlab yo'lga chiqadilar va yetti vodiyni bosib o'tadilar. Asardagi vodiylar tasavvufdagi Haqiqatga eltuvchi yo'llardir. "Ozod" romanida ham baxt-u saodat ramzi bo'lgan lolani izlab yo'lga chiqqan Ozod (Yoqtirgan qizi Oydinga baxt lolasini olib kelaman deb va'da bergan edi) yetti maskandan o'tadi. Yozuvchi yuqoridagi ikki asarda bo'lgani singari safarga chiqish motividan foydalanadi hamda syujetning mushtarakligini ta'minlovchi omil qahramonlar bosib o'tadigan manzillar bo'lib, Ozod ham qushlar kabi o'z manziliga yetib boradi va baxt lolasini qo'lga kiritadi va anglab yetadiki, hayotida sirli lola emas, balki shu manzilgacha bosib o'tgan yo'llar (ushbu yo'llarning barchasi ramziy ma'no kasb etadi) va qiyinchiliklar muhim ekan. Bu xuddi tasavvufdagi Alloh ishqiga yetishish uchun insonning komillik sari ma-

¹ Назаров Б. Истеъдод манзаралари. Исажон Султон насри бадийати. Илмий мақолалар, тақризлар, адабий суҳбатлар, мактублар. Тошкент, "Turon zamin-ziyo", 2017, 6-бет.

² Султонова Н.Н. Исажон Султон романларида бадий компонентлар модификацияси. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация, Қарши, 2020, 72-бет.

³ Nosirov A. Istiqloq davri adabiy jarayoni va tanqidchilik (uslubiy qo'llanma). SamDU, Samarqand, 2014, 23-бет.

⁴ Ёкубов И. Юрак пўртаналаридан баҳс этувчи асар. Исажон Султон насри бадийати. Илмий мақолалар, тақризлар, адабий суҳбатлар, мактублар. Тошкент, "Turon zamin-ziyo", 2017, 128-бет.

shaqqatlarda toblanib, sinovlarda iymoni yanada mustahkamlashib borishiga o'xshaydi. Ozod shunchaki oddiy lolani izlagani, unga intilgani yo'q, bu asnoda u eng bebaho hikmatga, hayot ma'nosi, umr mazmuniga yetdi va o'zining kimligini shu tarzda anglab yetdi. O'zlikni anglash barcha zamonlarda ham nafaqat adabiyotning, balki butun insoniyatning bosh mavzusidir. Yaratish qobiliyati haddan tashqari quvvatlanib ketgan insoniyatga qarata "Men kimman?" deb savol beradi ilmiy tadqiqotlar natijasida bunyod bo'lgan mukammal sun'iy jonzo "Boqiy darbadar" romanida. Xuddi shunday Chingiz Aytmatovning "Asrga ta'tigulik kun" romanida "Oting nima?" deb qichqiradi manqurtning boshi uzra tinmay aylanayotgan to'rg'ay. "Ozod" romanida esa "Esla, esla" deyishini qo'ymaydi bo'm-bo'sh ko'zga aylanib hayvonday sanqib yurgan Murtad (Allohni unutgan banda)ga ortidan ergashgan soyasi. Romanda ya'juj-ma'jujdan ham tuban va badbaxt, o'z soyasi ham hazar qiladigan kimsa bor – bu Murtad. Adib uning diniy portretini chizadi: "U – ozg'in, yuzlari qorayib ketgan, barmoqlari qiyshiq, ko'zlarida jahannam o'ti lovullab turadigan bir kimsa. Dalva-dalva kiyimlarini shamol yulqilaydi, yaqinlashsa qushlar-u hashorotlar hurkib nari qochishadi. U bir nimalarni gapirmoqchi bo'ladi, lekin bo'g'zidan tushunarsiz tushunarsiz so'zlar chiqadi... U kimdandir, nimadandir g'azabnok, alamnok, ammo kimdan g'azablanganini eslolmaydi, shuni eslashga urinib badar kezinadi... Ma'suma bir qizni eslatadigan tosh oldida nimanidir eslamochiday, peshanasini tirishtirib uzoq o'ylanadi, biroq eslay olmaydi, bundan alami kelib "Ho-ho-ooo!" deb cho'zib qichqiradi".¹

Asarda ramziy-falsafiy umumlashmalar yasay olgan Isajon Sulton uchta aksni keltirib o'tadi. Birinchi aks Ozodning lola izlab safarga chiqishi va yo'lda turfa taqdirlarni uchratishi haqida. Ikkinchi aks yo'lda barcha narsa va hodisotlarga ma'no berishi va tafakkurining kengayib borishi haqida. Uchinchi aks esa "Lolaga yetishmoq va o'zligini anglab yetmoq"² haqida ramziy aksdir. Har bir inson bu dunyoga safar qilar ekan ma'no va mazmun axtarib yashaydi. Ma'nolar sinoatidan xabardorlik uyg'oq qalblarni komillik sari yetaklaydi.

Romanda yov ramziy obrazi mavjud bo'lib, ular insonlar bilan o'zlari o'rtasidagi Kufr tog'ini qulab, Ozodni mahf etish payida kezadilar. Asarda insonlar gunoh qilishdan to'xtamasalar va qabih ishlarini davom ettiraversalar o'rtadagi tog' yemirilishi va insoniyat halokatga yuz tutishi mumkinligi tasvirlab berilgan. "Yozuvchi bashariyat qilgan gunohlarni obrazli tarzda yov deya ifodalaganini kuzatamiz".³ Tasavvufga ko'ra ham yov aslida insonning ichida, ya'ni botinidadir. Shuningdek, asarda qilgan gunohining jazosini olayotgan xoin obrazi ham bor bo'lib, u o'z qavmdoshi bo'lgan Eranni dushmanlarga sotadi va umri mana shu gunohining tovonini to'lash bilan o'tadi. Ramzlar kitobxonni fikrlashga undaydi.

"Iymon daraxtining ildizi Haqqa bo'lgan muhabbat bo'lsa, uning shoxlari Vatan, el-yurt, ota-ona, yor, farzandlar muhabbati shaklida meva beradi. Ozodda bularning barchasi mujassam".⁴

Asardagi ko'r kishi obrazida ham tasavvufiy mazmun mujassam. "Aslida, u donishmand. Bu yerda "Ko'zni yumgil, ko'zga aylansin ko'ngil" hikmatiga ishora bor. Dunyoning aslini ko'raman deb ko'ziga mil tortish ham majoziydir. Demak, u sirayam ko'r emas, balki dunyoviy havaslarining "ko'zi"ga mil tortib, olamni "ko'ngil ko'zi" bilan ko'rayotgan zot".⁵

Romanda Alisher Navoiy, Jaloliddin Rumiy, Boborahim Mashrab kabi ajdodlarimizdan, shuningdek, kechagi kun iste'dodlari Cho'lpon, Botu, Hamid Olimjon, Zulfiya, bugungi kun adiblari Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Halima Xudoyberdiyeva, Shavkat Rahmon, Muhammad Yusuf, Tilak Jo'ra, Iqbol Mirzo kabilarning ijodiga ishoralar mavjud va bunday sintezlashuv asarning badiiy qiymatini yanada oshirgan hamda yozuvchi kitobxonni ularning haqqiga duo qilishga undaydi va badiiylikka falsafiylik olib kiradi.

Ozodning Uchyong'oq tomonga ketayotganini eshitgan bu kishi "Viqor-la o'shshaygan qoya labida bir namatak bo'lardi, turibdimi?" deb so'raydi (Oybekning "Namatak" she'riga ishora).⁶

– U bir bekning namatagi edi, – dedi ko'r. – Haliyam chayqalib turgan bo'lsa kerak, o'sha yoqqa o'tib qolsang, xabar olib qo'yarsan. Aytmoqchi, yo'lingda bir majnuntolni ham ko'rasan, u oddiy tollardan emas, tinmay ko'z yoshi to'kkan to'kkan (Mirtemirning "Betobligimda" she'ridan olingan "Majnuntol tagiga o'tqazing meni, Men uchun yig'lasin men yig'lab bo'ldim" misralariga ishora).⁷ Ularni duo qilib o't, har holda, savobga zor bo'lsalar ajabmas". "Oy yog'dusi – yorug' g'ussa" jumlasini orqali Tog'ay

¹ Isajon Sulton. Ozod. Roman va hikoyalar. Toshkent, "Sharq", 2012, 123-bet.

² Nosirov A. Istiqlo davri adabiy jarayoni va tanqidchilik (uslubiy qo'llanma). SamDU, Samarqand, 2014, 33-bet.

³ Nosirov A. Istiqlo davri adabiy jarayoni va tanqidchilik (uslubiy qo'llanma). SamDU, Samarqand, 2014, 35-bet.

⁴ Зоҳидова Д. Исажон Султоннинг "Озод" романи поэтикаси. "O'zbek tili va adabiyoti", T., 2019, 6-son, 55-bet.

⁵ Расулов А. Акслар фалсафаси. Исажон Султон насри бадийяти. Илмий мақолалар, тақризлар, адабий суҳбатлар, мактублар. Toshkent, "Turon zamin-ziyo", 2017, 34-bet.

⁶ Ойбек. Шеърлар. Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi. T., 2016, 33-bet.

⁷ <https://tafakkur.net/betobligimda/mirtemir.uz>

Murodni, “choyning ta’mini farqlay boshlagan kishi” Xayriddin Sultonni yodga soladi. “Lolaga intilayotgan olamon timsolida Ulug‘bek Hamdam ijodiga, Ozod qarshisida yastanib yotgan lolazorni ko‘rishida Murod Muhammad Do‘stga ishora borligini payqaymiz”¹.

Romandan chiqariladigan xulosa shundaki, umrning go‘zal kechishi ilm-u urfon, ma‘rifat bilandir. Ozod o‘z baxt-saodatiga erishish uchun ma‘rifat yo‘lini tutishi bu yo‘ldan faqat ilm, ma‘rifatgina uni omon olib chiqishini to‘g‘ri anglashiladi. Tasavvufda ham Alloh ishqiga ilm va riyozat orqali erishiladi. Islom dinida ham Yaratganni tanish ilm bilan bo‘ladi. Isajon Sulton o‘ziga xos mahorat orqali buni ba-diiyat jozibasi bilan kitobxonga go‘zal tarzda yetkaza olgan.

Rajapova Kumush Masharipovna (Qoraqalpoq davlat universiteti; @yandex.ru)
IBORALARNI O‘RGATISH JARAYONIDA BAJARILADIGAN AMALIY-IJODIY ISHLAR

***Annotatsiya.** Maqolada ona tili darklarida iboralar ustida ish olib borishda amalga oshiriladigan amaliy va ijodiy ishlar bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan. O‘quvchilarning nutqini o‘stirishda iboralar-nin va barqaror birikmalarning ahamiyati haqida ham fikrlar bayon qilingan. Shuningdek, nutq o‘sti-rish jarayonida e‘tibor qaratilishi lozim bo‘lgan ayrim o‘rinlar to‘g‘risida va egallangan bilim, ko‘nik-ma, malakalarning ba‘zi mezonlari xususidagi fikrlar yoritilgan.*

***Аннотация.** Статья содержит информацию о практической и творческой работе, кото-рая проводится при работе над словосочетаниями на занятиях по родному языку. Также обсуж-дается значение словосочетаний и устойчивых сочетаний в развитии речи учащихся, выделены некоторые моменты, на которые следует обращать внимание в процессе развития речи и неко-торые критерии приобретаемых знаний, умений и навыков.*

***Annotation.** The article contains information on practical and creative work that is carried out when working on phrases in native language classes. The importance of phrases and stable combinations in the development of students’ speech is also discussed. Also, some points that should be paid attention to in the process of speech development and some criteria of acquired knowledge, skills, and qualifyca-tions are highlighted.*

***Kalit so‘zlar:** barqaror birikma, ibora, bilim, malaka, ko‘nikma, turg‘un birikma, tasviriy ifoda, shakldosh so‘zlar, ma‘nodosh so‘zlar, uyadosh so‘zlar, ko‘p ma‘nolilik.*

***Ключевые слова:** устойчивое соединение, словосочетание, знание, компетенция, навык, ус-тойчивое соединение, образное выражение, однокоренные слова, однокоренные слова, вложенные слова, полисемия.*

***Key words:** stable compound, phrase, knowledge, competence, skill, stable compound, figurative expression, cognate words, nested words, polysemy.*

Zero, farzandlarimizning har tomonlama yetuk, barkamol inson bo‘lib yetishishi uchun o‘qituvchi, avvalo, o‘quvchilarning iqtidori, bilimi va nutqiy malakasini oshirishi zarur. Shuning bilan birga, o‘quv-chining jamiyatdagi turlicha ijtimoiy munosabatlar tizimiga tayyor bo‘lmog‘ini, ijtimoiy faoliyat yuritish va uni boshqarishning ilmiy asoslarini mukammal egallamog‘ini ham o‘rgatishi lozim. Bu o‘rinda, ay-niqsa, ijtimoiy tafakkurning, yangicha dunyoqarash va ilmiy-ijodiy munosabatlarning shakllanishini, o‘quvchi shaxsining o‘ziga va o‘zgalarga ta’sir etish mexanizmlaridan biri ijtimoiy muloqot va uning aso-siy xarakatlantiruvchi kuchi bo‘lmish nutq sharoitiga mos ravishda to‘g‘ri va ijodiy fikrlash qobiliyatini ega bo‘lish davr talabidir. Ona tilini puxta bilish orqaligina har bir narsaga qiziqish shakllanadi, kuzatish, xarakter, xotira kabi psixologik xususiyatlar rivojlanib, bilim olish jarayonidagi qiyinchiliklarni yengish, kuzatish, taqqoslash, umumlashtirish malakalari hosil bo‘ladi.

Natijada milliy g‘urur, mehnatga muhabbat, kasbni ongli tanlay bilish, insonparvarlik, jamoani hur-mat qila bilish, xalqimizning azaliy odatlari, udumlariga e‘tiqod kabi ijobiy xususiyatlar o‘quvchilarga si-ngib boradi, har bir sohada faollik ko‘rsatish, ijodiy izlanishga ishtiyoq uyg‘onadi. Mamlakatimiz istiqlo-lga erishgach, O‘zbekistonning yetuk fuqarosini barkamol inson darajasida tarbiyalash maktabning bosh vazifasi bo‘lib qoldi. Har tomonlama yetuk, barkamol insonni tarbiyalash xalqimiz, davlatimizning mak-tab oldiga qo‘ygan umumiy maqsadidir. Mana shu maqsadni amalga oshirishda ona tili fanining o‘rni be-qiyos darajada kattadir.

Ta’lim texnologiyasining markazida bola shaxsi yotadi. Shaxs tuzilishga ko‘ra, murakkab hodisa bo‘lib, u faoliyatdagina rivojlanadi. «Barkamol inson» muammosi ham Sharq pedagogikasi oldiga alla-qachon qo‘yilgan masaladir. Hozirgi paytda bu muammoning ayrim sohalariga oid maxsus izlanishlar

¹ Расулов А. Акслар фалсафаси. Исажон Султон насри бадиияти. Илмий мақолалар, тақризлар, адабий суҳ-батлар, мактублар. Тошкент, “Turon zamin-ziyo”, 2017, 39-бет.

ham mavjud. Endi vazifa ta'lim-tarbiya ishlarini muttasil rivojlantirib, barkamol inson ehtiyojlariga ham moslashtirishdir. Shu sababli ona tili ta'limi mazmunini belgilashda o'quvchining muloqot ko'lamini va darajasi, ijodiy tafakkuri, fikr ifodalash ehtiyoji bilan, tavsiya qilingan til vositalari orasidagi mutanosiblik hisobga olinishi yoki aksincha, o'rganilishi lozim bo'lgan til vositalari va me'yorlari miqdorini aniqlashda o'quvchi shaxsining yosh psixologiyasi, tafakkur qobiliyati, savodxonlik darajasi, o'zaro muloqot ehtiyoji, rivojlanish ko'lamini hisobga olinishi lozim. Shuningdek, ona tili darsliklarida til mavzularining izchilligini ta'minlash, matn yaratish topshiriqlarini tilning ifoda imkoniyatlarini, o'quvchining mantiqiy tafakkur xususiyatlarini hisobga olgan holda, muayyan tartibda berish, bolaning ko'rish, eshitish, fikrni anglash, analiz va sintez qilish imkoniyati, bosqichma-bosqich fikrlash va fikrni rivojlantira bilish ko'nikmasi hisobga olinishi lozim. Xususan, lug'aviy birliklar, ya'ni, so'z, ibora, tasviriy ifoda kabilar ustida ish olib borish jarayonida bu narsaga alohida ahamiyat qaratish kerak. Ayniqsa, har bir dars jarayonida iboralar ustida ishlash, o'quvchilar nutqiga iboralarni olib kirish bo'yicha amaliy ishlar o'tkazish yuqorida ta'kidlanib o'tilgan samaradorlikka erishishimizga yordam beradi. Har qanday nutqiy bayon grammatik jihatdan o'zaro bog'langan, mazmunga xos so'z va so'z birikmasining ma'lum izchillikda joylashtirilishidan tuziladi. Kishining lug'ati qanchalik boy va rivojlangan bo'lsa, uning nutqi ham shunchalik boy bo'ladi; o'z fikrini aniq, original va ifodali bayon etishiga keng imkoniyat yaratadi. Shuning uchun lug'atning boyligi, xilma-xilligi, harakatchanligi metodikada nutqni muvaffaqiyatli o'qitishning muhim sharti hisoblanadi.

Bugungi kunda pedagoglarning innovatsion faoliyat ko'nikmasi, malakalariga ega bo'lishlari muhim ahamiyatga ega. Pedagoglar tomonidan innovatsion faoliyat ko'nikmasi, malakalarini o'zlashtira olishlarida ularning innovatsion yondashuvga ega bo'lishlari talab etiladi.¹

Hozirgi o'zbek adabiy tili ulkan lug'at boyligiga ega. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da oltin ming so'z berilgan bo'lib, bular umumiy qo'llaniladigan so'zlarginadir.² Bunga o'zbek tilida nashr etilgan turli terminologik lug'atlarda o'zbek tili sinonimlari, antonimlari, fraziologiyalari lug'atlarida va turli izohli lug'atlarda berilgan so'zlar qo'shilsa, lug'at boyligi yana ming-minglab oshadi.

O'quvchilar nutqini iboralar bilan boyitish murakkab jarayon bo'lib, u ko'p qirralidir. O'qituvchi dars jarayonida ibora ustida ishlar ekan, u yoki bu iboraning ma'nosini izohlash, uning sinonimini yoki antonimini topish, iborani so'z birikmasi, tasviriy ifoda, qo'shma so'z kabi birliklardan farqlash va o'z nutqida to'g'ri qo'llash malakasini hosil qilishga alohida e'tibor qaratishi lozim.

"Tilimizning milliyligini, berijimligini ta'minlovchi vositalardan biri iboralar bo'lib voqelikni obrazli tasvirlashda, uni kitobxon ko'z o'ngida aniq va to'la gavdalantirishda iboralarning o'rni ahamiyati beqiyosdir. Iboralar, umuman olganda, hayotdagi voqea-hodisalarni kuzatish jamiyatdagi maqbul va no-maqbul harakat holatlarni baholash turmush tajribalarini umumlashtirish asosida xalq chiqargan xulosalarning o'ziga xos obrazli ifodalaridir".³

O'quvchilarni tilimizdagi iboralar olamiga olib kirishning ham qulay, ham murakkab tomonlari bor. Qulayligi shundaki, tilimizda mavjud iboralarning ko'p qismini umumxalq ishlatadigan iboralar tashkil etadi. Bu iboralarning ma'nosini bilish yoki nutqda qo'llash o'quvchi uchun deyarli qiyinchilik tug'dirmaydi. Masalan, kundalik turmushdagi *yaxshi ko'rmoq, tili chiqib qoldi, yomon ko'rmoq, boshga ko'tarmoq, burni ko'tarildi, yerga urmoq* kabi iboralarning ma'nolari bola uchun tushunarli, shuning uchun ham u bu iboralardan o'z nutqida bema'lol foydalana oladi.

O'quvchilar nutqidagi mana shunday iboralar, ya'ni, umumxalq ishlatadigan iboralar nutqda kam ishlatilgan iboralarni o'rganish uchun ko'prik vazifasini bajaradi. Maktab ona tili ta'limi oldida turgan muhim vazifalardan biri o'quvchilarni umumiste'moldagi so'zlar va iboralar olamiga olib kirishdan iborat. Badiiy nutqda, ko'pincha, iboralarning ko'p ma'noliligi va ma'nodoshlik xususiyatlari muhim o'ringallaydi. Tilimiz ko'p ma'noli va ma'nodosh iboralarga juda boy. Masalan, *tayinli jazosini olgan va hushyor tortgan* insonga nisbatan *ko'zi moshdek ochilmoq* iborasini ishlatish mumkin. *Butun tafsiloti bilan, mayda-chuydasigacha batafsil ma'lumot berish* kabi ma'nolarni berish uchun esa *«ipidan ignasigacha»* degan ibora bilan ifoda etish mumkin. Shuning bilan birga, yana mana shu mazmunni berish uchun *miridan sirigacha, qilidan quyruq'igacha, boshdan oyoq* kabi iboralardan ham foydalanish mumkin. Yoki *xush ko'rinishli, yoqimli, jozibador* insonlarga nisbatan *istarasi issiq, yulduzi issiq, sitorasi issiq* iborasini ishlatish mumkin. Lekin o'quvchi tilimizda mavjud bo'lgan iboralarning barcha ma'nolarini bir yo'la o'zlashtirib ololmaydi. Shuning bilan birga, nutqida ham osonlikcha qo'llab ketolmaydi. Iboraning

¹ S.A.Madiyarova va b. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. Toshkent, "Iqtisod-moliya", 2009.

² G'ulomova A., Qobilova B. Nutq o'qitish mashg'ulotlari. T., "O'qituvchi", 1995, 23-bet.

³ Yo'ldoshov M. Cho'lponning xalq iboralaridan foydalanish mahorati. "O'zbek tili va adabiyoti", 1999, 6-son, 59-bet.

barcha ma'nolari o'quvchilarga ayon bo'lsagina, ulardan foydalanish imkoniyatlari ham erkin bo'ladi. Shuning uchun ona tili o'qituvchisi bola nutqini doimo tahlil qilishi, ularning nutqida ishlatishga qiynalgan iboralarni aniqlashi va o'quvchi shaxsiy lug'atiga olib kirish yo'llarini topishi lozim. O'quvchilar lug'at boyligining anchagina qismini ma'nodosh so'zlar va iboralar tashkil etishi lozim. Chunki sinonimlar nutqqa go'zallik baxsh etadi, so'zlarni va iboralarni takror holda, qo'llashdan saqlaydi, fikrni badiiy ifodalash imkoniyatlarini kengaytiradi. Bunday so'z va iboralarni o'quvchining lug'at boyligiga olib kirish tilning barcha sathlarini o'rganishda, ular ustida doimiy ishlashni, nafaqat «Frazeologiya», «Leksikologiya» bo'limlari, balki ona tilining barcha sathlarini o'rganishda mutassil shug'ullanib borish lozim. Ona tili o'qituvchisi shuni unutmasligi lozimki, tilimizda mavjud bo'lib, o'quvchi birinchi marta duch kelayotgan ibora va so'zlar bola uchun yangilikdir. Masalan, badiiy adabiyotda bolalar *boshiga qilich kelganda ham, gardaniga yuklamoq, dilini siyoh qilmoq, soyasiga ko'rpacha to'shamoq, yulduzlari to'g'ri kelmoq*, «yuz ko'rmas bo'lmoq kabi juda ko'p iboralarga duch keladilarki, o'quvchi uchun bu iboralarning ma'nosi mutlaqo notanish. Shuni nazarda tutgan holda, mana shu iboralar ustida ham til hodisalarini o'rganish jarayonida, ham sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar jarayonida, uyda ota-onalarning suhbatlarida qo'llash orqali ham o'rgatish mumkin.

Maktab ta'limi tizimida, asosan, ona tili darslarida o'quvchilar iboralarni o'rganar ekan, iboralarning ichki olamiga kiradi, ularning xilma-xil ma'nolari bilan tanishadi va ma'no nozikliklarini bilib oladi. Shuning uchun bu birliklarni o'rganish bolada ancha qiziqish uyg'otadi. Iboralarning ifoda ma'nolari, sinonim, antonim va shakldoshlik holda kelish xususiyatlari hamda so'z bilan sinonim bo'lib kelishi, umumxalq ishlatadigan iboralar, faqat adabiy til uchun xos bo'lgan iboralar kabilarni bolaga keng ko'lamda o'rgatamiz. Iboralarni o'rgatishda, asosan, boshlang'ich sinflarda darslikdagi har xil matnlar, sinfdan tashqari o'qilgan ertaklar, badiiy asarlar va o'qish kitoblarida berilgan matnlar ustida, ulardan olingan qisqa matnlar, ularda keltirilgan iboralar ustida ish olib borish yaxshi natija beradi. Yuqorgi sinflarda esa adabiyot darsliklarida berilgan asarlarning ichida keltirilgan iboralar ustida ishlash mumkin. Masalan, maktabda 5-sinfning «Adabiyot darsligi»da o'zbek xalq ijodidan «Uch og'a-ini botirlar» ertagi berilgan. Shu ertakning bir necha o'rinlarida iboralarni uchratishimiz mumkin. Masalan, *Uchovi ham o'qigan, oqu qorani tanigan, yuzlari oyday, o'zlari toyday, yomon bilan yurmagan, yomon joyda turmagan ekan.*¹ Mana shu gapning ichidagi *oqu-qorani tanimoq* iborasi qo'llangan yoki shu adabiyot darsligidagi M. Osimning «Zulmat ichra nur» qissasidan olingan parchada ham juda ko'p iboralarni uchratishimiz mumkin, jumladan, *Bir kuni u yaqindagina yozgan bir g'azalini o'qib berayotganida jiyani Alisherning diqqat bilan quloq solayotganini ko'rib, hayratda qoladi.* Bu gapning ichida *quloq solmoq, hayratda qolmoq* iboralari ishlatilgan. Mana shu asarlarda keltirilgan iboralarning ustida 5-sinfda ona tili fanida o'tilishi lozim bo'lgan «Ibora» mavzusini o'tgan vaqtda ish olib borish mumkin.

Keltirilgan iboralarning ma'nosi tushuntiriladi hamda o'quvchilardan shu iboralarni so'z bilan almashtirib ko'rish topshirilishi mumkin. Xuddi shunga o'xshash, 6-sinfda G'afur G'ulomning «Shum bola» qissasi o'rganiladi. Shu asardan quyidagi parchani olib, tahlil qilish mumkin: «*Unga sari men zavqlanib ketganman, avjga avj qo'shib yuboraman, osmonning chetlarini titratib yuborgim keladi.*»² Mana shu o'rinda adabiy tildagi «*avjga minmoq, avjga chiqmoq, avjga yetmoq*» iborasi va uning «*yuqorlatmoq, yuqori darajaga ko'tarmoq*» ma'nolarida qo'llanayotgani haqida ma'lumot berilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'quvchi lug'at boyligining asosiy qismini ibora va tasviriy ifodalar tashkil qilishiga erishish uchun dars jarayonida har xil amaliy ishlarni bajarish lozim. Chunki bu birliklar nutqimizni boyitadigan, go'zallashtiradigan va ta'sirchanligini oshiradigan vositadir. O'zbek tilini o'qitish metodikasida berilgan so'zlarni iboralar bilan (yoki aksincha) almashtirish, ular ma'nosini sharhlash ma'no darajalarini oshib yoki kamayib borishini taqqoslash kabi amaliy ishlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

1. *Anvar imtihonni yaxshi topshirgani uchun xursand* – *Anvar imtihonni yaxshi topshirgani uchun og'zi qulog'ida.*

2. *U o'zi ko'rgan voqealarni butun tafsiloti bilan aytib berdi* – *U o'zi ko'rgan voqealarni ipidan ignasigacha aytib berdi.*

3. *Poshsha buvi juda yoqimli inson edi* – *Poshsha buvi juda istarasi issiq inson edi.*

4. *O'zining aybini bilgan bola mutlaqo gapirmadi* – *O'zining aybini bilgan bola damini chiqarmadi.*

¹ Ahmedov S., Qosimov B., Qo'chqorov R., Rizayev Sh. Adabiyot. Umumta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik, T., «Sharq», 2020.

² Ahmedov S., Qo'chqorov R., Rizayev Sh. Adabiyot. Umumta'lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik, T., «Manaviyat», 2017.

Bundan tashqari, o'quvchilarga ona tili mashg'ulotlarida iboralar lug'atini tuzdirish, iboralarga zid ma'noli, muqobil ibora yoki so'z birikmalari tanlash kabi mashqlardan foydalanishni o'rgatish ham so'z boyligini oshirish va rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Dars jarayonida iboralar ustida quyidagicha amaliy mashqlar, didaktik o'yinlar o'tkazish mumkin:

1. Iboralarni mazmunini sharhlang va oddiy so'zlar bilan almashtiring.

- *mazasi qochdi – sog'lig'i yomonlashdi;*
- *mum tishlamoq – mutlaqo gapirmaslik, suhbatda mutlaqo qatnashmaslik;*
- *soyasiga ko'rpacha solmoq – izzat-hurmat qilishni me'yoridan o'tkazib yubormoq;*
- *sirkasi suv ko'tarmaydigan – tanqidga mutlaqo chidamaydigan;*
- *tinkasi qurimoq – toliqmoq, darmonsizlanmoq;*
- *xamirdan qil sug'urganday – osonlik bilan, hech qanday qiyinchiliksiz;*
- *ep bilmaslik – noloyiq, yarashmaydigan ish deb bilmoq;*
- *yuragini yormoq – qattiq cho'chitib qo'rqitmoq.*

2. Iboralarni zid ma'nodagi muqobillari bilan almashtiring.

- *yaxshi ko'rmoq – yomon ko'rmoq;*
- *ko'kka ko'tarmoq – yerga urmoq;*
- *og'zi qulog'ida – qovog'idan qor yog'adi;*
- *istarasi issiq – so'xtasi sovuq;*
- *ko'ziga issiq ko'rinmoq – ko'ziga sovuq ko'rinmoq;*
- *yuzi shuvut bo'lmoq – yuzi yorug' bo'lmoq.*

3. Quyidagi so'zlarga ma'nodosh iboralarini toping.

- axfa – ichiga chiroq yoqsa yorimaydigan;*
- xursand – og'zi qulog'ida;*
- sho'x – yerga ursang ko'kka sapchiydigan;*
- lallaygan – og'zing qani desa qulog'ini ko'rsatadigan;*
- yuvosh – qo'y og'zidan cho'p olmagan;*
- hovliqmoq – o'pkasini qo'ltiqarmoq.*

Shuning bilan birga, o'quvchilar tomonidan to'plangan iboralarni guruh ishtirokida eshitish, to'g'rilash, tahlil qilish, to'ldirish mashqlari o'tkazilishi ularda til sezgisi, so'z tanlash mahoratini, matn yaratish madaniyatini shakllanishiga sabab bo'ladi.

O'quvchilar badiiy asarni o'qiyotganda uchraydigan shakldosh, ma'nodosh, zid ma'noli iboralar ma'nosi sharhlangan izohli lug'at daftari tutsalar, mazkur so'zlar ishtirok etgan gaplar tuzsalar, so'z boyligini oshirish va nutqiy mahoratni shakllantirishda yaxshi natijalarini qo'lga kiritadilar.

Leksikologiyani o'rganishda bilimlarni mustahkamlash, takrorlash va umumlashtirish so'zning botiniy, lug'aviy ma'nosini tasvirlash shu jarayonda to'g'ri va o'rinli so'zlash mahoratini egallash uchun leksik tahlildan foydalanish yaxshi natija beradi. Shuni ta'kidlash lozimki, ravon, aniq, ta'sirchan uslub tuyg'usi tilning barcha sohalarini o'rganish jarayonida, til birliklarida so'zlarning ma'no va shakl munosabatlari asosidagi bog'lanishlarni taqqoslash zaminidagina shakllanadi. O'quvchi ongida ana shu xususiyatni tarkib toptirish, barcha ona tili o'qituvchilarining diqqat markazida bo'lishi lozim. Zero, ona tili mashg'ulotlarining bosh maqsadi o'quvchi so'z boyligini oshirish, uni nutqda to'g'ri va o'rinli qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish, til bo'limlarini uslubiyat bilan bog'liq holda o'rganish hisoblanadi.

Xullas, o'quvchini notanish bo'lgan yangi iboralar olamiga olib kirish murakkab jarayon bo'lib, bu jarayon o'qituvchidan iboralar ustida muttasil ish olib borishni va uni bola ongiga yetkazishni talab qiladi. Ona tilining yangi-yangi ifoda imkoniyatlarini izlab topish va uni dars jarayoniga tatbiq etish o'quvchilarning ijodiy tafakkur, voqea-hodisalarni kuzatish, anglash, qiyoslash, analiz va sintez, tanlash, guruhlash, yaratish kabi bilish qobiliyatlarini takomillashtirib, ularda milliy mafkura, mustahkam e'tiqod, milliy dunyoqarashini tarkib toptirishga xizmat qiladi. Turli til hodisalari (so'z va iboralarni) ma'nosini to'liq anglash va uni xususiy nutqda qo'llashga intilish – ulardan nutqiy vaziyatga mosini tanlash o'z fikrini ixcham, aniq va ravon ifodalash malakalarining shakllanishi va rivojlanishiga zamin yaratadi.

Muxamadiyev Aziz Shavkatovich (Navoiy davlat Pedagogika instituti; azizmuhammadievsh@gmail.com)

O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI ASARLARDA VERBAL VA NOVERBAL AGRESSIYANING SEMANTIK-SINTAKTIK TADQIQI

Annotatsiya. Ushbu maqolada noverbal (og'zaki bo'lmagan) va verbal (og'zaki) agressiyaning badiiy adabiyotda turli xil ma'no anglatishi, ushbu ma'noning ta'sir darajasi haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, o'zbek va ingliz tilidagi asarlardan olingan misollar qiyosiy o'rganilib, ularning farqlari va o'x-

shashliklari yoritib berishga harakat qilingan. Shuningdek, verbal va nonverbal agressiya orqali anglashiladigan tajovuz, achininsh, norozilik kabi turlari misollar berilib tahlil qilingan. Bundan tashqari, verbal va nonverbal agressiya fonetik sathda ham o'rganilib, o'zbek va ingliz tillaridagi misollar o'rtasida qiyo-siy tahlil o'tkazilgan.

Аннотация. В данной статье рассматриваются разные значения невербальной и вербальной агрессии в художественной литературе, а также уровень влияния этого значения. Также были сравнительно изучены примеры, взятые из произведений на узбекском и английском языках, и постарались выявить их различия и сходства. Также приводятся и анализируются примеры таких видов агрессии, жалости, недовольства, которые понимаются через вербальную и невербальную агрессию. Кроме того, на фонетическом уровне изучалась вербальная и невербальная агрессия, а также проводился сравнительный анализ между примерами на узбекском и английском языках.

Annotation. This article discusses the different meanings of non-verbal and verbal aggression in literature, as well as the level of influence of its meaning. We also comparatively studied examples taken from works in Uzbek and English, and tried to find out their differences and similarities. Examples of such types of aggression, pity, discontent, which are understood through verbal and non-verbal aggression, are also given and analyzed. In addition, verbal and non-verbal aggression was studied at the phonetic level, and a comparative analysis was carried out between examples in Uzbek and English languages.

Kalit so'zlar: haqorat, nonverbal, g'azab, zo'ravonlik, achinish, sifatdosh, ot, fe'l.

Ключевые слова: insult, невербальный, гнев, насилие, жалость, причастие, существительное, глагол.

Key words: aggressive, nonverbal, emotional reaction, lexemes-identifiers, semantics reveals, crime, weapon, punishment, execute.

Kirish. Biz verbal va nonverbal agressiyani harakatlar sifatida namoyon bo'ladigan hissiy reaksiyaning bir turi sifatida qaraymiz, uning asosiy maqsadi nishonga ma'naviy shikast yetkazish yoki yoqimsiz his-tuyg'ularning ifodasi, shuningdek, agressiya nishoniga nisbatan munosabatdir. Emotsional munosabatning o'rganilayotgan turining og'zaki timsoli nonverbal tajovuzkorlik kabi jarayon ma'nosini aks ettiruvchi leksemalarning o'ziga xos to'plami bilan ajralib turadi.

Ushbu maqola nonverbal agressiyani jismoniy va boshqa maqsadlarga jismoniy yoki axloqiy jihatdan shikast yetkazish uchun mo'ljallangan harakatlar sifatida namoyon bo'ladigan hissiy reaksiyaning bir turi sifatida tavsiflaydi. Zo'ravon nonverbal harakatlarni semantik jihatdan tasniflash uchun ishlatiladigan leksema-identifikatorlarning eksklyuziv to'plami nonverbal agressiyani emotsional javob shakli sifatida belgilaydi.

Leksema-aniqlovchilar orasidan jazo uchun qo'llaniladigan qurol va vositalar nomlariga e'tibor qaratish lozim, ularning semantikasi "zo'ravon nonverbal xatti-harakatlarni amalga oshirish vositalari" ma'nosini o'z ichiga oladi. Ushbu jazolar o'z tabiatiga ko'ra subyektning tajovuzkor tarzda cheklangan yoki cheklanmagan his-tuyg'ularini anglatadi. Biroq, nonverbal agressiyadan farqli o'laroq, biz tajovuzkor nonverbal harakatlar identifikatorlarining alohida guruhlarini (qurol va narsalarning nomlari, jazolash uchun ishlatiladigan vositalar) ajrata oldik, verbal agressiya bizga asosiy e'tiborni so'zga qaratishga imkon beradi.

Agressiv og'zaki harakatlar jarayonining ko'rsatkichlarini topish uchun qilingan lug'at yozuvlarini o'rganish orqali biz g'azab, haqorat, tanqid, janjal/so'kinish, og'zaki hujum va qo'pollikning eng keng tarqalgan leksik generatorlarini aniqlashga muvaffaq bo'ldik. Shu bois bu harakat guruhini aniqlashda qo'llanilgan so'zlarning semantikasida qo'shimcha ma'nolarni aniqlash mumkin, masalan, tajovuzkorning nishon harakatidan norozi bo'lishi, so'zlovchining salbiy his-tuyg'ulari.

Tahlil va metodlar. "You dog!" said I, is this your making us lough? Come away... [5.159]. Bu gapda bosh qahramonning nutqida qo'sh ot agressiyani ifodalab kelgan. Olmoshdan oldin hayvon nomi dog (it) qo'shilishi aggressivlikni yanada oshirgan. O'zbek tilida ham "it" atamasi mavjuda hamda u, ko'pincha, "-cha" qo'shimchasi qo'shilib qo'llanadi. To'liq variant "itvachcha" (ot+-cha). Keltirilgan misollar: Nuqul itvachcha der emish. Astag firullo, o'z bolasini, oz tuqqan bolasini itvachcha degan [3.167].

Xuddi shu ma'noda (asosan, yoshlar uchun) haqoratlash uchun ishlatiladi. Shoshmay tur, hali u iz-zatini bilmagan itvachchani tutib, adabini bermasam, Madumar otimni boshqa quyaman [6.129].

Ma'lumki, ingliz tilida ham, o'zbek tilida ham biz hayvon nomlarini qo'llab, o'z g'azabimizni namoyon qilamiz. Biroq o'zbek tilidagi asarlarimizda o'sha atamalar yanayam qo'pol va zo'ravonlik ko'rinishlarida asvirlanadi. **Wretch!** dost thou ask what thou ask hast done? [1.49].

Bu satrda soʻzlovchi oʻzining norpoziligini bildirish uchun “wretch” soʻzidan foydalanadi. Shuningdek, yuqorida aytilgan soʻz chaqirishni ifodalab, yanada agressivlikni kuchaytirib kelish vazifasini bajaradi. Soʻzlovchi bu soʻzlarni oʻziga hukm sifatida aytadi, u oʻzini baxtsiz it kabi his qiladi, aslida ham baxtsiz boʻlib tugʻilganini oʻziga oʻzi soʻzlaydi. Bu tuygʻular uni baxtsiz va doimiy gʻablantirib turadi. Biz bu “wretch” soʻzidan tajovuzni qay holda ifodlanganini tushunmay ajablanishimiz mumkin. Albatta, bu soʻz baxtsiz degan maʼnoni anglatadi, lekin baxtsizlikni doimiy ravishda his qilib turgani, qahramon gʻazabini keltirib chiqaradi.

Natija va muhokama. Oʻzbek tilidagi adabiyotlarimizda non-verbal agressiyani ifodalash uchun tishlarning gʻichirlatilishi hamda qoʻpol holatda soʻzlashish bilan ifodalanadi. Natijada soʻzning baʼzi harflari, koʻpincha, s, z tovushlari ikki baravar ortirilib gapiriladi. Shuning bilan birga, bu verbal agresiya ham deb yuritiladi. Keeling, quyidagi keltirilgan bir nechta misollarni koʻrib chiqaylik va Daniel Defoning romanidagi yuqiruda aytilgan soʻzlar bilan solishtirishga harakat qilaylik. – *U oʻrnidan shart turib baqirdi: – Yoʻqol, gazzanda!* (He got up and yelled: – Go away, prevent!) [8.220].

Bu qismda verbal va non-verbal agressiyalar birgalikda koʻrsatilgan. Boshqacha aytganda, qahramonning shartta oʻrnidan gʻazab bilan turishi ham uning shuhbatdoshiga boʻlgan agressiyasini koʻrsatmoqda. Robinzon Kruzoda bosh qahramon hayotidagi duch kelgan holatlarga noroziligini va bu uning tajavuzkorligini kuchaytirganini anglab olamiz. U asarda ham verbal, ham non verbal agressiyalar ostida gʻavdalangan:

“I believe I repeated,”*Oh that it had been once!*” a thousand times; and the desires were so moved by it, that when I spoke the words **my hands would clinch together, and my fingers press the palms of my hands**, that it would have crushed it involuntarily; and **my teeth in my head would strike together, and set against one another so strong that for some time I could not part them again**“ [2.101].

Lekin, ingliz tilidan farqi ravishda oʻzbek tilida biz “my teeth in head” soʻz birikmalariga duch kelmaymiz. Uning oʻrniga biz soʻz uslubimiz “teeth in my mouth” koʻrinishida gaplar tuzishga moslashganmiz. Ammo ikkala tilda ham tishlarimizni zichlashimiz agressiya emotsiyasini ifodalaydi. Roman tahlil qilish jarayonida fonetik vositalar qahramonlarning turli holatlarini, jumladan, qoʻrquv, ishonchsizlik, norozilik kayfiyatlarini ifodalashda namoyon boʻladi. Quyidagi misol tergovchi ayol nutqidan olingan boʻlib u tergov jarayonida gumondor shaxsga nisbatan mensimaslik, ishonchsizlik kayfiyatida. Shu sabab-li ham u suhbatdoshning javobidan qoniqmagan tishining orasidan gapirmoqda:

–*Qiz-z-ziq... Berger shunday deb Sharifga yaqinlashdi-da, tutab tugay boshlagan sigaret choʻgʻ-ini uning yuziga bosdi.*

(Interesting ...Berger approached Sharif like that and pressed the embers of the cigarette he had started to burn on his face [8.220].

Noverbal agressiya ingliz tili va oʻzbek tili adabiyotida muhim rol oʻynaydi. Bu romanning mazmunli, qahramonlarning bir-biriga boʻlgan munosabatni qiziqarli qilib ochib beradi. Gʻazab hissi achiqlanish va hujumga olib kelishi mumkin boʻlgan keskinlik va tashvish bilan chambarchas bogliq. Agressiya toʻgʻridan toʻgʻri yoki qayta yoʻnaltirilishi ham mumkin.

Xulosa. Shuni taʼkidlash kerakki, agressiya jarayonini emotsional javob shakli sifatida ifodalovchi leksemalarga nisbatan agressiv xatti-harakatlar natijasining generatorlari soni ancha kichikdir. Tadqiqot agressiv emotsional reaksiyalar ikki xil shaklda – ogʻzaki va ogʻzaki boʻlmagan shaklda boʻlishi mumkinligini aniqlaganligi sababli, ingliz tilida agressiv semantikaning leksik birliklarini qurish uchun endi agressiv ogʻzaki harakatlar natijalarini aks ettiruvchi leksemalarni topishimiz kerak. Lugʻat yozuvlarini oʻrganish shuni koʻrsatdiki, lisoniy harakatlar natijasi maʼnosini ifodalovchi leksemalar juda kam. Bundan tashqari, bu soʻzlar agressivning qattiq ogʻzaki koʻrinishlariga javob boʻlgan va subyektning harakatlariga oʻxshash semantikaga ega boʻlgan javob berish, tortishish va tishlashni oʻz ichiga oladi.

Biroq, qoʻpollik, bezovtalik, nafrat kabi noverbal belgilar ingliz va oʻzbek tilida soʻzlashuvchilarning ogʻzaki xatti-harakatlari natijasi boʻlishi mumkin. Bundan tashqari, verbal va noverbal zoʻravonlik nishoni uni eʼtiborsiz qoldirishni tanlashi mumkin, bu esa agressivning istalgan natijaga erishishiga toʻs-qinlik qiladi. Bundan tashqari, bizning fikrimizcha, verbal va noverbal agressiyaning natijasi agressivning oʻxshash koʻrinishlari boʻlgan agressiv harakatlarida tez-tez namoyon boʻladi. Tadqiqotimiz natijalarini sarhisob qilar ekanmiz, shuni taʼkidlash kerakki, oʻzbek tilidagi zoʻravonlik hissiy reaksiyalar oqibati identifikatorlarini oʻrganish, koʻpincha, ularning tarkibiy qismlarini semantik jihatdan aniqlashtirishga asoslangan. Bunday zaruratga ushbu guruhlarini, imkon qadar, toʻliq koʻrsatish zarurati, shuningdek, ularda izchil maʼno komponentlari yoʻqligi sabab boʻldi. Boshqacha qilib aytganda, ingliz identifikatorlarining taʼriflari juda chuqur boʻlib chiqdi, identifikatorlarni aniqlash uchun qoʻshimcha tekshirishni talab qilmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Buss D.M., Shakelford T.K. Human aggression in evolutionary psychological perspective. *Clinical Psychology Review*, 17, 1997, 619 p.
2. Sutherland J., Daniel Defoe. *A Critical Study*. Cambridge. Harvard University Press. 1971, 301 p
3. Abdulla Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari. G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at, T., 1987, 268-bet.
4. A.Qodiriy. O'tkan kunlar. "Sharq", 2018, 384-bet.
5. Daniel Defoe. *Robinson Crusoe*. Global Grey. 1719, 165 p.
6. M.Ismoiliy. Fargona tong otguncha. "Sharq", 2010, 345-bet.
7. Pirmuqol Qodirov. Yulduzli tunlar. "Yoshlar" nashriyot uyi, Toshkent, 2017, 480-bet.
8. Tohir Malik. Shaytanat, 3-kitob, "Sharq", 2006, 384-bet.

**Otemisov Aziz Zarliqbayevich (QQDU "Qoraqalpoq tilshunosligi" kafedrasida dotsenti, PhD;
e-mail. otemisov.aziz@mail.ru)**

BERDAQ ASARLARIDA QO'LLANILGAN O'SIMLIK NOMLARI HAQIDA

Аннотация. Мақоллада қорақалпоқ мумтоз шоири Бердақ асарларида о'симлик номларининг қо'лланилишида о'зига хослик хусусида со'з юритилган. О'симлик номларининг Бердақ асарларида о'з ва қо'чма ма'ноларда қо'лланилиши мисоллар ёрдамида очиқ берилган. Шоир асарларида о'симлик номларидан қо'чма ма'нода бадиий тасвир воситаси сифатида маҳорат билан фойдалангани та'кидланган.

Аннотация. В статье говорится о своеобразии употребления названий растений в творчестве каракалпакского классика Бердаха. С помощью примеров раскрываются употребление названий растений в произведениях Бердаха в собственном и переносном значении. Автор отмечает, что Бердах умело использовал названия растений в переносном значении как средство художественного образа.

Annotation. The article deals with the uniqueness of the use of plant names in Berdakh's works who is supposed to be a classic Karakalpak poet. The use of plant names in their direct and indirect meanings are revealed in the examples in Berdakh's works. In the works of the poet, it is noted that he skillfully used plant names in indirect meaning as a means of literary description.

Kalit so'zlar: qoraqalpoq tili, Berdaq asarlari, o'simlik nomlari, o'z ma'no, ko'chma ma'no, metafora, qovun (qawin), arpa (arpa), tariq (tari), qamish (qamis), yakan (jeken), gul (gul).

Ключевые слова: каракалпакский язык, произведения Бердаха, названия растений, буквальное значение, переносное значение, метафора, дыня (qawin), ячмень (arpa), просо (tari), тростник (qamis), розог (jeken), цветок (gul).

Key words: Karakalpak language, Berdakh's works, plant names, literal meaning, figurative meaning, metaphor, melon (qawin), barley (arpa), millet (tari), reed (qamis), cattail (jeken), flower (gul).

Qoraqalpoq mumtoz shoirlari asarlari tilini tadqiq etish, shu orqali qoraqalpoq adabiy tili tarixi bilan bog'liq muammolarni aniqlash katta ahamiyatga ega masalalardan biri sanaladi. Berdaq Qarg'aboy o'g'li qoraqalpoq adabiy tilining shakllanishida va taraqqiyot yo'nalishini belgilashda o'ziga xos muhim o'rin egallagan shoir hisoblanadi. Uning ijodiy asarlari o'tgan asr boshlarida xalq og'zaki so'zlashuvi orqali to'plana boshladi. Berdaq asarlari shu paytgacha adabiyotshunos, tarixshunos, pedagog, faylasuf va tilshunos olimlar tomonidan o'rganilib kelinmoqda.

Qoraqalpoq mumtoz shoiri Berdaq Qarg'aboy o'g'li asarlarining tilini tadqiq qilish masalasi o'tgan asrdayoq qo'lga olinib, bu sohada bir qancha ilmiy ishlar maydonga keldi. Berdaq asarlarining til xususiyatlari H.Hamidov [7], D.S.Nasirov, O.Dospanov, A.Bekbergenov, D.Saytovlarning [5] ishlarida umumiy yo'nalishda o'rganilgan edi. Shoir asarlarining tilini alohida monografik yo'nalishda tadqiq qilgan professor Sh.Abdinazimov hisoblanadi. Uning doktorlik dissertatsiyasi Berdaq asarlari tili tadqiqiga bag'ishlangan.

Professor Sh.Abdinazimov: «Shoirlar XIX asrdagi qoraqalpoq xalqining umumxalq tilida yoziladi, og'zaki so'zlashuv tiliga xos bo'lgan xususiyatlar hamda nutq me'yorlari unda o'z aksini topgan» [1.33] deb baho beradi. To'g'ri, Berdaq shoirning olamdan o'tganiga bir asrdan ortiq vaqt o'tgan bo'lsa-da, shoir ijodini o'rganish, tadqiq qilish hali davom etmoqda. Shoirning poetik olami shu darajada murakkabki, u tilshunos va adabiyotshunoslar uchun tadqiqot obyekti, shoirlar uchun o'rganish maktabi bo'lib qolmoqda.

Biz ushbu maqolamizda Berdaq asarlarida qo'llanilgan o'simlik nomlari haqida so'z yuritmoqchimiz.

Berdaq asarlarida o'simlik nomlari o'z va ko'chma ma'noalarda o'z o'rnida mahorat bilan qo'llanilgan. Shoirlar asarlarida bir qancha o'simlik nomlarining turli shakllarda ishlatilganligini aniqladik. Ular qu-

yidagilar: *arpa, buwday, sulı, salı, shigin, qamis, tal, qarabaraq, gúl, qarağay, sókit, ırğay, qawın, iyttúy- nek, sheńgel, qızıl gúl, qopa, tari, lala, qıyaq, jeken, bayterek, torańgıl, gewirek, alma.*

Shoirning o‘simlik nomlarini o‘z ma’nosida qo‘llangan misralariga quyidagilarni misol sifatida kel- tirish mumkin.

*Júz ótkende egin ektik,
Qawın egip, páleklettik,
Aqırı iyttúynek jedik,
Jamanlıqqa tústi bıyıl. («Bıyıl»)
Shegirtke jedi arpanı,
Qaldı tozańgıp topanı,
Ayırıp kelip qopanı,
Qaban da jaw boldı bıyıl. («Bıyıl»)
Dáwkempirge ektiń tari,
Jarımshıǵa berdiń jari. («Xojam»)
Qara túptiń qırmanına,
Berdaq baqsı miyman boldı,
Toǵız batpan qızıl tari,
Jigitlerden inam boldı. («Qara túptiń qırmanında»)
Ekkisin bir torańgılǵa,
Darǵa asıń!– degen eken. («Aqmaq patsha»)*

Bu satrlarda shoir *qawın, iyttúynek, arpa, qopa (qamis), tari, qızıl tari, torańgıl* nomlarini bo‘lib o‘tgan voqea-hodisalar, ichki kechinmalarini bayon qilishda o‘z ma’nosida qo‘llagan. Vaholanki, bu mis- ralarda ham shoir o‘simlik nomlarini ijtimoiy hayotda bo‘layotgan qiyinchiliklarni tasvirlashda detal sifa- tida foydalangan.

Berdaq asarlarida ba’zi o‘rinlarda *jeken, qamis* nomlari bevosita o‘simlikning o‘zini emas, balki uning mahsuloti ma’nosini anglatib kelgan. Masalan:

*Minip ahp jeken salǵa,
Kólge awın salǵan eken. («Aqmaq patsha»)
Qız toqıp jeken shiptanı,
Dúzedi qamis shatpanı,
Tasladi góne látteni,
Óz isine puqta eken. («Aqmaq patsha»)
Qamis qosınıń ishinde,
Uyqıda jatqanda túnde, ... («Aqmaq patsha»)*

Bu misralardagi *jeken sal, jeken shipta* so‘z birikmalari orqali sol va bo‘yraning *jeken* (yakan)dan ishlanganligini ifodalasa, *qamis shatpa, qamis qos* birikmalarida ham *shatpa* yoki *qos* (chayla)ning qa- mishdan tayyorlanganligini ifodalash uchun qo‘llanilgan.

O‘simlik nomlari Berdaq asarlarida, ko‘pincha, ko‘chma ma’noda qo‘llanilgan. Badiiy adabiyot- ning o‘zi fikrni o‘z ma’nosida emas, ko‘pincha, o‘quvchiga ekspressiv-emotsional ta’sirchan yetkazish uchun turli badiiy tasvir vositalari orqali ko‘chma ma’noda qo‘llanishni talab qiladi. Shu bois shoir o‘y- fikrlarini, ko‘pincha, metafora, metonimiya, sinekdoxa kabi ko‘chish usullari orqali badiiy tarzda yetkazib bergan. G.Ne’matova o‘zining «O‘zbek tilida o‘simlik nomlari leksemalari: tizimi va badiiy qo‘llanilishi» mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasida quyidagi fikrlarni bildiradi: «O‘simlik nomlari leksemalari o‘z ma’nosida o‘simlik olami namunalarini, ularning mevasi va hosilini badiiy adabiyotda nomlashning mu- him vositalari hisoblanadi. Shu bilan birga, o‘simlik nomlari leksemalari badiiy adabiyotda ko‘chma va ramziy ma’nolarda ham ishlatiladi. Ko‘chma ma’nolarda ular metaforik tasvirning muhim vositasi bo‘lib xizmat qiladi» [6.16]. Masalan, shoirning: *Dawıl bolıp úrgin úrdi, Qosınıń qamısın túrdi*, – degan mis- ralarida tabiatdagi dovulni yoki ozining qamish qos (chayla)ini nazarda tutayotgani yo‘q. Zamon qiyin- chiliklarini, hayotda ko‘rgan uqubatlarini poetik tilda ko‘chma ma’noda tasvirlagan.

Shoir asarlarida ba’zi o‘rinlarda o‘simlik nomidan gapirish orqali bayon qilingan misralar ham uch- raydi. Masalan,

*Bir jazalmay pálegimdi,
Kókleý úzip qámegimdi,
Shoshqa túyip túynegimdi,
Urqan jaydırǵan emes. («Bolǵan emes»)*

Bu misralarda shoir aytmoqchi bo‘lgan fikrini *qawın (qovun)* o‘simligi nomidan bayon qilgan. Ushbu misralarda esa lirik qahramon o‘zini *qıyaq* o‘simligiga o‘xshatib tasvirlaydi:

*Qilish kesip putağimdi,
Órbitpedi urpağimdi,
Sorlaq etti torpağimdi,
Shólge shuqqan boldim qıyaq.* («Aqmaq patsha»)

Bunda *qıyaq* soʻzi Berdaqning 1987-yilda nashr etilgan toʻplamida *tyaq* deb notoʻgʻri berilgan boʻlishi mumkin. Chunki Berdaq asarlari, koʻpincha, arab grafikasida bizgacha yetib kelgan. Arab alifbosida esa «ق» va «ت» harflari soʻz ichida ustiga ikki nuqta qoʻyilishi orqali oʻxshashlikni yuzaga keltiradi. Shu sababli ق یاق (*qıyaq*) soʻzi ت یاق (*tyaq*) deb oʻqilgan boʻlishi mumkin. Shuningdek, *tyaq* soʻzi hech bir lugʻatda uchramaydi. Shu bois 1977 va 1997-yillarda chop etilgan toʻplamlardagi *qıyaq* soʻzi toʻgʻri qoʻllanilgan deb oʻylaymiz. Chunki *qıyaq* nomi Qoraqalpoqcha-ruscha lugʻatda ham [2.434], B.Sh.Sherbayevning lugʻatida ham [8.21] oʻsimlik nomi sifatida berilgan. Shu bilan birga, botanikaga oid ishlarda *qıyaq* (*Elymus angustis Trin.* – Kolosnyak uzkiy) qumli yerlarda, choʻllarda oʻsadigan oʻsimlik ekanligi taʼkidlangan.

«Bolgan emes» sheʼrida shoir zamon qiyinchiligi tufayli oʻsmay qolganligini *ırgay* oʻsimligi orqali koʻchma maʼnoda ifodalagan.

*Uzun emes, ırgay boldım,
Hár muqamga shırgay boldım.*

Shuningdek, bu misralar «Qoraqalpoq tilining izohli lugʻati»da ham *ırgay* soʻziga misol sifatida berilgan [3.581].

Shoir ijodida *gúl* soʻzi koʻp qoʻllanilgan. D.S.Nasirov va M.Ayimbetovlar muallifligida nashr etilgan «Berdaq taʼlamali shıgarmalarınıń alfavitli jıyilik sózligi»da Berdaq shoirning 1987-yilda chop etilgan saylanma asarlari toʻplamida umumiy 10 ming 926 soʻz shakli qoʻllanilganligini, shundan *gúl* soʻzi turli shakllarda 52 marta qoʻllanilgani haqida statistik maʼlumotlar berilgan [4.5]. Bizga maʼlumki, *gúl* soʻzi tilda ikki maʼnoda ishlatiladi. Ulardan birinchisi istalgan oliy darajali oʻsimlikning gʻunchalagandan keyingi davri bu gullash davri hisoblanadi. Bu holatda *gúl* soʻzi butunning qismi, yaʼni oʻsimlikning bir aʼzosini bildiradi. Ikkinchisi esa oʻsimlikning alohida guruhini anglatadi. Masalan: *lala gúl, roza gúl, nazbay gúl* va shu kabilar. Shoir asarlarida *gúl* soʻzi oʻz maʼnoga nisbatan koʻchma maʼnoda koʻp qoʻllanilgan. Masalan,

*Gúl boldım, gúl jaynamadım,
Oyshı boldım, oylamadım.* («Bolgan emes»)
*Qazan urıp, gúller solıp,
Túrli-túrli zaman boldı.* («Bolmadı»)

Bu misralarda shoir *gúl* soʻzi orqali insonni, inson umrini tasvirlagan. *Gúl* soʻziga *-day//dey, -dák* qoʻshimchalarini qoʻshib, oʻxshatish shaklida ham ishlatilgan oʻrinlar mavjud. Masalan:

*Birazlar júrgúldey solıp,
Solarğa endi pana ber.* («Pana ber»)
*Yetmish-seksán yashğa keldim,
Xazan urğan gúldák soldım, ...* («Shejire»)
*Boyğa jetpey gúldey solıp,
Kóp azaplar kórgen eken.* («Aqmaq patsha»)

Gúl soʻzi quyidagi misralarda metafora usulida turli koʻchma maʼnolarni ifodalab kelgan:

1. *Gúl* soʻzi «baxt» maʼnosida qoʻllanilgan:

*Isińde jigitler qamliq bolmasın,
Gumshalansa gúliń hárgiz solmasın, ...* («Xalıq ushın»)
*... Ashılğanda solsın gúliń,
Meni wayran ettiń, qızım.* («Ráwshan»)

2. «Hali yosh» maʼnosida:

*On gúlinen ashılmağan bir gúli,
Degenine jete almadı xalıq ushın.* («Xalıq ushın»)

3. *Gúl* soʻzi «suluv (goʻzal)» maʼnosida ham qoʻllanilgan:

*Andın soń Muhammád – Ráhim xan,
Gúl yuzlari mahı taban, ...* («Xorezm»).

*Jaman bolsa tuwısqanıń,
Kúyip-pisip shıgar janıń,
Gúl júzińnen qashar qanıń,
Ólseńdağı ol qaramas.* («Qaramas»)

Gúl soʻzi *qızıl* soʻzi bilan birikib kelgan holatlar ham uchraydi:

*Qizil guldəyin solsañ da,
Oylanıñ ketken keler me? («Ketken keler me»)
Gáziynesı toldı ma eken?*

Qizil gúli soldı ma eken? ... («Xojam»)

Ata-anam ólgennen soñ,

Qizil gúli solgannan soñ,... («Aqmaq patsha»)

Qizil gúlleri solganday,

Aq júzi sarğayğan eken. («Aqmaq patsha»)

Bu misralarda shoir inson *hayoti, baxti* kabi tushunchalarni *qizil gúl* birikmasi orqali ifodalagan.

Xulosa qilib aytganda, Berdaq asarlarida o‘simlik nomlaridan shoir tomonidan o‘y-fikrlarini ko‘chma, obrazli tasvirlashda mohirona foydalanilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдиназимов Ш. Бердақ шығармаларының тили. Тошкент, «Фан», 2006.
2. Каракалпакско-русский словарь. М., 1958.
3. Қарақалпақ тилинің түсіндірме сөзлігі. IV том, Нөкіс, «Қарақалпақстан», 1992.
4. Насыров Д.С., Айымбетов М. Бердақ таңдамалы шығармаларының алфавитли-жийилик сөзлігі. Нөкіс, «Қарақалпақстан», 1993.
5. Насыров Д.С., Доспанов О., Бекбергенов А., Сайтов Д. Қарақалпақ әдебияты классиклери шығармаларының тили. Нөкіс, «Билим», 1995.
6. Нейматова Г. Ўзбек тилида ўсимлик номлари лексемалари: тизими ва бадий қўлланилиши. Номзодлик диссертацияси автореферати, Тошкент, 1998.
7. Ҳамидов Х. Қарақалпақ тили тарийхының очерклери. Нөкіс, «Қарақалпақстан», 1974.
8. Шербаетв Б.Ш. Русско-латино-каракалпакский словарь названий растений. Нукус, 1978.

To‘rayeva Umida Shuxratovna (filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD));

e-mail: umidahope943@gmail.com

HUQUQIY TARJIMANING TILSHUNOSLIKDA TUTGAN O‘RNI

Annotatsiya. *Jahon tilshunosligida terminologiya, xususan, yuridik terminologiya masalasi har doim dolzarb mavzu bo‘lib kelgan. Bu esa tilshunoslar oldiga yuridik terminologiya tarjimasi, terminlarni lug‘atlarda izohlash masalalari bilan bog‘liq masalalarni tadqiq etish vazifalarini qo‘ydi. Mazkur maqolada yuridik terminlarni tarjima qilishning o‘ziga xos xususiyatlari, tarjima usullari, yuridik tarjima jara-yonida yuzaga keladigan chalkashliklar tahlillar asosida yoritilgan.*

Аннотация. *Терминология, особенно юридическая терминология, всегда была актуальной проблемой в мировом языкознании. Это поставило перед лингвистами задачу исследования вопросов, связанных с переводом юридической терминологии и толкованием терминов в словарях. В данной статье на основе анализа освещаются особенности перевода юридических терминов, способы перевода, путаницы, возникающие в процессе юридического перевода.*

Annotation. *Terminology, especially legal terminology, has always been a topical issue in world linguistics. This gave linguists the task of researching issues related to the translation of legal terminology and the interpretation of terms in dictionaries. In this article, the peculiarities of the translation of legal terms, methods of translation, confusions arising in the process of legal translation are covered based on the analysis.*

Kalit so‘zlar: *lingvistik tarjimashunoslik, yuridik tarjima, adekvat tarjima, so‘zma-so‘z tarjima, transliteratsiya, transkripsiya, kalka.*

Ключевые слова: *лингвистический перевод, юридический перевод, адекватный перевод, дословный перевод, транслитерация, транскрипция, калька.*

Key words: *linguistic translation, legal translation, adequate translation, word-for-word translation, transliteration, transcription, calque.*

Tarjimaga lingvistik tarjimashunoslik nuqtayi nazaridan yondashib, quyidagicha ta‘rif berish mumkin: “Tarjima tarjimon so‘zidan hosil bo‘lgan, tarjimon esa forscha tarzabon so‘zidan kelib chiqqan [2].

Ma‘lumki, qadimda O‘rta Osiyo va Eron xalqlari orasida notiqlik san‘ati rivojlangan. O‘sha vaqtda notiqalar tarzabon deb atalgan. Tar – fors tilida yangi, shirali, tarovatli, nozik, latif kabi ma‘nolarni bildiradi. Zabon – til degani. Tarzabon – notiq, chiroyli gapiruvchi, so‘z ustasi, yangi va o‘tkir so‘zlarni aytuv-chi ma‘nosini ifodalaydi. Tarzabonlar chuqur bilim, keng dunyoqarash, notiqlik mahoratiga ega bo‘lish-dan tashqari, bir necha tillarni ham bilganlar va o‘z nutqlarida ulardan foydalanganlar. Insoniyat faoliyatining murakkab shakli bo‘lgan tarjima – bir tilda yaratilgan nutqiy ifoda (matn)ni, uning shakl va

maz-mun birligini saqlagan holda, o'zga til vositalari asosida qayta yaratishdan iborat ijodiy jarayondir" [3].

Tarjimaviy muammolarni hal qilish tarjimondan puxta bilim va tegishli ko'nikmani talab qiladi. Tarjima murakkab jarayonligi sir emas. Asl nusxa mazmunini aniq, xatosiz, tushunarli tarzda uzatish uchun mos keladigan so'zlarni topishning o'zi yetarli emas, bunda grammatik shakl va birliklar ham mutanosib bo'lishi muhim [4]. Keyingi yillarda yuzaga kelayotgan bir qator tadqiqot ishlarida tarjima va tarjima muammolariga bo'lgan e'tibor kuchaymoqda.

Tarjima jarayonida kerakli so'zni tanlash, zarur so'zni boshqa ma'nodagilaridan ajratib olish katta ahamiyatga ega. So'zlar nutqning turiga, kimga atalganiga va maqsadiga ko'ra tanlanadi: publitsistik nutq uchun siyosiy-falsafiy ruhdagi o'tkir, ta'sirchan so'zlar; ilmiy nutq uchun termin xarakteridagi termin so'zlar; badiiy nutq uchun esa badiiylik bo'yog'iga ega bo'lgan, obrazlilikka xizmat qiladigan so'zlar olinadi [5].

Tarjima san'atida bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilib boshlagan davrdan to hozirgacha ikki tendensiya hukm surib, ularning tarafdorlari o'rtasida munozara davom etadi. Birinchi tendensiya – *erkin tarjima*. Ikkinchi tendensiya – *aniq va to'g'ri tarjima*. Erkin tarjimada tarjimon o'z istagi bilan tarjima qilayotgan asarni o'zgartib, ba'zan unga, hatto yangi boblar qo'shib, sujetlarni qisqartirib yoki kengaytirib beradi. Bunday tarjimada asarning nomini ham o'zgartirish hollari uchraydi.

Yuridik tarjima taraqqiyoti, bosqichlari haqida bir qancha qarashlar mavjud. Xilfning nazariyasiga ko'ra, yuridik tarjima haqida birinchi hujjatlashtirilgan qaydlar miloddan avvalgi 1271-yilda Misrda, Misr-Xett tinchlik shartnomasining tarjimasi bilan boshlangan [6].

Huquqiy tarjimaning yana bir muhim bosqichi VI asrda imperator Yustinianning "Corpus Iuris Civilis" asarining yunon tiliga tarjimasi bo'ldi. VII–XIII asrlarda islom dinining yoyilishi natijasida arab tilida huquqiy tarjima asarlar (jumladan, huquqiy matnlar) soni sezilarli darajada ko'paydi. Imperiyalar o'z chegaralarini kengaytirar ekan, tarjima va tarjimonlik zabt etilgan yangi madaniyatlarni boshqarish uchun zarur bo'ldi [7].

Huquqiy tarjimaning sifati ma'lum darajada ijro etish samaradorligiga, muayyan munosabatlarni tartibga solish darajasiga ta'sir qiladi. Huquqiy va ma'muriy tizimlar aholining harakatchanligi va sonining oshib borishi bilan parallel ravishda rivojlanib borar ekan, tug'ilish, o'lim va nikohni qayd etish uchun fuqarolik daftarlarining yaratilishi hayotimizning barcha sohalarida ma'muriy nazoratning boshlanishini ko'rsatdi. Shu tariqa, rasmiy muassasalardan chiqadigan hujjatlarni tarjima qilish zarurati ortdi.

Hatto bir tilda so'zlashsa-da, bir mamlakat hududidagi turli qismlar huquqiy tuzilmasi ham bir-biridan farqlanadi. Bu haqida Jorjtaun yuridik kutubxonasi elektron saytida quyidagicha qisqacha izoh berilgan: "England and Wales share a unified court system, based on common law principles, which originated in medieval England. Scotland and Northern Ireland each have their own judicial systems. The court system in Northern Ireland closely resembles that of England and Wales, while the Scottish court system is a hybrid model that combines elements of both common and law and civil law systems" [8].

Birlashgan qirollik tarkibiga kiruvchi Angliya va Uels huquq tizimi o'zaro o'xshash, ammo Shotlandiya huquq tizimida Fransiyaning ta'siri katta bo'lganligi kuzatiladi. Bu davlatlarda immigratsiya qonuni, boshpana, harbiy sud va immigratsiya tribunalining yurisdiksiyasi (immigration law, the Asylum and Immigration Tribunal's jurisdiction, Military Court Service) kabi o'zaro teng munosabatda amal qilinuvchi qonunlar tizimi ham mavjud. Bu qonunlarga Buyuk Britaniyaning har bir qismi amal qilishi ko'zda tutilgan.

Mehnat huquqi (employment law) ham Angliya, Shotlandiya, Uelsda o'xshash, ammo bu qonun Irlandiya hududida amal qilinmaydi. Shimoliy Irlandiyadagi sud tizimi Angliya va Uelsnikiga juda o'xshaydi, Shotlandiya huquq tizimi esa umumiy va fuqarolik huquqi tizimlarining elementlarini birlashtirgan gibrid modeldir.

Tarjimonlik dunyodagi eng qadimiy kasblardan biri bo'lishiga qaramay, u akademik fan sifatida nisbatan qisqa vaqt davomida mavjud bo'lib, haligacha boshqa fanlar tomonidan qabul qilinishga qiynalmoqda. Tarjima va interpretatsiya tushunchalari o'zaro yaqin ma'noda qo'llanilib, ba'zi bir chalkashliklarga sabab bo'lmoqda. *Interpretatsiya* lotincha *interpretatio* so'zidan olingan bo'lib, tushuntirish ma'nosini bildiradi. Interpretatsiyalash – sharhlash, izohlash, talqin qilish, tushuntirib berish, ochish demak. Bu, o'z navbatida, sohalar, tillar, lug'at tuzish, davrlar, tarjima maktablari kabi turlarni o'z ichki bo'linishlariga ega. Shuningdek, bir qator tarjima usullari ham mavjud: adekvat tarjima, tabdil tarjima, ijodiy tarjima, kalkalash, transliteratsiya, erkin tarjima, transkripsiya kabi.

Transkripsiyalash. Tarjima amaliyotining hozirgi vaqtda transkripsiyalash metodi eng keng tarqalgan bo'lib, u so'zning orfografik shaklini berishga ega emas, balki fonetikasini bera oladi [9]. Umuman

olganda, tarjimon transkripsiyani ishlatganda, albatta, transliteratsiya elementlarini chetlab o‘tib ketolmaydi.

O‘zbek tili terminologiyasi tizimida muayyan tushunchalarning muqobili bo‘lmaganligi bois ularni bitta so‘z bilan ifodalashning imkoniyati cheklangan. Kirib kelayotgan tushunchani bir qancha so‘zlar yordamida izohlash yoki tavsiflash terminologiya talablariga ziddir. Mana shunday holatlarda ruscha-baynalmilal terminlar donor tilda qanday shaklda bo‘lsa, o‘zbek tiliga ayni shu shaklda tayyor tarzda qabul qilinadi: *gerb, kommunikatsiya, fraksiya, profitsit, integratsiya, diplomatiya* kabi.

Transliteratsiyalash. Bunday nomlanishga sabab, tarjima harakatida bu usullarni ishlatishda uning o‘rniga tovush harakati yoki tarjima qilinayotgan chet tilidan ona tilidagi so‘zlarning mazmunini grafik shaklini berish orqali yuzaga keladi. Biroq bu usul tarjimasiz ko‘rinadigandek, lekin dalillarga asoslansak, bu yerda bir-birini o‘rnini bosish, uni jonlantirish uchun muhim zamin sifatida faqat tarjimani amalga oshirish uchun qo‘llaniladi. O‘rnini bosuvchi so‘z tarjima qilinayotgan tilning dalili bo‘lib qoladi va shunga binoan chet tilidan ham tashqi ko‘rinishlari bir xil ekvivalent sifatida ishlatiladi.

Transliteratsiya metodi o‘zbekcha harflar bilan inglizcha so‘zni tashkil qiluvchi harflarni berish metodidir. Masalan: *Nikkei – Nikkey* (Tokio fond birjasida qimmatbaho qog‘ozlar kursining indeksi), *Inauguration – Inauguratsiya, Benelux – Binelyuks*.

Kalkalash. Xususan, kalkalash tarjima qilish usullari ichida alohida o‘rin tutgan holda, to‘la tarjima qilinadigan va tarjima qilinmaydigan leksiklar o‘rtasidagi o‘rinni egallaydi. Kalkalashning o‘zgarasligi ichki formasining o‘zgaragan holda saqlanganligida namoyon bo‘ladi. Kalkalash ichki til o‘rtasida to‘g‘ri keladigan ichki tomonlama o‘zaro tillarda bo‘lgan elementlar leksik birliklarga tayanadi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, xalqimiz orasida huquqiy madaniyatni targ‘ib qilish, qonunlar va boshqa huquqiy-me‘yoriy hujjatlardan ularni xabardor qilib borish nutqiy madaniyat bilan bog‘liq bo‘lgan g‘oyatda mas‘uliyatli vazifani amalga oshirishni ham taqozo etadi. Bu borada huquqshunolar ham ma‘lum malakaviy va nutqiy ko‘nikmalarni egallashlari lozim bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-feraldagi PF-4947-sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha “Harakatlar strategiyasi” to‘g‘risida”gi farmoni.<https://www.lex.uz/acts/3107036> | 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi [URL:https://lex.uz/docs/6000171](https://lex.uz/docs/6000171)
2. G‘afurov I., Q.Mo‘minov, N.Qambarov. Tarjima nazariyasi. Toshkent, “Tafakkur bo‘stoni”, 2012.
3. Turayeva Umida. Comparative study of Uzbek and English legal terms legal linguistics: historical foundations, basic concepts and aspects. Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities 1.1.6 Philological sciences (2021).
4. Бархударов Л.С. Язык и перевод. Конференция. Международные отношения. М., 1975, с. 56.
5. Hilf M. Die Auslegung mehrsprachiger Verträge [The interpretation of multilingual treaties]. Heidelberg, Germany, Springer, 1973.
7. Umida, Turaeva. Characteristics, Methods and Challenges of Translating Law Terminology. Journal NX 6.11, p. 312 – 316.
8. <https://guides.ll.georgetown.edu/c.php?g=365741&p=4199181>
9. Salomov G‘. Tarjima nazariyasiga kirish. Toshkent, “O‘qituvchi”. 1978, 286-bet.

**Ochilova Noila Farmonovna (Samarqand davlat Chet tillar instituti
katta o‘qituvchisi; e-mail: noila.ochilova@bk.ru)
MODAL MUNOSABATLARDA IRREALIS IFODALANISHI**

Annotatsiya. *Tilshunoslik sohasida gaplarni tekshirish obykti haqida har xil fikrlar mavjud. Dunyo tilshunoslari bu haqda mulohazalarini bildirar ekanlar, uning tadqiq obyektini yo toraytirib, yo kengaytirib yuborganlar. Real voqealikda ba’zi hodisalar noreal holatda ham o‘z aksini topishi mumkin. Bunday holatdagi voqea-hodisa, balki sodir bo‘ladi yoki, aksincha. Shunday ekan, irrealis tushunchasi hozirgi paytda tilshunoslikda keng ishlatiladigan tushunchalardan biri sanaladi. Quyidagi maqolada modal munosabatlarda irrealisning ifodalanishi ko‘rsatilgan, ya’ni, sodir bo‘lishi mumkin ehtimoli bor voqea-hodisalar misol qilib berilgan.*

Аннотация. *В области лингвистики существуют разные мнения об объекте проверки предложений. В то время как лингвисты мира высказывали свое мнение по этому поводу, они либо сужали, либо расширяли объект его изучения. В реальной действительности некоторые явления также могут быть отражены в негосударственности. Событие в такой ситуации происходит в реальности или наоборот. Именно поэтому понятие ирреальности считается одним из понятий, широко используемых в лингвистике на данный момент. В следующей статье показано вы-*

ражение ирреалиса в модальных отношениях, т.е. в качестве примера событий приводится событие, которое, вероятно, произойдет.

Annotation. *In the field of linguistics, there are different opinions about the object of sentence verification. While linguists of the world expressed their opinion on this, they either narrowed or expanded the object of his study. In Real reality, some phenomena can also be reflected in the non-state. An event in such a situation occurs in the event or vice versa. That is why the concept of irrealis is considered one of the concepts widely used in linguistics at the moment. The following article shows the expression of Irrealis in modal relations, i.e. an event that is likely to occur is given as an example of events.*

Kalit so‘zlar: status, modallik, irrealis, predikatsiya, diontik, indikativ, dinamik, epistemik.

Ключевые слова: статус, модальность, ирреализм, предикация, дионтический, индикативный, динамический, эпистемологический.

Key words: status, modality, irrealis, predication, diontik, indicative, dynamic, epistemic.

Palmer (1) modallikni “vaziyatni ifodalovchi gap statusi bilan bog‘liq” deb ta’riflaydi. Bu yuqorida ta’riflangan mujmal ma’no sifatiga mos tushadi, sababi uning aynan qaysi holat bilan bog‘liqligi, qolaversa, gap statusi – statusning qaysi holatga aloqadorligi noaniq bo‘ladi. Portner (2009: 1) tomonidan berilgan ta’rif ancha aniq hisoblanadi, uning fikriga ko‘ra, “modallik–bu lingvistik hodisa bo‘lib, uning vositasida yoki ularga asoslangan holda grammatika insonlarga ma’lum voqealar to‘g‘risida gapirish imkonini beradi: ularning real bo‘lishi shart emas”. Portnerning ta’kidlashicha, «real» terminini qay tarzda izohlash darhol aniq bo‘lmaydi, bu izoh Palmerning ta’kididan farqli ravishda amalda ancha samaraliroqdir.

Boshqa farqlarni ko‘pchilik izlanuvchilar olib borgan usul, modallikning semantik sohasini bo‘linmalarga bo‘lish yo‘li bilan topish mumkin. Masalan, Givon (2001) dastlabki tasniflashni presuppozitsiya va tasdiq gaplar (assertion) o‘rtasida olib boradi, keyinchalik, tasdiq gaplar realis va irrealisga bo‘linadi, realis tasdiq gaplar esa, o‘z navbatida, ijobiy va salbiy turlarga ajratiladi. Palmer (2001) esa ancha an’anaviy uslubdan foydalangan holda propozitsional modallikni (epistemik va daliliy turlarga ajratadi) voqea modalliligidan (deontik va dinamik turlarga ajratib) farqlaydi. Nihoyat, Baybi (1998) to‘rt turdagi bo‘linmalarga ajratadi: agentga asoslangan modallik, so‘zlovchiga asoslangan modallik, epistemik va itoatlik modalliklari. Holbuki Baybining yondashuvi qolgan fikrlardan farqli ravishda, ko‘proq haqiqatga yaqin ko‘rinadi. Uning ta’kidlashicha, ko‘zlangan modallik bo‘linmalari, aslida, to‘rt mustaqil semantik soha bo‘lib, ular o‘rtasidagi bog‘liqlik sinxronik emas balki diaxronik hisoblanadi. Bu hol ko‘proq ingliz tiliga xos xususiyat sanaladi. Masalan: Tipologik nuqtayi nazardan modal-vaqt ko‘rsatkichlari nominalizatsiyadan ko‘ra, predikativlik shkalasining boshqa uchida joylashgan shakllarga xosdir. Qiyoslang: Hathall must have known that. So Angela found out her address -they would have been keeping a close eye on her – and wrote to her, or more probably called on her, to ask if she would give her some assistance into the research she was doing into Celtic languages (R.Rundell. 214). Shifokor koridordan o‘tib borayotib, uning beso‘naqay kulgisini eshitgan bo‘lsa kerak, eshikni ochib qaradi va Masturaga zehn solib, uning yuzida horg‘inlik ko‘rdi, shekilli, bizni chiqarib yubordi (Abdulla Qahhor. Ming bir jon. 51-bet).

O‘zbek tilida fe‘lning modal munosabatini ifodalovchi birliklar, zamon shakllarining turli xil ma’-nolari mavjudligi tasdiqlangan. Xususan, ular bir tomondan kelasi zamon, bog‘lovchi, buyruq mayli, ba’-zan qarama-qarshilik ma’nolarini ifodalasa, boshqa tomondan, hozirgi va hatto o‘tgan zamonnini ifodalash uchun ishlatiladi. Masalan: Ko‘rgan-bilganlar bo‘lsa, militsiya bo‘limiga xabar qilishini so‘raymiz...» (X. To‘xtaboyev. Sarik devni minib. 41-bet).

Biroq ta’kidlash mumkinki, bu kelasi zamonga qaratilgan irrealis ma’nolarning barchasi mantiqiy jihatdan ikkilamchi hisoblanib, -a, -ay, -sa kabi modal qo‘shimcha shakllarining bunday xilma-xil funktsiyalarining asosi, aslida, ko‘p ma’-nolilik hisoblanib, yuqorida qayd etilgan ma’-nolardan ko‘ra irrealis ma’-nosiga xosligi ustunroq ekanligi ko‘zga tashlanadi.

Darhaqiqat, o‘zbek tilida, hech bo‘lmaganda, yuqoridagi grammatik shakllarni asosiy manbaya bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Bunda ushbu qo‘shimchalar anglatadigan funktsiyalar nuqtayi nazarida aniq tartibga keltirish imkoniyati yuzaga kelishi ehtimoli mavjud.

Semantika nuqtayi nazaridan, maqsadga erishishga qaratilgan vaziyatlar, masalan, tobe predikatsiyalar bilan ifodalangan vaziyatlardagi til birliklari, konteksti ta’-sirida mazmunning ehtimolligini anglatishi mumkin. Bu kabi ehtimollik modal munosabatlar ko‘riladi, ammo mazmun va mantiq nuqtayi nazari-dan ushbu ma’lumotlarga ega bo‘luvchi tafakkurida vaziyat irreal ekanligi oydinlashadi. Bunda faqat maqsadli konstruksiyalarni irrealis tarkibiga kiritish yoki kiritmaslik masalasi yuzaga keladi. Nazariy jihatdan irrealis ko‘rsatkichini aynan shunday modal ma’no belgisi sifatida qayta ko‘rib chiqish mumkin bo‘ladi. Bu esa irrealis ifodalanishini kognitiv nuqtayi nazardan, modal munosabatlarni tafakkur bilan bog‘liq holda o‘rganish istiqboli mavjudligidan darak beradi. To‘g‘ri, maqsadli tuzilmalar konteksti tu-fayli istiqbollilik ma’nosining toraytirilishi ham unchalik ajablanarli emas, vaholanki, bu dalillar ham

aniq bir fikrni ta'kidlamaydi. Qiyoslang: I suppose I'll have to ask them.' Hilland spoke in an even more ungracious tone than he had up till then. 'It's a bore but I suppose they will. They don't like this sort of thing' (Ruth Rendell. 27). Ishxonasida ham obro'yi zo'r **bo'lsa kerak**, uni ko'rgani nuqul shoirlarga o'xshab movut shlapa kiygan, qorni katta odamlar keladi (X.To'xtaboyev. Sariq devni minib. 65).

Predikatsiyaning ehtimoli bo'lgan ko'rinishi yoki "g'ayritabiiy" (masalan, ikonik bo'lmagan) joylashishi ham tobelikdan dalolat beradi. Irrealis shaklidagi tobe bo'lakning standart pozitsiyasi (vaziyatlarining vaqtinchalik ketma-ketligiga kelsak) to'liq ikonik hisoblanadi – asosiy bandning o'ng tomonida. Shu bilan birga, ushbu qoida buzilgan misollar ham mavjud – bu, shubhasiz, bo'ysunishning kattaroq grammatiklashuvi holatini ochib beradi. Masalan: – Men ham hazillashib urdim, – soqolini silab qo'ydi, Yonq'oq qori pochcham, – chinakamiga urganimda biringizni do'zaxga, biringizni undan nariga jo'natardim (X.To'xtaboyev. Sariq devni minib. 164). Biror kasbni chin yurakdan sevib qolsang, uning mashaqqatlari jonga huzur bag'ishlarkan (X.To'xtaboyev. Sariq devni minib. 79-bet).

Irrealisning keng tushunchasi real olamda sodir bo'lmagan barcha vaziyatlarni o'z ichiga oladi (ya'ni, ular sodir bo'lishi yoki bo'lmasligi mumkin, sodir bo'lishi kerak, har qanday sharoitda ham sodir bo'ladi, so'zlovchi ularning sodir bo'lishini xohlaydi va hokazo). Bunday holatlarning grammatik ifodasi barcha noreal mayllarning grammaemalari, shuningdek, indikativning kelasi zamon shakli orqali yasaladi, chunki ikkinchi holat ham real hodisaning bayoni hisoblanmaydi. Boltiqbo'yi-fin tillarida hozirgi zamon ko'rsatkichlari bilan mos keladigan kelasi zamonning maxsus ko'rsatkichlari mavjud emas.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bybee J. 'Irrealis' as a Grammatical Category'. *Anthropological Linguistics* 40: 1998, p. 257 – 271.
2. Bybee Joan L. (1995). 'The Semantic Development of Past Tense Modals in English; in Joan.
3. L.Bybee and Suzanne Fleischman (eds.). *Modality in Grammar and Discourse*. Amsterdam and Philadelphia: John Benjamins~503 – 517.
4. Givon T. (1989). *Mind, Code, and Context. Essays in Pragmatics*. Hillsdale, NJ: Lawrence Erlbaum Associates.
5. Givon T. (1994). *Irrealis and the Subjunctive*. *Studies in Language*, 18, 265 – 337.
6. Palmer Frank R. 1986. *Mood and Modality*. Cambridge: Cambridge University press.

Yunusova Barchinoy Mahmudxonovna (PhD, katta o'qituvchi; barchinoyyunusova21@gmail.com) “ALPOMISH” DOSTONIDA QO‘LLANGAN QO‘NG‘IROT ETNONIMINING ETNOLINGVISTIK TAHLILI

Annotatsiya. Maqolada “Alpomish” dostoni va uning variantlarida qo'llangan etnonimlar haqida ma'lumot berilgan. Epik matnda faol qo'llangan Qo'ng'irotda etnonimiga alohida to'xtalib o'tilgan, etnogenezi, ma'nolari xususida bir necha xil qarashlar keltirilgan va etnolingvistik nuqtayi nazaradan tahlil qilingan.

Аннотация. В статье представлена информация об этнонимах, используемых в эпосе «Алпомыш» и его вариантах. Активно употребляющийся в эпическом тексте этноним Кунгирот отдельно комментируется, представлены и проанализированы несколько взглядов на его этногенез и значения с этнолингвистической точки зрения.

Annotation. The article provides information about ethnonyms used in the dastan “Alpomish” and its variants. The ethnonym Kungirotd, which is actively used in the epic text is commented on separately, several views on its ethnogenesis and meanings from an ethnolinguistic point of view are presented and analyzed.

Kalit so'zlar: etnonim, etnolingvistika, xalq nomlari, urug' va elat nomlari, etnogenezis, toponim, transonimizatsiya, xoronim.

Ключевые слова: этноним. этнолингвистика, имена народов, этногенезис, топоним, трансонимизация, хороним.

Key words: ethnonym. ethnolinguistics, names of nation, ethnogenesis, toponym, transonymization, choronym.

Xalqning tarixi va etnik tarkibi hamda takomillashuvini o'rganishda folklor namunalari noyob va betakror manba sanaladi. “Alpomish” tom ma'noda xalq kitobidir, chunki boshqa hech qaysi kitobda xalqning hayoti, orzu-umidi, muqaddas tuyg'ulari bunchalik jonli va tabiiy yo'sinda o'z ifodasini topmagan.¹ Bu, albatta, haqqoniy e'tirof. Doston o'zbek xalqiga mansub va unga qo'shni bo'lgan qadimiy, tarihiy urug', qabila va elatlarni o'rganishda ham muhim ahamiyatga ega.

¹ Hotamov G., Hamroyev Sh. Millat xotirasi. Toshkent, “Yozuvchi”, 1999, 11-bet.

“Alpomish” dostoni va uning variantlarida bandi kuchuk, barmoq, baymoqli, beshbola, bo‘gajili, gala, do‘ska, jolqilloq, zombiri, irg‘oqli, ishqili, ko‘rto‘rg‘ay, ko‘sa, ko‘chaxo‘ri, kal cholbacha, moltaka, mavlish, mo‘nqa, nug‘ay, oboqli, oytamg‘ali, ochamayli, oqpichoq, oqtana, savribuzar, tilovat, tulan, tupor, turkman oyinli, to‘pqora, to‘g‘iz, uyuvli, ulus, changchili, chalika, cholbachcha, churon, cho‘llak, o‘r, o‘troqi, hojibachcha, qo‘shamg‘ali, qaychili, qovda, qozoqyoqli, qora, qora buvra, qorakash, qora-tamg‘ali, qoraqalpoq, qoraqasmoq, qoraqursoq, qorqo‘ng‘irot, qo‘ng‘irot, qochay, quyun, qo‘ldovli, qalmoq kabi 60 dan ziyod etnonimlar qo‘llangan.

Doston matniga xos etnonimlarni quyidagicha guruhlash mumkin:

1. Xalq nomlari: o‘zbek (o‘zbek), turkman, xitoy, qozoq, qoraqalpoq kabi.

2. Urug‘ va elat nomlari: baymoqli, bandi kuchuk, barmoq, beshbola, bo‘gajili, vaqtamg‘ali, gala, do‘ska, jolqilloq, zombiri, irg‘oqli kabi.

Bu etnonimlar asar matnida bir yoki ikki o‘rinda tilga olingan, xolos. Ularning aksariyati qipchoq urug‘lariga mansubligi bilan tavsiflanadi. Dostondagi timsollar etnik mansubligini ifodalovchi Qo‘ng‘irot etnonimi faol qo‘llangan.

“Alpomish” dostonida qahramonlik, jasurlikni ulug‘lash, mardlik tuyg‘ulari va yuksak vatanparvarlik g‘oyalari bilan uzviy bog‘langan holda tasvirlanadi. Doston qahramonlari o‘n olti urug‘ Qo‘ng‘irot eli, Boysin-Qo‘ng‘irot diyori bilan mahkam bog‘langanlar. Ular qayerda bo‘lmasinlar, shu el, shu diyorning g‘am-alamiga sherik bo‘ladilar, shu el, shu diyori sog‘inchi bilan yashaydilar.¹

Alpomish yurti Boysin, Qo‘ng‘irot deb etaladi: “Burungi o‘tgan zamonda, o‘n olti urug‘ Qo‘ng‘irot elida Dobonbiy degan o‘tdi”.²

Qo‘ng‘irot – o‘zbek xalqi tarkibiga kirgan qabilalardan biri, shu qabilaga mansub kishilar.³ Ilmiy manbalarda Surxondaryo, Qashqadaryoda yashovchi urug‘lar qatorida qo‘ng‘irotlar alohida qayd etilgan.

Qo‘ng‘irot etnonimi xususida manbalarda ko‘plab ma‘lumotlar, talqinlar mavjud. Qo‘ng‘irot etnonimining etnogenezi, ma‘nolari xususida bir necha xil qarashlar mavjud. Ayrim tadqiqotchilar nomni ikki qismga ajratib izohlaydilar: qo‘ng‘ir – “kulrang, to‘q jigarrang”, -at mo‘g‘ulcha ko‘plik ma‘nosini ifodalovchi qo‘shimcha.⁴

T.Nafasov bu talqin xalq etimologiyasiga asoslanganligini, etnonim rang ma‘nosini ifodalovchi so‘z bilan aloqasi yo‘qligini ko‘rsatadi. Olimning talqinicha, etnonim mo‘g‘ulcha xonxor – “pastlik, quyi, chuqurlik” so‘zi asosida yasalgan.⁵

X.Doniyorovning fikricha, etnonimning lug‘aviy asosi mo‘g‘ulcha bo‘lib, “qora qarg‘a” ma‘nosini anglatadi. Turkiy xalqlar etnonimiyasida qadimdan hayvonlar bilan bog‘liq totemlar keng tarqalgan. Bizningcha, X.Doniyorovning qarashlari asosliroq.⁶

Abdulg‘oziy Bahodirxon etnonimlarni kishi ismiga bog‘lab izohlagan. U qo‘ng‘irot urug‘iga quyidagicha izoh bergan: “Chutlik merganning bir o‘g‘li bor erdi. Qo‘ng‘irot otli. Barcha Qo‘ng‘irot eli aning nasli tururlar”.⁷

Qo‘ng‘irot qabilasining asoschisi Qo‘ng‘irot ota bo‘lib, Qo‘ng‘irbiyning katta xotinidan 4 o‘g‘il, tortiq sifatida tekkan kichik xotinidan bir o‘g‘il bo‘lgan.

Katta xotinidan tug‘ilgan to‘ng‘ich o‘g‘li Vaxtamg‘ali (Vaxtamg‘ali)dan 18, keyingi o‘g‘illari Qo‘shamg‘alidan 16, Qanchig‘alidan 14, Ayinnidan 12 avlod tarqalgan. Kichik xotinidan tarqalgan urug‘lar esa 6 ta bo‘lgan. Shunday qilib, jami 66 urug‘-avlod bo‘lgan.⁸

Etnograf B.X.Karmisheva qo‘ng‘irotlar vaxtamg‘ali, qo‘shamg‘ali, qonjig‘ali, oyinli va tortunli kabi 5 ta katta urug‘dan iboratligini ko‘rsatgan. Qo‘ng‘irotlar orasida eng katta urug‘ vaxtamg‘ali bo‘lib, u 18 ta katta urug‘ga bo‘linadi: ochamayli, boymoqli, taroqli, chanchiqli, qozoyoqli, cho‘michli, qaychili, ishqili, qiyg‘ochli, jilontamhali, bolg‘ali, qora qo‘ng‘irot, bug‘ajili, uyuvli, xandaqli, irhoqli, aboqli, ke-sovli.

Qo‘ng‘irot – o‘zbek xalqi tarkibiga kirgan yirik qabilalardan biri. XX asr boshlarida O‘zbekistonning janubiy hududlarida, shuningdek, Zarafshon vodiysida, Mirzacho‘l, Xorazm va Qoraqalpog‘istonda yashaganlar. Qo‘ng‘irotlilar qozoq, qoraqalpoq, qirg‘iz, boshqird, no‘g‘oy va boshqa turkiy xalqlar tarki-

¹ Mirzayev T. Dostonlar gultoji. O‘zbek xalq ijodi yodgorliklari. Toshkent, G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2015, 31-bet.

² Alpomish. O‘zbek xalq ijodi yodgorliklari. T., G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2015, 1-j, 40-bet.

³ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Toshkent, O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008, 5-j, 410-bet.

⁴ Ishayev A. Xalq dostonlari leksikasidan. O‘zbek xalq ijodi to‘plami. Toshkent, “Fan”, 1967, 83-bet.

⁵ Nafasov T. O‘zbekiston toponimlarining izohli lug‘ati. Toshkent, “O‘qituvchi”, 1988, 261-bet.

⁶ Doniyorov X. O‘zbek xalqining shajara va shevalari. Toshkent, “Navruz”, 2017, 108-bet.

⁷ Abulg‘oziy Bahodirxon. Shajarayi turk. Toshkent, “Cho‘lpon”, 1992, 188-bet.

⁸ Xoliqov E., Lafasov M., Rustamov. Merosimiz ildizlari. Toshkent, “Ma‘naviyat”, 2008, 38 – 39-betlar.

biga ham kirganlar. XIV asrda Qo'ng'irotlilarning katta bir qismi Xorazm hududiga ko'chib kelgan va Xorazmning so'fiylar sulolasi faoliyatida faol ishtirok etganlar. XIV–XV asrlar davomida Qo'ng'irotlilarning ayrim guruhlar Xurosonga, Shimoliy Afg'onistonga va Xisor-Sherobod vodiysiga kelib o'rinishganlar. Qo'ng'irotlar, keyinchalik, Xorazmning siyosiy hayotida ham muhim o'rin tutganlar. XVIII asrning ikkinchi yarmi – XIX asr boshlarida Xiva xonligini o'zbek Qo'ng'irotlari sulolasi boshqargan.

Qo'ng'irotlar lug'aviy birligi dostonida etnonimgina emas, toponim, ya'ni, Qo'ng'irotlar yashaydigan joy ma'nosida Qo'ng'irotlar, Qo'ng'irotlar eli, Boysin-Qo'ng'irotlar variantlarida qo'llangan:

Ana endi o'n olti urug' Qo'ng'irotlar elida bir chupuron to'y bo'ldi ("Alpomish" dostoni. 51-bet)

Demak, bunda transonimizatsiya asosida etnonim xoronimga, ya'ni, mamlakat, yurt nomiga o'tgan: Qo'ng'irotlar (etnonim) > Qo'ng'irotlar eli (xoronim) > Qo'ng'irotlar (xoronim).

Dostonida Qo'ng'irotlar qalmoqlar, ya'ni, Toychixon, Surxayil kampir hamda boshqalar tomonidan o'zbeklar deb ataladi hamda doston matnida o'zbek etnonimi o'zbek, o'zbek fonetik variantlarida qo'llangan:

Surxayil maston Qalmoqshohga qarab, bir so'z aytib turgan ekan:

Shohim, senga arzim bayon qilayin,

Kattamsan-da, bir gap keldi so'rayin,

Chilbir cho'lni tomosha qip kelayin.

O'zbeklar mazgili qanday, ko'rayin... ("Alpomish" dostoni. 67-bet)

Qo'ng'irotlar urug'ining geografik tarqalish hududi keng. Bu dostonida quyidagicha tasvirlanadi:

Borayotgan Boysin-Qo'ng'irotlar to'rasi,

Boshida bor edi zardan jig'asi,

Yoz bo'lsa yaylovi Amu yoqasi,

Musofir bo'p Qalmoq ketib boradi. ("Alpomish" dostoni. 57-bet)

Amu yoqasi va Orol tevaragida ham o'zbek urug'lari yashagan.

O'zbek, qoraqalpoq, qozoq va boshqalarda eng eski urug'lardan biri bo'lgan "Qo'ng'irotlar"ni tasvir etgan "Alpomish" O'rta Osiyoda yashovchi (o'zbek, qoraqalpoq, qozoq kabi) xalqlarning og'zaki adabiyotiga kirgan va ular o'rtasidagi o'rtoq dostonidir. O'zbeklar, qozoqlar, qirg'izlar, turkmanlar, qoraqalpoqlar har qaysisi "Alpomish"ni o'z dostoni sifatida o'qiydilar, sevadilar.¹

O'zbekiston Respublikasi toponimiyasida Qo'ng'irotlar etnonimi transonimizatsiyasi asosida hosil qilingan toponimlar juda ko'p: Qo'ng'irotlar Qashqadaryo viloyati Koson tumani, Andijon viloyati Asaka tumani, Buxoro viloyati Olot tumani, Vobkent, G'ijduvon, Kogon, Qashqadaryo viloyatining G'uzor tumanida, Navoiy viloyatining Xatirchi tumanida, Samarqand viloyatining Jomboy, Ishtixon, Kattaqo'rg'on tumanlarida, Toshkent viloyatining Oqqo'rg'on tumanida, Farg'ona viloyatining Buvayda tumanida, Xorazm viloyatining Bog'ot, Urganch, Yangiariq tumanlarida Qo'ng'irotlar nomli qishloqlar, Qoraqalpog'iston Respublikasida Qo'ng'irotlar nomli tuman, shu tumanda Qo'ng'irotlar shaharchasi, Taxtako'pir tumanida Qo'ng'irotlar ko'l shaharchasi, Amudaryo tumanida Qo'ng'irotlar ovul kabi oykonimlar mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бегматов Э., Улуков Н. Ўзбек ономастикаси. Библиографик кўрсаткич (XIX asr oxiridan – 2008 йилгача эълон қилинган ишлар олинган). Наманган, 2008, 168-бет.

2. Бегматов Э., Хусанов Н., Ёқубов Ш., Боқиев Б. Ўзбек тарихий ономастикасининг долзарб муаммолари. "Ўзбек тили ва адабиёти", 1992, 5-сон, 21 – 27-бетлар.

3. Дониёров Х. Қипчоқ шеваларини ўрганишда халқ дostonларининг роли. Ўзбек халқ ижоди. Т., "Фан", 1967.

4. Дониёров Х. Ўзбек халқининг шажара ва шевалари. Тошкент, "Наврўз", 2017, 36-бет.

5. Yunusova B. Alpomish mifoantroponimi xususida. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=THVA4OIAAAAJ&citation_for_view=THVA4OIAAAAJ:Tyk-4Ss8FVUC

Hasanova Xurshidabonu Baxtiyarovna (NavDPI tadqiqotchisi; xurshidabonu@internet.ru)

URSULA LE GUIN ASARLARIDA FANTAZIYA JANRINING LINGVOMADANIY QIYOSI

Annotatsiya. Maqolada Ursula Le Guin asarlaridagi fantaziya janrining lingvomadaniy taqqoslashi ko'rib chiqilgan. Ursula Le Guin asarlarda adabiy manba obrazlari tizimining o'zgarishi nuqtayi nazaridan tahlil va qiyoslash amalga oshiriladi. Fantaziya, xususan, ichki ziddiyatning tashqi tekislikka o'tishi, urg'uning personajlarning shaxsiy o'zgarishlaridan ularning sarguzashtlariga o'tishi, hikoya

¹ Hamid Olimjon. Mardlik, muhabbat va do'stlik dostoni to Tanlangan asarlar. Hikoya, ocherk, tanqid, publisistika. Toshkent, Badiiy adabiyot nashriyoti, 1960, 334-бет.

asosidagi qahramon sayohatining o'zgarishi kabi xususiyatlar bilan tavsiflanadi. Fantaziya janrining lingvomadaniy qiyosi tahlil qilinganda, keng auditoriyaga mo'ljallangan asarlar ushbu janrning aniq xususiyatlarini o'z ichiga olgan o'rtacha fantaziya formulasiga yaqinligi bilan ajralib turadi.

Аннотация. В статье рассматривается лингвокультурологическое сопоставление жанра фэнтези в творчестве Урсулы Ле Гуин. Произведения Урсулы Ле Гуин анализируются и сравниваются с точки зрения изменения системы образов литературных источников. Для фэнтези, в частности, характерны такие черты, как перенос внутреннего конфликта во внешнюю плоскость, смещение акцента с личных изменений героев на их приключения, изменение пути героя по сюжету. При анализе лингвокультурологического сопоставления жанра фэнтези произведения, рассчитанные на широкую аудиторию, отличаются своей близостью к усредненной формуле фэнтези, включающей в себя специфические черты этого жанра.

Annotation. The article examines the linguistic and cultural comparison of the fantasy genre in the works of Ursula Le Guin. Ursula Le Guin's works are analyzed and compared in terms of changes in the system of images of literary sources. Fantasy, in particular, is characterized by such features as the transfer of internal conflict to the external plane, the shift of emphasis from the personal changes of the characters to their adventures, and the change of the hero's journey based on the story. When analyzing the linguistic and cultural comparison of the fantasy genre, the works intended for a wide audience are distinguished by their closeness to the average fantasy formula, which includes the specific features of this genre.

Kalit so'zlar: fantaziya, Ursula le Guin, tasvirlar tizimi, lingvomadaniy taqqoslash ijodi, ilmiy fantastika, virtual dunyo.

Ключевые слова: фантазия, Урсула Ле Гуин, образная система, лингвокультурологическое сопоставительное творчество, научная фантастика, виртуальный мир.

Key words: fantasy, Ursula Le Guin, image system, linguistic and cultural comparative creativity, science fiction, virtual world.

Oxirgi yillarda adabiy asarlarning parallel voqelik sifatida namoyon bo'lish tendensiyasi kuzatilmoqda, bunda muallif ijodkor sifatida ishtirok etib, o'z tarixi, madaniyati va turli ixtiro tillarida so'zlashuvchi etnik guruhlariga ega bo'lgan o'ziga xos dunyo yaratadi. Bunday badiiy ijod nisbatan yangi adabiy janrlarga – ilmiy fantastika va fantaziyaga tegishli.

XX asr madaniyat shakllanishining muhim omili sifatida mifga qiziqish ortishi belgisi ostida o'tdi. Mif ko'plab fanlarning, jumladan, madaniyatshunoslik, falsafa, sotsiologiya va filologiyaning o'rganish obyekti bo'lib, ularning har biri o'ziga xos tarzda ushbu hodisaning butun insoniyat va alohida xalqlar tarixi va madaniyatidagi o'rnini aniqlashga harakat qiladi. Alohida o'rinni badiiy adabiyot egallaydi, u, asosan, afsonaga tayanadi va uni zamonaviy jamiyat uchun dolzarb bo'lib qoladigan sujetlar, mavzular, ramzlar manbasi sifatida ko'radi. Mifologik material haqiqatni aks ettirishning yagona prinsipi tufayli fantastik adabiyot tomonidan eng faol tarzda olinadi, bunda voqelik elementlari mo'jizaviy va g'ayritabiiy tarzda birlashtiriladi. Bu tadqiqot uchun material tanlashning sabablaridan biri edi.

XIX asrda paydo bo'lgan ilmiy-fantastik asarlar, keyinchalik, XX asr boshlarida kichik janr sifatida paydo bo'lgan fantastik romanlar ilk bor XX asrning 2-yarmidagina adabiy-lingvistik tadqiqot obyektiga aylandi. Bu adabiy oqimning nazariy xususiyatlari va o'ziga xos badiiy uslublari aniqlandi.

Fantaziya – zamonaviy san'at janri, ilmiy fantastika turi. Fantaziya mifologik va ertak motivlaridan zamonaviy shaklda foydalanishga asoslangan.

Fantastika janri, adabiyotda yuqorida aytib o'tganimizdek, 20-asrda shakllangan, ammo u qadim zamonlardan kelib chiqqan va xalqlarning urf-odatlarini va an'analari bilan chambarchas bog'liq. Bular mashhur afsonalar, afsonalar, ertaklar. Ushbu janrning tarixdan oldingi davri ritsarlik romanlari bilan boshlangan deb ishoniladi. Ularning harakati tarixiy davrda sodir bo'lgan, ammo ular haqiqiy geografiya va chegaralar muhim bo'lmagan shartli "maftunkor" makonda sodir bo'ladi. Bu, odatda, ritsarlar sehrgarlar va gigantlarga qarshi turadigan qandaydir shohlik edi. Aynan ritsarlik romanlarida zamonaviy fantaziyaning naqshlari va an'analari paydo bo'la boshladi.

Hozirgi vaqtda ushbu mavzu doirasidagi tadqiqotlarning dolzarbligi shubhasizdir, chunki butun dunyo bo'ylab yangi asarlarning paydo bo'lishi va ularning filmga moslashuvi bunday adabiyotning tobora ommalashib borayotganidan dalolat beradi. Fantastik janrda yozilgan asar sujeti sarguzasht tamoyiliga asoslanadi, bunda qahramon o'z vazifasini bajarib, ichki uyg'unlikni topadi. Shunga qaramay, fantaziya janrining adabiy mustaqilligi masalasi hali oxirigacha hal qilinmagan, bu, shubhasiz, bu ikki yo'nalishning noaniq chegaralari bilan bog'liq. An'anaga ko'ra, ilmiy-fantastik nasr insoniyat sivilizatsiyasining kelajakdagi ilmiy-texnik taraqqiyotini tasvirlaydi, fantastik romanlar esa tarixiy yilnoma, ertak va qahramonlik dostonlari chorrahasida muvozanatlashgan qadimgi sehrli sivilizatsiyalar davrini qayta tiklaydi.

Shu bilan birga, har ikkala janr xususiyatlarini o'zida mujassam etgan asarlar mavjudki, bu ularni har ikki yo'nalishga so'zsiz bog'lash imkonini bermaydi.

Fantastika janrini o'rganish uchun uning lingvostilistik xususiyatlarini ajratib ko'rsatish uchun biz, birinchi navbatda, lingvomadaniy qiyoslash va tahlil kabi vositaga murojaat qildik. Matn turli pozitsiyalardan tahlil qilinganligi sababli, lingvistik va stilistik tahlilga ham turlicha yondashuvlar mavjud.

Lingvistik va stilistik tahlil matnning sathlardan tashkil topgan tizim sifatida o'rganadi. Keyingi tadqiqotlar jarayonida bu darajalar ham bir-biridan ajratilgan holda ham o'zaro ta'sirda ko'rib chiqiladi. Badiiy matnning vizual vositalarini, ularning sintezi beradigan estetik effektni o'rganish.

Keng kitobxonlar auditoriyasini o'ziga jalb etayotgan fantaziya janri zamonaviy adabiyotning eng mashhur janrlaridan biridir. Ushbu janr doirasida ko'plab yo'nalishlar mavjud bo'lib, ularning xilma-xilligi, hatto eng talabchan o'quvchilarning ehtiyojlarini qondira oladi. Biroq, fantaziya janri o'zining ko'rinishlarida juda xilma-xil bo'lishiga qaramay, ushbu tadqiqotda biz uni boshqa janrlardan ajratib turadigan bir qator xususiyatlarni ajratib ko'rsatishga harakat qilamiz. Bu xususiyatlar, odatda, hikoya qurish va ikkinchi darajali dunyolarni yaratish bilan bog'liq.

Ushbu tadqiqotda biz Ursula Le Guin asarlarida fantaziya janrining lingvomadaniy qiyosi xususiyatlari fantastika tomonidan qanday amalga oshirilganligini tasvirlab beramiz. Shunga qaramay, "fantaziya" va "ilmiy fantastika" atamalarining etimologiyasidan kelib chiqib, bu ikki adabiy oqimni bir-biridan farqlash o'rinli ko'rinadi. Fantaziya olamlari geografik o'ziga xoslikdan mahrum, ya'ni voqealar realda emas, balki, ko'pincha, xayoliy bo'lgan shartli dunyoda sodir bo'ladi. Bu xususiyat, ayniqsa, Ursula K. Le Guin asarlarida yaqqol ko'zga tashlanadi, ular fantastik olamlarning puxta o'ylangan geografik maydoni bilan ajralib turadi.

Ko'pgina tanqidchilar va adabiyotshunos olimlar V.Le Guin asarlarini, birinchi navbatda, "Geyn sikli" romanlarini ilmiy fantastika janriga bog'laydilar. Shubhasiz, Le Guin romanlarida an'anaviy ilmiy-fantastik unsurlar mavjud. Bular kosmik sayohat, begona sivilizatsiyalar va dunyolar bilan aloqa qilish haqidagi klassik ilmiy fantastika g'oyasi, ilmiy-texnika taraqqiyoti va boshqalar. Biroq, siklning biron-bir asarining birinchi sahifalaridanoq, ular klassik ilmiy fantastika deb ataladigan narsa doirasiga mos kelmasligi aniq bo'ladi. Turli va murakkab masalalar, psixologizm, personajlar teranligi, tasvirlangan voqealarga har tomonlama baho berish – bu Le Guin nasri xususiyatlarining kichik bir qismi. Qolaversa, yozuvchi shunchaki fantastik o'ziga olamlarni yaratibgina qolmay, balki o'ziga xos til, din, madaniyat kabi ko'plab detallarni rivojlantiradi. Mashhur ingliz yozuvchisi J.R.R.Tolkien singari, Jle Guin, ko'pincha, o'quvchini bu dunyo tarixi, mifologiyasi va adabiyoti bilan tanishtiradigan qo'shilgan hikoyalar yoki "ikkinchi darajali hikoyalar" usulidan foydalanadi. Bu intellektualizatsiya, asosan, sarguzashtli elementlarga ko'proq e'tibor qaratiladigan an'anaviy G'arb ilmiy fantastikasiga xos emas.

Muammoga shunday yondashish V.Le Guin ilmiy-fantastik romanlarini "qo'sh tub va qo'shimcha ma'no"ga ega bo'lgan chuqur falsafiy asarlar darajasiga olib chiqadi, yozuvchining o'zi esa uning asarlari ikki darajada: ongli va ongsiz ravishda yaratilganligini tan oladi. V.Le Guin 1983-yilda bergan intervyusida uning intellekti "yetarli darajada tarbiyalangan, biroq intellekt o'z o'rnini bilishi kerak", dedi. Xuddi his-tuyg'ular, axloqiy g'oyalar va sezgi kabi. Bilimning har xil turlari mavjud va javonlarda oqilona saralash ijodkorlik jarayoniga taalluqli emas". Uning har bir asari bu so'zlarning tasdig'idir.

An'anaviy ravishda "fantaziya" bilan bog'liq – amerikalik yozuvchi Ursula K.Le Guinning Yer dengizi haqidagi sikli: "Yer dengizi sehgari" (1968), "Atuan maqbaralari" (1971), "So'nggi qirg'oqda" (1972), "Texanu" (1992), "Boshqa shamollarda" (2002) asarlari fantastik jihatdan yondoshilgan.

Shunday qilib, ushbu ilmiy maqolaning dolzarbligi Ursula Le Guin asarlarida fantaziya janrining lingvomadaniy qiyosida ijodini o'rganishda bo'lib, uning asarlari mamlakatimizda juda kam o'rganilgan. V.Le Guinning asarlari madaniy jihatda katta qiziqish uyg'otadi, chunki muallif tuzilmaviy va muhim element sifatida afsonaga asoslangan turli dunyo va madaniyatlarni modellashtirishga qaratilgan. V.Le Guin barcha asarlarida ko'rsatilgan masalalar tub umuminsoniy qadriyatlarga taalluqli bo'lib, uning asarlari chuqur ma'naviy-tsvilizatsiya inqirozini boshidan kechirayotgan zamonaviy dunyoda alohida ahamiyat kasb etadi. Yozuvchining roman va hikoyalari ommaviy adabiyot va madaniyat doirasidan ancha oshib, zamonaviy ilmiy fantastika va fantaziyaning "yuqori" (klassik) fantastika darajasiga ko'taradi, kuchli falsafiy-estetik salohiyatga ega.

Yozuvchi Ursula Le Guin jahon adabiyotiga ilmiy fantastika va fantaziya janrida yozilgan asarlar muallifi sifatida kirib keldi. Mashhur antropolog va yozuvchi oilasida tug'ilgan va yaxshi ma'lumotli Ursula Le Guin o'ziga xos adabiy uslubni yaratdi. Har bir asarda u nafaqat hikoya qahramonlarining shaxsiy xususiyatlarini ochib beradigan hikoya chizig'ini chizibgina qolmay, balki global universal xarakterdagi savollarni ham ko'taradi. Yozuvchi madaniy manfaatlarining ziddiyatlari, inson taraqqiyotining falsafiy

yo'llari, ayollarning jamiyatdagi o'rni haqida gapiradi. Uning barcha ishlari ikkita asosiy yo'nalishga bo'lingan: ilmiy fantastika va fantaziya.

Ursula Le Guin ijodining yana bir jihati fantaziya janirining lingvomadaniy qiyosi an'analarida fantaziya janirida yozilgan romanlar silsilasi bo'lib, ularning rivojlanishi XX asrning o'ziga xos hodisasiga aylangan. Ko'pgina kitobxonlar, hatto yozuvchilar ongida "fantaziya" atamasi hikoyaning mashhur shakli bilan bog'liq bo'lib, ko'lami ancha cheklangan, lekin kitob bozorida katta talabga ega. Bir qarashda, romanlar bu tavsifga juda mos keladi va sujetida nihoyatda sodda, ular, asosan, ertak formulasiga amal qiladi. Ammo Ursula Le Guin yaratgan dunyoning soddaligi aldanchi, yozuvchi o'z-o'zini bilish, shaxs kamoloti, hayot va mamot, ezgulik va yomonlik haqidagi mulohazalar kabi muhim, murakkab va jiddiy mavzularga to'xtalib o'tadi.

Ursula Le Guin yaratgan fantaziya olami shu qadar aniqlik bilan tasdiqlangan va o'ziga xosdirki, uni har qanday o'ziga xos fazo–zamoniy voqelik bilan bog'lash qiyin. Yer dengizining tarixi, mifologiyasi va falsafasi Yer yuzidagi qadimgi xalqlarning turli falsafiy va mifologik tizimlariga tegishli bo'lgan fantastik va elementlarni organik ravishda birlashtiradi: skandinaviyaliklar, keltlar, qadimgi xitoylar, Shimoliy Amerikaning mahalliy hindulari.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Ursula Le Guin asarlari har qanday adabiy janr doirasidan tashqarida, xoh ilmiy fantastika, xoh fantastika va hokazo. Yozuvchining fikricha, yaxshi adabiyotni, jumladan, ilmiy fantastikni, umuman olganda, janr prozasi deb bo'lmaydi. Ijodiy faoliyatga ana shunday yondashuv Ursula Le Guinni boshqa fantast yozuvchilardan ajratib turadi.

Fantastik olamlarni yaratayotib, yozuvchi ularning mavjudligi uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga oladi, chunki ularning barcha g'ayrioddiylik va g'ayrioddiylikiga qaramay, bu olamlar odamlarning yagona dunyosining ajralmas qismlaridir, shuning uchun ular haqiqatdir. Qolaversa, yozuvchi madaniy tizim yaratish orqali xalq madaniyati barhayot ekan, dunyo borligini, har xilliklarga qaramay, barcha madaniyatlar, xalqlar bir-biri bilan bog'lanib, bir butunlikni tashkil etishini anglab yetadi. Bu birlikni saqlab qolish, har biri o'ziga xos bo'lgan har qanday madaniyatning yo'q bo'lib ketishining oldini olish, aloqa madaniyatlar muloqoti yordamida mumkin.

Ishning asosiy maqsadi Ursula Le Guin ijodining yana bir jihati fantaziya janirining lingvomadaniy qiyosi bo'lib, yozuvchi Ursula Le Guin nasrini lingvomadaniy qiyosi ahamiyati nuqtayi nazaridan tahlil qilishdan iborat. Bu tahlil, birinchi navbatda, yozuvchining har bir insonni ma'lum umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan lingvomadaniy qiyosining kelib chiqishiga qaytarish uchun mo'ljallangan "madaniy afsona" qurilishining xususiyatlariga taalluqlidir. Shu munosabat bilan, tadqiqotda quyidagi vazifalar hal etiladi:

- lingvomadaniy qiyosi sifatida mif nazariyasi bo'yicha materiallarni o'rganish va umumlashtirish;
- mif tipologiyasini o'rganish va adabiy afsonaning alohida turi sifatida ajratish, madaniy yo'nalishdagi yozuvchilarning asarlarida to'liq namoyon bo'ladi;
- mazkur asarlarda lingvomadaniy qiyosini qurish xususiyatlarini va ular bilan bog'liq masalalarni tahlil qilish;
- madaniyatlararo muloqot, madaniyatlarning o'zaro ta'siri va multikulturalizm muammosini, ularning sinishi.

Ushbu muammolarni hal qilish orqali Ursula Le Guin badiiy olamining o'ziga xosligi va o'ziga xosligini, shuningdek, zamonaviy dunyoning bir qator eng muhim madaniy muammolarini hal qilishga yondashuvining xususiyatlarini aniqlash mumkin bo'ladi.

Ursula Le Guin asarlarining taklif etilayotgan lingvomadaniy qiyosi tahlilining tugallangan deb hisoblash mumkin emas. Yozuvchining ijodiy yo'li davom etmoqda, u romanlar bilan birga o'zini qiziqtirgan masalalar doirasini to'ldiradigan va kengaytiradigan, ilgari ko'targan mavzularini chuqurlashtiradigan hikoyalar yozishda davom etmoqda. Yozuvchining g'oyaviy-badiiy olamiga sho'ng'ish tadqiqotchi oldida ko'plab savollar tug'diradi, shuning uchun mavzuni yanada rivojlantirish, shuningdek, bir qator tegishli tadqiqotlar zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bernardo Susan M., Murphy Graham J. (2006). Ursula K. Le Guin. A Critical Companion. Greenwood Press.
2. Bloom Harold (1987). Introduction. In Bloom, Harold (ed.). Modern Critical Interpretations. Ursula Le Guin's the Left Hand of Darkness. Chelsea House Publications, pp. 1 – 10.
3. Cadden Mike (2005). Ursula K. Le Guin Beyond Genre. Fiction for Children and Adults. Routledge. .
4. Cummins, Elizabeth (1990). Understanding Ursula K. Le Guin. University of South Carolina Press.
5. Erlich Richard D. (December 2009). Coyote's Song: The Teaching Stories of Ursula K. Le Guin. Wildside Press LLC. Archived from the original on February 3, 2021. Retrieved September 18, 2018.

6. Kuznets Lois R. (1985). High Fantasy' in America: A Study of Lloyd Alexander, Ursula Le Guin, and Susan Cooper. The Lion and the Unicorn. 9: 19–35. doi:10.1353/uni.0.0075. S2CID 143248850.
7. Le Guin Ursula. (1978). The Wind's Twelve Quarters Volume I. Granada Publishing. .
8. <https://uz.eferrit.com/biography-ursula-k-le-guin/>
9. Official website.
10. Worlds of Ursula K. Le Guin. PBS American Masters. August 2, 2019.
11. Ursula K. Le Guin papers, circa 1930, s 2018 at the University of Oregon Libraries.

**Ro'zimurodova Zarifa G'afurovna (BuxDU tayanch doktoranti (PhD);
email: zarifaruzimurodova90@gmail.com)**

“SHAYTANAT” ASARI INGLIZCHA TARJIMASIDA FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR

Annotatsiya. Mazkur maqolada badiiy matndagi uslubiy vositalar, uslubiy sinonimlar va frazeologik birliklarning badiiy tarjimada qayta yaratilishi nazariy manbalarga asoslangan holda yoritilgan. “Shaytanat” asarining ingliz tili o'g'irmasi misolida hissiy ta'sirchan iboralarni tarjima qilish usullari tahlilga tortilgan. Badiiy asar tarjimasining o'ziga xos xususiyatlari, obraz yaratuvchi vositalar manba til (MT) va tarjima tili (TT)dan olingan misollar orqali asoslangan.

Аннотация. В данной статье на основе теоретических источников освещается воссоздание в художественном переводе стилистических средств, стилистических синонимов и фразеологизмов в художественном тексте. К анализу были привлечены приемы перевода эмоционально-аффективных выражений на примере английского оборота произведения “дьявол”. Особенности перевода художественного произведения, средства создания образа основаны на примерах, взятых из исходного языка (ИЯ) и языка перевода (ЯП).

Annotation. In this article, based on theoretical sources, the reconstruction of stylistic means, stylistic synonyms and phraseological units in a literary text in artistic translation is highlighted. The methods of translating emotional-affective expressions on the example of the English translation of the work “Devildom” were involved in the analysis. The features of the translation of a work, the means of creating an image are based on examples taken from the source language (SL) and the translation language (TL).

Kalit so'zlar: konvertatsiya, lingvistik va ekstralingvistik muammolar, lingvostilistik va lingvokulturologik xususiyatlar, kalkalash.

Ключевые слова: конверсия, лингвистический, экстралингвистические проблемы, лингвостилистические и лингвокультурологические особенности, калькирование.

Key words: conversion, linguistic, extralinguistic problems, linguo-stylistic and linguo-culturological features, tracing.

Kirish. Jahon tarjimashunoslik markazlarida ilmiy adabiyotlar barobarida, badiiy adabiyotlarga ham tarjima ehtiyoji oshib bormoqda. Bu esa, o'z navbatida, aslyiat matni yaratilgan mamlakat xalqining adabiyotiga, tiliga hamda turmush tarzi va madaniyatiga qiziqishning yuksak darajada ekanligidan dalolat beradi. Badiiy tarjimada tarjima sifatini baholash usuli o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, tarjimon tomonidan manba til matni tushunish, adabiy nazariyalar ta'sirida ijodiy qayta yaratish jarayoni hisoblana-di.

Yurtimizda ham adiblarimiz yaratgan bir qator badiiy asarlar chet tillarga tarjima qilingan va qilinmoqda. Jumladan, Tohir Malikning “Shaytanat” asari 2014-yilda I.M.To'xtasinov va A.A.Hamidovlar tomonidan ingliz tiliga ag'darilgan. Bu esa o'zbek adabiyoti va shu orqali o'zbek madaniyatiga dunyo hamjamiyati tomonidan qiziqish oshayotganidan dalolat beradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). Yurtimiz va xorij olimlari tomonidan badiiy tarjimaning lingvistik va ekstralingvistik muammolariga bag'ishlangan bir qator ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan bo'lib, tadqiqotchilar badiiy tarjima tushunchasini turli nuqtayi nazardan, turlicha tushuni-shadi. Kristian Nord: “Tarjimon har xil turdagi bilimlarni tarjima qilish va ushbu muammolarni hal qilish uchun bilimlardan foydalanish qobiliyatiga ega”, deb hisoblaydi.

Q.Musayev, M.Xolbekov, R.Shirinova, U.Yo'ldoshev, Z.Teshaboyeva, D.Hoshimova, A.Sharipova, R.Kasimova [6.169] singari olimlar badiiy matndagi uslubiy sinonimlar, tasviriy vositalar, frazeologik birliklarning ifodalanishi, milliy-madaniy xususiyatlarda borliq milliy manzarasining berilishi, badiiy tarjimaning lingvostilistik va lingvokulturologik jihatlariga, etnografizmlarning berilishiga doir izlanishlar olib borishgan.

Tadqiqot metodologiyasi (Research methodology). A.Karter va V.Nash tildagi badiiylik haqida badiiy matnlarda aniqlanishi mumkin bo'lgan badiiylik belgilari mavjud bo'lishi, stilistik bo'yoqdorlikka, yaratilgan qo'shimcha ma'nolarga va ularning matnga aloqadorligi bo'lishi singari muhim fikr-mulo-

hazalarini ta'kidlab o'tishadi [16.141]. Uslubiy bo'yoqdorlikdan foydalanishda esa badiiy matn va badiiy asarlar tarjimasiga alohida e'tibor qaratish lozim, chunki u mohirlik va san'atkorlikni taqozo qiladi. Badiiy asarlar tarjimasiga uchun til bilishning o'zi kifoya qilmaydi, buning uchun ijodkorlik iste'dodi va badiiyat ilmidan xabardorlik ham talab etiladi. Shuning uchun ham badiiy asarlar tarjimasiga shoir-yozuvchilar yoki badiiy ta'bdan bobahra kishilargina qo'l urishadi [2.3].

San'at namunalarining biri bu badiiy matn sanaladi. Badiiy matnda berilgan har bir so'z, ko'pincha, bir necha ma'no kasb etadi, so'zlarning bir-biriga mosligi, ularning estetik vazifasiga e'tibor beriladi va shu sababdan ham ular bir necha badiiy vazifani bajara oladi. Badiiy matn obrazlilikka asoslanib, badiiy tasvir vositalariga boy holatda, turli uslubda yaratiladi hamda unda tilning barcha boyliklaridan keng foydalanish o'ziga xos ta'sirchanlik kasb etadi. Xuddi shu xususiyatlarni tarjima matnida ham bera olish asarning nafaqat g'oyaviy mazmuni, balki estetik ma'nosini ham tarjimada qayta yaratishga erishish, badiiy asar ma'nosi asl nusxa o'quvchisi olgan zavq, taassurotni tarjima o'quvchisi ham his etishiga imkon yaratadi. Frazeologik birliklar nutqning badiiy-tasviriy vositalari sifatida fikrning oddiy, betaraf bayonidan ko'ra ko'proq turli-tuman uslubiy vazifalarni ifoda etishda ishtirok etadilarki, ularning ushbu vazifalarini hisobga olgan holda, ularni tarjimada bejirim talqin etishga intilish badiiy asarning obrazli hamda hissiy-tasviriy qiymatini qayta yaratish yo'lidagi jonbozlik bilan chambarchas bog'liqdir [6,352].

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Frazza, frazeologiya, frazeologizm so'zlarining barchasi yunonchadan tarjima qilingan bo'lib, o'ziga xos xususiyatga ega fraza – 1. Iboralar, jumla, gap. 2. Qanotli ibora [12.182], hikmatli barqaror birikma frazeologiya – ana shu barqaror so'z birikmalari – iboralar majmuyi, frazeologizmlar – turg'un so'z birikmalari ma'nolarini bildiradi.

Lisoniy birliklarni bir tildan ikkinchi tilga har doim ham aynan o'zidek tarjima qilish imkoniyati mavjud emas, bir tilga xos bo'lgan so'z ikkinchi tilda mavjud bo'lmasligi mumkin. Badiiy matnda aksariyat predmetlar, voqea-hodisalar, asar personajlarini tasvirlashda stilistikaning roli juda muhim hisoblanadi.

Turg'un birikmalarni asliyat tildan ikkinchi til (maqsadli til)ga kodlash jarayoni, asosan, to'rt xil yo'l bilan amalga oshiriladi [6.183].

1. Ekvivalentlar vositasida tarjima qilish. Tarjimada bir-birlarini bemalol almashtira oladigan birliklar ekvivalentlar sanaladi. Bunday birliklar moddiy jihatdan bir-biriga yaqin bo'lib, ikki til frazeologik ekvivalentlari ma'no va uslubiy vazifasi jihatidan ko'p hollarda bir-birlariga mos keladi. Frazeologik birliklar negizida bir xil hayotiy tajribaga asoslanish bunga sababdir.

2. Muqobil variantlar yordamida tarjima qilish. Frazeologik birlikning tarjima tilida adekvatligini ta'minlash uchun asliyatda qo'llanilgan turg'un iboraga ekvivalent frazeologizm topilmagan taqdirda, aksariyat hollarda muqobil variantlar vositasida tarjima qilinadi. O'zaro muqobil munosabatidagi frazeologik birliklar ko'p hollarda ikki tilda ma'no va uslubiy vazifa jihatidan mos keladi, ammo ba'zan leksik tarkib jihatidan tayanch komponentlari qisman yoki butunlay farqlanishi mumkin.

3. Kalka (so'zma-so'z tarjima) usulida tarjima qilish. Kalka (frans. Caique – nusxa, taqlid) – boshqa til lug'aviy birligidan ona tili vositalari asosida nusxa ko'chirish (so'zma-so'z tarjima qilish) natijasida yuzaga kelgan so'z, atama yoki birikma. Kalkaning ma'noviy va shakliy ma'noviy turlari mavjud. Ma'noviy kalka so'zning ohangi va so'z yasash shakli jihatidan ona tiliga mansub bo'lsa-da, ma'no jihatdan chet so'zlarning ta'siriga bog'liqdir. Shakliy-ma'noviy kalka o'zga tildagi ma'noni ifodalay oladigan unsurlar asosida ona tilida yangi lug'aviy birlik hosil qilishdir. To'liq va yarim shakliy-ma'noviy kalkalar bo'ladi. To'liq kalkada ona tilining o'z ichki imkoniyatlaridan foydalaniladi. Yarim kalka har ikki til unsurlaridan tashkil topadi. Kalka ijodiy jarayonda paydo bo'ladigan til hodisasi, shuning uchun tarjimondan katta mahorat talab qiladi va u tilni boyitishning muhim omillaridan biri.

4. Tasviriy usulda tarjima qilish. Tarjima jarayonida muayyan frazeologik birliklarga duch kelish mumkinki, ularni ekvivalent usulda ham, muqobil variant usulida ham, kalka yordamida ham ikkinchi tilga tarjima qilishning imkoni topilmaydi. Bunday hollarda mutarjimlar noiloj tarjima amaliyotining tasviriy usuliga yuzlanadilarki, mazkur usul yordamida birliklar ma'nolari erkin ma'nodagi so'z yoki so'z birikmalari vositasida aks ettiriladi.

Q.Musayev "Ushbu holatlarda asliyatdagi frazeologik birliklar tarkibida mujassamlashgan uslubiy vazifalarning qayta yaratilishi haqida so'z bo'lishi mumkin emas. Ushbu holatlarda bayon etilgan fikrning ta'sir kuchi pasayadi, aniqligi yo'qoladi", deb ta'kidlaydi (6.240).

Frazeologik birlikning har qanday turi ma'lum mikrotizim sifatida tarjimada ifodalanishi mumkin. Bunda turg'un birikmalarni tarjima qilish jarayonida E.S.Aznaurova ta'kidlaganidek "...In the process of translating phraseological units functional adequate linguistic units are selected by comparing two specific linguistic principles. These principles reveal elements of likeness and distinction. Certain parts of these systems may correspond in form and content (completely or partially) or have no adequacy", funk-

sional adekvat til birliklari ikkita o'ziga xos lingvistik tamoyilni taqqoslash orqali tanlanadi. Ushbu tamoyillar o'xshashlik va farqli elementlarini ochib beradi. Ushbu tizimlarning ayrim qismlari shakl va mazmun jihatdan to'liq yoki qisman mos kelishi yoki adekvati bo'lmashligi mumkin. E.S.Aznaurova frazeologik mutanosiblikning asosiy turlari sifatida quyidagilarni ta'kidlab o'tgan:

I. Complete conformities (to'liq mutanosiblik).

II. Partial conformities (qisman mutanosiblik).

III. Absence of conformities (nomutanosiblik).

Yuqorida tarjimashunoslik nuqtayi nazaridan, frazeologik birliklarning qayta yaratilishi va tarjima usullari haqida nazariy ma'lumotlarga ega bo'ldik. Tilshunoslik sohasida ham frazeologiyadan foydalalanish doirasi to'g'risida bir qator qarashlar bilan tanishishimiz ularni kengroq tushunushimizga xizmat qiladi. Frazeologik birliklar ma'nosi tarkibidagi leksemalar ma'nosiga bog'liq bo'lmay, balki yaxlitligicha bir ma'no beruvchi so'zlar bog'lanmasi, qolaversa, ular turg'un so'z bog'lanmasi hisoblanib, obrazli ifodalangan bo'ladi, aksariyat o'rinlarda, ibora til birligi sifatida so'z singari ma'no kasb etadi hamda gapda so'z yoki so'z birikmasiga alternativ mavjudligi sababli atamalik xususiyatiga ega bo'lishi mumkin. Keltirilgan tushuncha va ta'riflarni misollar orqali quyidagi jadvalda yaxlitlashga harakat qilamiz.

Tohir Malikning “Shaytanat” asarida qo'llanilgan frazemalarning tarjimada berilishi		
	Asliyat tili	Tarjima tili
Ekvivalent vositasida tarjima qilish	1. Лекин кўнглимда кир сақлаб қолмаганман.	But I never keep pain in my heart.
Muqobil variantlar yordamida tarjima qilish	1. Бекор айтибсан. Мен девор бўлмаса кўчани кўрадиган одамман. 2. Ўжарлик қилма, бурнига сув киргандир.	You are lying. I am clever and I can see outside at home. - Do not be obstinate.
Kalkalash usulida tarjima qilish	1. Улар бир ўқ билан икки қуённи уришмоқчи. 2. Ҳозирча жим. Без бўлиб ўтирибди. Парвойи фалак. 3...Бу ишни Келдиевга топширдим. Таннийсиз-а, аммамнинг бузоғи.	They want to aim two hares by the one bullet. Presently, he is silent. He is setting as a gland. His minds fly away. 3. ...I have given that work to Keldiyev I think you know him, like my aunt's cow.
Tasviriy usulda tarjima qilish	1. Ҳа, тинчликми, қовоғингдан қор ёғиб турибди. 2. Анвар жиннихонадан чиқиб келганидан бери унинг ичини ит таталарди. 3. Мен тупурган тупугимни қайтиб оғзимга олмайман, – деди Асадбек. 4.“Тўйимизни ўзингиз қизитиб берасиз, айтганингиздан бир сўм кам берган – номард”, деб гап бошлашининг ўзидаёқ Элчиннинг жони ҳалқумига келди.	What has happened? Why are you so sad? Anvar was suffering a lot since he had left the mad-house. Asadbek said “I will never change my decision”. You will service in our wedding, if I give you a less money, I would be a villain”. Elchin didn't like his words, but he was calm.

Jadvaldagi dastlabki misolimizda adib tasvirning aniqligi va obrazlilikini ta'minlashda foydalanilgan *ammamning buzog'i* iborasi orqali kitobxonga qahramonning berilgan topshiriqni sekin va sust bajaradigan shaxs sifatida tanitgan. Tarjimada mazkur ibora *like my aunt's cow* tarzida ifodalaniib, denotativ ma'noda *ammamning buzog'iga* o'xshagan degan ma'noni anglatib kelmoqda. Bu esa tarjima tili retsipientiga erish tuyulishi mumkin. Shu maqsadda ingliz tili lug'atlaridan aynan shu iborani topishga harakat qildik (*as*) *slow as a snail* [21] – *slow or sluggish; not fast at all*, ya'ni sekin yoki sust, umuman, tez emas, ma'nosini anglatuvchi variantini qidirib topdik. Barchamizga ma'lumki, shilliq qurt (snail) sekin harakatlanuvchi mavjudot hisoblanadi. Ingliz tilidagi ekvivalentda aynan ushbu so'zning berilishi kitobxon tasavvurida xuddi shunday xarakterdagi qahramonni gavdalantirishga imkon beradi. Shuningdek, o'zbek tilidagi frazeologik birlikning ingliz tilida qisman mutanosiblik kasb etgani namoyon bo'ladi.

Chunki o‘zbek tilidagi ibora tarkibida keltirilgan buzog‘ leksemasi ingliz tilidagi snail so‘zi bilan almashtirilmogda.

Shaytanat asaridagi dialoglarning birida Kesakpolvon bosh qahramon Asadbekka “Ўжарлик қилма, бурнига сув киргандир” jumlasini muqobil variantlar yordamida qilingan tarjimada “Do not be obstinate” tarzida berilishi xuddi o‘sha tushunchani bera olgan. Ammo gapning davomida “Shaytanat” asaridagi boshqa bir qahramon Sharif Namozovga nisbatan ishlatilgan “burniga suv kirgandir” iborasi “manman”, “havolangan”, “kibrli” degan ma’no anglatgan va bu tarjimada aks ettirilmagan. Ingliz tilidagi lug‘atlardan shu so‘z ma’nosini izlaganimizda *get on one’s high horse* [22] – *an arrogant and unyielding mood or attitude*, ya’ni, takabbur va qat’iy kayfiyat yoki munosabat tushunchasini beruvchi idioma semantik jihatdan mos keluvchi birlik sifatida berilganligini aniqladik. Tarjimada jumlaning tushurib qoldirish o‘rniga topilgan idiomadan foydalanilsa, “Shaytanat” asaridagi qahramonlar holati ingliz kitobxoniga tushunarli yetkazilgan bo‘lardi.

“Bir o‘q bilan o‘n quyovni urmoq” iborasi til birligi sifatida “juda epchil, abjir” kabi so‘zlar ketma-ketligiga teng kela oladi. Bu ibora tarjimasini kalkalash usulida *They want to aim two hares by the one bullet* tarzida berilgani ham adekvatlikni ta’minlagan, ham tarjima tilida lug‘at tarkibining boyish imkoniyatini yaratgan.

“Shaytanat” asarida personajning nihoyatda ezilganligi, juda horg‘inligini badiiy vosita yordamida obrazli ifoda etishda Tohir Malik *унинг ичини ум таталарду* frazeologizmi orqali beradi. I.M.To‘xtasiyov va A.A.Hamidovlar tarjimasida *was suffering a lot* orqali ifodalashganini kuzatamiz.

“...Элчиннинг жони ҳалқумига келди” gapini tasviriy usulda tarjimada aks etganligining guvohi bo‘ldik. Bu frazani ingliz tili lug‘atida *biror narsadan xijolat bo‘lgan yoki g‘azablangan kishi* ma’nosini ifodalovchi *hot under the collar-embarrassed or angry about something* iborasini uchratdik (23).

Tarjimashunoslikka oid nazariy manbalarda ekvivalent tarjimada tasviriy tarjimaga qaraganda ma’no bo‘yoqdorligi va asliyat ruhi ko‘proq saqlanishi ta’kidlangan.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, badiiy asarda ishlatilgan frazeologik birliklar ma’lum bir stilistik vazifani bajaradi, ularning tarjimadagi mazmuni muallif nazarda tutgan maqsadning qayta yaratilishida ifoda ixchamligini ta’minlaydi. Ona tilidagi asar, hikoya, pyesa, romanlardan ta’sirlanganimizdek, tarjima manbalaridan ham xuddi shunday ta’sirlansakgina tarjimonda o‘z oldiga qo‘ygan mas’uliyatli vazifasiga to‘g‘ri yondashgan hisoblanadi, chunki tarjimondan asarni tushinish, undagi asosiy g‘oyalarni anglash, bu g‘oyalarni o‘z ona tilidagi kabi bera olish talab etiladi. Tohir Malikning “Shaytanat” asari asliyati va tarjimasida frazemalar turli uslubiy vazifalarda qo‘llanilgan bo‘lib, ushbu elementlar bir tomondan, qahramon individualligini, ikkinchi tomondan, badiiylikni kuchaytirishga xizmat qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. М., “Наука”, 1966, 571 с.
2. Азнаурова Э. Бадий таржиманинг асосий проблемалари. Таржима санъати (маколалар тўплами). Т., 1961, 3-бет.
3. Бўриева Н.Қ. Шекспир сонетларининг бадий услуби ва уни таржимада қайта тиклаш масаласи. Филол.фанл.фалс.докт. (PhD) диссер. авторефер., Самарқанд, 2020, 48-бет
4. Задорнова В.Я. Словеснохудожественное произведение на разных языках как предмет лингвопоэтического исследования. Автореф.докт.диссер., М., 1992, с. 40.
5. Липгарт А.А. Лингвопоэтическое исследование поэтического текста: теория и практика. Автореф. докт.диссер., М., 1996, 145 с.
6. Мусаев К. Таржима назарияси асослари. Дарслик, Т., “Фан”, 2005, 305-бет.
7. Касимова Р. Ўзбек тўй ва мотам маросим фольклори матнларининг инглизча таржимасида этнографизмларнинг берилиши. Филол. фанл.фалс.докт. (PhD) дисс., Тошкент, 2018, 169-бет.
8. Касимова Р.Р. Адабиёт психологияси. “Сўз санъати” халқаро журнали, 4-жилд, 4-сон, 2021, 59-бет.
9. Касимова Р.Р. Психология, адабиётшунослик ва таржимашунослик узвийлиги. “ЎЗМУ хабарлари”, Тошкент, 2021, 1/6/2-сонлари, 248 – 251-бетлар.
10. Шу манба.
11. Мусаев К. Таржима назарияси асослари. “Фан», 2005, 143-бет.
12. Ergash O., Xodjayeva N. Tarjima nazariyasi (o‘quv qo‘llanma). T., 2020, 182-bet.
13. Kasimova R.R., Ziyadullayev A.R., Ziyadullayeva A.A. The Nature of the Culture Bound Words and Problems of Translation. International Scientific Journal Theoretical and applied science, MA.USA. Published: 31.03.2021, p. 401 – 405.
14. Ra’no Raxmatulloyevna Kasimova. Tarjimaning mutarjim psixologiyasiga ta’siri. International scientific-methodological electronic journal “Foreign Languages in Uzbekistan”, 2022, № 4 (45), p. 110 – 122.

15. Vinay J.P. and J. Darbelnet. Stylistique comparée du français et de l'anglais. - Paris: Didier: Georgetown University Press, 1977, 331 p.
16. Xayrulloeva N. (2021). Mary alice monroe: «green» novels and achievements. Центр научных публикаций (buxdu. uz), 8(8). http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/4114/2603.
17. Carter A., Nash W. Language and literariness. Prose Studies, 1983, pp. 123 – 141.
18. Scavée P. and Intravaia, P. Traité de Stylistique Comparée. Analyse Comparative de l'Italien et du Français, Bruxelles: Didier, 1979, 225 p.
19. Xayrulloeva N. (2022). Эко-фикшн жанри тараққийи (Америка адабиёти мисолида). Центр научных публикаций (buxdu. uz), 25(25). https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/8401 (2021). The characterization of mary alice monroe's fiction. Центр научных публикаций (buxdu. uz), 8(8).
20. [https://idioms.thefreedictionary.com/\(as\)+slow+as+a+snail](https://idioms.thefreedictionary.com/(as)+slow+as+a+snail).
21. <https://www.merriam-webster.com/dictionary/high%20horse>.
22. <https://dictionary.cambridge.org/dictionary/english/hot-under-the-collar>.

Kadirov Ramz Turabovich (O'zbekiston davlat San'at va madaniyat instituti mustaqil izlanuvchisi)
“ORTOLOGIYA” ART TEXNOLOGIYASI TALABA-AKTYORLARNING SAHNA NUTQIGA
OID BILIM KO'NIKALARINI TAKOMILLASHTIRISH TEXNOLOGIYASI SIFATIDA

Annotatsiya. Mazkur maqolada talaba-aktyorlarning sahna nutqiga odi bilim va ko'nikmalarini takomillashtirishda “Ortologiya” art texnologiyasidan foydalanishning spetsifik ahamiyati tadqiq etilgan bo'lib, maqolada “Sahna nutqi” fani metodikasi, fanning spetsifikasi, “Ortologiya” art texnologiyasining mazmun-mohiyati va texnologiyaning nazariy-ijodiy pag'onlari yoritilgan.

Аннотация. В данной статье исследуется особое значение использования художественной технологии «Ортология» в совершенствовании знаний и навыков сценической речи студентов-актеров, освещаются творческие поля.

Annotation. In this article, the specific importance of using “Orthology” art technology in improving the knowledge and skills of stage speech of students-actors is researched. creative fields are illuminated.

Kalit so'zlar: san'at, teatr, sahna, talaba-aktyor, sahna nutqi, bilim, ko'nikma, Ortologiya, Ortologiya ta'limoti, “Ortologiya” art texnologiyasi.

Ключевые слова: искусство, театр, сцена, студент-актёр, сценическая речь, знания, умения, ортология, обучение ортологии, художественная технология «Ортология».

Key words: art, theater, stage, student-actor, stage speech, knowledge, skills, Orthology, Orthology teaching, “Orthology” art technology.

Kirish. Yangilanayotgan O'zbekiston ma'rifiy hayotida ta'lim oluvchi va ta'lim beruvchi o'rtasidagi o'zaro hamkorlik yangicha fikr, yangicha tafakkur hosil qilish bilan birgalikda, yangicha tadqiqot orqali innovatsion metodlarni qo'llash, ta'lim tizimiga targ'ib etish va buning in'ikosida yangi dunyoqarashni o'zlashtirish zaruriyatini taqozo etdi. Bu borada mavjud muammolar yechimining ilmiy asosda ishlab chiqilishi va ta'limiy jarayonlarni tubdan isloh etilgan metodologiya asosida tashkil etilishi natijasida talabalarga tushunarli va qiziqarli tarzda bayon qilingan har bir tadqiqot katta ijtimoiy-siyosiy va ma'rifiy ahamiyat kasb etib, talabaniq mustaqil tarzda kasbiy va ilmiy izlanishlarga keng yo'l ochib beradi.

Jamiyatimizda sog'lom fikr, sog'lom kuch ustuvor bo'lishi uchun biz ma'naviy hayotimizni yuksaltirish, aholi, avvalo, yoshlarimizni turli zararli ta'sirlardan asrash, ularni har tomonlama yetuk insonlar qilib tarbiyalash haqida muntazam o'ylashimiz, faol ish olib borishimiz zarur. Bu borada amalga oshirayotgan islohotlarimiz, xususan, ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish, madaniyat va san'at tashkilotlari, ijodiy uyushmalar va ommaviy axborot vositalari faoliyatini yanada rivojlantirish, soha xodimlari mehnatini munosib qadrlashga qaratilgan amaliy chora-tadbirlar sizlarga yaxshi ma'lum [1.229].

Tahlil. Bugungi globallashuv jarayoni va ommaviy madaniyatning g'ayriinsoniy tamoyillari inson qalbi va tafakkurini egallashga urinayotgan davr, zamon va makon mezonida kelajagimiz vorislari bo'lmish yosh avlodning ma'naviy kamolotiga erishishda aktyorning spektakl vaqtida ijro qilgan so'zidagi maqsad, mazmun, g'oya, ichki harakat, mohiyat muallif va rejissorning zehniga, e'tiboriga bog'liqligini unutmasligimiz zarur. Adabiy til me'yorlariga amal qilib, ijro qilingan nutq o'zining g'oyat ta'sirchanligi bilan milliy madaniyatimiz va ma'naviyatimiz yuksalishida muhim ahamiyat kasb etib, bo'lajak teatr sohasi xodimlari uchun sharaf-la intilishi lozim bo'lgan burch va sadoqat belgilaridan biridir.

San'at ta'limi, xususan, talaba-aktyorlarni o'qitishda “Sahna nutqi” fani asosiy mutaxassislik fani hisoblanib bo'lajak aktyorlarning sahnaviy nutqi, aniq va ravon talaffuzi, nutqning badiiyligi va ta'sirchanligini ta'minlaydigan fandır.

“Sahna nutqi” fani – san’at ta’limining yetakchi ijodiy fanlaridan hisoblanib, bevosita aktyorlik mahorati bilan birga, talaba-aktyorlarni tarbiyalash yo‘lida teatr san’atiga xizmat qiladi. “Sahna nutqi” fani – bu aktyorning so‘z harakati. Ya’ni, muallif tomonidan yozilib, rejissor tomonidan vazifalanib, aktyor tomonidan sahnada turib ijro qilinadigan nutqdir.

Teatr sahnasida eshinishi shart bo‘lgan so‘z va so‘z birikmalarini aniq va ravon, ma’lum bir g‘o-yani o‘zida ifodalovchi, o‘z maqsadiga ega bo‘lishi shart. Ana shu vazifani bajaruvchi fan “Sahna nutqi” fanidir [7.7].

Sahna nutqi aktyor nutqiy faoliyatining foydali hamda ta’sirchan, o‘tkir bo‘lishi uchun kurashadi. Aktyorning nutqiy madaniyati, uning nutqiy faol holatini o‘stirishda nutqiy mantiq qonuniyatlaridan oziqlangan holda ish ko‘radi. Shuning uchun ham aktyorning nutqiy mahorati va qobiliyatini takomillashtiruvchi sahna nutqini ommaviy nutqdan farqlash lozim.

Aktyor uchun obraz tilini ochishda nutq birlamchi vosita hisoblanib, u nutq a’zolarining harakati jarayonida paydo bo‘ladi. Ruhiy hodisa sanalgan tilning ifoda vositalari nutq ixtiyoriga o‘tgach haqiqatga aylanadi. Nutq ikki xil bo‘ladi: ichki nutq va tashqi nutq. Nutq kishi ongida hosil bo‘lib, hali reallashmagan til usullaridan tashkil topsa, bu ichki nutqdir. Bunga kishilar og‘iz ochmay fikr yuritishlari, munozara qilishlari, o‘ylashlari, munosabat bildirishlari misol bo‘la oladi. O‘pkadan kelgan havoning ovoz organlariga ta’siri natijasida aniq tovushlar yig‘indisidan hosil bo‘lgan nutq tashqi nutqdir. Til vositalaridan hamma qatlamlar foydalanaveradilar, ammo nutq ma’lum bir qatlamning manfaatlarini ko‘zlab tuziladi. Demak, sahna nutqi aktyor tilidir.

Sahna nutqi teatr san’atiga xizmat qilib, spektaklning g‘oya va maqsadini aktyor tomonidan tomoshabinga yetkazishda muhim rol o‘ynaydi. Misol uchun, raqqos o‘zining plastik harakatlari orqali o‘z g‘oyasini tomoshabinlarga singdirsa, musiqachi musiqa asbobi yordamida ijro qilgan kuyi bilan yetkazadi, haykaltaryosh yaratgan haykali bilan, aktyor esa muallif va rejissor g‘oyasi hamda o‘z maqsadini aynan so‘z harakati bilan ifodalaydi. Sahna nutqi orqali aktyor spektakl g‘oyasini ochib beradi. So‘z harakati asar tahlili orqali kelib chiqadi.

Teatr sahnasida aktyorning vazifasi sahnaviy obraz yaratishdan iborat bo‘lib, qahramonning o‘ziga xosligi, dunyoqarashi, fikrlashi va mushohada qilish yo‘llari, jamiyatdagi o‘rni, ma’lumoti, madaniyat darajasi, xarakteri kabi xususiyatlarga bog‘liq. Qahramonning nutqi esa sahna nutqi qonuniyatlaridan kelib chiqib, obraz tili va talaffuzi, nutqining tempo-ritmi, ohangi asosida shakllanadi va rivojlantiriladi. Natijada yaxlit badiiy obraz yaratiladi. Bu jarayonda aktyordan har bir so‘zning mohiyati, tub ma’nosini ochish talab etiladi.

Talaba-aktyorlarning sahna nutqiga oid bilim va ko‘nikmalarini takomillashtirish muammosi ijtimoiy xarakterga ega bo‘lib, “Sahna nutqi” fanining asosiy predmeti – bu til, ona tili, qolaversa, sahnaning tili demakdir. “Sahna nutqi” fani Respublikamizda faqat O‘zbekiston davlat San’at va madaniyat instituti va uning filiallarida bo‘lajak aktyor va rejissorlarga o‘qitiladi va bevosita aktyorlik va rejissorlik mahoratini to‘ldiruvchi fan sifatida spetsifik metodikaga ega fanidir.

Pedagog-tadqiqotchilar N.Aliyeva [2], L.Xo‘jayeva [9], S.Inomxo‘jayev [3; 4], A.To‘laganov [7], A.Nosirova [5.6], G.E.Xalikulova [8], M.K.Xodjimato‘va [10] kabilarning ilmiy tadqiqot va o‘quv-uslubiy ishlarida “Sahna nutqi” fanining nazariy-amaliy asoslari yoritilishi bilan birgalikda talaba-aktyorlarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan uslubiy tavsiyalar berilganligi, o‘qitish metodikasi-ning o‘ziga xos jihatlari alohida tadqiq etilganligi bilan metodologik xarakter kasb etadi.

“Sahna nutqi” tushunchasi talaba-aktyorlarning nutqiy o‘ziga xosliklari, ifoda usullari, jarangdor ovozga erishish, uning hajmi, yutuq va xatolarini o‘rganish, kamchiliklarini esa bartaraf etish holatlarini anglatadi hamda aktyorning ta’sirchan nutqiy xarakter orqali sahnaviy obraz yaratishdagi rol ustida ishlash jarayonida muhim hisoblanadi. Sahna nutqi qay tarzda bo‘lmasin tadqiqotchi K.Stanislavskiy aytganidek, “Nutqdan o‘zingizgina rohatlanib qolmay, so‘z va ohanglarni tinglovchining qulog‘iga syezdirmasdan quyib qo‘yish kerak”ligini o‘rgatadi [11.468]. Bu esa talaba-aktyorlarda sahna nutqiga oid bilim va ko‘nikmalarni takomillashtirishni talab etadi.

Natijalar. Tajribalar shuni ko‘rsatadiki, ovoz imkoniyatlari past yigit-qizlar, talaba-aktyor bo‘lib, kuchli, o‘tkir mavjud o‘quv dasturlaridan o‘tib ham, qo‘shimcha darslarga qatnab ham, istak-xohishlariga qaramay o‘rtamiyonaga yaqin ijro imkoniyatlariga erisha oladilar. Natijada ular teatr sahnasida to‘laqonli rol ijro eta olish darajasiga yetolmay, san’atning boshqa turlarida kino (dublyaji bor), serial, boshlovchilik (mikrofon bor) bilan cheklanadilar. Shu sababli kirish imtihonlarida ishtirok etuvchi sahna nutqi mutaxassislari tabiiy ovoz, buzilmagan ovoz, sahnaviy ovoz, ovoz kuchi, tembri, parvozi, eshinishi va anglash darajasi kabi elementlarga jiddiy e’tibor qilishlari lozim.

Talaba-aktyorning sahna nutqini takomillashtirishga qaratilgan nazariy va amaliy mashg'ulotlar guruhli, kichik guruhlarda tashkil etilishi bilan birgalikda, har bir talabaning ijodiy iikoniyatlarini rivojlantirishga qaratilgan individual mashg'ulotlarga e'tibor qaratish zarur.

Talaba-aktyorlarning sahna nutqiga oid bilim va ko'nikmalarini takomillashtirishda "Ortologiya ta'limoti" fundamental xarakterga ega bo'lib, ortologiya bu nutq haqidagi ta'limotdir. Bu ta'limot ritorika, sofist, nutq madaniyati, og'zaki nutq, muomala madaniyati, muloqot uslublari, notiqlik san'ati, jonli so'z, badiiy so'z, ifodali o'qish, sahna nutqi, nutq texnikasi kabi yo'nalishlarni qamrab olib, ta'limotning yaxlitligini ta'minlaydi.

Ortologiya nafaqat nutq ta'limoti, balki shaxs tomonidan shakllantirilgan matnning ifodaviy ko'rinishi bo'lib, psixoestetik hodisa hisoblanadi. Shuning uchun unga namunaviy nutq sifatida baho berilganda tinglovchiga ko'zda tutilgan maqsadning yoki aytmoqchi bo'lgan muddaoning to'liq borib yetishi, ularga ma'lum ta'sir o'tkazishi nazarda tutiladi. Bu vazifalarni amalga oshirishda nutq oldiga ma'lum talablar qo'yiladi. Bular grammatik jihatdan nutqning to'g'ri tuzilishi, so'zlar ko'zlagan mazmun ma'noni aks ettirishi, yorqin ta'sirchan his-hayajonli bo'lishni taqozo etadi.

Ortologiya sahna nutqiga qaraganda keng qamrovli bo'lib, o'ziga xos xususiyatlarga ega ta'limotdir (1-rasm)



1-rasm. Ortologiyaning xususiyatlari.

Talaba-aktyorlarning sahna nutqiga oid bilim va ko'nikmalarini takomillashtirish bo'yicha olib borilayotgan tadqiqot yuzasidan talaba-aktyorlar nutqining to'g'riligi, aniqligi, mantiqiyliigi, tozaligi, ta'sirchanligi, badiiyliigi ta'minlashda "Ortologiya" art texnologiyasi tavsiya etiladi (2-rasmga qarang).

Maqsad: talaba-aktyorlarning sahna nutqiga oid bilim va ko'nikmalarini takomillashtirish			
	Pog'ona	Mazmuni	Shakl, metod va vositalari
1	SARALASH	Abituriyentlarni o'qishga saralash: kasbiy (ijodiy) imtihon	Individual, suhbat, ijrochilik mahorati, aqliy hujum
2	TANISHUV	Talaba-aktyorning ijtimoiy-ma'naviy va badiiy qiyofasi hamda ijodiy imkoniyati bilan tanishish	Individual, guruhli, ommaviy, fikrlar hujumi, o'z-o'zini baholash, badiiy-ma'rifiy asarlar, multimedia vositalari
3	NAZARIY	O'quv mashg'ulotlari: ma'ruza, amaliy, individual, repititsiya; mustaqil ta'lim	Guruhli, individual, o'z-o'zini tahlil etish, o'z-o'zini baholash, o'z-o'zini nazorat qilish, ijrochilik mahorati, multimedia vositalari
4	AMALIYOT	Malakaviy amaliyot	Individual, guruhli, suhbat, kuzatish, ijrochilik mahorati, tajriba
5	YAXLITLIK	Progon, bosh progon, yakuniy ko'rik, diplom spektakli	Ommaviy, guruhli, individual, mashq, ijrochilik mahorati, namoyish etish, mushohadali tajriba, suhbat

6	BAHOLASH	Ijodiy ko‘rik va muhokamalar	Ommaviy, guruhli, individual, bahs munozara, fikrlar hujumi, kuzatish, badiiy vositalar
7	HAMKORLIK	Professional teatrdagi ijodiy hamkorlik, malaka oshirish	Guruhli, individual, ijodiy jarayonlar, ijrochilik mahorati, kuzatish, tajriba, klaster, badiiy vositalar, suhbat, bahs munozara
Natija: sahna nutqini mukammal egallagan aktyor			

2-rasm. “Ortologiya” art texnologiyasi.

Talaba-aktyorlarning sahna nutqiga oid bilim va ko‘nikmalarini takomillashtirishga qaratilgan “Ortologiya” art texnologiyasi 7 pog‘onadan iborat bo‘lib, talaba-aktyorning institutga o‘qishga qabul qilinishidan boshlab professional aktyor sifatida teatrlarda faoliyat yuritishi va malaka oshirish jarayonigacha bo‘lgan davrlarni qamrab olgan.

Xulosa va tavsiflar. “Ortologiya” art texnologiyasi oddiylikdan murakkablikka tamoyiliga asoslanib, muhim nazariya va amaliyotni hamda ijodiy ko‘nikmalarni shakllantiruvchi, rivojlantiruvchi pedagogik jarayondir.

“Ortologiya” art texnologiyasi ta’limning uzluksizligi va uzviyligini ta’minlashda muhim ilmiy-ijodiy jarayon bo‘lib, fan va ishlab chiqarish integratsiyasini mustahkamlash kafolatidir.

Talaba-aktyorlarda sahna nutqiga oid bilim va ko‘nikmalarni takomillashtirishda “Ortologiya” art texnologiyasi nazariy va ijodiy xarakterga ega bo‘lib, talaba-aktyorning professional aktyor sifatida shakllanishining tizimli kafolatidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. Asarlar, 2-jild, Toshkent, “O‘zbekiston”, 2018, 229-bet.
2. Aliyeva N. San’atdagi hayotim. Toshkent, “O‘qituvchi”, 1975.
3. Inomxo‘jayev S. Badiiy o‘qish asoslari. Toshkent, “O‘qituvchi”, 1973, 180-bet.
4. Inomxo‘jayev S. Notiqlik san’ati asoslari. Toshkent, “O‘qituvchi”, 1982, 157-bet.
5. Nosirova A. Jonli so‘z san’ati asoslari. O‘quv qo‘llanma, Toshkent, “Musiqqa”, 2009, 300-bet.
6. Nosirova A. Sahna nutqi. Darslik, Toshkent, “Fan va texnologiya”, 2012, 220-bet.
7. To‘laganov A. Sahna nutqi. Darslik, Toshkent, “Musiqqa”, 2010, 326-bet.
8. Xalikulova G.E. O‘zbek tarixiy dramasi talqinida sahna nutqi masalalari (1980–90-yillar). Dis. ... san. f.an.nom., Toshkent, O‘zbekiston Badiiy akademiyasi San’atshunoslik ilmiy tadqiqot instituti, 2004, 184-bet.
9. Xo‘jayeva L. Notiqlik san’ati. Toshkent, O‘zMK, 1967.
10. Xodjimatoeva M.K. Sahna nutqi. O‘quv qo‘llanma, Toshkent, “Yangi asr avlodi”, 2007, 171-bet.
11. Станиславский К.С. Работа актёра над собой. Москва, “Искусство”, 1955, с. 468.

Egamberganova Dilnoza Davronbekovna (UrDU tadqiqotchisi)

ABULHASAN MOVARDIY MILLIY AXLOQIY MEROSINI O‘RGANISHNING TARIXIY-RETROSPEKTIV JIHATLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada, Al-Mavardiyning hayoti va ijodi va uning insonlar o‘rtasidagi axloqiy munosabatlarni mustahkamlash borasidagi g‘oyalari, allomaning davlat, jamiyat va inson hamda axloqiy-pedagogik qarashlariga oid fikr-mulohazalari tahlil etiladi.

Аннотация. В статье анализируются жизнь и творчество Аль-Маварди и его идеи об укреплении нравственных отношений между людьми, а также размышления Алламы о государстве, обществе, человеке и морально-педагогических взглядах.

Annotation. This article analyzes al-Mawardi’s life and work and his ideas on strengthening moral relations between people, and alloma’s views on the state, society and human and moral-pedagogical views.

Kalit so‘zlar: ma’naviy-axloqiy, siyosiy an’analar, islom liberalizm, didaktik an’analar, “hukmdorlarga o‘g‘itlar”, “hukmdorlik ko‘zgulari”, ilmiy-madaniy meros, hukmdor va jamiyat.

Ключевые слова: духовно-нравственные, политические традиции, исламский либерализм, дидактические традиции, “учения для правителей”, “зеркала господства”, научно-культурное наследие, правитель и общество.

Key words: spiritual-moral, political traditions, Islamic liberalism, didactic traditions, “precepts to rulers”, “mirrors of humiliation”, scientific-cultural heritage, ruler and society.

Oʻrta asr arab olimi va dinshunosi, mohir siyosatchi va diplomat Abu-l-Hasan al-Movardiyning (974–1058) ilmiy-madaniy merosi uzoq vaqtdan beri mamlakatimiz olimlari tomonidan katta qiziqish uygʻotib kelgan. Uning mashhur “al-Ahkom as-sultoniyya” risolasi azaldan davlat-huquqiy munosabatlar sohasida muhim asarga aylanib ulgurgan. Aynan shu asar tufayli al-Movardiy nomi musulmon sharqi intellektual anʼanalarini oʻrganuvchi koʻplab mutaxassislariga maʼlum. Shu bilan birga, boshqa maʼnaviy-axloqiy mazmundagi asarlar ham ushbu bagʻdodlik mutafakkir qalamiga mansub hisoblanadi. Soʻnggi paytlarda turli mamlakatlar kutubxonalari arxivlari va qoʻlyozma fondlarida saqlanayotgan allomaga tegishli boʻlgan baʼzi asarlar pedagogika tarixi sohasida faoliyat olib bolrayotgan olimlarda ham katta qiziqish uygʻotib kelmoqda.

Al-Movardiy 974-yilda Basrada tugʻilgan. Shofiʼiy tarixchisi al-Xatib al-Bagʻdodiyning aytishicha, uning otasi atirgul suvi savdosi bilan shugʻullangan. Al-Movardiy yoshligida ilohiyotni chuqur oʻrgangan. U Bagʻdodda Abdulhamid va Abdulloh al-Baqiy taʼlimotlari ostida oʻqishni davom ettirdi.¹ U fiqh (mu-sulmon huquqshunosligi)ni Abu al-Vohid as-Simariy va Abu Homid al-Isfarainiydan² oʻrgangan, soʻngra Bagʻdodda istiqomat qilgan. Basra va Bagʻdod moʻtaziliylar maktabining markazlari boʻlgan (Moʻtazi-liylar harakati VIII asrdan beri birinchi sunniy ilohiyot maktabi deb yuritiladi. Bu harakat qadimgi yunon falsafasidan ilhomlangan va mantiq va ratsionalizm bilan bogʻliq). Huquqshunos al-Subkiy al-Movardiyni bu maktabga hamdardligi uchun qoraladi.³

Mamlakatimizda Al-Movardiy asarlarining nafaqat yangidan nashr etilishi, balki uning asarlarining Yevropa tillariga boʻlgan tarjimalarini ham mahalliy olimlarimiz tomonidan oʻrganilishi bugungi kunda ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Biroq al-Movardiyning ilmiy-madaniy merosi pedagogika fani doirasida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarda, ayniqsa, mahalliy pedagog olimizlarimiz ilmiy izlanishlarida hali hanuz etarli darajada oʻrganilmagan. Arab tarixchisi Ibn Xallikon (1211–1282), oʻzining “Vafiyat al-aʼyan fi ‘anba’ ‘abna’ az-zaman” nomli qisqacha tarjimai hollari toʻplamida islom olamining eng mashhur kishilarining tarjimai holiga tayanib, al-Movardiy hayoti davomida oʻz asarlarini ommaga oshkor qilmagani haqida xabar beradi. U faqatgina oʻlimidan keyingina oʻz asarlarini ommaga eʼlon qilishni shogirdlariga vasiyat qilgan.⁴ Oʻrta asr biografining bu nuqtayi nazari boshqa manbalar tomonidan tasdiqlanmagan va ishonchsiz koʻrinadi. Biroq Al-Movardiyning muallifligiga nisbatan baʼzi bir shubhalar zamonaviy tadqiqotchilar tomonidan aniqlik kiritilgan.⁵ Bu kabi savollar, albatta, Al-Movardiy asarlarining asl maʼnosini qayta tiklash ishlarini murakkablashtiradi, lekin, ayni paytda, uning ilmiy-madaniy merosini ham, butun oʻsha davr islom madaniyatini ham ilmiy tahlil qilish uchun yangi ufqlarni ochadi.

Abu-l-Hasan al-Movardiy (oʻrta asr yevropaliklariga Alboatsen nomi bilan tanilgan) uzoq va voqealarga boy hayot kechirib, oʻz ortidan keyingi avlod uchun katta ilmiy-madaniy meros qoldirgan.⁶ Al-Movardiy ilohiyot olimi va huquqshunos sifatida bir qancha muhim asarlar yaratdi. Avvalo, ularga Qurʼon sharhiga bagʻishlangan “an-Nukat va-l-ʼuyun” va “Amsal al-Qurʼon” asarini koʻrsatish kerak. Shuningdek, “al-Havi [fi furu al-fiqh]” nomli fiqh sohasida fundamental va hali yetarlicha oʻrganilmagan risoladir.⁷ Shunga qaramay, olim oʻz hayoti davomida oʻzining taqdiri uchun kichik, ammo juda muhim “al-Ikna” asari tufayli mashhur boʻlganligi, bu asar nashr etilgandan soʻng al-Movardiy noyob faxriy unvonga sazovor boʻlganligi alohida qayd etiladi. Shofeʼiylikning ushbu huquqiy toʻplami, aftidan, al-Movardiyning shofeʼiy faqih sifatidagi professional nufuzini mustahkamlabgina qolmay, balki Abbosiylar xalifaligi poytaxti Bagʻdodda uning siyosiy taʼsirining kuchayishiga ham hissa qoʻshgan.

¹ Yves THORAVAl, MĀWARDĪ AL (mort en 1058), Encyclopædia Universalis [en ligne], consulté le 24 novembre 2015. URL: <http://www.universalis.fr/encyclopedie/al-mawardī/> [archive]

² Daphna Ephrat. A Learned Society in a Period of Transition: The Sunni _ulama_ of Eleventh Century Baghdad, SUNY Press, 3 août 2000 (ISBN 978-0-7914-4645-4, lire en ligne [archive]), p. 52.

³ Makram ABBES, De l'éthique du Prince et du gouvernement de l'État. Al-Māwardī, précédé d'un Essai sur les arts de gouverner en Islam, Paris, Belles Lettres, 2015, p. 20.

⁴ Khalidov A. Arabic Manuscripts and the Arabic Manuscript tradition. Moscow: Nauka, Vostochnaya Literatura, 1985 (in Russian), p. 87 – 88.

⁵ Ignatenko A. Social and Political views of Abu-l-Hasan al-Mawardi (New trends of Studies). Narody Asii I Afriki. 1989, № 4, p. 57 – 66.

⁶ Туманян Т.Г. Абу-л-Хасан ал-Маварди: теоретик права и политический мыслитель. Вопросы философии, № 8, 2016, с. 194 – 203; Туманян Т.Г. Трактат ал-Ахкам ас-султаниййа как источник политической теории ислама. “Вопросы философии”, №5, 2018, с. 172–178; Абу-л-Хасан ал-Маварди. Законы власти и религиозное правление. Выдержки из главы: Фи акд ал-имама («Об утверждении имама») трактата Ал-Ахкам ас-султаниййа ва-л-вилаят ад-диниййа («Законы власти и религиозное правление»). Перевод и примечания Туманяна Т. Г. “Вопросы философии”, № 5, 2018, с. 179–189.

⁷ Туманян Т.Г. Абу-л-Хасан ал-Маварди: теоретик права и политический мыслитель. “Вопросы философии”, № 8, 2016, с. 194 – 203.

Al-Movardiyning xizmatlari va islom bo'yicha nufuzli mutaxassis sifatida e'tirof etilishiga qaramay, uning ijodiy izlanishlari diniy mavzularda asarlar yozish bilan cheklanib qolmadi. Shunday qilib, ilohiyot olimining filologiya fanlariga ochiq qiziqishi ilmiy izlanishlarda tasdiqlandi. Bunday kamida ikkita asar ma'lum – "al-Amsal va-l-hikam" risolasi va arab tiliga oid "Kitob fi-n-nahv" asaridir. Biroq, bu ko'zga ko'ringan arab olimi va yozuvchisi ijodini tadqiq qiluvchilar bugun, avvalgidek, Al-Movardiyning ijtimoiy-siyosiy risolalariga ko'proq murojaat qilmoqdalar. Bizga ma'lumki, Al-Movardiyning kasbiy faoliyati nafaqat ilohiyot va fiqh ilmlarini o'rganish, balki siyosiy sohada mohir diplomat bilimi va iste'dodini amalda qo'llashdan iborat bo'lgan.¹ Abbosiylar hukmdorlarining uzoq yillar maslahatchisi bo'lgan Al-Movardiy davlat va huquq nazariyasi bo'yicha asarlar yaratgan bo'lib, undan asosiy maqsad xalifalikdagi hokimiyat tizimi haqida yaxlit nuqtayi nazarni shakllantirishdan iborat edi. Aytish mumkinki, Al-Movardiy siyosat amaliyotchisi bo'lib qolavergan holda, unga shariat asoslarini berishga harakat qilgan, nazariyotchi olim sifatida siyosiy-huquqiy tafakkurni ko'p hollarda yetishmaydigan pragmatik realizm bilan boyitishga hissa qo'shgan.

Al-Movardiy insonlar o'rtasidagi axloqiy munosabatlarni mustahkamlash borasidagi qarashlari o'ziga xos ma'noga ega. Nafaqat mazmun, balki janr jihatidan ham rang-barang bo'lgan bu asarlar ko'p jihatdan o'sha davr ma'naviy-axloqiy muhitining mazmun-mohiyatining ko'zgisiga aylandi. Ba'zi tadqiqotchilar ta'kidlashicha, Al-Movardiy ijodining dastlabki davri fors (sosoniylar) siyosiy an'analarning kuchli ta'siri bilan tavsiflanadi, bu esa Eron shia Buyidlar sulolasi tomonidan Bag'dodda hokimiyatni tortib olishi bilan bog'liq. Abbosiy xalifalari vakolatlarining sezilarli darajada cheklanishi ham bunga sabab bo'lgan. Shu bilan birga, uning axloqiy ta'limoti islom liberalizmi bilan bog'liq jihatlarni o'z ichiga qamrab olganligi ham e'tiborga molik.

Fors adabiy merosining Al-Movardiy ijodiga ta'sirini inkor etib bo'lmaydi. Bu adab didaktik an'analari, to'g'rirog'i, odatda, "hukmdorlarga o'gitlar" yoki "hukmdorlik ko'zgulari" deb ataladigan janrda yozilgan bir qancha asarlarda to'liq seziladi. Al-Movardiy asarining tadqiqotchilari unga "Nasixat al-muluk" risolasining muallifligini, shuningdek, aftidan, keyinroq, lekin mazmuni va taqdimot shakliga ko'ra o'xshash yana bir asari – "Tashil an-nazar va-ta" muallifi ekanligini alohida ta'kidlab o'tishadi.

"Nasixat al-muluk", aftidan, allomaning eng asosiy asari bo'lib, unda davlat boshqaruvining turli masalalari bo'yicha hukmdorlarga ma'naviy-axloqiy mazmundagi ko'rsatmalar mavjud. Shu bilan birga, al-Movardiy jamiyat va hokimiyat o'rtasidagi munosabatlarni shakllantirar ekan, nafaqat forslarning ilmiy-madaniy merosiga tayanadi, balki qadimgi yunon falsafasi elementlari aniq namoyon bo'lgan turli metaforik misollarga ham alohida e'tibor qaratadi. Uning nuqtayi nazaridan, hukmdor va jamiyat yagona inson organizmi sifatida harakat qiladi, bu yerda "podshoh boshdir... va odamlar boshqa tana a'zolaridir" va ular bir-birisiz yashay olmaydilar. Shunga o'xshash qarashlar Yevropa siyosiy va falsafiy an'analari Aflotun davridan boshlab ilgari surilib kelinmoqda. Davlatning bu organik konsepsiyasi kamida ikki jihatdan alohida ajralib turadi. Birinchidan, Al-Movardiy ilohiyotchi va huquqning diniy talqini nazariyotchisi bo'lganligi sababli, o'z qarashlarida barcha uchun ma'lum bo'lgan sodda dalillarga asoslangan. Ikkinchidan, bu ma'naviy-axloqiy mazmundagi qarashlar allomaning davlat, jamiyat va inson munosabatlari doirasidagi fikr-mulohazalarida o'z ifodasini topgan. Binobarin, jamiyat, Al-Movardiy fikricha, hukmdorga to'liq ishonishi va unga itoat qilishi, uni har tomonlama qo'llab-quvvatlashi va hurmat qilishi kerak, lekin unga qarshilik ko'rsatishga yoki unga qarshi chiqishga haqqi yo'q. Alloma davlatni katta oila bilan qiyoslagan va unda yashash zarurligini aql-idrokli insonlarning tabiatidan kelib chiqadigan zarur intilishi sifatida qaragan. Ko'rinib turibdiki, Al-Movardiy haqiqatan ham davlat va jamiyat barqarorligini ta'minlash masalasiga alohida e'tibor qaratadi, davlatda qonun va tartibni saqlash faqat mumkinmalik (podshoh, xo'jayin, suveren), "adolatli xalifalar" davrida ishlab chiqilgan boshqaruv tajribasi va qoidalariga, shuningdek, qadimgi fors siyosiy an'analari asoslangan holda o'z qarashlarini ilgari surgan.

Ibn as-Saloh ash-Shahrezuriy Al-Movardiyni tafsiridagi ba'zi qarashlari Basra ahlining mayllariga ko'ra mo'tazila qarashlari bilan bir-biriga to'g'ri keladi, deb uni yashirin e'tizolda ayblagan edi. Movardiyning mo'taziliylarni qo'llab-quvvatlagan degan fikr noto'g'ri. Chunki mo'taziliylar hadislariga tayangan holda, sunnatga zid mo'jizalarni va jannatning allaqachon yaratilganligini qabul qilib, Allohning zoti yagona va sifatleri abadiydir, degan qarashni qabul qilib, Qur'on ahlini rad etganlar. Qur'onni sunnat bilan bekor qilib bo'lmaydi, chunki musulmon kishi bu xatti-harakati tufayli dindan chiqib ketishi mumkin.

Shofe'iy mazhabi xotirasi hisoblangan "Ashobul-vucuh"lardan bo'lgan Al-Movardiyning fikricha, ijthod farzi kifoyadir. Agar ijthod qilishga bilimi yetarli bo'lmaganlarga bu masala yuklansa, tartibsizlik va fitna sodir bo'ladi, shariat to'xtab, ilm ahli undan uzoqlashadi. Oldingilarning fikriga amal qilish, taq-

¹ Туманян Т.Г. Абу-л-Хасан ал-Маварди: теоретик права и политический мыслитель. "Вопросы философии", № 8, 2016, с. 194 – 203.

lid qilishdan ko'ra ijthodni afzal ko'rishi haqidagi ogohlantirishga javob berganligi haqidagi rivoyat mu-tafakkirning bu boradagi masalaga o'ziga xos qarashini aks ettiradi. Muftahid qozi uchun turli mazhab-lardan tanlash joiz bo'lishi uning mutaassiblikda qolmaganligini ko'rsatadi. Hadis ilmiga nozik yondashi-shi tushunilgan Al-Movardiy ijizat va mukataba orqali rivoyatni hadis safariga to'sqinlik qiladi, deb rad etadi.

Aql axloq va diniy farzning asosi bo'lgani uchun dindan avvalroq turishini ta'kidlagan Movardiy, ehtimol, hokimiyatdagilarning qandaydir noto'g'rilikni qonuniylashtirishga urinishiga yo'l qo'ymaslik uchun axloq "inson qalbida yashirin va turli sabablarga ko'ra yuzaga keladi" degan edi. Xulq-atvor va no-haq amallarni, ayniqsa, ba'zi Umaviy hukmdorlari qilganidek, buni "zohiriy shaxs (ahlohu'z-zat) bilan irodali xatti-harakatlar" deb ta'riflaydi. Shaxsning ham ikki jihati bor: tabiatdan kelib chiqqan xususiyat-lar (g'ariy) va orttirilgan xususiyatlar. Uning fikricha, mutlaq fazilatli yoki yomon odam yo'q. Fazilatli kishining fazilati, fosiqlik esa uning sharmanda bo'lishidir.

Haqiqiy savobli fazilatlar bu o'z mehnati bilan erishilgan fazilatlaridir. Ham diniy, ham dunyoviy manfaatlarni qamrab olish nuqtayi nazaridan insoniy darajalarning eng sharaflisi bo'lgan payg'ambarlik mansabiga eng komil axloqiy fazilatlariga ega bo'lgan insonlar, eng sharaflil avlodlar hisoblanadi. Undan keyin kelgan imom va amirlarning payg'ambarlik xususiyatlari bilan shakllantirilishi, bu lavozimlarga o'ng qo'l xalifalar kabi fazilatli shaxslar keltirilishi farzdir. Bu yondashuv siyosatning eng muhim kasb sifatida ko'rsatilishi sababini ham ochib beradi. Movardiyning o'z ajdodlarining olijanoblighi va homiyli-gining buyukligi nuqtayi nazaridan hukmdorlarning tug'ma fazilatleri oddiy xalqdan ko'ra ko'proq yaq-qol namoyon bo'ladi, degan edi. Qolaversa, xalifa bo'ladigan kishilarda nasl-nasab holatini izlash ham tug'ma fazilatlar hukmronligining, ham davlatning barpo etilishi va saqlanib qolishida bunday xatti-ha-rakat zarurligining yashirin belgisi bo'lishi mumkin.

Raxmatova Dilnavoz Jurakobilovna (PhD, Qarshi davlat universiteti tuzilmasidagi "Qatag'on qurbonlari xotirasi" muzeyi direktori)

"PAXTA ISHI" KAMPANIYASINING PAYDO BO'LISH OMILLARI MUTAXASSISLARNING ILMIY TADQIQOTLARIDA

Annotatsiya. Sovetlarning O'zbekistonda olib borgan qatag'onlik siyosati va uning mudhish oqi-batlariga oid fojiali voqealıklar mustaqillik yillarida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida o'z aksini topmoqda. XX asrning 80-yillariga oid qatag'onlik siyosatini o'rganishda arxiv fondlarida mavjud man-balarga asoslanib, tarixiy nuqtayi nazar bilan davr siyosatini inobatga olgan holda voqealıklarga obyekt-iv baho berildi. Maqolada "Paxta ishi" kompaniyasining vujudga kelishi omillari, dastlab, Andropov-ning "Rashidov ishi", "Paxta ishi" bahonasida boshlangan operatsiyasi, so'ng uning "O'zbeklar ishi"ga aylanish jarayoni hamda Qashqadaryoda ushbu to'lqinning yoyilishi xususida fikr yuritilgan.

Аннотация. Трагические превратности советской политики репрессий в Узбекистане и ее последствия отражены в результатах научных исследований, проведенных за годы независимос-ти. При изучении политики репрессий, начиная с 80-х годов XX века, была дана объективная оцен-ка реалий на основе имеющихся источников в архивных фондах, с учетом политики того периода с исторической точки зрения. В статье нашли отражение факторы возникновения кампании "Хлопковое дело", сначала операция Андропова, которая началась под предлогом "Дело Рашидо-ва", затем процесс превращения ее в "Узбекское дело", а также распространение этой волны по территории Кашкадарьинской области.

Annotation. The tragic vicissitudes of the Soviet policy of repression in Uzbekistan and its conse-quences are reflected in the results of scientific research conducted during the years of independence. When studying the policy of repression, since the 80s of the twentieth century, an objective assessment of the realities was given on the basis of available sources in archival funds, taking into account the policy of that period from a historical point of view. The article reflects the factors of the emergence of the "Cotton affair" campaign, first the Andropov operation, which began under the pretext of the "Rashidov case", then its process of transformation into the "Uzbek case", as well as the spread of this wave across the territory of the Kashkadarya region.

Kalit so'zlar: "Rashidov ishi", "O'zbeklar ishi", "Paxta ishi, Sho'ro hukumati, Sobiq Ittifoq, KPSS Markaziy Qo'mitasi, O'zbekiston SSR, Y.Andropov.

Ключевые слова: "Дело Рашидова", "Узбекское дело", "Хлопковое дело", Советское прави-тельство, бывший Союз, ЦК КПСС, Узбекская ССР, Ю.Андропов.

Key words: "Rashidov case", "Uzbek case", "Cotton case", Soviet government, former Union, Central Committee of the CPSU, Uzbek SSR, Y.Andropov.

Kirish. Sho‘ro hukumatining turli bahonalar bilan tortib olish, zo‘rluk o‘tkazish, tuhmat qilish, jazolash, bu bilan xalqni ezish uchun ishchi guruhlarni yuborish uslublari uyushtirilgan qatag‘onlik bosqichlarining har bir davrida qo‘llab kelingan. 1980-yillar o‘rtalarida yuz bergan qatag‘onlikning so‘nggi bosqichi ham siyosiy tusda bo‘lib, tergov o‘tkazish va jinoiy javobgarlikni bo‘yniga qo‘yish choralari bilan amalga oshirildi.

1980-yilning o‘rtalariga kelib, sobiq markazda nashr etiladigan jurnal va gazetalarda [1] ketma-ket tarzda O‘zbekiston SSRda sodir etilayotgan korrupsiya holatlari haqida tanqidiy maqolalar chop etila boshladi. Bu rukndagi tanqidiy maqolalar millat sha‘ni va qadr-qimmatini oyoq osti qilishga qaratilgan edi. Ushbu bo‘layotgan voqealar xalqni sarosimaga sola boshladi. Zero, mana shu zamin uchun, davlat uchun deb, jonini bergudek, kecha-yu kunduz xizmat qilayotgan mehnatkash o‘zbek xalqining keskinlik bilan qoralanishi kutilmagan holat edi. Ana shu o‘zbek xalqi sobiq Ittifoqni o‘z vatani deb ko‘rib, markaz tomonidan berilgan barcha topshiriq va talablarni itoatkorlik va sodiqlik bilan bajarib kelayotgan edi. Sharoitsiz dala shiyponlarida yil davomida farzandlari bilan birgalikda ter to‘kib xizmat qilib, mamlakat xirmoni uchun hissa qo‘shib kelayotgan oddiy xalq dab-durustan qoralandi. Albatta, har qaysi millat ichida nafsi buzuqlar uchrashi, tabiiy. Biroq bunday insonlarning qilgan ishlari ta‘sirida butun xalqning taqdirini hal qilish adolatsiz qaror bo‘ldi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. “Paxta ishi” degan qatag‘onlik siyosati nimadan boshlandi? Ushbu fikrlarni tahlil qilishda qator tadqiqotchilarning fikrlari o‘rganildi.

Aslini olganda, markazning O‘zbekistonga uyushtirgan oxirgi bosqichdagi qatag‘onlik siyosati 1980-yildan biroz avvalroqqa to‘g‘ri keladi. “Ogonyok” jurnalining 1989-yil 1–2-sonida O‘zbekiston SSRda kadrlar masalasi bilan shug‘ullanish, chamasi, 1960-yillardan boshlanganini keltiriladi [2.27–30]. Shu o‘rinda “Literaturnaya gazeta” muxbiri Yuriy Shyekochixinning militsiya podpolkovniki Aleksandr Gurov bilan suhbatida quyidagi fikrlari ushbu ma‘lumotni to‘ldiradi: “Mafiyaning birinchi belgilari iqtisodiy mexanizm shakllanayotgan paytga, ya‘ni N.Xrushev boshqaruvi davrida paydo bo‘ldi. 1960-yillarda mafiyaning alohida belgilari haqida gapirilgan bo‘lsa, 1970-yillarda kelib, u ijtimoiy hodisaga aylandi. Bu davrga kelib, davlat budjetidan borgan sari tobora ko‘proq pul shaxslar qo‘liga o‘tib, o‘zlashtirila boshladi”, deyiladi [3.13].

